

Shuhrat

JANNAT QIDIRGANLAR



2021/02-98



SHUHRAT

JANNAT QIDIRGANLAR

«ZUKKO KITOBXON»
TOSHKENT - 2021

UO'K 821.512.133-31

KBK 84(50)6

Sh 97

Shuhratning "Oltin zanglamas" asarida ma'rifat sohibi – o'qituvchi degan sharafli kasb ulug'lansa. Shuningdek ko'pgina asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. U O'zbekiston xalq yozuvchisidir.

O'ylaymizki ushbu kitob Siz aziz kitobxon muxlis va muxlisalarimizga yana bir bor maroqli mutoala in'om etadi deb o'ylaymiz.

ISBN 978-9943-6313-7-3

© Shuhrat, 2021
© «ZUKKO KITOBXON»
nashriyoti, 2021

48449
593

2/62
93
Alsher Navoiy
nomidida
zbekiston

TULKI TUMSHUG'IDAN ILINDI

Bir ehtiyotsiz hodisa sabab bo'lmaganda A'zam Nafisaga uylanmagan bo'lardi.

U osmonda edi, osmonda bo'lmaganida ham o'zini shunday his qilardi. U shunday kishiga, yoki shunday oilaning qiziga, jilla bo'lmaganda, qarindoshiga uylanishi kerak ediki, bu qarindoshlik uni amal va obro' cho'qqisiga sakrashiga bir trampin rolini o'ynasin. Esini tanibdiki shu niyatda. Studentligida bir qiz bilan donlashib yurdi. Qiz nihoyatda chiroyli edi. Hatto muallimlar orasida ham uni ko'zi ostiga olib qo'yganlar bor ekan. Lekin qiz A'zamni ma'qul topib, u bilan uchrashib turdi. Bu orada A'zam o'z andazasiga solib o'lchab ko'rsa, qizning na oilasida, na urug'-aymog'ida «trampin» bo'ladigan kimsa bor; qiz institutni tugatsa urug'da o'rta barmoq bo'lib ko'zga tashlanadigan odam shu bo'ladi. Bundan ko'nglining bir tomoni cho'kkan bo'lsa ham, A'zam qorong'ida qora, yorug'da oq ko'rinib, umidini uzib ketmadi. Uning husni langar bo'lib qirg'oqdan uzoqlashishga qo'ymasdi. Lekin shu orada, bir o'rtog'ining to'yida boshqa bir qiz bilan ko'z urishtirib qoldi. Qiz ham ortiqcha gojlik qilmay, uchrashuvga rozi bo'ldi. Uchrashishdi. A'zam ko'rinib turgan husni, barvas-taligidan tashqari o'z ichki fazilatlarini ham ochib tashladi. Qiz ham xuddi shunday yigit uchun yaratilga-nu,

vaqti-soati kelguncha yakka yurgandek chippa yopishdi-qo'ydi. Uning tog'asi katta amaldor, amaldor bo'lganda ham qayerga uzatsa qo'li yetadi, nima desa so'zi o'tadi. A'zam uni orqavarotdan tanib, bir marosimda uchrashib, jinday rovish ham qilib qo'ydi. Tarqalish vaqtida u bilan quyuq xayrlashdi, orqasi bilan ancha yergacha yurib bordi, yuzini tabassumga to'ldirib, qo'lini ko'krigidan uzmadı.

– Zap tog'angiz bor ekan-da, – dedi qiz bilan er-tasiga uchrashganda ochilib, – biram xushmuomala, biram madaniyatli ekanlar, lablaridan bol tomadi. Bu-naqa odam bilan yo'i yurib adashsang, naq jannatning o'zginasidan olib chiqadi. Yo tavba, uch soat yonlarida o'tiribman, bir lahzadek o'tib ketibdi-ya, yuzlaridan nur yog'iladi. Farishtali odam deb shunaqalarni aytsa kerak-da, a? Sizlarnikiga ko'p kelib turadilarmi? Oyingizga aka bo'ladilarmi, uka?

– Akalari. Kelib turadilar, lekin ko'p emas.

– Nega unaqa qiladilar? Men sizning o'rningizda bo'l-sam tez-tez keladigan qilib olardim.

– Ho, – dedi nozlangandek qiz, – xolalarimdan baloga qolarman. Oyimlardan boshqa yana beshta opa-singillari bor. Rasamadi bilan borib-keladilar-da.

A'zam go'yo shu qizga uylanganu, arzanda jiyankuyov bo'lmaganiga o'kingandek ichida xolalarini koyib qo'ydi. Qani endi yolg'iz toyloq bo'lib tog'ani emsa! Darrov o'ziga dalda berdi: bu yog'i o'zimga bog'liq, kosovida kirib, kuli bilan chiqib tursam menga boqmay, kimga boqadi.

Lekin... Lekin qiz bir ko'rganda jiz etib jigar-bag'ring-dan oladigan chiroyli emas, sovuqroq. buning ustiga chillak oyoq. sal lapanglabroq ham yuradi. Shu tomonini o'vlaganda A'zamning ko'ngli xira tortar, izzat-nafsi kam-

sitilganga o'xshardi. Axir mavqeli odamning xotini ham chiroyli bo'lishi kerak-da.

A'zam ikki o't o'rtasida edi: yo chiroyli xotinu o'zing uchun o'l yetimlik, yoki chillak oyoq, sovuq xotinu obro' va amal. Ikkisi ikki barmoq bo'lib, qaysi birini tishlasa shunisi og'rir edi. Ancha vaqt boshi qotib yurdi. «Ey xudo, shu amaldor chiroyligining tog'asi bo'lib qo'ya qolsa nima qilarkan!» deb o'kinib, na unisining, na bunisining boshini ochib qo'ydi. Lekin maqolda «ikki kishini teng quchoqlagan biridan ajraladi» deyilsa ham, A'zam ikkalasidan ajraldi. Avval chillak oyog'i uning egar-jabdug'ini yig'ib qo'liga tutdi:

– Qani, tuyog'ingizni shiqillatib qoling – sheriklik osh qornimni og'ritadi.

A'zam gangrab, «hoy-hoy, o'zi nima gap?» deguncha qiz etagini qoqib jo'nadi. Xuddi shuning ertasiga chiroyli ham o'shqirib, har qadam bosishidan qahr-g'azab yog'ib va'daga keldi. Salom o'rnida:

– Uyatmasmi? – dedi va yig'lamsirab bir-ikki tarsaki qo'yib yubordi, – munofiq!

A'zam yuzini ushlagancha qolaverdi. Bu ikki zarba A'zamning ko'zini moshdek ochdi. Ancha vaqtgacha biror qizga gap tashlagani yuragi betlamay yurdi, hatto sotuvchisi ayol bo'lgan magazinlarga ham kirmadi. Lekin vaqtdan yaxshi dori yo'q: ne-ne jarohatlarni davolaydi. Ne-ne achchiq alamlarni unut qiladi.

A'zam institutni bitirib, injenerlik diplomini qo'liga tegishi bilan o'zini yana boshqacha his eta boshladi, go'yo butun gaplar o'sha studentlik bilan, institut dargohida qolib ketdi. Endi o'z niyatini ro'yobga chiqarsa bo'ladi. Lekin baribir o'sha hodisa ko'nglining allaqaysi burchagida chag'ir tosh bo'lib yotardi. Albatta endi u ilon chaqqan kishidek har ola arqonga gumonsirab boqadi. Shunday bo'lsa ham bir-ikki qizni cho'qilab tashlab ketdi, go'yo u

o'z tengini qidirardi. Ba'zi bir o'rtoqlari ta'na qilishsa, axir itlar o'ziga jo'ra topguncha qancha bir-birini hidlashadi-yu, axir biz odammiz, tabiatning oliy san'ati! – deb falsafa sotardi. Shu tufayli bo'lsa kerak, studentlikdagi ba'zi bir o'rtoqlari uni tashlab ketishdi. Lekin bunga A'zam ortiqcha parvo qilmay, «hozir oddiy injenerman, shunday qilishyapti, sal badanimga nam yugurib, stulim kresloga almashsin, hammasi hid bilgan qumursqadek o'rmalashib qoladi», deb o'ziga tasalli berib yurdi. Ne ajabki, uning stuli kresloga hadeganda almashmas, niyati ufqqa o'xshab, u intilgan sari nariga ketib borardi. Bo'lmasa u tinch yotgani yo'q: boshlig'iga salomni hammaniki-dan quyuqroq beradi, uyini, bola-chaqasini so'rab turadi, bayramlarda idorada tabriklagani yetmagandek, uyiga alohida mehri barq urib turgan telegramma yuboradi, komandirovkaga ketsa kuzatib, kelsa kutib turadi. Intizomi yaxshi, ishiga ham bajonu dil kirishadi-yu, nazarga tushmaydi. Kimdir uning olchi oshig'ini chikka qilib qo'yayotganga o'xshaydi, qadriga yetmayotgandek. Bu narsa mushuk bo'lib ichini timasa ham, «sabr qil, azizim, har narsaning o'z mavridi bor. Tuvakda bevaqt ochilgan gul, banbir, gul emas, salga so'ladi», deb o'zini bosib yurardi.

Lekin u barq urib, mangu ochiladigan fursat qachon kelishini entikib kutardi, ba'zan diqqinapas bo'lib ketardi. Bu diqqinapaslik shishaning bo'g'zini ushlatdi. Ana shunda murodi maqsadiga yetayotgandek yayraydigan bo'ldi. Ana shunday yayragan kunlaridan birida taksi yollab, orqa o'tirg'ichida oyog'ini tirab (go'yo rahbarining yurishiga taqlid va bir tomoni mashq qilib) kelayotganda bir ayol kishi qo'l ko'tardi. Shofyor:

– Olsam maylimi? – degan edi, saxiyiligi tutib ketib:

– Marhamat! – dedi.

Lekin mashina oynasidan o'rtta yosh bo'lib ko'ringan ayol yoshgina do'ndiq qiz ekan. Uning yo'li ters bo'lsa ham, A'zam rozilik bildirdi. Shofyor yelkasini qisib olgach, A'zamdanda so'radi:

– Unday bo'lsa, sizni oldin tashlab kelaman-da?

– Yo'q, madaniyatsizlik bo'lmasin, avval bu kishini. – Qiz «yo'q, yo'q!» deyishiga qaramasdan A'zam mashinani qizning yo'liga soldirib yubordi.

Qiz avvaliga qizardi, keyin minnatdorlik bildirdi:

– Boradigan joyingizga kech qoladigan bo'ldingiz-da, meniki judayam tiqilinch emas edi.

– Vokzalga emaski, poyezd ketib qolsa. Uygga qayt-yapman. Ish ko'payib, bir oz kechroq qolishga to'g'n keldi.

Qizi tushkur sho'xgina ekan, oldin bir kulib, ketidan so'z bilan chimchilab oldi:

– Yangamdan qo'rqar ekansiz-da!

– Oh, qani qo'rqsam ham, o'zlari bo'lsa!

– Qayoqqa ketganlar?

– Bilmasam.

– Voy, bu kishini qarang, o'z xotinlarining ketgan yerini bilmaydilar.

– Chunki menga xotin bo'ladigan qiz hali oyisining sochini o'rib, uyda o'tiribdi.

Qiz «Voy!» dedi-yu boyagidan ham battar qizarib ketdi, ko'zini yerga oldi.

Mashina chorrahaga kelganda birdan to'xtab, ikkala yo'lovchini ham qalqitib yubordi. Qizning tizzasidagi sumkasi yerga tushib ketdi. Rovish qilmoqchi bo'lib sumkaga engashgan A'zam boshini qizning boshiga urib oldi. Urilish zarbi idrokiga yetib borguncha, qizning yangi yuvilgan sochining hidi A'zamning dimog'ini qitqilab, etini jimirlatdi.

Bunday mushk-anbarni umrida ilk marta maftuni bo'lgandek qaddini ko'targanidan keyin ham uzun nafas

olib qo'ydi, qizning sochiga qarab namxushligini payqadi. «Yuvinib-taranib xuddi va'daga ketyapti», degan fikr xayolidan o'tdi, rashki kelgandek bo'ldi.

Qiz sumkasini o'zi yerdan olgan bo'lsa ham, A'zamga tashakkur bildirdi. A'zam shu yerdan ilib ketdi:

– Qilinmagan xizmatga rahmatingiz malol keladi, yaxshi qiz.

– Men engashmaganimda olib berardingiz-da.

– Albatta. Lekin o'zingiz oldingiz.

– Faraz qilamiz, siz olib berdingiz.

– Unday bo'lsa, rahmat! Qilmagan xizmatimni shunday yuksak baholadingiz. Qani endi sizga o'xshagan odam boshliq bo'lsa-yu, men qo'lida ishlasam.

– Nima, boshlig'ingiz yomon ko'radimi?

– Yo'q, lekin sizchalik qadrlamaydi.

– Kishi xizmatini qadrlamasa yomon rahbar ekan-da.

– Yomon desam insofdan bo'lmas-ku, lekin yoshlarga ishonqiramay qaraydi.

– Bu undan ham yomon! – dedi qiz shart kesib.

– U qanday rahbarki, hosil beradigan yosh novda tunganda kundaga kuch beradi.

A'zam bu gaplarni boshlig'i eshitib qolib, ta'zirini beradigandek hadiksirab, gap chalg'itdi:

– Agar sir bo'lmasa, o'zlari qayerda ishlaydilar?

– Butun mehru muhabbat yoshlarga berilgan joyda.

– Ya'ni?

– Ya'ni, bolalar bog'chasida, – kuldi qiz.

– O, albatta sizlarda yoshlar kaftda tutiladi. Qiz mashinadan tushib, shofyor bilan hisob-kitob qilayotib kulib qo'ydi:

– O'sha boshlig'ingizni bizga yuboring, besh-o'n kun praktika qilib ketsin.

A'zam darrov ildi:

– Kelardi-yu, adresingizni bilmaydi-da!

– Adresimiz shu ko‘rinib turgan oppoq bino. Qiz mayda qadam bilan yo‘lkadan borar ekan, A‘zam mashinadan boshini chiqarib yana tegishdi.

– Aytaman, albatta keladi.

Bu gal qiz indamadi, qayrilib ham qaramadi. Shunday bo‘lsa ham, A‘zamning qulog‘ida uning tovushi, dimog‘ida sochining mushk-anbari qolgan edi. Uch kun o‘tgach, bog‘chani so‘roqlab keldi. Qarshisiga peshvoz chiqqan qizga:

– Boshlig‘imizning ishlari ko‘p ekan, hozircha meni praktikaga yubordilar, – deb kuldi.

– Demak siz ham bir kuni kattakon bo‘lar ekansiz-da. A‘zamning «albatta!» deb yuborishiga sal qoldi, qizning bu gapı moydek yoqib, uni o‘ziga ancha yaqin his qildi.

Qizning ismi Nafisa, shu bog‘chaning mudirasi ekan. Ko‘rinishdan yosh va do‘ndiqqina bo‘lsa ham, aslida yigirma uch-yigirma to‘rtga borib qolgan, zuvalasi pishiq bu qiz A‘zamning didiga birdan o‘tirib qoldi. Hammadan ham uning shu bog‘cha yonida bir dugonasi bilan turishi, hozir dugonasining qishloqdagi kasal onasi oldiga ketgani uzugining yo‘qotgan gavhar ko‘zini topgandek yashnatib yubordi.

«Omadining kelgani shu! Uch-to‘rt kun oyog‘imni uzatib maishat qilib olsam birov bilib o‘tiribdimi! O‘zi ham menga o‘xshagan dilbar yigitga mushtog‘u uchratolmay yurganga o‘xshaydi, qani to‘rga o‘ting, mulla Mira‘zam boyvachcha!»

A‘zam ko‘ziga sodda va tayyordek ko‘ringan qizning u yengidan kirib, bu yengidan chiqdi. U suhbatni shunaqa eshib tashladiki, bechora qiz «izlaganim siz, A‘zamjon aka!» deb yuborganini o‘zi ham bilolmay qoldi. A‘zamga shu kerak edi. O‘sha kuni jinday ichimlikdan keyin A‘zam qiznikida yotib qoldi. Ertalab Nafisa hovridan tushib peshanasini changaliadi. Oldiniga yig‘ladi, keyiniga:

– So‘z bitta-ya, A‘zamjon aka? – deb tundagi va‘dasini esiga soldi. A‘zam dilidan bo‘lmasa ham, tilida:

– Bo‘lmasam-chi, tentak! – deb bag‘riga bosib o‘pdi, Nafisaning ko‘zida yirik marjondek qalqib turgan yosh donasini barmog‘i bilan sidirib tashladi, lekin yuzida uzun izi qoldi.

Bo‘lar ish bo‘lguncha, issiq o‘rinning tapti ko‘tarilguncha A‘zam entikib Nafisa oldiga yelib-yugurgan bo‘lsa, kunlar o‘tgan sari Nafisa uni intizor kutib, u esa, va‘dani oralatadigan, shunda ham sovuqqina kelib-ketadigan bo‘lib qoldi. Nafisa bildiki, u orqaga tisarilyapti, va‘dalar puch. Masalani shartta qo‘ydi:

– To‘yni qachon qilamiz?

– Qanaqa to‘y? – talmovsiradi A‘zam. Nafisa shunday javobni kutganidan esankiramadi, oyog‘ini qattiqroq tiradi:

– Siz bilan mening to‘yim-da!

A‘zam tirnog‘ini tozalayotgan odamdek beparvo to‘ng‘illadi:

– Bitimga qilamanmi! Nafisaning xayoliga bir uchrashganlarida A‘zamning ko‘rsatgan omonat kassasi daf-tarchasi keldi. Unda anchagina pul bor edi.

Shuni esiga soldi.

– Sichqon tortib ketibdi, – dedi A‘zam yana o‘sha ohangda.

– Menga qarang, hazilni qo‘ying. Har qancha hazilu chin bo‘lsa o‘tib bo‘ldi. San-manga borib, o‘rtadagi hayo pardasi ko‘tarilmasin, men sizga yetti mahallaga osh bering, qo‘sh surnay yollang deyayotganim yo‘q. Qaysi ahvolimga chiranaman... – dedi ko‘ziga yosh olib Nafisa, kichkinagina vecher qilaylik, besh-o‘nta tanish-bilish bo‘lsa bo‘ldi.

– Kichkinagina vecher?! – burgadek sapchib tushdi A‘zam, keyin men boshimni ko‘chada qanaqa qilib ko‘tarib yuraman, paranjiga kiranamanmi?

– E, xotinlarga yo‘q paraji sizga qayoqda! – ko‘zida yosh bilan kulgiga oldi Nafisa. Lekin A‘zam o‘zgarmadi. Chunki uning esidan va‘dalar erta tong tumanidek yo‘qolib bitgan, aslida Nafisaga uylanish niyati yo‘q edi. Axir Nafisa uning andozasiga sal ham to‘g‘ri kelmas edi: tafovut fil bilan qumursqacha! Uning boshidagi rejasi ham uch-to‘rt kun ko‘ngilxushlik qilish edi-da. Qiziq ustida ba‘zi so‘zlar og‘zidan chiqib ketsa ketgandir, qog‘ozga yozib, ostiga muhr bosib beribdimi!

– Bo‘lmasa tuzukroq qilaylik, mening ham ozgina jamg‘armam bor.

– Nima?! – izzat-nafsiga tegayotgandek jerkib tashladi A‘zam, – bir kamim xotin zotidan qarz bo‘lish edi!

– Nega qarz bo‘lasiz, – uni yumshatmoqchi bo‘ldi Nafisa, – to‘y bitta siznikimi...

Nafisaning o‘ziga teng qilayotgani unga battar alam qildi:

– Hoy, menga qara, ko‘p jibljibonlik qilaverma, maqsadingni ayt!

– Maqsadimiz bitta!

– Hech qachon bitta bo‘lmagan!

– Qachondan beri?

– Boshidan!

– Va‘dalarimiz ko‘pikmidi?

– Senga hech qanaqa va‘da bermaganman!

– Uyaling! Shu gapga qanday tilingiz boryapti?

Men buni ko‘tarib qayoqqa boraman? El-yurt oldida qanday boshimni ko‘tarib yuraman.

– Oldirib tashla!

Nafisa yig‘ladi-yalindi, yalindi-yig‘ladi. Lekin A‘zamning bemehr ko‘ngli yumshamadi. Suv sepilgan sementday battar tosh qotdi.

«Itidan bo‘lgan qurbonlikka yaramas!» deb g‘azablangan Nafisa doktorga uchrashdi, bolani oldirib tashla-

ganı yo'l qidirdi. Lekin doktorlar «kech, vaqti o'tibdi» deb abortga rozi bo'lmadi. Keyin, birinchi bolani olib tashlash xavfliligini, kelajakda ziyon berishini aytib, uni bu yovuz niyatidan qaytardilar. Unga boshqa maslahat berdilar, bu maslahatlar Nafisani ona bo'lishga – bemehr bir erkakni deb, norasidasini nobud qilmaslikka undardi. Bu insoniy undash, insofga chaqirish Nafisaning ko'ngliga olov bo'lib quyilib, dimog'idan tutun bo'lib chiqardi, har mo'yini bir nafrat tig'iga, har nafasini g'azabga aylantirardi. U umrida bir marta va ilk marta sevgan kishisidan kelgan bu noshukurlik va pastlikka aslo ko'nikolmas, ko'nikish emas, kun o'tgan sari alamga aylanardi. Bu alam uni qasos olishga da'vat etardi.

«Ey taqdir, – deb bir kuni nola qildi u, – yetim qolib bolalar uylarida ota-ona mehridan bebahra o'sganim yetmasmidi? Menda nima qasding borki, shu ko'ylarga solyapsan? Yoki men bu hayotda ortiqchamanu adashib yashab yuribmanmi? Unday bo'lsa, mana bu begunoh murg'akka rahming kelsin, shuning g'amini yegin».

Ko'rsa, bunday tushkunlik bilan o'z baxti eshigini o'zi tambalab qo'yishi mumkin. Shunday tanbalaydiki, keyin o'zi ham ocholmaydi. Jim tursa suv buziladi, demak, harakat kerak.

Nafisa bu harakatni yana A'zamga uchrashuvdan boshladi (bu vaqtda u kelmaydigan bo'lib ketgan edi). Idorasidan dimog' bilan xomush chiqib kelgan A'zam salomiga ham alik olmasdan, «gaping bo'lsa gapiraver, ikkala qulog'im senda», degandek g'o'dayib turdi. Lekin bu gal Nafisa ham avvalgi uchrashuvlardagi kabi uning oyog'iga tashlanib, yig'lamoqchi emas, balki oyoq osti bo'lgan nomusini bir insoncha himoya qilmoqchi, kerak bo'lsa kurashga kirmoqchi edi. Buni Nafisaning avzoyidan sezgan A'zaming yuragi orqasiga tortib ketdi, bir chetga olib o'tmoqchi bo'lib, yurdi

– Menga shu yer ham bo'laveradi.
– Bu yoqqa yur!
– Rahmat! Xilvatga o'tib bo'lganman – og'zi-burnim to'la qon!

– Bu yoqqa kel, deyaqman.

– Baqirmang! Shirin so'zlaringizga ishonganman, do'qlaringizdan endi qo'rqmayman. A'zam orqasiga qaytishga majbur bo'ldi. Ular A'zam ishlaydigan katta binoning shundoqqina bo'sag'asida turishar edi. Har o'tkinchi A'zam ko'ziga bu ko'ngilsiz uchrashuvning guvohi bo'lib, ko'ngliga g'ulg'ula solardi. Buni sezgan Nafisa jo'rttaga gap boshlamas, uni uzil-kesil sinamoqda edi.

– Gapir, nima ishing bor! – A'zamning sabri tugadi.

– Nega shoshasiz? Yov bosib kelyaptimi? Sizni sog'indim, diydoringizga to'yib olayin deyaqman.

Fevral oyidek yigirma to'qqizingizni to'rt yilda bir ko'radigan bo'lib qolyapman. A'zam uning pichingini bo'ldi.

– Gapir! Gapirsang-chi!

Nafisa birdan jiddiy tus oldi:

– Gap shu, bola tug'ilguncha ham birga turolmaysizmi?

– Yo'q.

– Shu qat'iy-a?

Bu gal A'zam nima uchundir boshi bilan tasdiqladi.

– Keyin o'kinmaysiz!

– Nima, ustimdan arz qilasanmi? Guvohing bormi?

– Guvohim – vijdonim! Noinsof! Shunaqa degani uyalmaysizmi. bola uvoli tutkur!

Nafisa xuddi shu kuni A'zam ishlaydigan idoraning partkomiga uchrashdi. Partkom ayol kishi edi, Nafisa-ning dardiga darrov tushundi. Maslahat uchun direktor oldiga chiqdi. Direktor muloyimgina yurgan yigitdan shuncha shaytonlik kelganidan ajablandi. Suhbatga A'zamning o'zini chaqirdi. Chaqirilish sababini oldindan

bilgan A'zam rolini yod qilib kirdi-yu, tuzatib o'ynolmadi. Direktor vazminlik va donolik bilan uning ko'piklarini bir-bir o'chirib chiqdi.

– Yoshligingizni poklikka xiyonat bilan boshlasangiz u yog'i nima bo'ladi? Sizdan umidimiz katta edi, A'zamjon! O'ylang, juda puxta o'ylang. Eskilarning gapi bor: kishi ko'nglini nohaq og'ritish Makkaga tosh otib kelish bilan barobar, – dedi direktor va unga javob berdi.

O'zi partkomni huzuriga taklif etdi. Uni o'rnidan turib, kabinetni o'rtasida qarshi oldi.

– Shunday qobiliyatli injener shunaqa noma'qulchilik qilib o'tirsa, bu qiziq-ku, – dedi ajablanib u.

Partkom gap kim haqida ketayotganini darrov tushundi:

– Olasi ichida shekilli-da!

– Kechagi kvartaldagi ishini qarang, bir og'izdan ham-maga ma'qul bo'ldi-ya!

– Ana shuning uchun bu hangamani eshitganimdan beri hayron bo'lib, barmog'imni tishlayman. Har narsa deng, orqavartdan eshitsam ishonmasdim.

– Gap shunda-da, – uni yana quvvatladi direktor, – lekin uning kishi darrov tushunib yetmaydigan qiliqlari bor, buni anchadan buyon kuzatib yuraman, bir ko'rsang zukko, tadbirkor, xushfe'l, bir ko'rsang dimog' yetti qavat osmonda-yu, uncha-buncha kishini oyog'i uchida ko'rsatadi.

– Topdingiz, – unga qo'shildi partkom. – Hamma balo shunda. Mana shu keyingi xislati bosibroq yuradi. Bo'l-masa shunday qizga rahmi kelmasmidi?

– Surishtiringizmi, qanaqa qiz ekan?

– Uylansa haqi ketmaydi: risoladagiday!

– Zora uylangandan keyin taptidan tushsa!

– Shoyad?

Ikki kun o'tgach, direktor yana A'zamni chaqirdi:

– Xo'sh, qanday fikrga keldingiz?

A'zam hamon biror so'z aytishdan ojiz edi: axir Nafisa uning o'lchoviga kelmas edi-da! Buni direktor o'zicha tushunib, qamchini bosdi:

– Men qizni surishtirdim. Risoladagi qiz. Qattiqchilik ko'rib katta bo'lgan, yaxshi kunda yayrab-yayrab hayot kechiradi. Qani, to'yni qachon qilamiz?

A'zam gangib qoldi, labiga beixtiyor kulgi chiqdi: Endi...

– Endi-pendisi yo'q. Bu shanba o'tsin, endigi shanba bir bejirimgina o'tirish qilamiz. Xo'pmi?

Men o'rtoqlarga aytaman, sizga ko'maklashadilar. Kelinga mendan salom aytib qo'ying. A'zamning og'zidagi og'zida, bo'g'zidagi bo'g'zida qoldi. Direktor suhbatidan keyin o'sha o'zi bilgan Nafisa butun boshqa bo'ldi-qo'ydi, go'yo birov almashtirib ketdi. «Chindan boshqami?» – shu savol ko'nglini allaqaysi bir burchagida ingichkagina qora chiziq tashlab turardi. Direktor aytgan kuni to'y bo'ldi.

2

BEVAFO

Nazoratchining kamera eshigini kulib ochishini birinchi marta ko'rish. «Yo tavba, qayoqdan kun chiqdi», deb qo'lidagi kitobini bir chetga surgan Ummatali, nazoratchining «Qani yuring!» deganiga hayron qoldi. Chunki bugun shanba. Buning ustiga ish vaqti tamom bo'lgan, qorong'i tushgan. Tergovchilar avvalgidek hozir kechasi ishlashmaydi, hatto kunduzi ovqat vaqtida chaqirishmaydi.

Bu kutilmagan taklifdan hayron qolgan Ummatali ikki qo'lini quymichiga qilib, uning oldiga tushdi. Qanshari

past, bo'tako'z nazoratchining yuzidan hamon tabassum arimas edi. Bu esa Ummataliga dalda berdi, so'rashga jazm etdi:

– Tinchlikmi? Nima gap?

Umrida mahbus bilan gaplashish u yoqda tursin, basharasiga yolchitib qaramaydigan nazoratchi tap tortmasdan o'sha tabassumida:

– Tinchlik, yuravering! – deb qo'ydi.

Bu yaxshilik belgisi edi, qattiq qishdan so'ngilk bahorda birdan ko'ringan qaldirg'ochdek qalbini nurga to'ldirdi, yashnatib yubordi. Qanday qilib eshiklardan o'tganini, zinalardan chiqqanini bilmadi. Bir mahal qarasa, shu vaqtgacha kirmagan kabinetning eshigi oldida turibdi, nazoratchi undan oldin o'tib eshikni qiya ochdi, kirishga ijozat so'radi, keyin uni oldinga o'tkazib, o'zi ortidan kirdi.

Ummatali bu yaqin orada bir kabinetda shuncha rasmiy odamlarni ko'rmagan edi: leytenantdan tortib polkovnikkacha bor.

Ummataliga kiraverishda o'ng tomondan, burchakka yaqin yerdan joy ko'rsatishdi. Kutilmagan bu uchrashuvdan ko'zi tinib, butun vujudi quloqqa aylanib o'tirgan Ummatali asabdan kaftini kaftiga qo'yganda terlab ketganini bildi.

Yuqorida o'tirgan, stolining usti katta-kichik papkalar bilan to'la mayor gap boshladi:

– Xo'sh, ahvollar qalay?

– Yaxshi.

– Tergov tugab qoldimi?

– Yo'q, menimcha hali ancha bor.

– O'rtoqlar tugadi deyishyapti-ku?

– Yo'q. Ikki kishi bilan yuzlashtirishlarini iltimos qilganman, hali uchrashganim yo'q. Mening yo'q gunohimni zog'ora non qilib shishirgan o'shalar.

Boyadan beri befarqdek savol-javob qilib o'tirgan mayorning ko'zi atrofni yumshoq bir jilmayish bilan kezib chiqdi, keyin Ummataliga tikilib to'xtadi:

– Endi u zog'ora non guvohliklarning yuridik kuchi yo'q.

– Bor! – gojlik qilib, oyoq tiradi Ummatali. Go'yo u ko'rsatmalar o'z kuchida qolib, yana ayblanayotgan kishidek bezovtalanib, o'rnidan qo'zg'aldi:

– Baribir yuzma-yuz qiling.

– Yo'q, bizga ishoning, o'rtoq Qurbonaliev! Bu yaqin orada familiyasiga qo'shib aytilmagan «o'rtoq» so'zi butun badanini hayajondan zirqiratib yubordi, xo'riligini keltirdi. Chunki shu birgina so'zning ismiga qo'shib aytilishi taqdirining nima bilan hal qilinganini bildirib turardi.

Ummatali uyqudan nogoh uyg'otilgan kishidek gangib turar ekan, mayor aniqroq qilib yakun yasadi:

– Tergovingiz tugadi. Bugundan boshlab ozodsiz! Ko'pdan beri kutgan, ammo shu lahzada ro'yobga chiqishidan bexabar quvonchdan Ummatali shoshib qoldi. Rangi o'zgarib ketdi shekilli, mayorning ishorasi bilan unga stakanda suv tutishdi:

– Iching!

Mayor uni quvvatladi:

– Iching! Iching, yaxshi bo'ladi! Shuncha yillik tuhmat girdobiga bardosh bergan, e'tiqodiga qilning qiyig'icha ham putur yetkizmay irodasining kuchi bilan musaffo saqlab kelgan Ummatali, haq o'rnini topganda qo'llari titrab, stakandagi suvni arang og'ziga olib bordi, entikib bir-ikki ho'pladi. Muzdek suv birdan ko'zini moshdek ochdi. Mayor uni bu kutilmagan o'zgarishdan butunlay xalos etmoqchi bo'ldi shekilli, yana luqma tashladi:

– Ishonamizki, o'tgan-ketgan gaplarni ko'nglingizga olmasdan, avvalgidan ham o'tqizib o'z grajdanlik burchingizni o'taysiz. Bizdan nimaiki yordam kerak bo'lsa,

marhamat. Istagan paytingizda murojaat qilishingiz mumkin. Sizning hayotdan o'z o'ringizni tezda topib olishingiz uchun doim ko'makka tayyormiz.

– Rahmat! – dedi hayajondan arang Ummatali. Bu yangilik tomdan tarasha tushgandek qo'qqisdan bo'lmagan bo'lsa ham, Ummatalini ancha mahalga-cha gangitib qo'ydi, hadeganda o'zini yig'ib ololmadi. Kameraga tushib yig'ishtirilar ekan, mayorning «bugundan ozodsiz» degan so'zi ming bir ohangda hamon jaranglab turar edi. Kambag'al bo'lsang ko'chib boq, degandek, yig'ishtirilishga kelganda doim yuking ko'pga o'xshaydi, nimadir esingdan chiqib qolayotgandek bo'ladi, nimadir o'z joyiga joylashtirilmayotgandek ko'rinadi.

Ummatali ham qancha jadal bermasin shu ahvolda edi. Buning ustiga mahbusning kamerada hech narsani qoldirmasligi kerak, aks holda yana qaytib keladi degan o'z aqidasi bor. Lekin nima uchundir, qoshiqni qoldirishi shart. Garchand, bu irim-sirimlarga u ishonmasa ham, ko'ngliga g'ashlik solmaslik uchun hozir barchasini o'tashi lozim. Xuddi shunday qilib yig'ishtirildi-da, kameraning oxirgi marta ochilishini kutib, qulog'i daranglab ochiladigan zalvarli qulfida bo'ldi. Bunday paytda kishining his qilish a'zolari favqulodda sezgir bo'lib ketadi, har eshitgan tovush yoki harakatdan darrov yakun yasaydi, o'ziga tegishligini ajratib olib, yana entikadi. Ana boshqa bir kamera ham ochilib yopildi, har vaqtdagiga o'xshamagan baland gaplashish eshitildi. Demak, bugun yorug' dunyoning yorqin yuzini ko'radigan, nohaqlikning zim-ziyo tunidan qutuladigan, saldan keyin erkin nafas oladigan, har uchrashgan kishisiga murojaat etib, teng gaplashadigan yolg'iz ugina emas. Bu yana yaxshi. Dunyoda nohaqlik qancha kamaysa, tuhmat barham yesa, shuncha yaxshi. Inson umri ming yil emaski, uning besholti yilini g'am-g'ussada o'tkazsa, tuya badanidan yulin-

gan yungchalik sezilmasa. O'zi jindakkina. Bunga hech ham dog' tushmasligi, bir kuni ham zoye ketmasligi kerak. Har kim shuni o'ziga shior qilib, boshqalar uning umriga posbon bo'lganidek, u ham o'zgalar umrining manfaatini ko'zlasin, toki qarib-chirib bu dunyodan ko'zini yumayotganda vijdonida ignaning uchicha ham xiralik ko'rmasin. Bu inson qo'lidan keladi, bu unga qodir, u shu uchun aslida inson bo'lib yaratilgan, aks holda qashqirdek uv tortib, boyqushdek kukulaydigan bir maxluq bo'lib yaratilishi kerak edi. Bas, inson bo'lib yaratildingmi, insoncha yasha, insonlik qil, insoniy umidorzular bilan hayot kechir! Ummatali shunday oliy hislar og'ushida o'yi chuvalib, kamera eshigining ochilishini kutib o'tirar ekan, birdan xayoli xotiniga ko'chdi. Nega u so'nggi vaqtda xat yozmay qo'ydi? Men xatimda ehtiyotsiz biror narsa yozdimmi, ko'nglini og'ritdimmi? O'g'lim qalay ekan, yigitcha bo'lib qolgandir! Eshikdan kirishim bilan «dadalab» bag'rimga tashlanishi qanday zavqli! Xotinim qanday ko'rishar ekan, bo'ynimga tashlanarmikin yoki o'z beparvoligidan xijolat tortib, qo'lini berib qo'ya qolarmikin?

«Qo'rqma, xotin, oddiygina bir xat yozmaganing uchun sening ko'nglingni chilparchin qilib, siniqlari ustida shiddat bilan bosib o'tadiganlardan emasman. Bu axir kichkina sinov bo'lmadi, birovlar eri yoki xotini u yoqda tursin, oq sut bergan onasi, tirgak bo'lgan otasidan voz kechib yubordi! Seniki nima! Yozmasang, besh-oltita xat yozmabsan-da, shunga ham ota go'ri – qozixonami! Hammasi unutilib ketadi – kim qishda bo'lib o'tgan ikki kunlik qahratonni umrbod eslab yuribdi, bahorning ilk g'o'rasini totigan choqdayoq unut bo'lib ketadi. Axir o'rtada o'g'limiz bor-a! Sen bilan mening o'rtamizdagi arzimagan adibadidan uning ko'ngli zaxa bo'lishi mumkin. Ana shunga

ehtiyot bo'lishimiz kerak. Ahillik bor yerda temir ham suvga cho'kmaydi. O'tgan ishga salavot!

Eshik birdan daranglab ochildi. Ummatalining o'yi bo'lindi. Qanshari past, qozoq bashara o'sha nazoratchi boyagidek yumshoq tabassum bilan ostonadan bir qadam ichkari kirdi. Kamerani ko'zdan kechirayotib so'radi:

– Hech narsangiz esdan chiqmadimi? – tumbochka ustidagi siri ko'chgan, hatto bir cheti qachonlardir asabdan tishlangan yog'och qoshiqni ko'rib, kulib qo'ydi, – qoshiqni qoldirib yaxshi qilibsiz! Bu so'z Ummataliga ham kor qildi, yuziga nurdek mamnun kulgi yoyildi. Nazoratchining imosi bilan yukini ko'tarib, unga ergashdi. Nahotki shu nim qorong'i yo'laklardan so'nggi bora o'tib borishim! – degan fikr xayoliga kelib, yuragi bir hapriqib ketdi. Hujjatlarni olish ko'p vaqt o'g'irlamadi. Hammasi tayyorlab qo'yilgan ekan.

– Istasangiz bir oz sabr qiling, mashinamiz qaytib keladi, tashlab kelishi mumkin, – dedi hujjatlarni salmoqlab tushuntirib berayotgan kapitan.

– Rahmat! Uyim olis emas, – dedi Ummatali.

– Ixtiyoringiz.

Ummatali ko'chaga chiqqanda tun soat 11 bo'lib qolgan, odamlar harakati ancha bosilgan edi. Shunga qaramasdan nurga to'la ko'cha uning ko'ziga juda gavjum va fayzli ko'rindi. «Qaysi ko'chadan ketsam ekan?» deb turganda mart oyining yoqimli nafasi dimog'iga urib, kutilmaganda badanini cheksiz yashnatib yubordi. U osmonga boqdi. Aslida oydin bo'lsa ham, bahor bulutlari ag'darilib-to'ntarilib suzib borardi. Ana oyni to'sdi. Oyning g'ashi keldi shekilli, havaskor artist bola sahna pardasining o'rtasidan boshini chiqarib zalga qiziqib qaragandek bulutni yirtib mo'raladi, yana yopib, yana mo'raladi, oxiri o'zini to'sib turgan bulut pardasini yuzidan sidirib tashlab, butun jamolini mag'rur namoyish qildi, olam yorishib

ketdi, Ummatalining tepasidagi simyog'och chirog'ining rangi o'chgandek bo'ldi.

Ummatali yukini orqalab katta ko'cha tomonga yurdi. Unga mashina kerak edi, tramvayda ketishga sabri chidamaydi, tezroq uyiga kirib borishga ichikadi.

Chorrahada turib atrofga qaradi: anavi besh qavatli kulrang bino u qamalganda yo'q edi, ko'cha chetiga kiprikdek tizilib ketgan simyog'ochlar ham bunaqa emas, boshqacha edi: endi ularning uchi ko'cha o'rtasiga ishkomb bo'lib, lampochkalarni shokiladek ushlab turibdi. Yo'l bo'yidagi daraxtlar yo'g'on tortibdi, ostiga chambarak panjara yotqizilibdi. Ko'chalarga ham avvalgidan fayz kirgan, nimasi bilandir yaxshigina o'zgarganu, Ummatali payqab ololmayapti. Kishilarning yurish-turishi, o'zini tutishi ham uning ko'ziga allanechuk boshqacha ko'rinadi. Demak, hayot u yo'g'ida kamol topib borgan, o'sgan, o'zgargan, yangilik kashf etgan.

Ummatali shunday ko'tarinki ruhiy holatda ediki, har o'tkinchi odamni o'ziga yaqin his etar, har biri bilan suhbatlashadigan bir olam gapi bor, har birini u taniydi, har biri uni tanishi kerak. Lekin nima uchundir hozir, ular Ummatalini payqashmayapti. Lekin Ummatali umidini uzmaydi, har o'tkinchida allaqaysi tanishining belgisini ko'rib, to u oldidan o'tib ketguncha kuzatib turadi, hatto ba'zisiga «Siz falonchi emasmisiz?» deb yuborishiga sal qoladi. Shu orada u ba'zi mashinalarga qo'l ham ko'tardi, birortasi parvo qilmadi. Taksilar doim odam bilan to'la. Ummatali yukini ko'tarib, ko'chani kesib o'tdi. To xiyobon oralab tramvayga kelguncha qora terga botdi. Qayerga joylashini bilmaganidan kiyib olgan bushlatini yechib, yuki ustiga tashladi, hayajondanmi yoki ko'nikmagandanmi entikib, terini artdi, tramvay kutdi.

Boyadan beri oydan yiroqda ag'darilib-to'ntarilib yurgan bahor buluti yana uning yuzini to'sib, birdan chirog'i

o'chgan uydek hamma yoqni qorong'i bosdi. Allaqayerda hushtak chalib, keyin ostanovka asfaltini bir sidra birakayiga shipillatib supurib o'tgan muzdek yel endi Ummatalining etini junjitdi. Yelkasiga bushlatini tashlash niyatida yuki turgan skameykaga suqlanib boqib qo'ydi.

Shu mahal qarshidan shirakayf bir odam kelib, o'sha skameykaning bir chetiga og'ir cho'kdi. Boshidan shlyapasini olib, bo'yni aralash boshini ancha qashidi, yana shlyapasini bostirib kiyib, nafasi ichida uzoq vaqt qamaliq qolgan odamdek chuqur xo'rsindi.

Papiros olib tutatdi, tutunini shunaqa buruqsatib chiqardiki, hatto qorong'ida ko'rinib ketdi. Ummatali bushlatini yelkasiga tashlar ekan, haligi odam irg'ib o'midan turdi.

– Ummatali aka! – dedi va bunga ham qanoat qilmasdim, – o'rtoq Qurbonaliyevmisiz? – deya unga tashlanib, qo'lini oldi. Shu vaqt bulut ostidan birdan charaqlab chiqqan oy uning yuzini yoritdi, bu yorug'da Ummatali uni tanigandek bo'ldi:

– A'zam... ha, familiyangiz... – deya hijjalay boshlagan edi, A'zamning o'zi mushkulini oson qildi:

– Topdingiz! Familiyaning ahamiyati yo'q. Sizing o'rningizda boshqa odam bo'lsa, o'zganiki turib, o'zinikini ham bu to'polonda unutib qo'yardi. Ummatali uni endi esladi: bu yigit idorasidagi kishilar bilan har yili paxta terimi vaqtida Ummatali agronom bo'lgan sovxozga hasharga chiqib turardi. Oyoq-qo'li chaqqongina yigit. Terimdan ham ko'ra dastyorlik ishlarini ma'qul ko'rardi. Kotiba qizga tegajaklik qilib, sovxoz yigitlaridan kaltak yeyishiga sal qolgan. Keyinchalik o'sha yigitlar bilan apoq-chapoq bo'lib, bayramlarda tabrik telegrammalari yuborib turdi. Hatto ikkitasini o'qishga joylashda «otasi qilmagan yaxshilikni qilib» minnatdor etib qo'ydi. Sovxoz bir yili planini do'ndirganda shahardan bir to'da artistlarni boshlab chiqib, direksiyaning ham ko'nglini oldi.

Shu munosabat bilan sovxozda yaxshi tanilib qolgan, ba'zilar uni: «Uchar! Yulduzni benarvon uradi!» deb xush ko'rmasa, ba'zi birovlar: «Hozirgi kunga shunaqasi qo'l keladi. Suvda baliq, quruqlikda tulki bo'lmaganning kosasi oqarmaydi», deb, uning epchilligini ma'qul ko'rardi. Xullasi kalom, bir oz vaqt ichida birovga egilib, birovni egiltirib salom beradigan qilib oldi. Ayniqsa, uning dutor chalib jindek ashula qilishi ko'plarga ma'qul tushdi. Bu esa uni o'tirishlarda to'rga chiqarar, tilini burro qilardi, ko'plarni ohanrabo bo'lib o'ziga tortardi.

A'zam birpasda Ummatalining hol-ahvolini so'rab, qo'yniga kirib ketdi. Achchiq kuniga achinib, yaxshi kunlariga toj kiygizdi. Allakimlarning go'riga tosh qalab, al-lakimlarning soyasiga salom berdi.

– Obbo, siz-ey! Yaxshi bo'libdi! Butunlay oqland-ingizmi? Juda yaxshi. Dushmaningiz faryod urib, do'stingiz qarsak chaladigan ish bo'libdi. Shunga ham ancha yil bo'lib qoldi-a, Ummatali aka? – javob kutmasdan bir esnab yana gapga tushib ketdi.

– Hamma ayb la'nati Beriyada. Mana, oxiri nima bo'ldi! Yuqoriga tupursang mo'ylovingga, pastga tupursang soqolingga tushadi, deganlari shu. To'g'ri tupurgin edi... yo'q, u tupurolmadi, tupurgani qo'ymaymiz!

Bu gaplar Ummatalining hali yaxshi bitib ketmagan yarasini tirnash bilan barobar edi. Uning nafasi bo'g'ziga tiqildi:

– Qo'ying shu gaplarni, A'zamjon uka! Eshitgan quloqqa xunuk.

– Haqiqat-a? Yo'q, siz qo'rqmang. Buni baralla aytish kerak, toki kar eshitib, ko'rning ko'zi ochilsin.

– Xo'p, gapingiz to'g'ri, lekin bu yerda emas-da.

– Ie, oshing halol bo'lsa ko'chada ich.

– Bu yerdagisi tilingizni kuydiradi, – hazilga olib yengmoqchi bo'ldi Ummatali. U ham kuldi:

– Shopirib ichamiz-da! Yo siz xolodilnikka qo‘yib ichadigan bo‘lib qoldingizmi!

Bu Ummatalining izzat-nafsiga tegdi:

– A‘zamjon, quyushqondan chiqmang!

A‘zam gap ohangidan bir oz hushyor tortdi. Lekin sal o‘tmay yana unutdi.

– Qani rostini ayting-chi, chindan dadangiz chet elga qochib ketganmi?

Boyagi gaplar Ummatalining yonidan o‘tgan bo‘lsa, bunisi jonidan o‘tib ketdi. Uning hayoti haqida beriladigan savolning eng mushkuli shu edi. Bu savol unga doim ayil bo‘lib botadi, tergov ham shu bilan boshlanib, shu bilan tugadi. Agar Ummatali dadasining qachon va kim bilan o‘tib ketganini bilganida bunchalik qiynoqqa qolmas edi. Gap shundaki, u bilmaydi. Go‘dak bo‘lgan. Saldan keyin onasi o‘lgan.

Kimdir uni asrab olgan. Qiyinchilik yili bolalar uyiga eltib bergan. Mana shundan bu yog‘ini u yaxshi biladi, hatto asrab olganlarni ham zo‘rg‘a eslaydi. Mabodo, o‘shalardan biri hozir kelib, «o‘sha menman» desa, tanishi gumon. Mehri emas, o‘zi ham ko‘nglidan ko‘tarilib ketgan. Otasini-ku mutlaqo eslolmaydi. U surishtirganda birov: «Boyning qaroli edi», desa, boshqa biri: «Sherigi!» dedi. Yana bittasi: «U hammas, bu hammas, boyning bosmachiga uzatgan qo‘li edi», dedi. Xullas, Ummatali ochiq bir tasavvurga ega emas. Lekin bu fakt, Ummatali institutni bitirib, sovxozda ishlagan paytda, ayniqsa bosh agronomlikka nomzodi qo‘yilgan paytda kimgadir kerak bo‘lib qoldi. Kimdir buni qurol qildi, Ummatalini shu bilan aybladi.

A‘zamning kayf aralash bergan ana shu savoli Ummatalining yarasiga ho‘l latta bo‘lib yopishuvining sababi ham shu edi. Shunday bo‘lsa ham o‘zini bosdi.

– Shunaqa deyishadi, – deb qo‘ya qoldi. Lekin u boya A‘zamni ko‘rganida, tanishini uchratganidan ko‘ngli yayra-

gan, bir oz gapirishib, bahrim ochiladi, deya ko'ngli suv ichgan bo'lsa, endi undan qochgani joy topolmay qoldi. U murvati burab qo'yilgan o'yinchoqqa o'xshab, beto'xtov aylanardi. Ummatali esa, uning to'xtashini orziqib kutardi. Ummatalini bu gaplar emas, u yo'q vaqtda bo'lgan o'zgarishlar, yoru do'stlar, sovxoz hayoti ko'proq qiziqtirar edi. Modomiki, prujina hali-beri aylanishdan to'xtamas ekan, jilla bo'lmaganda, shu haqda sayrasin, degan umid bilan gapni sovxozga burdi.

– Sovxozdan gapiring, sovxoz qalay?

– Kam chiqaman, endi oyoqda zanjir bor! – dedi uylanganiga ishora qilib va nima uchundir chekib turgan papirosini qattiq bir tortib, yuz-ko'zlarini tutunga ko'mdi-da, zarb bilan uzoqqa uloqtirdi.

– Siz bundoq bo'lib ketgandan keyin direktorga ham shamoli tegdi. Ba'zi birovlar og'ziga so'k solib oldi, birovlar esa, posongini olib tashlab likillab qoldi, tiliga kuch berdi. Qarasam, endi boshimga oftob tushmaydi.

Shu orada avval jiringi eshitilib, keyin tramvayning ko'zi mitillab ko'rindi. Ummatali yukiga yopishgan edi, A'zam qo'yarda-qo'ymay qo'lidan olib, undan oldin tramvayga chiqdi. «Bu gal bizdan!» deb kira haqini ham to'lab yubordi. Konduktor yukni eslatgan edi, «ha, kasofat, qo'ymading-a!» degandek og'rinib uni ham to'ladi.

Tramvayda hech kim yo'q hisobi. Bir qiz bilan bir yigit bir-birining qarshisida o'tirib, adoq bo'lmas yoshlik suhbatini davom ettiradi, bir-biriga engashgan boshlari tramvay qalqitganda urishib ketay deydi. Ularning orqasida bir chol «men hayotda ko'radiganimni ko'rib bo'ldim» degandek beparvo mudrab, tramvay tebranishiga al-lalanib borardi. Yana ikki kishi bor – biri muk tushib kitob o'qiyapti, u birining ikki ko'zi ko'chada: o'tib ketib qolishdan qo'rqayotganga o'xshaydi.

Tramvay bir-ikki to'xtab o'tgach, Ummatali sherigidan so'radi:

- Siz qayerda tushasiz?
- Siz tushgan joyda.
- Behazil?
- Chindan!

Manzilga kelib, tramvaydan tushishlari bilan A'zam yana yukka yopishib oldi. Ummatali shuncha qilsa ham bo'lmadi. U shunday harakat qilar ediki, Ummatali rozi bo'lmasa umrbod diydor ko'rishmasdan ketadigan do'stga o'xshardi. Tabiatan birovning mushugini pisht deyolmaydigan, ko'ngilchan Ummatalining yotig'i bilan qilgan barcha urinishlari bekor ketdi. A'zam kutmaganda ham nozik, ham qattiq yeridan oldi:

– Suyunchini ekonom qilyapsizmi? Yangamning suyunchisini olmasdan hech qayoqqa ketmayman, ovora bo'lmang.

Ummatali garchand hazil tariqasida aytilgan bo'lsa ham, indolmay qoldi. «Yengdim, marra meniki» degan A'zam yana sayrab ketdi:

– Hoynahoy, sizning kelishingizdan u kishining xabari yo'q. Bo'lmasa taksi olib chiqib, darvoza oldiga ko'ndalang qilib qo'ymasmidi! Bu ham mening baxtim! Rosa omadi kelgan yigitman-da!

Kim biladi, hali yangam sizning oyog'ingiz ostida ma'ratib bo'rdoqi so'yib, mening yelkamga beqasam to'n tashlaydilar! Hoy, men sizga aytsam, Ummatali aka, hozir sizning go'shangaga endi kirib kelayotgan kuyovcha izzat-hurmatigiz bor. Nima qilsa yarashadi. Baxtingiz, yangamning ham baxti! Rostdan u kishi bilmaydimi? Sal-pal sezdirilmagan ekansiz-da. Yuragingiz ham Bahri Kabircha bor ekan. Yo bildirganmisiz?

– Yo'q, bilmaydi, – dedi cho'zib Ummatali. U xayol bilan band: nega xotini so'nggi vaqtda xat yozmay

qo'rganikin? Shu savol xayoliga kelibdiki, ko'ngli g'ash. Mana hozir ham uyga oyog'i tortinqiramaydi. Qamalish oldidan ham xuddi shunaqa bo'lgan edi. «Endi nimaga bunaqa bo'ladi?»

– To'satdan kirib kelishingiz qiziq, – yana gapga tushdi A'zam. – Bir qoyil qilay debsiz-da!

Ishqilib, yangamning yuragi yaxshimi? Yana tovonlariga qolib o'tirmaylik. Yo men oldinroq borib, etlarini sal-pal o'ldirib turaymi? Rostdan! Bu narsada hazillashib bo'lmaydi. Bizning ko'chada bitta kampir frontda domdaraksiz bo'lib ketgan o'g'li to'satdan kirib kelib qolganda o'takasi yorilib, o'lib qolgan.

– U kampir-da! – tegishdi Ummatali. Nima uchundir shu mahal o'zida hazilga moyillik sezdi.

– Albatta, yangam qari emaslar, shundoq bo'lsa ham...

Uning so'zini bo'ldi Ummatali:

– Mabodo, o'zini tashlab yuborsa, suvga yugurish esingizdan chiqmasa bo'ldi!

Ummatalining xotiniga bunchalik sovuq munosabatda bo'lishi, zaharomuz hazili uni battarroq qochiriqqa undadi:

– Tomizganimi, ichirgani?

Lekin bunga Ummatali javob qaytarmadi.

– Mana yetdik, – dedi u ikki qavatli binoning oldiga kelgach.

– To'g'ridagi eshikmi? To'xtang, oldin men taqillataman! – A'zam yukni yerga qo'yib, ikki zinani bitta hatlaganicha Ummatalidan oldinga o'tib ketdi. Entikib eshikni qoqdi. Hadeganda tovush bo'lmadi. Bu orada Ummatali ham chiqib keldi. A'zam yana taqillatdi. Yana hech kim tovush bermadi. «Hech kim yo'q shekilli?» degandek Ummataliga qaradi.

U yelkasini qisdi. Lekin uning yuragi nimanidir sezgandek gursillab urdi, nafasi og'ziga tiqilib keldi,

entikdi. A'zamning taqillatishiga sabri chidamay ustma-ust qo'ng'iroq tugmachasini bosdi. Oldin qandaydir besaranjomlik sezilib, ketidan erkakmi, xotin kishinikiligi aniq bo'lmagan tovush keldi. Bu esa Ummatalini yana tutaqtirib yubordi. Qo'ng'iroq qolib, eshikni mushtladi. Oxir eshik orqasidan xotin kishining «kim?» degan tovushi keldi. Bu ovozni tanigan Ummatali o'zini bosib:

– Men, och! – dedi.

Eshik ochilish o'rniga ichkaridan haligi tovush egasining faryodi eshitildi. Kimdir yugurib ichkariga qochdi, nimadir gupillab yerga tushdi, nimadir polda daranglab dumaladi, sindi. Birpasda ichkari ayqash-quyqash bo'lib ketdi. Erkak kishining asabiy tovushi xotinnikiga qo'shildi, g'ovur ko'tarildi. Keyin birdan jim bo'lib qoldi. Bu jimlik Ummatali yuragiga yana dahshat soldi, asablarini titratib yubordi. Bu orada eshik orqasida kimdir paydo bo'ldi, eshik kalitini buradi. Eshikning ichkaridan ochilishini kutmay, Ummatali uni tepib, o'zini ichkariga urdi.

– Nima, eringni tanimay qoldingmi, eshik ochishing qiyin bo'ldi? – dedi dir-dir titrab devorga suyanib turgan xotiniga. Xotin javob berishdan ojiz edi: na rangida qon bor, na so'zlashga tili. Uning surati turardi. Lekin Ummatalining so'rashmasdanoq xonaga o'tishi bilan oyog'i ostiga o'zini tashladi:

– Hamma ayb menda, meni o'ldir!

Xona o'rtasida bo'yni kalta va yo'g'on, qoshlari tutash va qop-qora g'o'labir bir yigit devdek qotib turardi. Ummatalini ko'rishi bilan g'alamisona bir qarash qildi-yu, keyin boshini quyi soldi.

– Gap bundoq demaysanmi, – dedi Ummatali o'zini arang bosib xotiniga, – men seni nimaga o'ldirar ekanman, deb hayron bo'lib o'tiribman. O'ldirishi-ku hech gapmas, lekin qo'lni bulg'ashga arzimaysan! Yo' arziysanmi?

Gapir, arziysanmi?! Shilimshiq qurtning narxi qancha, balki siz javob berarsiz, boyvachcha?!

Ummatali o'zini qanchalik og'ir tutmasin, dag'-dag' titrardi. Sha'niga dog' tushiradigan biror xunuk ish qilib qo'yishdan o'zini arang tiyib turardi. Nafratdan mushtini tugib keldi-yu, asabdan titrab xotiniining betiga tupurdi va «qanjiq!!!» deganicha eshikka otildi.

Boyadan beri tarvuzi qo'ltig'idan tushib, nima qilishini bilmay gangib, kesak bo'lib turgan A'zam birdan hushyor tortib unga ergashdi. Ummatali shu kuni A'zamnikiida yo-tib qoldi.

3

QOLGAN KO'NGIL – CHIQQAN JON

Ummatali kechagi ko'rgiligining butun dahshatini ertalab turganda bildi. Kecha qiziq ustida oxirigacha o'ylab ko'rmagan ekan: xotini-ku endi unga harom. Qolgan ko'ngil – chiqqan jon! Bola nima bo'ladi? Bolasi, bitta-yu bitta bolasining kecha esiga kelmaganidan bugun hayron! Bola o'zi uyda bormidi-yo'qmidi? Ko'rinmadi shekili. Yoki to'polondan qo'rqib, boshini ko'rpaga burkab yotgan edi-yu, Ummatali ko'rmadimi? U bo'yni yo'g'on yigit kim edi? Qimmatxonning hozirgi erimi yoki...

Birdan Qimmatxon bilan tanishish va uylanish tarixi mag'zavaga tushgan varaq xatlaridek chaplashib, surkilib ko'z oldiga keldi.

Ummatali to unga uylanguncha ayol kishining bilagini ushlagan yigitmas. Qiz bola gapirsa, qulog'igacha qizarib, o'yinga tortsa, qora terga tushardi. Uning bunchalik tortinchoqligi ko'plarni hayron qoldirsa, ba'zilarni «o'z uyasida qanot chiqarmagan shunaqa hurkovich bo'ladi!» degan fikrga keltirardi. U o'qishdan yaxshi, qo'y og'zidan

cho'p olmas edi. Qachon ko'rsang, kutubxonada yoki yotoqxonada muk tushib mutolaa qilayotgan bo'lardi. Ba'zan hammasini yig'ishtirib kino, teatr, sirkdan beri kelmay qolardi. Shunda o'rtoqlari: «Ummatalining uyasi-ga ilon kirdi», deb kulishardi. Keyin yana ishga sho'ng'ib, hamma bilan dim o'ynaydi. Buni ko'rgan hazilkash sinfdoshlari «Ummatali kurk bo'ldi, tuxum bostirgan mard, nuqul xo'roz ochtirib oladi», deb tegishardilar. Bu gaplarga uning g'ashi ham kelmas, faqat ulardan: «Ha, qo'nimi yo'q jibljibonlar!» deb qutulgan bo'lardi. Chindan ham u juda tish-tirnoqli edi. Intilgan narsasini yo uzib olar, yoki unga yopishib qolib ketardi. Bog'bonlikka-ku ixlosi beqiyos. Uning nazarida har giyohning joni bor, tili bor, ular bilan gaplashsang, joniga ora kirsang bo'ladi, har bir meva o'z xislati, o'z xulq-atvori bilan yashaydi, ular bilan ham dardlashsa bo'ladi. Tiliga tushungan odam olmani behiga, olchani anorga qarindosh qila oladi. Tog'ning yovvoyi tabiat mevasini shaharga olib tushib, shahar bog'larining sarxil gullarini tog'u toshga yoysa bo'ladi. Ayniqsa, u yong'oqqa o'ch edi. Mag'izi ming dardga davo va totli taom, bargi naftalinni almashtiradi, bo'yoqqa ham yaraydi, ildizi tog'larni, qiyalik qirg'oqni uqalanib ketishdan asraydigan jonli, pishiq armatura. Tarog'i qizlar sochini silliq taraydi, mebeli uyingning to'rini bezaydi, yog'ochi aravaning gupchagiga ham yaraydi. U har yili ko'chat mavsumida allaqayoqlardan yong'oq ko'chatlari olib kelib, institut hovlisiga, yo'l yoqalariga o'tqazadi, ba'zi birovlar: «Dod yong'oq dastidan, ajinalarning uyasi, hammamizni chalib ketadi!» deb kulgiga olsa, u beparvogina: «Sizni jin ham urmaydi! Vijdoningizga jinlar uya qo'yishdan ehtiyot bo'ling», derdi. Hatto u tajriba uchun o'zi turgan xonada tuvakda yong'oq o'stirdi. O'stirganda ham, ko'chatdan emas, xuddi g'alvirak yong'oqning o'zginasidan undirdi. Bu ko'pchilik uchun

kutilmagan narsa edi. Bir yotoq bola talashib-tortishib, na qishlog'ida, na shaharda biror tanish-bilishning yong'oq ekib, undirganini eslay oladi. Qayerda kekkayib, ko'm-ko'k chodirini yoyib turgan yong'oqni ko'z oldingizga keltirmang, uni yo birov allaqayoqdan ko'chatini keltirib o'tqazgan, yoki o'zi «paydo» bo'lib qolgan bo'ladi. Shu sababdan Ummatalining yong'oq ekishi ko'plarga erish ko'rinardi. Shunda u: – Hamma qilgan ishni qilish hammaning qo'lidan keladi, sen mard bo'lsang, hech kimning esiga kelmaganiga qo'l ur! – deb dadil turib olardi.

Chindan ham u ekan yong'oq unib, xonaga fayz kiritgandek bo'ldi. Bu uchinchi kursda edi. To'rtinchi kurs boshlanganda ko'chatni boshqa katta tuvakka ko'chirib, yo'lakka olib chiqib qo'yishga majbur bo'lishdi. Oxirgi yil esa, Ummatalining o'zi uni yotoqxona hovlisidagi bir tegirmon suv o'tadigan ariqning shundoqqina qirg'og'iga yaxshilab o'tqazdi. Atrofiga tikanli daraxt shoxlaridan g'ov qilib, bir taxtachaga ekilgan yilini qayd qildi va uning ostiga: «Kim parvarish qilib tursa shu daraxt umrini ko'rsin!» deb yozib qo'ydi. Xuddi ana shu yili yotoqxona yonidagi omonat kassada ishlaydigan Qimmatxon ismli sho'xgina, bodomqovoq, xipcha bel, oyoqlari chiroyli bir qiz, Ummatali yozda ishlab yiqqan jamg'armasidan bir ozini bayramga olgani kirganda: «Keling, yong'oqshunos!» deb kuldi. Yana bir kirganida: «Yong'og'ingiz biram chiroyli bo'libdi, kishining havasi keladi.

Bir-ikki yildan keyin soyasida dutor chalib, «Qorasochim»ni aytib, bemalol o'tirsa bo'ladi», deb tegishdi. Shunda Ummatali umrida ilk marta, bo'yi yetib turgan qiz bolaning yuziga tikilib qaradi va so'z qotishga jur'at etdi:

- Hozir ham o'tirsangiz bo'ladi, soyasi sizga yetadi.
- Bitta o'zim o'tirishimning qizig'i yo'q-da!

Ummatali yana soddalik qilib qoldi, karashma bilan aytilgan qochiriqqa tushunib yetmadi.

– Birorta dugonangiz yo'qmi?

Qiz qah-qah urib kuldi.

– U yerda dugonamni boshimga uramanmi!

Yigit gangib qoldi. Naridan-beri pulini olganicha chiqib ketdi. Yana bir kirganda qiz:

– Qo'yish o'rniga nuqul olyapsiz, tugab qoladi-ku? To'yni nimaga qilasiz? Yoki yong'oq hosilini kutasizmi? – deb tegishdi.

– Qanaqa to'y? – ajablandi Ummatali.

– Yigit bo'lgandan keyin uylanmaysizmi? Yoki yong'oq soyasida «omon yor» aytib, yolg'iz umr o'tkazasizmi?

– Men oladigan qizning qulog'ini onasi kecha teshtiribdi, – dedi Ummatali qizning hazillariga ko'nikkan, sinashta odamdek.

– Unda yana bir-ikki tup yong'oq eking, bo'lmasa zerikib qolasiz, – dedi qiz jilpanglab, keyin xotirjam qo'shib qo'ydi: – Sochingizga oq tushganda uylanar ekansiz-da!

– Siz bor-ku! – birdan jur'at etdi Ummatali.

– Ha, oladigan qizingiz bo'yiga yetguncha men ermak ekanmanmi! Zap gapni aytdingiz-da!

Qimmatxon bu gapni bodom qovoqlarini o'ynatib, ko'zini suzib shunday aytdiki, bu karashmada yigitning hirsini uyg'otadigan nimadir bor edi. Bundan bu yog'ini Ummatali hali-hali tiniq eslolmaydi. Kechqurun qarasa u bilan yonma-yon ketyapti.

Bir xiyobonda o'tirib, yana nima to'g'risidadir gaplashishdi. Undan turishganda Qimmatxon bir xilvat ko'chaga yo'l boshladi. Endi ikkisidan ham nido chiqmas edi. Bir ozdan keyin qiz, «adashmasdan chiqib ketasizmi?» deb karashma qildi-yu, qisqagina xayrlashdi, hatto qo'lini bermadi, faqat nariroqdan erkalanib silkidi. Keyin bir-ikki kinoga kirishdi. Vassalom. Qanaqa qilib uylanganini Ummatalining o'zi ham bilmay qoldi, institutni bitirish

kechasida uni Qimmatxon bilan er-xotin ko'rganlarning bir qismi «uzumning asilini it yeydi!» desa, allaqaysi bir xotin «bu yong'oqshunosingizga shu qiz ham xayr, mehri yong'oqdan ortmaydi» dedi. Kimdir labini tishlash bilan qanoatlandi. Qimmat bu kechadan benihoya xursand edi. Go'yo hamma bitiruvchilarga: «Yigitning sarasi mening jilovimda, havaslaring kelsin! Bopladimmi!» degandek kibrilanib. Savlat to'kib yurar, xipcha beli, chiroyli oyoqlarini u yoq-bu yoqqa o'tib namoyish qilib qo'yardi. Ummatalini birov tortib olayotgandek o'tirgan yerida ham qo'tiqlab o'tirardi. Oldiniga tortinib tursa ham, bir-ikki ryumkadan keyin o'zini qo'yib yubordi. Musiqa chalinishi bilan Ummatalini tansaga taklif etdi. Bir-ikki aylangach, uni yoqtirmay, barchaning havasini keltirib zal o'rtasida chir-chir aylanib o'yin tushayotgan yigitni ko'z ostiga olib qo'ydi. Yangi tansa boshlanishi bilan o'sha yigitga kishi bilmas ishora qilib, kecha oxirigacha u bilan tansa tushdi. Bundan Ummatali ajablanmagan bo'lsa ham, ba'zi bir studentlarning g'ashi keldi. Hatto bittasi: «Kelinposhsha halitdan to'qimini qorniga olish taraddudida», dedi Ummataliga eshittirib

Qimmatxon haddan tashqari erga mehribon edi. Ayniqsa birovning oldida-ku «jonim», «azizim», «dadasi» deb og'zidan bol tomadi. Ummatali garchand «ochilib yoqqan havodan, kulib boqqan odamdan qo'rq» degan xalqning dono maqolini hali bilmasa ham, oxir bir kuni xotini bu bachkanaligidan nolidi:

Bu so'zlaringizdan o'zimning juft ismim yaxshi. Bunga ham Qimmatxon vaj topdi, suvdan quruq chiqdi: Juft ismingizning o'zinigina ayto olmaymanda, sansiragan bo'laman, oxiriga «aka» qo'shishim lozim. Nahotki, kishi o'z erini «akam!» desa!

Ummatali yana jim qoldi. Uning nazarida xotini xom suv ichsa ham yuragi og'rimaydigan, qilni qirq yorib,

Aflotunga dars aytadiganlardan yoki erini yaxshi ko'rgan xotin shunaqa dangal bo'ladimi? Ehtimol, boshqalarning xotinlari ham shunaqadir, u qayoqdan bilsin: bosh yorig'i bo'rk ichida, qo'l sinig'i yeng ichida!

Bir kuni Ummatali sovxozdan kelsa, dasturxon yasatilgan, kimdir kirib-chiqib ketganga o'xshaydi, lekin u ishonmadi. Erini ko'rish bilan Qimmatxon avrab ketdi:

Ko'rdingizmi, sizning kelishingizni tush bilaman! Qaysi xotin erining soyasiga yetti qavat ko'rpacha solib, tiq etsa, ko'zini eshikka tikib o'tiradi. Buni mengina qila olaman, jonim. Yana, ba'zan ko'nglingiz to'lmaydi...

Qimmatxon eriga sochiq tutdi, yuz-qo'lga suv quydi. To u kiyim-boshini almashtirib chiqquncha dasturxonning u yoq-bu yog'ini artib, tozalab, ryumkalarga vino quyib qo'ydi. Eri ko'rinishi bilan mushuk boladek yumshoq surkalib, yoniga keldi. Stulini surib, sonini soniga tegizib o'tirdi, qo'lga ryumka tutdi.

– Oling, charchab kelgansiz. Keyin oshimni suzaman, – dedi Qimmatxon va kuldi, – kishini biram sog'intirasiz. Ikki kundan o'tdi, ko'zim eshikda. Siz bo'lsangiz parvoyi falak. Shu ishingizni shaharga ko'chira qolsangiz bo'lmaydimi, azizim? So'zining boshlanishidan Ummatalining g'ashi kelgan bo'lsa ham, ming marta takrorlanadigan «azizim»dan ensasi qotdi, churq etmadi. Ryumkani bo'shatib, zakuskaga qo'l cho'zdi. Qimmatxon yana quymoqchi bo'lgan edi, qaytardi:

– Qornim och, oshingni suz.

Xotinning ko'ngli olingan bo'ldi:

– Qorningiz ochsa-yu, charchasangiz dam olgani meni oldimga kelasiz shekilli... Erlarga o'xshab, bundoq bir oz chaqchaqlashib o'tirsangiz nima qiladi? Ne-ne umid bilan dasturxon tuzgan edim...

U og'ringan kishidek hafsalasizlik bilan turib oshxonaga o'tib ketdi.

Ovqatni ko'tara kelib Qimmatxon dedi:

– Oltin o'raga tashlasa quruq chiqadigan ersiz-da, kelishingizda ikkitagina jo'ja tovuqni bo'g'izlatib, setkaga solib kelsangiz, daryoning suvi kamayarmidi! Bozorda mushtumday jo'ja falon pul.

Bunaqa gaplarni shamolning qo'ltig'iga qistirib, bulutning bag'riga joylab uchiradigan xotining qilig'ini bilgan Ummatalining ensasi qotdi:

– Kir bo'lgan vijdonni nima bilan yuvadi, xotin? Qimmatxon eriga sezdirmay burnini jiyirdi. Chindan ham Ummatali charchagan, sovxozda ishning ko'pligidan qo'li qo'lga tegmas, na yeganida, na ichganida halovat bor. Buning ustiga u yangi. Ko'p narsani bilishi, kishilarni o'rganishi, sinashi kerak. Sovxozning ishi umuman yaxshi ketayotgan bo'lsa ham, asosan suyagi dehqonchilik, bog'dorchilik bilan qotgan, ish ko'zini bilgan zehni kishilarning tajribasiga suyangan. Agrotexnika yangiliklari o'gay boladek ko'ngillarida mehr uyg'otmaydigan kishilar ham bor edi. U biladi: tarki odat, amri mahol.

Lekin davrni, ertagi kunni hisobga olmay ishlash mumkin emas. Buning uchun nimanidir bukish, nimanidir, hatto sindirish kerak, kimgadir qattiq gapirib, kimnidir iylab yo'lga solish kerak, hatto ba'zi birovni ishdan chetlatishga to'g'ri keladi.

Bu ishlar hammasi xamirdan qil sug'urgan singari yengilgina bo'lmaydi. Bilim, kuch, iroda, ishonch, odamiylik kerak, texnika, texnikani uquv bilan ishlata biladigan odamlar kerak. Bular bari vaqt talab qiladi. Baqt esa, har vaqt bizda ziq. Ummatali, nima uchundir, dami qaytgan oshni ishtahasizlik bilan yeb, divanga cho'zildi. Choyni o'sha yerda ichdi. Radio eshitib, hordig'ini chiqarmoqchi edi, zerikarli mavzuda suhbat ketayotgan ekan. Ko'chani bir aylanib kelib, o'rniga kirdi.

Ko'zi endi uyquga ketishi bilan xotining bo'yniga tashlangan muzdek qo'li seskantirib yubordi.

– Ha, darrov uxladingizmi? Bundoq ko'zingizni ochib, birpas odamga qarab yotsangiz-chi!

Xotin shunday yelim harakatlar qilar ediki, Ummatali uning nimadir iltimos qilmoqchiligini, jilla bo'lmaganda, bachkanalik qilishini bilib, o'zi gap boshladi:

– Tushundim! Tushundim, gapingni aytaver!

– Xo'p deyishga so'z bersangiz aytaman.

– Qani, avval eshitay-chi?

– Yo'q, xo'p deng.

– Biror marta ra'yingni qaytarganmidim, gapira-vermaysanmi!

– Bilasizmi, bo'yimda bo'libdi!

– Juda yaxshi. Tabriklayman, – quvonib ketdi Ummatali. Qimmatxon esa, birdan bo'shshib, so'lib tushdi.

– Ha, – dedi eri, – o'zgarib qolding?

– Shuni aytmoqchi edim-da.

Uning so'zini bo'ldi eri:

– Eshitdim, yaxshi. O'zingni ehtiyot qil.

– Yo'q, gapimga tushunmadingiz, – dedi Qimmatxon salmoqlanib, – bola derkansizu, meni o'ylamas ekansiz-da

– Xo'sh? Xo'sh? – boshini ko'tardi er. Uning nazarida xotining katta bir dardi bor ekanu, u shu mahalgacha payqamay yurgandek yuragi orqasiga tortib ketdi.

– Shuni... shuni bir yoqlik qilsam.

– Nima? Abort qildirmoqchimisani?! – boya Ummatali yostiqdan boshini ko'targan bo'lsa, endi turib, o'tirib oldi. Quloqlariga ishonmadi. Badanidan muzdek ter chiqib ketdi, bosinqiragan kishidek ko'zlarini chaqnadi.

Eringing avzoyini ko'rib. Qimmatxonning nafasi ichiga tushib ketdi. Bir ozdan keyin choyshab ostidan pio-piq yig'lagani eshitildi. Yig'i aralash: «Do'sting ham ering, du-shmaning ham ering!

So'rash yo'q, surishtirish yo'q...» degan tovushi kelardi. Ummatali uning yuzidan choyshabini tortdi, o'ziga qaratdi:

– Gapir, biror sababi bormi?

– Tug'ib ko'rmagansiz-da, bilmaysiz, – dedi o'pkalab xotin. «Ha, tug'ishdan qo'rqayotgan ekan, yoshda», deb unga achingan Ummatali hazillashdi:

– Sen tug'ib ko'rganmisan?

– Tug'magan bo'lsam ham, bilaman! Doktor uchto'rt yil o'tsin deydi.

– O'n sakkizga to'lmabsanmi?

– Ha, sizga hazil bo'lsa. Birov o'laman desa, bu kishi kulaman deydi. Hamma erkaklarning ahvoli shu: ishi bitdimi, xo'roz bo'lib qichqirgani qo'ndoqqa chiqadi!

– Xo'sh, ochiq so'zla, nima gap?

– Aytyapman-ku, oldirib tashlamasam bo'lmasmish.

– Shunga o'zing rozimisan?

– Ilojim qancha! Havasga abort qiladi, deb o'ylaysiz shekilli! O'lganimning kunidan... O'zi bo'ladimi! Tunov kuni qo'lingizni pichoq kesganidagi dod-faryodingizni ko'ring... Bu... bu... – yig'lab yubordi Qimmatxon. Lekin yig'i nima uchundir, erining ko'nglini yumshatish o'rniga, malol keldi. Xayoliga: «Bu yig'isi g'alati-ya, avval ham shunaqa yig'larmidi o'zi?» degan savol keldi. Lekin avval yig'laganini ko'rmaganidan bir ravshan fikrga kelolmadi.

Bu g'alati yig'i ko'nglida allanechuk iz qoldirdi, al-lamahalgacha eslab yurdi. Qimmatxonning yig'isi soxta edi. U hali biror doktorga ko'ringani ham yo'q. Ko'rinsa-ko'rinmasa, uning niyati aniq: uch-to'rt yil kelinchaklik gashtini surmoqchi, kimdandir eshitgan «tuqqan xotinning figurasi buziladi», degan so'zga amal qilib, xipcha bellariga putur yetkazmoqchi emas, rangiga dog'-dug' tushib, keyin ketkizolmay yursinmi! Yo'q, halitdan bola

tug'ib unga zarur kelibdimi! Bir kami ko'tlik yuvib, o'rnini shiptir bostirishmidi!

Shu eri bo'ladigan bo'lsa, qachon tug'sa ham kech emas. Bolaga otalik qilib yolchitarmidi, kechayu kunduz o'yi – sovxoz, hosilu plan. Er degan yoningda mundoq o'tirib hamdamlashsa ekan! Undan keyin tuzukkina uyjoyning tayini yo'q, bedanaday qayga borsa pitpildi. Shu ham hayotmi? Buning ustiga er sovxozda, bu shaharda. Haftada bir keladi. Shunda ham ba'zi erlardek ochilib-sochilib o'tirmaydi, ichimdagini top! Bu yetmagandek kelayotganida yo kitob, yo birorta jurnal qo'ltiqlab keladi. Bo'sh qoldi, ko'zi o'shanda.

– Hoy, – dedi bir kuni Qimmatxon tegishib, – muncha kitob o'qiysiz. Miyangizni bo'lar-bo'lmas narsalar bilan to'ldirib olasiz-da, keyin ko'tarishda qiynalib yurasiz.

– Bo'ynim baquvvat! – dedi boshini ko'tarmasdan Ummatali va xotinining nozu karashmasiga parvo ham qilmadi. Qimmatxonga qolsa erini bir kun ham sovxozda qo'ymaydi, shaharga keltirib oladi, lekin Ummatali ko'nmaydi, «men baliqman, suvim – dala», deb oyoq tiragan tiragan. Qimmatxonning esa, qishloqqa chiqib «changga botib, tezak hidlab yurishga» toqati yo'q, kindik qoni shaharga to'kilgan, shaharda yurganini otabobolarining arvohi xush ko'radi. Faqat meva g'arq pishgan paytda qishloq unga yoqadi. Bahorda lola tergani qirga, yozda cho'milgani tog' etaklariga chiqishga ham, albatta, qarshi emas!

Shu kechasi Qimmatxon Ummatalining yengidan kirib yoqasidan chiqdi. «Hali belingiz to'la bola. Issiq o'rnimizni halitdan sovutib nima qilamiz», deb orqalarini siladi, «dala kezib charchagansiz» deb oyoqlarini uqaladi. Ertalab turib soqol olishga suv tayyorladi, «dazmoli o'lib qolibdi» deb ko'yilagiga qayta dazmol bosdi. Aldadi-

avradi, avradi-aldadi, xullas, abort uchun erining roziligini oldi. Shunda ham jilpanglab qo'ydi:

– Men tug'ishda o'lib qolsam, xudo ko'rsatmasin, sizga mendaqa fidoyijon xotin qayoqda. Paytavangiz boshga chiqib, ko'ylagingizning yoqasi kirdan arimay, shimingizni shalvillatib yurasiz. Buni qarang, sizni qanday qilib qo'yibman.

Ummatali u yog'iga quloq solmay, shanba kuni qaytajagini aytib chiqib ketdi. Qimmatxon quvonib qoldi. Uyga kirib, buzilishi xavf ostida bo'lgan xipcha belini oynaga soldi, tutamlab ko'rdi: «Qanday chiroyli, o'zi ham bir tutam!»

Abort Qimmatxonga qimmatga tushdi. Shu sabab bo'ldimi, yo boshqa bir vaj bilanmi, bir necha yil bo'yida bo'lmadi. Bug'doyni ko'rsatib, arpani qoplab yuborgan ayyor tumshug'idan ilinib, rosa tashvishini tortdi. Maslahat solmagan kishisi, ko'rsatmagan vrachi qolmadi. Mag'rurlanib yurgan «bir tutam xipcha beli» endi ko'ziga balo bo'lib ko'rinardi. Boshida parvo qilmagan bo'lsa, keyin vahimga tushdi, vahima so'nggi yo'q tashvish – azobga aylandi. Bu orada «yot desa yotib, tur desa turib» yetovida yurgan «mo'min qobil» erining ham achchiq tili chiqib, bir-ikki uzib oldi. «Uch-to'rt yil o'tsin degan doktoringizni bir ko'rsak bo'lardi. Endi g'urragi bola ochib qolgandir», dedi bir kuni. Bir kuni shirakayf kelib: «Qisir sigir nima deb ma'raydi? Itqovunni yer ne'mati qatoriga qo'shsa bo'ladimi?» deya uchiriqlar qildi. Qimmatxon bundoq qarasa, bino qo'ygan qasriga putur yetib, yeganichgani, qilgan maishatlari burnidan buloq bo'lib chiqadigan. Patagiga qurt tushdi, yeldi-yugurdi. Homilador bo'lganini sezgan kuni erini sovxozdan telefonda chaqirtirib oldi, bo'yniga osilib ho'ng-ho'ng yig'ladi, endi dunyo tashvishidan xoli bo'lgan kishidek shu kuni oyog'ini uzatib yotdi.

Ana shunda tug'ilgan farzand mana shu arzanda Mas'ud. Lekin bolaning manglayi sho'r ekan, «ada»ga tili chiqquncha Ummatali bundoq bo'lib ketdi. Uning diydoriga to'ymagan ota mana bugun katta bir g'urbatdan qutulib, boshqa bir dahmazaga yo'liqib o'tiribdi. Xotini aslida bir ko'zi bilan kulib, bir ko'zi yig'laydiganmıdı, yoki keyin shunaqa bo'ldımı? Uning nazarıda Qimmatxonning o'zi darz piyola edi-yu, Ummatali avaylab olib yurgan, u yo'g'ıda qattıqroq narsaga tegıb sıngan. U kelıb, ana shu sıniq piyolanıng sochılıb yotganını ko'rdı. Bir tomondan bu ko'rganı yaxshı bo'ldı, aks holda yana bu darz piyolanı ardoqlab yurgandan kishılar kulardı, basharasıga kulmasa ham, orqasıdan kulardı.

Ummatali kecha shu sıniq kır piyolaga qo'l urmaganıdan, o'zını tutıb, jırkanıbgına chıqıb ketıshga jur'at qilganıdan bugun mamnun. Mamnunı lekin o'g'lı esıga tushgan sarı yuragi tuz sepgan yaradek jız-jız achıshadı. Axır unıng suratını xayolıda ozmuncha chızıb, ozmuncha bir ko'rıshga zor bo'lganımi! Bugun esa, chaqırsa eshitilgudek yerda-yu, borıshga or qıladı. O'sha xotını bo'ladıgan bo'lsa, o'ng'aylık bilan jon berıb, unga bolanı ro'para qıla qolmaydı. Bunaqa xotında uyat bo'lmaydı, yuzı paxsa devordek qalın tortıb ketadı. Sharmandaga – shahar keng! Bormay desa, doktorlar chekishnı qat'iy man qilgan kashandaday o'g'lını bir ko'rıshga zor!

Qulnı xayoli o'ldırıbdı, degandek, bu ketı yo'q o'ylar Ummatalıning boshını zırqıratdı. «Boraman! Azroıl bo'lib jonımnı olsa ham boraman. Hama vovıllagan it ham qopavermaydı!» deb endı o'rnıdan turganda: – Ha, yo'l bo'lsın? Avval sal zahar bosdı qılaylık! – deb qo'shni xonadan A'zam chıqıb keldı. Uning soqoli olinıb, bilınar-bılınmas upa surtılgan, sochları chakkadan parq ochılıb ikkı tomonga chıroylı qılıb ho'l taralgan. O'zı oq ko'ylak, qora galstukda, ammo sarpoychang oyog'ıda ola, yen-

gil shippak. U Ummatali bilan qisqagina qo'l olishib ko'rishganda hamma yoqni atir hidi bosib ketdi. Keyin deraza raxida turgan sovuq choyli choynakni olib, og'ziga karnay qildi. Buning ustiga chiqib qolgan xotini:

– Ichingizga sholi ekanmisiz, buncha suv ichasiz? – deb tegishdi. – Hozir choy olib kelaman. Choy ustida xotini Ummataliga rahmi kelib bir-ikki mo'tillab qarab qo'ydi. Odob yuzasidan eri orqali mehmonga choy uzatar ekan, yotig'i bilan gap boshladi:

– Qimmatxon opam sizga rafiq bo'lar ekanlar-da?

– Siz uni qayoqdan tanıysiz? – vazminlik bilan so'radi Ummatali. Ho'plab turgan choyini yerga qo'ydi. «Eri hamma gapdan xabardor qilibdi», degan fikrga keldi.

– Bolalari tufayli tanıyman.

– Siz vrachmisiz? – Ummatali Mas'udni ko'rib turgan vrach gumon qildi.

– Yo'q. Mas'udjon mening bog'chamga qatnaydi.

Biram yoqimtoy bola. Qosh-ko'zlari xuddi sizning o'zingiz.

Ummatali mushkuli oson bo'lgandek birdan yengil tortdi, kishida bunday holat kuni bilan siqib yurgan tor etigini yechganda paydo bo'ladi.

– Hozir ham sizdami? – shoshib qoldi u.

– Ha, shu kunlarda kecha-kunduz turadiganida.

Bizda bitta shunaqa grupp bor. Bir yilcha bo'ldi, onasi shunga iltimos qilib o'tkazdi.

– Uyni bo'shatish kerak bo'lib qolgan! – dedi shartta A'zam. Erining bu gapidan Nafisa qizarib ketdi. «To'nkaday qo'polsiz» degan kabi yer ostidan unga qarab qo'ydi. A'zam esa, battar avjga chiqdi.

– Ha, rost-da, mana kecha ko'rdik topgan bo'yni yo'g'onini. Buldog ikki oyog'ida tursa o'shanga o'xshaydi. Yo noto'g'rimi? – Ummataliga qaradi u. Ummatali indamadi, u Nafisa oldida hayo tortardi. Hatto A'zamning

«begona erkak bor» demasdan xotiniga bunday muomala qilishidan xijolat ham bo'ldi. A'zam yana og'iz ochmoqchi edi: «Bo'ldi, suyuqlik ham evida. Yomon bo'lsa o'z boshini yeydi, sizga og'irligi tushmay qo'ya qolsin!» degandek Nafisa stol ostidan uning oyog'ini bosdi.

– Mas'udni ko'rsam bo'ladimi? – jimlikni buzdi Ummatali.

– Bemalol.

...Mas'ud dadasini tanimadi. Yotsirab bog'cha opasiga yopishdi. Saldan keyin dadasi olib kelgan o'yinchoq mashinani oyog'i bilan turtib ko'rdi, u g'ildirab ketdi. Ketidan borib qo'lga oldi, yana g'ildiratdi. Ummatali unga engashgan edi, yana bog'cha opasi oldiga qochdi. Xijolat tortgan opa, uni yupatdi:

– Dadang-ku, Mas'udjon! Yaxshi bola dadasidan ham qochadimi? Qani, «dadajon», deb bir achom qilgin. Darrov!

– Hech kelmaydilar-ku? – dedi bola dadasiga qush qarash qilib, ko'zdan kechirar ekan.

– Endi har kuni kelib turadilar. Shunaqami, dadasi?

– Albatta. Yana o'yinchoqlar olib kelaman.

– Ayam-chi? Ayam ham keladilarmi?

Ummatali «nima, onasi xabar olmaydimi?» degandek bog'cha opaga qaradi. U bolaga eshittirmasdan: «Kam keladi», dedi. Ummatali o'kinib, boshini silkib qo'ydi.

– Endi ayang ham keladi. Dadang ham keladi, – dedi opasi.

– Nega shu vaqtgacha dadam hech kelmadi?

– Uzoqda, ishda edi.

– Endi ketib qolmaydimi?

– Yo'q, ketmayman. Shu yerda ishlayman, – dedi opasi o'rniga Ummatalining o'zi. Bolasining biyron tilidan yuragidan oftob chiqsa, savollaridan bag'ri o'rtanardi.

Ko'zida yosh qalqidi, dimog'i achidi. Yoshni kiprik qoqish bilan yutib, yerdan o'yinchoq mashinani oldi, kalit bilan burab-burab polga qo'yib yubordi. Mashina yelib ketdi. Mas'ud unga yugurdi, Ummatali bu orada o'pkasini bosib oldi.

Shu mashina sabab bo'ldi-yu, ota-bola topishdi. Ummatali uni bag'riga bosib-bosib lo'ppi yuzlaridan o'pdi, munchoq ko'zlariga to'ymasdan boqib, uhfa sochlarini siladi.

Buni ko'rib, uzoqdan ko'ziga yosh olgan Nafisa betaraf turolmadi. Bolasini sigirday yalab-yulqayotgan Ummataliga rahmi keldi. Qimmatxon esiga tushib, «endi bu yog'i nima bo'ladi?» deya bu katta jumboq qarshisida lol qoldi. Nima uchundir, Qimmatxonga rahmi kelmas, bilib turib ketmonning damini bosib, sopidan zarb yegan odamga o'xshatardi uni. Ummatali esa, xuddi g'arq bo'lganda qutulib, qirg'oqqa chiqqanda kiyim-boshini yo'qotgan odam.

Har kim unga «joning omon qolganiga shukur qil, yigit mulki yerda» deyishi kerak, rahmini yeb, yo'lini ko'rsatishi lozim. Nafisa ham o'zini shulardan biri hisoblab, bir-birining diydoriga to'yamayotgan ota-bolaning oldiga keldi.

– Qanday yaxshi! Mas'udjonning bo'yi bugun bir qarich o'sadigan bo'ldi.

– Qarich nima o'zi? – deb qoldi bola.

– Qarichmi? Mana bu, – dedi Ummatali va o'g'lining bo'yini hazil aralash o'lchab, yana bir qarich qo'shdi-da, – ertaga yana shuncha o'sasan! – dedi.

– Undan keyin sizdan baland bo'lib ketamanmi?

– Albatta.

– Maza! Bufetdagi shokolad, konfetlarni stul qo'ymasdan olib yeydigan bo'laman.

– So'rasang ayang olib bermaydimi? – qiziqqan bo'ldi Ummatali.

– Faqat bitta olib beradilar. Anavi kishi kelganda vazasi bilan qo'yadilar.

– O'sha kishini haydab yubormadingmi?

– Ho-o. Bir kuni: «Endi kelmasin, menga ko'zini olabo'ji qiladi», degan edim, ayam qanaqa urdiki... Endi aytmayman desam ham urdi, quloqlarimni buradi. Keyinchi, keyin o'sha ko'zini olabo'ji qiladigan kishi kelganda ayam meni uyga qamab qo'yadigan bo'ldilar.

– Ayang o'lsin, sening ko'nglingni og'ritmay, – dedi go'yo o'zicha ohistagina Ummatali. Buni eshitgan Nafisaning ko'zidan duv etib yosh to'kildi, yuzini bir chetga o'girib, artindi. Bular bari uning uchun yangilik edi. Qim matxondek shirin so'z, aylanib-o'rgiladigan, hatto yerda yotgan bargni bosishdan joni achiydigan bo'lib ko'ringan xotindan shunchalik bag'ritoshlikni sira ham kutmagan edi.

Lekin bola yolg'on gapirmaydi, bu muqaddas yoshda yolg'on gapirish bolaning qo'lidan kelmaydi. Bu yoshda ular farishta. Nafisa, otasining issiq va mehribon bag'rida ko'zlarini javdiratib turgan Mas'udga, uni butun mehri-muhabbati bilan erkalayotgan Ummataliga qarab turib, o'z turmushini o'ylab ketdi. Qani endi A'zam shunaqa bolajongina bo'lsa! Haftada bir qo'lga qizini olmagan olmagan, «biz uchta bo'lib ZAGSdan o'tganmiz!» deb ta'na qilgani qilgan.

Odam bolasining bunchalik ustamon bo'lishini keyinkeyin bilib Nafisa yoqa ushladi! Turmushchilik ekan, ichiga yutib ketaverar ekan kishi. Bo'lmasa, tashdan ko'rgan odamning A'zanga havasi keladi: bir-ikki suhbatlashganda mahliyo qiladi qo'yadi. Aslida-chi? So'zlaridan ilon po'st tashlaydi.

– O'sha kishi endi uyimizga kelmaydimi? – dedi Mas'ud o'ynab turgan yerida birdan.

Ummatali nima deyishini bilmay nogoh Nafisaga qarab qoldi. Nafisa avvaliga ko'zini yerga oldi, keyin yugurib kelib Mas'udni bag'riga bosdi:

– Endi-chi, endi, Mas'ud, sen o'rtoqlaringning oldiga borgin. Bog'cha opang yaxshi ertak aytib beryapti.

«Aldamoqqa bola yaxshi!» degandek Mas'ud mushkul savolini esdan chiqardi.

– Ayiqpolvon haqidami? – deganicha chopib ketdi.

– Kechirasiz, – dedi Mas'ud uzoqlashgach Nafisa Ummataliga, – shunaqa qilmasam bolaning ko'ngli cho'kadiganga o'xshaydi. Shu gap sal esidan chiqsin. Bundan bu yoq shu yerdasiz-ku.

Nafisa Ummatali bilan xayrlashar ekan, kuldi:

– Bolalik uyda sir yotmas. deganlari shu.

– Sir emas, jinoyat deng.

Xuddi shu payt darvozadan Qimmatxon kirib keldi. Ummatalini ko'rib sal orqaga depsingan bo'ldi, lekin hayiqmadi. Yupqa labi titrab, bodom qovog'i pir-pir uchdi.

Nafisa: «Ana endi xarsang ko'chiradigan bo'ron bo'ladi» deb turgan edi, Ummatali gapni qisqa qilib, Qimmatxondan hazar qilgandek betiga ham qaramasdan bir chetga o'tib ketdi. U darvozadan chiqishi bilan Qimmatxon yugurib Nafisaning oldiga nafasni tiqilib keldi.

– Bolani nima qilaman deyapti? – so'radi u.

– Hech narsa! Sog'ingan ekan – Nafisaning ensasi qotib javob qaytardi. Ichida «shunday erni bilmasang ko'r bo'lasan» deb qo'ydi, nafrati qo'zg'adi.

– Nafisaxon, tag'in berib yubormang.

– Bersam ham yarmini beraman Yarmi o'zingizga qoladi!

Bu javobdan Nafisaning kayfiyatini fahmlagan Qimmatxon jilpanglashga o'tdi:

– Opoysi Nafisaxon, bunaqa betgachopar bo'lmang, hali yoshsiz. Kim haq, kim nohaq – bilmaysiz.

Erkak zotining o'z xotiniga bir tili, begona xotinga boshqa bir tili bo'ladi.

«Mening erimning xislatini aytyaptimi bu!» degan Nafisa indamasdan o'z kabinetiga kirib ketdi, Qimmatxonning ipi uzun, ignasi sinq edi.

4

SHO'RTUMSHUQ

A'zamning hamon xotinidan ko'ngli to'lmas edi. Unga «baxtimning to'g'anog'i» deb qarardi. Axir xotini tufayli tengdosh, tanish-bilishlari orasida yorug' yulduzdek yalt etib, mavq qozonib olmoqchi edi-da! Keyin uning xotini ko'rkam bo'lishi shart edi.

Endi-chi? Endi na unisi bo'ldi, na bunisi. Nafisa oddiygina bir xotin. A'zam uni «xunuk, kiyim yarashmaydi. O'zi undoq, yurishi bundoq» deyolmasa ham o'sha o'z andozasiga tushmaganidan ko'nglining allaqayeri goh achishib, goh xira bo'lib yotadi. Bu yetmagandek, to'ng'ichga qiz tug'ib berdi, bu bilan go'yo uning erkaklik g'ururini bukkandek bo'ldi. Go'yo, o'g'il – erning ustunligi!

Sovuqlik bilan boshlangan turmushning qori ketsa ham, muzi qolib, hamon ko'ngliga issiq yugurmasdi.

Oqko'ngil Nafisa ishonuvchanlik bilan yo'l qo'ygan xatosiga iqror, kul deb olov changallab olganidan dardi ichida. Erining insofga kelishini kutib, tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirib, shirin so'zini ayamaydi. Ming qilganda ham er avra, xotin astar, deb ba'zi koyishlarini o'ziga olmaydi, ko'nglini ovlab, og'zini poylab turadi. Xas-cho'pni shamol uchiradi, xarsangni ham qo'zg'atib ko'rsin-chi, deb o'zini og'irlikka soladi. Bunday qarasa, qizi Surayyoning tili «qaqa», «shokolad»ga kelib, pildirab yurib ham ketdiki, A'zam dimog'idan tushmaydi, yuzingda

ko'zing bormi, demaydi. Ko'cha xandon, uy zindon. Nafisa bu yoqda tursin qiziga ham tuzukkina qayrilib qaramaydi, «bolam-bo'tam» qilmaydi. Go'yo Nafisa uni ketida ergashtirib kelgan! Keyin bilsa, qizni yomon ko'rar ekan!

– Hoy, noshukur banda, – dedi shunda Nafisa, – o'ntasini ketma-ket qalashtirib qo'yganim yo'q, hali bitta...

– Bo'lmasa yana qiz tug'!

– Qizga nima qilibdi! Qiz odammasmi? O'g'il yoqqan chiroqni qiz yoqolmayaptimi? Yoki uzatgan yeriga qo'li yetmayaptimi?

– Bittasi senmi?

– Nima men, sochimni paxmoq qilib, o'ttiz ikkita tishimni takillatib, bersang yeyman, ursang o'laman, deb ko'zimni lo'q qilib o'tirgan ro'dapomanmi?

Xotin kishining ro'zg'or arrasini barobar tortishini hech tan olmaydigan A'zamning jon-poni chiqib ketdi. Nazarida xotini ro'zg'orga qo'shgan ulushini pesh qilib, olaxurjunning bir ko'zidagi meniki demoqchi, juda bo'lmaganda, xo'roz bo'lib kekirdagingni cho'zaverma, baribir tuxum tovuqniki hisoblanadi, deb uni kamsitmoqchi. Uyning ustuni qolib, sinchini ko'z-ko'z qilmoqchi! Bunga injener A'zam, erta-indin o'z faoliyati bilan hammaning og'zini ochirib qo'yadigan A'zam chidaydimi! Hech ham!

– Ha, sen bo'lmasang, chorig'imni sudrab qolaman, Orifxo'jaboyning¹ qizi!

– Orifxo'jaboyning qizi bo'lmasam ham, hech kimdan kamligim yo'q. Ha, buncha osmondasiz, xonning qizini olarmidingiz!

– Olardim! – piching bo'lsa ham dilidagini aytib yubordi A'zam.

– Sizning shu fe'l-atvoringizga xon qizini beraman, deb qirq kokilini sanab, sepini ortib turibdi. Choping, bo'lmasa quruq qolasiz!

¹ Toshkentlik mashhur boyga ishora.

Azam undan ham baland kelmoqchi bo'ldi:

– Sen cho'tir tikan bo'lib oyog'imga kirmaganingda xonning o'zi qizini olib kelib berardi.

– Shuning uchun har ko'ringan qizga bir iliqib, tilingizni osiltirib yurgan ekansiz!

– Shuning bittasi sen!

– Ha, men! Men o'lgur, sizning paxtavon gaplaringizga uchgan. – Nafisaning xo'rliigi keldi, qarasa, dimog'i achi-shib, ko'ziga yosh chiqadigan. Og'zing to'la qon bo'lsa ham raqibing oldida tupurma, deganlari esiga tushib, zahrini qult etib ichiga yutdi: – Ha, menga nima qilibdi? Kimsan, falonchi deganning tantiq qizini olib, yirtig'ingizga yamoq, uzugingizga uloq tegmay yurardingiz. Kishiga insof kerak. Insof – yarim imon! Yo, men egni-boshiga son tegmagan madaniyatsiz noshudmanmi?!

– Senga o'xshash madaniyatli bo'lgandan, sigir bo'lib o'tlab yurgan yaxshi! A'zam bu gapni ko'zlari qinidan chiqib ketay deb titrab aytdi. Nafisa ko'rdiki, ip juda tarang tortildi, endi shirt etib uzilib ketishi mumkin. Shunday bo'lsa ham haqini qo'ymadi, burlib uyga kirib ketar ekan, achitib oldi:

– Itning ishi hurish, zo'ravonni ishi urish bo'lmay o'lsin! Mahmadonalik ham donolik bo'libdimi!

Ana shunday xo'rliklarga goh chidab, xilvatga o'tib yig'lab, goho «xudo o'lim bersin shunaqa turmushga, oltin kosam bor deb zahar-zaqqum ichgandan, sopol tovoqdagi obi yovg'on yaxshimasmı», deb boshini olib chiqib ketishga qasd qilib yurganda, A'zam o'zgarib qoldi. O'zgarganda ham shunaqa o'zgardiki, Nafisaning o'zi «ishqilib, ko'z tegmasin!» deb hali-hali ishonmaydi, go'yo u kunlar bosinqirab ko'rgan tushga o'xshaydi. To'g'ri, bu o'zgarishdan sal oldin bir aynab keldi. Bu aynash idorasidan boshlandi. Uni qandaydir bir ishga ko'tarishmoqchi bo'lib turishgan edi, nimadir sabab bo'ldi-yu,

jimib ketdi. Bir oz vaqt o'tgach, institutni A'zamdand keyin bitirgan bir yoshgina injenerni tayinlashdi.

– Qo'llab-qo'ltiqlovchi bo'lmasa, ilming sariq chaqa! – deganicha kufuri chiqib, uyga qaytdi. U bu lavozimni anchadan beri ilhaq bo'lib kutib kelardi, undan keyingi pog'onani ham mo'ljallab qo'ygandi. Alamiga chidolmay, uch kun yotib ichdi. Sal hushyor tortsa, priyomnikni allaqayoqlarga to'g'rilab muk tushib eshitdi. Shu kungacha ortiqcha parvo qilmagan chet el musiqalariga mahliyo bo'lib, uyni boshiga ko'tarib qo'ydi. O'zining asari chalinayotgan bastakordek yayrab ketardi. Ba'zan priyomnikni boshiga qo'yib yotib, kechalari qandaydir stansiyalarni qidirdi, to'lqinlar qorishib ketsa jahli chiqardi. Kinoga ortiqcha hushi yo'q odam, hatto Nafisa bilan tushadigan bo'lib qoldi. Chet el filmlarini ko'rganda:

– La'natilar qoyil qiladi... kino qo'yishni shularga chiqarganda. Siyosat bilan ham ortiqcha ishlari yo'q. Hammomga tushgan odamdek yengil tortib, maza qilib chiqasan! – deb og'zini ko'pirtirib yurardi. Ayniqsa unga kiborlar olamidan olingan filmlar juda ma'qul bo'lardi.

– Yashash mana bundoq bo'libdi, xotin, – deb o'z turmushidan shikoyat qilardi.

– Qani butun xalqi shunaqa yashasa! – e'tiroz bildirdi Nafisa.

– Bilmaysan, xotin, xalqi ham yomon yashamaydi. Amerikani-ku qo'yaver. Fransiyaning mustamlakasi bo'lgan Jazoirda to'rt kishiga bitta yengil mashina to'g'ri kelarkan.

– Bo'lmasa nega xalqi bosh ko'tarib, kurashyapti!

– Quturgandan! To'qlik quturtiradi!

Nafisa ishonmadi. Nahotki turmushi tinch va to'q o'lka quturib, o'z osoyishtaligini buzsa! Yo'q, xalq sabr-kosasi to'lib, zulmu qashshoqlik jonidan o'tib ketganda qo'lga qurol oladi, jonini tikib, umrini garovga qo'yadi.

Lekin Nafisa bu gapni eriga aytib, tortishgisi kel-madi. Undagi bu kayfiyatni filmning ta'siri, deb o'yladi. Qolaversa, erining fe'lini yaxshi biladi: u quruq xazondek guv etib yonib ketishi mumkin. Birovning fikriga qo'shilishdan ko'ra, o'zinikini ma'qullashni yaxshi ko'radi. Axir olovni puflash bilan o'chirish ham mumkin, yondirish ham.

A'zamga «xudo insof berib», epaqaga kelganidan beri Nafisa bir narsaga amin: turmushim tinch bo'lsin degan kishining eshak minib oyog'ining tagiga qarayvergandan, tuya minib uzoqni ko'zlagani yaxshi. Benuqson do'st qidirgan do'stsiz o'tadi, degandek, benuqson er-xotin ham yo'q. Modomiki, eringning nuqsonini payqagan ekansan, unga tegma. Bu uning yarasi, tirnog'ing tegdi – achishadi, alamga kiradi. Lekin bu yaraga beparvo ham bo'lma.

Fazilatiga kuch berib, shu fazilati orqali nuqsonini yo'qotishga urin. Shundagina yutasan. Qalovini topsa qor yonadi! To'g'ri, o'zingni unga bog'lab ham bermasliging kerak. Ba'zi fikringni to'g'ri aytib o'tqizolmasang, yo'li bilan turmushga tatbiq qilib, uni iqror et. Afsonada makri qirq eshakka yuk bo'lgan xotin zotining oliyjanoblighi nahotki, yuz tuyali karvon qoplarini to'ldirmasa!

Ana shuning uchun ham eri bilan bo'lgan bu munozarani cho'zmadi, uning qitiq patiga tekkuncha kalta qilib qo'ya qoldi. Keyingi kunlarda Nafisaning yuziga qon yugurib, o'zi ham ancha suv tortib qoldi. Kiyim kiya yarashib, ovqat esa, og'zi ta'm biladi. Lekin bir narsadan hamon ko'ngli g'ash, to'g'risi, dilida hamon armon. Nega A'zam o'z pushti kamaridan bo'lgan Surayyoga bunchalik bemehr? Murg'akligida mayli, tili yo'q edi, serkasalligidan el sevargina bo'lmadi. Endi esa shunaqa shirin, shunaqa qaqildoq bo'lganki, gapirmaganni gapga solib, gapirganning o'pkasini uzadi. Har kuni bir yoqimtoy qiliq

chiqarib, mehningni tovlaydi. Dadası eshikda ko'radi deguncha qarqinoq bolasidek qanotlarini yozib talpinadi, oyoqlari tagida mushuk boladay o'rimalaydi – qani endi A'zam qo'liga olib «bolam-bo'tam» qilsa! Bo'lmasa, xuddi o'zining quyib qo'ygani. Dadasini bilganlar ko'rishi bilan «A'zamning qizimi?» deb darrov tanishadi. Buvasi-ku «Dadasidan bir tuki kam emas» deb, A'zamning bolalik chog'ini eslaydi.

– Yo tavba, o'zi-ya, – deb yoqa ushlaydi bobo. Kelib qolsa, ketgunicha tizzasidan qo'ymaydi. Bola shirin so'z gadoyi, deganday, Surayyo ham buvasiga butun «san'ati»ni ko'rsatadi.

To'g'ri, A'zam avvalgidan ancha egilib, shoxiga qush qo'nadigan bo'lib qoldi. Ba'zan plitka shokoladmi, arzon-garov qo'g'irchoqmi olib keladi, qizchasini tizzasiga oladi. Lekin chet el radiosini eshitadigan vaqti bo'ldi deguncha, qizini chetga suradi. Bir kuni soatiga qarab shunday shoshib qoldiki, Surayyoni tizzasidan yerga tushiraman, deb yiqitib yubordi. Bola yig'lamagan bo'lsa ham, yetimchadek allanechuk holga tushdi.

– Ha, muncha qistalang, dami o'tib ketadimi? – desa Nafisa.

– Bo'lmasa-chi, dami o'tish ham gapmi, yog'ligi qolmaydi, – deganicha narigi uyga kirib qamalib oldi.

– Boladan ham aziz bo'lmay o'lsin o'sha radioingiz! Bolamning ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi, – deb Nafisa Surayyoni keng bag'riga bosdi, uhfa sochlarini qoqindiq bo'lib o'pdi.

Nafisaning Ummataliga havasi keladi. Ana ota! Bo'sh qoldi, o'g'lining oldiga keladi. Girgитton bo'ladi! Mas'udning bir-ikki quv tobi qochganda-yu, o'zini qo'ygani joy topolmay qoldi. Bog'chaning vrachi bilan qanoatlanmay allaqayerdan professor boshlab keldi. «Kasalning oldini olgan yaxshi, yana ko'nglinglarga kelmasin», deb uzr

ham so'radi. Bir kecha ishidan qolib, tepasida o'tirib chiqdi. Tungi enaganing aytishiga qaraganda, kechasi yig'labdi ham!

«Nega bunday?» deb o'yladi Nafisa. Tabiat ota-onaga bir butun mehr beradi-yu, taqsimlanishda biriga ko'p, biriga oz tushib qoladimi? Ko'prog'i Ummataliga tushganmi! Undoq desa, Qimmatxon ham kelganida ona sigirday yalab-yulqab o'ladi. To'g'ri, xuddi sigirday yalab-yulqiydi. Unisiga odamiylik yetmaydi, samimiyat, bolajonlik yetmaydi, qo'r, harorat yetmaydi. Ba'zan xo'jako'rsinga qilayotgandek bo'lib ketadi. Shunaqaligi yaqqol ko'rinish tursa ham, tili bilan silab-siypab, aylanib-o'rgilaveradi, bir jonini ming bor sadaqa qiladi.

Ming qilganda ham Ummataliniki boshqacha og'ir, vazmin, tadbirli. Dokaday hilpillab, jezday yiltillayvermaydi. «Er degan mana bundoq bo'libdi!» degan fikr xayoliga keldi, eri eshitib qolayotgandek ko'zlari javdirab yondi.

Bu fikr uyga qamalib qolgan qovoqaridek ancha vaqt-gacha boshida g'o'ng'illab turdi. Birdan eshik qo'ng'irog'i jiringlab qoldi. «Nahot darrov keladigan vaqti bo'ldi», degandek, soatiga qaradi. Erining bir-ikki kundan beri sal kechikib shirakayf bilan kelishiga ishora qilib ertalab «ko'p tutilmang!» degan, A'zam esa «Erta kelsam orig'ing semirib, xoming pishadimi?» deb kulgiga olgan edi. Shu esiga tushib, qandaydir quvonch ichida barq urib, ko'ksiga tepdi, ko'zlari charaqlab ketdi.

Lekin eshik oldida qaynatasi Teshaboy turar edi. Salom berib ichkariga taklif etdi. Qaynata ichkari kirish o'rniga:

– Ishqilib uydamidilaring, – deganicha orqasiga qaytdi. Eshakka solingan xurjun ko'zidan og'zi ro'mol bilan bog'langan bir chelak olib kirib keldi. Uni kelin qo'lga tutar ekan so'rashdi:

– Yaxshi o‘tiribsizlarmi? Mol-jon omonmi?

Boyvachcha hali qaytganlari yo‘qmi? Teshaboy ota, nima uchundir o‘g‘li A‘zamni «boyvachcha» der, bu so‘zdan eri kibrlansa ham, Nafisa ancha vaqtgacha ko‘nikolmay yurdi.

– Shukur, o‘zinglar tinchmisizlar? Juda jim bo‘lib ketdinglar. – O‘z navbatida so‘rab chiqdi Nafisa.

– Bizlar-ku kelib turibmiz. Sizlardan darak yo‘q. Yoz o‘tib ham hali boqqa chiqqaninglar yo‘q. Har yakshanba ko‘z tutamiz. Hozir dala juda yaxshi bo‘lgan-da, meva zoti borki bol tomadi. Nahorda ishkom oralab, o‘zing sevgan uzumni tirnog‘ing bilan shirt uzib muzday tiniq suvda bir chayib yeganga nima yetsin! Dardki bor, davosi shu. Odamlar ko‘ch-ko‘lani bilan ko‘chib chiqadi. Sizlar tayyorini yolchitib nafini ko‘rmaysizlar. Sizlarga odam hidi yoqmaydi.

Bilmadim, shu katalakdan nima topgansizlar. Dalaga chiqmaysizlarmi, yayrab-yayrab yurmaysizlarmi! Hovuz bo‘yida, kunda yotgan qurbaqaning sho‘lp etib suvga tashlab, sho‘ng‘ib ketishining o‘zi qancha maza! Tongdagi bulbulning nolishini aytmay qo‘ya qolay! Biz sizlarday vaqtimizda o‘zimiznikiga qanoat qilmay, o‘rtoqlarnikiga kezib ketardik. – Teshaboyning yuragi to‘lib ketgan ekan shekilli, yana ancha ginaxonlik qildi va gapining oxirida «mana, bog‘ning ham bir-ikki yilligi qoldi» deyish bilan tugatdi.

– Buzilarmishmi? – qiziqib qoldi Nafisa.

– Zavod yildan-yil kengayib boryapti. Uylar qurilyapti. Axir ketadi-da. Ana undan keyin shaharda, bermalol pashshanglarni qo‘rib o‘tiraverasizlar. Qadoqlab bozordan meva olib, sanab yeb yozni o‘tkazasizlar.

Teshaboy ota belbog‘iga qistirgan kattagina dastro‘molini olib, terlagan yuz-bo‘yinlarini artdi. Qorasidan oqi ko‘p soqolini silab, shukronalik qildi:

– Bir ishkonda ozroq husayni bilan buvakidan sizlarga atab olib qo'ygan edim, qarasam, chug'urchuqlar qo'ymaydigan. Uzib, o'zim olib tusha qoldim. Olma bilan toshnokni ham pay urib qo'ydim. Qishda olib tushib beraman.

– Bekorga ovora bo'libsiz. Rahmat, ota!

– Ilmi o'g'il otadan ulug' deyishadi. Endi xizmatlaringni qilamiz-da! Ovoragarchiligi bormi?

Idishini bo'shatib qo'ying, qaytishimda olib ketaman, kerak bo'lib turadi.

Ota qo'zg'aldi. Nafisa shuncha qilsa ham o'tirmadi. Bozorga jinday ho'l meva olib tushib ketayotganini vaj qilib, so'zida turib oldi.

Ular ko'chaga chiqqanda sim yog'ochga bog'langan yuvoshgina eshakni qo'shni bolalar allaqachon o'rab olishgan, biri olib, biri qo'yib allanimalarni chug'urlashardi. Otani ko'rishi bilan «Ana egasi!» deyishdi, duv qochishdi. Ota ularni ko'rmaganday keksalarga xos salmoqlab bordi, eshakni yechar ekan, keliniga ginaxonlik qildi:

– Sizda ham ayb bor, kelin. Xotin – xalacho'p. Erkakni turtib, yo'lga solib turishi kerak. Nafisa ichida «xotinning xalacho'piga yuradigan er bo'lsa ekan o'g'lingiz» desa ham, ishni bahona qildi.

– Ish...

– Ish – sayyohning yo'rg'asi. Ba'zan-ba'zan dam oladi. Yoki sizlarniki dam olmaydigan xilidanmi? – Eshakni yo'lga sola turib, ota yana gapirdi:

– Men ham jildirab turgan ariqman – bugun bor, ertaga yo'q. Keyin nima qilsanglar o'zinglar bilasizlar... Ha, aytganday, toklarni yopdim, kenjalarimning qo'lini halollob olmoqchiman, juda uyat bo'lib ketdi. Boyvachcha kelsa ayting, u yoq-bu yoqqa jilmay tursin, bozordan qaytishda kiraman, jinday maslahatli ishim bor.

– Xo'p bo'ladi, otajon! Birpas o'tirmadingiz-a!

Quruq ketyapsiz. Birpasda...

– Bilaman, chaqqonsan, kelin. Bozordan qaytay, bafurja o'tiraman.

– Kutamiz bo'lmasa.

– Xo'p-xo'p!

Nafisa eshak orqasida do'mbillab ketayotgan qaynatasiga uzoq qarab qoldi. «Qarib qolibdi, bechora! Shunga ham qiyin. Jo'jabirday jon. Kattasining ahvoli bu – yetti yot begona nima-yu, bu nima!» deb ko'nglidan o'tkazdi, unga rahmi keldi. U eri kelishi bilan qaynatasining uzum tashlab ketganini va maslahatli ishi borligini aytgan edi, A'zam burgaday sakrab tushdi, sutning ko'pigiday ko'tarilib ketdi!

– Qanaqa maslahat bo'lardi! Pul kerak bo'lib qolgandir-da. Ayt, pulim yo'q. Endi bir kamim o'g'il to'yiga qarashishmidi! Shunga bir chelak uzumni likillatib tushibdimi! Berib yubor!

– Voy, nega unaqa deysiz? Otangiz-a! Endi olib tushibdilarmi? Qachon ko'rsangiz katta boshlarini kichik qilib meva tashiganlari tashigan. Birov eshitsa nima deydi!

– Nima desa deyaversin! Men yotoqda yotib qora non bilan sovuq suv ichib o'qiganimda qayoqda ekan!

Yosh xotinni olvolib... Endi kerak bo'lib qoldimmi!

– Qo'ying-ey, unaqa demang. Dadangiz ba'zi birovlarday chaqani tanga hisoblab, o'n yeridan tugadigan odam emaslar. Balki qo'llari qisqalik qilgandir...

A'zam yana o'zinikini ma'qulladi:

– Qishi bilan tishimning kirini so'rib chiqib, yozgi otpuskalarimda ishlardim. O'shanda ham shu bog' bor edi. «Qo'y, bolam, dam ol!» demaganlar.

– Shu bog' bo'ladigan bo'lsa o'shanda ham botmon yog' bermagandir. Hadeb kekxa odamning orqasidan tosh otavermang, uyat bo'lib ketdi.

– Betiga ham aytaman kerak bo'lsa... – yana balandan keldi A'zam.

Bundoq qarasa, erining ko'pigi tinmaydigan. Hali oshiga sabzi bosgani yo'q. Hademay qaynatasi kelib qoladi. Oshxonaga o'tib ketar ekan:

– Ming qilsa ham dadangiz. Hali kelsalar yana betlariga chopib yurmang, keksa odamning ko'ngli og'riydi. Yotig'i bilan muomala qiling. O'zlarini ham munkillab qolibdilar, – dedi. Bu gal A'zam indamadi. Uning otasiga da'vosida jinday jon ham bor edi. Lekin u bir tomonini falakka chiqarib, o'zga tomonini tan olmayapti.

A'zam bilan uning singlisi Teshaboyning oldingi xotinidan. Ularning onasi vafot etgandan keyin Teshaboy o'gay ona qo'liga berib, bolalarimning ko'z yoshini oqizmayman» deb ikki-uch yil uyianmay yurdi. Kuzda yong'oq qoqayotganda yiqilib, boshi yostiqa tegdi-yu, oilaga bir mehribon qo'l juda zarur bo'lib qoldi. Farzandsizlik tufayli eri javobini berib yuborgan bir bevaga uylandi. O'gay ona avvalgi eridan ko'p dashnomlar eshitaverib siqilgan xotin ekan. Teshaboyning uyiga kelishi bilan qizini qizim, o'g'lini o'g'lim deb mehr qo'yib ketdi. «Zora xudoning rahmi kelib, menga ham farzand ato qilsa», deb ikki yetimni yuvib-taradi, yemay yediradi, ichmay ichirdi, kiymay kiydirdi. «Xudoning rahmi keldi» shekilli, uchinchi yil deganda bir emas, birakayiga egizak o'g'il tug'di. O'z-o'zidan ma'lumki, onaning mehri bo'lindi. Bu albatta «o'z bolangni tizzangdan tushir, o'rnida men o'tiraman» deydiqan mushuktabiat A'zanga yoqmad. Hatto bir kunni g'ayirlik qilib Husanning ko'ziga cho'p tiqib olishiga sal qoldi. Shundan keyin ona go'daklarini ehtiyot qiladigan bo'ldi. Bu esa, A'zanga yana alam qildi. Yana o'gayligiga yo'ydi. O'gay onaning to'g'risi egri, o'giti do'q, yo'tali baqiriq bo'lib eshitildi. Bu orada qarindoshlarning bilgani – u, bilmagani – bu, dedi. Qiz barvaqt uzatilib

ketdi. Bolaligidan injiq, manman, chiranchoq bo'lgan A'zam esa, hamon o'gay onasi bilan dadasidan domangir. Bo'lmasa o'gay ona bechora, birortasini sensiragani yo'q, hali-hali aylanib-o'rgiladi. Orqasidan ham hurmatlab, eriga «o'g'lingiz» demaydi, «katta o'g'limiz» deydi. Baribir A'zam uchun yuzi qora, o'gay ona! Teshaboy-ku qo'yning og'zidan cho'p olmagan yuvosh odam. Mehnatdan qo'li qattiq, ko'ngli yumshoq. Esini tanibdiki, ikki tanob yerida bog'bon, olti oy yoz qo'lidan tokqaychi tushmaydi. Oldini urug'-aymog'iga ulashib, ketini o'zi yeydi. Bir oyog'i oqsoq bo'lganidan, urush ham uni chetlab o'tdi.

Lekin kimning uyiga qoraxat kelsa, boshlab uning ko'ziga yosh to'lardi. Shunday odam o'z farzandining zidiga ish qiladimi? Keyingi xotinidan farzandlar ko'rganda ham, xayolini bo'lgani yo'q, bo'lish u yoqda tursin fikriga ham keltirmadi. «O'nta bo'lsa o'rni boshqa! Har biri bir barmog'im, qaysi birini tishlasam ham og'riydi», deb birini biridan kam ko'rmadi. Hatto: «U dunyoda xudoyi taolo hammadan oldin shu yetimlar haqida mendan so'roq qiladi», deb doim ularning ko'nglini ovladi, boshini siladi. O'z kosasidan jaz olib, A'zamnigiga solsa soldiki, unikidan birovg'a oldirmadi. Lekin jo'jabirday jonligidan (keyingi xotinidan olti bolasi bor edi) qozonida borini hammasining oldiga teng suzib turdi, doim norozi A'zamdanda alohida xabar ololmadi.

A'zam esa, shart-sharoitni hisobga olgisi kelmas, nuqul o'ziga tuzuk sinfdoshlarni ko'rib o'kinar, ko'ngli cho'kar, bu ko'ngil cho'kish bora-bora otasiga bo'lgan alamga aylanar edi. O'zganing himmatini daryo, o'zingnikini misqol bil, degan so'zni u bilmasdi. Bolaligidan boshqalardan ajralib turishga intilish balog'atga yetgan san g'ovlab ketdi.

Bunga uning kelishgan qosh-ko'zi, keng yelkalari, chiroyli qomati ham ozmi-ko'pmi sabab bo'ldi. Hamma otalardek Teshaboy ham o'g'lining nuqsonlarini ko'rmas,

ko'rsa ham, «Yoshlik g'ururi. Borib-borib taftidan tushib qoladi», deb parvo qilmas, keksalik – ko'prik, qancha gap bo'lsa ko'taradi, deb hamma og'irlikni o'ziga olardi...

Otasining kelib-ketgani A'zamning xayolini o'g'irlagan edi. U yechinmay o'tirardi. Atrofida mushuk boladek beozor o'rmalashib yurgan qizi ham ko'ngliga sig'madi. Uni onasi oldiga – oshxonaga kiritib yubordi. Xotiniga ovqatni tezlatishni buyurdi.

– Voy, dadamni kutmaysizmi? – degan Nafisa erining qosh-qovog'ini ko'rib oshini tezlatdi. «Madaniyat va ma'rifatning maqsadi imkon boricha hamma narsadan lazzat olish», deb bilgan A'zam ustiga tovuq bosilgan oshni paqqos tushirib, arzimagan bir narsani bahona qilib chiqib ketdi. Nafisa orqasidan:

– Dadangiz kelsalar nima deyman? – deganicha qolaverdi.

Undan saldan keyin kelgan ota, nevarasi bilan birpas «dardlashgach»:

– Boshqa bir kelarman. Qorong'iga qolmay! – deganicha jo'nab ketdi.

Nafisa xijolatdan o'zini qo'ygani joy topolmas edi...

5

TAMANNONING SEVGISI

Tamanno fransuz yigiti Reneni sevib, otasi Saidakbar hojidan baloga qoldi. Ota qizining qo'lidan bu ish kelishini hech o'ylab ko'rmagan ekan. Bir mahallar ona yurtida rus-tuzem maktabini ko'rgan, dunyo kezgan Hoji yakkayu yolg'iz qiziga yaxshi tarbiya va ta'lim bermoqchi bo'lib qoldi. Bolaligidan tarbiyasiga odam yolladi, ona tilimdan bebahra bo'lmasin, deb allaqayerdan otinbibi topib kelib, o'zbek tili o'rgatdi. Esini tanigach, qiz fransuz maktabiga qatnagan bo'lsa ham, ota uyda o'zbekcha

gaplashishni shart qilib qo'ydi. O'zi buning namunasini ko'rsatib, boshqalarga ham ko'z-quloq bo'lib turdi. Bu otaning o'zbek tiliga bo'lgan otashin mehridan emas, «vaqti soati kelib, kindik qonim to'kilgan tuproqqa qadam bossam, bolalarim el-yurt ta'nasiga qolmasin», deb shunday qilardi. Bu bir tomondan bo'lsa, ikkinchi yoqdan o'zbek so'zlarining uyida eshitilib turishi, uni o'zi qochib chiqqan yurtidan juda ham uzoqlashib ketmaganini go'yo ko'rsatib turardi. Toshkentdan tishida tishlab olib qochgan o'g'li Abulbarakani ham xuddi shunday qilib tarbiya qildi. To'g'ri, u Toshkentda, o'zbek xotinidan tug'ilgan. U xotinidan uch qiz, bir o'g'il ko'rdi. Mushtoq bo'lib kutgan o'g'il tug'ilib, Hoji o'zini qo'ygani joy topolmay sevinib yurganda sho'rolar siyosatini o'zgartirib, «erkin savdo-sotiqqa» chek qo'ya boshladi. Rus-tuzem maktabini tugatgan, savdo ishlari yuzasidan avval otasi bilan, keyin o'zi Moskva, Peterburgni ko'rgan, sanoat ko'rgazmalarida qatnashgan Saidakbar hoji charxi falakning qayoqqa qarab aylanayotganini darrov fahmlab oldi. Do'kon-dastakning tanobini tortdi, sinchiklab atrofga nazar soldi.

Idrok qilib qarasa, u bilan bordi-keldi qilishgan ba'zi afandi-yu, qaldirg'och soqol jadidlarning gapi puch, bundan buyoq ular tegirmonining aylanishi gumon. Bular ko'proq so'z bilan ovora. Hukumat esa, mehnatkashlar manfaatini ko'zlab amaliy ishga ko'chgan. Hushyor va tajribali Saidakbar hoji ulfatlaridan hech birining gapiga quloq solmadi. Zimdan ishini bitirib, bir kechada yo'q bo'ldi-qoldi. U ona yurtini tashlab qochgan edi. U ichki-tashqi hovlining ham, Oqterakdagi yer-suvining ham, mollarning ham bahridan kechdi. Mollarning emas, kasalmand xotini bilan uchta qizini ham tashlab ketdi.

– Tinchib oldim, odam yuboraman! – deb ularning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirdi. Lekin o'g'li Abulbarakani xizmatkori Qurbonalining qo'lga tutib:

– Ko'z-quloq bo'lib yur, – dedi. Qurbonalining Hoji bilan ketish niyati yo'q edi. U: «Pichoq o'z sopini kesmaydi, sho'ro kambag'alniki», degan fikrga kelib qolgan edi. Lekin boy darrov nozik yeridan oldi:

– Bosmachiga chiqargan otlarimni kim haydab borgan?

– Men, – dedi Qurbonali bo'shshib.

– Vassalom. Bosmachi kim? Sho'roning dushmani.

Unga ot yetkazib bergan-chi? Uning dumi. Shu qil-mishlaringga sho'ro sening boshingni silarmidi?

Tentak bo'lma! Yo'lga tush. Ma, buni tayanib ol, darmon bo'ladi!

Saidakbar hoji Qurbonalining qo'liga oddiygina hassa tutdi. Qurbonali oldi-yu, salmog'idan hayron bo'lib, Hojiga qaradi. Hoji «damingni chiqarma!» degandek, ko'zini qisib qo'ydi: hassaning ichi parmalanib, nuqul o'n so'm lik oltin to'ldirilgan edi.

– Bola-chaqam nima bo'ladi? – degan edi Qurbonali, Hoji o'z xotiniga aytgan javobni qildi.

– Qovun sayiliga ketayotganimiz yo'q, Qurbonali!

Vaqt bilan to'rt ko'z tugal bo'lamiz. Nochor qolgan Qurbonali vaqtning ziqligidan onasinikida bo'lgan xotinini tunda borib ko'rib keldi. Kasal o'g'li Ummatalining peshanasidan o'payotganda o'zini tutib turolmadi, o'pkasi to'lib, voqeani xotinga bildirishga majbur bo'lib qoldi.

– Hoji otam ketayotgan bo'lsa bo'ynida illati bor – davlatidan qo'rqadi. Sizga nima?

– Endi men ham... – Qurbonali u yog'ini aytmadi, gapni burdi: – Tuzini ichganman.

– Tuzini ichgan bo'lsangiz, qish-qirov demay xizmatini qildingiz.

– Uying bug'doyga to'lgir, xotin, gapni cho'zma, ketmasam bo'lmaydi.

Erining so'zi qat'iy ekaniga endi shak keltirilmagan xotin:

– Biz-chi? Biz nima qilamiz? Ummatalining ahvoli bu bo'lsa! – dedi kasal bolasining peshanasiga qo'lini qo'yib.

– Dard bergan xudoyim, shifosini ham o'zi beradi. O'ziga sig'in. Mening qo'limdan nima keladi. – Qurbonali ham qo'lini o'g'lining peshanasiga qo'ygan edi, muzdek tegdi shekilli, ko'zini ochdi.

Otasini tanib jilmaygandek bo'ldi. – Opoqmisan, o'g'lim? Ha, barakalla, azamat. Oyingizni ko'p ham qo'rqitmang, ko'zingizni ochib yoting, «opoqman!» deng. Sen ortiqcha tashvish tortma, – dedi Qurbonali xotiniga yuzlanib, – Hoji ham bolalarini tashlab ketyapti. Odam yuborar emish. Shunda sen ham birga borasan. Ungacha Ummatali ham dikillab yurib ketadi. Xayr, diydor ko'rishguncha.

Mana o'ttiz yilki, Qurbonali bola-chaqasining diydorini ko'rmaydi. Hoji hali odam yuboradi!

Chegaradan o'tib, muqim bir yerga o'rnashib olguncha ipakdek muloyim bo'lgan Saidakbar hoji kasb-kori yurishib ketgach, yana asli holiga keldi-qo'ydi.

Teridan bit semirib, bag'baqa soldi. Qurbonali keyin bildi – u juda ustalik qilgan ekan. Toshkentdan chiqish kechasi otxonada tuni bilan uymalashgan edi. Shunda yo'lga oladigan ikkala otiga bir talay tilla so'mlar yutqizgan ekan. Chegaradan o'tishi bilan so'yib, qornidan oldi. Bular oldida Qurbonalining hassasidagi urvoq bo'lmaydi. O'g'li Abulbarakaning do'ppisi jiyagiga mayda gavhar donalari joylagan ekan, unı ancha keyin, bir arab boyi bilan sheriklikka ko'n zavodi ochganda oldi.

Keyin Hoji bir arab qiziga uylandi. Undan mana shu Tamannonı ko'rdi. Ona bechora ko'zi yorigandan keyin o'nglanmay yurib, axir o'lib ketdi. Hoji bu xotinni yaxshi ko'rganidan bir yil azasini tutdi, uyida biror kun o'yin-

kulgi bo'lishiga ruxsat bermadi, butun marosimlarini bekami-ko'st o'tkazdi.

Ulg'aygan sari onasiga tortib kelayotgan qizi Tamannoga butun mehrini to'kdi, nima desa og'ziga qaradi, nima istasa qo'lga tutdi. «Tobutim ustida sochini yoyib yig'laydigan mehribon qizim, poshshoxon qizim», deb erkalardi.

Buning boshqa bir sababi ham bor edi: ko'zining qorachig'iday ardoqlab bir xotinu uch qiziga almashgan arzanda o'g'li Abulbaraka u kutganiday ota chizgan chizig'idan yuradigan chiqmadi. Bo'lmasa unga ham hazilakam mehnat sarf qilmadi! Bu arab o'lkasida turg'un bo'lib qolishi bilan o'g'lini «tili qotmasdan» muallim yollab arab va fransuz tillarini o'rgatdi. O'zbekchaga o'zi payidan bo'lib turdi, Qurbonaliga qo'shib qo'ydi, bularning o'zaro o'zbekcha gaplashishlaridan keyincha, Tamanno ham bahramand bo'ldi.

Abulbaraka, Saidakbar hojining bir jadid o'rtog'i «ajdodlarimiz tarixining yorqin sahifasi bilan tanishib qo'ying» deb tashlab ketgan bir kam nusxa kitobda uchragan ism bo'lib, Hojiga yoqib qolgan, o'sha kezda dunyoga kelgan farzandiga katta faxr bilan qo'ygan edi. Bu ism uning qayta qad ko'targan savdo-sotig'ining ruhiga juda mos edi. Hojini shoshirib qo'ygan NEPning gulxani so'nib, uni bu yot o'lkaga uchqunlardan sachratib yuborgan bo'lsa ham, «tabarruk nomli» o'g'lidan umidi katta edi. Endi bo'lsa Parijga yuborib o'qitganlari, doktor qilib faxrlanganlari yuzini yorug' qilmaydigan ko'rinadi. Na otasining savdo-sotiq va orzu-niyatlari bilan ishi bor. Uning butun aksi.

O'g'lidagi bu nuqsonni Tamannoning tarbiyasi bilan to'ldirmoqchi bo'lgan Hojining qizidan ham kuyishiga sal qoldi. Tilini ko'ndalang tishlagancha nafasini ichiga yutdi. Ming bir o'g'itu nasihatlar bilan Parijdagi zodagon qizlari

o'qiydigan maktabga yuborilgan Tamanno fransuz yigitini sevib qolib, bir dugonasining otasi orqali Hojiga bildirdi. O'limdan xabar kelgandek Saidakbar hojining ko'zi olakula bo'lib ketdi. Cho'g' bosib olgan yalangoyoqdek tipirchilab qoldi, bir oz shamollab yurgani uchun kasalxonaga – Abulbarakaga odam yugurtirdi, zudlik bilan yetib kelishini alohida ta'kidladi. Operatsiyasini qoldirib kelgan o'g'liga voqeani qisqagina tushuntirdi-da:

– Men bildim, soat uchda samolyot bo'ladi. Singling oldiga uch. Agar u reys bo'lmay qolsa, o'zing samolyot yolla! Bugunoq yetib bor. Bil-chi, nima gap?

So'zingga kirmasa, kuchuk boladay bo'yniga arqon solib sudrab kel!

Otasining hurmatini doim o'rniga qo'yadigan Abulbaraka uning gapini ikkita qilmadi. Shu kuniyoq Parijga uchib ketdi. Singlisiga uchrashdi. Gaplashdi. Rene bilan ham tanishdi. Rene unda yaxshi taassurot qoldirdi. Xushro'y, muloyim, didlikkina yigit ekan. Yetimlikda chiniqib o'sib, oyoqqa turgan jurnalist. Oz-moz she'rlar ham mashq qilarkan. Shu elliginchi yillarning ilg'or kishisi.

Hayotga hushyor qaraydi, qo'liga olgan yong'oqning puch-to'qligini farqiga boradi. Singlisiga ham Rene shu tomonlari bilan yoqqan bo'lsa kerak, unga bo'lgan olov sevgisini Tamanno yashirmadi:

– Baxtim ko'kinging yulduzi shu! – dedi.

Abulbaraka otasining so'zini, niyatini yotig'i bilan tushuntirgan edi:

– Dadamga o'ligim kerak bo'lsa meni shu yo'ldan qaytaradi! – dedi va ko'ziga yosh olish o'rniga butun vujudi bilan kuchga to'lib, onasini eslatib turadigan tim qora ko'zlari charaqlab ketdi.

Abulbaraka bildiki, Dezdemonani o'lim chohiga yetaklagan, Anna Kareninani shonu shavkatdan voz kechtirgan muhabbat ana shu. Bunday muhabbat na qilich damidan,

na jallod doridan qo'rqadi. Demak, ortiqcha gap faqat bu muhlatbat otashiga dam berish bo'ladi.

Abulbaraka payt poylab, sinash uchun:

– Uyga ketmaymizmi? – degan edi, Tamanno o'ylab-netib o'tirmay:

– Rene ham boradimi? – dedi. Ma'lum bo'ldiki, undan ajraladigan emas.

Abulbaraka orqasiga qaytib, bo'lgan gapni otasiga yetkazdi. O'g'lining Tamannoga xayrixohroq bo'lib gapirayotganini sezgan Saidakbar hoji:

– Hammangning tuxuming bitta! Qachon mening aytganimni ko'nglimdagidek qilib o'rirlatuvdingki, endi o'rirlatasan! Senga ish buyurgan men ahmoq! – dedi-yu, o'zi qizi oldiga jo'nadi.

Otasining avzoyini ko'rgan Tamanno avvaliga juda qo'rqib ketdi. Keyin o'zini tutib, tushuntirmoqchi bo'lgan edi, otasi og'ziga urdi:

– Men ta'lim olish davridan o'tganman! Tushingni suvga ayt!

Og'zidagi og'zida, bo'g'zidagi bo'g'zida qolgan Tamanno eshikda kutib turgan mashinaga qanaqa qilib o'tirganini bilmay qoldi. Otasining butun a'zoyi badani bezgak tutgan odamnikidek titrardi, ko'zlari halizamon qinidan chiqib ketadigandek shunaqa nafratga to'la ediki, Tamanno umri bino bo'lib, otasini bunaqa holda ko'rmagan edi. Voqeadan xabar topib aeroportga entikib yetib kelgan Rene Tamannogo yaqinlashgan edi, he yo'q, be yo'q Hoji tarsaki bilan qc'yib yubordi, allanima deb baqirdi. Odam to'planib, politsiya aralashgan edi, Rene:

– Ayb menda, msega tegmang! – dedi va yurt osoyishtaligini buzgani uchun jarima to'ladi. Samolyotda ota-bola begonaday o'tirib kelishdi. Hoji bir-ikki marta qizining dimog'ini tortganini eshitdi. Lekin «bu kuningdan battar bo'l» degandek, churq etmadi. Churq etishi

u qizining alami ustiga chipqon bo'lar yoki o'zining dilsiyohligi bilan tugar edi. Hozir unga ikkisi ham kerak emas. Qizini ayni vaqtda qayirib oldi, endi bu yog'i qiyin emas. Yoshlarning ko'ngil yarasi tez bitadi. Orani ortiqcha buzishning hojati yo'q. Iloji bo'lsa bundan keyin yarani tirnamaydi, har qancha dori-darmon bo'lsa indamasdan, orqavarotdan qilaveradi – qizi qo'lida.

Hoji aytganini qildi. Tamannoni avvaliga ko'chaga chiqarmadi (qizning o'zi ham xohlamasdi). Bir oz vaqt o'tgach, ko'chaga chiqishga qarshilik bildirmadi-yu, yolg'iz qo'ymadi. O'zi ham ko'z-quloq bo'lib turdi. Lekin bir kun uning qo'liga bir xat tushib, butun ehtiyot choralari bekor ekanini isbotladi. U Renening Tamanno yuborgan xatga javobi edi. Demak, u uzib tashladim degan sevgi kun o'tgan sari chiyralib borayotgan ekan.

Bu hodisa o'zini tadbirkor hisoblagan Hojining qilichini qinidan chiqardi. Shu kuni qizining xonasiga shiddat bilan kirib bordi:

– Bu nima? – dedi xatni unga uloqtirib. O'ladigan ho'kiz boltadan to'ymas, degandek, Tamanno xotirjam javob berdi:

– Renening xati.

Bu javobni Hoji kutmagan edi. Tasbeh deb, qo'yniga ilon solib yurgan kishidek sapchib tushdi:

– Seni nima uchun Parijdan olib keldim, ayt-chi, nima uchun? Kimsan, kimning farzandisan, sal tanangga o'ylab ko'rasanmi?! Nahotki, otam shu ishimga rozi bo'ladi, deb o'ylading? Bu mumkin emas, axir u g'ayridin! Men seni bir g'ayridin uchun paypaslab yuribmanmi, qizim! – Hoji haddan oshib, endi sirg'anib ketishini bildi shekilli, yolvorishga o'tdi. – Akang-ku misqollab topgan obro'yimni botmonlab sovurib yuribdi. Nima, menda qasdinglar bormi, ajalimdan besh kun oldin go'rimga

tiqmoqchimisalar, qizim? Senlarda rahm degan narsa bormi? Jilla bo'lmasa senlar bevatan boshimni ham qil-malaring. Vatangadoligim ham o'zinga yetadi.

– Otajon, – dedi Tamanno, Hojining yon bosib kela-yotganini ko'rib, – bekorga o'zingizni diqqat qilyapsiz. Rene yaxshi yigit.

– Ming yaxshi bo'lganda ham g'ayridin. Bismillo, deb yegan bilan cho'chqa go'shti halol bo'lmaydi, qizim. Men xudo oldida nima deb javob beraman. Meni ham o'ylanglar. Men senlarning dushmaning emasman. Ni-maiki tishimda tishlab shu xonadonga tashigan bo'lsam, senlar uchun, senlarning baxting uchun. Meni ortmoqlab ketadigan boshqa yerim yo'q. Nahotki men sening baxtsiz bo'lishingni o'ylasam, jon qizim, bir tanangga o'yla!

Tamanno chindan ham «tanasisga o'yladi». Oqibat shu bo'ldiki, otasining moli mulki, orzusi uning baxtiga zid. Uning baxti Rene! Modomiki, sevgilisiga yetishmoqning iloji yo'q ekan, yashashdan ne naf!

Shu kechasi u zahar ichdi.

6

SUDXO'R YOKI MUNOFIQ

A'zamning bunchalik «quyulib», songa kirib qolishining siri bor edi. Bildiki, xotini bilan adi-badi aytisha bergani bilan shoxi chiqmaydi. Nafisa ham «xo'p, erjon, sizniki to'g'ri» deb mute bo'lib, bo'yin egadiganlardan emas. Hovlida o'sgan gulning hidi teng ikkimizniki deydi... Bu rezinani cho'zaverganning foydasi yo'q, chirt etib bir yog'i qo'lidan chiqib ketsa ko'ziga tegadi. Demak, birdan-bir yo'l, zahrini dilda-yu, shakarini tilda tutish.

Bu masalaning bir tomoni. Masalaning yana bir tomoni ham bor. Bu tomoni ham A'zamning ko'nglidagidek bo'lmadi. Shuncha kutdi, shuncha urindi, boshlig'i uning

qadriga yetmadi, talantini payqamadi. O'zining fahmicha, u allaqachon bir idoraning boshlig'i bo'lishi kerak edi. Yo'q, uni hech kim «ey, hali ham siz shu yerda yotibsizmi? Jabr bo'lib ketibdi-ku! Bu insofdan emas!» demadi. Undan keyin institut bitirganlarning ostida mashina! Ba'zilarining ko'kragida orden lentasini, deputatlik nishonini ko'rganda-ku, A'zamning joni halqumiga kelib qoladi, «axir ular mehnatiga yarasha obro' topayotgandir», deb o'ylamaydi, kechasi bilan ajiriqqa ag'anab chiqadi.

Uning hayotida murg'ak fikrini zaxa qilib ketgan yana bir voqea ham bor edi. Bu voqea u studentligida ro'y berdi. U institutning oxirgi kursida katta shaharlardan biridagi ulkan bir zavodda uzoq amaliyotda bo'ldi...

Uning diqqatini bir injener tortdi. Bu odam deyarli kunda ko'ylagini almashtirar, unga moslab galstuk ham taqardi. Kechqurunlari-ku yana boshqacha kiyimda ko'rinardi. Unga o'xshab kiyinadigan kishilar zavodda deyarli yo'q edi. Keyin A'zam bilsa, bu injenerning ismi Jems, o'zi chet ellik, tajriba olishga kelgan mutaxassislardan ekan.

«Chet elda injener mana bunday yashar ekan!» degan birinchi havas A'zamda ana shunda uyg'ongan edi. Uning havasi kelib, suqlanib qarab yurganini Jems ham sezdi shekilli, bir kuni sal boshini silkib o'tdi, boshqa bir uchrashganda qo'l berib ko'rishdi, ishlarini, qayerdanligini surishtirdi. Otasi borligini bilgach, «zoriqtirmay cholga xat yozib turing yoki undan ham zarurroq ishingiz bormi?» deb tegishdi. Jems juda xushmuomala, yurtidagi hayotdan ko'p gapirardi. A'zam uning har bir so'zini koptokdek ilib olib, kiyim-boshi va yurish-turishiga ishqiboz bo'lib yurganda Jems birdan yo'q bo'lib qoldi. Lekin uning qayerga ketganini birovdan so'rashga A'zam botinmadi. Keyin bilsa yurtiga ta'tilga ketgan ekan, yana o'zgacha bo'lib keldi: avvalgi yurish-turishi ham gapmi!

Buni ko'rib, A'zam baqa bo'lib qoldi, ichida «mana bu-larga maza!» deb qo'ydi. Bu yetmaganday Jems u bilan quyuq so'rashib, bu yerlarda hali rasm bo'lmagan chiroyli sharikli ruchka sovg'a qildi. «Bizning tomonlarda mana shunaqa ajoyibotlar bor!» degandek kulib qo'ydi.

A'zamning Jemsga havasi ortib, ichida bir g'uvur paydo bo'lib amaliyotdan qaytdi. Injener bo'lib, ishi yurishma-ganidan keyin esa o'sha Jems ko'z oldidan ketmay qoldi: axir men ham injenerman-ku! degan fikr xayolida girdika-palak bo'laverdi. Bu fikr bora-bora Jemslar yurtiga havas uyg'otdi. Go'yo o'sha yerda qadrini topadiganday tuyuldi. Kunlar o'tgan sari bu fikr yumalatilgan qor uyumiday kat-talashib boraverdi. Oxiri bu niyatdan o'zi ham cho'chib, niyatini ichiga yutdi. Ko'z-ko'z qilib yurgan sovg'a ruch-kani ham bir chetga yashirib qo'ydi. Endi uning niyati buzilgan edi... Endi uning dardi ichida! Alamini chet el radiosidan, kinokartinasidan oldi. «Tushga nimalar kir-maydi, dushman nimalar demaydi», demasdan ularnikini ma'qullay boshladi. Bu ma'qullash bora-bora chet elning hayotiga havas uyg'otdi. Havas orzuga, ketish niyatga aylandi. «Ana ular kishining qadriga yetadi. Kayf-safo o'sha yerda degan aqidaga keldi. Ko'zida ularniki yil-tillab, biznikining ustini xira bosa boshladi. Hatto shun-gacha borib yetdiki, ularning arig'idagi suvining ta'mi tu-gul, rangi ham boshqacha, tovug'i ham tuxum qo'yganda allanechuk o'zgacha qaqillaydi. Kinosini ko'rsang bah-ring ochilib, musiqasini eshitsang, o'yinga tushib ketging keladi. Kiyimlari-chi? Kiysang yarashadi, taqsang ko'rkingni ochadi. U yerda esa, bularning barini mushuk hidlamas ekan!

Bu kayfiyat borib-borib «qani o'sha yurtlarda yasha-sang» degan fikrga olib keldi. Lekin fikrni ro'yobga chiqa-rishning o'zi bo'ladimi? Uning bu niyatini idorasidagilar

bilib qolishsa bormi, oyini o'ttiz qilib, kavushini to'g'rilab qo'yishadi.

Demak, ehtiyot shart. Payt va yo'rig' topish kerak. Shu yakunga kelgandan keyin xotin bilan bo'ladigan adi-badiga chek qo'ydi, ishxonasida «faollashdi». Xushomadga o'tib oldi. Bu yil o'tgan yildagidek eshigi oldiga o'tqazilgan ko'chat endi tutganda kechasi chiqib ostiga kerosin quymadi. Axir eski hovlisidagi tutni har yili kolxozchilar qurtiga kallaklab ketaverganda: «Foydasi senlarga-yu, zahmati mengami», deb alamidan quritgan ham shu A'zam-da.

Endi u «boshqa» odam. Endi u chet el liboslariga ham ishqiboz emas, imkon boricha kiymaydi.

Kiymaydi emas, yoqtirmaydi ham. Hatto bir kuni xotini:

– Ha, muncha, sho'ruva ichib palovdan yuz o'giradigan bo'lib qoldingiz. Bir mahallar og'zingiz ko'pirardi-ku, – dedi eriga olib kelgan italyan koftasi unga yoqmaganidan ajablanib.

– U mahallar tushunmas ekanman! – dedi A'zam miyig'ida kulib, – o'zimizniki yaxshi!

– Buning fasoni boshqacha.

A'zam indamadi. Ichida qo'lga olib ko'rgisi, og'zini ko'pirtirib maqtagisi kelsa ham, o'zini tiydi. Ertasiga mehmonga boradigan bo'lib, Nafisa o'sha koftasini kiyib chiqdi. Eriga ham fin neylon ko'ylagi bilan hind botinkasini kiyishni taklif etdi:

– Sizga yaxshi yarashadi.

– Qo'y, kishilar, bu ham chet elparast bo'lib ketibdi deydi. Jaydari ko'ylagimni olib beraver, – dedi.

– Voy, butun el-yurt kiyib yuribdi-ku!

– Ular echki, biz qo'y.

Erining injiqligi sababini tushunib yetmagan Nafisa, mehmonda o'tirib, erining sonini asta chimchiladi, A'zam

qaragan edi «ana ko'rdingizmi, odamlar nimalar kiyib yuribdi» degan imoni qildi. Chindan ham ularning qarshisida o'tirgan mehmonning kiygani boshdan-oyoq chet el kiyimi edi!

A'zamning havasi kelgan bo'lsa ham, so'lagini ichiga yutishga majbur bo'ldi. Ko'nglidan «bu nima bo'libdi! Men hali shunaqalarni kiyamanki, bular yetti uxlab tushida ham ko'rmaydi!» degan mag'rur fikr o'tdi.

Unga birinchi navbatda pul kerak edi. Xotining pichoqqa ilinadigan biror urug'-aymog'i yo'qki, og'zini moylab qarzga yuborsa! O'z otasining ahvoli bu: xalacho'p qo'ldan tushmaydi. Buning ustiga o'g'lining to'yiga qarashmaganidan ko'ngli olingan, sirtidan sezdirmasa ham, A'zam biladi. Asli o'shanda chakki qilgan ekan. O'shanda jindak qarashib yuborganda, hozir tili uzun bo'lardi. Har holda dadasida pul bor. Dadası – zarang. Zarang yerda suv to'xtaydi. Hech bo'lmaganda o'limligini ajratib qo'ygandir. Eh, attang!!

A'zam o'ylab-o'ylab, tog'asida onasining merosi borligini topdi. Lekin tog'asi anchadan beri kasal, ko'rpa-yostiqlik qilib yotgan kasal. Shu ahvolda meros so'rab borsa yaxshi bo'lmas!

U bu ishni iylashdan boshladi: bir kuni o'zi borib tog'asini ko'rib keldi, yanagi haftasiga xotiniga:

– Yur, xotin, tog'am bechora og'ir yotibdi, birga ko'rib kelaylik. Besh kunligi bormi-yo'qmi? – dedi.

– Rahmat, mana bu ishingizga men borman, – dedi Nafisa, erining odamshavanda bo'lib qolganidan quvonib va naridan-beri kiyinib uning oldiga tushdi. – Dunyoda kishining kishiga qilgan yaxshiligi qoladi. Urug'-aymoq bilan bordi-keldi qilib, xabar olib turmoq ham katta ziynat. Yog'ichganda yot yaxshi, qon ichganda qarindosh, deb bekorga aytishmaydi.

– Albatta! Ish o'lgurdan qo'l tegmaydi, – yozg'irdi A'zam, – bo'lmasa-ku...

– Bu ishda ixtiyoringizni menga bering, men vaqt topaman.

– Xo'p.

Erining bu sohada ham yon berib kelayotganidan xursand Nafisa, tog'ani ko'rib qo'rqib ketdi. Tog'a juda marrasiga yetib qolgan edi. Qaytishda eridan minnatdor bo'lib qo'ydi.

– Yaxshiyam olib keldingiz, ko'rib qoldim. Xudo ko'rsatmasin, bir narsa bo'lsalar, yotganlarida bir xabar olmagan odam eshikdan qaysi yuz bilan kirib kelardim!

A'zam indamadi. U o'z xayoli bilan band edi: tog'a o'lsa merosni kimdan oladi? Yo bugun rozi-rizolik so'raganda shuni yuziga solish kerakmidi? Attang, sal sezdirsa bo'lar ekan, tepasida o'g'li ham bor edi. Otasidan keyin u yo tan oladi, yo yo'q.

A'zam maslahat tariqasida shu to'g'rida gap ochgan edi, tog'aga rahmi kelib, ko'ngli ezilib turgan Nafisa:

– Qo'ying, o'zi qaysi ahvolda yotibdi-ku! Qaysi bola-chaqangizga yetkazolmayapsiz! – deb qarshilik bildirdi.

– Qiyomat qarzi bo'lib bo'ynida ketmasin deyman, – A'zam gapni bu tomondan ildi.

– O'g'illari yomon yigitga o'xshamaydi, merosingiz bo'lsa berar. Nokasdan qarz bo'lsang ham yo'lda tutar, ham go'rda tutar degandek...

– Gap-so'zi tuzuk o'g'lining. Tag'in kim biladi, ichi qanaqa? Odamning olasi ichida bo'ladi. Tog'a bir haftaga ham yetmadi, olamdan o'tdi. A'zam uch kun belini bog'lab, o'g'li yonida turib berdi.

Agar savob ko'z yoshiga qarab taqsimlanadigan bo'lsa, hammadan ko'pi A'zamga tegardi! Lekin shunday mehribon jiyani bor ekan-ku, nega shu vaqtgacha

boshqa marosimlarda ko'rmay ekanmiz, deguvchilar ham bo'ldi.

Kuzda mevasi pishadigan daraxtga bahordan salom beruvchi A'zam sal vaqt o'tgandan keyin o'z ishini qildi. Beli bog'liqning dili bog'liq, deb merosdan og'iz ochishga botinmadi. Gapni otasining marosimlarini yaxshi o'tkazayotganidan, elu yurtning undan juda xursandligidan, hatto «Yil oshi»ga kelgan ikki-uch kishining og'zidan o'z qulog'i bilan «kiroyi ketingda tuyoq qoladigan bo'lsa shu marhumnikiga o'xshagan bo'lsa. Baraka topkur, ko'p rasamadi bilan otasining hurmatini qilyapti. Otasining arvohini shod qilgan asti kam bo'lmaydi!» deganini eshitganidan boshladi.

– Sizdan ham xursandman, A'zamjon aka, – dedi ko'ngli yumshoq o'g'il ko'zida yosh bilan, – shuncha obro'yimni olib berdingiz!

– Bizni qo'ya bering. Bir yil qora kiyib, bel bog'lasak ham bunday odamga kam. Bizning onamiz hayot vaqtlarida bu aka-singilning bir-birlariga mehribonligini ko'rmagansiz. Bay-bay-bay! Uch kun bir-bircvlarini ko'rishmasa, uzoqdan qarqunoq bolasiday qanotlarini yozib, yig'lab kelishardi.

Bog'da turib, birov-birovlariga meva yuborishardi.

– U mahalda men yosh bo'lganman, – afsuslangandek bo'ldi o'g'il.

– Ha, yosh edingiz. Lekin hozirgidek pishiq edingiz. Buvimiz rahmatlik ikkitadan parvarda bersa, biz darrov yeb qo'yardig-u, siz bittasini ertaga olib qo'yardingiz. Mana tadbirkorligingiz (pishiqligingiz, deyishga tili bormadi), hozir ham bor. Bo'lmasa, o'lik ko'mishning o'zi bo'ladimi? Yo'g'on ingichkalanib, ingichka uziladi bunday vaqtda!

– Shukur, yo'q emasman! – deb qo'ydi oqko'ngil o'g'il. – O'zlarining ham o'limliklari bor ekan.

– Yana yaxshi. Siz ortiqcha chiqimdor bo'lmadingiz, yoningizda qoldi.

Ana shu «yonida qolgan»ni ustalik bilan esiga solib, bir oydan keyin A'zam qarzga besh ming so'm uzib ketdi. Garchand o'g'ilga: «Moskvaga ketyapman. Bir-ikkita gilam olib kelaman. Qaytdim – beraman!» degan bo'lsa ham sal o'tmasdan «merosimni oldim!» deb til chaynadi. Bu gap o'g'ilning qulog'iga yetib:

– Bu qanday bo'ldi, A'zam aka? – degan edi:

– Nima qilibdi? – dedi tik turib u.

– Qarzni meros deyatotgan emishsiz.

– Endi, uka, – dangaliga ko'chdi A'zam. – Meros deb borsam bermas eding. Pul o'lgur, jondan ham shirin. «Sen», «men»ga bormaylik, deb qarz degan edim.

– Onangiz merosini olib bo'lgan-ku, otam rahmatlik aytgan edilar.

– Qachon? Kimdan? – ko'zi qinidan chiqib ketayotgandek bo'lib dedi A'zam.

– Otamdan. Dadangiz kamxarjroq bo'lib yurganda o'sha pulga sizning qo'lingizni halollagan ekanlar.

– Bo'lmagan gap! Hujjatingiz bormi?

– U mahalda hujjat qayoqda edi? Labz inobat bo'lgan.

– Labz emish... – pisand qilmadi A'zam, hatto mas-xaralagandek bo'ldi.

– Dadangiz bilsalar kerak.

A'zam ana shu yerda tarvuzi qo'ltig'idan tushgandek bo'ldi: dadasi tasdiqlab qolsa nima bo'ladi?

Butun rejaları puchga chiqadi-ku! U shu mahalda «tirik bo'lib to'rda, o'lik bo'lib go'rda bo'lmagan» dadasi-ning hayotligidan ham xafa bo'lib ketdi!

Sariq chaqalik nafi tegmagani tegmagan, shu yerga kelib kattagina zarari yetadiganga o'xshab qoldi. Ko'z oldiga dadasi emas, uning baxtiga chang solgan yovuz odam kelgandek bo'ldi, nafratidan tishlari qirsillab ketdi.

– U miyasi aynagan cholning esida nima bo'lardi, og'ziga kelganni aljirayveradi-da! – dedi A'zam titrab-qaqshab.

O'z otasining ta'zijasida ko'ngli yarimta o'g'ilning ko'z oldi qorong'ilashib ketdi: bu gapni gapirayotgan kim? Ammasining o'g'li A'zammi? Yo tavba! Yo adash eshittimi? Yo tush ko'ryaptimi? Nahotki kishi o'z otasini, «bolam-bo'tam!» deb yelkasida ortmoqlab, issiqda puf-puflab, sovuqda huv-huvlab ulg'aytirgan otasini shunaqa behurmat qilsa!

Nima uchun? Pul uchun, inson qo'lining kiri bo'lgan pul uchun-a! Astag'firullo!

O'g'ilga juda malol keldi. Surishtirganiga ham pushaymon yedi.

– A'zam aka, pul bo'lsa topiladi, dadangizni behurmat qilmang. Men qarzimdan kechdim. Bemalol yuravering: Siz olganingiz yo'q, men berganim yo'q! O'g'il shartta orqasiga burilib ketdi. A'zam xijolatdan yerga kirib ketish o'rniga:

– Ahmoq! – dedi. Qanday qilib yo'qotolmay yurgan og'ir yuk yelkasidan tushganday yengil tortib, labiga papiros qo'ndirdi. Xumordan chiqayotgandek so'rib-so'rib tortdi. Uygah hech narsa ko'rmagan mov mushukdek ko'zlarini yiltillatib kirib keldi.

Kechki ovqatni ishtaha bilan yedi. Har kungidek allaqanday to'lqinlarni radiodan tutdi, butun vujudi quloqqa aylanib tingladi. Nima uchundir, o'sha to'lqin taralgan yerlar unga har kungidan bugun yaqin tuyuldi, to'g'risi, o'zini o'sha yerlarga ancha yaqinlashib borib qolgandek sezdi.

O'g'ilning so'zi unga hamon kor qilardi, kulgisi qis-tardi. «Shu bilan qoyil qildim desa kerak o'zicha», deb masxaralardi.

– Kechdim emish. Kechsang kechaver!!!

Erining og'zidan beixtiyor chiqib ketgan bu so'zni dasturxon yig'ishtirayotgan Nafisa eshitib qoldi.

– Kim, nimani kechadi? – dedi eshikdan boshini suqib.

– Ishing bo'lmasin, xotin, yutdim! – A'zam juda mamnun edi.

Xotini qancha qistamasin, nimadan yutganini aytmadi.

Bu «yutuq» uni qanotlantirib yubordi. Ertasidan boshlab niyatini amalga oshirishga astoydil kirishdi. Niyatining misi chiqib qolmasligi uchun juda katta san'at kerak edi. U shunday qilishi kerakki, hatto bir yostiqqa bosh qo'yib yotgan xotini ham bilmay qolsin. U endi ishni idorasidan boshladi. Qizi Surayyoning tug'ilgan kunini bahona qilib, zarur kishilarni chaqirdi. Mehmonlarning atrofida girdikapalak bo'lib ko'ngillarini olishga intildi. O'sha kuni umrida bu xonadonga kirmagan kit balig'ining ikrasigacha dasturxonga qo'yildi.

– Buncha hotam bo'lib ketdingiz? – deb xotini tegishgan edi:

– Hayotda shu ham zarur ekan-da, xotin! – dedi A'zam va xotini ning nimaga zarurligini so'rab qolishidan, shu bilan yurak siri ochilishidan cho'chib, gapni darrov boshqa yoqqa burdi. – Nima, Surayyo shunday dasturxonga arzimaydimi! Davlatim bo'lsa haftada mehmon chaqirib, yilda bir to'y qilardim.

– Bu gapingiz joyida! Odamning ko'rki odam bilan! – Nafisa yana bir qadam insof tomonga burilgan eridan mamnun bo'lib, gul-gul ochilib dasturxon tuzdi, mehmonlarni ochiq yuz bilan qarshi oldi. Ikki gapning birida dasturxonga taklif qilib turdi.

Uch-to'rt kishilik mehmondorchilik juda yaxshi o'tdi. O'tirish oxiriga yetib, choyga navbat kelganda bir mahal «A'zamning ishi»ga aralashib, tinchitib yuborgan – xushmuomala ayol A'zamning yoniga stulini surib keldi. Engashib, qulog'iga:

– Shunday qizga uylanmayman, deb yurgan edingiz, unga qarang, bir xotin bo'lsa shunchalik bo'ladi-da.

A'zam, nechundir, bu gal qulog'igacha qizardi:

– Yoshlik, opa! – deyoldi faqat.

– O'shanda gojlik qilganingizda qo'g'irchoqdek bu qayoqda edi sizga!

– Shuni ayting-a! To'rt oyoqlik ot qoqiladi-ku, biz...

– Ehtiyot bo'ling! Endi qoqilsangiz uyat bo'ladi.

– Xo'p, opa!

Lekin qasamga o'xshagan bu javob A'zamning ichidan, allanechuk bir titrash bilan chiqdi. Bu titrashdan o'zi ham cho'chib ketdi. Opa esa, buni yosh yigitning uyalishiga yo'yib, yana bir piyola choy so'radi. Sherga nogoh yo'liqib qolib, qanday qilib qutulishni bilmasdan titrab turgan quyondek bezovta A'zam jon deb opa qo'lidan piyolani oldi. Oldida, choynakda choy bo'lishiga qaramay, shoshib qolganidan oshxonaga yugurdi.

– Choy bor-ku! – xotini eslatgan edi, bunga ham bahona topdi:

– Issig'idan!

Mehmonlar ketgach, A'zam buning alamini xotinidan oldi:

– Er bir ish qilayotganda xotin chovlisini solmaydi, kishi uyalib ketdi.

– Bilmabman, kechiring. – Nafisa chindan ham:

«Erimni noqulay ahvolda qo'yibman», deb o'yladi.

Yana izoh berdi: – ovora bo'layotganingizga...

– Turib darrov qo'limdan olgin edi, – A'zam uning gapini bo'ldi.

– Bundan keyin albatta shundoq qilaman, erjon! Nafisaning yuz-ko'zi yashnab, kulib aytgan bu so'zi A'zamning yurak sirini yana qalinroq pardaladi.

A'zamning qulog'i shu kunlarda ko'p uyushtirilayotgan chet el turist guruhlarida edi. Shunday safardan qaytgan

bir nechta odamning suhbatlarida bo'ldi, xotiralarini o'qidi. O'ziga kerak yerlarini ko'ngliga jo qilib, rejasini puxtalab bordi. Uni safarning rasmiy tomonlari ko'proq qiziqtirardi: kimlar yubora oladi, qanaqa qilib yuboriladi?

A'zamning yaqinda Hindistonga borib kelgan bir tani-shi uning hijjalay berganini ko'rgach:

– U yoq-bu yoqqa borish niyating bormi? – deb so'rab qoldi.

– Hamma borib kelyapti, men ham...

– Imkoning bo'lsa bor! Eshitgan boshqa, ko'rgan boshqa. Ishingga nafi ham tegishi mumkin.

– Men ham shu tomonlarini o'ylab...

– Bor, do'stim. Ikkilanmay boraver. Ko'rganing qoladi! Shayx Sa'diy yetmish yoshida safarga chiqib, qayta tug'ildim, degan ekan.

– Kishi yasharadi ham degin! – hazilga oldi A'zam.

– Senga yasharish kerakmasdir, yo qarib qoldingmi?

– Shu yoshimda besh-o'n yil to'xtab tursammikin devdim.

– Bu boshqa gap!

– Rasmiy tomoni qanaqa bo'larkin, mana shunisiga sal hayronman, – gapni amaliy tomonga burdi A'zam.

– Rasmiy tomoni nima? Jinoyatchimisan? – ajablandi suhbatdoshi. U A'zamning yuragida, go'shtni bosgan qurtlardek g'imirlashayotgan badbo'y niyatlarini sezmas, sezish u yoqda tursin, xayoliga ham keltirmas edi. A'zam esa, bo'ynida illati borning oyog'i titrar qabildan bo'lib, o'zini ehtiyot tutar, niyati suv yuziga shishib chiqqan murdadek ko'rinish qolishidan gumonda edi. Suhbatdoshining «jinoyatchimisan» so'rog'i qulog'iga «jinoyat qilmoqchimisan?» bo'lib eshitildi. Bu so'zdan a'zoyi badani larzaga keldi. Odatdagi hozirjavobligi bilan og'ir ahvoldan engil chiqdi:

– Jinoyat nimasi! Bir mahal xotinim bilan...

– U bir mahal edi. Hozir yaxshimisan? Birga turib-sizmi! Vassalom!

A'zam, shugina bo'lsa, bu yog'i hech gap emas ekan, deb turmushining yaxshiligini, agar shunga uylanmagani-da juda katta xatoga yo'l qo'yishi mumkinligini yarim soat vaysadi.

– Maqtanmaymanu, mening jannatim uyimda! – dedi «xotining yomon bo'lsa, sening jahannaming bu dunyoda» degan gapning aksini keltirib.

A'zam shunday sinov va surishtirishlardan keyin ta'tilini turist safarlaridan birga to'g'riladi. To falon kuni yo'lga chiqasan, degunlaricha yotib uyqusi kelmadi. Hatto bir kuni tush ko'ribdi: uning siri ochilib qolganmish. Uni ushlaymiz, deb allaqanday kishilar tomma-tom quvarmish, U oyog'i yerga tegmay qochibdi. Endi qo'lga tushdim, deganda oldidan katta bir it chiqib qolibdi. U o'tib ketibdi-ku, it quvib kelayotganlarni talab, yo'lini to'sibdi. Qora terga tushib uyg'onso – tush! Iztirobdan ezilib, narigi yonboshiga ag'darilib yotdi. Ko'zi uyquga ketishi bilan yana tush ko'rdi. Bu gal itlar uni talayotganmish. Ichida boyagi katta it ham bor.

Faryod urisa, tovushi chiqmaydi. Itlardan zo'rg'a qochib qutulib, o'zini suvga otsa, shundoq timsohning og'ziga tushibdi, Jems timsoh emish. «Voydod!» deb uyg'onso, xotini yonida. Cho'chib boshini ko'tardi.

– Tinchgina uxlasangiz bo'lmaydimi! Bolani uyg'otib yubordingiz! – dedi Nafisa yonidagi karavotda yotgan Surayyoning ustini yopayotib. Yelkasiga choyshab tortar ekan, yana ginaxonlik qilib qo'ydi:

– Xurragingizdan qutulib, endi ko'zim uyquga ketgan edi.

– Xurрак otamanmi? – dedi A'zam bezovtaligining sababini aytmaslik uchun jo'rttaga. Ko'z oldida Jems turardi. Endi u goh o'zi, goh timsoh, bo'lib ko'rinardi.

– Otganda qandoq! Men-ku, mayli, Surayyo bechora necha marta uyg'onib ketadi. Bir tomoni qo'shnidan uyalaman.

– Yo'g'-e!

– Mushukdek pishillab uxlayman, deysiz shekilli!

– Shu xurрак nimadan bo'larkin, xotin? – shilqimlik qildi A'zam Nafisaga, – xotini yaxshi ko'rgandanmasmikin?

– Jim yoting, bachkana bo'lmang! – uning qo'lini ko'krigidan itarib tashladi xotini. – Agar sevgidan bo'lsa siznikini farishta ham eshitmas edi!

– Hali mening to'g'rimda shunaqa fikrdamisan? Qo'y-e!

– Bo'lmasam-chi! O'sha qilgan qilg'ingizga hali dugonalarim ichida boshimni ko'tarib yurolmayman. Shunchalik ko'nglingiz yo'q ekan, yo'limni to'sib nima qilardingiz. Men laqma o'lgur, sizning yolg'onlaringizga uchib, sharmanda bo'lib yuribman!

– Hozir ham xafamisan? – deb og'iriga tutdi er.

– Hozir-ku... shukur... o'shanda oraga sovuqlik tushmaganida yana ham...

– O'tgan ishni qo'ysang-chi, baraka topkur, kimlardan xatolik o'tmagan! Bir sinab ko'rmoqchi bo'lgandim.

– Sinash o'lsin, shunaqa bo'lsa! Sinagan odam basharasiga balchiq sochib sinaydimi?

– Nima, oqibati yomon bo'ldimi?

Nafisaning aytadigan ancha gapi bor edi-ku, erning qadog'ini bosib olishdan hadiksiradi. O'sha kunlar alami esiga tushib, o'zini shuncha qildi – bosolmadi: o'pkasi to'lib, ko'ziga yosh keldi.

– Voy tentak, yig'layapsanmi? – A'zam bag'riga oldi.

– Yig'lamaymanmi... – Nafisa u yog'ini aytmadi, ko'z yoshini choyshabning bir chetiga artdi.

Shu kechasi ikkalasining ham ko'ziga uyqu kelmadi.

Nafisa o'tmishini eslab, xo'rligidan uxlolmagan bo'lsa, A'zam «u yoqqa» o'tgandan keyin boshlanadigan

tengi yo'q ajoyib hayot zavqi-shavqida mast edi. Lekin Jemsning timsoh bo'lib tushiga kirganidan ko'ngli bir oz xira edi. Nega u timsoh bo'lib ko'rindi?

7

QIZ KUTISH

Tamannoning zahar ichganini oqsoch xotin aytishga kirganda Saidakbar hoji noz uyquda edi. Kecha ertalab sherigi bilan zavod ishlarining borishini ko'zdan kechirib, natijasidan mamnun bo'lgan Hoji ikkita gumashta ishlaydigan poyabzal magaziniga o'tmadi. Bugun payshanba bo'lgani uchun peshin namozini keng jamoa bilan o'qish niyatida mashhur Fotima Alfaxriya masjidiga yo'l oldi.

Masjid atrofida doim o'ralishib yotgan yetim-yesir va g'ariblarning duch kelganiga mayda ulashdi-da, ichkari kirdi. Naqshin va alomat ustunlarni oralab o'tib, imom ko'rinadigan yerdan joy oldi, namozini o'qib, marhum xotining mozoriga ham sham puli tashlab o'tdi. Qarshidan chiqqan juda katta «koka-kola» reklamasiga ko'zi tushishi bilan ensasi qotgandek labining bir chekkasi uchdi-yu, zargarlikka burilib ketdi. U «koka-kola»ni xush ko'rmas edi.

«Sevgi mojarosi»dan keyin ancha tinchib qolgan, lekin bir yil – o'n ikki oy kasali arimagan kishidek rangi siniqqan Tamannoni sevintirmoqchi bo'ldi. Aldamoqqa bola yaxshi, deb ko'nglidan o'tkazdi Hoji, bor bisoti namunalarini vitrinalarga mahorat bilan namoyish qilib qo'ygan qator zargarlik magazinlari oldida to'xtab o'tirmasdan, eng mashhuriga to'g'ri kirib bordi. Ne-ne badavlat xonadon xotin-qizlarining ko'zini o'ynatadigan bu ulkan magazinning xo'jayini Hojini issiq kutib oldi. Oldiga stul qo'ydi. Yalpiz choy quyib uzatdi. Hojining kelish maqsadini

eshitgach, ko'zi shoda-shoda marvarid va tilla buyumlarda kezib yurgan mehmonning diqqatini o'ziga qaratdi:

– Hoji, siz bopi bu yoqda, – dedi ochiq yuz bilan va usti nikellangan, yiltiroq seyfiga kalit soldi. Seyf o'ziga xos nozik tovush chiqarib ochilib bo'lgach, yana so'z qotdi, – o'zini ham kechagina Parijdan oldim, hali rasm bo'lganicha yo'q.

Garchand «Parij» so'zi Hojining xayoliga qizi hangamasini yalt etib tushirgan bo'lsa ham, «ha tulki, avrayapsan-a!» degan fikr ko'nglidan o'tdi, zohiran, sukut saqlab kutib turdi.

Do'kondor «sizga shu molimni ko'rsatishdan o'zim ham mamnunman» degandek yuz-ko'zi to'la tabassum bilan tim siyoh soqolini serkillatib tunde dukuxoba qutichani atayin ochmasdan xaridorning oldiga qo'ydi.

Saidakbar hoji qutini beparvogina ochdi-yu, ko'zi tinib ketdi. Unda chindan ham zavqi benihoya baland va serhafsala ustaning mo'jizakor san'ati o'zining butun jozibasini namoyish qilib turardi: bu «yetti qaroqchi» yulduzining gavhar donachalari bilan aks etgan oltin uzuk edi! Buni qarangi, xuddi Tamannoning barmog'iga loyiq! Bu yog'idan ham xursand bo'lgan Hoji ichida: «Qizim baxtli qiz! Muddaomday!» deb qo'ydi. Hojining yuzidagi o'zgarishni kasbiga xos sezgirlik va diqqat bilan kuzatib turgan do'kondor jo'rttaga:

– Qalay, ma'qulmi? – dedi. Uzukni ikki barmog'i bilan ushlab ko'zdan kechirayotgan Hojining qo'lidan nazokat bilan olib, o'z jimjilog'iga kiydirdi, yoriqqa solib tovladi, keyin o'ziga aytayotgandek ta'kidladi: – buyum! Bebaho buyum.

Hoji o'z xarididan mamnun bo'lib qo'rasiga qaytganda har kungiday Tamanno o'z xonasida edi. «Qizimning aqli kirib qoldi!» deb ko'nglidan o'tkazgan Hoji, yana oqsoch xotindan uning ahvolini surishtirib, xotirjam bo'ldi.

Muhabbat nimaligini bilmagan, aksincha, uni uyat hisoblab kelgan Hoji qizining ichi yonib, tishi kulib turganini bilmas, bilish xayoliga kelmas edi. Kemasi halokatga uchrab, o'zi kimsasiz orolga chiqib qolgan kishidek ko'ngli vayrona Tamannoni bu badavlat xonadonning na dabdabasi, na jihozi qiziqtirar edi. U o'z alamida yakkayu yolg'iz edi.

Hatto qayerdan najot kelishini ham bilmas, uning nidosini hech kim eshitmas, ko'ngli chiroq yoqsa yorimas edi.

Shuning uchun otasining quvona-quvona ming bir maqtov bilan olib kelgan gavhar ko'zli uzugi ham uni qiziqtirmadi. Otasining hurmati va odob yuzasidan barmog'iga solib ko'rdi.

– Juda yarashdi, – dedi Hoji qizining ko'nglini ko'tarish niyatida. Tili bilan ma'qullashga madori yetmagan qiz ko'zini ochib yumibgina otasining fikriga qo'shildi. Qimmatbaho uzukdagi yetti gavhar donasi murodiga yetmagan ko'zlarining yetti tomchisi bo'lib uning nazarida jilvalanmoqda edi!

«Ana endi qizim hammasini unutadi!» deb xotirjam bo'lgan Hoji kechqurungi ovqatga qizining chiqmagani bilan ham ishi bo'lmadi. Chunki qizi shunday bir uzukni bir mahallar orzu qilgan, lekin Hoji: «har narsaning o'z vaqti-soati bor.

Bevaqt yeyilgan shirinlik me'dani aynitadi», deb galga solgan edi. Demak qizi orzusiga yetdi, Hoji tinchidi. Ana shunday yengil ruh bilan o'ringa kirgan Hoji, shirin xayollar og'ushida uxlab qolganini bilmadi. Oqsoch xotinning uyni boshiga ko'tarib solgan faryodi va keyin Hoji yotgan xona eshigining betartib ketma-ket mushtlanishi Hojiga dahshatli tushning bosinqirashi bo'lib tuyuldi. Ne ilojki, o'ngi edi.

U chiqib borganda Tamanno karavoti oyog'idagi ipak gilam ustida g'ujanak bo'lib yotardi. Jon holatda uning boshini tizzasiga olgan Hoji nima qilishini bilmas, zo'r berib oqsochga: «Nima qildi? Sen qayoqda eding?» deb baqirardi.

– Shu yerda edim, – yig'ladi oqsoch, – g'aflat bosib ko'zim ilingan ekan, bir vaqt qulog'imga xirillagan tovush kirdi. Ko'zimni ochsam, bekam yerda yotibdi. O'limdan xabarim bor, boshqa hech narsani bilmayman!

Bu gap-so'zlarni ortiqcha bilgan Abulbaraka singlisini darrov kasalxonaga olib ketdi. Har ko'ringan tibbiy xodimdan najot kutib, ko'zlari javdirab turgan Hoji, voqeaning nimaligini saldan keyin o'g'lidan eshitib, hangu mang bo'lib qoldi.

– Tirikmi? – deya oldi arang.

– Tirik. Tadbirini ko'rishyapti, – dedi Abulbaraka va otasining ketaverishini, o'zi shu yerda bo'lishini bildirdi, – bu yerda turganingizning foydasi yo'q.

Baribir Hoji ketmadi. Birdan uzuk esiga tushib qoldi.

– Qo'lida... yana birortasi...

– Olib qo'ydim, – dedi Abulbaraka va shu paytda uzuk otasining esiga kelganidan g'ijindi. Bu g'ijinishini tili bilan aytib qo'yishdan cho'chib, singlisi oldiga kirib ketdi. Tamanno tirik qoldi. Lekin uzoq yotdi. Bir oz oyoqqa tursa ham, hadeganda kuchga kirib ketmadi. Bilag'on doktorlar havo o'zgartirishini, yaxshiroq birorta kurortda davolanishini maslahat berishdi. Abulbaraka ham:

– Qancha tez yuborilsa, shuncha yaxshi! – degan fikrni aytdi. Lekin qizining bu nojo'ya ishidan dili olingan, yoru birodarlariga ko'rinishdan yuzi shuvut bo'lib yurgan Hoji avvaliga rozi bo'lmadi, keyin taqdirga tan berdi, ko'nikdi, tirik qolganiga shukur qilib, Tamannoning yoniga kishi qo'shib kurortga yubordi.

Bugun ana shu qizi, otasi ko'nglini og'ritgan qizi kurortdan keladi.

Bu orada o'tgan kunlar, haftalarning shamoli Hojining ko'nglidagi ne-ne gina-kuduratlarni yelpib ketgan. Alamlari o'rnini sog'inish olgan. Endi barcha ko'ngilsizliklar bir tush edi. Tush o'tdi. Tong otdi – Hoji uyg'oq. Ko'zida hayot va sevinch nuri, qalbida qizining sog'inchi. Ertalab joynamoz ustida to'rtko'z tugalligi bilan diydor ko'rsatishini duo qildi. «Ey noshukur banda, shunisiga ham xursand bo'!» deb o'ziga tasalli berdi. Ruhi yengil tortib, xonalarni aylanib chiqdi. Qizining xonasini alohida ko'zdan kechirdi – nazarida Tamanno haligina chiqib ketgan bo'lib tuyuldi. Ana shu his boshqa bir tadbirini keltirib chiqardi: qizi mana shu xonada baxtsizlikka uchradi, endi bunda turmasin! Darrov xizmatkorlarni chaqirtirib jihozlarni boshqa xonaga ko'chirtirdi, o'zi bosh bo'lib turdi. Hamma narsa joy-joyiga qo'yilib, ko'ngli tinchigach, Qurbonalini bir chetga imlab oldi:

– Bu qorasochalar, – deb arab xizmatchisiga ishora qildi u, – qo'y tanlashni bilmaydi. Sen o'zing bitta yaxshi qo'y olib kelgin.

Qurbonali shofyorni chaqirib mashinaga o'tirayotgan edi, yana Hoji tayinladi:

– Qorasidan olgin. Yosh bo'lsin. Keyin o'z qo'ling bilan so'y, ehtiyot bo'l, pashsha o'tirmasin.

Esini taniganidan buyon Hojining eshigida umri o'tgan Qurbonali bu xonadonning qumursqasidan giyohigacha, hammasining fe'li-atvorini yaxshi biladi, Hojini ku an-chayin. Uning qaysi vaqtda yo'talishidan nima ma'no chiqishini bemalol aytib beradi. Shuning uchun Hojining bugungi Tamannoning kelishiga ko'rayotgan tayyorligini ko'rib ajablanib qoldi. Axir Tamanno uning bittayu bitta qizimas. Ona yurtda ham uchtasi qolgan.

Hoji bularning hech biriga bunga o'xshash iltifot qilgan emas. Qurbonalining kechagidek esida: Hoji ketma-ket ikki qiz ko'rdi. Uchinchisini endi o'g'il bo'lishini besabrlik bilan kutardi. Xotinining dard tutishi bilan doyaga odam jo'natdi. Doya kelib, o'tib ketishi bilan ichkaridan ko'zini uzmay qoldi.

Tiq etsa qulog'i ding. Shunda Qurbonali tegishdi: – Hoji ota, nariroq borib turing, biz ham suyunchilik bo'lib qolaylik. Xotirjam bo'l, bir chervon seniki, – dedi Hoji va zanjiri osilib turgan yon soatini ochib qarab qo'ydi. Bir mahal ichkari eshigida opasi bo'shashibgina ko'rindi.

– Ha, nima? – entikib qoldi Hoji.

– O'zingni o'rganganing, inim! – dedi opa.

Hoji shunda qiz tuqqan xotini shunaqa haqorat qildiki, hatto opasi uyalib ichkariga kirib ketdi. Shu sabab bir qancha vaqt xotiniga ko'ngilsiz bo'lib yurdi. Begona xotin ortirdi. Shulardan bittasi bir ziyofatda ko'ziga kabobning sixini tiqib oldi-yu, uning oyog'i tindi. Bir ko'zining hozirgi qiyig'i o'shandan. Ketma-ket uchta qiz ko'rgan xotin bechora Abulbarakani tug'di-yu, «ustingga xotin olaman»idan qulog'i tinchidi. Keyin savdo-sotiqdan putur ketdi. Bu yoqqa qochdi. Shundan beri na o'sha xotini, na tirik yetim qolgan qizlarini eslaydi. Bu orada Qurbonalining ham oilasi qolib ketdi. Hoji va'dasida turmadi – «borib olib keladigan odam» hali yo'lga chiqadi! Bu tufayli Qurbonalining Hojidan ko'ngli olingan, hamon so'qqabosh o'tib keladi. Xayolida ona yurt, ko'z oldida kasal yotgan o'g'li Ummatali va uning tepasida yig'lab qolgan xotini. Mo'minqobil, zahmatkashgina xotin edi bechora. Hoji bo'lsa hammasini unutdi. Bugun esa «yakka qizim, arzanda qizim», deb Tamannoning yo'lida ko'zi to'rt.

Qurbonali shularni o'ylab, qo'y bozoriga yetganini bilmay qoldi. O'nni ko'rib, bittasini tanladi-da, oyog'ini

bog'lab mashinaning orqasiga yotqizdi. U qo'yning bo'g'ziga endi pichoq tortganda eshikda Hoji ko'rindi. Qurbonalining oldida mayda qizg'ish qum ustida yotgan Qoplon Saidakbar hojini tanib istiqboliga turdi, hatto uchto'rt qadam ham qo'ydi. Sohibining qo'lidagi qog'ozga o'rog'liq narsadan umidvor bo'ldi. Hojining soqol-mo'ylovi yaxshilab tekislangan, sochi qirilgan edi. Boshiga turkcha fasini bostiribroq kiyib olgan. Qo'lidagi narsani shu yerda turgan stulning ustiga asta qo'yarkan:

– Esingdan chiqmasin! – deb ta'kidladi. Buning nimaligini aytmasa ham, Qurbonali biladi: bu – Saidakbar hojining sochi! Bu o'lkaga kelibdiki, Hoji sartaroshlarning «aziz boshning sochi»ni supurib, axlatga tashlashini ma'qul ko'rmay, qayerda sochini oldirsa qog'ozga o'ratib oladi. Keyin uni Qurbonali «o'zingdan oldin soching mozorga bormay o'lsin», deb yaqin qabristonlardan birining cho'kkan yoki og'zi ochiq mozoriga tashlab keladi.

Qonning hidini bilib, qari Qoplon allaqachon o'ziga ham gajak qilib ko'tarib olish malol kelib qolgan uzun dumini likillatib Qurbonaliga yaqinlashdi. Qurbonali uni ko'rib:

– Sabr qil, jonivor, senikini o'zim ayirib beraman, bunda sening ham rizqing bor, – dedi va uni shirin so'z bilan nariroq haydagan edi, Hoji kesak otib undan ham nariga quvib yubordi.

– Haydamang, Hoji, vatanimizni ko'rgan it! – dedi Qurbonali pichoqni ko'ndalang tishlayotib.

Qo'yning joni chiqib bo'lganiga ishonch hosil qilgach, boshini xandaqdan chetga tortib, oyog'ini yechdi.

– Vatanimizni ko'rgan bo'lsa, bir tovoqdan osh ichib, qo'ynimizda olib yotamizmi, odamdan nariroq tursin-da!

– Egasining siz bilan bir tovoqdan ovqat yeyish da'vosi yo'g'u, itning haddi sig'armidi, Hoji, qiziq gaplarni gapira-

siz-a! – vatangadolik jonidan o'tib kimdan alamini olishni bilmay yurgan Qurbonali uzib oldi. Hoji indamadi.

U Saidakbar hojidan ortiqcha hayiqmas edi. Bir tomondan, bir-ikki yosh kattaligi bo'lsa, ikkinchidan, bu xonadonga o'tqizib qo'ygan mehnatining qadrini bilardi. Lekin keyingi uch-to'rt yil ichida Hoji Qurbonalini o'z dasturxonidan chetlata-chetlata, qo'raning etagidagi eski kulbaga tiqib qo'ydi. U bilan ortiqcha ishi ham yo'q. Shu jihatdan Qurbonali o'z taqdiri bilan Qoplonnikida qandaydir mushtaraklik ko'rardi. Shuning uchun ham Hojining itga otgan kesagi unga juda malol kelgan, ko'nglini og'ritgan edi. Aslida bu Qoplon ular bilan yo'l azoblarini tortib, yurtidan kelgan it Qoplonning bolasi. Qurbonalining esida: ular tun qorong'usida yo'lga tushishlari bilan Qoplon ham paydo bo'lib qoldi. Oldiniga Qurbonalining o'zi ham haydadi, keyin Hoji qamchi o'qtaldi, baribir it ergashaverdi, birpas to'xtab qoladi-yu, yana yuguradi. Shunda Qurbonalining unga rahmi keldi:

– Qo'yavering, hamroh bo'ladi!

– Hamroh bo'lmay o'lsin, pand berib qo'yadi, – qarshilik ko'rsatdi Hoji.

– It-da, Hoji, egasiga ergashadi, mushuk bo'lganda edi, uyda qolardi. It – vafo.

Shunda Qurbonali mashhur ertakni aytib bergan edi: savdogar safardan qaytguncha o'ynashi bilan yashab turgan xotini, erining kelayotganini eshitib, nima qilishini bilmay shoshib qoladi. O'ynashi bilan qochadi. Savdogar kelsa xotin ham yo'q, mol-dunyo ham. Ketidan quvadi. Yetib borib, yoqalashadi.

Shunda xotini erining emas, o'ynashining yonini olib, savdogarga tashlanadi. It esa, egasi bo'lmish savdogarni himoya qiladi. G'olib chiqqan savdogar o'ynashini qilichdan o'tkazib, xotinini bandi qilib uyiga qaytadi. Shu kundan boshlab xotinini itning temir katagida tutib, itni

uyning to'riga chiqaradi... Hozirgi o'z hayotiga ozmi-ko'pmi tegishli bo'lgan bu voqea o'shanda Hojining ko'nglini yumshatgan va shundan keyin orqalarida ergashib kelayotgan Qoplon bilan ishi bo'lmagan edi. Qoplon esa, Qurbonaliniki, to'g'risi, uning o'g'li Ummataliniki edi. Uni ko'zi ochilmasdan olib boqqan. Qulog'i va dumini kesaman deganda Ummatali «og'riydi» deb ko'nmagan edi. Shundan keyin Qurbonalining o'zi ham, nima uchundir, quloq-dumi kesilgan itni kekxa odamning bachkana kiyinishiga o'xshatib, yoqtirmas edi. O'g'li Ummataliga onasi ataylab yopib bergan kulchasining yoki shinniga botirib bergan nonini Qoplon olib qochganda, xotining jahli chiqsa yoki kaltak olib quvlasa, «Urma, xotin, itning niyati yaxshi bo'ladi: xonadonning bola-chaqasi ko'paysin. Qo'lidagi non-nunlarini men olib qochib yeb yurayin», der ekan. Shunda xotini shaxtidan qaytardi. Qurbonali esa, yig'lab qolgan o'g'lini qo'lga olib, yoshi bilan ho'l bo'lgan sho'rtak yuzlaridan o'pard, «o'zingning Qoploning-ku, shunga ham yig'laysanmi? Katta bola yig'lamaydi!» deb ovutardi.

Ana o'sha yosh va ziyrak itning bolasi ham bugun Qurbonalining o'zidek qarigan. Bu it o'sha vatandosh itning bolasi ekanini ham Qurbonali allaqachon unutgan. Uning nazarida bu Qoplon o'sha Qoplon. Unga o'sha Qoplondak qarddon. Itning hech narsa bilan ortiqcha ishi yo'q, hatto qo'ngan pashshalarini qo'rishga ham hafsalasi kelmaydi. Qurbonaliga o'xshab, ulkan qo'raning bir chekkasida ortiqcha buyumdek yotadi. Unga Qurbonaligina gap qotadi, tilsiz do'stining bosh qimirlatishi, ko'zini ochib-yumishi, dumini likillatishidan o'zicha ma'no topadi. Hatto ba'zan, o'shanda, Hoji haydaganida, indamay qo'ya qolmasdan bu begunoh maxluqning ham boshiga musofirlikni solganidan o'ksib qo'yadi.

«Harna bir vatangado kam bo'larmidi!» deb o'zini koyiydi. Ba'zan uning borligidan xursand bo'ladi. Qoplon bo'lmaganida kim bilan dardlashar edi.

Abulbaraka, garchand, uni yaxshi ko'rsa ham, hurmatini doim bajo keltirsa ham, bolaligida yurtidan chiqib ketgani uchun sog'inish nimaligini bilmaydi. Saidakbar hojining esa, mol-mulk to'plash, dunyo orttirishdan qo'li tegmaydi. Qo'li tekkanda ham xizmatkori bilan «bachkanalashib» o'tirishni o'ziga ep ko'rmaydi. Demak, shu Qoplondan boshqa doim birga bo'ladigan dilkashu vatandoshi yo'q. Nima desa eshitadi, nima bersa minnatdor bo'lib yeydi!

Hojining hozir itni quvganda Qurbonaliga malol kelishi ana shundan edi. Saidakbar hoji Qurbonali qo'yni puflab, osgunicha tepasida turdi, hatto osishda qarashib yubordi. Terisi chala shilingan qo'yga sinchiklab qaradi-da:

– Tuzuk chiqdi! – dedi, keyin ta'kidladi, – terisiga pichoq tegib ketmasin, ehtiyot bo'l.

Uning orqasidan qarab qolgan Qurbonali: «Shuncha davlatni go'riga orqalab ketadimi! Bitta teriga ham ochko'zlik qiladi-ya!» deganicha charvini ajratib, tog'oraga shaloplatib tashladi. Jo'rttaga qilgandek, Hoji ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan Qoplonni chaqirib, oldiga bir parcha go'sht itqitdi:

– Ol, jonivor, oldini sen yeb tur! Bularning baridan menga sen qadrdonroqsan!

Saidakbar hoji uyga kirib, kiyim-boshini almashtirdi, oqsoch xotinga hammomga olov yoqib qo'yishni buyurib, telefonga qo'l uzatdi. Samolyotning qachon kelishini yana bir surishtirdi. Keyin burchakda turgan zangli ulkan soatga qarab qo'ya qolmasdan, nimchasining ko'krak cho'ntagida olib yuradigan oltin zanjirli qopqog'i chiqilab ochiladigan yon tilla soatiga o'ychan nazar tashladi. Hali sartaroshda shoshmasdan tekislatib kelgan ixcham

mo'ylovini ikki yonga bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan bir-ikki burab, qomatli kalta soqolini kaftiga olib quyiga qarab siladi. Bir mahal «begona xotin» kabob sixi tiqib olgan so'l ko'zi qisilib, o'zi xayolga toldi. Bir narsa esiga tushgandek yana telefon trubkasini oldi. Abulbarakani chaqirdi: – Aeroportga chiqasanmi? – dedi. O'g'li vaj ko'rsatdi shekilli, – og'ir bo'lsa sendan boshqa doktor yo'qmi? Sen kasalxonaning xo'jayinimisan yoki yollangan doktorimi? – deb siltab berdi, trubkani shiddat bilan joyiga qo'ydi. «Tavba! Xususiy kasalxona ochaman, dedi, xo'p dedim. Allaqaysi bir shahardan apparatlar yozdirib olib berdim. Daromadi tuzuk bo'ladi, deb o'ylagan edim, ko'ngildagidek chiqmadi. Qachon ko'rsang, beva-bechora bilan to'la. «Hoy, o'g'lim, falon pul sarf qilib qo'yibmiz, bu masjid emas, kasalxona!» desam ham quloq solmaydi. «Savob bo'ladi!» deb mening nozik yerimdan ushlaydi: «Siz haj qilganda men beva-bechoralarning savobiga qolsam yomonmi! Shu savobning yarmi baribir sizniki», deb hazilga oladi. Mana, bitta benavoning kasali og'ir, deb singlisini kutgani chiqmay o'tiribdi. Shu ham ish bo'ldimi! Ajali yetib, non-nasibasi uzilgan bo'lsa, sen tepasida tursang ham o'ladi, turmasang ham. Yo'q, yoshlarga bir narsani tushuntirib bo'lmaydi!»

Shularni ko'nglidan o'tkazgan Saidakbar hoji yolg'iz o'zi qizini kutgani chiqib ketdi.

8

NOMARD

A'zam ketishi aniq bo'lgandan keyin juda entikib qoldi. Ishni xotinidan yashirib yurgan pulini yiriklashdan boshladi. Bunga omonat kassasida ishlaydigan bir tani-shi qo'l keldi. Go'yo u, nimaga shuncha pulni yiriklash kerak bo'lib qoldi deyayotgandek, Moskvaga ketayotgan edim, deb bahona ko'rsatdi. O'rtog'i:

– Akkreditiv qilib oling, bexavotir bo'ladi, – degan edi:
– 'Imzom hech bir-biriga o'xshamaydi, qayta qo'ydira berib kishini qizartirishadi, – deb bahona qildi. Yelkasini qisgan o'rtoq'i:

– Ixtiyoringiz, – deganicha iltimosini qaytarmadi.

A'zam pulni uyda, xotini yo'q vaqtida eshikni ichidan qulflab kiyimlari orasiga joyladi. Bu pul unga «u yerda» qaddini rostlab ketgunicha kerak bo'ladi!

Savlat to'kib yuradigan A'zamning anchagina tuzuk kiyim-boshi bor edi. Albatta hammasini ololmasdi. Lekin qaysi birini tashlab ketishni ko'nglidan o'tkazsa ham joni achirdi. Ko'ylakning ishi engil. Uch-to'rtta olgani bilan ham birovning nazariga tashlana qolmaydi. Kostyum bilan palto masalasi og'ir. Ikkita yangi kostyumni olay desa, sheriklaridan hadiksiraydi. Safardoshlaridan birorasini tanimaydiki, qo'yniga qo'l solib ko'rsa!

Shunday bo'lsa ham ikkita yangi kostyumini olishga qaror qildi. Birov: «Ha, muncha? U yerda qishlaysizmi?» desa, javob tayyor: «Biri kundalik, biri kishilik. Do'st-dushman oldida ertayu kech bitta kostyumda yuramanmi? Uyat!» deydi. Qani, ishonmay ham ko'rsin-chi!

Lekin paltoga kelganda boshi qotdi. Oldi yoz. Uni hech ham olish imkonini yo'q. Tashlab ketishga ko'zi qiyamaydi. Shu yil bahor chiqish oldida tiktirgan edi. Bir oy ham yolchitib kiygani yo'q. Xo'sh, kimga qoldirib ketadi? Baxtini qaro qilgan, uning shu daydib ketishiga sabab bo'layotganlardan biri – xotiniga tashlab ketadimi! U nima qiladi? Yo olib chiqib sotadi yoki undan keyingi erining yelkasiga tashlaydi!

A'zam shularni o'ylab yotib tush ko'rdi. Tushida Nafisa erga tegayotgan emish. Yangi erining qarshisiga xandon solib peshvoz chiqdi. Uning egnidagi eski choponini yechtirib tashlab, ana shu paltoni kiyirdi.

– Mana shu sizga yarashadi. Asli sizga tiktirilgan edi!
– deb g'ijimlangan yerlarini kafti bilan tekislaydi.

A'zam uyg'onib yuragi orqasiga tortib ketdi. Bundoq qarasa, begunoh xotini bu dunyo tashvishlaridan xoli yosh qizlardek pishillab uxlayapti!

Xayriyat, tushim ekan, dedi. Boshqa uyquasi kelmadi. Xayoli chuvalib ketdi: qayoqlarga borib kelmadi!

A'zam chorasini topdi: sotadi!

Xuddi shunday qildi. Yaqinginda kuya doriga bosilgan paltoni xotini yo'g'ida sandiqdan oldi. Yoniga Nafisaning yaxshi ko'rgan koftasini ham alamdand qo'shdi. Naridand-beri kuya dorisini qoqib, bozorga eltib sotdi. Pulini qo'lida nima qilishini bilmay bir oz changallab turdi. Yo'q, buning ham yo'li topildi. U kimdandir, chet elda fotoapparat bilan soat yaxshi qadrlanadi, deb eshitgan edi.

Bundoq qarasa, puli yaxshi bir fotoapparatga yetadi. Darrov xarid qildi.

Hech narsadan xabari yo'q xotini ishdand qaytganda fotoapparat lash-lushlari bilan qoziqda ilig'liq turardi.

– Bu nimasi? Qayoqdan kelib qoldi? – ajablandi Nafisa.

– Senga ajoyib ko'rinishlarning rasmini olib kelaman. Sirti duxoba albomingga juda ketadi-da.

– Olishni bilmaysiz-ku, yo o'rgandingizmi?

Shunda apparatdan foydalana bilmasligi, bu esa pand berib qo'yishi mumkinligi A'zamning yodiga tushdi. Uning xayoli yana ishlab ketdi: jilla bo'lmaganda chiqil-lata bilishi shart!

– Endi o'rganamiz-da, onasi! Hamma ham bizga o'xshab xom sut emib, esini tanigan. Yo mening gapim noto'g'rimi?

– To'g'rilikka to'g'ri-yu, birdand ko'tarib kelganingizga... – sodda Nafisa so'zini tugatguncha A'zam javobini qildi:

– Bir mahal magazinchi tanishimga «ishqibozligim bor» deb og‘zimdanda gullab qo‘ygandim. Bugun ko‘chada ko‘rib, «juda yaxshisi keldi. Niyatingiz chin bo‘lsa shundan oling. Bunaqasi endi yaqin orada bo‘lmaydi. Asli eksportga tayyorlangan ekanu, nima sabab bo‘lib, o‘zimizga chiqib qolibdi», deb asti qo‘ymadi. «Hozir qo‘lim qisqaroq!» desam ham ko‘nmadi. Odamshavandalik qilib pulini ham o‘zi to‘lab yubordi.

– Ishqilib, siz yo‘g‘ingizda eshigimni qoqib kelmasa bo‘ladi.

– Unaqa nazari pastlardan emas. Do‘sti uchun o‘tga kiradiganlardan.

– Xayriyat, shunaqa o‘rtoqlaringiz ham bor ekan!

A‘zam har kun ikki holatga tushardi. Ertalab tiniqib turganda fikri juda yaxshi ishlaydi, nimaniki safariga olmoqqa mo‘ljallagan bo‘lsa dadil kirisha beradi. Hammasi to‘g‘ri, hech kim gumon qilmaydigan bo‘lib ko‘rinadi. Kechga borib toliqqanda esa, bo‘shashadi. Xuddi safardoshlaridan kimdir uning yovuz niyatidan xabar topib qolayotgandek, qo‘sha-qo‘sha kiyim-boshlarini ko‘rib, gumonsirab allakimga ma‘lum qilayotgandek, u odam kelib: «Qani, bu yoqqa yuring, bir gaplashib qo‘yaylik!» deb oldiga solib ketayotgandek bo‘ladi. Shunda uning joni ko‘ziga ko‘rinib, hamma narsadan voz kechgisi keladi.

Ana shunday tashvish, umid va xayollar bilan u jo‘nash kuniga yetib keldi. Chamadonga joylayotgan buyumlarini ko‘rib, Nafisa hayron qoldi:

– Ko‘chib ketyapsizmi? – deb so‘rashga majbur bo‘ldi.

– Xavotirlanmang, kelguningizcha sotib yemayman!

– Esingni yedingmi, xotin! – balanddan keldi A‘zam,

– nima, begona yurtda, do‘st-dushman oldida maykada yurishim kerakmi?

Mana shu keyingi jumla xotining nafasini ichiga tushirdi. Popugi pasaygan xotin gapni burdi:

- Ko'tarib yurishni ham ayting.
- Kerakli toshning og'irligi yo'q.
- Chamadonda g'ijim bo'lib ketadi-ku.
- Iloj qancha! Yo mehnatingga achinyapsanmi?
- U yerlarda kim dazmol urib beradi demoqchiman.
- Odam topilib qolar. Bo'lmasa, o'zim-chi!
- Bunaqa ishlarga ba'zi erkaklarga o'xshagan udli-shudlikkina bo'lsangiz ham go'rga edi! – kuldi Nafisa.

– Boshga tushganni ko'z ko'radi! Sen qarab turgin, shunaqa qoyil qilayki, dovrug'i sengacha yetib kelsin!

– Ishqilib, aksini eshitmasam bo'ldi. – A'zam u gapni o'z niyatiga to'g'rilab boshqa ma'noda aytgan bo'lsa ham, xotini o'zicha tushundi. Lekin u erida qandaydir quvonchdan ko'ra, bezovtalikka yaqin bir holatni ko'rardi. Safar oldidan kishi o'zi shunaqa sal tashvishliroq bo'ladi, desa, A'zam endi yo'lga chiqayotgani yo'q. Yo chet elga ketayotgan odam boshqacha bo'ladimi? Ehtimol! Nafisa eridan «Buncha bezovtasiz?» «Qo'lingiz ham titrayaptimi?» deb so'ragisi keldi-yu, safar oldidan ko'ngliga g'ashlik solishni istamadi. Buning ustiga A'zamning jahli burnining uchida turadi.

«Qo'y, tinchgina ketsin!» deb o'ziga tasalli bergan Nafisa, aeroportda eri bilan xayrlashayotganda juda ham hayron bo'ldi. A'zam qora terga botgan, nuqul so'zidan adashardi. U bilan ikki marta xayrlashdi, Surayyoni qo'liga olib turib, Nafisani o'pib yuribdi!

– To'rt ko'z tugallik bilan ko'rishaylik, xayr! – degan edi Nafisa, A'zam entikib, faqat:

– Xayr! – deya oldi va orqasiga qaramasdan samolyotga chiqib, boshqalar singari qo'l siltamasdan oq ichkariga kirib ketdi.

Nafisa: «Qiziq, unga nima bo'ldi?» deganicha Surayyoni bag'riga bosdi. Yuragi qandaydir noma'lum baxtsizlikni sezayotgandek qisildi. Boyadan beri kiprik-larining uchida ilinib turgan ayriliq ko'z yoshlari duv etib to'kildi. Bir tomchisi bo'rqqan yuzida yiltiroq ho'l iz qoldirib labiga dumaladi. Beixtiyor tamshangan Nafisa uning sho'r ta'mini endi bilganday g'alati bo'lib ketdi. «Ba'zi odamlarni «peshanasi sho'r» deb yurishadi, shu sho'rlik ko'z yoshiga nisbatan olinmaganmikin?» degan fikr birdan xayoliga keldi. Xayoliga keldi-yu, yuragi battar qisildi.

U kuni bo'yi sababsiz xafa bo'lib yurdi. A'zam esa, samolyotda ham asabiy iztirobdan terga botib, artib tugatolmasdi. To samolyot ma'lum yuqorilikka ko'tarilib, havo ventilyatori ishlaguncha lohas tortdi. Muzday havo uni hushyorlantirdi, bu hushyorlik xayolini yana allaqayoqlarga sudrab ketdi. To yo'lga chiqquncha u safar tayyorligining tashvishlarida kuyib-pishgan bo'lsa, endi yo'lning ikkinchi qismi haqida fikr yuritardi.

Avval yo'lning bu yog'i mushkul ko'rinib, u yog'i hech gap bo'lmagan bo'lsa, endi aksincha. Tayyorlik kunlarida bekorga iztirob chekkanidan ajablanadi. U nima? Mana bu yog'i u hali sho'ng'ib ko'rmagan katta daryo. Unga tavakkal qilib qanday kalla tashlaydi-yu, qirg'oqning qaysi yeriga qarab suzadi. Qanday yerdan chiqadi. Qirg'oqqa chiqquncha qanday to'lqinlar uchraydi. To'lqinlar beziyon, bezahmat o'tadimi? Qoqilsa, yiqilguncha ushlab qoladigan topiladimi?

Endi A'zamning ko'nglida avvalgi quvonchlardan asar ham qolmagan, shubha girdobida edi. Bu girdob uni ming ohangga solardi.

Shunda samolyot hali chet elga to'g'ri ketmayotgani, Moskvada ham qo'nishi esiga tushib, o'ziga ancha taskin berdi. Lekin Moskvada qo'nish, u yerda o'tadigan bir-ikki kun ham yuragiga birdan vahima soldi. Nimadir kerak

bo'lib qolib, Nafisa uyda sandiqni ochsa, unda palto va ko'faning yo'qligini bilib qolsa, nima bo'ladi? «Erimning chamadon to'ldirib kiyim-bosh olishi bejiz emas. Buning bir balosi bor!» deb uvvos solsa-ya! Asli o'sha la'nati palto bilan Nafisaning yaxshi ko'rgan koftasiga tegmay qo'ya qolsam bo'lar ekan. O'zim ham ba'zan juda ochko'zlik qilib yuboraman! Endi nima bo'ldi?

Shu mahal birdan xotiniining o'sha kuni ishdan qaytib «naftalin hidi kelyaptimi?» deb burnini jiyirgani esiga tushib ketdi. Garchand, o'shanda A'zam xotirjamlik bilan «kostyumdan, hali qoquvdim» deb qutulib ketgan bo'lsa ham, endi bu savol butun boshqa ma'no kashf etgan, uning taqdirini hal qiladigan hayoti kalitiga aylangan edi.

Shu vaqt oldingi o'rinda to'rt kishilashib, domino o'ynayotganlarga havasi keldi. Shu vaqt sariqligidan qoshining bor-yo'g'i arang sezilib turgan dumaloq yuz yigit domino toshini baland ko'tarib, tarsillatib urmoqchi bo'ldi-yu, joyning torligidan asta qo'ydi:

– Tishimning kavagida asrab qo'ygan bitta beshligim bor edi.

– Men o'tdim, – dedi qo'shnisi taxtani barmog'i bilan ketma-ket chertib. – Hamma beshlikni yig'ib olgan ekan-sizlar-da. Menda bitta edi, xolos.

– Devorning ostida qolayotgan bo'lsangiz ham, yig'lamasdan o'ynang! – xursand bo'lib tosh qo'ydi uning yonidagi ko'zoynaklik.

– Unga teng kelib bo'ladimi: qachongi zanggi! – dedi «men o'tdim» deganning chust do'ppili sherigi.

– Ha, shuni ayt-a, bir donodan «qaysi ilm zo'r?» deb so'rashganda «nodonga yoqmagani!» degan ekan. – Yura turib dedi sariq yigit. Hamma kuldi. Chust do'ppili ham haqini yubormadi, tosh qo'yayotib dedi:

– O'sha donodan «bahosiz davlat nima?» deganlarida «kamtarlik» degan ekan», do'stim. Qani, yur!

Sariq yigit yana gap sotib yurdi:

– Mana, shayton uxlaganda qo'limga tushib qolgan yana bitta beshim bor ekan! Boshqa hech kimda yo'qdira, mana men yopdim! Qani, qo'lingdagilarni sananglar.

Sanashdi: sariq yigit yutibdi! O'yinni yana qayta boshlashdi. Qolganlardan biri – chust do'ppilik domino donalarini aralashtirayotgan edi, yana sariq yigit tegishdi:

– Boshinglar ishlamaganiga yarasha, qani, qo'linglar tuzukroq ishlasin, yaxshilab aralashiringlar. Uni boshqa sherigi ilib ketdi:

– Keyin yana yomon aralashibdi, tanlab oldinglar, deb o'tirmanglar. Qani, olinglar, yerda qolgani meniki.

O'tgan o'yinni tugallagan dumaloq sariq yigit donalarni kaftiga tizayotib, birdan xandon solib kuldi:

– Dupel uch yuradi, a? Marhamat! – taq etib taxtaga ko'nadalang qo'ydi.

– Tag'in siz yutdingizmi? Bugun toza omadingiz kelgan ekan.

– Bugun emas, har vaqt omadi kelgan yigitmiz, do'stim!

– Lekin husndan emas!

– Husn? Omadi bor odamning husni o'z-o'zidan ochilib ketadi, hali shuni ham bilmaydilar shekilli, do'stimiz.

«Omad» va Husn» so'zi A'zamning diqqatini tortdi. U o'z husnining benuqsonligiga amin edi. Lekin omadichi? Nazarida omadi kelmas edi.

Omadlik bo'lib tug'ilganda shu ko'ylarga tushib o'tirarmidi! Ana endi, besh-olti kundan keyin, chetga o'tib olganidan keyin omadi yurishib ketadi. Ana o'shanda u ham omad haqida dominochi dumaloq yigit singari bemalol kerilib gapiradi. Lekin ana o'sha kunga yetish qiyin bo'lyapti. Ishqilib, yo'lda biron ishkal chiqmasin! Chegaradan o'tib olsa, marra uniki. Omadining charaqlab

kulgani shu! Undan keyin xotini tugul undan zo'rrog'i ham faryod solsin! Befoyda!

A'zam o'zini bosib, boshqalardek xotirjam o'tirmoqchi bo'ldi-da, atrofiga nazar tashladi. Hech kim uningdek bezovta emas. Eng oldingi qatordagi juvon belanchakdagi bolasiga shishadan sut emizyapti. Yonidagi o'smir yigit esa, samolyotga chiqqandan beri kitobdan boshini ko'tarmaydi. Kitobi qiziq bo'lsa kerak, miyig'ida kulib ham qo'yadi.

Undan narida kimdir chakkasiga qo'lini qo'yganicha dong qotib uxlab yotibdi. Anavi qiltiriq mo'ylovli, sochlari bo'ynini bosib ketgan yigit esa, boyadan beri qo'shni qizning qoshida girgitton. Goh kulib, goh kuldiradi.

U yigit A'zamga o'zining Nafisa bilan ilk uchrashuvini esiga soldi. Ichida, hoy yigit, kul deb olovni changallab qo'yma, dedi va nima uchundir yigitga rahmi kelib qizni ko'zdan kechirdi.

Shu vaqt styuardessa uncha-munchaga ag'darilmaydigan osti og'ir baqaloq shisha idishlarda suv bilan limonad olib chiqib qoldi. A'zam tomog'ining qaqraganini ana shunda bildi. Muzdek mineral suv uning ko'zini moshdek ochib, fikrini tiniq torttirdi. Bu fikriy tiniqlik xotirjamlikka olib keldi. Kreslosini orqaga tushirib, ko'zini yumdi.

Uyqudan oldin uni yana xayol bosdi. Xayolining oxiri nima bilan tugallanganini bilmaydi, bir vaqt ko'zini ochsa, hali suv tutgan qiz patnisda nordon konfetlar bilan qoshida turibdi. «Demak, hozir qo'namiz» degan o'y bilan konfet olib og'ziga soldi.

Moskvadan uchinchi kun yo'lga chiqishdi. Ularga bu yerdan ham odamlar qo'shildi. Bittasi A'zamni ko'rishi bilan tanishishga qo'l uzatdi.

– Siz injener emasmisiz? – dedi qo'lini siqib turib.

– Ha. Qayoqdan taniysiz meni? – A'zamning yuragi «shuv» etib ketdi.

– Injenerning ko'zi aytib turadi, – kuldi u odam. – Demak, hamkasaba ekanmiz. Men transport injeneriman.

«Ana, halitdan ketimga odam tushdi», deb o'ylagan A'zam tabiati xira bo'lib, hadiksiray boshladi. Injener esa, jo'rttaga qilgandek undan Toshkentni surishtirar, O'zbekistonni maqtar, bu yaqin uch-to'rt yil ichida borolmaganidan o'kinar edi.

– Ajoyib yurt! Kavkazni maqtashadi, bu og'izga tushganidan. O'zbekiston Kavkazdan sira ham qolishmaydi.

A'zam uni o'zicha tushundi. Bu «injener» uning niyatidan xabardor. Qo'yniga qo'l solib ko'rish uchun yoniga chiqqan. O'zbekistonni ko'klarga ko'tarishi ham bejiz emas, mening fikrimni bilmoqchi. Shunday qilib, tilimdan ilintiradi-da, «qani, turing bo'lmasa!» deb duch kelgan yerda oyoq-qo'limni bog'lab beradi. Demak, juda ehtiyot bo'lishi shart. Buning birdan-bir yo'li unga qo'shilib, O'zbekistonni maqtay berish. U xuddi shunday qildi.

– Bir yil o'n ikki oy ho'l mevadan og'zi uzilmaydigan o'lka boshqa qayerda bor? – degan savoliga A'zam undan oldinroq otini qamchiladi:

– Hech qayerda! O'n uch oyga ham yetardi-yu, yil o'zi o'n ikki oy!

– Juda to'g'ri! Yurtingizni astoydil yaxshi ko'rar ekan-siz.

– Bo'lmasam-chi!

– Aslida tug'ilib o'sgan yurtning yomoni bo'lmaydi. Yomon deganning o'zi yomon. Qo'shnining tovug'i g'oz ko'rinadi, degandek ba'zilar chet elni maqtashadi.

– Mana men bir nechtasida bo'ldim. Sizning endi chiqishingizmi?

«O'smoqchilashga tushding-a, tulki?» degan A'zam o'zini bosiq tutib:

– Ha, – dedi.

– Mana, omon bo'lsak, ko'ramiz.

«Omon bo'lsak» so'zi A'zamning qulog'iga «niyatingdan qaytsanggina u o'lkalarni ko'rasan, bo'lmasa umidingni uzib qo'yaver», ma'nosida eshitildi, badanini muzday ter bosdi, palag'da tuxum yutganday ko'ngli nari borib, beri keldi.

– Yoqangizni bo'shating, isib ketdingiz. Hali yerga tushganimizda bu savlatlar kerak bo'ladi, – dedi injener hamrohiga rahmi kelib. – Hoynahoy qora kostyum ham olgandirsiz. U yerlarda qora kostyum, oq ko'ylak kechqurun juda kerak, ayniqsa, biror ziyofatda bo'lib qolsak.

«Bu mening chamadonimda nimam boridan ham xabardorga o'xshaydi! Nahotki, har qadamimni kuzatib kelyapti? Ha, gaplarining tagida bir balosi bor. Bekorga yonimdamas. Hozirda shunaqa qilyapti, pastga tushgandan keyin xirapashshadek yonimdan ketmasa nima bo'ladi?»

A'zamning hafsalasi pir bo'lib, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, battar ter bosdi.

«Peshanam sho'r bo'lib tug'ilgan ekanman. Umrbod qiynalish mening hissam ekan!» degan ishonchga kelgan A'zam peshanasini changaliga oldi, yuragidan sirqib kelgan ikki tomchi yosh kiprigida yitilladi.

– Sizga nima qildi! Biror yeringiz og'riyaptimi? – shoshib qoldi injener hamrohi. To A'zam javob qilguncha shiftdagi ko'k knopkani bosib styuart qizni chaqirdi. A'zamni ko'rsatib dori so'radi.

– Shuni ichib yuboring. Ba'zan kishi samolyotda shunaqa bo'ladi. O'tib ketadi.

Ikkī o't o'rtasida qolgan A'zam chor-nochor keraksiz dorini ichishga majbur bo'ldi. Ko'z yoshini artdi.

– Yuragingiz yaxshimi? – yana qiziqdi injener. A'zam bosh iring'adi. – Unda xavotir olmang.

«Bularning qo'ldan mehribonlik ham keladi! Bu nayranglarni bilmayotgan bo'lsam mayli edi!

Bu, bo'yniingdan bog'lab «qalay, zanjiri chiroyli ekanmi?» deganga o'xshagan gap. Bo'ynimga soladigan bo'lganingdan keyin zanjirning xunuk-chiroyligida nima farq! Oltin bo'lmaydimi!»

A'zam har xil o'ylar bilan, xayoli matrabga tushgan bedanaday tıpirchilab Parijga qanaqa qilib yetib kelganini bilmadi.

Injener chindan ham undan ajralmas edi. Mehmonxonaga joylashish oldi-da, yana kelib:

– Joylar ikki kishilik ekan. Birga turishga qarshimasiz? – dedi. A'zamning «ha» deyishdan boshqa iloji yo'q edi. Rozi bo'ldi. Endi uning uchun kim bilan turish baribir edi. Qayerda bo'lmasin bu injener uni yolg'iz qo'ymaydi, izini quvgani-quvgan. Kim biladi uning hali qanday hunarlari bor?

Yuvinib chiqishgach, nonushta bo'ldi. Restoran hashamatli. Odam kam. Deraza ostidagi stolda bir qiz, bir yigitu, undan beriroqda ikkita chol kofe ichib o'tiribdi. Qora kiyinib, bilagiga oppoq sochiq tashlagan ofitsiantlar bir yerga g'uj bo'lib, qiziq bir narsani gaplashyapti: hammasining yuz-ko'zida tabassum. Bitta ham xotin yo'q. «Iyi, bularda nuqul erkak ishlar ekan!» dedi ichida A'zam va ko'nglida ma'qullab qo'ydi: «Shilqimlik kamroq!»

Bular o'tirishi bilan ofitsiantlardan bittasi to'pidan ajralib, ular huzuriga bosh egibroq keldi, xizmatini taklif etdi. U buyurtma olishi bilan yonida ikki-uchta yosh yigitcha paydo bo'ldi. Ularga astagina nimadir aytdi, ular oldinma-keyin yo'rg'alashib, oshxona tomon ketdi. Birpasda patnislarda narsalar ko'tarib kelib, stolga qo'yishdi. Ikkitasi qoshig'u vilka bilan taqsimlab turdi, ikkitasi tashidi.

A'zam tovuq yaxnasiga yangi pomidor qo'shib yedi. Hali bahor o'tmasdan dasturxonda yangi pomidor bilan

dirkillagan bodring bo'lishi uni ajablantirdi. Buni injener payqagandek: «Afrikadan, mustamlakasidan keltiradi bular», deb qo'ydi. Issiq ovqatga baliq tortildi.

Baliq hidi yuqqan qo'llarni yuvish uchun har kishiga maxsus idishchalarda ichiga yarimta limon solingan suv keltirishdi. Qo'shnilariga qarab turib, A'zam ham barmoqlarini idishga tiqib, limonni ezg'ilab, surkab, qo'lini yuvdi. Ketidan apelsin archib, har tilimini bittalab og'ziga soldi. Eng oxirida alohida idishda o'rtaga qo'yilgan tish kovlagichdan bittasini odob bilan olib, tishiga biror narsa kirgani gumon bo'lsa ham, huzur qilib kovladi.

Unga hammadan ham limonli suv bilan tish kovlagichning stolda maxsus turishi manzur bo'lgan edi. Ichida «mana bular yashashni biladi» deb qo'ydi. «Mamnun bo'lib restorandan chiqdi. Ko'nglidan: Ana shunday hayotda yashayman endi!» degan totli fikr vujudini erkalab o'tdi. Lekin injenerga ko'zi tushib ta'bi tirriq bo'ldi. Injener uning ko'ziga, kasalning joniga tekkan tibbiy hamshiraning yana qo'lida ukol asbobi bilan ko'ringandek etini jirmirlatib yubordi.

Lekin injener, A'zamning ko'p narsaga hafsalasi yo'qligini bilgach, u bilan ortiqcha ishi bo'lmay qoldi. Tushki ovqatdan keyin dam olish o'rniga ikki-uch xil fotoapparatlarining birini yelkasiga osib, birini qo'lga olib, ertalabki ekskursiya kifoya qilmagandek, yana shahar kezib ketdi. Burnidan chertsa yiqilgudek charchagan bo'lsa ham juda xursand qaytdi. Qyerlarda bo'lganini, nimalarni qanaqa qilib suratga olganini og'zini ko'pirtirib gapirib berdi. Hatto A'zamning apparatini ham olib ketmaganiga achinib qo'ydi. Bir oz o'tgach, A'zamga iltifot qildi:

– Moskvaga kelganingizda bir telefon qiling, ko'rsataman, xuddi kinoxronika deysiz. Yana bir sayohatga chiqqandek bo'lasiz. Odamning xotirasi ham yelimlab

yopishtirilgan qog'ozga o'xshagan gap – hamma narsani ushlab turavermaydi. Bu esa, darrov yodingga soladi, kishi uchun jinday ishora kifoya, – dedi u kechqurun apparatlarining to'lgan plyonkalarini almashtirar ekan. Keyin bugun boshidan o'tgan bir voqeani hikoya qilib berdi.

– Bu ishqibozlikning ham o'z injiqligi bor. Ba'zan soatlab yurib bir tuzuk narsa ololmaysan, ba'zan entikib qolasan. Bugun aksiga yurdi.

Yodgorliklardan, chiroyli ko'chalardan tashqari biron tuzuk manzara uchramadi. «Kun bir kunmi, ertaga ham shu yerdamiz-ku», deb endi maydondan o'tib kelyatsam, bittasi Napoleon davridan qolgan yarog'u aslahalarni yelkasiga osib, beliga bog'lab, qo'lida ushlab, savlat to'kib turibdi. Mening xaridor emasligimni bildi-yu, apparatimga imo qildi.

Bildimki, o'rganib qolgan. Jinday choychaqa to'lab suratga oldim. Menga o'xshagan ishqibozlarga ko'p yo'liqqan shekilli, aytganimdek qilib turib berdi, hatto qo'ynidagi antiqa qalpog'ini ham olib kiydi.

– Tirikchiligi shudir ehtimol? – qiziqdi A'zam.

– Bo'lishi mumkin. Dunyoda tirikchilik kishini ne ko'y-larga solmaydi! Afrikada yo'g'on-yo'g'on ilonlarni chet el turistlariga o'ynatib ko'rsatadiganlar bor. Kasbi ham shu, tirikchiligi ham shundan.

– Juda xavfli-ku, biror yerda ishlasa bo'lmaydimi? – Ilonning muzday silliq terisi ko'z oldiga kelib, A'zamning eti jimirlab ketdi.

– Ish qani? Bu-ku hunar. Hunari yo'qlar qancha!

«Chet elda ham bular propagandani qo'ymaydi! Yoki meni sinayaptimi? – deb o'yladi A'zam. Bu so'zlarga ishonmasa ham, indamadi.

– Men sizga boshqa narsani aytmog'chi edim. Ha, qayerga keluvdim?

– Eski yarog'-aslaha ko'tarib yurgan odam haqida...

– Ha, bo'ldi, esimga tushdi. Uni rosa suratga oldim. Zamonaviy binolar, kishilar fonida juda yaxshi chiqdi. Lekin ko'nglim to'lmadi. Qani, uning yoniga o'ziga o'xshash xaridor kelsa ekan, deb payt poyladim. Qani kelsa! Boshqa narsaga chalg'ib ketib, bir vaqt bundoq qarasam, uning yonida lentalari titilib ketgan turli orden va medallar taqqan, eski-tuski chavandoz kiyimli, shop mo'ylov, mosh-guruch soqoli o'sgan, galife shimli, oyog'iga shippak kiygan, bir mahal azamat bo'lsa ham, hozir sharti ketib, parti qolgan oriq, novcha kishi turibdi. Qo'lida haligining tepkisi zang bosib ketgan uzun mittig'i. Yoshligini eslagandek uni maza qilib tomosha qilyapti. «Sobiq gvardiyachi o'z sobiq do'sti bilan», degani xuddi shuning o'zi bo'ladi dedim-u, qulay joy qidirib qoldim. Shu mahal bitta olifta kelib: «Apparatingni sotmaysanmi? Falon pul beraman», deb yo'limni to'ssa bo'ladimi! Yo'q desam ham qutulmayman. «Rostingni ayt, arzon bo'lsa, yana qo'shishim mumkin», deydi. «Yo'q, sotilmaydi», desam ham xira pashshadek atrofimda aylanadi. Mening qo'l siltab ketmasdan, o'z ishimda kuymanayotganimni u o'zicha tushundi shekilli, tirsagimdan bir chetga tortib: «Bu yerda qo'rqsangiz, huv anavi yoqqa o'taylik», dedi, xilvatni ko'rsatib.

Jon-ponim chiqib ketdi!.. Ha, tuyog'ini shiqillatib qolmas ekan. Lekin bundoq qarasam, «bizning qahramon» ham allaqachon jo'nab qolibdi. O'zimga ham toza alam qildi. Bunaqasi har vaqt o'ng kela bermaydida. Bu yetmaganday, beriroq kelsam, bittasi «chervon yo'qmi?» deb qulog'imga shivirlaydi.

Ensam qotganidan jo'rttaga «Bor! Nechta kerak?» dedim. Ana shunda bu la'natining go'sht o'g'irlab yegan mushukdek ko'zini ko'rsangiz edi.

– Keyin qanaqa qilib qutuldingiz? – suhbatga kirgandek bo'ldi A'zam.

– Narxini osmondan keldim, – kuldi injener, – u ablah qon hidini bilgan laychaday ketimdan ergashib to shu yergacha keldi, – u musofirxona eshigi tomonni ishora qildi. – Nuqul sal tushiring narxini, msъe, bu baho yo'q, deb goh u yog'imga-goh bu yog'imga o'tadi. Men bo'lsam ichimda: «Chervon ko'zingga chiroyli ko'rinmay o'lsin-a! Foyda shunaqa shirinmi!» deb kulaman, chervonni nima-ga ishlatishlarini o'ylab nafratlanaman.

– Mayli, bering, desa nima qilardingiz?

– Men aytgan narxga olib bo'libdi!

A'zam atayin suhbatga aralashib, qanchalik o'zini chalg'itmasin, xayolida boshqa narsa edi: bularning barchasini injener to'qidi, men uchun to'qidi. Fotoapparatni nima uchun olib kelganimni biladi. Yashirgan pullarimdan ham xabardor. Meni sinab, oldimga don sepyapti. Yoniga tuzog'ini qo'ygan. Nega bunaqa qiladi? Shartta aytib qo'ya qolsa bo'lmaydimi? Ataylab rezina qilib cho'zyapti. Ming cho'z, tan olmayman. Xippa bo'g'ding – yutuq seniki, bo'lmasa ovora bo'lasan – o'z oyog'iga o'zi bolta urib beradigan tentak yo'q.

A'zam sirini pardalash maqsadida sodda savol berdi:

– Ular chervonni nima qiladi? Bu yerda o'tmaydi-ku?

– O'tmaydi-ya! Yo'lini biladi, bu kazzoblar, bu kaz-zoblar! Anoyi emas, siz bilan mening ketimdan dumini likillatib yurib.

Injener fotoapparatlari bilan bo'lgan ishini tugatib, o'rniga cho'zildi.

– Birinchi kunlyoq oyoqdan qoldim. Endi bunaqa qilmayman. Xo'sh, qalay, shahar sizga yoqdimi? Zo'r-a?

– Chakkimas! – uning maqtovidan cho'chib, yerga urdi A'zam.

– Chakkimas?! Parij-a! Hoy, menga qarang, hazil-lashyapsizmi? – boshini ko'tardi ajablanib injener. A'zam bildiki, juda baland ketibdi. Darrov epini qildi:

– Hali nimasini ko'rdik.

– Eyfel minori, Sen-Jermen xiyoboni, uning naryog'i-dagi arklar-chi! Juda didingiz baland-ku!

Saldan keyin injenerning qiz bolanikiga o'xshagan yumshoq xurragi eshitildi. «Shuncha mas'uliyat bilan buning uxlashini qara-ya! Yurak ham daryo!» deb o'yladi A'zam.

U bugun ko'p qatori avtobusda shaharni tomosha qildi. Lekin ko'ngli notinchligidan hech narsani ko'rganday bo'lmadi, uning bu holati charchagan kishining kitob o'qishiga o'xshardi. Ovqatdan keyin dam olishdi, lekin injener shahar kezib ketib hozir kelib turgani. Mana, holdan toyib uxlayapti.

Hali turib yana daydib ketadi.

Chindan shunday bo'ldi. U uyg'onib, sovuq dushga tushdi-da, yaxshilab patli sochiq bilan ishqalab artindi. Badani qizarib ketdi.

– Suv yaxshi-da, darrov hordig'ingni sug'urib oladi, mana kurortdan kelganday bo'ldim, – dedi u, keyin A'zanga yuzlandi: – Qani, qora kostyum bilan oq ko'ylakni kiying, qora galstukni taqing. Ujindan keyin shahar aylanamiz. Bu go'zal shaharning kechasi ham ajoyib.

A'zamning, endi ishim tamom, degan fikr xayolidan o'tdi-yu, turgan yerida qotib qoldi. Uning bu holatini injener o'zicha tushundi:

– Nima, shahar yoqmadimi? O'zingiz nimaga kelgansiz? Parijda tuxum bosib jo'ja ochib berasizmi? Turing, bo'lmagan gapni qilmang.

Chorasiz qolgan A'zam xushyoqmasdan kiyindi.

Bu orada injener guruh boshlig'iga telefon qilib, A'zam bilan shahar kezmoqchi ekanini bildirib qo'ydi.

– Mana bu tomoni ham taxt. Hech kim bizdan xavotir olmaydi. Bo'ldingizmi? Mana bu boshqa gap, – dedi u A'zamni hazil bilan u yoq-bu yoqqa burib ko'rib. – Bu diqqinapas xonada nima bor? Qani, ketdik.

U chaqmoq toshli fotoapparatini yelkasiga solib oldi. A'zamnini kechasiga yaramasligidan achinib qo'ydi:

– Mayli, istasangiz Moskvaga qaytgach, o'zimnikidan bir nusxadan ko'chirib beraman. Ishqilib, biror uchari biz yo'g'imizda nomerga kirib, kuydirib qo'ymasa bo'ldi.

– Hali shunaqasi ham bo'ladimi? – qiziqdi A'zam.

– Bo'lganda qandoq!

– Ichi qoralikdan shunday qilishadimi?

– Yo'q. Gumonsiraganidan.

A'zam, ujin vaqtida noxush o'tirdi. Bo'shashib o'rnidan turdi. Shahar kezishga, ayniqsa, hamxonasi bilan birga yurishga hech yuragi yo'q edi. Ochiq aytganga tili bormay turganda, injenerning o'zi gap ochdi:

– Biror yeringiz og'riyotgan bo'lsa, mayli zo'rlamayman. Nimaga bunaqa qilasiz, kasalmisiz, ayting!

– Charchadim shekilli...

– Darrov-a! Unday bo'lsa, yuring. Qiziq-qiziq narsalarni ko'rib, yozilib ketasiz.

A'zam chor-nochor unga ergashdi. U o'zini qushxonaga olib ketilayotgan buzoqqa o'xshatdi. U yuz qadam yurmasdanoq xayoli shunaqa ayqash-uyqash bo'lib ketdiki, ko'zi hech narsa ko'rmay, qulog'i eshitmay qoldi. Oxiri:

– Men g'alati bo'lib ketyapman, birodar! – dedi hamrohiga. Bu bilan injenerni sinab ko'rmoqchi edi. Agar shunda injener «ha, mayli, bo'lmasa, siz boravering, men o'zim aylanaman» desa, bu – uning A'zam bilan ishi yo'qligi. Chindan ham injenerning u bilan ishi bo'lmadi. A'zamni boshdan-oyoq kuzatib, ko'zi «qiziq odam!» degan ma'noni ifodaladi-yu, tili gapga qovushmadi. Faqat:

– Adashmasdan topib keta olasizmi? – dedi.

A'zam holdan toyib borayotgan odamdek og'ir bosh silkidi.

U kaltaklangan odamdek xonasiga shol-shol bo'lib qaytdi. Lekin bu yerda yolg'iz qolib birdan g'ayrati qo'z-g'adi: «Nimani kutyapman? Nega endi orqaga silta-yapman? Biror bitmagan ishim bormi? Tavakkal!» dedi-yu, qochishga tayyorlik ko'rdi. Eshikka chiqib, xabar olib keldi: tanish-bilish yo'q. Eng zarur narsalarini olib, bir kichik bo'xcha qildi.

Yana ixchamroq ko'rinsin uchun tizimcha bilan chandib bog'ladi, ustidan gazeta o'radi. Ko'p narsasi qolib ketayotganiga yuragi achisa ham, eng keragini olganiga amin bo'lgach: «Xudo, o'zing ishimni o'ngidan keltir», deb endi xonadan chiqay deganda, eshik tiqillab qoldi. A'zam turgan yerida qotdi!

9

QOPLONBEK TAMANNO PAYIDA

Polkovnik Klark o'z huzuriga chaqirib:

– Shu ishga sizni ma'qul ko'rdik, bek, – deganida Qoplonbek «qora-quralarning bu jazirasida yonishim qoluvdimi endi!» deb ensasi qotgan va polkovnikni ichida qanchalik o'xshatib yasagan bo'lsa, samolyotga chiqib Tamanno bilan tanishgach, shuncha xursand bo'ldi va Klarkka g'oyibona minnatdorlik bildirdi.

Tamanno bilan uning joyi yonma-yon tushgan edi. Qoplonbek avvaliga ko'rinishdan uncha diirabo bo'lmagan bu qizga ortiqcha diqqat qilmadi. Shu issiqda galstukda chiqqanidan xafa bo'lib, terini artdi, keyin yoqasini bo'shatib qo'ydi. To samolyot ma'lum balandlikka chiqib chekishga ijozat bo'lgunicha yorilib ketay dedi. Tablo o'chishi bilan hamrohiga odob bilan yuzini o'girib:

– Cheksam mumkinmi? – dedi nemischalab. Qiz nemischa tushunsa keragu, yaxshi gapirolmaydimi yoki o'ziga yengilmi, fransuzchalab:

– Marhamat, ms'e! – dedi. U juda xomush edi. Buni Qoplonbek, «Yaqin kishilari bilan xayrlashgan bo'lsa, shuning g'urbati», deb o'yladi va uning g'amgin bo'lsada, ajib bir jilva bilan yonib turgan ko'zlarini, qorachadan kelgan yuziga ko'rk va latofat baxsh etib turgan sal qayrilma chiroyli lablarini payqamadi. Sigaretani labiga qo'ndirishi bilan yonida bo'lgan birdan-bir kitobini olib, xatcho'p solib qo'ygan yeridan o'qishga kirishdi. Kitob uning diqqatini o'ziga jalb qilib, qancha vaqt o'tganini bilmadi. Bir vaqt bundoq qarasa yonida o'tirgan qizning ham ko'zi shu kitobda. Labi pichirlaydi. Qoplonbekning sezganini bilgan qiz, yuziga birdan qizil chiroq tushgandek qip-qizarib ketdi, uzr so'radi. Bu uyalish uning yashirin husnini ochgandek bo'ldi. Ana shundagina Qoplonbek qizning ko'zida allanechuk fusunkor olov borligini payqadi, unga tasalli berishga shoshildi:

– Bemalol, madam! Bu tilga tushunasizmi?

– Bu qaysi til o'zi?

– Ko'zingiz tushgan bo'lsa bilgandirsiz? – og'ir botmasin deb kulib gapirdi Qoplonbek.

– Harfi lotincha, o'zi o'zbekchaga o'xshaydi.

– Topdingiz! – dedi kulib turib yana Qoplonbek va qizning o'zini surishtirishga jur'at etdi:

– Qayerliksiz?

Tamannoning butun chehrasida ba'log'atga yetgan, o'z qadri-qimmatini, husni latofatini bilgan qizlardagina bo'ladigan nozik g'amgin bir tabassum bor edi. Bunday tabassum har qanday xunuk qizni ham chiroyli qilib yuboradi. Tamannodek latofati yashirin, xuddi qayn anordek ichiga yashiringan qizlarda esa, yana ham o'zgacha chiroy kashf etadi. Bu holat qilni qirq yorgan,

ko'pni ko'rgan Qoplonbekning diqqatidan chetda qolmadi. Ayniqsa bu jozibador qiz:

– Shu samolyot qo'nadigan joylikmiz! – deganida juda ham barq urib ketdi.

Qoplonbek qizni endigina ko'rayotgandek tuzatibroq qaradi. Arab qiziga ko'proq o'xshasa ham, nimasidir, «men sening elatingman» deb turardi.

Nimasi? U aniq bilmasdi. Lekin nimasidir baribir «o'zbekman!» deb turardi. Ana shu nimasidir qizni unga juda yaqin qilib ko'rsatdi. To'g'ri, Qoplonbek o'z razvedka organidan topshiriq olib, bu yoqqa safarga chiqar ekan, bu arab o'lkasini ozmi-ko'pmi o'rgangan. Bu yerda O'rta Osiyodan turli sabablar bilan kelib qolganlar ham bor. Lekin u samolyotdayoq o'z elatimni uchrataman, deb aslo o'ylamagan, bu yetti uxlab tushiga kirmagan edi. Yuragida oftob chiqib ketdi. Bu elatdoshlik unda jur'at paydo qildi. O'ziga xos ehtiyotkorlik bilan surishtirdi. Bildi. Tanishdi. Qiz ko'rinishdan anchagina g'amgin va og'ir bo'lsa ham «ichimdagini top!» emas ekan. Tezda suhbatga kirishib ketdi.

Uning o'zini tutishi, fikr doirasi, odobi o'ziga to'q, lekin achchiq-chuchukni totigan oiladan ekanidan kafolat berib tursa ham, Qoplonbek, «bu qanaqa odam ekan, bir ko'rishishdayoq ipidan-ignasigacha surishtiryapti», deb o'ylamasin degan andishaga borib, u yog'iga o'tmadi. Yo'lning bundan bu yog'i tanishuvlariga sabab bo'lgan «O'tkan kunlar»ni birga o'qish bilan o'tdi.

Samolyot qo'nishga taraddud ko'rgandagina kitobning orasiga xatcho'p solib yopishdi. Roman Tamannoda ajib taassurot qoldirgan edi. U bosh tomonini bilmaganiga yarasha, oxirigacha ham yetqizolmaganliklaridan ichida o'kindi. Surishtirishga majbur bo'ldi:

– Kumushbibi hayot qoladimi?

Tamanno Kumushbibi bilan o'zining o'rtasida qandaydir yaqinlik borligini sezar, bu yaqinlik uni juda qiziqtirib qolgandi. Kumushning taqdirini eshitgach, birdan ko'ziga yosh qalqib keldi, o'zining yaqin o'tmishi jonlangan edi. Agar shu paytda bular yonida Saidakbar hoji bo'lganida qizining shuncha dori-darmon va sayohatini bekor qilgani uchun, «qanday beodob, befahm ho'kizsan» deb Qoplonbekni quvib solgan bo'lardi. Chindan ham Kumushning taqdirini eshitgan Tamannoning qiyofasida o'zgarish bo'lgan edi. Lekin o'z «kashfiyoti» bilan mamnun Qoplonbek bu kitobning mazmunini hikoya qilish bilan kifoyalanmasdan, uning qanaqa qilib frontlardan o'tib kelganini g'urur bilan aytib berdi. Oxirida:

– Titilib ketganini ko'rmaysizmi, lo'lining ko'ylagiga o'xshaydi. Ming kishi o'qigandir! – dedi, lekin ming kishining bu tomonlarda qayerda bo'lishini, qachon o'qiganini aytmadi. Chunki Turkiston legionini tilga olishga hozircha botinmas edi, axir hozir hamma ham mag'lub Gitler Germaniyasi haqida uningdek «xolis» fikrda emas-da! Qiz ham surishtirmadi. Bu narsa uning xayoliga ham kelmas edi.

Ular yerga tushganda Tamannoning rangi siniqqandek edi. Buni ko'rib Saidakbar hoji: «Kurortning ham tuzuk-kina nafi bo'lmabdi-da», deb ichidan zil ketgan bo'lsa-da, ochiq yuz bilan kelib qizining peshanasidan o'pdi.

– Balli, qizim, balli! Yaxshi keldingmi? – deb erkalar ketdi. – O'zimiz ham toza sog'indik-da!

Borgan joying yoqdimi? Ma'qul bo'lgan bo'lsa, yana borasan, qizim!

– Tamanno bu mehribonliklarga tabassum bilangina javob qaytarib, samolyotdan yonma-yon tushib kelgan Qoplonbekka yuzlandi:

– Dada! Tanishing, vatandoshingiz! – dedi.

Hoji: «Nima balo, yana bittasini orttiribdimi!» deb cho'chib ketgan bo'lsa ham, sir boy bermadi:

– Jonim bilan! Anchadan beri vatandoshimdan hech kimni ko'rmagan edim.

Qoplonbek Hoji qo'lini uzatguncha qo'lini ko'ksiga qo'yib muloyim jilmaydi. Uning qo'lini olib, minnatdor bo'layotgandek astoydil qisdi. Qoplonbekning bu harakatida odob bilan takabburlik ko'rinib tursa ham, qizi bilan omon-eson diydor ko'rishganidan xursand Hoji payqamadi. Ancha so'linqirab qolgan bo'lsa ham sog'lom, past-balandni ko'rgani bilinib turgan bu yigit Hojining diqqatini o'ziga tortdi. Aeroport oldidagi maydongacha birga chiqishdi. To yuklarini olguncha qizidan kimligini surishtirishga ham ulgurdi. Qayoqqadir bir necha daqiqa yo'q bo'lib ketgan Qoplonbek kelishi bilan undan kutib oluvchisi bor-yo'g'ini, qaysi tomonga ketishini, lozim topsa tayyor mashina borligini iltifot qildi.

– Rahmat! Tashvishlanmang, hammasi joyida.

– Vatandosh, – dedi shundan keyin Hoji yana o'sha muloyimlikda, – bir ko'rishaylik. Biznikiga marhamat qiling. Qachon bo'lsa sizni ko'rishga mushtoqmiz.

Saidakbar hoji Qoplonbekning javobini kutmasdan oppoq, yaxshi qog'ozga zar bilan bosilgan tashrifnomasini unga uzatdi.

– Marhamat!

– Minnatdorman, benihoya minnatdorman! – tilining yengil aylanishiga qaramasdan Qoplonbek o'zini og'ir tutdi.

Saidakbar hoji qizi bilan zulukdek yengil mashinada jo'nab ketgach, Qoplonbekni kutib olgani chiqqan odam unga yaqinlashdi, so'rashdi.

– Bu kim, tanıysızmi? – dedi Hojining kimligini to'la aniqlamoqchi bo'lib Qoplonbek.

– Shahrimizning kuzerlaridan. Butun davlati shu qizi. O'g'li ham bor, lekin u otasi bichgan to'nni tor hisoblab yurganlardan, otasini ko'pda yoqtirmaydi.

– «Tinchlik tarafdorlari»danmi? – dedi Qoplonbek bu so'zga o'z ma'nosini berib.

– Topdingiz.

– Ko'pchilikmi?

– Keyingi vaqtda avj olib qolishdi, yaqinda namoyish ham uyushtirishdi.

– La'natilar! – g'ijindi Qoplonbek, keyin birdan yana Tamanno esiga tushib qoldi, – kuyovi kim?

– Gap shunda-da! – nima uchundir yashnab ketdi suhbatdoshi. – Hali er qilmagan. To'g'risi, qiziga qolsa allaqachon juftini topib ketar edi-yu, otasining didiga yoqadigani yo'q. O'zinikini qidiradi shekilli-da.

Qoplonbekning qalbi allanechuk urib, shirin narsa yeb ta'mi og'zida qolgan odamdek tamshanib qo'ydi. Samolyotdagi suhbat qandaydir unda g'alati taassurot qoldirgan, lekin uning qandayligini eslab ololmasdi. Shuning uchun bo'lsa kerak:

– Bir yigitni baxtli qiladi! – deb qo'ydi.

– Otasining davlati ham hazilmas o'zi!

– Nahotki shu vaqtgacha loyiq kuyov topilmagan bo'lsa! Gaziga uncha-muncha odam to'g'ri kelmasa kerak-da! Lekin qizi hushyor, uncha-muncha shoxga qo'nmaydi.

– Qayoqdan kelayotgan ekan?

– Kurortdan. Shveytsariyadan.

– O, – dedi hamroh, – mana shunisi bilan bilavering! Qizini Shveytsariyada dam oldiradigan otaning niyati qandayligi ma'lum!

– Yana xo'jako'rsinga bo'lmasin!

– Kim biladi! U emas, bu emas, omad biladi.

Yugurganniki emas, buyurganniki! Osmoniy nikoh yerga tushguncha rad qilish uchun doim bahona topiladi. Vaqti keldimi, ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'ladi-qoladi. Ko'ribsanki, kutilmagan ilib ketibdi. Bu shunaqa beandaza narsa. Nima, bir qarmoq tashlab ko'rasizmi?

– Bizga yo'l bo'lsin! Bizning qarmoqqa mayda-chuydasi ilinadi, bunaqa kitga yaramaydi, – dedi Qoplonbek qalbidagi tug'yon tiliga chiqib qolayotgandek ehtiyot bilan.

– Omad-da!

– Sherigining nuqul «Omad! Omad!» deyaverishi Qoplonbekning xayolini surib olib ketdi: nega bir urinib ko'rmaydi. Xotini bo'lsa yo'q. Borlari ham o'sha yerlarda esdan chiqqan ko'ylakdek qolib ketgan.

To'g'ri, hozir ham bir xotin bilan turadi, lekin xotini emas, mijoz desa ham bo'ladi. Istagan paytida galstukdek bo'ynidan soqit qilib tashlab ketaveradi. Bu – boshqa. Agar Tamannoni ilintirsa, asti o'shanaqa ishlarni qilmas edi. Shuni derdi, shu bilan o'tardi. Garchand, uning rejasidagi xotin tovusday chiroyli, qo'zichoqday yuvosh, sichqonday ehtiyotkor, ko'zgudek to'g'ri, baliq sirtiday toza bo'lishi kerak... Har holda bu ham yomon narsa emas. Samolyotda o'tirganda bilmagan ekan, pastga tushgandan keyin xipcha beli, chiroyli oyoqlarini ko'rib og'zi ochilib qoldi. Yurishini aytmaysizmi!

Ming qilsa ham Parijda o'qigan! Keyin, husni ham chakki emas, bir qiznikicha bor, lekin «jaz» etib ko'rgan zahoti ko'ziga tashlanadigan emas. Shunisi ham yaxshi, begonaning suqi kirmaydi. Katta chiroq yoqilgan mehmonxonaga har o'tkinchi bir qaragandek go'zal xotinga ham nazar tashlovchi ko'p bo'ladi. Yaxshisi, kichikroq chiroq bilan tinch yashab, katta chiroqlarga qarab yurish – shunisi tinch. Otasining davlati-chi! Bu hamma chiroqdan ham zo'r.

Zotan, Tamannoning husnini ochib turgan tilsimlardan biri ham shu emasmi! Ollo, «ol qulim», deb yuborsa bormi, otasi yarim davlatini sep qilishi manavi yerda turgan gap. Sep qilmaganda ham Hojini «ota-otajon!» – deb iylab tursa, o‘tini bilan kirib, kuli bilan chiqib tursa, ko‘krigidan itarardimi, bir kuni «ham kuyovim, ham o‘g‘lim» deb merosini xat qilib bersa ajab emas! Ana unda Mirza Qoplonbekning yurishini ko‘rasiz! Hammadan zo‘ri shuki, bu «tinchlikparvar» o‘g‘lini xush ko‘rmas, butun umidi qizidan ekan. Umidi qizida bo‘lgan odamning kuyoviga qanday munosabatda bo‘lishi aniq. Ayniqsa, atrofida kapalakdek girgittan bo‘lib turgan kuyoviga! Undan keyin o‘zi ham dunyoga ustun bo‘lmaydi-ku – soqolining qorasidan oqi ko‘p. Bir kuni kelib... Yo‘q, halitdan bunaqa deyishim yaxshimas. Mayli, yashayversin! Ehtimol, menga yashab turgani qo‘l kelar. O‘z yoniga tortib hunarini o‘rgatar, borib-borib sherigi qilib olar.

Unda o‘z ishim nima bo‘ladi? Xo‘jayinlarim nima deydi? Bu la‘natilar mandek olg‘irni: «Bora qol, ixtiyoring o‘zingda», deb bo‘ynimdan arqonimni ola qolmas! Rozi bo‘larmikin?

– Shunday o‘y-xayollar og‘ushida mast-alast yurgan Qoplonbek Klarkning toshpirig‘idan shuncha qilsa ham vaqt orttirolmadi. Har kuni Hojinikini bir mo‘ljallaydi-yu, ilojini qilolmadi. To‘g‘ri, bir kuni kechasi, o‘sha ko‘chadan mashinada atayin o‘tib, qo‘rasiga ko‘z tashladi. Dabdabali darvoza, yonida kichik eshik. «Boyning tomi bo‘g‘otidan ma‘lum», deb qo‘ygan edi. Yuragi bir oz cho‘chib ham qo‘ydi. Shofyor oldidagi oynaga o‘zini solib, yoshi o‘tinqirabroq qolganidan ham o‘kindi. Ajin bosgan ot chakak yuzini tekislamoqchi bo‘lgandek bir-ikki silab qo‘ydi.

Hoji chindan ham aqlli va tadbirli kishi bo‘lsa, kuyovning og‘zidan ona sutining hidi kelib turganidan, suyagi

qotgan, olam ko'rgani yaxshi. Darrov aravaga kira qoladi. Og'irini yengil, uzog'ini yaqin qiladi. Yoshining turgan-bitgani mashmasha! Bu fikr Qoplonbekka ancha tasalli bergan bo'ldi. Bu shaharda ishi bitib, Klark huzuriga qaytar ekan, yana bir atayin kelishga ahd qilib qo'ydi.

Topshiriqlarini bajargani haqida batafsil so'zlab bo'lib, sigaraga qo'l uzatgan edi, Klark:

– Bu yog'ini ham gapiravering! – dedi.

– Tamom, – yelkasini qisdi Qoplonbek.

– Tamanno masalasi-chi? Nega bu yog'ini aytgingiz kelmayapti, bek! – deb kuldi.

– Bu shaxsiy masala bo'lganidan...

– Shu oddiy haqiqatni ham bilmaysizmi, siz-bizning hayotimizda hech shaxsiy narsa yo'q.

Qoplonbek hammasini aytib berishga majbur bo'ldi.

– Yana bir epizod qoldi, bek! Ko'chasidan o'tib, uy-joyiga mahliyo bo'lganingizni aytmadingiz-ku!

«Obbo, la'natilar-ey, shularimgacha ham hisobga olib yurgan ekanlarmi!» deb hayratda qolgan Qoplonbek iqrar bo'ldi:

– Lekin boplab solgan ekan! – dedi oxirida. Klark bu yog'ini maydalamasdan birdan ishga ko'chdi:

– Juda yaxshi. Bu odam bizga kerak. Anchadan beri doiramizga tortolmay yurgan edik, ayni muddao bo'libdi. Sizning bu boshlagan ishingizni ma'qullaymiz va qadrlaymiz. Ishga dadil kirishavering. Nima bo'lsa, bizga bermalol suyanavering.

Xo'sh, qachon u yoqqa qaytmoqchisiz? Shu hafta ichidayoq jo'nang. Lekin ogohlantirib qo'yay: chol chaqirtosh – uncha-munchaga maydalanmaydi.

Go'yo hamma ish tugagan edi. Lekin ikki kun o'tgach, Klark Qoplonbekni so'ratib qoldi. Uni peshvoz chiqib kutib oldi. U ovga chiqadigan safar kiyimida edi. Qoplonbek salomlashar-salomlashmay: Yuring, bek, baliq oviga! –

dedi. Qoplonbek bu soʻzning taklifligini ham, buyruqligini ham bilmadi. Lekin Klarkning yuzida gʻayrirasmiy vaqtlarda kamdan-kam koʻrinadigan yumshoqlik bor edi. Bu yumshoqlik uni siyladi. U hali javobini qilguncha, yana Klark gap tashladi:

– Kiyinib chiqasizmi, yo shunday ketaverasizmi?

Endi Qoplonbekka soʻzlash oʻrni qolmagan edi. U yoʻl yoqasida turgan mashinaga chiqdi. Undan keyin Klark oʻtirdi. Mashina qimirlashi bilan rulda oʻtirgan Klark gap boshladi:

– Shahar ham kishining yuragini siqib yuboradi. Baʼzan-baʼzan shamollab ham turish kerak. Nima dedingiz, bek!

Hamisha qovogʻidan qor yogʻib turadigan polkovnikning bugun bunchalik ochilib gaplashuvidan Qoplonbek ajablandi. Buning tagida bir gap borligiga shubha qilmadi. Chindan ham shunday boʻlib chiqdi. Savlat toʻkib rulda oʻtirgan Klark mashina shahardan chiqishi bilan juda uchirib ketdi. Anchadan keyin katta yoʻldan chiqib, soʻqmoqqa burdi.

U yoqda qilich damiday yitillab daryo koʻrindi. Klark bu yerlarni yaxshi bilsa kerak, qirgʻoqqa chiqqach ham, toʻxtamasdan yelib ketaverdi. Oxiri mashina bu tomonlarga odam kirgani gumon boʻlgan xilvatda toʻxtadi. Mashinadan sakrab tushib, atrofga suqlanib nazar tashladi. Undan zavqlanayotgandek chehrasi ochildi. Keyin mashinadan qarmoqlarni oldi. Bittasini Qoplonbekka tutdi. Qirgʻoqqa yaqinlashar ekan, ovni maqtab qoʻydi:

– Bilasizmi, bek, baliq ovining hikmati zoʻr.

Avvalo suv boʻyida havo toza boʻladi. Taning yayraydi. Undan keyin asablarni tinchitadi. Ayniqsa, siz-bizning ishda bu juda zarur.

Suv aslida kattaroq daryoning tarmogʻi boʻlsa kerak, yayilib, beparvogina oqardi. Qirgʻogʻi ham bosilib yan-

chilmagan. Yovvoyi g'iyohlar novcha bo'ylarini adil tutib, ostlaridagi maysalarga qorovullik qilayotgandek kekkayib turardi. Lekin ularga xalaqit bermasdan butalar oralab ketgan Klark, daryoning oqimi ravshan ko'rinib turgan yassi qirg'oqda to'xtadi. Chapdan buralib, to'lqinlanib chiqqan suv xuddi shu yerda erkinlik olgandek yoyilib oqardi. Xuddi shu yoyilishning boshida Klark qarmog'ini suvga tashladi:

– Suv o'ralgan joyda baliq zoti ko'p bo'ladi, deb izohlab qo'ydi va yonidan Qoplonbekka joy ko'rsatdi. Qoplonbek yig'ma kursisini xo'jayinidan sal nariga o'rnashtirayotgan edi, Klark:

– Yaqinroq o'tiravering, maqsad baliq emas, dam olishga bir bahona.

Lekin bu ov dam olishga bahona bo'lmadi. Klarkning o'z rejasi bor ekan. U avval shu vaqtgacha Qoplonbek sezmagani bir yo'sinda muloyimlik bilan uning qo'ltig'iga suv purkadi. Keyin Qoplonbekning ishlaridan minnatdorchiligini alohida ta'kidladi.

– Sizdan umidimiz katta. Endi siz ham yosh yigit emassiz. Achchiq-chuchuk ko'rdingiz, past-baland bo'ldingiz. Mana shu Saidakbar hoji oilasi bilan tanishib kelishingizning o'zi katta gap.

Suvdagi ko'k-qizil po'kak likillab Klarkning diqqatini bo'ldi. Bir oz kuzatib turib, qarmoqni tortgan edi, hech narsa chiqmadi:

– Aldab ketdi, la'nati! – deb qo'ydi va qarmoqning chuvalchangini to'g'rilab, uzoqqa uloqtirdi, mo'ljaliga tushmadi shekilli, tortib olib, qayta tashladi. Keyin yog'ochni qirg'oqqa zarb bilan suqib qo'ydi. Yoniga qo'l solib, qora fotokonvertda bir necha surat oldi.

– Mana bu kim? – dedi bittasini ko'rsatib.

– Saidakbar hoji! – dedi uni tanib Qoplonbek.

Hoji egnida kamzul, boshida fas bilan xayolchan boqib turardi.

– Bilasizmi, Hoji qanday odam?

«Uning surati qanday qilib darrov Klarkning qo'liga kelib tusha qolibdi?» deb ajablanib turgan Qoplonbek javob bergunicha bo'lmay, uning o'zi izohlab ketdi:

– O'zi o'ta puldor odammas, lekin o'ta tadbirli. Osmondan o'tgan g'ozning erkak-urg'ochisiga tovushdan ajratib beradi. Tezda boyib ketishi hech gapmas. O'sha yurtdan o'tadigan neft quvuri kompaniyasiga qo'shilish tayyorligini ko'rib turibdi. Shahar mulkdorlari orasida mavqei baland.

– Klark yana ikki-uchta surat olib, kartaga o'xshab, qo'liga terdi.

– Mana bu fransuz boyi Hojining izmidan chiqmaydi: bir olma archisa, yarmini unga olib qo'yadi. Mana bu arab bizga moyil, lekin jur'atsiz: Hojining og'ziga qarab turadi. Mana bular ham uning atrofida. Ko'rdingizmi, Hoji qanaqa odam!

Karmoni unchalik qopchib chiqmagan bo'lsa ham, aqli butun, ta'siri kuchli. Uning bizning ta'sirga o'tishi qanchalik zarur ekanini aytmasam ham bo'ladi.

Yana ola po'kak suvga sho'ng'ib ketdi. Klark zarb bilan tortgan edi, jimjiloqday baliq jilpanglab chiqdi. Kaftiga olgan polkovnik uning qanaqa baliq ekani bilan ham qiziqmasdan, qarmoqdan chiqarib suvga emas, butalar orasiga otdi.

– Pishmaloqlar bilan qiziqadigan bolalik davrimiz o'tgan, shunday emasmi, bek? – deb kulib qo'ydi.

Bu gapning baliqqa emas, ishga doir ekanini Qoplonbek to'g'ri tushundi va kulib ma'qulladi.

– Torting, bek! – birdan sherigini ogohlantirdi Klark. Boshlig'ining gapida xayoli bo'lib, qarmog'idan bexabar qolgan Qoplonbek shoshib tortgan edi, bir qarich mo'l baliq suvdan lapanglab chiqib, endi Qoplonbek o'ziga tortaman, deganda cho'lp etib tushib ketdi.

– Laqqa ekan! – deb Qoplonbek achingan edi, Klark yana qo'sh ma'noli qilib uni ogohlantirdi.

– Turmushdagisi qo'lingizdan chiqib ketmasa bas!

– Unisiga ehtiyot bo'lamiz: qarmoqni rosa yutmaguncha tortmaymiz, – kerildi Qoplonbek.

– Bu gapingizga ishonamiz. Bu ham tushib ketmas edi-ku, sal shoshilinqiradingiz. Ko'rdingizmi, bek, hatto baliq tutishda ham shoshmaslik kerak.

Shundan keyin ovlari o'ngidan kelib, patillab tushaverdi. Yonlaridagi rezina chelak to'lib, suvi chetidan toshib chiqdi. Ayniqsa, Qoplonbekka sarasi tushardi. Ishining yurishib ketganidan og'zi qulog'ida ekan, Klark yana bir surat ko'rsatdi:

– Buni ham yaxshi tanisangiz kerak.

– Yo'q.

– Hojining o'g'li, bog'ining shumg'iyasi! – Klark ranjigan kabi javob qildi. – Sirdoshlari qatoriga o'tib olsangiz chakki bo'lmas edi. Lekin juda hushyor, ildizi sertarmoq. Ehtiyot bo'lmog'ingiz shart! Singlisining ko'nglini olsangiz, egilishi mumkin. Uning qadam olishi bizni Hojidan kam qiziqitirmaydi: o'q otishdan oldin nishonni aniq ko'rgan yaxshi – bexato bo'ladi.

Klark Abulbaraka xaqida g'ijingansimon gapirib turganda birdan qarmog'ining po'kagi ketma-ket sho'ng'ib, keyin ko'rinmay ketdi. Beparvogina tortgan edi, baliq chiqdi. Uni qarmoqdan shunday zarda bilan ayirib oldiki, baliq bechoraning lunji yirtilib, qop-qora qonga belandi, go'yo qarmoqqa ilingan baliq emas, Abulbaraka edi. Buni ko'rib turgan Qoplonbek Klarkning nafrati qanchaligini tushundi va bu sohada ham anchagina ishi borligini bildi.

Tushlik paytida Klark gapni Tamannoga burib ketdi:

– Qiz otasiga tortgan bo'lishi kerak. Bu sizning baxtingiz, – dedi va ryumkadagi vinoni ko'tarib Qoplonbeknikiga cho'qishtirdi: – Sizning baxtingiz uchun, bek!

– Sizning ham!

– Bizniki baxt emas, bek, endi bundan bu yog'i xizmat. Sizning baxtingiz bizning xizmatga egizak bo'lishi uchun! – u bitta tashladi.

O'z orzusining bunchalik jiddiy tus olib ketishini o'ylamagan Qoplonbek, avvaliga hayron qolgandek bo'ldi, keyin: «Qaytaga yaxshi! Xarajatdan qiynalmayman», deb qirchang'i otini yo'rg'aga almashtirgandek quvondi, keng va uzoq ufqni dadil ko'zladi. Qanot hosil etdi. Murodiga yetishga shubhalanmay qo'ydi. Endi uzangiga qancha oyoq tirasa bo'ladi. Yo'l-yo'riq ko'rsatib turgan Klark:

– Bizdan uzoqlashmang, biz doim qo'ltig'ingizdamiz!
– dedi.

Bu gapning ma'nosini Qoplonbek yaxshi biladi: unga Tamanno va davlati kerak bo'lsa, Klarklarga Hojining savdo ahlari orasidagi mavqei va obro'yi zarur.

Hafta oxiriga qolmasdanoq Qoplonbek: «Ey xudo, ishimni o'zing kushoyishini ber», deganicha jo'nab ketdi.

Bir hafta burun bu shahar «qora-quralar» yurti edi. Endi unga yana o'sha Qoplonbekning ko'zi bilan qarang: bundan ko'ra tanish va jozibador, bundan ko'ra yoqimli ko'rkam shaharni umrida uchratgani gumon!

U eng aziz kishisi bir quchoq gul bilan intizor kutib turgandek shoshinqirab samolyotdan tushdi. Ko'ziga hamma narsa issiq ko'rinib, nazari allakimni sog'ingandek qidirdi. Hech kim «xush kelibsiz», deb kutib olmagan bo'lsa ham yengil va quvnoq kayfiyat bilan ko'chaga chiqib bordi. Uning navbati arabchalab «sag'ir taksi», fransuzchalab «petit taksi» deb yozib qo'yilgan qo'g'irchoqdekkina kichik mashinaga to'g'ri keldi. «Hozir shunaqasi ham bo'laveradi, Tamanno bilan sayilga chiqqanda u boshqa gap», deb pastak mashinaga ikki bukchayib kirdi.

Oftobda qolib ketib turshak bo'lgandakkina qovjiroq va qotma arab yigiti – shofyor Qoplonbekdan ijozat oldi-yu, ikki tomoni ko'm-ko'k daraxtlar bilan qoplangan keng ko'chaga sho'ng'ib ketdi. U yo'l-yo'lakay yoliga oq, qizil latta o'ragan, usti soyabonli izvoshlarni quvib o'tar, uni esa, zulukdek qop-qora «limuzin»lar yo'lda qoldirib ketar edi.

Kurkaning bo'ynidek yalang'och tanali, faqat endi uchidagina bir to'p shokila – shox-shabbasi bor novcha xurmo daraxtlari uzoqdan to'zg'oq chiqarib turgan qamishlarga o'xshab ketardi. Buncha bu atrofda laylak ko'p. Ana bittasi pastdekkina, hatto novcha kishi sakrasa bo'yi yetadigan qandaydir quruq daraxtning butog'idagi uyasiga beso'naqay uzun oyoqlarini osiltirib qo'nyapti. Shahar markaziga yaqinlashgan sari bo'yin aralash oq salla o'ragan kishilar va kichik-kichik kulbalar kamayib, o'rnini yevropacha kiyinganlar va savlatli baland binolar almashib bordi. «Sag'ir taksi», «ESS0» va «Shell» benzinkolonkalarining yonida chapga burilib «Uzbekiya» bog'ining xuddi o'zidan chiqdi. Fontani havoning issig'iga suv purkab turgan bog'ni yoqalab borib, yana bir burildi-da, shundoqqina «Gran otel» deb, katta qilib yozib qo'yilgan musofirxonaning oldida to'xtadi. Shofyor tezlik bilan mashinadan chiqib, Qoplonbekning eshigini chaqqon ochdi:

– Marhamat, msъe!

Bu mahal quyosh ufqqa olov labini bosib, qizartirib yuborgan edi.

Qoplonbek beshinchi qavatdagi nomerida yaxshilab yuvinib-tarangach, nima qilishini bilmay qoldi: hozir kiyinib Tamannolarnikiga boraversinmi, yo ertaga qo'ysinmi? Boradigan bo'lsa boshqacha-yu, ko'cha aylanadigan bo'lsa boshqacha kiyinishi kerak.

U ochiq deraza oldida turardi. Issiq kunning tafti qaytgan, boyagidan ham ko'chada odam gavjum. Bu shaharning odati shunaqa: ko'chaga ertalab bir odam yog'iladiyu, kechqurun bir. Tushda eng ishi zarurlargina yuradi. Xuddi shunday do'konlar ham bir ertalab, bir kunning olov nafasi qaytgan chog'da ochiladi. Qorong'i – quyosh oyog'ining sharpasi borgan sari quyuqlashib, magazinlarning turli rangdagi elektr reklamalari, turli fasonda yozilgan nomlari borgan sari yaraqlabroq ko'rinardi.

Qoplonbek shularga beixtiyor qarab turdi-da, birdan orqasiga burildi: dam shu damdir, o'zga damni dam dema!

Hoji o'tgan gal aeroportda bergan tashrifnomani ardoqlab qo'ygan joyidan olib, telefon nomeriga qaradi. Endi ikkilanmasdan qo'ng'iroq qildi. Trubkani Hojining o'zi oldi:

– Marhamat, azizim!

Qoplonbek vaqtning kech bo'lib qolganini jo'rttaga bahona qilgan edi, Hojining:

– Bizning shaharning kunduzidan kechi serfayz. Aslo tortinmang, kelavering, ayni vaqti! – degan tovushi eshiltildi.

Shu Qoplonbekka kifoya. U shuni kutgan edi. Darrov maxsus olib kelgan kiyim-boshini kiyib, yo'lga chiqdi. Hoji hali: «Adashmasdan topib kelasizmi?» deganida: «Ko'rganman!» deb yuborishiga sal qolgan Qoplonbek, «Darrov yetib kelibdi. O'zi ham bir imoga muhtoj bo'lib turgan ekan!» demasinlar deb, taksida emas, qo'shotli izvoshda ketdi. Endi izvoshlarning soyaboni tushirilgan, otlar ham ortiqcha hansirammas edi. Qoplonbek yumshoq o'rindiqqa taltayib o'tirib, oyog'ini oldinga tiradi. Qo'sh otning oyoqlaridan chiqayotgan bir tekis ovoz uning xayolini uzoqlarga olib ketdi. Bu ovoz uning do'ppisiga ko'zmunchoq taqib, yo'rma beqasam choponchasining

yelkasiga mushk-anbar bilan munchoqlar va yana allanī-
malarni qadab yurgan chog'larini eslatdi. Oyog'ida baland
poshnali bejirim etigi bo'lardi. U yog' ichida yayramagan
buyrakdek ozg'in, serjanjal bola edi. Kim bilan urishsa
ham hech aybiga iqror bo'lmas, jabr tortgandan ko'ra
balandroq ayyuhannos solib, o'zini «isbotlab» olardi.
Lekin bu odati uchun bolalar «yakkamoxov» qilib qo'ysa,
oyisining qutisidan hovuch-hovuch mevalar o'g'irlab
chiqib ulashardi-da, «yarashib» olardi. Boqqa ko'chib
chiqishganda, uning dastidan hovuzlar sasib ketar edi.
Buning sababi «sho'x» Qoplonbek. U qo'lga yog'och
olib, hovuzni aylanib yuradi. Hovuz chetida oppoq
bag'baqasini likillatib chiqib turgan qurbaqalarni tirsillatib
soladi. U jon holatida sakrab hovuzga tushadi, yiltiroq oq
qornini osmonga qilib sulayadi. Bundan Qoplonbek maza
qilib zavqlanadi.

To zerikkuncha yoki tayog'i yetadigan joyda qurbaqa
o'ldirilib bitguncha hovuz aylangani-aylangan. – Nega
munaqa qilasan, uvol bo'ladi, – desalar:

– G'iyq etib o'lishini yaxshi ko'raman, – derdi. Sha-
harda bo'lsa mushuklarning ta'zirini berardi. Ushladi,
ming bir qiynoqqa solardi. Bir yili qo'shnisining bo'g'oti
ostida mushuk bola ochganini bilib qoldi. Endi-endi
o'rmalab yurgan besh-oltita bolalarning hammasini yig'ib
olib tushdi. Zerikkuncha «o'ynab», keyin hojatxonaga
tashladi. Ona mushukni ushlab olib, maydondagi tolga
oyog'ini osmonga qilib osib qo'ydi. Qiynalib miyovlashini
tomosha qildi. Ertalab o'ligini dadasi olib tashladi:

- Uvol, bolam, qarg'aydi, uvolni bilasanmi?
- Uvol qanaqa bo'ladi? – deb ishshayib turdi.

Onasi kuyinib, cho'chir edi:

– Bolam, buncha berahmsan, mehring qattiq, bag'ring
tosh bo'lmasang go'rga edi!

Qoplonbek ota-onasining yerga qo'ysam chang bo'ldi, osmonga qo'ysam gard o'tiradi, deb ardoqlagan bolasi edi.

Lekin u maktabda yaxshi o'qidi. Bunda dadasining ham hissasi bor, u ishdan qaytdi deguncha o'g'lini yoniga chaqirib olardi, nimalar o'qiganini surishtirib, keyin o'rgatar, mashq qildirar edi. Ayniqsa, husnixatga alohida ahamiyat berardi. O'zi esa, rasmdek xat yozardi. Ba'zan ertalab o'g'lini izvoshda maktabga tashlab o'tardi (u izvoshda yurardi). Qoplonbek tanish ko'chaga izvosh burilishi bilan o'ziga oro bergan bo'ldi. Haqini to'lab, izvoshdan chaqqongina sakrab tushdi, uning zarbidan izvosh qalqib ketdi.

Hojining darvozası knopkasını bosa turib, yana u yoq-bu yog'ini tuzatgan bo'ldi. Eshikni ochgan xizmatkor ogohlantirilgan bo'lsa kerak, «marhamat, msbe» deganicha boshlab ketdi va hovlidan olib o'tgach, binoning eshigini ko'rsatdi. O'zi tashqarida qoldi. Bino eshigini ichkari tomondan oppoq sallali, milliy oq libosli, sarpoychan oyog'iga babushi kiygan qop-qora soqolli keksa odam ochdi. Mehmonni oldinga o'tkazib, eshikni yopdi-da, yugurib Qoplonbekka yetib oldi, yo'l boshlab ketdi. Oyoq ostiga to'shalgan yumshoq gilam poyandozlarida bora turib Qoplonbek qora marmar zinalarga, naqshli ustunlarga kishi bilmas suqlanib qaradi. Moyli chelak sirtidan ma'lum, deb ko'nglidan o'tkazdi. Bir eshik oldida Hojining o'zi peshvoz chiqdi. Shu uy-joyiga xos salobat va g'urur bilan unga mamnun qo'l uzatdi:

– Kelib juda yaxshi qildingiz. O'zım ham zerikib o'tiruvdim. Otamlashadigan bo'ldik. Yashang!

– Rahmat!

Hoji uni o'zi chiqqan xonaga emas, undan narigisiga boshlab kirdi. Bu yer mehmonxonasi bo'lsa kerak, juda serhasham va dabdabali edi. Burchakda odam bo'yidan baland kurant soat, to'rda turkman qora bayiridek tim

siyoh pianino, uning orqasi – devorda antiqa rangli «qizil oyoq» gilam. Gilamda esa Tamanning rangdor, chiroyli surati. Shiftda muhtasham, uying husniga yana husn qo'shib turgan billur qandil. Javonda yapon chinilari. Javon ustida bir juft ajdaho naqshli xitoy ko'zasi. Derazalarda harir parda. Xonaning gir aylangan navosida toshkentcha ganch o'ymakorligining ajoyib namunasi. Ancha past-balandni ko'rgan Qoplonbekning esi og'ib qoldi. Ichida beixtiyor «mana yashash!» deb yubordi. Osilgan dorining juda baland ekanini endi butun salobati bilan his qildi va yuragi orqasiga tortib ketdi. «Uncha-buncha odamning bu xonadonga yo'lamay yurganicha ham bor ekan! Men-chi, men jur'at qilib, yutdimmi? Yo xokisor bo'lib, kovushimni sudrab qochamanmi?..» dedi yuragi uvushib, «Orqamda Klark bor-ku» deb yana o'ziga dalda berdi. Hoji ko'rsatgan yerga o'tib o'tirdi.

– Ishlaringiz yaxshimi? Uy ichi, bola-chaqa tinchmi? – dedi Hoji fotihaga qo'l ochib bo'lgach.

Qonlonbek suhbatdosh «bola-chaqa»dan boshlanganidan xursand bo'lsa ham, o'zining «bo'ydoq»ligini qanaqa qilib bildirishga kelganda qiynalib qoldi. Bu yerda uning shaddodligi, besharmligi ish berdi. Uzoq o'ylab o'tirmasdan kulibgina:

– Bola-chaqa yo'q hali, Hoji ota! – dedi. Garchand Hoji bu javobni olish uchun emas, faqat iltifot yuzasidan so'ragan bo'lsa ham, qizini pesh qilayotgan odamdek javobdan lohas tortdi. Sal jimjitlikdan keyin, qo'ng'iroq bosib, boyagi oq sallali tim siyoh soqolli arabni chaqirib achchiq qora choy damlashni buyurdi.

– Toshkentcha bo'lsin! – deb alohida tayinladi, keyin mehmonga yuzlandi. – Nega bundoq bo'ldi, azizim? Yaxshimas. O'tgan umr – kuygan ko'mir!

Hojining bu so'zlarida joni achigan bir kishining mehribonligi sezilib tursa ham Qoplonbek xijolat tort-

gandek bo'ldi. Lekin muddao uchun kichkinagina tuynuk ochilganidan xursand edi. Gapning kaliti – shu, demak, bu yog'ini piyozning qobig'iday bitta-bitta ayirib borsa xato qilmaydi.

– U yoqdaligimda o'qish bilan bo'lib... bu yoqda musofirchilik... – Qoplonbek bu gapni shunday yo'sinda aytdiki, go'yo u onasining bag'ridan tushib ketgan mushuk bolayu, bo'g'otning ostiga olib chiqib qo'yadigan bir mehribon yo'q. Saidakbar hoji: «Judayam qatiq bilan qaymoqning farqiga bormaydigan bo'lmasa kerak», degandek yer ostidan unga qarab qo'ydi. Hojining molu mulkidan ajrab, sovetdan dakki yeb, qochib bu yerlarga kelib qolganidan xabardor. Qoplonbek, bu yerga kelishni niyat qilganida-yoq tayyorlab qo'ygan tarjimayi holini boshladi.

O'zini tuzuk xonadonning bolasi-yu, sovetlar tufayli noni yarimta bo'lganlarday qilib ko'rsatdi. Birdan vatanfurush bo'lib ko'rinishdan cho'chib, urushda ko'plar qatori asir tushgani, asirlikda qipiq qo'shilgan non eb, nomi noma'lum obi yovg'on ichib, ochidan o'lishga sal qolgani, Mustafo Cho'qoyev bilan Bali Qayumxondek odamoxun kishilar (Hoji ularni taniydi deb o'ylardi) tufayligina omon qolganini, Turkiston legionida o'lmaslikning kunidan xizmat qilganini, endilikda vataniga qaytgani qo'rqib yurganini kishi rahmi keladigan qilib bir ipga chizib chiqdi. Lekin uning ayyor ko'zi, ichida qaynab, bijg'ib yotgan alam va nafrat ba'zan-ba'zan yuragini fosh qilib qo'yay der edi. Hatto o'zi ham Hojining bu gaplariga ishonqiramayotganini sezib turardi. Ammo iloj yo'q edi. Nahotki, o'zining ipak lattaga o'ralgan qonli qilichligini o'z og'zi bilan fosh etib bersa! Qani shunday boshlay bersinchi, gap qayoqqa qarab oqadi, shu yoqqa qarab tosh bo'lib dumalash qiyin emas.

Hoji urush paytida turkistonliklar nima balo ish qilib yuribdi, deb eshitgan, yolg'iz Mustafo Cho'qoyevni tani-

gani, uning «Qo'qon muxtoriyati»dagi noshudligini bilganidan ortiqcha ahamiyat bermagan edi. U mahallarda o'zining ishi ortiqcha rivoj topmagan, bunday ishlarga vaqti ham yo'q edi. Lekin Gitlarning sho'rolarga urush ochganida:

«Shoyad ona yurt suvini ichish bizga ham nasib qilgan bo'lsa», deb niyat qilgan, umid bog'lagan edi.

– Men sho'rolarning bunchalik kuch olib ketgan, deb o'ylamagan edim, – dedi Hoji urush yillarini eslab. Bu alamzada Qoplonbekning eng nozik toriga tekkan tosh edi. U o'zi garchand qaynoq sutni qatiq deb ichib, bir marta tili tugul kekirdagigacha kuygan bo'lsa ham sho'rolarning kuch-qudratini, g'alabadagi ulkan hissasini aslo tan olgisi kelmas edi. Boyadan beri inidan tushib ketgan ma'sum mushuk bola bo'lib o'tirgan bo'lsa-da, bu masalada sirtlonlik qilishdan toymasdi. Ichida tug'yon urib turgan g'azabini bosib:

– Amerika bo'lmaganda... – deya oldi arang. Bunaqa paytda titilib ketgan asablarini tutib turish undan katta kuch va harakat talab etardi.

– Amerika deymizu, Qoplonbek, men siyosatchi emasman, tan ham berish kerak. O'zida ham ancha kuch bor ekan. Men avvaliga, Amerika lapanglab yordamga borguncha mukkalab ketar devdim. Yo'q, bardosh berdi. Axir nemis Moskvagacha hazilakam hamla bilan bormadi! Nemisning to'xtaganini ko'rib:

«Oh, qoqildi! Shu yerda bir balo bo'lmasaydi», deb yubordim. Qulog'im kunda radioda bo'ldi. Gumonim to'g'ri chiqdi. Ana shunda nemisning ishongan g'alaba jomi darz ketdi. Shuncha chega solaman deb urindi, bo'lmadi, oxiri chil-chil sindi. Uyammas, buyammas siz bilan bizning baxtimiz kulmagani! – Yakkama-yakka bo'lganda-yu... – hamon taqdirga tan bermas edi Qoplonbek.

– Keyingi yillardagisiga kafil turolmayma-nu, dedi o'zini yana isbotlamoqchi bo'lib Hoji.

– Moskva bo'sag'asida yolg'iz edi, yakkama-yakka edi. Bu gapning rosti. Tag'in ko'nglingizga: «Hoji ota sho'rolarning qo'li baland kelishini to'rt ko'z bo'lib kutgan ekan», degan fikr kelmasin. Mening ham urushdan umidim katta edi. Egar-jabduqqa ham ko'z tashlab qo'ygan edim. Bo'lmadi. Mana yoshimiz ham falon yerga borib qolyapti. Tushimga nuqul marhum ota-onam kiradi.

– Umidingizni uzming... – suhbatdoshining ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldi Qoplonbek xushomadomuz. Xizmatkor oyoq uchida olib kirgan choyni Hoji shoshmasdan qaytardi. Birpas tinitib qo'ydi. Shamasini tushirmaslikka harakat qilib, ehtiyot bilan qo'ydi:

– Albatta, noumid shayton. Lekin o'shanda ancha naqd bo'lib qolgan edi. Sho'roning omadi kelgan, baxtining chopgani shu! Marhamat, azizim, dasturxonga qarang. Qoplonbekning diqqatini qo'lidagi piyolaning chetidagi bayt tortdi.

– Ona yurtidan yodgor. Yaxshiyam shu bor: har qo'limga olganda o'tgan-ketganlar bir ko'z oldimga keladi. Toshkentdagi mehmonxonamda o'tirgandek bo'laman!

– O'zini ham, – deya kuldi Hoji, – hech kimga biylatmayman. Vasiyat ham qilib qo'ydim: vaqti qazo kelib musofirlikda ko'z yumsam, shu piyolada suv quyib yuvgaylar!

Hojining ko'ziga yosh chiqdi. Qoplonbekning tosh ko'ngli ezilgandek bo'ldi.

– Hali baquvvatsiz, Hoji ota, xudo xohlasa niyat-ingizga yetasiz!

– Inshoolloh! Koshki bir kaft tuprog'im ota-onam yoniga qo'yilsa!

Hoji o'lim haqida gap ochib suhbatga sovuqlik tushirib qo'yganini bilib qoldi, darrov yoshini artib, mehmonning ko'nglini ovlashga kirishdi:

– Qani, mehmon, qand tishlab iching. Keksalik qur-sin, kishining ko'zi sernam bo'lib qolar ekan. Qani, pi-yolani bering! Xubbil vatani minaliman, ya'ni vatanni sevish imondin.

Qoplonbek piyolani uzata turib, baytni o'qolmaganiga afsuslanishsimon bir harakat qildi. Buni payqagan Hoji yoddan aytib berdi:

*Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz,
Jamiyatingiz borini davlat tutungiz.
Chun gardishi charx budurur, tengri uchun,
Bir-birni necha kuni g'animat tutungiz.*

– Bay-bay, ko'p yetqizib aytgan ekan. Kimdan?

– Qoplonbek garchand ma'nosiga to'la tushunmagan bo'lsa ham qiroat bilan kelishtirib o'qigan Hojining hur-mati uchun maqtab qo'ydi.

– Boburdan. Boburshohdan, – go'yo shunday ajoyib ruboiyni Bobur shoh bo'lgani tufayligina aytolgandek uning shohligini alohida ta'kidladi Hoji.

Boburning kimligini yaxshi bilmagan Qoplonbek tasmolladi:

– Ham shoh, ham shoir bo'lganlar-a! Qanday ajoyib!

– Juda nozik tabiatli shoiru zabardast shoh bo'lganlar, – tasdiqladi Hoji.

Boburning shoh o'tgani sabab bo'ldimi yoki Qoplon-bek shunday bir fursatni poylab turganmidi, gapni o'tmishdan, qolaversa, hozirgi ahvolotlardan aylantirib kelib, Amerikaning sha'ni-shukuhiga taqadi. Shu bilan Hojining bu masaladagi fikrini bilmoqchi, shunga qarab suhbatga to'n bichmoqchi bo'ldi.

– Qurmagur, savdo-sotiqni uyushtirishga pechan, – dedi u Hojining tabiatidagi shu nozik va sevimli torni asta xolis chertib. Bu gap chindan ham savdo ishlariga suyagi yo'q Hojiga moydek yoqa qoldi. Og'zining tanobi qochdi.

– Men sizga aytsam, vatandosh, savdo – hayotning jon ozig'i. Bu o'zi zo'r san'at. Undan keyin gashti ham bor! Savdo yurishib turgandagi kayfiyatga nima yetsin! Amerikani savdo-sotiqqa pechan dedingiz. Bu to'g'ri. Buning otasi – pul. Pul bo'lsa-yu, jinday idrok bilan ish tutilsa, bu yog'i moylangan gumbur aravadek silliq ketaveradi. Ko'ribsizki, pichoq ham moy, cho'mich ham!

– O'sha pulni topishni ayting-da, Hoji ota, – dedi Qoplonbek gap qistirib. Bu bilan Amerikaning uquvini, tadbirkorligini, bilimdonligini ta'kidlamoqchi edi, suhbatdoshi to'g'ri tushundi.

– Uddaburrolikka uddaburro. Sal tulkiligi ham bor. Bo'lmasa yer yuzini titratgan shunday muhoribadan bunchalik yengil qutulmas edi.

– Boyib ham oldi deng.

– Ha, ancha davlat ham ortirdi. Asti-ku o'zi sho'roni yoqtirmaydi, chor-nochor ittifoqchilik qildi. Ko'ziga sho'rodan ko'ra Gitler dahshatliroq ko'rindi shekilli-da! Mana, yana eski iziga tushib oldi: dahanaki jang qilishyapti.

– Ayb sho'rolarda, juda qanotini yozib yuboryapti.

– U pul topishga usta bo'lsa, – dedi Hoji Amerikani ko'zda tutib, – bu, fuqaroning ko'nglini yaxshi ovlaydi. Ikkisi ikki yo'l bilan dunyoni qamrab olmoqchi. Qo'sh qo'chqor. Ikkisining boshi bir qozonga sig'maydi. Puldori yutadimi, fuqaroparvari yutadimi – endi bilmadim.

– Siz bilan bizning umid, Hoji ota, gapning dangalini aytganda, o'sha puldoridan.

– Albatta. Bizga shunisi ma'qul. Fe'li keng.

– Juda to'g'ri topdingiz: fe'li keng, lekin uning usuli dorasini ma'qullash bilan ish bitmaydi shekilli-da.

Qoplonbekning keyingi o'ylab aytgan bu gapini Hoji yoshlik shoshinqirashi tarzida tushunib, miyig'ida kuldi:

– Yana nima qilish lozim bo'ladi?

– Uni qo'llab-qo'ltiqlash kerak! – ochig'ini aytdi-qo'ydi Qoplonbek.

– Shunday katta davlatning bizdek g'aribu benavoga muhtojligi bor ekanmi?

– Bo'lganda qanday!

– Yo tavba, – Hoji hamon suhbatdoshining tubli so'ziga tushunib yetmas edi, hazilnamo so'roq tashladi:

– Qani, ayting, eshitaylik?

Polkovnik Klark tomonidan yaxshigina o'qitilgan Qoplonbekka shu kerak edi. U mazkur o'lkaning mustaqillikka intilishi, shu borishda axir bir kuni bunga erishuvi, ana o'sha paytda davlat tepasiga sho'rolarga xayrixoh, hatto uning tarafdorlari chiqib qolishi xavfi borligini vahimali bayon etib, buning oldini olishda birdan-bir chora – o'lkada Amerika ta'sirini kuchaytirish, to'g'risi, Amerika kapitalini qalqon qilish ekanini juda ustalik bilan tavsifladi.

– Siz bilan biz, – dedi oxirida u, – xususiy mulk kishilari, savdo ahlimiz. Axir qarab turib, ketmon singari o'z tomonimizni chopmasdan, bolta bo'lib, orani ayirib tashlashimiz kerak. Bu achchiq tajriba mendan ko'ra, sizga yaxshi ayon. Bir kun kelib barmoq tishlashning foydasi yo'q.

Ona yurtidagi inqilobdan keyingi olag'ovur yillar Hojining esiga tushdi, yuragi orqasiga tortib, orziqib ketdi. Qoplonbek uning nozik yeridan olgan edi. O'yga tolib qoldi – Qoplonbek uni avrab qo'ygan edi. O'z tadbirining ta'sirli chiqqanini butun vujudi ko'z-quloq bo'lib kuzatib turgan Qoplonbek konkret ishga ko'chdi:

– Masalan, hozir Amerika qo'shningizdagi neftni yaqin yo'ldan, ya'ni sizning o'lka orqali quvvur bilan olib o'tib ketmoqchi. Bu dengiz orqali tashib ketishdan ancha arzon. Ikkinchidan, shu munosabat bilan u mamlakatga odam kiritadi. Ehtimol, bu obyektlarni qo'riqlash uchun

qo'shin ham lozim bo'lar. Mamlakatga kirgan kishilar – mutaxassislar o'z yurtining ma'naviy ta'sirini yoysa, qo'shin vaqtiki kelsa, sizga o'xshagan yurt-el kazolarining manfaatini quroli bilan himoya qiladi.

Qoplonbek so'zidagi mantiq Hojiga yoqdi. Uning ko'zini ochdi. U mamlakatdan neft quvuri o'tkazish masalasidan xabardor edi. Buning moliyaviy tomonlarinigina o'ylab, o'tgan hafta bo'lgan maslahat majlisida yoqlab chiqqan edi. Lekin masalaning bu tomonlari borligi xayoliga kelmagan ekan. «Har narsa bo'lsa ham Qoplonbek ko'p chiyriqdan o'tgan, yurt-el ko'rgan, ko'p narsa biladi» degan fikrga kelgan Hojining suhbatdoshiga mehri tovlandi.

– Gapingiz to'g'ri, – dedi hamon turli mulohazalar og'ushidan qutulmagan Hoji, – biz bu tomonlarini o'ylamagan ekanmiz.

– Ha, balli, – dedi kattalardek Qoplonbek va yana tadbirkorlik bilan qo'shdi: – Keyin bu sizga o'xshagan sherik bo'ladiganlarga jiqqa moy. Xuddi angishvonaday qutichadagi qurt urug'ini issiq yerda ochtirib olganday gap: sal muddatda ko'ribsizki, qop-qop pilla – tilia-da!

Oldida sovib qolgan choyni uzun simirib, bo'shatgan Qoplonbek, odob bilan ko'kragiga qo'lini qo'yib piyolani Hojiga uzatar ekan, topshiriqomuz dedi:

– Bu masalada qattiqroq turishingiz zarur bo'ladi. Davlatingiz bo'lsa, xudoga shukur, bor, yurt ichida ta'siringiz undan kam emas. Kishilar bilan yakka gaplashing, tushuntiring. Tezlatish kerak. Keyingi pushaymondan foyda yo'q. Hozir ayni payti.

Bir mahal Tamanno Qurbonalini boshlab kirib qoldi. Suhbat bo'lindi.

– Hamshahringiz shu yerda deyishgan edi, hoynahoy siz bo'lsangiz kerak. deb yana bitta elatingizni boshlab

kelyapman! – dedi Tamanno hamrohini ko'zda tutib nozu karashma bilan.

U tunov kungi Tamannoga sira ham o'xshamas edi. Yo'l hordiqalaridan iz ham qolmagan, gul-gul ochilib ketgan. Ko'zlarida olov yonib, yuzlaridan nur to'kiladi. Oppoq tishlar qo'shqavat dur marjonga o'xshaydi. Tirnogi bo'yalgan oyog'ida yuzi ochiq yengil chuvak, egnida harir ko'ylak, kesilgan sochlari yelkasiga tushib, ajib bir fusun baxsh etib turibdi.

Uchsam, qayerga qo'naman, deb turgan kaptar ko'kragi butun husnining toji. Mehribonlik muhabbat elchisi, deb bilgan Qoplonbek chittak chaqqonligi bilan o'rnidan turib, unga peshvoz chiqdi. Odo bu ikrom bilan barmoqlari nozik va ingichka qo'lini oldi. Bir barmog'idagi «yetti qaroqchi» uzugining gavhar ko'zlari chiroqqa to'g'ri kelib chaqmoqdek yaraqlab ketdi, Qoplonbekning diqqatini tortdi. Stul tortib, joy ko'rsatgan edi, Tamanno:

– O'z o'rnim bor! – deb dadasining chap tomoniga o'tib o'tirdi. Tamanno birga kirgan hamrohini qanchalik samimiyat bilan tavsiya etgan bo'lmasin, uning ust-boshi, yurish-turishi, rangi-ro'yi kimligidan dalolat berib turardi. Shunday bo'lsa ham Qoplonbek:

«Shuning ham ko'ngli qolmasin, egasini siylagan itiga suyak tashlaydi», deb ikki qo'llab ko'rishdi, holahvolini so'radi. Shundan keyin u bilan hech kimning ishi bo'lmadi. Suhbat orasida Qurbonali bir choy damlab kirdi. Tabiatan kamgap bu odam har narsaga chovlisini solavermaydi, gapirishdan tinglashni yaxshi ko'radi. Orada o'tayotgan suhbatga quloq solib o'tirib «bu ham eski qochoqqa o'xshaydi» deb bir ixlosi qaytdi. O'z yuragiga hadeb tosh otaverganini ko'rib «o'zingnikini yomonlasang, begonaning mehri soviydi, nodon!» deb g'ijinib qo'yadi ichida. Gapni o'rgimchak uyasidek to'qib tashlay bergan edi, qo'shni hovlida taxta arralayotgandek g'ashini

keltirdi. Oxiri bardoshi tugab, «Buning gapidan latta hidi keladi», deganicha asta chiqib ketdi. «Hamshaharimni ko'rib, shoyad bahrim ochilsa», degan bechora musofir aksincha dili siyoh bo'lib, kulbasiga qaytdi, ancha vaqt-gacha xayoli qochdi:

«Bu odamlarga o'zi bir narsa bo'lganmi, ikkitasi bir bo'ldi g'iybatu, ona yurtiga mag'zava sochish bilan ovora! Tesha bo'lib o'z tomonini chopadi. Yo bu yurtda nuqul shunaqalari yuradimi? Yomon qushga o'xshab, o'z uyasini axlatga to'ldirgani uyalmagani bularning!»

Bir haftadan so'ng mamlakatdan neft quvuri o'tkazish masalasi yuzasidan bo'lgan fikrlashuv majlisida Saidakbar hoji tadbirkorlik bilan shunaqa kuyib-yonib himoya qildiki, hatto Amerikaning rasmiy vakili yoqa ushlab qoldi. Hatto uni bir chekkaga olib, qo'lini siqib qo'ydi.

Hoji esa, bu yig'ilishga Qoplonbek o'rgatganidek kerakli kishilar bilan bitta-bitta suhbatlashib, gapni bir yerga qo'yib kelgan edi. Uni bundan keladigan daromaddan ham ko'ra, masalaning anavi tomoni ko'proq tashvishlantirib qo'ygani edi. Axir u hassasini bir yo'qotgan ko'r-da!!

10

KO'NGLI QORANING YUZI HAM QORA

Eshik taqillatgan montyor qo'lida lampochka bilan tezda kirib kelavermasdan yana bir oz kutib turganda yoki ichkaridan javob bo'lgunicha sabr qilganda A'zam o'zidan ketib yiqilardi. Uning miyasini «Endi tamom. Meni poylab turgan ekanlar!» degan fikr chaqmoq tezligida teshib o'tib, idrokini shol qilib ketgan edi. Baxtiga montyor kirib, lampochkani almashtirish lozimligini uzr so'rab aytdi. Qarshisida rangi devor bo'lib qotib qolgan odam bilan ishi bo'lmadi. Uning yonidan lip etib o'tib, o'z ishiga kirishdi. Ana shundagina A'zam o'ziga kelib: «Shu ma-

halda lampochka almashtirish qistalang bo'lmay o'lsin! Esxonam teskari bo'lib ketdi-ya!» deganicha qo'lidagi bo'g'chani o'rni ustiga tashlab, umivalnik tomonga o'tdi. Muzdek suv ichib, yuzlarini yuvdi. O'zini tetiklab oldi. Bu orada montyor lampochkani almashtirib chiqib ketdi. A'zam yuragini ushladi: haligacha o'ziga kelmapti. Shunday bo'lsa ham sal dam olishga sabri chidamay, eshikka otildi. Zinalardan g'izillab tushdi. Ko'chaga chiqishi bilan qayoqqa yurishini bilmay qoldi. Avval reja tuzib qo'ymaganiga achindi. Ko'p o'ylashga vaqti yo'q. O'ngga burilib, narigi ko'chaga o'tdi. Duch kelgan mashinaga qo'l ko'tardi. Parvo qilmadi. Yana boshqasiga. U ham to'xtamadi. Shunda yonidan o'tib ketayotgan kishi: «Taksi kerakmi? Ostanovkasi anavi yerda», deb qo'li bilan ko'rsatdi. A'zam u ko'rsatgan yerga borib yetishi bilan mashina keldi. Orqasidan yov quvayotgandek nafasi og'ziga tiqilib, mashinaga o'tirdi. Jon holatida eshikni yopib: «Qayoqqa buyuradilar?» deb termilib turgan shofyorga: «Politsiyaga hayda, politsiyaga!» dedi. «Boshiga bir mushkul ish tushibdi shekilli bu g'aribning», deb o'ylagan shofyor tezda mashinasini yeldirib ketdi. Oldidagi kichkina oynadan uni kuzatib borardi. Mehmon qora terga tushgan, tashqariga qarashga ham toqati yo'q. Mashinaning bir burchida bo'ynini ichiga olib tiqilib olgan.

Shofyor qandaydir ko'cha va xiyobonlardan o'tgach, bir yerga borib taqqa to'xtadi. A'zam: «Xudoga shukur, yetdim», deb mashina ruchkasiga yopishgan edi, shofyor: «Hali yetganimiz yo'q», deb qarshisidagi qizil chiroqni ko'rsatdi. To A'zam uni idrok etgunicha yurib ketdi. A'zam birov ko'rib qolib, mashinani to'xtatayotgandek yana boshini past qilib, o'zini burchakka oldi. Oxir manzilga yetdi. Shofyor viveskani qo'li bilan ko'rsatdi. A'zam boyadan beri qo'lida changallab, kaftining teri bilan ho'l

qilib yuborgan pulni shosha-pisha shofyorga uzatib, o'sha shoshinqirash bilan mashinadan tushdi. Nazarida hozir dunyoda bosh suqsa peshanasini silaydigan yakka-yu yagona yer shu politsiya edi. Xuddi shunday umid va ishonch bilan ostonadan hatlaganda qarshisida so'xtasi sovuq o'rta yosh politsiyachining qovoq-dimog'ini ko'rib, yuragi orqasiga tortib ketdi: «Bundan biron yaxshilik chiqarmikin?»

A'zam arzini qildi. Politsiyachi uyquga to'ymagan odamning hafsalasizligi bilan telefon trubkasiga qo'lini uzatdi. O'sha tundlik bilan kimgadir A'zamning arzini doklad qildi. Javobini A'zamga bildirmasdan, beparvogina papiros tutatdi. Papiros tutuni orasidan unga qarab qo'ydi. Bu qarash A'zamga: «O'la, shu kuningdan ko'ra!» ma'nosida ta'sir qildi. «Boshlanishi chillaning suvidek sovuq, bu yog'i nima bo'ladi. Yuvindiga zor bo'lmasam go'rga», degan fikr ko'ngliga kelib, o'z taqdiridan norizo bo'lib, chet elga qochishga qasd qilganidan beri birinchi marta o'kindi. Unga hamisha ibrat bo'lib turgan Jems shu mahal ko'ziga badbashara ko'rinib ketdi. Boshini quyi soldi. Har daqiqasi bir soatga o'xshagan bu g'arib o'tirishdan zerikkandek boshini ko'targan edi, politsiyachining og'zini ochmasdan jag'i bilan esnayotganini ko'rdi. Unga ham yuqdi, ko'zidan yosh chiqib uzoq esnadi. Bu ko'ngilsiz o'tirish uzoq cho'zilmadi. A'zamning shu daqiqadan keyingi umri ertakka o'xshab ketdi. Bir mahal eshikdan ikki kishi kirib keldi. Biri politsiya formasida, biri oddiy kiyimda. Boshlab oddiy kiyimligi qo'l berib ko'rishdi. Formadagi ichkari xona eshigiga kalit soldi. Uni ochib, sherigining ko'zini o'ziga tushishini kutib, eshikning bandini qo'yib yubormay turdi. Beforma buni payqab:

– Marhamat, mse! – dedi A'zamga va uni boshlab xonaga kirdi. O'zi to'rga o'tib, qarshisiga A'zamni o'tqazdi. Formali esa uning yonidan joy oldi.

– Demak, siyosiy boshpana so‘raysiz, shundaymi? – dedi beforma A‘zamning fransuzchadan no‘noqligiga qanoat hosil etgach, ruschani fransuzcha mayinlik bilan talaffuz etib.

– Shunday! – boshi bilan ham tasdiqladi A‘zam.

– Yaxshi! Lozim topsangiz vataningizni tark etish sababingizni qisqacha aytib bersangiz. A‘zam bunday oshkor taklifni kutmagan edi.

– Ajablanmang va xavotir olmang, – dedi suhbatdoshi qandaydir g‘alati ishshayib. Uning kulishi chiroylikkina yuzini xunuk qilib yubordi.

– O‘rtamizda bo‘lgan gap hech qachon oshkor etilmaydi. Modomiki, siyosiy boshpana so‘rar ekansiz, sizni bunga jur‘at ettirgan sabablarni bilishimiz shart. Yana jinoyatchi bo‘lmang!

– Yo‘g‘-e!

– Bo‘lmasa nega tortinasiz? Konstitutsiyamiz sizni himoya qiladi. Shu daqiqadan boshlab o‘zingizni bemalol tutavering. Sizga pashsha ham qo‘nmaydi!

Shundan keyin murodiga yetganiga endi qanoat hosil qilgandek A‘zam sayrab ketdi. Demak, u ishonchli qo‘lda. Uning taqdiri haqida g‘amxo‘rlik qiladilar. Birinchi uchragan so‘xtasi sovuq politsiyachidan xafa bo‘lgani bekor. U o‘zi shunaqa, to‘nkaga o‘xshagan qo‘pol. Mana uning mehribonlari, uning huquqi posbonlari. Bular bilan har qancha dardlashsa bo‘ladi. Dardingga yem bo‘lib, bahringni ochadi...

Azamning bulbuligo‘yoligi suhbatdoshiga kutganidan ortiq ozuqa berdi shekilli, u formadagi hamrohiga: «Bu laqqaga o‘xshaydi-ku!» deb so‘l ko‘zini qisib qo‘ydi. U ham ikkala ko‘zini salmoqlab yumib, tasdiqladi. Shundan keyin ortiqcha savol-javob bo‘lmadi. Qandaydir qog‘ozlarga qo‘l qo‘ydi, gapini qisqagina yozib berdi.

Beforma qayoqqadir qo'ng'iroq qilib, kishi tushuni-shi qiyin bo'lgan uzuq-yuluq tilda kim bilandir gaplash-di. Ko'proq quloq soldi. Gaplashayotgan odami o'zidan lavozim jihatidan yuqori bo'lsa kerak, odob saqlab, har-biylarga xos tetik muomala qilardi. Trubkani joyiga qo'ysa ham, qo'lini uning ustidan olmay:

– Ishimiz bitdi, o'rtoq, – dedi u «o'rtoq» so'zini alohida ayirib. – Lekin sizni qo'yib yuborib bo'lmaydi. Chiqdingiz matrabga tushasiz. Otliqmi-yayov qidirib yurishgan bo'lishsa kerak. Hech kim sezgani yo'qmi?

– Yo'q.

– Hech kim bilan bu haqda gaplashmaganmidingiz?

– Yo'q.

– Juda soz, – u bu savol-javobdan o'zicha ma'no chiqarib, sal o'ylab qoldi. – Unday bo'lsa ertalab bilishadi.

U qanday qilsam podasidan adashgan sen toyloq buzoqni issiq va bexavotir yerga olib qo'yaman, degandek barmoqlari bilan stolni chertib turdi. Lekin uning ko'zlari boshqa ma'noni ifodalardi. Bu ko'zlarda mehribonlikdan ko'ra bag'ritoshlik, odamgarchilikdan ko'ra yovuzlik yonib turardi. U allaqachon A'zamning taqdirini hal qilganu, endi qanday yo'sinda yumshoq ro'yobga chiqarish uchun reja tuzar, uni ko'nglida muhokama qilardi. U shunday qilishi kerakki, oyoq-qo'lidan chandib bog'lanib qolganini A'zamning o'zi ham bilmay qolsin. Hozir ayni payti. Hali bu tomonlarning havosini olgani yo'q. «Gah» desa, «chag'» deydi. Nima desa, xo'p deydi, qayoqqa boshlasa shu yoqqa yuradi. Boshlig'i hali telefonda shu to'g'rida yo'l-yo'riq berdi, chunki vakilining xarakteristikasidan A'zamning qo'lidan qanaqa ish kelishini, uni qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini allaqachon fahmlab olgan edi. Axir u bunaqa qo'li ishdan oldin oshga yuguradiganlarni endi ko'ryaptimi? Uning o'zi bunaqa day-dilarga, o'zi suv ichib turgan qudug'iga tuplab, bironnikini

orzu qiladigan noshukurlarga ko'p ham ishonavermaydi. Bular kuz shamoliga o'xshagan narsa; goh u yoqdan, goh bu yoqdan esadi, turg'uni yo'q. Vaqti kelsa, qarg'a bo'lib, ko'zingni cho'qib ketishdan ham toymaydi. O'z ona tuprog'ining qadriga yetmagan o'zganikini ko'ziga to'tiyo qilarmidi? Hech ham! Yuzdan biri epaqaga kelib, singib ketmasa, suv yuzidagi kerosinday yiltillab turraveradi: kerosinini ishlata olmagandek, suvini ham ichib bo'lmaydi.

Lekin ularni qirchang'i bo'lgunicha minsa, ancha ish qilib olish mumkin. A'zam unga minsa mingudek, yetaklasa yurgudek bo'lib ko'rindi. Shuning uchun o'z kishisiga uni kerakli yerga olib borish uchun iylashni buyurdi. U yog'i bilan ma'lum kishilar shug'ullanadi: yog'ini yoqqa, sutini sutga, suvini suvga ajratadi.

Beforma ana shu boshlig'ining topshirig'ini moylangan parketday silliqlik bilan amalga oshirish niyatida edi. Nı-madan boshlasa ekan? Silab-sıypasınmi yoki dabdurust-dan nishonga olaversınmi! U qaysi birini qo'llash uchun A'zamni kuzatar, uning ma'yus mo'ltillab turgan qora ko'zlariga nazar tashlardi. Necha kunlik gumonsırash, tashvish bilan so'linqıragan yuzlarining har bir chizig'ini sinchiklab o'rganardi, undan o'ziga xulosa chıqarardi. U amin bo'ldiki, A'zam tubsiz jar ustiga tashlangan omonat ko'prikdagi kishidek yuragi dukillab turıbdı. «Qo'lingni ber!» degan kishiga jonini hadya qiladi. Beforma ana shu qo'lnı uzatıshdan gap boshladı:

– Albatta hozir sizga og'ir. Butun katta bir shaharda «bu yoqqa kel!» deydiganingiz yo'q. Ko'chaga chıqđıngız o'z kishilaringız ilmog'ıga tushasız. Bu – Sibir degan gap. Sibirning qanaqalığı o'zingızga ma'lum: o'n ikki oyi qish, qolgani yoz. Qish bo'lganda ham tupugingız yerga muzlab tushadı. Keling, shunday qilaylik, yuragingız toza odam bo'lsangız meni duo qilib yurarsız, bo'lmasa

xudo yo'liga. Hozir bir chetga o'tib turing, sheriklaringiz iz yo'qotsin, shahardan chiqib ketsin. Yo endi bermalol yuraveraman, deb o'ylaysizmi? – o'smoqchiladi u. A'zam buni chin tushunib, halizamon sheriklari qo'liga tushadigan, sheriklari yuziga qora surkab, yurtiga qaytarib yuborayotgandek ko'rindi:

– Ixtiyor sizlarda! – dedi «rahminglar kelsin men benavoga» degan mazmunda.

Suhbatdoshi ayni shuni kutib turgan edi, uning ko'zlari chaq nab, kemptik tishlari ko'rindi. O'rnidan irg'ib turib, zarga o'ralgan sigareta qutisini ochib, oldin A'zamga tutdi, keyin o'zi oldi. Olov tutatdi:

– Mana bu mard yigitning gapi! Bo'lmasa ketdik. Sheriklaringizning bu yerga bosib kirib qolishi ham mumkin. Biz ularni yaxshi bilamiz: bunaqa paytda jar bo'lsa hatlab, tog' bo'lsa tirmashadi. U mashina chaqirdi. Mashina ham tayyor turgan ekan shekilli, qo'llaridagi sigareta chekilib bo'lguncha yetib keldi. Boyadan beri gapi aralashmasdan, faqat bosh chayqash, engak qoqish, ko'z qisish bilan suhbatga aralashib turgan politsiya formasidagi kishi eshikka chiqib keldi. Keldi-yu, hamrohiga o'zi tushunadigan bir imoni qildi.

– Ehtiyotdan mana buni tutib oling! – dedi beforma kishi yonidan qora ko'zoynak chiqarib. A'zam indamay ko'ndi.

Ular orqa eshikdan chiqib, mashinaga o'tirishdi. Ular mashinaga o'tirgan paytda so'xtasi sovuq politsiyachi oldida A'zamning sheriklari:

– Shu yerga kelgan. Aniq bilamiz. Qayerga yashirdingiz? Topib bering! – deb turishgan edi. Ular A'zamning qochganini kechki sayildan qaytgan zahotiy oq bilishdi. Boshlab buni injener sezdi. Garchand, u A'zam gumon qilgandek uning ketiga qo'yilgan kishi bo'lmasa ham, qandaydir bir izni his bilan payqadi. Guruh boshlig'iga

xabar berdi. A'zam chamadonining alg'ov-dalg'ov bo'lib yotishi ularning bu shubhasini oshirdi. Navbatchidan so'rashgan edi: «Qo'lida tuguncha bilan chiqib ketganiga ancha bo'ldi», dedi. Bu ularning shubhasini tasdiqladi.

– Ichida bunaqa harom dardi bor ekan, shuning uchun hech narsa yoqmay, o'zini ming yoqqa urayotgan ekan, xoin! – dedi injener. Unga hammadan ham tanlagan hamrohining munaqa odam chiqib qolgani alam qilardi.

– Elburutdan xulosa chiqarishga shoshilmang! – dedi guruh boshlig'i bosiqlik bilan, – ehtimol, boshqa sababi bordir.

– Qanaqa sababi bo'lishi mumkin: kerakligini yig'ishtirib olib ketib bo'libdi-ku! Bu xoinlikdan boshqa narsa emas!

Boshliq indamadi. Ikki kishini yoniga olib, qolganlarini ogohlantirdi:

– Podadan oldin chang chiqarmanglar! Kirib daminglarni olinglar. Biz hozir anig'ini bilib kelamiz. U boshlab sherklari bilan muhokama qildi: qayerda bo'lishi mumkin?

– Bunaqa niyati bor odam sirini birovga aytadimi? – gapga aralashdi uchinchisi.

– Endi fol ochib o'tirishning hojati yo'q. Aslida-ku elchixonamizga telefon qilish kerak. Lekin vaqt kech. Buning ustiga o'zimiz topib qolsak yoki o'zi daydib yurib-yurib, tavbasiga tayanib kelsa, xijolatga qolamiz. Keling, avval shu atrofni qaraylik, bir-ikki politsiyaga kirib ko'raylik, surishtiraylik. Zora tinchlik bilan o'tib ketsa.

Xuddi shunday qilishdi. Har o'tkinchi ularning ko'ziga A'zam bo'lib ko'rindi, chetroq skameykada o'tirgan odamning oldidan aylanib o'tishdi. Taksi olib, bir-ikki politsiyaga kirib chiqishdi. Ana shunda shofyor ularning xatti-harakati bilan qiziqib qoldi:

– Nima ish bilan yuribsizlar? – dedi u avval uzr so'rab.

Uch hamroh bir-biriga qarashib olgach, injener maqsadlarini aytdi.

– Qani, shirinkomasini chiqaring, men boshlab boraman, – dedi shofyor kulib. Qidiruvchilar bu kutilmagan javobdan qotib qoldi, ko'zlar bir-birlariga qadaldi.

– Siz uni qayoqdan taniysiz? – aniqlamoqchi bo'ldi boshliq.

– Qora qosh, qora ko'z, chiroyli yigitmi? Bo'pti-da! Qo'lida gazetaga o'ralgan tugunchasi ham bor.

– To'ppa-to'g'ri! – quvonib ketdi injener. Shofyor pasajirlarining sabr-toqatini sinamoqchi bo'lganday birpas kulib turdi.

– Xo'sh, shirinkoma bo'ladimi? Boshliq agar «yo'q» desa, shofyor A'zamning qayerdaligini aytmay qo'yadi gander, shoshib-pishib:

– Bo'ladi! Bo'ladi! – dedi. Shofyor mashinasini orqasiga burdi. Haligina kirib-chiqishgan politsiya eshigi oldida to'xtadi:

– Boya uni shu yerga olib kelganman! Lekin men aytganimni birov bilmasin. Naq boshimda yong'oq chaqishadi. Biz politsiya ishiga aralashmaymiz.

– Xotirjam bo'ling.

Taksi haqini olib, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Qidiruvchilarning qaytib kelganini ko'rib, so'xtasi sovuq politsiyachining yana ham sovug'i oshdi. Kerak bo'lmasa ham boshini bir tomonga qilib, bo'ynini uzoq qashidi. Turib, qayoqqadir o'tmoqchi bo'lgan edi, guruh boshlig'i boyagidek surishtirib emas, talab qilib masala qo'ydi.

– Bizga hech kim kelgani yo'q! – deb surbetlik bilan oyog'ini tirab turib oldi so'xtasi sovuq politsiyachi.

– Yo'q, shu yerda!

So'xtasi sovuq jo'rttaga gap chalg'itdi:

– Ichib, to'polon qilib tushganmi?

– Mumkin bo'lsa, gap aylantirmasangiz. To'g'risini aytib, qayerda o'sha odam?

– Biz odam o'g'irlamaymiz, mse. Tuhmat qilmang!

– Tuhmat emas! U shu yerda. Hozir oldimizga solib bering. Aks holda...

– Boshda bir davlatning politsiyasiga do'q qilmoq odobdan emas, janob! – dedi shu gap ustiga A'zam oldidan chiqib qolgan formali kishi. – Aks holda biz quvib chiqarishimiz mumkin. Biz hech qanday sovet kishisini ko'rganimiz yo'q. Politsiyaning unaqalarga ishi ham tushmaydi. Shunday ekan, bizni bezovta qilib, o'z asabinglarni buzmanglar.

– Yo'q, u shu yerda!

– Afsuski, janoblar, xonalarga kirib qidirishingizga ijozat etolmayman. Aks holda o'z tuhmatingizdan sharmandangiz chiqardi! Bizga xalaqit bermanglar! – u shunday dedi-yu, chiqib kelgan xonasiga beparvogina kirib ketdi. Ana shundan keyin ular A'zamni orqa eshikdan olib chiqib ketishga majbur bo'lgan edi.

Qidiruvchilar o'z kuchlari yetmasligini fahmlashgach, elchixonaga qo'ng'iroq qilishga majbur bo'lishdi. Undan kelgan odam ham bir ish chiqarolmadi.

– Shofyorning so'zi biz uchun asosiy dastak bo'lolmaydi, – dedi u bo'shshib. So'xtasi sovuq politsiyachi esa, hamon og'zini ochmay chakagi bilan esnardi. Kirib-chiqib turgan hamkasabalariga ham esnash aralash javob berardi. Bir haftadan keyin A'zamning siyosiy boshpana so'rab fransuz ma'muriyatiga murojaat etgani haqidagi xabar gazetada chiqdi. Bu vaqtda A'zam Parijdan tashqarida, xilvat bir bog'da oyog'ini bemalol uzatib yotardi. Buning bir sababi ham bor ediki, u A'zamning narxini oshirib yubordi. Fransiyadan ittifoqqa turist bo'lib borgan bir odam josuslik ishlari bilan qo'lga tushgan, bu haqda sovet matbuotigina emas, ilg'or fransuz gazetalari

ham baralla yozmoqda edi. Ularning og'zini bekitish uchun A'zam juda qo'l kelardi. Xuddi shunday ham bo'ldi.

A'zamning daragini eshitgan fransuz razvedkasi uni darrov qo'lga oldi. Politsiyaga kelgan beforma odam xuddi uning vakili edi. U telefonda boshlig'iga xabar qilish bilan qanoatlanmay, A'zamni bexavotir yerga olib borib qo'ygach, darrov qaytib keldi. Uning quvonchi ichiga sig'mas edi:

– Ayni biz bop! Sal murvatini burab olsak, biz istagan ohangga sayraydi. Oyoq-qo'li ham chaqqongina, msъe mayor.

Mayor yosh yigitdek birdan quvonib ketmadi. Tepakal sochining oldi qoldiqlarini bir-ikki ohista silab, orqa tomonini – soch qalin yerini ko'proq bosib tekisladi. Boshini sal qiyshaytirib bir nuqtaga tikilib turdi va birdan so'radi:

– Necha yoshda dedingiz!

– O'ttizga borib qolgandir.

– Hali yigirma beshlar atrofida dedingiz-ku, – mayor og'ringanday bo'ldi.

– Ehtimol, – bo'shashdi beforma.

– Ehtimol emas-da, birodar, o'ttiz bilan yigirma beshning o'rtasida katta farq bor. O'ttizda kishi muhokamali bo'lib, qoni sovinqirab qoladi. Yigirma beshda esa, suvga tashlangan baliqchaday dingillab turadi. Qizil gul ko'rsa, tikanini surishtirmay changal soladi, – mayor sal kulgan edi, beformaning og'zi qulog'iga yetdi. O'z boshlig'ining aqliga qoyil qoldi. Ko'ngli aniq chopmasa ham:

– Yigirma besh deganim to'g'ri! – dedi boshlig'ining ko'nglini ovlamoqchi bo'lib atayin.

– Bu boshqa gap! Ana shunga qarab don sepamiz.

Yo'rg'alab cho'qiydi.

A'zam haqida o'z xizmatchisidan yana ba'zi narsalarni surishtirdi. Lekin yakun chiqarmadi. Yakunni ertalabga qo'ydi. Ertalab kela solib, A'zam bilan birga qoldirilgan odamini chaqirib oldi.

- Xo'sh, qalay, yo'rg'ami? – dedi kulib.
- Yomonmas. Sal boqsa yana ham yaxshi bo'ladi, manzilga chopadi.
- Yaxshi! Vinoga tuzuk dedingiz-a?
- Sal tortinib... – degan edi suhbatdoshi, mayor ilib ketdi:
- Aroqqa o'xshatmagan. Ular aroqning gadoyi.
- Buni hisobga oling. Agar ko'ngli to'lmagudek bo'lsa, konyakka o'ting.
- Xo'p!
- Shunday qilingki, oltin qopning og'zini istaganda ochib, istaganda bog'lab qo'yadigan bo'laylik.
- O'zi ham biyrongina! – yuziga kulgi sochilib dedi suhbatdoshi, – kechasi bilan ancha gaplashdik. Uni og'ziga urdi mayor:
- Yana sizni laqillatib ketmasin! Atayin yuborilgan bo'lishi mumkin, chakagingizni tutib og'iz oching. Suhbatdoshi: «Bu yog'idan xotirjam bo'ling, xo'jayin murvatimizni o'zingiz mahkamlab qo'ygansiz! – degandek mutelarcha bo'ynini egdi.
- Ularning razvedkasi Gitlernikini mukkalatgan-a! Shu hech qachon esingizdan chiqmasin, leytenant!
- Mayor shu o'g'itdan keyin yana surishtirishga o'tdi.
- Kofega toqati yo'q dedingizmi? Bu to'g'ri. Ular achchiq qora choy ichadi. Uylangan ekanmi? Bu ham yaxshi! Bir oz vaqt o'tsa, yem yegan to'rvasini sog'inadi. Unda yana yaxshi!
- Xotinini yomon ko'rar ekan. Idoram boshlig'i zo'rlab olib bergan deydi.
- Siz uni zo'rlabgina emas, o'z nishxo'rdini, sarqitini tobe kishisiga oshirgan, deb bir yerga qayd qilib qo'ying!
- Endi esiga tushgandek mayor birdan so'rab qoldi: – Xonaga qo'yilgan apparat ishlayaptimi?

– Ishlaganda qandoq! O‘zim ikki marta tekshirib ko‘rganman. Tunda yozilgandan bir qismini olib kelganman.

– Ehtiyot bo‘ling! Xonaga yashirin apparat qo‘yilganini bilib qolsa, ko‘ngliga shubha tushadi.

– Xotirjam bo‘ling! – qat‘iy dedi leytenant.

Shundan keyin mayor tushki ovqatni A‘zam bilan qildi. Uni ko‘rishi bilan:

– Jur‘atingizga balli. O‘z irodasi bilan ish tutadigan ko‘pmi sizda? – dedi, qo‘lini olib qattiq siqdi. Shu siqishdayoq kasbiga xos sinchkovlik bilan A‘zamni kuzatib chiqdi. Kechadan beri uning oldida bo‘lgan kishilarning ma‘lumoti va undan o‘zining chiqargan yakunlarini darrov taroziga soldi.

Asosan to‘g‘ri. Uyasini tark etgan bu qushcha o‘z husni bilan mag‘rurlanadigan chiroyli, kasbi-korini ko‘z-ko‘z qiladigan, doim ko‘ngli nimadandir to‘lmay yuradigan mag‘rur, sal engagini ko‘tarib qo‘ysang mutelarcha xizmatini qilaveradi. Maishatga munkib ketgan. Uning yarim shubha bilan ma‘yus boqib turgan mushuk ko‘zlari hamisha bunday turavermaydi, o‘z hukmini o‘tkazadigan payt topsa shernikidek qonga to‘ladi, o‘t bo‘lib chaqrab, tig‘ bo‘lib qalbgaga botadi. Lekin o‘zi dovyurakka o‘xshamaydi. Bunisi ham yaxshi. Payti kelganda ana shu pedalini ham bosish mumkin bo‘ladi, axir donolar qo‘rqoq xiyonat chohiga yaqin turadi, deb bekorga aytmaganlar. Bu qaddi-qomatlar o‘z vaqtida unga ish bergan. Endi bizga ham xizmat etishi mumkin. Ko‘p vaqt chiroyli kishining baxti husnidek ochilib turmaydi, bu unda norizolik, noxushlik, qadriga yetmayotganlaridan nolish kabi hislarni uyg‘otadi. Bu hislar borib-borib tug‘yonga keladi, yo jinoyat qilib boshini butkul yeydi, yoki ilojini topib umrbod kibrianib yashaydi. Bu ham shu toifa kishilardan. Aks holda bunday qaltis yo‘lga qadam bosib, mening qarshimda turmas edi.

Bir lahzada shunday o'ylarning egri-bugri ko'chalarini kezib chiqqan mayor A'zamni dasturxonga taklif etdi: – izlab kelgan mehmonni do'ppidek boshga ko'tarish kerak edi-ku, oshpazlarimiz noshudlik qilib qoldi. Sizning milliy taomlaringizdan hech narsa qilishni bilishmas ekan. Bu gapning yolg'onligidan bexabar A'zamning ko'ngliga suv yugurib, og'zining tanobi qochdi, mening ham qadrimga yetib, g'amimni yeydigan bor ekan-ku dunyoda, deb yuborishiga sal qoldi.

Dasturxondagi ichimliklardan qaysi birini olishga atayin ikkilangan mayor yana A'zamga murojaat etdi.

– Qaysi birini ma'qul ko'radilar? A'zam birdan kamtarlik qildi:

– Menga baribir.

– Sog'liq ko'targanda tanlab ichmoq kerak. Bizning yoshga borganda o'z-o'zidan yengil vinoqa o'tib qolasiz. U A'zamga fransuz konyagidan quyib, o'ziga vino olmoqchi bo'ldi-yu, yana bu niyatidan qaytdi:

– Keling, siz bilan birinchi qadahga konyak ichay. Anchadan beri og'zimga olmagan edim. Konyak kishi-ning yigitligini esga solsa ham, kayfi tarqagandan keyin yoshing qaytganini battar namoyish qiladi-qo'yadi. Sizni ayni ichadigan paytingiz. Bizda «konyagu qiz, tuni bilan siz biz» degan bir gap bor. Qani, oldik. Mayorning bunchalik ochilib gaplashishi A'zamning ko'nglidagi xijilni tarqatgandek bo'ldi, ruhi yorishdi. Bunda konyakning ham ancha-muncha xizmati bor edi. Mayor esa, uning milliy hislariga borgan sari yaqinlashib, uni bir tordek qayta-qayta mahorat bilan chertib turdi.

– Temur tarixini yaxshi bilaman, o'smirligimda ko'p o'qiganman. Ajoyib sarkarda. Nima uchun tarixchilaringiz uni tan olmaydi – bilmaydi. Boshqalarning yeriga kirgani uchunmi! Napoleon, Aleksandr Makedonskiy birovning yeriga kirmabdimi, qon to'kmabdimi? Nega ularni ulug'

lashkarboshilar deb jar solamiz-ku, Temurga kelganda qonxo'r deymiz, urishqoq qabilalarning boshini birlashtirib, buyuk bir davlat tuzganini inkor etadilar. Xudo haqqi, shu yerga kelganda boshim qotadi? Nega?

Bu so'zlar A'zamga moydek yoqqan bo'lsa ham Temur tarixini tuzukkina bilmaganidan bu poygani surib ketolmadi. Lekin ichida: «Bularni bizning tariximizni ob'ektiv bilishini qarang!» deb qo'ydi. Ularga nisbatan mehri tovlanib, shunday kishi bilan o'tirganidan mamnun bo'lib qo'ydi.

Bu holatni zimdan kuzatib turgan, qilni qirq yoradigan mayor, yana shu nozik torni cherta boshladi:

– Samarqandda bo'lmaganimga afsus qilaman. Rimdan qolishmaydi deyishadi. Lekin beqarov emish. To'g'rimi? – mayor uni suhbatga tortmoqchi bo'ldi. Bir umrda Samarqandda bo'lmagan A'zam tilyog'lamalik qilib:

– To'g'ri! – dedi, lekin bir mahal gazetada tarixiy obidalar remont qilinayotgani haqida o'qigani esiga tushib, sal tuzatdi, – sal-pal remont qilishyapti. Bunaqa remont filni qoshiq bilan sug'orishdek, gap.

So'nggi jumla mayorga yoqib tushdi. Shuni bahona qilib, yana qadah taklif etdi:

– Hamma gap shunda, azizim! Qani oldik! Moskva milliy respublikalarning taqdiriga befarq, obidasini qadrlamaydi. Bir mahallar Bag'dod bilan mavqei talashgan Buxoroni ham tanib bo'lmaydi, deyishadi.

A'zam Buxoroni ko'rgan edi. Qadahni epchillik bilan bo'shatib, jindekkina zakuska qilib gapga tushib ketdi.

– Aytishlaricha, avval madrasalar ko'p bo'lgan ekan, – yakunladi A'zam.

– Hozir kammi? Attang! – kuyinib qo'ydi mayor. Keyin birdan jonlandi. – Ruxsat eting, bir qadah taklif qilaman: sizning fakt va voqealarga shunchalik hushyor va

bilimdonlik bilan qaraganingiz uchun. Mayor qadahni baland ko'tarib, o'rnidan turdi. Bu harakat sherigining izzat-nafsigaga, g'ururiga juda mos tushishini bilardi. Xuddi shunday bo'lib chiqdi. Og'zi qulog'iga yetgan A'zam irg'ib o'rnidan turib, qarshi qadah taklif etdi.

– Siz uchun, siz orqali Fransiya uchun! A'zam shunaqa hayajonlanib, konyakni og'ziga tashladiki, qalqib ketishiga sal qoldi. Ozginasi dimog'iga o'tib, burnini achitdi, ko'ziga yosh chiqardi. Mayor qo'lga tushgan bedananing sayroqligidan xursand bo'ldi. Shu sayrashi bo'ladigan bo'lsa, hali ancha ish beradi. Rossiyada qo'lga tushgan fransuz josusini bemalol bosib ketadi. To o'zi suhbat qilguncha: «Hozir sayrab turibdi, keyin og'ziga so'k solib olsa nima bo'ladi?» «Mening siyosat bilan ishim yo'q. Men – injenerman, ish bering!» deb ikki oyog'ini bir qo'njga tiqib olsa nima qilib bo'ladi!» – degan andishada edi. Axir shunaqa qilishi ham mumkin edi-da! Yo'q, bu mayorning baxti, fransuz razvedkasining baxti. Baxti bo'lmasa, o'z oyog'i bilan eshigini taqillatib keladimi! U razvedka qo'lidagi bir siqim loy. Dumaloqlab sopqonga solib otsa ham bo'ladi, teshik kulcha qilib, devorga yopishtirib qo'ysa ham bo'ladi.

A'zam razvedka qo'lidagi loy tuvoq bo'ldi. Bu tuvoq bilan fransuz reaksiyasi Rossiyada qo'lga tushgan bir josusini fosh etib, bir haftadan beri olamga jar solayotganlarning og'zini yopdi. A'zamning: «Men nima uchun vatanimni tark etdim», degan maqolasi barcha reaksion gazetalarning ko'zga ko'rinadigan yerida surati bilan bosildi. Muxbirlarning u bilan bichib-to'qib qilgan suhbatlari chiqdi. O'zini radioga taklif etishdi. K. Rene imzoli jurnalist «Parijur» gazetasida bir maqola bostirib, bu lovillab yonishlarga suv sepmoqchi bo'ldi. Zo'r ehtiros bilan bu shov-shuvlar juda o'rinsiz ekani, ikki qadrdon xalq o'rtasiga raxna solib qo'yishi mumkinligini aytdi. Bu

shov-shuvlarning sababi fosh bo'lgan fransuz razvedkasi agentining nopok xatti-harakatlarini xas-po'shlash ekanini alohida qayd qildi. Ingliz maqolini keltirib: «Qorong'ida tosh otishgandan, jilla bo'lmasa jo'ngina sham yoqib bo'lsa ham bir-birimizning diydorimizni ko'rishganimiz yaxshi», dedi. Ertasiga chiqqan bir talay gazetalar Reneni allanima balolarda ayblab, do'pposlab ketdi. Rene ham qo'l qovushtirib, tavba qilmadi. «Yumanite» gazetasida katta bir maqola bilan chiqdi. Bu gal yana o'sha tezisini kengaytirib, A'zamning gaplaridan, muxbirlarga bergan savol-javoblaridan misollar keltirib, astar-avrasini ag'darib tashladi. Bir qancha tarixiy faktlar keltirib yana do'stlikka, suv betida oqqan bir parcha chirigan cho'pga qarab, butun bir o'rmonga o't qo'ymaslikka chaqirdi.

Bu gaplardan A'zam bexabar edi, albatta. Lekin uni begona ko'zdan yashirib, paypaslab turgan razvedka so'radiganini so'rib bo'ldimi yoki jamoatchilik ta'nasidan hayiqdimi, uning arqonini bo'shashtirdi.

– Mana, azizim, endi bexavotirsiz. Nima ishni ko'nglingiz istaydi? – dedi mayor. Uning tovushida: «Bizdan minnatdor bo'ling, biz sizning mehriboningiz», degan uqtirish sezilib turardi. Ichida kekkayish va kibr qurtlari qimirlab turgan bo'lsa ham, A'zam mutelik bilan qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

– Menda ne ixtiyor! Sizlar nima ishni lozim ko'rsanglar shu-da! Garchand, hozir u: «Kaftinglarda bir hovuch suvman, istang sepib tashlang, istang ho'plang», deb turgan bo'lsa-da, uning bundan burunroq injenerligini ro'kach qilganini, shu sohada ishlash maqsadi borligini mayor kishilaridan eshitgan edi. Buning ustiga A'zam hozir turganidek mo'min-qobil ham emas. Mayor uni elakdan yaxshilab o'tqazib bo'lgan.

– Axir injenersiz-ku, – dedi mayor go'yo hech narsadan xabarsizdek.

– Ha, albatta! – birdan faxrlangandek bo'ldi A'zam.

– Vassalom. Injenerlikdan yaxshi kasb bormi!

Shu kuni kechqurun baqaloq bir kishi paydo bo'ldi. A'zam bilan erinmasdan suhbatlashdi.

– Diplomingiz bor-a? – dedi birdan.

– Bor, lekin bu yerdamas, – tashvishda dedi A'zam.

Baqaloq kishi bir narsaning andishasini qilayotgandek tilla tishini yiltillatib goh past, goh yuqori labini tez-tez tishladi. Shuncha tadbir bilan qochgani holda diplomini esidan chiqarganidan A'zamning yurak-bag'ri ezilib, vahima tog'i yelkasidan bosdi: endi nima bo'ldi? Ishonmasa-ya? To'g'ri, ishonmaslikka haqi bor. Birorta guvohi bo'lmasa! – Sinab ko'ring! – dedi oxir A'zam. Shuni kutib turgandek baqaloq tezda og'ziga urdi:

– Sinash diplom emas-da!

Olayotgan otini goh yo'rttirib, goh choptirib sinab ko'rayotgan chavandozdek baqaloq shoshmadi. Bu orada chiroyli qutisidan zar yoqalik sigareta olib chekdi, xayol dengizida g'arq bo'lib yotgan A'zamga tutdi. U chekmasligini bildirgan edi, battar yuragiga moy quydi:

– Chekmaydigan injenerni endi uchratishim!

Bundan oldingi gapi A'zamni yiqitgan bo'lsa, bunisi ustidan tepish bo'ldi. Gapga mayor aralashdi:

– Sizu bizni qora tortib kelgan kishiga bunday qattiq talab qo'yish insofdan emas, msъe!

– Bo'lmasa, siz kafil turasizmi? – baribir bo'sh kelmadi baqaloq.

– Mayli!

A'zam iring'ib o'rnidan turib, mayorning oyog'i ostiga tashlanib mingdan-ming rahmat aytishdan o'zini arang tiyib qoldi. Lekin uning javdiragan ko'zlarini ich-tashini namoyish qilib turardi. Baqaloq yon bosdi:

– Unda marhamat, ertadan bizda ish boshlashingiz mumkin.

Ertalab kelgan yoshgina yigit A'zamni boshlab ketdi. Bu ishxona A'zam o'z yurtida ishlagan to'qimachilik mashinalarini loyihalash bilan shug'ullanar ekan, ko'p narsalar A'zamga tanish edi. Ortiqcha qiynalmasdan ishga tushib ketdi. Atrofdagilar undan yotsirayotgan bo'lishiga qaramay u zo'rg'a ishga olgan baqaloq xo'jayinining ko'nglini ovlash payida edi. Uning nazarida, jinday bahona ishdan bo'shatilishi uchun kifoya. Demak, baqaloqqa yoqsa, bas. Shu xavfsirashda baqaloq yo'talsa ham «labbay» deb qulog'i ding bo'ldi, to ko'zdan g'oyib bo'lgunicha ilhaq ko'zini undan uzmaydi. Ba'zan unga yaxshi ko'rına qolay, deb tanaffusni ham chala-chulpa qiladi, ba'zan barvaqtroq ish boshlaydi. Uning bu tirishqoqligini qilni qirq yorgan baqaloq payqamay qolmadi. Bir kech uning bu fazilatlarini taqdirlagan bo'lib, restoranga taklif etdi. Yaxshilab mehmon qildi. Diplomini so'rab, ko'nglini ranjitgani uchun uzr so'ragan bo'ldi.

– Men sizning kechagi haftadagi loyihani qo'ldan chiqarishdagi jonbozligingizdan behad xursandman. Shu ketishda uzoqqa borasiz. Bizda qobiliyat, jonbozlik baxt kaliti! – dedi baqaloq alohida ta'kidlab. Uning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib tashladi. Baqaloqning no'noq ruscha gaplaridan og'zi qulog'ida bo'lib o'tirgan A'zam, bunday mehribon xo'jayin uchun kechalari ham qolib ishlashga tayyor edi! Ular uzun-qisqa bo'lib restorandan chiqishar ekan, tannoz bir xotin yo'llarini kesib, atir buruqsatib o'tib ketdi. Uning chiroyli oyog'iga juda yarashgan mix poshnali tuflisi parket polni bir tekisda, notada yozilgandek yoqimli ohangda taqillatib borardi. A'zamning tikilib qolganini ko'rgan baqaloq:

– Go'zal xotinlari bilan mashhur bizning shaharda yolg'iz zerikib qolayotganingiz yo'qmi? – deb uning diqqatini o'ziga qaratdi. A'zam javob o'rnida ishshaydi. Lekin baqaloq uni zerikkani qo'ymadi. A'zamning bor-

yo'q bilimini bir-ikki haftada yovvoyi zulukdek so'rib oldi. Endi A'zamning boshqalardan ortiqchaligi yo'q edi. U bu yerdagilarga ma'lum bo'lmagan anchagina narsadan xabardor ekan. Lekin xo'jayin yomon to'lamadi. Mana shunisiga A'zam mast edi. Bo'sh qoldi shahar aylanib, ko'ngli tusagan restoranlarda toliqquncha o'tirardi. Hatto bir kuni Eyfel' minorining yuqori qavatidagi restoranda ovqatlandi. Yonidagi hamrohi o'sha yerdan turib, butun Parijni tanishtirib chiqdi. Ayniqsa, tepadan qaragandagi mashinalar soni va harakati A'zamning ko'zini o'ynatdi. Sal qaddini ko'tarib, imkon tug'ilishi bilan u ham xususiy mashina oladi. Shu ko'chalarda, shu kishilar qatorida o'zi haydab yuradi. Ha, aytgandek bu shaharda hamma mashinasini o'zi haydar ekan. Shofyor yollash uyat shekilli! Uyat bo'lsa, u davlati oshib-toshib ketganda ham shofyor yollamaydi! Qizig'i, erkak-ayol barobar rulga o'tirib ketaverarkan! U uylansa, xotini ni rulga o'tqizadimi? O'tqazmasa, xotiniga rahmi kelganidan o'tqizmaydimi, yoki mashinani ko'zi qiymaydimi? Nega mashinani ko'zi qiymasin! O'zi injener bo'lsa, ishi zo'r, pul degan narsa novdagi suvdek sharillab kelib tursa, ehtimol, ikki-uch yil ichida xususiy bir korxonaning xo'jayini bo'lib olar, shunday bo'lgach, bitta mashina nima degan narsa! Gugurti chaqib bo'lingan quti!

Qutiga xasislik qilsa uyat, juda uyat! Ana o'shanda jo'rttaga Nafisaga qimmatbaho narsalar olib posilka yuboradi, sal vaqt o'tqizib yana jo'natadi – bu gal Surayyoning nomiga. Bir ko'zi o'ynasin. Yashash qanaqaligini bilib qo'ysin! Uning nazarida yerdan chiqqanday qadrim yo'q edi. Bir ichi kuysin! Undan idoradagilar eshitadi. «Shunday talantli ekanu, attang, payqamagan ekanmiz!» deb o'kinishadi, hasad bilan men qo'l qo'ygan qog'ozlardan imzomni tomosha qilishadi. Yoki o'shanda ulardan bitta-yarimtasiga ham bir posilka qilsammikin?

Qilaman. Xuddi o'sha boshlig'imning o'g'liga qilaman. U mone bo'lib, yo'lga ko'ndalang tushib yotgan odamning qo'lidan qanday ishlar kelib, qobiliyati qay darajada ekanini bilib qo'ysin. Bo'lmasa, la'natiga, yaxshi ham gapirib ko'rdim, xushomad ham qildim, yo'q, mendagi uquvni payqamadi, qobiliyatimni tan olmadi. Bo'lmasa, bir bo'limga boshliq qilib qo'ysa arzimasmidim! Arziganda qandoq! Mana o'ziga jabr bo'ldi. Bir yaxshi injenerdan ajradi! A'zam ana shunday shirin orzular og'ushida mast bo'lib xonasiga kelsa, bir xat yotibdi. «Kimdan ekan?» deb yuragi jig' etib ketgan A'zam, uni o'qigach, kesakdek qotib qoldi. Xatning imzosini o'qib bo'lmas edi.

«La'nati non tepki, kelgindi» deb boshlangan bu xatda A'zamning jonbozligi tufayli ikki kishi xo'jayindan dakki yegani, bir kishining ishdan qutilish xavfi borligi, agar shu hodisa sodir bo'lsa, uning sog' qo'yishmasligini ochiq-oydin yozib, do'q urishardi. Xat «Xoin, haddingdan oshma, oyog'ingni to'g'ri bos, ko'zingga qara!» degan xitoblar bilan tugardi.

A'zam tuni bilan shag'alda yotgan kishidek ag'anab chiqdi. Ertalab bosh og'rig'i bilan ishga jo'nadi. Har bir kishi unga o'sha xat yozgan bo'lib ko'rinaridi. Xatdagi har bir jumla qulog'i ostida kuni bilan jaranglab ishlagandek bo'lmadi. Erta-indini ham bundan yaxshi o'tmadi. Qo'li ishga titrab borardi. Go'yo birov «Hali ham esing kirmadimi?» deb orqasidan musht tushirayotganga o'xshardi.

A'zamdagi bu sustkashlikni baqaloq payqamay qolmadi, axir. Darrov huzuriga chaqirdi. Qarashidan zahar tomardi. Izoh so'rab o'tirmadi:

– Xo'sh, bu nimasi? To'ydingmi?! – dedi yeb qo'ygudek bo'lib. – Hay, menga qara, bilib qo'y, shunday badnom qilib quvamanki, tilanchilik qilsang, kishilar sadaqa tashlamaydi!

A'zamda javob bergudek majol yo'q edi. U ikki o't o'rtasida yonardi. Kimdan ko'mak tilab, kimga arz qiladi? Baqaloq huzuridan boshini quyi solib chiqib ketgan A'zam: «Harna bo'lsa ham xo'jayinning ko'nglini ovlaganim yaxshi», deb ertasidan ishiga sal jon kiritgan edi, yana shunday bir xat oldi. Xat tezda ishdan bo'shab ketishni qat'iy talab etardi. Aks holda... Shu kuni kechasi kimdir derazasidan tosh otdi. Sal bo'lsa boshini yorardi. Ertasiga haftalik maoshini olgan edi, ikkitasi yo'lini to'sdi. Ikkisi ham qora ko'zoynakda. Bittasi qorniga to'pponcha tirab, pulini shilib oldi va ikki marta: «Rahmat, msъe!» deyishga majbur etdi. Keyin:

«Orqangga qaramay to'g'ri ket!» deb ketiga bir tepdi. Hammadan A'zamga shunisi alam qildi. Bu voqeadan keyin A'zam adoyi tamom bo'lgan edi. Qaysi toshga bir bosh urishini bilmasdi. Shunda, muhtaram kitobxonga tanish bo'lgan o'sha beforma kishi qarshisidan tasodifan chiqib qoldi.

– Xo'sh, buncha parishonsiz? – dedi kuyinib.

A'zam ana shunday bir mehribonga juda-juda muhtoj edi. Bir lahzada dardini aytib soldi.

– Badbaxtlar! – dedi hamrohi so'kinib. – Aql bovar qilmaydigan voqea! Boshqa odam aytsa, har narsa deng, ishonmasdim.

A'zam bu uchratgan mehribonining biron maslahat bermasdan achinish bilan kifoyalanganidan ko'ngli to'lmay, orqasidan termilib qoldi. Ikkı kun o'tgach, u yana yo'liqib qoldi. Boshı qotib qolgan A'zam maslahat so'ragan edi, hamrohi dalda berish, biron yo'l-yo'riq ko'rsatish o'rniga yuragiga g'ulg'ula solib ketdi:

– Yomon! Juda yomon bo'пти! Ular uchun odam o'ldirish hech gap emas! Ularda rahm degan narsa bo'lmaydi!

Chindan ham ular kimdan hayıqadi? A'zamning kımı bor ediki, oraga tushib, yiqilsa qo'lidan tortsa! Biror yerda

sulaytirib ketsa, «Qayda qoldi?» deb surishtiruvchisi yo'q. O'zi tabiatan qo'rqoqroq bo'lgan A'zam talvasaga tushib qoldi. Shu kechasi mijja qoqmadi. Tashqaridan kelgan har bir tovush qotilning oyoq bosishi bo'lib eshitildi. Kimdir telefonga chaqirib, shunaqa dag'dag'a qildiki, A'zam idrok etgunicha bo'lmay xonaning chirog'i o'chib qoldi. Bu ikki kutilmagan zarbdan gangib qolgan A'zam, buni baxtsizlikning boshlanish belgisi deb, jon holatda eshikka qochdi. Qorong'i yo'lakda kimgadir o'zini urib, chalpakday bo'lib yiqilganini biladi, bu yog'ini eslamaydi, ko'zini ochsa, o'rnida yotibdi, boshida mo'ysafid bir qo'shnisi yelpib o'tiribdi. Shu yiqilganicha bir hafta yotib qoldi. Keyinchalik ham ko'ngli bezovta bo'lib, tuzuk ishlolmadi. Bir ishini xo'jayin bekor qildi, xarajatini undirib oldi. Bu yetmagandek o'xshatib haqorat qildi. Ertasiga pattasini qo'lga berdi. Shundoq ham kamxarjroq bo'lib yurgan A'zamning sal o'tmayoq qulog'idan oy ko'rinib qoldi.

Bir kuni ertalab naridan-beri nonushta qilib, qolgan chaqasini kaftida qisimlab, qo'lini cho'ntagiga solib kelayotgan edi, yana o'sha beforma kishi uchrab qoldi. Achinib arzini tingladi. «Sen bechora g'aribga juda jabr bo'libdi-ku», degandek papirosini so'rib-so'rib bir ikki tortdi, A'zamning qulog'i uning og'zida edi. Beforma papirosini yerga tashlab, oyog'i bilan ezg'ilar ekan:

– Nachora! Bir ish topish kerak bo'ladi! – dedi qat'iy.

A'zamning «Oh, qani edi!» deb yuborishiga sal qoldi. O'pkasi to'lib, dimog'i achishdi. Befahm A'zam bu barcha ishlar – ishga kirishdan quvilishgacha bo'lgan voqealar, shularning o'z qo'li bilan bo'layotganidan bexabar edi!

Arqonini jo'rttaga sal bo'shatgan razvedka ertasiga yana uni qo'lga oldi. A'zam jon-jon deb ularning yetoviga tushdi. Uni yana shahar chetidagi o'sha xilvatga olib chiqib ketdilar. Uni kutib olgan mayor barcha voqeani hech narsadan xabarsiz kishidek tinglab.

– Xayriyat, bezʻiyon oʻtibdi! – deb qoʻydi. Keyin soʻroq tashladi: – Bilasizmi, bu kimlarning ishi? Aʼzam yelkasini qisdi. Mayorning oʻzi javob qildi:

– Kommunistlarning ishi! Siz ularning sevimli oʻlkasini tashlab chiqqaningiz uchun shunday qilishgan.

Bir chetda turgan beforma: «Ha, ishonavering, bu ularning ishi degandek bosh chayqadi». Shu kundan boshlab, goʻyo Aʼzam hech qayoqqa borib kelmagandek oʻsha «Eski hayot» davom etdi. Sal kunda Aʼzanga et bitib, rangiga qon yugurdi. Lekin: «Endi qanday ishga roʻbaroʻ qilisharkan», degan vahima baʼzan-baʼzan uyqusini qochirardi. Bir kuni Aʼzam oʻsha beforma bilan shahardan qaytib kelsa, mayor bir chiroyli qiz bilan stol tennisi oʻynab turardi. Qiz badaniga chippa yopishgan havorang shimda. Egnida kelishgan xipcha belini, chiroyli doʻmboq koʻkragini joni jahdi bilan qisib, koʻrkini namoyish qilib turgan yengil kalta yoʻl-yoʻl toʻr koʻylak. Oyogʻida yengil chuvak. Boʻyalganga oʻxshagan qoʻngʻir sochini lenta bilan bogʻlab qoʻyibdi. Har tennis urganda bir toʻlqinlanib, koʻkragi bilan musobaqa oʻynayotganga oʻxshardi. Ular mashinadan tushib, tennischilar oldiga kelganda ham oʻyin hadeganda toʻxtamadi. Mayor boshi bilan koʻrishib, goh oʻng, goh chapdan kelgan soqqani yoshiga nisbatan chaqqonlik bilan qaytara berdi. Qiz undan qolishmas. Goh ohuday sakrab, goh burgutdek hamla bilan raqibining hujumini qaytarardi. Sal ichib badani qizigan Aʼzamni uning chaqqon va mohirona oʻyinidan koʻra, oʻzi, toʻgʻrisi, sux kirguday kelishgan qaddi-qomati va «qoch, bagʻringni yondiradi» deb oʻyin shavqida porlab turgan koʻzlari qiziqtirardi. «Kexsa boʻlsa ham, mayor balo! Qanddan asalning shirinligini biladi!» degan fikr xayolidan oʻtdi, hatto hasad qilgandek boʻldi. Mayor esa, «koʻr, havasing kelsin, shunaqa qizlar

bor dunyoda», degandek atayin o'yinni to'xtatmasdi. U shunday o'ynardiki, qizning jozibasini, latofati borgan sari ochilib ko'z-ko'z bo'layotganga o'xshardi. Aslida mayorni o'yin emas, A'zamdagi o'zgarish: qizga qanday nazar tashlashi, yurishi, turishi ko'proq qiziqtirardi. Qani, ko'zi yonadimi – yo'qmi? Bildiki u yem to'rvasini sog'ingan!

Mayor o'yinni to'xtatdi. Qizning ko'nglini ko'taradigan bir-ikki luqma tashladi:

– Bu asli yoshlar o'ynaydigan o'yin. Chaqqonligini ko'rib havasing keladi.

– Yoshligingni esga tushiradi deng! – tabassumda yonib dedi qiz.

– Tushiradi-yu, befoyda: daryo ketiga oqmaydi. Mayor qizning tirsagidan yigitlardek nazokat bilan ushlab, A'zamlarning oldiga olib keldi.

– Modomiki, endi bizda yashar ekansiz, til bilishingiz shart. Mana men sizga muallima olib keldim. Tanishing, mademuazel' Simona!

Qizning yumshoq qo'li, ehtirosdan yonib turgan A'zamning kaftida erib ketdi. Nogoh ikki yoniq ko'z uchrashdi, o'rtada o't chaqnab ketgandek bo'ldi.

11

YOMONNING BIR QILIG'I ORTIQ

Nafisa tush ko'rsa, tushida A'zam zo'rlab gul hidlatyapti. «O'zimga bering» desa ko'nmaydi, «qo'limdan hidlaysan!» deydi. Endi burnini olib borgan edi, ko'ziga tiqib oldi, qop-qora qonga belandi. «Bu nimaydi o'zi!» desa hingir-hingir kuladi, buzuq xotinga o'xshab kuladi. «Qo'ying-e, shu ham hazil bo'libdimi!» deb qo'lga bir urgan edi, cho'chib uyg'onib ketdi. Bundoq yoniga qarasa big'illab Surayyo yig'layapti, qo'li uning ustiga tushgan ekan.

Jon holatda uni bag'riga olib, ipak sochlarini siladi-yu, uqusi o'chib ketdi. Qizi uxlagandan keyin, mijja qoqmadi. Xayol gadoy topmas ko'chalarga sudrab kirib chiqar, tubi yo'q jarlar yoqasiga olib borib qo'yardi. Soatga qarasa, tong yaqin. Saharning oppoq nafasi ufq qirg'og'ida. Allaqayerda kuyib-pishib bedana sayraydi. Qo'shnisining boboq xo'rozi tongni olqishlab, bir-ikki ustma-ust qichqirdi. Allaqaysi bo'g'ot tagidan mushuk miyovladi. Keyin birdan chumchuqlar chug'urlashib, ko'cha betkayidagi terakka yopirilishdi. Qandaydir do'rillagan tovushli it bir-ikki «g'o'p-g'o'p» qildi, ketidan laychanning angillaganı eshitildi. Tramvayning burlishdagi chiyillashi hammasini bosib ketdi.

Tushining etagini ushlab ololmagan Nafisa, «Tushim yaxshilikka ko'rinsin», deganicha qizini uyg'otib yubor-maslikka harakat qilib, ohista sirg'anib karavotidan tushdi. Tushga ortiqcha e'tibor bermaydigan Nafisa bu gal uning og'ushidan chiqolmay qoldi. Eri ketgan kuni ham bir tush ko'rgan edi, lekin uni tuzuk anglab ololmagan edi «Charchagan boshga nimalar kirmaydi», deb A'zamning ketishiga yo'ygan va darrov unutib ham yuborgan edi. Bunisi juda tiniq – miyasiga mix bo'lib qoqilganicha, hech chiqib ketmadi. Atayin sovuq suvda uzoq yuvindi, to'sh-bo'yinlarini qo'shib, ho'l sochiq bilan artindi. Ertalabki konsertni baland qo'ydi, qizini bog'chaga kiyintirdi, kiyimlariga atir sepdı, qo'liga sumkachasini olib, ichiga shokolad konfet solib berdi. Qani bu tush o'lgur ko'zining oldidan narroq ketsa! Ko'zini yumsa, A'zamning gul ushlagan qo'li ro'parasida namoyon bo'ladi. Nafisa ko'ngli xira tortib, bog'chasiga ketdi. Bir oshpazi og'rib qolgan ekan, o'rniga o'zi qarashib yubordi. «Qo'ying, uyat bo'ladi!» deyishgan edi. «Qachondan beri bu ishni qilsa uyat, bunisini qilsa uyat bo'lmaydigan bo'lib qoldi!» deb koyib tashladi. Bitta bola bir haftadan beri bog'chaga

kelmas edi, bugun qarasa chopqillab yuribdi. Chaqirib bag'riga bosdi:

– Opoq bo'b ketdingmi?

Bola boshini tez-tez iring'adi.

– Opoq bo'lib ketganingga spravka ham olib keldingmi?

– Ayam «sen ketaver, o'zim oboraman» deb aytdi.

– Juda yaxshi! Endi hech qayering og'rimayaptimi?

Bola boshini sarak-sarak qildi.

– Sen bugun-erta ko'p chopmagin, xo'pmi? – dedi.

Nafisa uni yana bir bor erkalab, keyin murabbiyasiga, – ko'z-quloq bo'lib turing, mana bu opoq bola ko'p urinmasin, – deb tayinladi. Boshqa guruhdagi bir qizchanning bugun kelish-kelmaganini surishtirdi.

– Bugun shundan siz xabar olib o'ting, opasi! Chiqmaganiga bugun uch kun bo'ldi, – deb, o'z kabinetiga kirib ketdi. Raygazga telefon qilib: «Kechagi haftadagidek gazning keti uzilib qolmasligini», iltimos qildi. Ketidan hazillashib qo'ydi:

– Agar shunaqa qilaversangiz Ilhomjon maktabga chiqib ketsa, o'rniga ukasini olmayman! – u yoqdan javob qaytardi shekilli quloq solib turdi. Keyin birdan quvonib, – tabriklayman. Qizmi, o'g'ilmi? Bizning kuyov Ilhomjon-ku, shunday bo'lsa ham bir surishtirib qo'ydim-da. O'rtog'imning o'zi yaxshimi? Salom ayting! Ota-onasi bilan bergan bo'lsin.

Bu quvonch trubkani qo'yishi bilan yana bir zumda qayoqqadir yo'qoldi. Nima bilan shug'ullanmasin, o'sha la'nati tush xayolidan ketmasdi. A'zam tobi qochib, yotib qoldimi? Biror falokat...

Yo'g'-a, xudo asrasin! Kecha sheriklaridan bittasining singlisini ko'rgan edi, hech nima demadi-ku!

Biror gap eshitgan bo'lsa aytmasmidi! Bog'chada ovqat vaqti betinch bo'ladi: biri qoshiq o'ynab, ovqatini

to'kadi, biri boshqasini kiga non tashlab yuboradi. Bir xili yeb uddalolmaydi. Shunday paytda Nafisaning yemakxonada aylanib yuradigan odati bor. Bugun ham oq xalatni kiyib, endi bittasiga tanbeh bergan edi, eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Eshikni ochgan xizmatchi xotin, «Sizni!» deb Nafisani imo qildi. Eshikda bir norg'ul yigit bilan o'rtayosh bir ayol turar edi. Salomlashishgach, o'rtayosh ayol:

– Sizda jinday ishimiz bor, – dedi.

– Marhamat! – kabinetiga boshladi Nafisa. Joy ko'rsatdi. Uning bittagina Abu Ali ibn Sino surati osilgan kichkinagina kabine ti odamga to'lib ketgandek bo'ldi.

– Marhamat, qulog'im sizlarda! – dedi Nafisa va ochiq yuz bilan ular tomonga engashdi.

– Uyingizga borsak, eshigingiz berk ekan, – deb uzoqdan gap boshladi ayol salmoqlab.

– Erim safarda, qizim bilan men bog'chada, – kulgiga oldi Nafisa. – Bizni qidirgan odam uyimizga kechqurun keladi. Chiroqda gaplashadi.

– Shunaqa ekan. Lekin quruq qaytmadik, mushuginiz miyovlab javob qildi.

– Uyda ekanmi? E, jonivor, qamalib qolibdimi!

Miyovlayverib qo'shnilarning joniga tegadigan bo'libdida, eh attang. Qizim tushkur, yaxshi ko'radi.

– Bola-da! Yolg'iz bo'lsa kerak?

– Ha.

– Ikki-uchta bo'lganda mushukka ehtiyoji qolmaydi, – kuldi ayol.

– O'zligisi mushuk-kuchuk bo'lishadimi?! – unga qo'shildi norg'ul yigit. Hammaning yuziga tabassum nuri sochildi. Lekin yigitniki darrov so'ndi. U ko'zining qirini hamrohiga tashlab, yerga boqdi. Xotin ham boshini quyi tushirib, burchakka tikilib qoldi. Shundan Nafisa bildiki, bular bolalarining ishi bilan keladigan odatdagi otanalardan emas. Yuragi shig' etib ketdi. O'z ishini to'g'ri

tutishidan ko'ngli to'q Nafisaning xayoliga yana tush va A'zam keldi. A'zamga bir narsa bo'lganu, bular mudhish xabarni aytgani botinolmayotgandek tuyuldi. Eti seskanib, nafasi tiqildi.

– Nima gap – tinchlikmi? Erimga bir narsa bo'libdimi? – dedi entikib. Uning ko'z oldiga, nima uchundir, ag'darilib ketayotgan samolyot keldi. Nafisaning hayajonini kuzatib turgan yigit yana sherigiga ko'z tashladi. Go'yo kelishib olgandek bo'ldi-yu, salmoqladi:

– Biz ham shu eringiz to'g'risida gaplashmoqchi bo'lib kelgan edik.

Nafisa cho'g' bosib olgan odamdek tipirchilab qoldi, jon holatda:

– Tirikmi? – dedi.

– Tirik. Oyoq-qo'li butun. Lekin... – yigit u yog'ini qanaqa qilib aytishga so'z topolmagan kishidek to'xtab qoldi, bu to'xtash Nafisaning endi o'rniga tushgan yuragini yana o'ynatib yubordi:

– Nima «lekin»?

– Aytishga majburmiz, singlim, boshqa ilojimiz yo'q. Lattani cho'g'ga tashlab, yashirib bo'lmaydi, sassig'i chiqadi. Lekin sizdan bitta iltimos: hozircha ovoza qilmay turasiz.

– Albatta! Albatta! Aytavering! – Nafisaning sabri chidamas, butun a'zoyi badanini ter bosib ketgan edi.

– Eringiz qochib ketibdi!

– Qayoqqa qochibdi? – yana hayron bo'ldi Nafisa.

– «Vatanimga qaytmayman», deb Fransiya ma'murlaridan boshpana so'rabdi.

– Voy, juvanmarg bo'lgur! Yomonning bir qiligi' ortiq deb... Qayoqdan bildinglar?

– Bu aniq, – dedi yigit «bizga ishonavering, biz yolg'on gapirmaymiz», degan bir ohangda. Nafisaning ko'z oldiga aeroportda qora terga tushib tipirchilab yur-

gan A'zam keldi. Buning ma'nosini endi tushungandek bo'ldi. Oyoq-qo'li bo'shashib, dimog'i achidi, mijjasida yosh ko'rindi. Lekin bu achchiq tomchini bir-ikki kiprik qoqish bilan ichiga yutdi: kimdan yig'layapti? Uni odam o'rnida ko'rmagan odamdanmi? Yoki xo'rlanganiga chidolmayaptimi? Kim xo'rladi? Yana o'sha g'alamis past odam. Jo'n odam bo'lmaganida boshqa gap edi. Modomiki, jo'n odam ekan, satqai ko'z yoshi ketsin! Bu voqea unga bitgan yaraning ustidagi terini ko'chirib olib tashlaganchalik ta'sir qildi. Dimog'idagi achchiq narsani ichiga yutib, xuddi cho'kkandek yelkasini o'ngladi, boshini ko'tardi – o'z qadrini e'zozlab, suhbatdoshlariga mag'rur boqdi. Shunday bo'lsa ham:

– Kim yo'ldan urdiykin nonko'rni? – dedi ajablanib. Nima qilsa ham xotiniga og'irligini tushunib, uni o'ziga qo'yib berib o'tirgan mehmonlar Nafisadagi dadillik va mustaqillikni ko'rib, ancha yengil tortishdi. Nafisaning savoliga norg'ul yigit javob qildi:

– Bizni ham shu narsa qiziqtiradi. Aytolmaysizmi, so'nggi vaqtda kimlar bilan ko'proq bordi-keldi qilardi?

Nafisa dangal javob bera boshladi:

– Bittayam tuzuk o'rtog'i yo'q. Odam isi yoqmas edi. O'z otasining kelgan-ketganini xush ko'rmaydigan odam, birovga el bo'larmidi! Bo'sh qoldi, topgani radio edi. Al-laqayoqlardan olib eshitardi.

– Avvallari ham shunaqamidi?

– Ayniqsa, keyingi vaqtda xuruj qildi. Gap radioda emas, o'zini qo'noqqa urgan. Radio eshitadigan bitta umi?

– Albatta! – unga qo'shildi norg'ul yigit. Lekin nima uchundir qoshi chimirildi. – Taassurotini gapirarmidi!

– Endi sizlarga ochig'ini aytmasam bo'lmaydi: biz noahil turardik. Ahil oilada temir ham suvga cho'kmaydi, bizda, biznikida qog'oz ham suzmas edi. So'nggi oylarda

bir oz epaqaga kelganga o'xshab yurgan edi, mana buning ham chuvi chiqdi: Nayrang ekan! Esimda bor: bir chet el kinosini ko'rganda ochilib «La'natilar yashashni biladi!» degan edi.

Men ahamiyat bermagan edim, endi bilsam...

– Ko'nglidagi sassiq buloq bir toshgan ekan deng! – uni quvvatladi o'rta yosh ayol.

– Oqibatiga qaraganda shunday bo'lib chiqadi!

– Albatta! – yana gapni norg'ul yigit oldi. – Ayting-chi, uyda ba'zi bir xatlari, yozishmalari yoki kundalik daftari yo'qmi?

– Bir qarab boqsam bo'ladi! – Nafisa birdan o'rnidan turdi, – yaxshisi, yuringlar, uyga bora qolamiz. Bu yerda fol ochgandan nima naf. O'ladigan kasalning o'lib, qolganlarning tinchigani yaxshi! Suhbatdoshlari shunday taklifga ehtiyoji bo'lib, qanday qilib aytishni bilmay turgan ekanmi, darrov o'rinlardan qo'zg'alishdi.

– Bu ham to'g'ri, – so'z bilan quvvatladi ayol. – Boshqa kuni yana vaqt yo'qotib yuramizmi? Nafisaxonning ishi boshidan oshib yotibdi.

– Sizlarniki kammi? – tegishdi Nafisa. – Dangasaga ish topilmaydi, xolos: u loy qilishdan oldin, loyxonada uxlab oladi.

Yara dog'i ketsa ham, ko'ngil dog'i ketmaydi, deb bekorga aytmaydilar. Nafisaning A'zamdand olgan «ko'ngil dog'i» bu uchrashuvdan keyin yangilangandek bo'ldi. Shuning uchun yuragi tuz sepgan yaradek jizillab achishsa ham, egan kaltak, eshitgan dakkilari, tahqirlash-xo'rlashlari esiga tushib, yuragi tosh qotdi, qahri keldi. Chunki, o'zining ilk uchrashgan kunlaridagina emas, doimo aldanganini, ularning umrdoshlik binosi qum ustiga qurilganini, endi uning butunlay nurab bo'lganini tushundi. Bu tushuncha uning A'zamga bo'lgan nafratini alangalatib yubordi. Bu alanga birinchi lahzadayoq erining

keyingi vaqtdagi qallobona «mehribonlik»larini ham jizg'anak qilib tashladi. Axir shu kichkina odamgarchilik ham soxta bo'lib, uni laqillatib yurgan ekan-da! Shuning uchun undagi ichki bir quvvat «xotin kishining kuchi ikki ko'ziga yetadi» degan qoloq bir tushunchani eski do'ppidek boshidan olib bir chetga uloqtirib tashladi. Daqiqalar o'tgan sari o'z qadri-qimmatini bilgan, uni joni boricha himoya qila oladigan metin irodalik, mustaqil kishidek tetiklanib bordi. Qo'li mushtga tugilib, ko'zlari charaqladi, yuragi o'zga bir sog'lom qon bilan tepib, so'zlari keskinlashdi. Faqat og'ziga kuchi yetmagan ba'zi bir odamning ta'nasidan uyalardi. Oxiri bunga qarshi ham o'zida kuch topdi: qarg'a qag'illagani uchun qor yog'maydi. Ular uyiga kirib kelganda Nafisa ruhan yetilib, boshqa odamga aylanib bo'lgan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, hatto A'zam kirib-chiqib turgan eshik ham ko'ziga juda xunuk ko'rinish ketdi. O'ziniki yonida turgan uning sochig'ini qoziqdan olib, yerga otdi. A'zamning nimasiki ko'ziga tushsa, nafratini qo'zg'ar, tilga kirib, egasidek tilyog'lamalik, ikkiyuzlamalik qilayotgan, uni qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirayotgan, baxtiga chang solayotgan bo'lib ko'rinardi. Yemakxona devoridagi A'zamning katta fotosurati yakkayu yolg'iz farzandining boshini olgan jallodek ko'ziga shunaqa badbashara ko'rindiki, o'zini tutib turolmadi.

– Meni kechiringlar. Qiziqqonlik qilyapti, deb ko'nglinglarga kelsa ham mayli! Shuni olib tashlamasam, bu xonada yurolmaydiganga o'xshayman! – dedi va siltab uzib, orqasini o'g'irganicha hojatxonaga olib kirib ketdi. Keyin mehmonlarni qiziqtirgan nimaiki bo'lsa, keltirib o'rtaga qo'ydi.

– Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi, degandek bu kasofatning kasri tegmasa edi!

– Ishontirib aytamanki, siz xotirjam bo'lishingiz mumkin, Nafisaxon! Gap faqat eringiz haqida boryapti! – dedi yigit.

– Menga qolsa, «eringiz» so'zini ham ishlatmasdim! – uni tuzatdi ayol. «Bu so'zni aytishga mening haqim bor», – degandek norg'ul yigitga ko'z tashladi.

– Er shunaqa bo'lsa, bir umr ersiz o'tganim yaxshi! – dedi Nafisa boshqa bir xonaga o'tib borar ekan. Bir vaqt stol g'aladonidan A'zam nomiga yozilgan omonat kassa daftarchasi chiqib qoldi. Uni qo'lga oldi-yu, birovning ho'l sochig'iga qo'lini artgan kishidek ko'ngli battar xira tortib, istehzoli kulganicha hamrohlari huzuriga chiqib keldi:

– Odamning ichi qora bo'lgandan keyin hech qanday firibgarlikdan qaytmas ekan. Mana bu daftarchani ko'ring: menga «oshig'u shaydo» bo'lib yurganda, ko'rsatib maqtangan edi. Anchagina pul qo'yilgan. «Ming qilsa ham injener, jamg'arsa jamg'argandir» deb, men laqma o'lgur, ishonibman.

Keyin bilsam, qalbaki ekan.

– Qanday qilib? – ajablandi ayol.

– Besh so'm to'lab, daftarcha ochib olgan ekan-u, bu yog'iga o'zi yozib «qo'yib-olib» yurgan ekan.

– Bu ham hammaning qo'lidan kelavermaydi! – dedi kulib yigit. Keyin daftarchani ko'zdan kechirdi. – Erinmasdan ikki betini to'ldiribdi.

Bu eng oxirgi katta jinoyatning kichik halqachalaridan bittasi. Mana shunaqa qilib, bo'g'izidan botqoqqa botgan.

– Har daraxtning qurti o'z ichidan paydo bo'ladi deng!

– Juda to'g'ri! – Nafisani quvvatladi norg'ul yigit. – Bular podani bulg'aydigan buzoqchalar.

– Bulg'aganda qandoq! Falon shaharlik, falonchining eri bundoq bo'lib ketibdi, degan yaxshi gapmi! Odam olasi ichida. Bo'lmasa, qari, vaqtida yoqasidan tutib, «Xo'sh, nima qilmoqchisan, ko'rnamak» deb ezib qo'ysang! –

o'rti yosh ayol gapga kirdi. A'zamning bitta kichkina suratini qo'liga olib yana davom etdi.

– Biz yeb, bu quruq qolgandek bo'ynini egib turishini qarang. He, egilmay bo'yinlaring uzilsin. Qaysi yuzi bilan: «Men vatanimni tark etaman», deya olgan ekan.

– Sotqinda uyat bo'lmaydi! – dedi yigit.

– Nafisaxon, – dedi ayol ishlar oxir bo'lgach unga yuzlanib. – Boya «menga qolsa «eringiz» so'zini ishlatmas edim» deganimga hayron qolgandek bo'lgan edingiz. Elburutdan vag'vag'alik qilgim kelmovdi. Mana buni o'qib ko'ring. U allaqachonoq sizga begona bo'lib qolgan ekan.

Bu A'zamning Parij gazetalaridan birida chiqqan suhbatini edi. Suhbatda Nafisa va oilaviy turmushi haqida shunaqa uydirma tuhmat, betuturuq gaplarni yozar ediki, begona o'qisa sochi tikka bo'lib, qo'li mushtga tugilardi.

– Voy, dono bo'lmay, ovozing lahatdan kelgur, men boshlig'ining sarqiti ekanmanmi! Zo'rlab unga olib berishgan ekanmi! Tuhmat qilmay, bir lahzalikka uchragin, til tortmay o'lgin! Bolangni uvoli tutsin! – Nafisa ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bu tuhmatdan yonib ketdi. Hatto begonalar oldida qarg'ashdan, qo'llarini tizzasida musht qilib bosib, keksa xotinlardek qarg'ashdan ham uyalmadi.

Hammadan Surayyoning o'zidan bo'lgan-bo'lmaganiga shak keltirishi uning jonidan o'tib ketdi. Alamiga chidolmay yig'ladi, yig'ladi-qarg'adi, qarg'adi-yig'ladi.

– Jon birodarlar, – deb yalindi, – menga adresini topib beringlar. O'zim bitta xat yozay. Ko'zingga tuproq to'lgurning o'zginasiga bitta xat yozay!

Men unga barcha shallaqa betuturuqligini bitta-bittalab yozib, uzib-uzib olmasam asti hisobmas! Jon birodarlar, yordam beringlar!

Nafisaning bunchalik tutoqib yonib ketishini kutishmagan ekanmi, shoshinqiragan bo'lishdi, bir-biriga qarashdi. Ularning bu qarashida «bu xotin o'zini bir narsa qilib qo'ymasa edi, achchiq ustida» degan ma'no bor edi

– Singlim Nafisaxon, – uning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi ayol salmoqlab, – jahl bilan toshni tepsang oyog‘ing og‘riydi. O‘zingizni bosing. Hali o‘zingiz aytdingiz-ku, noahil edik deb. Noahil oila – pishmagan chipqon. Mana endi «pishibdi», yorilibdi.

Qaytanga qutuldingiz.

– Boy, opajon, men uning tashlab ketganiga achinayotganim yo‘q. Menga desa undan nariga o‘tib ketmaydimi! Tuhmatini ko‘ring! Odam ham o‘z quchog‘ida yotgan xotiniga, o‘z pushti-kamaridan bo‘lgan farzandiga shunaqa tuhmat qiladimi! Bu gaplarni tosh eshitsa yorilib, murda oyoqqa turadi-ya!

– Buning bitta yo‘li bor, – dedi uning so‘zini bo‘lib norg‘ul yigit, o‘shoqqa eshtiladigan radioda bitta so‘zga chiqasiz.

– Jonim bilan! Kimga uchrashsam bo‘ladi?

– Radiodagi o‘rtoqlarga yo‘liqing, biz ham yordam beramiz.

– Rahmat! Esinglardan chiqmasin-a!

Yigit miyig‘ida kuldi. Bu kulish: «Bundan biz ham manfaatdormiz. Kishilarimizning sha‘ni-shukuhini himoya qilish bizning burch. Kelishdan niyatlarimizning bir tomoni shu edi. Xotirjam bo‘ling, biz sizni bu o‘t ichida qoldirmaymiz», degan ma‘noni ifodalab turardi. «Afsus, g‘aflatda qolibmiz», deyishganicha ular A‘zamning ba‘zi bir qog‘ozlarini olib ketishdi. Quyuq xayrlashar ekan:

– Nimaiki maslahat yoki yordam kerak bo‘lsa, marhamat! – dedi norg‘ul yigit, – biz xizimatingizga hozirmiz. U bir parcha oppoq qog‘ozga telefonlarini yozib berdi. O‘rta yoshli xotin esa, o‘zicha tasalli berdi:

– Dardingizning arigani shu, Nafisaxon. Bunday er xotinni sil qiladi. Parvo qilmang, boshingizni bemalol ko‘tarib yuravering. Tashqaridagi gap – kir o‘radagi mag‘zava. Hali uning xor-zor bo‘lib, pushaymonidan qaysi

toshga boshini urishini bilmay yurganini ham eshitib qolamiz. Hali u puflangan sharday kekkayib yuribdi, yeli chiqib ketganini o'zi bilmay qoladi. Bilmadim, o'shanda kimning oyog'i tagiga kelib tusharkin!

– Qani o'sha kunlarini ko'rsam!

– Ko'rasiz, albatta, ko'rasiz, singlim!

– Ko'rganda qanday, – uni to'ldirgan bo'ldi yigit.

Ular ketguncha uy to'lib turgan ekan. Ularni kuzatib uyga kirsa, uy yutib yuboray deyapti. A'zamning bu uyga qaytib kelmasligi, endi yolg'iz qolganda aniq ma'lum bo'lgandek g'alati tuyuldi.

Bu tuyg'u uning ojiqligi belgisiga o'xshab ketib, Nafisaning nafsoniyatiga tegdi. «Men ojizu benavomidim uning etagiga yopishib yashashim kerak! Bo'lmaganga bo'lishma! Erlik bo'lib nima yorug'lik ko'ruvdimki, yo'g'ida o'kinaman! – dedi o'zicha va bariga bir narsa ilashgandek uni bir-ikki qo'li bilan qoqdi. Go'yo A'zam shu bariga ilashib yotgan xas edi-yu, shu qoqishda undan xalos bo'lganday ruhi yengil tortib, uyini yig'ishtirishga kirishdi. A'zamning bu uyda eslatishi mumkin bo'lgan nimasiki bo'lsa, olib, bir burchakka tiqdi, o'rnini artdi, supurdi, izini yo'qotdi. Keyin bundoq qarasa kech kiribdi. Qizini, endi tirik yetim qolgan qizini bog'chadan olib kelish payti bo'libdi. Ana shunda Nafisaga kor qildi. U o'zi otasiz katta bo'lgan edi. Badjahl otasi «paranjimni tashlayman» degan onasiga pichoq urib qo'yib, qamalib ketgan edi. Ba'zilar qamoqda o'lgan desa, «men falon shaharda ko'rdim» deganlar ham bo'ldi. Xullas, u bolaligida otasiz qolib, ota mehridan bebahra bo'lib o'sgan edi. Nahot, uning qizi ham shunday bo'ladi? Bu savol uning ko'kragini parma bo'lib o'yardi. Mana shu yeriga kelganda iztirob chekdi. Albatta Nafisa o'z onasidek erning qo'luga qarab qolgan mute zaifa emas. Bir farzand emas, butun bir oilani tebratishga qobil. Qiziga keragicha tarbiya

bera oladi. Qo'g'irchoqday kiyintirib, ko'ngli tusaganini qo'lga tutishga qurbi yetadi. Lekin ota mehri o'rnini to'ldira oladimi? Yoki bu qizining ko'nglida o'zinikidek armon bo'lib qoladimi? Tengdoshlari «adam», «dadam» deganda bir o'kinib, ko'ngli o'ksib ulg'ayadimi? Ana shu savollar uni birdan iskanjaga oldi. Bu savollarga u uzilkesil javob berishdan ojiz edi. Shu savollar ko'nglida pırpıraq bo'lib aylangani sari A'zam ko'ziga battar badbashara ko'rına berdi. Unga bo'lgan nafrati g'azabga, tiliga kelgan har bir so'z qarg'ishga aylandi.

Demak, A'zam uni emas, norasta qizini ham eng nozik tuyg'udan – otalik mehridan bebahra qilib ketibdi, begunoh norastaning qalbiga yillar o'tgan sari chuqurroq botadigan nish urib ketibdi. Bu nishning o'rnı tuzalishi gumon, bu nish o'rnı mangu qoladi!

Nafisaga o'z taqdiridan ham ko'ra, qizining istiqboli qattiq alam qildi. U shu lahzagacha masalaning bu tomonini o'ylamagan ekan. Demak, u Surayyo uchun ham ona, ham ota bo'lishi kerak. Nafisa shunday mulohazalar bilan qizini, bugundan boshlab otasiz qolgan tirik yetim qizini bag'riga bosganda o'zini tutib turolmadi. Yuragini g'ijimlab kelgan achchiq yosh ko'z kosasidan tirqirab tomdi. Ma'suma qizining ipak sochlariga to'kildi...

Buning ustiga banogoh kirib qolgan Ummatali bironing siri ustidan chiqib qolgan kishidek xijolat tortib, orqasiga tisarildi. Lekin ichki bir kuch: «Nega chekinasan? Aksincha, uning ko'z yoshini artishing kerak. Axir u sening do'sting, yolg'iz o'g'lingning murabbiyasi!» deb uni oldinga undadi. Shunday bo'lsa ham hadiksirab, Nafisaning qoshiga borgan Ummatali zo'rg'a:

– Tinchlikmi, Nafisaxon? – deya oldi.

Bu mehribon nido Nafisaning ezilib turgan qalbini yana bir qalqitib yubordi.

– Asti so'ramang, bizni xudo urib qoldi! – dedi Nafisa ko'z yoshlarini chetiga gardim tutilgan jajji, yumshoq ro'molchasiga artar ekan, – A'zamingizning chet elga ketganidan xabaringiz bor edi.

– Xo'sh? Xo'sh? – Ummatali kuzdan sovuq, o'limdan badnom xabar eshitayotgandek shoshildi.

– O'sha yerda qolibdi.

– Qanaqa qilib? – tushunmadi u.

– Qaytmayman debdi.

– Voy, ahmoq! – yukni yerga endi qo'ygan odamdek bir ohangda dedi Ummatali. – Juda, juda qisqa o'ylabdi! Begona bilan o'pishgandan o'zingniki bilan tepishgan yaxshimasmi! Nafisa endi dardkash kishi topgandek hammasini aytib, yuragini bo'shatdi.

– Mana shunaqa kurakda turmaydigan gaplar, Ummatali aka! – dedi oxirida.

– Bola yoshlik qilib, tog' deb soyaga salom berib qo'yibdi, Nafisaxon. Oxiri voy!

– Niması bola! Ikki gapning birida «men falonchiman» deb ko'kragiga urardi.

– Bola bo'lmasa, murdalar go'rda yotib, «tiriklar pashmak holva yeyapti» deb o'ylashganidek, o'zga yurtni havas qilarmidi!

– Havas emas, yovuzlik bu! Ko'rnamaklik bu! – Nafisa shunaqa titrab gapirar ediki, Ummatali o'zining o'ta ko'ngilchanlik qilayotganini payqab qoldi. Chindan ham u bola emas, institutni bitirib, bir farzandlik kishi bola bo'ladimi! U bilib turib qo'lini qonga botirgan. Bu hasadgo'y, ichi qoralik oqibati.

– Oyog'i yomon to'rni, og'zi yomon elni bulg'aydi, degani shu! – dedi Ummatali A'zamning gazetadagi gapini eshitib. – Nahotki, shularni aytishga tili borgan bo'lsa! Bu o'ta pastlik-ku. Bu gapni aytish uchun kishi it bo'lib uvillashi, to'ng'iz bo'lib chiyillashi lozim!

– Bu jinoyatning nomi yo‘q, Ummatali aka, nomi bo‘lganda ham tilga olib bo‘lmaydi, og‘izni kuydiradi!

Ummatali bundoq tanasiga chuqurroq o‘ylab qarasa, Nafisa haq, A‘zam oilaning basharasiga tupurib, el-yurtning yuziga oyog‘ini tirayapti. El-yurtning betiga oyog‘ini tiragan odam kecha tug‘ilib, bugun ko‘chaga chiqqan bo‘lmaydi. U ichidan sasib yurgan, bir xil nok xuddi shunaqa bo‘ladi: bandida yiltillab, oqi oq, qizili qizil bo‘lib turadi, yerga tushdi pilchillab, ichi qorayib irib ketgan chiqadi.

– Sal yolg‘onchiroq edi-ya! – dedi Ummatali bunday ishlarning boshi go‘yo yolg‘onchilikdan boshlanadigandek.

– Yolg‘onchilik ham gapmi! Yolg‘onni chin, chinni xudo urdirib gapirardi!

Mana bir necha oyki, Ummatali Nafisani kunda bo‘lmasa ham, haftada bir ko‘rib turadi: qachon o‘g‘lini ko‘rgani kelmasin u shu yerda. Ba‘zan qo‘li tegmasdan telefon qilib qolsa, Mas‘ud haqida mehribon kishidek ma‘lumot beradi, oldiga yaqin bo‘lsa telefonga chaqirib, tovushini eshittiradi.

Ketidan: «Xavotir olmang, qog‘ozga o‘ralgan qandek saqlaymiz», deb kulib qo‘yadi. Qachon ko‘rsang chehrasi ochiq, gap-so‘zlari o‘rinli, bosiq, ishining ko‘zini biladi. Xizmatdoshlari: «Nafisaxon yo‘q kuni bog‘chamiz ko‘chgan hovlidek huvillab qoladi», deb kulishadi. Chindan ham shunday: ertalab yurt qatori keladi, «men mudiraman» deb o‘tirmasdan nima ish to‘g‘ri kelsa shunga kirishib ketadi. Uyga qaytish esa, hammadan keyin. Lekin uning birovga tovushini o‘zgartirib gapirganini hech kim bilmaydi. Demak, uning bugungi kuyib-yonishi jonidan o‘tib ketganidan. To‘g‘ri, Ummatali bundan sal burun uning Qimmatxon bilan «dahanaki jang» qilib olganini Mas‘udning murabbiyasidan eshitgan edi.

Nafisa bundoq qarasa Qimmatxonning pardozandozi har qachongidan buzuq. Avval haftada bir xabar

olmagan odam endi kunda, kun oralab qatnaydi. Bolani suyultirib, tantiq qilyapti. Bachkana qiliqlar bilan erkalaydi. Buning ma'nosi aniq: erim o'ziga og'dirib olmasin! Ta'biati bosiq, soxtalikni yomon ko'rgan Nafisaga bu malol keladi. «Siz bolaning ko'ngliga shakar deb sepayotgan narsa tuz» debdi va Mas'udni olib, murabbiyasiga beribdi, uning kamroq kelishini iltimos qilibdi. «Voy, nega endi bunaqa deysiz, o'z bolamni ham mendan qizg'anasizmi», degandek Qimmatxon yozg'iribdi. Bu ham yetmagandek Nafisa: «Shu yalab-yulqashingiz rost bo'lsa hozir oldingizga solib berib yuborardim-ku...» deb yana qattiqroq tegibdi. Qimmatxonning o'sma tortilgan qalin qoshlari chimirilib ketib, «Qo'rqmang, ustingizdan shikoyat qilmayman», debdi kesatib. Nafisa, arz qilmaganlardan endi sen qoluvding, degandek kulib, ketidan bigizini tiqib olibdi: «Sizning shikoyatingizdan qo'rqqanimdan emas, bolaga jabr bo'ladi, bolaga! Axir arz tinglovchi ham «o'zing kimsan?» desa kerak! Yoki siznikini hamma tinglayveradimi, Qimmatxon opa!» Shu bilan so'zim tamom, ketaverishingiz mumkin, degandek Nafisa o'z kabinetiga kirib ketadi. Qimmatxonga bu gaplar toza alam qiladi. Shimilgan doridek borgan sari achchig'i chiqqa beradi. Tupurib tashlamasa bo'lmaydigan ko'rinadi. Ko'chaga chiqib, ketayotgan yeridan qaytib keladi. Duch kelgan odamni tiriklayin yutib yuborgudek shiddat bilan hovliidan o'tadi-yu, Nafisani ko'rishi bilan, nima uchundir, hovridan birdan tushib «tavba deng, singlim, hali yoshsiz!» deyish bilan kifoyalanadi.

Lekin uning titrab-qaqshab turganini ko'rgan Nafisa, yalang'och qilichning damiga oyoq bosmaydi. Uni yoniga o'tqazadi, hatto choy ham tutadi. Keyin yotig'i bilan etini o'ldiradi: «Oppoq qilib yuvib qo'ygan kiringizga birov loy sachratsa, joningiz achiydimi? Achiydi, albatta. Tramvayda birov oyog'ingizni bossa-yu, joningiz og'rimasa ham,

tufilingizga bir qarab qo'yasiz. Qirilgan yeri tabiatiingizni xira qiladi. Shundaymi? Shunday bo'lgach, sizni xafa qilgan narsa odam-ku! Sizning o'z ichingizdan tushgan bola. Mendan ko'ra sizga aziz. Biz uni tarbiyachisi, xolos. Ammo tarbiya qilish tug'ishdan og'ir.

Shunday bo'lgach, biz mehnatimizning yelga uchishini istamaymiz. Mehnatgina emas! Siz buni istamaganingiz holda bizga zid ish qilyapsiz. Bolaning ko'nglini zaxa qilyapsiz. Zaxa narsa axir bir kuni sasiydi. Keling, kelishib olaylik, bundan keyin tarbiyaga zid harakatlar qilmaysiz: kunda, kun oralab kiravermang, boshqa bolalarning ko'zini o'ynatib, narsa olib kelavermang. Kelishdikmi? Men sizning xavotiringizni bilaman: xavotirlanmang. Xuddi shunday shartni Ummatali aka oldiga ham qo'yganmiz. Yoki u kishi kelmasinmi?»

Keyingi jumlaning jo'rttaga aytilganini bilgan Qimmatxon shoshib qoladi: «Voy, nega?» deydi. «Unday bo'lsa, gap shu!» deydi Nafisa va uning qitiq patini bittalab yulib, chiqarib yuboradi. Murabbiyalar: «Bu gapdan keyin Qimmatxon bolasini ertagayoq olib ketadi. Toza tuzladingiz!» deyishadi. Nafisa esa buning aksini bildirib, qat'iy ishonch bilan: «Xotirjam bo'linglar, olib ketmaydi, olib ketolmaydi», deydi. Hamma ajablanib yelkasini qisadi. Chindan ham bir kun o'tadi, ikki kun o'tadi, besh kun o'tadi, Qimmatxondan darak yo'q. Faqat oltinchi kuni halimday bo'lib birrovgina kelib ketadi. Qimmatxondek xotinning bu o'zgarishidan hayron qolishadi. Bunga yana Nafisaning o'zi:

«Ajablanadigan yeri yo'q. Uning orttirgan kishisi jo'n narsa bo'lish kerak. Aks holda «o'zing – gul, bolang – tikan» deb ona-bolani ikkiga ajratmas edi», deb javob beradi. Mana shular xayoliga kelgan Ummatali Nafisaday tadbirli odamdagi bu o'zgarish, uning titrab-qaqshab gapirishining sababi bor vujudining kuyib ketgani, unga

otilgan tuhmat toshi ko'ngil ko'zgasini chil-chil qilgani, si-
niqlari yurak-bag'rini qop-qora qonga bulg'agani ekanini
his etdi. His etdi-yu, unga juda rahmi keldi. Ehtimol, uni
o'ziga yaqin tutmaganda bunchalik to'lib-toshib gapir-
mas edi. Modomiki shunday ekan, unga ana shu og'ir
daqiqada shafqat qo'lini cho'zishi, bitmas yarasiga mal-
ham qo'yishi kerak. Ummatali buni Nafisaning ko'nglini
ko'tarishdan boshladi. Unga tasalli beradigan so'zlarni
aytib, o'zining og'ir hayotidan misollar keltirib yupatdi.
Gapni aylantirib kelib:

– O'rmon qing'ir daraxtsiz bo'lmaydi, Nafisaxon! –
dedi u, – afsus, shu qing'iri sizning hissangizga tush-
gan ekan. O'zingizni tuting. Siz kuyib-pishganingiz bilan
uning qozoni qaynamay qolmaydi. U harom bo'tqasini
sizsiz yemoqchi. Yeyaversin. Siz o'z halol qozoningizni
osing. O'zingizni, qizingizni o'ylang. Surayyo uchun ham
ona, ham otasiz.

So'nggi jumla, Nafisaning bag'rini tilib turgan «otalik
mehri» hissi yana bir yallig'lanib, vujudini larzaga keltirdi.
«Mana shu ikki kishining mehrini farzandimga bera
olamanmi, uning o'rnini bosishga qobilmanmi, degan
xayol meni o'rtayotgan narsa. Bo'lmasa bunday er
sadqai sar! Menga desa, undan nariga o'tib ketmaydimi,
Ummatali akajon!!» deyayotgandek Nafisa bir javdirab
hamrohiga qaradi-da, qizini bag'riga bosib, yo'lga tushdi.
Ummatali o'g'lini naridan-beri bir-ikki erkalab, silliq, tor
peshanasidan o'pdi-da, bolalar to'piga qo'shib yubordi:

– Sho'xlik qilmay yuringin, xo'pmi? – dedi.

– Xo'p! – bola boshini tez-tez iring'adi. Keyin tilga kirdi: –
endi qachon kelasiz!

– Kelaman, o'g'lim, kelaman! Ummatalining ko'ng-
lidan «Sendan boshqa kimim bor, o'g'lim, seni sog'i-
namanu senga intilaman!» degan fikr o'tdi va Mas'ud
dardlashadigandek katta bola bo'lib tuyuldi. Baribir

bolaga bu fikrni aytib bo'lmaydi! Ummatali hamon ko'zini dadasidan uzmay turgan o'g'liga so'nggi marta ustma-ust qo'l siltadi-da, eshikdan chiqdi. O'g'lining har bir harakati ko'ngliga muhr bo'lib bosilgan, bu muhr yana ko'rishgunicha uning qalbiga quvonch va faxrlanish baxsh etadi. Uni yana shu ostonaga boshlab keladi. To ko'rishib, diydoriga to'yguncha entiktiradi, shirin orzular qanotida olib yuradi!

Ummatali katta ko'chaga chiqishi bilan Nafisaga ko'z tashladi. U yomon erdan yodgor shirin qizchasini bag'riga bosganicha qabrstoniga eng yaqin kishisini qo'yib kelayotgan odamdek boshini xomush egib, yo'lkada asta borar edi. Ummatalining ko'ziga u shu mahalda dunyoda biror mehriboni yo'q g'aribday ma'sum ko'rinib ketdi. Kim biladi, uning nohaq ezg'ilangan ko'nglidan qanday mudhish xayollar o'tayapti. Bu xayollar uni goh chohga otib, goh to'zov qilib ko'klarga to'zitib yurgandir. Ummatali yaxshi biladi, kishi bunday paytda bir og'iz, faqat bir og'iz shirin so'zga hatto muhtoj bo'ladi. Bu bir og'iz shirin so'z uni choh oldidan qaytarib, vayrona ko'ngliga bahor gullarini sochadi, unga qanot bo'lib, umid va murod ufqiga uchiradi, bag'rini nurga to'ldirib, ham boshini mag'rur ko'tarishga undaydi.

Qani endi shu bir og'iz so'zni aytish Ummatalining qo'lidan kelsa. U shu umid bilan Nafisaga yetib oldi. Indamasdan yonida hamroh bo'lib boraverdi. Ziyrak Nafisa uning nima maqsadda yetib kelganini sezdi shekilli, unga xomush bir nazar tashlab qo'ydi.

Bu nazarda: «Menga rahming kelgan bo'lsa rahmat! Men hozir yolg'izman, yolg'izlik dahshatida o'rtanib borayapman. Qorninga emas, qadrimga yig'layman, qadr qilib qadrlanmaganimga o'kinaman. Men nima yomonlik qila qolgan edimki, tuhmat toshlari ostida ko'milib, ko'z yoshlarim bilan yuzimni yuvishim kerak. Boshqalardan

nimam kam mening? Nega mening umrim esimni taniganimdan beri tashvishdan chiqmaydi? Bu hasrat meros bo'lib, nahot tirik yetim qizimga ham o'tadi! Mana shunga chidolmayman», degan ma'no bor edi. Ummatali taksi to'xtatdi.

– O'tiring, Nafisaxon, hasrat yo'lining qisqa bo'lgani yaxshi!

Nafisaning yuragi kichik bir mashinaga tiqilishga emas, kengliklarga, ufqiga ko'z yetmas kengliklarga intilib turgan bo'lsa ham, Ummatalining shu so'zi uchungina taksigga o'tirdi.

– Bekorga ovora bo'ldingiz! – dedi u qizining g'ijimlangan ko'ylagini tuzatar ekan.

– Ovoragarchiligi bormi, Nafisaxon! Bu tashvish bir o'zingizga og'irlik qiladi. Jilla bo'lmasa, ostonangizgacha bo'lishib boray!

– Rahmat. Shuni er qilibmanki, tashvishim qo'shaloq. Endi bir kami shu tuhmat qolgan ekan! Ummatali uni hazil bilan chalg'itmoqchi bo'ldi:

– Eshitmaganmisiz, yomonning bir qilig'i ortiq deb...

– He, qilig'i boshini esin!

Mashina ularni tushirib jo'nagach, Ummatali uyiga yo'l boshlayotgan Nafisani to'xtatdi.

– Singlim, – dedi u, – men shu yerdan qaytaman. Sovxozga chiqib ketishim kerak. Sizdan bitta katta iltimosim bor. Agar «xo'p!» desangiz aytaman. Nafisa, «Bu odam shu vaqtda hazillashyaptimi?» degandek unga qaradi. Yo'q, u har vaqtdagidek bosiq, o'z qadrini bilib vazmin turibdi. Shunday bo'lsa ham unga g'alati tuyulib:

– Aytavering! – dedi ohista.

– Rostini aytsam, A'zam sizning qayg'urrganingizga arzimaydi. O'zingizni qo'lga oling, og'ir bo'ling. Qumni shamol uchiradi, toshni qimirlatsin-chi! Jon singlim, tosh bo'ling! Nafisa indamasdan boshini yana quyi tushirdi. Ummatali Surayyoga:

– Sen yaxshi qiz bo'lib, oyingni gapga solib o'tirgin, xo'pmi? «Men borman, yolg'iz emassiz, degin, xo'pmi?» – deb gap qotdi. Qizcha bolalarga xos uyat aralash ma'sumlik bilan ma'qullab bosh tebratdi. Ummatali jo'nab ketdi. Nafisa eshikka kalit solib ochdi-yu, ichkariga kirishga nima uchundir, yuragi betlamadi. O'lik chiqqan uyday ko'ziga xunuk ko'rindi. Orqasida tirkak bo'lib Ummatali turgandek qayrilib qaradi. U odamlar oqimiga sho'ng'ib ko'zdan g'oyib bo'lgan edi. Nima uchundir uni ko'rmaganidan ichida muzday yel yurgandek bo'ldi. Uni o'ylab «Achchiq-chuchukni ko'rganligidan odamga shunaqa mehribonmi, yoki tabiati o'zi shunaqami? Bo'lmasa menga yetti yot begona!» deb qo'ydi. Ummatali ertasiga ertalab bog'chaga telefon qilib Nafisaning kayfiyatini so'radi. Kechagidek:

«Qumni shamol uchiradi, toshni ham qo'zg'atsin-chi!» deb ko'nglini ko'tardi.

12

NAFISANING NAFRATI

Shu kuniyoq Simona dars boshladi. A'zamning maktabda nemischa o'rganganini bilib o'kindi: – Qani, o'shanning o'rniga fransuzcha o'qiganingizda ishimiz tez yurishib ketardi, attang! Mayli, yoshlik xotirasini yozilmagan oq varaq deydilar, hatto magnit zarralari surtilgan emish. O'ziga tez oladi.

A'zamning ko'zi muallimasining yarim ochiq to'shi va ko'kragining aniq sezilib turgan tugmachadakkina uchida edi. Shayton uni ming xayolga olib ketardi. Qulog'iga kirgan gap qiz aytgandek magnit zarrasiga chip yopishmas, balki silliq muz ustida turmagan tishi yo'q kalishdek sirg'anib allaqayoqlarga ketardi. Qiz bildiki, talabasining

qulog'iga gap kirayotgani yo'q. Garchand bu, mayorning tayinlashicha, ayni muddao bo'lsa ham, Simonaning unga rahmi keldi. Suxsurday yigit qarshisida hirsdan ko'zi tinib, qassob do'koni oldidagi kuchukday qulog'ini ding qilib turibdi-ku, bir og'iz iliq so'z, bir necha lahzali ixtiyorini unga bag'ishlash bilan ko'nglini ololmaydi. Albatta o'ziga qolsa jon derdi. Bu uning deyarli kasbi. Lekin bugun mayor bu yoqqa boshlab kelar ekan «Simona! Boshvog'ingni qattiq tut. Men sening chiroyli yigitlar qarshisida olovga duch kelgan muzdek erib ketishingni bilaman. Lekin senga ishonaman. Sal burniga suv kirsin, keyin mayli. Senga ham bo'ladi, bizga ham. Bizning undan umidimiz katta!» dedi. Bu gap uning qulog'ida birinchi kun o'qishga borgan bola qulog'ida ilk qo'ng'iroq qoldirgan ta'sirdek jaranglab turibdi. Shunday bo'lsa ham Simona sal yon bosdi. Bir-ikki nozik tabassum in'om qilib, o'qishni tugatdi. O'rnidan qo'zgalari ekan, A'zamning kayfiga imo qilib:

– Bugun bir oz toliqqan ko'rinasiz, dam oling. Iloji bo'lsa, muzday dushga tushing, hovringizni bosadi, – dedi. Buni A'zam o'zicha tushundi: qiz uning hirsiy niyatini payqadi. Kayfi borida: «Sezsa nima! Nega o'zligisi bunaqa yosh qizdan muallim tanlaydi!» deb pisand qilmagan A'zam, uxlab, tiniqib turgandan keyin yuragi orqasiga tortib ketdi: yaxshi ham tegishib qo'ymabdi! Ehtimol, birortasining xotini yoki qizidir. Bordi-yu, mayorga tegishli, uning keksa ko'nglini yoshartiradigan mijoz bo'lsa-chi! Fransuzlarda bu oddiy gap: o'n sakkiz yoshlik qoni qaynoq qiz, ellik yoshlik bilan sevishveradi. Buni hech kim ayb qilmaydi. Ehtimol, Simona shunaqadir. Birortasiniki, hatto mayordan ham ulug'rog'inikidir. Ana unda tomoshani tomdan ko'rarding! O'z bardoshiga shukronalik o'qib, ertalabni kutib olgan A'zam, nonushta

paytida muallimasini dasturxon tepasida ko'rdi. Bay-bay! Kechagi kiyinishi, yurish-turishi ham bir nav ekan! Bugun juda ham ochilib ketibdi. Harir ko'ylak ostidan uning oppoq beg'ubor badani sirli bir joziba kashf etib har qanday sovigan qonni ko'pirtirib, so'niq ko'zni chaqnatib yuboradigan darajada dilrabo edi. «Buning menda biror qasdi bormi, buncha jonimga jabr qiladi», degan A'zam o'zini arang bosib o'tirdi. Fikrini qanchalik tizginda ushlab turishga urinmasin, u arqonga endi tushgan qo'chqorday gojlik qilib orqasiga tisarilar, bo'ynidan bug'ovini chiqarib, tiraqaylab qochardi. Uning butun badani mis bo'lib qizirdi. Bir soatlik darsdan keyin, Simona tanaffus berar ekan, shunday ham kichkina og'zini luchchak qilib kuldi-da:

– Boring, yuzingizni muzdak suvga yuvib keling! – dedi.

Bu qochiriq A'zamni battar loyillatib yubordi.

– Yuvmasam kimga jabr bo'ladi: sizgami, mengami? – deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

– Hech kimga-ku jabr bo'lmaydi, lekin yuvganingiz yaxshi!

Bu javobdagi ma'no darrov A'zamga borib yetdi. Garchand, u tushunmaydigan tomoni ham yo'q edi. Simonaning harir ko'ylakda ming tovlanib turishidan uzun kipriklarining karashma bilan ochilib-yumilishigacha, qalam ushlashidan, har o'rgatayotgan so'zini tamanno bilan chiroyli talaffuz etishigacha hammasida uning yuragi, dardi, ehtirosi, ko'rki, niyati yaqqol ko'rinib turardi. Lekin u A'zamga noma'lum sabablarga ko'ra, ixtiyor tizginini hali-beri qo'ldan chiqarmoqchi emas. Bunisi ham sezilib turibdi...

Bir hafta ichida Simona kunda ikki bor kiyim-boshini almashtirib, pardozini shunga moslab, A'zamni adoyi tamom qildi. A'zam endi o'z nazarida kundan-kun pastga

tushib, Simona oy-yulduzlarga yaqinlashib borardi. Shoti qo'ygani bilan yetib bo'lmaydi. Qanoti yo'qki, uchib quvsa!

Shu orada mayor kelib qoldi. Eski qadrdonlardek qo'l olishib bo'lgach, A'zamning yelkasiga qo'lini tashladi:

– Xo'sh, o'qishlar qalay? – dedi fransuzchalab. A'zam qiynalib bo'lsa ham bir-ikki og'iz so'z bilan javob qaytardi.

– Mademuazely Simona! Praktika tomoniga ko'proq kuch bering. Ko'proq vaqt ajratmasangiz bo'lmaydi. Yo besh-o'n kun shu yerga ko'chib chiqib turasizmi?

Simona yelkasini qisdi.

– Lozim bo'lsa...

– Lozim bo'lganda qanday.

Mayor oldida o'zini juda vazmin saqlab turgan Simona, u ketgach, nolib qo'ydi:

– Hech yomon gapirmaydi-yu, nima uchundir, ko'rsam qo'rqib turaman, xuddi yuragim uning kaftida-yu, qattiqroq bir siqsa og'zimdan jonim chiqib ketadiganday.

– O'zi nima ish qiladi? – anchadan beri so'ramoqchi bo'lgan savoliga endi jur'at etdi A'zam.

– Yaxshi bilmayman! – Simonaning ko'zlari «bilaman, lekin aytolmayman» deb turardi, – kimdir meni tavsiya etibdi shekilli, bir kuni chaqirib qoldi. Bilsam, sizni, sizday bir injener bolani o'qitish kerak ekan.

– Mening injenerligimni ham sizga aytishdimi? – mag'rurlangansimon so'radi u.

– Yo injenerligingiz sirmidi?

– Yo'q, yo'q!

– Shunday bo'lgach, nega ajablanasiz. Ular ko'chadan meni ushlab oldingizga yuborishmaganidek, sizni ham taroziga solib tortib, gazga solib o'lchab olishmaguncha bu yerga keltirib qo'yishmagandir. Yo adashib tushganmisiz? Bir narsaga fahmingiz yetib turgandir.

A'zam aniq javob aytolmadi. Aslida aytolmas edi ham. Birinchi kuni uni paypaslab, yoniga odam qo'shib,

el ko'zidan chetga olganlarining ma'nosi aniq edi. Lekin nima uchun shu vaqtgacha uning atrofida girgитton bo'li shadi, uni nega shu vaqtgacha bu yerda saqlab turishadi. Odam yollab til o'rgatishadi, mehribonlik qilishadi – buni A'zam yaxshi tushunib yetmasdi. Simonaning savoli bu masalani yana bir chuqur o'ylashga majbur etdi. Chindan ham, nega endi qo'yib yuborishmaydi? Yoki hali ham sheriklari uni poylab yurishibdimi? Yoki qoidasi shunaqami: muhojir bo'ladigan odamni qoqilsa yiqilmaydigan, qayerda bo'lsa o'z nonini butun qilib yeydigan bo'lgunicha parvarish qilinadimi?

Buning tagida boshqa zil ma'no yo'qmi? Boshini silayotgan bu mehribon qo'l bir kuni jonini halqumidan sug'urib olmaydimi? Yo'q, nega unday bo'lsin! Men ularga bevaqt shamolni ravo ko'rmoqchi emasman. Yaxshilikning qadriga yetadigan, birni o'n qilib qaytaradigan odamman, bundan havotir olishmasa ham bo'ladi.

Shunday ishonch bilan A'zam Simonaga javob qildi:

– Albatta! Ularning mehribonligini unutmaysan.

– Unutmaslikning o'zi kifoya emas-da! – ma'noli kuldi qiz.

– Yana nima qilishim kerak bo'ladi? – ajablandi A'zam. U chindan ham nima qilishi mumkinligini, nima qilsa mayorlar xursand bo'lishini bilmas edi.

Simona bu savolning javobi nimaligini bilsa ham elburtdan jar solishni lozim topmadi, to'g'risi, buni u aytishi lozim emas. Payti keladi – aytishadi. Lekin uni masalaning boshqa tomoni ajablantirdi: u ilk ko'rgandan buyon bu qora qosh, qora ko'z kelishgan injener yigitni qildan qiyo ketsang payqaydigan, kalava o'rasi tugun tushirmaydigan pishiq, abjir, deb yurgan edi. Bundoq qarasa, ancha sodda! O'rgimchak uyasini ipak parda deydigan bo'lmasa ham, ancha sodda. Simona biladiki, bunaqalar bir ishga kirishsa, astoydil jon kuydiradi. Sevsa-chi!

Sevsa ham joni-dili bilan mukka tushadi. Simonaga ana shunisi kerak edi. U kimlarni ko'rmadi, kimlar nimalar va'da qilmadi. Hammasi toshqin ko'pigidek tezda so'ndi. Yaxshi kitobday qo'ldan-qo'lga o'taverish joniga tegdi.

Endi bittasining etagini ushlamasa, bu guldek husn hademay so'nadi, ko'zlarining zavq-shavq bilan porlashi o'chadi. Uning boshiga shu mayor yetdi. Simona institutda o'qir, slavyan tillarini o'rganar, sinfdosh bir yigit bilan yurar, o'z baxtidan o'zi mamnun edi. Bir kuni shu mayor chaqirtirib qoldi. U vaqtda kapitan edi. Gapni vatanparvarlikdan boshladi. «Har bir fransuz qizi Janna D'ark bo'lishi kerakligini» og'iz ko'pirtirib gapirdi. Gapning oqlmi qayoqqa nishab olib borayotganidan bexabar ma'suma qiz Simona og'zini ochib, bosh chayqab ma'qullab o'tirardi. Gapni baliq to'ridek to'qib tashlagan kapitan yakunlab: «Vatan sizga bir topshiriq bermoqchi!» dedi. Bu topshiriq umrining zavoli ekanini fahmlamagan Simona «Qo'limdan kelsa...» deb qolmasmi bo'shshab!

Bir tomondan vatanining unga ishi tushganidan, bu ish uning qo'lidan kelishiga tajribali kishining ko'zi yetib turganidak xursand ham bo'ldi. Kapitanning «Albatta keladi!» deyishi ishonchini komil qildi.

Simonani uchinchi kishi orqali bir chex mutaxassisi bilan «tasodifan» tanishtirdilar. Chex bu yerga ilmiy komandirovkaga kelgan, o'ttizlardan sal o'tgan uddaburo, yag'irini keng kishi edi. Kapitan va keyin kimligini uncha-muncha bilib qolgan allaqanday kishilar topshirig'i va yo'l-yo'rig'i bilan u chexning bag'riga shunday silliq va ishonch bilan kirishi kerak ediki, u hech narsasini sir tutmaydigan bo'lsin. Buning bosh kaliti Simonaning kelishgan qaddi-qomati va shirin so'zi. Lekin buning o'zi bo'lmaydi. Bir yurtdan ikkinchi yurtga ish bilan borgan odam og'zini bog'loqsiz qopday ochib o'tirmaydi. Undan keyin Simonaning chexni ko'rib rahmi ham keldi.

Chex unga nima yomonlik qilibdiki, uni chohga itarishi kerak. Yuragi yaxshilikka to'la, umrida pashshaga ham ozor bermagan Simona orqasiga tisarildi, qo'ldan kelmasligini vaj ko'rsatdi, bo'lmadi. «Kasal» bo'lib ko'rdi – bo'lmadi. Shahardan qochib ketmoqchi bo'ldi-yu, baribir bu idoraning qo'li juda uzunligiga, qayerga borsa ham tomog'idan xippa bo'g'ib, oyog'idan sudrab kelishiga aqli yetdi. Undagi kayfiyatni bilgan kapitan yana avray boshladi. Qarasa, qiz o'ng'aylik bilan og'ziga jilov soldiradigan emas, oldidan kelsa tishlaydi, ketidan kelsa tepadi.

Shunda kapitan Simonaning tajribasizlik qilib, bir tomondan katta ahamiyat bermay o'z qo'li bilan «ushbu idora bilan o'z xohishimcha hamkorlik qilishga roziman» deb yozib bergan (to'g'risi yozdirib olgan!) tilxatini pesh qilib: «Bilasanmi bu nima! – dedi o'dag'aylab. – Bu osmonga chiqsang oyog'ingdan, yerga kirsang qulog'ingdan tortadi. Endi qichig'ing ketmaydi. Aytganimizni qilasan. Dunyoga ikki marta kelsang ham, bizdan boshingni olib qochib ko'r-chi!»

Simona o'zining razvedkaga qo'l-oyog'i bilan chandib bog'lanib qolganini butun dahshati bilan ana shunda bildi. Bildi-yu, o'z taqdiriga xo'rliqi keldi. Boshlarini toshga urib yig'ladi – befoyda. Oqibati nima bilan tugashiga to'la aqli yetmasa ham shunga doir kitoblarda o'qigan dahshatlar butun vahimasi bilan tushlarida hatto tinchlik bermadi.

Uning gojligi nafi shunga tegdiki, keyingi uchra-shuvdan birida kapitan uning qo'liga mo'maygina pul tutdi. Go'yo kechagina ma'suma qizni haqorat etgan u emasdek, kulib: «Yoshlikka libos yarashadi. A'lo navidan bo'lsa yana yaxshi», deb nimaga sarf etishi zarurligiga imo-ishora qildi. Kishilarni ne-ne ko'ylarga soladigan pul Simonani ham avragandek bo'ldi...

Chex og'ziga pishiq edi. Qog'oz va chertyojlarini ehtiyot tutardi. Lekin Simonani ko'krigidan itarib ham

yubormas edi. Bo'sh vaqtini u bilan o'tkazardi, parklarda, teatrlarda u bilan birga bo'lishga majbur edi.

Bundan xabar topgan sinfdosh yigiti «Bu kim?» dedi. Simona javob berolmadi. Yolg'onlaganiga yigiti ishonmadi. Yana bir kuni yigiti: «Simona! Bu bema'nilikni qilma, oramizga sovuqlik tushadi», dedi. Simona chexni tark etolmasdi, etishi ham mumkin emas edi. Yigiti oxirgi marta xonasiga qamab: «Ayt, u kim? Nega ochig'ini ayt-maysan», deb qistovga oldi, «Meni sevasanmi?» desa, «ha» dedi-yu, chexning kimligini, nima uchun u bilan uchrashuvining sababini aytmadi. Yigit esa, qizni munofiq hisoblab, tashlab ketdi, yolvorishlariga quloq solmadi. Shunday qilib, ilk muhabbat yakson bo'ldi. Chex esa, musofirlikning og'ir kunlarini u bilan quvnoq o'tkazib, vaqti tugagach tashlab ketdi. Shu-shu Simona razvedka qo'lida. Istagan odamining qo'liga sochiqdek tutishadi. Avvaliga malol kelgan bu ish keyin kasbga aylandi. Uning jiring-jiring pullari, a'lo nav vino-konyaklari xumor bo'lib qoldi. Institutdagi o'qish ham oydin ko'rmay adoyi tamom bo'ldi – razvedka bilan bog'langandan keyin yarim yilgina o'qidi xolos. Rus tilini ham o'sha vaqtda o'rgangan edi. Mana endi u A'zamning huzurida. Uning til o'qituvchisi A'zam u shu vaqtgacha suhbatdoshi bo'lgan kishilarning birortasiga o'xshamaydi. Birinchi kunlari uning qora mag'izligiga, kelishgan gavdasiga besh ketgan bo'lsa, bugun yong'oq qilib dumalatsa dumalatgudek oqadigan o'zida yo'q xursand. Hozir uning eshik taqillatib keladigan hech kimi yo'q. Ko'chaga chiqsa birov salom bermaydi. Shirin gapirganga peshvoz turib, yaxshilikka jon fido qiladi.

To yo'lini topib ketguncha jilovlagan yutadi. Badaniga nam yugurgandan keyin ko'zi ochilib qaraydigan bo'lib qoladi. Simonani mayor chaqirtirib «Ish boshlaysan!» deganda yana qanaqasini oldiga meni suyak qilib tashla-

yapti? – deb ensasi qotgan bo'lsa ham, sal surishtirgach badaniga issiq yugurdi. O'zini ko'rgach esa, ko'zi yondi. Axir ko'zining yonganicha ham bor: o'zi yosh, bilaklari baquvvat, yevropa qizlari xush ko'radigan qorachadan kelgan. A'zam Simonani har ko'rganda bir entiksa ham, botinib bir harakat qilishga yuragi dov bermas edi. Kechasi o'rniga kirganda, hirs kuchi bilan xayolning ming ko'chasiga kirib chiqar, tushlarida xandon solib gaplashib, ba'zan bag'riga tortar edi-ku, o'zini ko'rganida uyidan adashgan boladay ko'zini mo'ltillatib turardi. To'g'ri bir kuni kech qolganda: «Kuyov bola xafa qilsa, xafalikni menga yelkangizdan oshirib yuborib, shodligini o'zingizga olib qoling», deb qochiriq qildi.

Shunda u ham: «Kuyovlik bo'lganimda o'zini huzuringizga yuboramiz, tushuntirib qo'yasiz», dedi. Yana bir kuni A'zam: «Qaytishda adashmasam, kuzatib qo'ygan bo'lardim», deb odamgarchilik qilgan edi qiz: «Qo'ying, adashsangiz tag'in birortasi olib qochib ketmasin» deya hazilga oldi.

– Sizlarda yigitlarni olib qochishadimi? Bizda...

– Olib qochganda qandoq! – yuz-ko'ziga kulgi sochildi.

– Unda ehtiyot bo'lay, – hazilga oldi A'zam.

– Ha, ehtiyot bo'ling. Tag'in mayor faryod urib, men uvvos solib qolmaylik. Simonaning gapi tubli bo'lsa ham A'zam uncha ahamiyat bermadi. U niyat ko'chasiga burilib borayotgan suhbatdan mast edi. Qiz gapni yana hazilga burdi:

– Undan keyin-chi, hali sizning chillangiz chiqqani yo'q. Ko'chaga chiqsangiz uyat bo'ladi.

– Hali murg'aksan deng! – o'zicha tushundi A'zam. – Bo'lmasa meni yolg'iz qo'ymang!

Shu gap sabab bo'ldimi, yoki mayor topshiriq berdimi, ertasidan boshlab, Simona yotib qoladigan bo'ldi. Uning xonasi A'zamning ro'parasida. U endi vaqti-bevaqt kiradi-

gan bo'lib qoldi. Ovqatga birga chiqib, birga qaytishadi. Har kuni tunda uyqu oldidan bog'ni ikki aylanib chiqishadi. Bir gal qiz «qoqilib» ketdi. Yonida borayotgan qizdan bexabar yigitdan ginaxonlik qildi va A'zamni qo'ltiqlab oldi. Ana shunda A'zamning ham kuch bilan bosib kelayotgan suyuqligi tutib, «undoq emas, bundoq bo'lishi kerak» deb qizni qattiq qo'ltiqlab oldi. Simona xuddi shuni kutgandek uning bag'riga kirib ketay der, do'mboq to'shini yigitning tegib turgan qo'lidan olib qochmas, aksincha, turli bahona bilan qattiqroq bosar edi. Ba'zan A'zamning yelkasiga boshini nogoh qo'ygan kishi bo'lib, a'lo nav fransuz atrini sochlardan gurkiratardi. Buni yem to'rvasini anchadan beri yo'qotgan yigitga qanday ta'sir qilishini bilar, bilib turib, yuragiga qo'l solardi. Moyday erib turgan A'zam nimalarni gapirib tashlamadi! Simona bir tomondan ana shu gaplarni bilish uchun ham uning yoniga tashlangan.

Suhbatning bunchalik «samimiy» tus olishi Simona uchun ikki yoqdan yaxshi edi: mayor oldida yuzi yorug' bo'lsa, ikkinchi tomondan o'zi shaxsan uning ishonchiga kirib boryapti. Shu keyingisi endilikda unga juda zarur edi. Shunday bo'lsa ham: «Menga qarmoq tashlab, xo'jayiniga ilintirib berish uchun qo'ltig'imga kirgan ekan», demasin degan xayol bilan gapni shaxsiy hayotiga burib ketdi.

– Ijzat berishsa, xotiningizni chaqirtirib olarmidingiz?

– Nima deyapsiz! O'zim zo'rg'a qutuldim-ku! – A'zamning esiga mashhur Xojar xaqidagi o'zbek ertagi tushdi. Keyin kulib qo'ydi: – Gilos deb yana og'zimga cho'g' tashlaymanmi!

– Shunaqa joningizga tekkanmidi? Nima yomonlik qila qolgan edi, bechora. – Xotin kishi sifatida Simonaning uzoqdagi notanish juvonga rahmi kelgandek bo'ldi.

A'zam bu savolga nima deb javob berishini bilmay qoldi: bunday o'ylasa, xotini unga nima yomonlik qilgan? A'zam aldab qochib ketmoqchi bo'lganida baridan mahkam ushlab qolganimi? Uning qo'liga tushgan boshqa ba'zi qizlarday yig'lab, arzini suvga aytib qolaversa yaxshi bo'larmidi!

Shunday bo'lsa ham, A'zam xotini ustiga shunaqa mag'zava ag'dardiki, Simona ko'z oldiga bunday xotinni keltirolmadi. Endi A'zamga rahmi keldi. «Bechora! Seni hukumatdan bezib qochgansan desam, bunaqa dardlaring ham bormidi hali», dedi ko'nglida.

– Shuning uchun bu yerda yuzingizga qon yugurib qolgan ekan?

Simonaning bu qochirig'iga A'zam ham chertdi:

– Sizni ko'rgandan beri!

– Unda ehtiyot bo'ling, mening muallimlik muddatim tugab qoldi.

Sinash uchun aytilgan bu gap A'zamning yuragini larzaga keltirdi:

– Yo'g'-e! Endi dars boshladik-ku!

– Shu bilganingiz etadi.

A'zam birdan xomush tortdi. Ne-ne erkaklarning muomalasini ko'rgan Simona buning sababini darrov sezgan edi. Shunday bo'lsa ham uning ko'nglini ko'tarmadi. Ehtimol, shu bahona sal qattiqroq yopishib kelsa! Lekin A'zam u kutganidek yopishib kelmadi. Chunki u Simonadan qo'rqardi. Orqasiga qo'yilganidan gumoni bo'lmasa ham, shunday chiroyli qizning boshi ochiq bo'lishiga ishonmas. Uni birortasining xotini, jilla bo'lmasa, yaqin mijozi deb o'zini tiyardi. Ehtimol, yana xotin sabab bo'lib, bu yerda ham baxti qaro bo'lur! Sabr qilgani yaxshi. Xotin topiladigan narsa! Oldin o'zi oyoqqa turib olishi shart!

Simona esa, A'zamning sustligini o'zicha tushundi: yo mijozī sust, yoki unī yoqtirmaydi. Undan ham chiroylilarni ko'rgan! Shu keyingisi uning xotinlik izzat-nafsigā tegdi. Astoydil qo'yniga qo'l solishga qasd qildi. Shu orada yana bir narsa uning mushkulini oson qildi. Ertalab beforma kelgan mayor A'zamning oldiga mashinkada bosilgan ikki varaq qog'oz tashladi:

– O'qing!

A'zam unī o'qib bo'lgunicha, har mo'yi ostidan bir buloq paydo bo'ldi.

– Bu qayerdan?

– Sovet radiosi berdi. Toshkentdan. A'zamning ko'zi pirpiradi.

– Ishonmayapsizmi?

A'zam javob qaytargunicha bo'lmay, mayor mashina oldida nima bilandir uymalashib yurgan leytenantni chaqirdi:

– Haligini olib keling!

Leytenant xuddi shunday farmoyishni kutib turgan-day tulki chaqqonligida qog'ozga o'rog'lik narsa keltirdi. Bu Toshkentdan berilgan eshittirishning lentaga yozib olingani edi. Mayor unī xonada turgan priyomnik-magnitofonga qo'yib, eshittirdi. Bir ozdan keyin taqqa to'xtab, so'radi:

– Shu tovush sizga tanishmi?

A'zam boshi bilan tasdiqladi, ketidan yana:

– Xotinimniki, – dedi.

Mayor eshittirishni davom ettirdi.

Bu Nafisaning o'zginasi edi. U A'zamning xatti-harakatini qoralab, unī munofiq, ichi qora, noshukur, ko'rnamak sifatida fosh etardi, uning o'zini tutishlaridan misollar keltirib, rasvosini chiqarardi. U bir yerida shunday der edi: «Mayli, men-ku yomon ekanman. Nahotki, o'z pushtikamaringdan bo'lgan norasta qizing ham yomon.

U senga nima yomonlik qilgan ediki, uni haromga chiqarasan, yuziga balchiq sohasan. Sening shundayin pastligingni bilganimda bolamni otasiz tug'ardim, otasizligini bildirmay katta qilardim. Seni ota degandan uyda it saqlagan yaxshi. Nimangga kekkayib, nimangga kerilasan, farzand uvoli tutkur!

Begona yurtlarda qo'tir itdek sanqib, vatangadolikda xor-zor bo'lib, ko'zlaringga qora tuproq to'lmasa asti rozimasman! Sendek er, sendek ota bizga kerak emas, beting qursin!!»

Qulog'iga guvlangan bedanadek karaxt bo'lib qolgan A'zam bu eshittirishning nima munosabat bilan berilganini anchadan keyin bildi. Bu uning gazetadagi maqolasi va radiodagi suhbatiga javob edi.

A'zam Nafisadan bunchalik gap chiqishini kutmagan ekanmi, yoki aytilgan so'zlar jon yeriga borib tegdimi, tili-ga gap kelmay, gangib qoldi. Nonushtaning qanaqa qilib o'tganini bilmadi, nima yeb, nima ichganini birov so'rasa, aytib berolmas edi. U oyoq osti qilib, tashlab kelgan xotini boshiga chiqib tepkilardi, tepkilaganda ham hech esdan chiqmaydigan qilib ta'zirini berardi. Qani, shu mahal u qo'lga tushib qolsa-yu, «Qani o'sha tilingni ko'rsat desa, sug'urib olib itga tashlasa. Bu ham yetmagandek yerga yotqizib to holdan ketguncha do'pposlasa! Iloj yo'q! Bu ilojisizlik o'tmas pichoq bo'lib uning bag'rini kesardi. «Qanjliq» deb o'rnidan turib ketdi.

Mayor atayin uni o'z holiga qo'yib bermoqda edi: kuysin, yonsin! Qancha ko'proq kuysa, alamga to'lsa undan shunchalik yaxshi foydalanish mumkin. Joni-dili bilan xizmat qiladi. Nafratlanadi, g'azablanadi. Ustiga yuk ortsa keyin g'ing demaydi. «Oh, qani o'z yurtim!» deb nola chekmaydi. Mayor: «Vataningdan butun umidingni uz, uning eshiklari endi senga ochilmas bo'lib taba-langani. Endi bizdan boshqa mehriboning yo'q. Biz esa,

istasak seni ho'kiz qilib qo'shga qo'shamiz, istasak eshak qilib «namiz», deb atayin bu eshittirishni ertalabdan oq olib kelgan edi. Uning oqibatidan mamnun.

A'zam bevaqt ochilib, sovuq urgan sassiq alaf gulidek so'lib tushdi. Imo bilan Simonani xonadan chiqarib yuborgan mayor, A'zamning yelkasiga qo'lini tashladi.

– Hech xafa bo'ladigan yeri yo'q, azizim! Yoshlikda beva qolgan xotinning alami odatda shunaqa achchiq bo'ladi. Yoki qaytib borib, birga yashash umidingiz bormidi?

O'z holatidan nomusga kelgan A'zam boshini ko'tardi:

– Yo'g'-e! – dedi go'yo birov Nafisani zo'rlab qo'yniga solib qo'yayotgandek.

– Demak, nega bunday parishonlik! Keling, azizim, jinday-jinday qilamiz. Buning davosi shu la'nati! – u A'zamni qo'ltiqlab olib, stolga keldi. O'tirayotib to'qidi: – Kecha biz ham xotin bilan adi-badi aytishib qoldik. Nega yaxshilab erkalamaysan deydi. Uxlasam, uyg'otib, «menga qarab yot!» deydi. Unga qarab yotishning o'zi bo'ladimi! Bahor toshqinlari o'tib, kuz kelganidan bexabar. Xotin zoti shunaqa beandoza bo'ladi. Bekorga forslar, «bir xotinning makri qirq eshakka yuk», demagan. Qani, oling! Sog'liq bo'lsin! Qilich bo'lsin, qin topiladi!

Mayor bu gal A'zamning ichishini kutmay ko'tardi. Yana quydi. Qo'liga oldi.

– Ryumkasi buncha kichik. Ichagimda qolib ketdi haligisi. Qani, shuni ham olaylik, keyin dardlashib o'tiramiz. A'zam indamadi. Og'ziga bitta tashlab, zakuska qilish zaruriyatini ham sezmadi. Ikkinchi ryumka chizilab borib, A'zamning miyasiga tepdi. Xotining gapiga chidolmay, alamidan nima qilishini bilmay o'tirgan odam, boshqa olamga kirib bordi. Shu olam uchinchi ryumkadan keyin yana chiroyli ko'rinib, Nafisaning so'zlari bir jaranglab so'ngan aks-sadodek yiroqlashib ketdi. Bir ozdan

keyin butunlay eshitilmay qoldi. Yana bir-ikki ryumka ichganini biladi. Undan keyingisidan xabari yo'q. Bir vaqt ko'zini ochsa, o'rnida yotibdi. Kiyim-boshi naridan-beri yechilgan. Qachon mast bo'ldi-yu, kim keltirib yotqizdi?

Nahotki, mayor! Ko'zi charaqlab ketdi. Irg'ib turib chuvagini kiydi. Hali nima qilishini bilgunicha stol ustiga qo'yilgan xatga ko'zi tushdi. Jon holatida olib o'qidi: «Azizim! Juda yaxshi kayf qilishdik. Ko'nglingiz xijil bo'lmasdan dam oling».

Imzoni tanimadi. Mayorniki faraz qilib, oxirgi jumlada bir gap borligini tushundi. Bo'lmasa nega «xijillik»ni eslatgan?

Uni bu xijolatdan Simona chiqardi. Uning uyg'onganini sezib, kirib keldi-da, ochilib-sochilib tegishdi:

– Juda qiziq mast bo'lar ekansiz. Nuqul kishining ko'kragiga yopishasiz! Ko'krakni shunaqa yaxshi ko'rasizmi? O'ringizga yotqizguncha o'lib bo'ldim.

Mana, buni qarang, lifchigimning tugmalarini uzib yubordingiz!

Bu gap asli yolg'on edi. A'zamni bir xizmatchi yotqizgan edi. Lekin hech narsa esida yo'q, A'zam ishondi. Qandaydir bir xijolat aralash yoqimli his vujudiga yugurdi. Demak, u dilidagini kayfida yuziga chiqaribdi. Bu Simonaga malol kelmabdi.

Malol kelganda avvalambor kirmasdi, kirganda ham bunday zavq bilan ochiq gapirmas edi. Lekin u xafa emas. Uning ham mayli bor ekanu, mening bir imo-ishoramga mahtal ekan. Kayfim bekor ketmabdi.

A'zam Simonaga yaqinlashdi, uzr so'ragan bo'ldi:

– Kayfchilik...

– Boy, nega unaqa deysiz! Binoyday hushyor edingiz. Men jo'rttaga qilyapsiz, deb o'yladim. Biram o'zingizga yarashdi. Xuddi artist bo'lib ketdingiz!

Bu noz-karashma to'la so'zlar hali kayfi tarqalib bo'lmagan A'zamning ko'zini battar tindirib yubordi. Bada-ning allaqayeri jimirlab, Simonaga asta yaqinlashdi:

– Rostdan xafa bo'lmadingizmi? – dedi. Qizdan nido chiqquncha uni bag'riga olib, titrab turgan labini intizor bo'lib turgan qizning qaynoq labiga bosdi. Simonaning qo'li A'zamning bo'yniga chirmashdi.

13

OTA KO'NGLINI OG'RITGAN FARZAND

Teshaboy karvon muzdan sovuq, o'limdan badnom xabarni eshitganda Ishkomda xomtok qilayotgan edi.

Uning qo'polligidan Sadir to'nka laqabini olgan qo'shnisi bor. Qulog'i qo'shnisining eshigida bo'ladigan bu odam mish-mishni hammadan oldin eshitadi, shamolday ko'chada izg'ib, tarqatishni yaxshi ko'radi. Bo'lmasa qulog'i «og'ir», tili «chuchuk». Qo'shnilar yoqtirishmaydi, ayniqsa, Teshaboy karvon. Qachon u bog'iga suv ochib kelsa, yo'ldan bo'g'ib oladi. «O'zing boshlab kelsang bo'lmaydimi!» desa, «Joy haqi olyapman!» deb qiqir-qiqir kuladi. Bir mahal u objuvozxona tutgan, kishilar undan kunjara olishmas, «ziqnaning kunjarasidan mol bahra olmaydi, qotirib yuboradi», deyishar ekan. Ilon yomon ko'radigan giyoh ini og'zida o'sadi» deganday Teshaboy yoqtirmaydigan shu odam uning yon qo'shnisi!

Ana shu Sadir to'nka A'zamning qilmishini kimdandir eshitganda: «Ha, oqsoq chol, qo'lga tushar ekansan-ku!» deb bir yashnab qo'ydi. Shahardan qaytib, uyiga ham kirmadi, xurjunini yo'lakka qo'yib, xotiniga baqirdi:

– Mana buni ol!

– Ha, muncha shoshilinch, yov bosib kelyaptimi? – degan kasalvand xotini inqillab-sinqillab xurjunningi sudraganicha ichkariga olib kirib ketdi.

Sadir to'nka bu mahalda Teshaboyning bog'daligini bilgan, uning oldiga ko'sa soqolini silaganicha lapanglab borardi. Yo'l usti: «Karvonga bu yil ham xudo beribdi, uzumi shig'il», deb ko'nglidan o'tqizdi. Kursi ustida ishkorning tepa tomonini tarashlayotgan Teshaboy o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, Sadir to'nkaning kelganini ham bil-madi.

– Hormang, karvon! – dedi u.

– Bor bo'ling! Keling, qo'shni! Shahardan barvaqt qaytib-siz?

– Shaharda hamyoni do'mboq uzoq yuradi. Bizga o'xshaganning ishi bozorning bir chetida bitadi. Bu Teshaboy karvonga qochiriq edi. Teshaboy ichi qoralikni yomon ko'rardi.

– Noshukur bo'lmang, qo'shni, xudo hammaning fe'liga yarasha beradi!

Kutilmaganda nishonga to'g'ri borib tekkan bu o'q, «Qanday qilib boshlasam bo'lar ekan?» deb turgan Sadir to'nkaga qo'l keldi.

– Bo'lmasa, A'zamjonning ishi ham otasining fe'liga yarasha ekan-da!

Teshaboy bu gapga avval «yana xotini bilan qirpichoq bo'libdi-da, nodon! Hech esi kirmadi-kirmadi-da. Bitta bolalik bo'lganda uyat!» deb parvo qilmadi, faqat ensasi qotib, uzun bir erkak novdani shartta qaychilab, shiddat bilan sug'urib oldi. Shu behosil novda Sadir to'nkaga o'xshab ketdi.

Sadir to'nka fahmladiki, karvon hali bu «qiziq» gap-dan bexabar. Buning ustiga Teshaboy:

– Er-xotinning o'rtasidagi gapni esi yo'q odam ko'tarib yuradi. Er-xotinning urishi – doka ro'molning qurishi! Bugun undoq, ertaga bundoq. Yo o'zingiz farishtamisiz? O'ttiz yildan beri o'tgan yil qulog'imiz tindi!

– O‘zingiz nima deyapsiz, qo‘shni! O‘g‘lingiz kattasini qilib qo‘yibdi-ku!

Teshaboy karvonning toqati toq bo‘ldi. Axir iqing sevmagan kishining so‘zini tinglashdan malol ish bormi?

– Kattasini qilgan bo‘lsa, sizning ishtoningizni bulg‘atdimi! Qo‘yaving, sizga og‘ir-yengilligi tushmasin, o‘zi tozalab oladi.

– Yo‘q, hammamiznikini bulg‘ab ketibdi! Ana shunda Teshaboy karvon o‘g‘lining qayoqqadir chet elga ketmoqchi bo‘lib yurganini esladi. Hali ham ketmagan ekan-da, deb qo‘ydi. «Safarga chiqsa, xayrlashgani kelardi!» degan fikr ko‘nglidan o‘tdi, A‘zam otasi bilan xayrlashmagan, hatto xayrlashish xayoliga ham kelmagan edi.

– Xo‘sh, gapiring, nima qilibdi? – dedi Teshaboy ichi huvillab. «Bu la‘nati to‘nka hamma sovuq gapni biladi. Bir narsadan xabari borga o‘xshaydi», deb o‘yladi karvon. Sadir to‘nka esa, qo‘shnisining ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushganini sezib, atayin javobga shoshilmasdi. «U yerda yotgan xom novdani olib, shartta sindirdi, miltillab chiqqan suviga qarab turdi, nima uchundir, yalab boqdi:

– Shuning nimasi shirin? Ba‘zilar shimigani-shimigan.

– Birinchi xomtokdagisi shirin bo‘ladi. Hozir suvi qochib qoldi, – dedi Teshaboy ham: «Aytmasang, aytma! Xunuk gap – ilonning tashlagan po‘stiga o‘xshagan narsa, ichi bo‘sh bo‘lsa ham etni junjitadi», degandek parvo qilmagan bo‘ldi. Lekin birdan yuragi hapriqib ketdi, eshitmasa bo‘lmaydigandek ko‘rindi.

– Ha, nafasingiz ichingizga tushib ketdi, Sadirvoy, topib kelgan gapingiz paxtavonmid?

– Yo‘q, juda gumburlab otiladigani!

– Oting bo‘lmasa!

– O‘g‘lingiz chet elga qochib ketibdi-ku!

– Nega qochadi, hukumat o‘zi yuborgan.

– Hukumat-ku bu yoqdan yuborsa, yuborgandir, lekin u yoqqa o'tgandan keyin dumini xoda qilib qolibdi. Qayt-mayman debdi.

– Nafasingizni sovuq qilmang, Sadirvoy, oldingizda farzandlaringiz bor.

– Ana, xolos! Hali tuhmat ham dersiz. Teshaboy indamadi. Kursidan tushib, tok qaychisini belbog'iga qistirdi. Yerdan bir quchoq xomtok qilingan ko'm-ko'k novda – barglarni olib, nariroqda turgan eshagi oldiga ketdi. «So'zing o'zingdan battar qo'pol bo'lmay o'lsin. Bekorga el-yurt «to'nka» demaydi seni», degan xayol bilan qo'rg'onga kirib ketdi. Nashvati nok ostidagi hovuzchada asabiylashib yuz-qo'lini yuvdi. Xayolidan «to'nka»ning gapi ketmay qoldi. Tushlikka o'tirmoqchi bo'ldi-yu, kayfiyatiga qarasa, tomog'idan ovqat o'tadigan emas.

Anig'ini bilmasa, tinchimaydigan. Eshagi oldiga tashlanganini yeb bo'lgunicha sabr qilib turdi. Bu orada xayoli gadoy topmas ko'chalarga kirib chiqdi. Nega o'g'li qochadi? Bo'ynida biror illati bormidi? Qochganda kimdan qochadi, nimadan qochadi?

Boshi xunuk boshlangan bo'lsa ham, so'nggi vaqtda xotini bilan tuzuk edi. Keyin xotinidan noliydigan yeri yo'q. O'tli-shudli, tish-tirnoqli. Unga shunaqa xotin bo'lmasa ham, biri ikki bo'lmaydi. Kelinim bechora yaxshi juvon. Yaxshiligidan uning zug'umini ko'tarib, tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirib o'tib kelyapti. Bu vaqtda bunaqasi kam. Boshqa bo'lganda etagini boshiga yopib qo'yardi. Xo'sh shunday bo'lgach, A'zam kimdan qochadi? Yo idorasida chalkash ishi bormidi? Chalkash ishi bor odamni hukumat chetga o'zi chiqarmasa kerak. Yo'q, gap boshqa yoqda. Birortasi uni yo'ldan urgan. Oltinni ko'rsatib, jezni qo'liga tutgan. Unday desa, ko'zi ochiqqina bola. Arpa bilan bug'doyning, qatiq bilan qaymoqning farqiga boradi, falon yil o'qigan.

Kirar aqli kirib, chiqar aqli chiqqanda bu nima qilgan ishi? Yo'q, buning bir balosi bor! Teshaboy, yoshligidanoq ot-aravaga yetolmaganidan eshak arava mingan, kimningdir zaharxandasi bilan «karvon» laqabini olgan chol shoshib eshagini egarladi. Xalacho'p ham esidan chiqib, uni eshikka yetakladi. Erining avzoyini ko'rgan xotini muloyimlik bilan:

– Tinchlikmi, dadasi? – dedi.

– Tinchlik! Tinchlik! Bolalaringga ayt, ishkomdagi xomtoklarni yig'ishtirib olsin. Qo'yga ko'p bermasin, ichini shilib ketadi! – deganicha Teshaboy eshakka mindi. U har yili kech bahorda bir eslik qo'zi olib, yozi bilan boqadi. Qishga so'yib, yog'ini xumchaga bosib, go'shtini tuzlab osardi. Juft qilib boqishga qurbi yetmas, har bahor A'zamga: «jon bolam, bitta qo'zi olib ber, kuzgacha boqib, qishingga so'yib beraman. Yaxshi bo'ladi», deb yalinar, o'g'li esa, nazar-pisand qilmagandek kulib qo'ya qolardi.

«Bolaning esi kech kirdi. Ba'zilarnikiday ishga qovu-shimgina emas. Boyvachcharoq. O'tdagi cho'pni bo'tga olib qo'ygisi kelmaydi. Gap-so'zda ham kalondimog'. Kimga o'xshadi? Jiyan tog'asiga tortadi, deyishadi. Tog'asi rahmatlik mehnatning oshini shirin bilardi, haromdan hazar qilib, yegulik xo'rlik keltiradi, deb yurardi. Bu o'zi alohida chiqdi. Hech kimga o'xshamadi. Qachon ko'rsang dimog'idan qor yog'adi, nimadandir nolafig'on. Hammadan norozi, hamisha ko'ngli o'ksik. Tavba, kishi ham shunaqa bo'ladimi! Shukur qil, kimdan kamliging bor? O'qiyman deding, o'qiding, injener bo'laman, deding, bo'lding. Yana nima kerak senga. Birovdan oldin, birovdan keyin bo'lib yashayver. Noshukur banda! Bo'z ko'ylak kiyganmiding, eting qichiydi! Chakagi uzilgan kavush kiyganmiding, oyog'ingdan suv o'tadi! Kiyganing

ipak, yeganing oq non! Yana nima kerak senga? Shoh bo'lib taxtga o'tirmoqchimidig, nodon bola!»

Shunday o'ylar bilan Teshaboy o'g'liniklga yetib kelganda Nafisa uyda edi. Kechadan beri uning tobi yo'q. Buni ota o'zicha tushundi: «To'nkaning gapida jon borga o'xshaydi, kelinni g'am yiqitibdi». Qarshisiga peshvoz turmoqchi bo'lgan kelinini joyidan qimirlatmadi. O'zi uning yoniga, divanga yaqin o'tirdi:

– Urinmang, kelin! – dedi va fotihaga qo'l ochdi.

– Xudoyo, yomon kundan, quruq tuhmatdan o'zing asra!

Nafisa qaynatasining kayfiyatidan darrov bildiki, u voqeadan xabar topibdi. Nafisa esa, atayin: «Noxush xabarni kech eshitgan yaxshi. Harna besh-o'n kun tinch bo'lgani!» deb unga ma'lum qilmagan edi. Undan keyin, nima deb aytishni ham bilmadi, A'zam ba'zi o'g'illardek otasiga mehribon ham emas: oyda-yilda bir boradi. Garchand, qaynatası ba'zi kishidek kek saqlab, «yaxshi kuningda xayolingga kelmasdim, boshingga yomon kun tushishi bilan uchqunning uchida uchib keldingmi!» deydiyan bo'lmasa ham, baribir Nafisaning yuzi chidamadi. Lekin shu qilgan ishidan hozir lohas tortdi.

Nafisaning qayg'u-alam tubigacha cho'kkan ma'sum ko'zlari bilan qaynataning hamon gumon xayollari qalqib turgan sernam ko'zi to'qnashdi.

– Shu rostmi, kelin? – dedi Teshaboy izohlamasdan.

– Rost!

Ota birdan bo'shashib tushdi. Hamon gumon bo'lib turgan qayg'u yuki uni cho'ktirgan edi. Ko'ziga jiqqa yosh to'ldi. Tomirlari o'ynab ketgan, kaftlari tosh-metin qo'li titrardi.

– Nodon bola! – dedi u ko'zini chirt yumib. Yosh tomchilari qorasidan oqi ko'p bo'lgan soqoliga ketma-ket to'kildi.

Nafisa o'rnidan turdi. Bu gal ota indamadi... Nafisa termosdan issiq choy quyib, unga uzatdi. Teshaboy titragan qo'llari bilan uni olib, arang bir ho'pladi.

Xona pashsha uchsa eshitalgudek jimlik. Tashqarida chumchuq bolasini ilonga oldirgandek chirqillaydi. Ana, tramvay g'iyqillab o'tib ketdi. Yana jimlik. Nafisaning qulog'i shang'illab ketdi. Teshaboy beixtiyor qult-qult choy ichadi. U birpasda qora terga tushdi. Belbog'iga ikki o'rab qo'ygan kattagina dastro'molini olib, peshanasini, bo'ynini, yuz-ko'zlarini artdi. Keyin to'mtoq soqolini uzoq asabiy siladi.

– Nega bundoq qilibdi, bilmadingizmi?

– Yo'q.

Nafisa qisqagina qilib aytib berdi.

– Nodon bola! Yomonning to'rida bo'lgandan yaxshining go'rida bo'! – salmoqladi ota. – Nodon bo'lmasang, xashak yoqib o'tirgandan o'tin so'raysanmi! Noshukur banda, vatangadolikni havas qildingmi?!

Dushman uyida non ham zaharli ekanini bilmasmiding! Nafisa nima deb qaynatasiga tasalli berishni bilmasdi. U yaxshi biladiki, nima desa ham befoyda. Keksalikda farzand yo'qotish, yozda shox kesish – o'rnini to'lmaydi! Shuning uchun u ham yarası yangi bo'lib, boshini quyi solganicha o'tirdi.

O'tirsa o'rnini, yursa yo'li kuyayotgan Teshaboy yana bir oz ko'z yoshi qildi-yu, o'rnidan qo'zg'aldi.

– Kelin? Bu – ko'rgilik. Elga qo'shilib, er bo'lolmay, eldan ajralib qaro yer bo'lgani shu!

Oyog'im sag'ana toshini bosib turganda menga bir kamı shu hasrat edi! Juda, juda ortiqcha bo'ldi. Attang! Attang! Bola juda qisqa o'ylabdi. Otaning ko'z oldiga shaharda yuradigan bir hind keldi. Bir vaqt yurtidan kelib

qolgan kimsasiz bu odam, qachon ko'rsang, bo'ynini egib yurardi. Hujrasida o'lib qolganini hech kim bilmabdi. «Bechora g'arib ko'rinmay qoldi», deb qo'shnilari xabar olgani kirishsa, u allaqachon hidlangan ekan.

Shu hind, uning nazarida, o'g'liga o'xshab ketdi. Butun badanini sovuq ter bosdi. Endi u bir yerda turolmay qoldi. Ketishga otlandi. Eshikdan tetik kirgan Teshaboy inqillab chiqib, arang eshagiga mindi. Uning kuchi go'yo uzilib bo'lgandi. Eshakning boshini ko'chaga burar ekan, «Yog' ichida yayramagan essiz bolam», deb qo'ydi.

... U dovdirab qo'rg'onchasiga kirdi-yu, xotini «Hoy, dadasi, sizga nima bo'ldi?» deb, so'ragunicha ayvon chetiga yiqildi. Shu yotganicha, «Ana ketdi, mana qaytdi», bo'lib bir oycha yotdi. Doktor chaqirmoqchi bo'lishgan edi. «Dardimning doktorlik ishi yo'q», deb rozilik bermadi. Bir-ikki alahlab A'zamni chaqirdi. Bu alahlash xunuk tusga kirgach, azbaroyi yurak-bag'ri ezilib ketgan xotini yolg'on bilan bo'lsa ham uni tinchitmoq niyatida bir o'g'lini «Mana, dadasi, A'zam keldi» deb ko'rsatdi. Teshaboy charaqlab ko'zini ochdi-yu, uni tanimayotgan kishidek tikilib qoldi, keyin birdan labini burib, teskari o'girilib oldi. «Unga o'xshatmadi», deganicha bechora xotin doka ro'molining uchini asabiy himarganicha o'choq boshiga o'tib ketdi. O'sha tomondan:

– Ha, noqobil farzand, otangni qiynab qo'yding-a! – degan tovushi keldi.

Tushdan keyin Teshaboy ancha o'ziga keldi. Rayhon kertilgan suyuq oshdan bir-ikki qoshiq ho'playotgan edi, eshik taqillab, uch-to'rt qo'shnisining hol so'ragani kelgani ma'lum bo'ldi.

– Kiraverishsinmi? – ijozat so'radi xotini. Teshaboyning ko'ngli behuzur bo'lgandek chakkasi tirishib, ko'zi qisildi. Ovqatni bir chetga surdi.

– Qaysi ko‘zim bilan ularning yuziga qarayman, xotin. Mening kasalim nomus kasali! – dedi u arang va yostig‘ini to‘g‘rilab, ustiga choyshab tortdi. Go‘yo bu bilan kimlardandir yashirinmoqda edi. Buni payqagan xotini, kelganlarga:

– Tuni bilan mijja qoqmay, haligina mizg‘igan edilar, uyg‘otishga... – deb yolg‘on bahona ko‘rsatdi. Yaxshi niyatli bechora qo‘shnilar: «Unday bo‘lsa, asti bezovta qilmang», deyishganicha qaytib ketishdi. Umrida bировga yolg‘on gapirmagan xotin eri qoshiga qaytgach, eshik taqillaganda olib qo‘yilgan ovqatni Teshaboyga uzatmoqchi bo‘ldi.

– Kerakmas, xotin, ishtaha qoldimi! – dedi Teshaboy xotiniga rahmi kelgan bir yo‘sinda. Xotining kifti osha nok shoxida qanotlarini pirpiratib turgan bolasining og‘ziga ovqat solayotgan chumchuqqa bir oz tikilib turdida, keyin salmoqladi:

– O‘lim haq, xotin. Ertami-kechmi olib ketadi. Hech kim bu dunyoga ustun bo‘lmaydi. Lekin armon bilan, yuzi shuvutlik bilan ko‘z yumadigan bo‘ldim...

– Unday demang, dadasi, zora insofga kelib, A‘zamjon qaytib qolsa.

– Oh, xotin, sopol kosaning sinig‘i kimga kerak. Shu gap sabab bo‘ldimi, yoki nokdagi chumchuqning qanotlarini pirpiratib turgan bolasining og‘ziga ovqat solishi sabab bo‘ldimi, Teshaboyning ko‘z oldiga A‘zamning bolaligi keldi. Ana u samovar cho‘g‘i tushib, bir necha joyi kuygan rangsizgina kigiz ustida emaklab yuribdi. Birdan uning ko‘zi kigiz yirtig‘idan ko‘rinib turgan bo‘yra titig‘iga tushdi. Jajji qo‘llarini noumidgina tiqib torta boshladi. Qarab turgan otaning joni-poni chiqib ketdi, darrov uni ko‘tarib qo‘liga oldi: «Hoy, bolam, qo‘lingni qiyib ketadi, buning dami pichoqnikiidan o‘tkir-a!»...

5–6 yoshlarda edi shekilli, A'zam juda qattiq og'ridi. Ko'rsatmagan tabibu, qilmagan irim-chirim qolmadi. Ikki marta ko'chirib qilib, bir marta jo'jaxo'roz quchoqlatib o'qitdi – bo'lmadi. Allaqaysi avliyoning mozoriga opichlab olib-borib keldi – bo'lmadi.

O'shanda bir ko'sa tabibning dovrug'ini eshitdi: «O'g'lingni tuzatsa, shu tuzatadi. Duo ham o'qiydi – nafasi o'tkir! Lekin noinsofning nafsi g'olib, uncha-bunchani ko'rdim demaydi. Kalondimog'», deyishdi. Dunyo ko'ziga tor ko'rinib turgan ota: «Jon so'ramas ekan-ku, pul bilan bo'ladimi?! Imonimdan boshqa hamma narsani sotishga hozirman! O'zi qayerda turadi?» dedi. Azroil jon tala-shib turganda otaning ko'ziga mol-dunyo ko'rinarmidi: yelin solib turgan bitta-yu bitta bo'g'oz sigirini olib chiqib arzon-garov sotdi. Pulini beliga tugib, o'g'lining dardiga shifo topadigan o'sha tabibni qidirib ketdi. Aksiga olib, tabib ulfatlari bilan bir o'rtog'ining dalasiga qovun sayliga chiqib ketgan ekan.

O'sha kuni tun og'guncha kutdi, oxiri bo'lmagach, ertalab uning xotinidan qayerdaligini surishtirib, taxmin bilan yo'lga tushdi. Adashib-uloqib endi topib borganda, bundan bir soatcha burun qaytib ketishganini bildi. Zud bilan orqasiga qaytdi.

To u shaharga yetib kelguncha tun tushdi, ancha vaqt bo'lib qoldi. Ming bir istihola bilan tabibning eshigini qoqqan edi, mehmonxonasida yotgan tabibning o'zi yelkasiga chopon tashlab, sarpoychang chiqib keldi. Yupungina kiyingan kishini ko'rib ensasi qotdi:

– Ha, buncha yarim kechasi kelmasang, Azroil eshing turmini sug'urib olyaptimi!

– Taqsir...

Teshaboyning iltijosi yerda qoldi.

– Ertalab kel! – degan tabib eshikni Teshaboyning yuziga tarsillatib yopib kirib ketdi. Tabibning bu kalondimog'ligi Teshaboyga qanchalik malol kelgan bo'lmasin. uning ko'ziga arzanda o'g'lining joni ko'rinib, chor-nochor ta'zim bilan:

– Xo'p, xo'p, taqsir! – dedi, xolos.

Endi qayoqqa boradi! Bog'iga borish o'zi bo'ladimi! Bo'g'in-bo'g'inlari zirqirayotganini endi bildi. Bordi-qaytolmaydi. «Tong otib qolar, ana ufq oqarinqiradi», degan umid bilan shu atrofda goh o'tirib, goh yurdi. Qarasa, tizzalari zirqirab, kuni bilan yelib-yugurganlari endi o'zini bildiryapti: tez-tez esnaydi, har esnaganda ko'zi yoshlanadi, eti uvushadi. Bu ahvolda tong otirishiga ko'zi yetmay qoldi. Salgina mizg'ib olish niyatida joy qidirdi. Bir choyxonaga kirgan edi, kuni bilan ıvırsib ketgan choyxonasini saranjom-sarishta qilayotgan choyxonachi mehribonlik qilib, oldiga choy qo'ydi-yu, bu yerda yotish man etilganini yotig'i bilan tushuntirdi. Och qoringa achchiq sarımsoqdek tuyulgan choydan bir piyolasını cho'zib ichgan Teshaboy, choynakni o'zidan sal narı surib, boshqa bir joy topish umidida qo'zg'alar ekan, yana choyxonachining o'zi joniga ora kirdi. Uning qayerdanligini, nima vajdan tun kechasi ovora bo'lib yurganini narıdan-berı surıshtırmadı-da, uyiga olib ketdi... Teshaboy ertalab choyxonachining: «Zahar bosdi qilib, bir burda non tishlab keting», deyishiga ham qaramasdan: «Yana bıror yoqqa ketib qolmasın, o'zi serzardagina ekan», deganicha tabibnikiga chopdi. Tabib azon namozidan qaytmagan ekan. Kutdi, besabrlık bilan kutdi. Bir-ıkkı qarı-qartang o'tdi-yu, u qaytmadı. Yana bezovtalandı. Tabibning xotınını chaqırıb: «Bıron yoqqa o'taman demovdılarmı?» deb surıshtırdı. Eshık orqasıga kelgan xotın uning ko'nglıga dalda berısh o'rnıga: «Ba'zan

o'shanaqasi u yoq-bu yoqqa ketib qolish odatlari ham bor», deb yonib turgan yuragiga moy quydi! «Xudo urganni payg'ambar hassasi bilan turtadi» deganlari shu, deb tarvuzi qo'ltig'idan tushgan Teshaboy ko'chaning narigi betiga o'tib, terakka suyanib o'tirdi. Xo'rliги kelib, yig'lab ham oldi. Yo'q, bu intizorlik uzoq cho'zilmadi. Bir mahal tabib ko'sa soqolini ertalabning yumshoq yelida serkillatib, Teshaboy kutmagan tomondan kelib qoldi. Teshaboyning qo'l qovushtirib bergan salomiga labining chetidagina alik oldi. Uning arzini chala-chulpa eshitib, «Olisdan mushtoq bo'lib kelibsan, bo'lmasa bormasdim», deb o'z qadrini oshirganicha uyiga kirib ketdi. Orqasidan ming tasadduq bo'lib, ikki bukilib qolgan Teshaboyning ko'zi u kirib ketgan eshikdan uzilmadi. Bir mahal tabib to'rig' otini yetaklab chiqdi, yo'lkaga to'g'rilab, chaqqon mindi, yo'lga tushdi. Teshaboy unga ergashdi. Otga yetib yuraman, deb otaning o'pkasi uzildi. Lekin tabibni olib ketayotganidan benihoya xursand edi. Go'yo shu tabib o'g'lini bugun ko'radi-yu, ertaga u toychadek dingillab yurib ketadi. Shunda bu tortgan azoblarining barchasi unut bo'ladi!

Baribir «mashhur ko'sa tabib» bir necha bor qatnasa ham, A'zamning dardiga em bo'lolmadi. «Bu yog'i Ollohning qo'lida» deganicha ketini uzdi-qo'ydi. «Ha, endi, o'g'lim Ollo taoloning o'ziga kerak ekan, tuzalsa shu vaqtgacha oyoqqa turib ketmasmidi» deb umidini uzib, taqdirga tan berib, parhezni buzib «o'g'lim ko'ngli turganni yeb ketsin» deb turganda hol so'ragani chiqqan, temir yo'lda ishlaydigan bir qo'shnisi: «Bolaga jabr bo'lib ketibdi-ku, gojlik qilmang, kasalxonaga yotqizing», deb maslahat berdi. Yolg'iz o'g'li uchun o'tga kirishga rozi bo'lib turgan ota: «Bizga o'xshagan hukumatda ishlaymaydiganlarga kasalxona qayoqda», deb bo'shashib tushdi. «Bu yog'ini o'zim to'g'rilayman» degan qo'shni

shu kuniyoq A'zamni temir yo'lchilar shifoxonasiga olib ketdi. Orqasidan yig'lab qolgan Teshaboyning bir oyog'i kasalxonada, bir oyog'i bog'da bo'ldi. Ko'nglida umid uchqunlari paydo bo'lgan bo'lsa ham hamon bir narsaning andishasida tunlari uyqusi buzilardi: o'g'li kasalxonada o'lsa, qornini yorsa... Nomus! O'zi-ku, ko'rinib turuvdi! El-yurt nima deydi? Ey, attang! Shunday bo'lsa ham «Chiqmagan jondan umid» deb, tiq etsa qulog'i kasalxonaning eshigida, ko'zi oq xalat kiyganlarning yurish-turishida! Yo'q, otaning umidi puch chiqmadi. Bir hafta o'tgach, A'zam oriqlaganidan xunuk bo'lib ketgan kavushdek og'zini ochib kuldi, bir oyachadan keyin oyoqqa turdi, «Dada!» deb uni quchoqladi. Ana shunda Teshaboyning quvonganlarini ko'rsangiz!

Ana shularni o'ylab turib Teshaboy o'zicha yakun yasadi: «Ey, attang, o'shanda bir narsa bo'lib ketgandayu, shu nomuslar yo'q edi. Bunaqa betavfiq farzand chiqadigan ekan, o'shanda buncha kuyib-yonmasam! Ollo taoloning o'zi bilib, mening tashvishimni kamaytirayotgan ekan-ku, men gumroh noshukurlik qilib, o'zimni azroil og'ziga qopqoq qilgan ekanman! Mana oqibat! Ey, attang! Ha, nodon bola! Ha, yaxshilikni bilmagan noshukur banda! Gilos deb cho'g' changallab yuribsan-a!!»

Teshaboyning ko'ziga yosh qalqdi. Uzoq «uh» tortib, shu bir-ikki hafta ichi oppoq oqarib ketgan soqolini tutamlab siladi. U ham kuyib, ham g'azablanardi!

Teshaboy shu yotganicha chillaki oxir bo'lib, husayniga ta'm kirganda boshini ko'tardi. Emaklab boqqa chiqdi... Lekin baribir asli holiga qaytib kelmadi. Unar-unmasga ko'zi yoshlanib, salga charchaydigan bo'lib qoldi.

– Aso tuting, Teshaboy, belga darmon bo'ladi! – deyishdi yoshi ulug'roqlar.

U aso tutdi. Biroq aso beliga quvvat bo'lmadi!

SAMOLYOT KASHF ETILGANDA TUG'ILGAN ODAM

Ummatali xotining yomon yo'lga kirib ketishini oldindan bilgandek uyga sovuqqonlik bilan kelgani yaxshi bo'lgan ekan. Bo'lmasa, xudo ko'rsatmasin... Qaysi erkak xotining o'ynashi ustidan chiqib qoladi-yu, to's-to'polonsiz: «Beting qursin, cho'l qurbaqa!» deganicha qaytib ketadi! Bu jur'atiga Ummatalining o'zi ham ancha vaqt qoyil qolib yurdi!

Xotining bu bevafoqligi Ummataliga qancha alam qilmasin, uning qancha uyqusini qochirmasin, o'sha kechasi A'zamlarnikida yotib qolganidan keyin uyi tomonga o'tmadi. Qimmatxon ham dumini kesgan odamdand qochgan laychaday u yurishi mumkin bo'lgan ko'chadan chetlab o'tadi. Ummatali o'sha kuni ertalab A'zamlarnikidan to'g'ri Qishloq xo'jalik vazirligiga chiqib bordi. O'zining kelganligini ma'lum qilib, ish so'radi.

– O'sha o'z sovxozimga! – dedi. Ummataliga alam o'tgan yeri bor: modomiki, o'sha yerda «allakim»ning me'dasiga botmay, yomonga chiqqan ekan, o'sha yerda ishlab o'zini ko'rsatmoqchi. Tili yoki qo'li bilan bo'lmasa ham ana o'sha «allakim»dan o'ch olmoqchi.

Qanaqa qilib o'ch olishni kamerada yolg'iz o'tirganda rosa rejasini tuzgan. Agar shu rejasini ro'yobga chiqara olsa, marra uniki. Hech qanday «allakim» uning mushugini «pisht» deyolmaydi.

Lekin vazirlikdagilar uning iltimosini inobatga olishmadi. O'zini yaqin tutgan rahbarlardan biri uni bir chetga chaqirib oldi.

– Menga qarang, Ummatali, aybingiz bekor bo'lgani bilan, amalidan bekor bo'lmaganlar bor. Ular sizning

yo'lingizdagi toshni «eh nima qilib yotibdi bu» deb olib tashlasha qolmaydi. Balki yanada ko'ndalangroq qilib qo'yishlari mumkin. Tarki odat amri mahol degan gap bor. Yoshlik qilib «Sovxozim! Sovxozim!» deyavermang. U yerda nima qilasiz? O'ch oladigan odamingiz bormi?

Ummatali ochig'iga ko'chdi: – Bir ishlab...

– Hamma yerda ham ishlasa bo'ladi. Cho'g'dek yerda yiltillab yotmasdan, yulduz bo'lib osmonga chiqsangiz barcha ko'radi. O'sha siz o'zingizni ko'rsatmoqchi bo'lgan raqibingiz ham ko'radi. Yaxshisi, tuzuk bir sovxozga tavsiya etaylik. «Xo'p!» dengu, jo'nab keting. Mayda gap ko'paymasin. Ummatali ajablandi, hayrat ko'zlarini suhbatdoshiga qadadi:

– Yana qanaqa gap bo'lishi mumkin?

– Hali ham soddasiz...

Lekin suhbatdoshi uning soddaligi nimadan iborat ekanini izohlab o'tirmadi. Balki, lozim topmadi. Kuldonga papirosining kulini qoqar ekan:

– Kelishdikmi? – dedi. Uning ko'zlarida «o'pqonga o'zingni tashlab nima qilasan! U sovxozda jo'jang tovuq bo'lmaydi. Mening gapimga kiraver. Men senga yomonlik ko'zlayotganim yo'q. Tezroq qaddingni rostlab olasan. Kecha qamoqdan kelasan-u, bugun orqangni silaydigan hamma yerda topila qoladimi? Rozi bo'laver!» degan samimiyat porlab turardi.

Ummatali uning ko'zlaridan bu ma'noni o'qiy bil-magan bo'lsa ham, ko'nglini olib, yaxshi gapirib turgan odamning zidiga borishni o'ziga ep ko'rmadi. Yuragi uzil-kesil chopmasa-da:

– Mayli! – dedi ohista.

– Mana bu boshqa gap. O'g'il bola degan mana bun-day bo'ladi! – suhbatdoshining chehrasi ochildi. Papirosini uzun bir tortib, yuz-ko'zlarini tutunga ko'mdi. Halqa bo'lib

yuqoriga ko'tarilayotgan tutunga qo'li bilan yo'l chizib, qo'shib qo'ydi, – shuni esdan chiqarmangki, do'stim, hamma ko'cha asfaltlangan emas, kishi qoqiladiganlari ham bor. Ko'zingizga qarab yuring. Sizni to'g'ri yo'ldan toydirganlar osonlik bilan jon berib, «xato qilgan ekanman» demaydi. Ilojini topsa, hali ham o'zining «haqligini» isbotlaydi.

Ummatali ichida «nahotki...» dedi-yu, tili bilan o'z fikrini bildirishga jur'at etmadi: bu odam bilmasdan bir narsa demaydi. Ming qilganda ham yuqori-da, uzoq-uzoqlar unga ko'rinadi. Suhbatdoshi papirosini kuldonda ezib o'chirib, o'rnidan turdi. Ummatalining qo'lini oldi.

– Havo endi tozalanyapti, do'stim! – dedi va ikki kundan keyin xabar olishini maslahat ko'rdi. Ikki kun o'tkizib kelganda uning kabinetida ellik yoshlar atrofidagi to'ladan kelgan, kalta bo'yin, tepakal boshini ustarada qirdirgan, qalin ko'zoynakli rangpargina bir odam o'tirar edi. Rahbar Ummataliga ko'rishgani qo'lini cho'zar ekan:

– Tanishing, siz boradigan bog'dorchilik sovxozining direktori o'rtoq Azimxo'jayev Alixo'ja Saidovich, – dedi.

«Buncha dabdaba qilmasang!» degandek Azimxo'jayev miyig'ida kuldi va Ummatalining qo'lini qattiq siqdi. Uning qarashida, «Ha, senmiding, boyadan beri do'stim ta'rifingni qilib o'tirgan lochin. Men senga o'xshagan to'pori ishchilarni yaxshi ko'raman. Xotirjam bo'l, menda qoqilmaysan», degan ifoda bor edi.

– Yaxshi, – dedi Azimxo'jayev uzun suhbatga qisqa yakun yasagandek rahbar do'stiga, – boshqa gapingiz bo'lmasa biz ketdik.

Rahbar o'rnidan turib:

– O'zingizdan qolar gap yo'q, – dedi Ummataliga oq yo'l tilab, xayrlashar ekan, qo'lini qo'yib yubormay turib. – Bu kishining etagini mahkam tuting. Kalxatga oldirmaydi. Ho, aytganday... shaxmat o'ynaysizmi?

- Ha.
- Domino-chi?
- Uncha-muncha.
- Unda juda topishibsizlar!

Bu savol-javob Azimxo'jayevga juda kor qildi shekilli kulib yubordi. Buning sababi bor edi, albatta. U shaxmat o'ynab zerikmaydigan, dominoga suyagi yo'qlardan edi. Kabinetida shaxmat saqlab, mashinasida domino olib yuradi. Bo'sh qoldi sovxoz klubiga kirib, to ketma-ket bir necha marta qolgunicha yoki qorni ochib, holdan tolguncha terlab-pishib o'ynaydi, qirilgan tepakal boshi terdan yiltillab ketadi. Lekin ishqibozligiga yarasha uquvi ham bor: uncha-bunchadan qolmaydi. Tez yuradi. Uzoq o'ylaydigan bilan yurganini qaytib oladiganni yomon ko'radi. «Devorning tagida qolyapsanmi, qani yur!» deb g'ashiga tegadi. U tufayli sovxozning yarmi shaxmatchi! Eng avj olgan to'garak ham shu. Dominoni-ku sovxozda u rasm qildi. Sovxozga direktor bo'lib tayinlangan kuni-yoq o'zi bilan ikkita domino olib keldi. Bundoq qarasa, dardkash yo'q. Darrov bir-ikkita ishqibozni ishga soldi. Bu yog'i o'zi bolalab ketdi. Lekin baribir, dominoda unga teng keladigani kam.

– Xilvatda bir-biringning payingni qirqqandan, oshkor mana buni o'yna. Gazeta o'qi, radio tingla, – dedi u. Bu bilan «men kelguncha bo'lgan tarafkashliklaring endi ketmaydi» demoqchi edi. O'zi esa, mayda gapni yomon ko'radigan, yuragida kiri yo'q ochiq odam. Hazil-mutoyibaga moyil. Ba'zan eng qiyin ishlarni ham qiziqchilik bilan bitkizib ketadi. U ana shu shirin so'z va ochiqligi bilan yutdi. Oyog'iga yel tushgan otdek oqsab qolgan sovxozni hademay oyoqqa qo'ydi. Bugun ilg'orlar sanalsa, bukilgan barmoqlar hisobiga kiradi. O'zi ham tunni tun, kunni kun demay ishlaydi. Bo'limma-bo'lim

yurgani-yurgan. Har masalani o'sha yerning o'zida shart-ta hal qilib ketaveradi. Unar-unmasga odam to'plashni iqi sevmaydi. Duch kelgan yerda jinday ovqat qilib, bir juft shaxmat yoki domino bilan hordig'ini chiqaradi, shunda ham ba'zan ish yuzasidan gaplashaveradi. Har sovxoz ishchisining to'yida maslahatdoshi bo'lganday azasida ham u hozir-nozir. Kattadir-kichikdir ko'tarishib mozorga boradi.

– Bizning direktorimiz asil chiqdi, – deb birortasi hazil aralash xushomad bilan oyog'i ostiga g'isht qo'yimoqchi bo'lsa, darrov burib ketadi:

– Asil bo'lganda qandoq! Bu yog'im Opoqxo'jaga, u yog'i Turkiston buvaga borib taqaladi, Sanoiy shajarası aniq, hatto surati bor xo'jalardanman. Shu bilan xushomadgo'y o'ladi. U uch narsani o'lguday yomon ko'radi: yolg'onchilik, dangasalik, xushomad? «Umr dono uchun juda qisqa, tanbal uchun keragidan ortiq uzun! Odam bo'lsang shu qisqasini tanla!» deb matal o'qiydi.

U sovxozga kelganda, «Soyaga o't, desa, soyaning o'zi kelsin!» deydigan kishilar o'rtasida «Ober-tanbal» laqabini olgan bittasi bor edi. Shu vaqtgacha hech kim uni ishga sololmas edi. Nima qildi-yu, shuni Azimxo'jayev o'mrovidan oldi, zag'cha bolasiday qo'lga qo'ndirdi. Sal o'tmasdan u: «Falon ishni bundoq qilsak, qandoq bo'larkin, birodarlar?» deydigan bo'lib qoldi. Buni ko'rgan bir dono keksa:

«Abutanbalniki (u «ober» so'zining ma'nosiga tushunmasdi) direktor o'z pashshasini o'zi qo'riydigan qilibdi, sovxozning yag'riniga oftob tushadigan bo'lgani shu!» – dedi.

Xayrlashayotib Ummataliga «Bu kishining etagini mahkam tuting!» degan rahbar Azimxo'jayevning ana shu ishlaridan xabardor edi. Uni trestga ko'tarishmoqchi

bo'lishganda: «Qo'yinglar, sovxozga ham shunaqa Af-
lotun kerak», deb rozilik bermadi. Azimxo'jayev eshitib,
ko'ngli olinmasin degan andisha bilan uning o'zini an-
davalab qo'ydi: «Avvalambor, siz dalabopsiz. Onangiz
saratonda o'rikning tagida tuqqan. Qolaversa, shaharda
shaxmat bilan dominoni sog'inib qolasiz. Yoki siz ham
soat besh bo'ldi, uyga chopib, yangam bilan o'ynaydigan
qilasizmi?

...Ular ko'chaga chiqdi. Shofyor mashinasi yonida
cho'p sindirib o'tirardi, Azimxo'jayevni ko'rishi bilan qo'li-
dagi cho'pni uloqtirdi.

– Yana eski qilig'ingga ko'chibsanda! – dedi
Azimxo'jayev «Gaz» mashinasiga o'tirayotib. Shofyor
Nortoyning cho'p sindirish odati bor. Buni Azimxo'jayev
yomon ko'radi. «Mashinaga bitta kitob solib qo'y, bo'sh
qolsang ermak qilasan. Lekin bu devona qilig'ingni
qo'y!» deb dakki bergani-bergan. Tarki odat amri mahol,
degandek...

Mashina yeridan qo'zg'algach, Azimxo'jayev shofyorga
yuzlandi:

– Yana nima ishimiz qoldi?

– Tuflini olsangiz, tamom.

– Yaxshi esga solding. O'shoqqa hayda! – keyin u
Ummataliga qaradi, – to'g'ri chiqib ketaveramizmi?

Yoki sizning biror ishingiz bormi?

– Ishim yo'q... yana tusharman. Shaharga mashina
bo'lib turar.

– Albatta. Bola-chaqa bormi?

– Bor, – dedi Ummatali. Dostonini boshlagisi kelmadi.

– Ko'chirib chiqasizmi?

– Yo'q.

– Nega? Shaharbopmi? – g'ashi kelgandek so'radi
direktor.

– Shahar emas, qishloqqa ham mos emas.

– Tushunmadim.

Ummatali kulgiga oldi:

– Shunaqa: tuyaqush. Tuya bo'lib tuyamas, qush bo'lib qush emas.

– Qo'shmijoz deng!

– Shunday.

Azimxo'jayev o'zini zo'rlab kulayotgan suhbatdoshining yuragida ancha-muncha dardu hasratlari borligiga fahmi yetib, elburutdan uning dostonini varaqlamay qo'ya qoldi. Kishining oilaviy hayotida nimalar bo'lmaydi!

U boya Ummatalining shaxsiy delosi bilan tanishib chiqqan edi. Garchand, unda ko'zga ilinadigan biror ishkal narsa payqamagan bo'lsa ham, hozir uning go'shti qochgan rangpar yuzlariga, bevaqt oqara boshlagan chakka sochlariga qarab o'tirib, ancha narsani anglagan bo'ldi. Moyli chelak sirtidan ma'lum degandek uning dardu hasrati, orzu armoni, nohaq ezilgan yosh qalbi xomush ko'zlarida ko'zgudek aks etib turardi. Bu ko'zlarning tubida qancha-qancha bevaqt toptalgan orzuning alamlari, nohaqlik tuhmatining aslo esdan chiqmas iztiroblari, haqiqatni aytib, tushuntirilmagan onlarining qiynoqlari xarsang tosh bo'lib cho'kib yotibdi, shu bilan birga dunyoda falokat, dahshat, balolar naqadar kuchli bo'lmasin hayot ishqidan ming bor qudratliroq bo'lganidek, bu ko'zlarda yashash va yashartish zavqi, haqiqat va istiqbolga ishonch kuchi, yorqin ufqlarga intilish ishtiyoqi, shu ishonch va ishtiyoq bilan mehnat qilish zavqi bitmas-tuganmas nur manbaidek mag'rur chaqrab turibdi. Bu ko'zlarga ishongan, bu ko'zlarga kengliklar ochib bergan yutadi. Bu ko'zlarda bundan keyin hasrat-alam uchqunlari ko'rinmasligi kerak. Ko'rinmasligi kerak edi. Afsus, hayotning barcha zahar-zaqqumlariga mangu

barham berilganda dunyoga kelgan bu ko'zlar allaqanday mudhish o'pqnolarga duch keldi, uning iztiroblarini tortdi, tortishga majbur bo'ldi. Ana shunga sabab bo'lgan odamlar hayot va tarix ko'ziga qanday qilib qaraydilar, qaysi tillari bilan izohlab, qaysi qalblari bilan yashaydilar?

Azimxo'jayevning qalbida ana shunday «Do'st bo'lib, dushman ishini qilgan, qancha-qancha begunoh ko'zlaridan yosh oqizgan kishilarga nisbatan nafrat-g'azab to'foni jo'shib, ularning noo'rin qurboni bo'lgan, hozir yonida uyasidan olingan qush bolasidek ma'sum boqib borayotgan Ummataliga mehr-shafqati uyg'ondi. Demak, u mana shu lahzadan boshlab, bu agronom yigit bilan hamkorlikda sovxoz bog'-rog'ini yashnatishgina emas, balki bu yigitning o'zini ardoqlashi, murakkab hayotning egri-bugri ko'chalarida adashmasdan, to'g'ri keng yo'lga chiqib olishida maslahatgo'yi, yetakchisi bo'lishi kerak. Bu yigit shunday yashab, shunday ishlashi kerakki, yuragiga bevaqt, beixtiyor kirgan qudratlar va iztiroblardan g'ubor qolmasin! U kunlarining bundan buyon aslo qaytmasligiga imoni komil bo'lsin. Bu imoni komillik uning g'ayratiga g'ayrat, ishtiyoqiga ishtiyoq qo'shadi, qadamiga dadillik baxsh etadi.

Azimxo'jayev shularni o'ylab turib, yuragi siqilgandek bo'ldi. Chekishni tashlab yuborganiga o'kindi. Qadrdon rahbar do'stining bekorga bu yigitni uning sovxoziga tavsiya etmaganini tushundi. «Demak, u menga yana bir katta mas'uliyat yuklabdi. Qanoti qayrilgan, lekin uchishga molik burgut bolasini parvoz qildirib ber!» debdi-da. Mayli, ishonching uchun tashakkur, do'stim! Adolatsizlik gardlarini kishi qalbidan yuvib tashlamoq ulug' baxt!»

Bu mahal mashina gavjum ko'chalardan o'tib, chet-roqdagi bir do'kon bo'sag'asida to'xtadi. Ular bu yerda bugun bo'lishgan bo'lsa kerak, sotuvchi ularni ko'rishi

bilan boshini sal irg'ab, ichkariga kirib ketdi. Unga ergashib chiqqan kishi, qo'lida botinka solingan qog'oz quticha bilan Azimxo'jayevga yaqinlashdi:

– Kesakdan chaqmoq chiqib, bizga bir ishingiz tushgan ekan, biz bo'lmabmiz. UZR! Idoraga chiqib ketuvdim. Marhamat, – dedi u qog'oz qutini ochmoqchi bo'lib. Azimxo'jayev «Keragi yo'q, ochmang!» degan ishorani qildi.

– Juda dalabopini qidirib qolibsiz, xo'jayin?

– Qishloqimiz-da!

– «Attanboy-sattanboy»larga bo'laveradi deng!

– «Sarpaychanlar»ga ham yarashadi.

Ikkisi barobar kulishdi. Bu ikki so'z ular ulg'aygan mahallalarning laqabi bo'lib, ko'rishdi deguncha tilga olishar, shu bilan beg'am bolaliklarini eslashgan bo'lishar edi. Aslida bu mahallalardan hozir nomu nishon qolmagan, allaqachon u yerda institut qad ko'targan.

Ummatali ularning suhbatiga quloq solib turib, bu odam shohga ham, gadoga ham barobarga o'xshaydi. Kulishini qarang: qanday beg'ubor! Kiroyi boshliq shunaqa bo'lsa! Uning ko'nglida Azimxo'jayevga nisbatan ilk hurmat va muhabbat uyg'ondi. Bu muhabbat uning ko'nglini ko'tarib, kameradan kameraga ko'chayotgan mahbusdek, «U yer qanaqa bo'larkin? Yana kimlarga duch kelaman?» deb kelayotgan Ummatalini tashvishdan xalos etgandek bo'ldi. Qalbi yayrab, ko'zlari yorishdi. Azimxo'jayev qog'oz qutini olib hammahallasi «sarpaychan» bilan quyuq xayrlashdi.

– Ko'rishib turaylik, xo'jayin, Nikolayning chervoniday g'oyib bo'lib ketmang.

– «Kerenska»day² beqadr bo'lib qolmay deyman, hadeb kelaversam.

² Kerenskiy hukumati chiqargan, qadri yo'q so'm. Bir quti gugurt million so'm edi.

– Xavotir olmang, oltinsiz, do'stim, oltin.

– Rahmat! Dam olish kunlari o'zinglar chiqib boringlar. Dala hozir yaxshi bo'lgan, – dedi o'z navbatida Azimxo'jayev va bolalar oyoq kiyimi bo'limida botinka ko'rayotgan bo'ydoq shofyoriga luqma tashladi, – kal boshingga taroq xarid qilyapsanmi? Qani, ketdik!

Endi mashina hech qayerda to'xtamadi. Shahar-ning qoq o'rtasidan o'tadigan tramvay izidan yoqalab borib, o'ngga burildi-da, saldan keyin shahar chizig'idan chiqib ketdi. «Oq yo'l» degan katta yozuv orqada qoldi. Yo'l tekis va ravon. Mashina bir tekisda yeladi, hatto shofyor papirosining anchagina uzun bo'lib qolgan kuli qalqib to'kilmaydi. Ufqqa bigiz bo'lib qadalgan yo'lning ikki yoni ko'm-ko'k maysazor. Hali bahor nafasini o'zida saqlab turgan bu o'tloqlarga endi boshlangan yozning otash harorati urmagan. Yo'l yaqinda olib chiqilgan bo'lsa kerak, asfalt yo'l yonidagi qator nihollar hali o'zini tutib olmagan. Ana, quvalashib kelgan bir to'da chumchuqlar ulardan bittasiga yopirilgan edi, arg'imchoq bo'lib ketdi. Uzoqlardagi o'rmonga o'xshab qalin ko'ringan daraxtlar bu atrofdagi bog'lar, mevazorlar ko'pligidan xabar beradi.

Mashina biror soat chamasi keng va juda tekis kat-ta yo'ldan yurgach, ikki tomoni g'uj terak, hatto yuksak uchlari tutashaman deb turgan dala yo'liga burildi. Bu yo'l juda ham keng emas, xuddi tunnelga o'xshaydi. Lekin kolxoz yerining o'rtasidan o'tgan bu yo'l ko'p cho'zilmadi. Saldan keyin biyday kenglik boshlandi. Uning etagidagi tog'larda qor ko'rindi. Qor tog'da sidirg'a bo'lmay, qatiq to'kilganday olachalpoq.

– Shu yerdan havo o'zgaradi, – dedi Azimxo'jayev yayragandek nafas olib. – Bu yog'i tog' havosi. Sarimoyga o'xshaydi, jonivor. Suvi-chi? Suvi – qimiz.

Ha, aytganday qimizga qalaysiz?

– Bo'lsa yo'q demayman, – bahri ochilib dedi Ummatali. Ayniqsa unga bu ko'z yayraydigan kengliklar yoqib tushgan edi. Axir bunaqa yerlarni u jonidan sevadi. Sevganidan agronomlikka o'qigan. Ba'zi kalta o'ylagan o'rtoqlari «Boshqa kasb tanla! Umring qishloqda kesak tepib, tuproq changitib o'tadi!» deganda u kulib: «Ha, aqlga dehqonlar! Hayotning onasi dala bo'ladi: to'q yedirib, oq kiyintiradi» – deb quloq solmagan edi. Keyinchalik uning sodda kiyinganini ko'rgan boyvachcharoqlari: «Ummatali qishloqqa moslashyapti», deb tiliga kuch bersa, u o'qishga kuch berdi. Mana bu voqea ro'y bermaganda-ku dalada yashash qanaqa bo'lishini o'sha tili uzunlarga ko'rsatib qo'yardi-yu... Hali ham kech emas...

Mana, Ummatali jon-jonidan sevgan, uning ishqida o'qib-o'rgangan, uning hayotiga umrini bag'ishlamoqchi bo'lgan dalalar. Bu dalalardan qor hidi kelib turgan ariqlar oqadi, olam-olam qushlar tongdan shomgacha, shomdan tonggacha xonish qiladi, hayot ko'rkini ulug'laydi, kishi qalbiga cheksiz huzur-halovat baxsh etuvchi rango-rang chechaklar, ming bir nomli giyohlar barq urib yotadi. Bahorda navbati bilan gulga burkangan rang-barang mevalar olti oy yoz quyosh nurlarida g'arq bo'lib, kuzda sharbat to'kadilar, «Men salomatlik garoviman, mendan totimagan odam armonda qoladi», deb husni jamolini ko'z-ko'z qilib, ta'zimda qadlarini bukib turadilar. Tongda qirga ketgan podalarning kechda ma'rashib, bolalarini sog'inib yelib-yugurib qaytishlari qanday go'zal! Bu yerlarning odamlari-chi? Odamlarining bahosi yo'q. Mehnat nonini shirin bilganlar bunda yashaydi. Ular o'z tabiatlariga moslab hayotni yildan-yil o'zgartirib olyaptilar. Tabiat ko'ksiga o'z ijod muhrlarini bosib, uni jilovlab, qo'llariga oladilar. Shaharliklar bilmaydi, aslida bulbul ularning madhini qiladi, yuksak tog'larning oyna ko'zli buloqlari ularni

deb qaynaydi, ularni deb o'ngirlardan oshib, toshlardan qo'ng'iroq chalib keladi. Ha, bu yerlarning gashti bir olam! Buni jonidan sevgangina qadriga yetadi!

Uzoq-uzoqlarga suqlanib tikilib borayotgan Ummatalini xayol o'z totli og'ushida erkalab, qalbini yayratib, ko'ziga yosh qalqitdi. Bu sog'inish, intizorlik, mushtoqlik yoshi edi. Noxaqlik va bo'hton uni bu jozibabaxsh dalal-qirlardan, bog'u rog'lardan zo'rlik bilan yulqib olib, mahrum qilibdiki, ular xayolida yana bir o'zgacha husn, o'zgacha latofat bilan jonlanardi. Ularning mehri-xayoli bilan yashab, ularni ko'rishdan bir dam bo'lsin umidini uzmani. Mana endi o'sha murodiga yetib, uning bag'rida qalbi gurs-gurs urib, ko'zlaridan yashash zavqi toshib boryapti. Mana endi o'sha dalalar, o'sha kengliklar, o'sha bog'u rog', qorli tog'lar uning mushtoq ko'zi o'ngida mag'rur yastanib yotibdi. Yana ularning qo'yniga zo'r ishtiyoy, ezgu niyat, yangi kuch-qudrat va g'ayrat bilan qaytib kelyapti. Qanday yaxshi! Bu yerlarda yashash va mehnat qilishning o'zga zavqi, o'zga gashti, o'zga latofati bor.

Ummatali ko'zidan sog'inish yoshini asta artdi. U qanchalik muqaddas bo'lmasin ko'zini xiralashtirar, kengliklarning ko'rkini yashirayotganga o'xshardi. Ummatali esa, bu qir-adirlarga, o'rmonsifat g'uj bo'lib turgan daraxtzorlarga ko'zini katta ochib boqmoqchi, butun tinliqligi bilan ravshan tomosha qilmoqchi. Xuddi shu payt mashina asfaltdan chiqib, qiyalab pastga tusha boshladi. Pastdan suvli soyning qo'ng'iroq ovozi keldi. Saldan keyin o'zi ko'rindi. Tog' suvi yuvgan qayroq toshlar kun nurida yiltillaydi. Yuqorida qolgan xarsang toshlar shu tiniq suvlarda yuzini yuvolmaganidan o'kingandek xomush sarg'ayib turibdi. Ular orasidan hayot ishtiyoyi bilan yorib chiqib, quyoshga intilayotgan niholu giyohlar ko'm-ko'k. Soy shabadasidan mamnun. Soyga qiyalab

tushib borgan mashina, sayoz joydan kechib o'tib yana yuqoriga ko'tarila boshladi. U ko'tarilgan sari tabiatning yana boshqa ko'rki ochildi. Soy qiyaligida tizilib o'sgan ko'm-ko'k daraxtlar, ular orqasida, uzoqlarda turgan olachalpoq qorli tog'larga tutashib ketdi, ikkisi orasidagi qancha masofa yo'qolib, bir butunlik kashf etdi. Motoriga zo'r kelgandan mashina bo'g'ilib yuqoriga ko'tarildi. Yana past-baland kengliklar boshlandi. Uzoqlarda qishloqlar ko'rindi. Sal yurgach, Azimxo'jayev Ummataliga o'girildi, qo'lini mashinadan chiqarib ko'rsatdi:

– Huv anavi pastlikning naryog'idan sovxoz yeri boshlanadi. Mana shu yerdan boshlab, u yog'iga yo'l yotqizish kerak. Juda mashinaning zavoli. Kelishdik! Mashina bizdan, ishchi kuchi ulardan. Yaqinda shag'al tashiy boshlaydi. Kuzgacha bitkazib olamiz.

– Qancha keladi? – qiziqdi Ummatali.

– Yigirma kilometrga yaqin. Ikkita ko'prigi ham bor.

– Tezroq bitkazing, xo'jayin, mashinaning ressoriga juda jabr bo'lib ketdi, – quvonib qo'ydi shofyor.

– Sening mashinang-ku hech gapmas, yuk tashiydiganlarga jabr: axir shu yo'ldan bu yil ikki yuz ming tonnadan ortiq uzum olib o'tishi kerak. Buning o'zi bo'lmaydi. Hammadan mahsulotga uvol: eziladi, sifati o'ladi, rangi buziladi.

– Narxi tushadi, – qo'shdi Ummatali.

– To'g'ri. Mashinalarning ishdan bevaqt chiqishini, mevalarning isrof bo'lishini, sifati ketib, narxi past urilishini hisoblasak, yuragim ezilib ketadi! Baqrayib turib qancha-qancha jinoyatga yo'l qo'yayotgan ekanmiz. Bu yog'ini hisobga olmasdan plan to'lganiga xursand bo'lib yuraveribmiz. Ba'zan o'zimiz ham joni achimasdan ish tutamiz.

– Endi aniqmi? – Ummatalining ham joni achidi.

– Aniq, smetalarni ko'rib chiqdik.
– Yana chollarning duosini oladigan bo'libsiz, – kuldi shofyor.

– Nega «yana».

– Qirqbodomdagi ko'prikni yangilab berganingizda qancha xursand bo'lishdi! Bu-ku juda zo'r ish. Bechoralar bozor-o'charini eshakda qilishmaydimi, oldidan mashina o'tsa yuz-ko'zlariga qarab bo'lmaydi.

– Ha, bu tomoni ham bor ekan, – o'zi boshlagan ishidan mamnun bo'ldi Azimxo'jayev, keyin Ummataliga dedi: – Bu yerning odami bozorni yaxshi ko'radi, yakshanba kuni bir tushib chiqmasa xumori tutadi.

– O'rgangan. Bir tomoni sayil. Ko'rmagan yoru birodarini uchratadi, dardlashadi. – Hamqishloqlarini oqlagandek dedi shofyor. Mashina qachonlardir naridanberi shag'al yotqizilib tekislangan, keyinchalik tuproqqa qorishib ketgan yo'ldan borar ekan, yo'l yoqasidagi novcha teraklar, yapasqi qayrag'och-sadalar changdan yuzlariga upa qo'yib olganlari, hatto giyohlarning rangi noaniq tusga kirib ketgani shundoq ko'rinib turardi. Keyin birdan bechang yo'l boshlandi.

– Chegaradan o'tdik, bu yog'i o'z mulkimiz, – dedi Azimxo'jayev go'yo «endi bermalol nafas olavering, chang yo'q» degandek bir yo'sinda. Chindan bu yoqdan bahor nafasi sezilib turardi.

Azimxo'jayevning xayoliga bir tadbir kelganday shofyorini o'ziga qaratdi:

– Nortoy! «Boy xotin» hozir nima ish qiladi?

– «Xudo» deb o'tiribdi!

– Mana bu akang bizga agronom bo'lib kelyapti.

Uyiga qo'ysak rozi bo'larmikin?

– Bo'lganda qanday! Eshigi tiq etsa, biror bekorchi dardlashgani kirarmikin, deb zerikib o'tirgani-o'tirgan, yaxshi bo'ladi.

– Agronomning issiq-sovug'i, kir-chiridan xabar olib turardi. Qolaversa, bir-biriga ermak bo'ladi. «Boy xotin kim bo'ldi? «Zerikib» o'tirgan yosh juvonmi? Buning ustiga yolg'iz bo'lsa, boshi g'ovg'aga qolmaydimi?» Ummatalining xayolidan shunday tashvishli o'ylar o'tar ekan, yuragi shing'illab ketdi. Ko'ngliga g'ulg'ula tushdi. Ko'z oldidan Qimmatxon o'tdi: qo'lida tuflisi, yalangoyoq, ko'zi bejo, sochi betartib, qora terga botgan sovxozning bog' ko'chasidan kelyapti. Har uchragan odamdan «Boy xotinniki qaysi?» deb so'raydi. Ularga ham ishonmay ba'zi eshiklarni qoqadi. «Rostini aytaveringlar, baribir u manjalaqini topib olaman. Sochlarini bittalab yulaman», deb yanib qo'yadi. O'zi esa to'g'ri unikiga kelyapti. Eshikni oyog'i bilan tepib ochib: «Ha, pokdomon, endi qo'lga tushdingmi? Qalaysan? O'zing ham g'irrom ishlar qilar-kansan-ku. Endi teng bo'ldik», deb kirib kelayotgandek. Ummatalining «hay-hay»iga quloq solmay «Boy xotin» bilan yumdalashayotgandek, uni itarib chiqarib, eshikni ichidan zanjirlab olayotgandek tuyuldi. Yuragi gup-gup urib, ko'zi tinib ketdi.

Uning bu mudhish xayolini Azimxo'jayev sezgandek izoh berdi:

– «Boy xotin» deganimiz elagini teshgan sichqonga ham ozor bermaydigan yaxshi bir kampir. Yumshoq, oqko'ngil. To'g'ri jannatga tushadi, deyishadi.

– Jannatga ham orqasidan itarib kiritasiz! – kulgiga oldi xandon solib Nortoy.

– Shunaqa soddami? – ajablandi Ummatali.

– Gap-da, birodar! Erinmaganning to'qigani!

Ummatali ko'nglida: «Bu direktor emas, lochin. Lochin qo'ngan yerda zog' nima qiladi! Qurbaqa bo'lib, shamol tursa suvga sho'ng'iydiganga kun bermaydi bu! O'zi ham ishlaydi, boshqani ham ishlatadi», deb qo'ydi.

Mashina g'ishtin binoning oldida to'xtadi. Azimxo'jayev shofyoriga «Boy xotin»ning oldidan o'tishni topshirib, jo'natib yubordi. O'zi Ummatali bilan sovxoz idorasi joylashgan bir qavatli yapaloq binoga burildi. Birdan chopib kelayotgan bolani ko'rib, to'xtadi. Uning yo'lini to'sib, kulganicha gapga soldi:

– Menga qara, rostringni ayt, rusmisan, o'zbekmisan?

– Rus!

– Nega bo'lmasa qorasan?

– Kechasi tug'ilganman!

Direktor uni shu javobni eshitish uchungina to'xtatgan ekan shekilli, papiros xumor qilganda og'ziga tashlab yuradigan nordon konfetidan ikkitasini, bolaga tutib, u yuzidan-bu yuzidan o'pib jo'natib yubordi.

– Rahmat, direktor buva! – deganicha bola yana chopib ketdi.

– Bir traktorining asragan bolasi. Juda shirin, qis-taloq. Kattaning esiga kelmagan gaplarni to'qib yuradi. Kino qo'ysak, «urushi bormi!» deydi. Qaysi tomon yengsa, o'shani «biznikilar» deydi.

Voqea Afrikami, qayerda ketayotgan bo'lsa ham unga baribir, – dedi Azimxo'jayev mamnun.

– O'g'il bolaning sho'xi yaxshi! – deb qo'ydi Ummatali. Uning esiga o'z o'g'li tushgan edi. Sog'ingandek bo'ldi. «Darrov-a? Uzoqlashganimga shunday bo'lyapman», o'zini ovutdi.

Azimxo'jayevning sovxozni «o'ziniki» qilib olgani uchragan odamga qilayotgan muomalasidan shundoq ko'rinib turardi. Biriga hazil bilan luqma tashlasa, birini ikki og'iz so'z bilan ko'nglini ko'taradi.

Kabineti ham oddiygina ekan. Allaqachon rasmdan qolgan jigarrang qo'pol stol, uning ustida qopqoqlari vazmin, ulkan siyohdonlar. Bittasi siyohsiz – ichi toza.

Devorning ikki chetiga mayda stullar qator tizilgan. Bir burchakda usti kulrang yapasqi seyf. Stol ustiga yopilgan movut ham bundan oldingi direktordan qolgan bo'lsa kerak, tusi o'chgan, xuddi toychaga yopilgan yoping'ichday yerga tegay deb turibdi.

Azimxo'jayev lapanglab to'rga o'tib borar ekan, gap qotdi:

– Sovxozning bosh shtabi shu! – kabinetining oddiygina ekanini o'zi ham biladi shekilli, qo'shib qo'ydi, – qalay, ma'qulmi? Ministrga ham yarashadi, a?

– Yaxshi, – soddalikni sevguvchi Ummataliga yoqdi. Ichida «kishining kiyim- boshi, kabineti ham o'ziga monand bo'ladi» shekilli-da, – deb ko'nglidan o'tkazdi.

– Savlat emas, ko'rgazma emas, ish xonasi bu.

Dabdabali kabinetlarni ko'rsam bir narsa esimga tushadi. Bizning mahallada Alimat karvon degan bor edi. O'zi o'lguday ot-aravaga ishqiboz. Topganini otiga sarflab, zeb beradi. Otim chiroyli ko'rinsin, deb unga shunaqa munchoqlar taqib tashlabdiki, endi qo'yaverasiz. Bundoq qarasa, 30–40 pud yuk tashib yurgan ot, 25–30 pudni zo'rg'a tortarmish. Jon-poni chiqib ketibdi. Arz qilib keksa bir odamga boribdi. Keksa ot-aravani ko'ribdi-yu o'pkasi uzilgudek bo'lib kulaveribdi. «Da, ota, – debdi u hayron qolib, – nimaga kulasiz?» «Ha, uka, bezakning ham evi bor-da. Chiroyli qilaman deb otning o'ziga talay yuk ortib qo'yibsan-ku» debdi. «E-ha» deb esi o'ziga kelgan karvon zeb-ziynatlarni olib tashlasa, oti avvalgidek yuk tortib ketibdi. Siz bilmaysiz, Ummatali, u vaqtlarda «eshak munchoq» degan har bittasi yong'oqday keladigan oq munchoqlar bo'lardi, besh-oltitasi bir qadoq...

– Kabinet emas, ish chiroyli bo'lsa...

– Ayni ko'nglimdagini topdingiz, otangizga balli, Ummatali. O'sha karvonga o'xshab qolmaslik kerak.

Direktor, endi gapim tamom, degandek telefonni olib harakli yerlarni chaqirdi. Ishning borishini bildi, yo'l-yo'lakay topshiriqlar berdi. Hatto bittasini jerkib, uzib oldi:

– Saksovulga o'xshab o'n yilda bir gullamasin-da, shoshmasdan ishlayversin. Poygada o'zib ketgani emas, mo'miqqa oldin yetib borgani sovrin oladi.

U trubkani ilib, Ummataliga o'girildi:

– Bir traktorchimiz bor, manmanlikka qishda suvga tushib, bod orttirib olgan. Tizginini ushlab turmasang g'iro't bo'lib ketadi. Kechasi ham ishlayman deb, xarxasha qilayotganmish. Bir kecha ishlaydi-da, tun shamoli belini olib, haftalab yotadi. U yana bir necha joyga telefon qoqdi. O'zi yo'qligidagi sovxoz hayotidan xotirjam bo'ldi shekilli, kabinetidan chiqdi. Qo'shni xonalarga olib kirib, Ummatalini sovxoz ma'muriyatidagi kishilar bilan tanishtirdi, u kirishi bilan sokin xonalar uning shang'illagan tovushi bilan to'lar, kulgi, hazil jonlanib ketardi.

– Qani, yuring, – dedi u eshikka chiqqach, – endi bizning kulbaga kiraylik. Zora tishga bosadigan biror narsa tayyor bo'lsa. Qorin ham piyoz po'sti bo'lib ketdi. Yo siz qazi-qarta bilan nonushta qilganmidingiz? Shu vaqtgacha qazini ham titig'i chiqib ketadi.

– Qani, yuring? – iymanayotgan Ummatalini yengidan tortdi, – uyalyapsizmi?

«Haliitdan ovqatga kiramanmi?» deb tortinib turgan Ummatali:

– Kirarmiz, bundan buyoq shu yerdamiz-ku! – deb galga solgan edi, direktorniki tutdi:

– Iye, men sizning bunaqa kishi ekaningizni bilsam, hech ham olib kelmasdim. Menga sizni tavsiya etganlar o'rmonda sher, suvda nahang, degan edi-ku. Bug'doy deb arpani orqalatib yuborishdi shekilli. Bizda seniki-meniki

yo'q. Hali, chaqirib borsam, osh yeb turgan qo'lingizni artib, undan keyin og'rinib eshik ochadiganga o'xshaysiz!

Ummatali qarasa, bo'lmaydi, gap chalg'itdi:

– Qachon siz borsangiz eshigimiz lang ochiq, Alixo'ja Saidovich. Bu yog'idan ko'nglingiz to'q bo'lsin.

– Oldin ko'nglingizni oching. Ketdik, qani, yuring!

Ummatali endi unga ergashdi.

Hovlisi idoradan sal narida ekan. Qo'shnilarinikidan hech narsa bilan farq qilmaydi: chorqirra, derazalarining osti gir aylantirib qoraga bo'yalgan, o'zi ko'kish rangda. Tomi shifer, hatto chetida peshnovi ham yo'q. Kichkina eshikdan to'g'ri binoga kiriladi. Uning qatorida, ancha narida mashina kiradigan darvoza. Kattagina mevazor hovli, bir chetida, supaning etagida bejirimgina beton hovuzcha. Bir tomonidan suv kirib, bir tomonidan chiqib ketadi. Unga keladigan anqning ikki beti qator olcha. Undan narida bir tup ulkan olma. Mevasi shig'il. Hovlining etagida turli sabzavot: pomidor, kashnich, ukrop, shovul, petrushka, barkashday yerga o'sma ham sochilgan. Tartib bilan o'tqazilgan turli-tuman gullar chaman bo'lib yotibdi.

Ular eshikdan kirishi bilan o'rta bo'y, oppoqqina, istarasi issiq, kulib turgan bir xotin ochiq yuz bilan qarshi oldi. Salom berib so'rashgach, eriga:

– Yaxshi tushib chiqdingizmi? – dedi.

– Yolg'iz tushib, qo'shaloq bo'lib chiqdim, – deb kuldi Azimxo'jayev va Ummatalini unga tanishtirdi.

– Juda yaxshi. Yolg'iz qiyalib ketdingiz. Aka-uka bo'lib ishlayverasizlar, – xotin Ummataliga yuzlandi, – kelinni ham tezroq olib chiqing. Bu yerning havosi yaxshi. Men ham yolg'izman. Ishlaydilarmi?

Ilk ko'rgan odamga nima deyishini bilmay qolgan Ummatali:

– Oldin o'zim o'rnashib olay-chi! – dedi.

– Yo‘q, galga solmang. Kelinni tezroq ko‘chirib chiqing. Er-xotin ayri tursa mehri soviydi. Ummatali, «uning mehri allaqachon muzga aylanib bo‘lgan!» deb yuborishiga sal qoldi. Direktor joniga ora kirdi. U ovqatni surishtirdi.

– Tayyor. Sabzini bosib qo‘yibman. Guruchini soldim, pishadi.

Xotin shu gapni aytib, oshxona tomonga o‘tib ketmoqchi bo‘lgan edi, eri kulib to‘xtatdi. Qog‘oz qutidagi tuflini uzatdi:

– Zo‘rini topdim. O‘tirib kiysang, turib ketasan.

– Turib kiyib, chopib ketadiganini ola qolmabsiz-da!

– Yanagi galga.

– Rahmat! – dedi xotini tuflini qo‘liga olib, lekin ochib ko‘rmadi. Bir chetga qo‘yib, oshxonaga yelib kirib ketdi. Er-xotin o‘rtasidagi samimiy gap, hazil-mutoyibaga havasi kelgan Ummatali: «Dunyoda mana bunaqa orasidan qil o‘tmaydigan oilalar ham bor.

Bunaqa uyda kishi sovuq suvdan semiradi, yerda yotib par to‘shak rohatini ko‘radi», dedi ko‘nglida. «Xudo urgan-da meni ikki qo‘llab urgan ekan: na ishga yolchidim, na xotinga! Lekin «Baxtim oldinda. Murodga qasd qilib yashagan yetadi. Noumid bo‘lma», degan ichki bir nido qalbidan sado berib chiqdi-yu, nima uchundir ko‘z oldiga Nafisa keldi. U xomush boshini egib qarshisida turardi.

Uning xayolini yana direktor xotini bo‘ldi. U ichkaridan ikkita sochiq olib chiqib, shildirab oqayotgan ariq bo‘yidagi olchanning shoxiga ildi. Uning anchaga borib qolgan bo‘lishiga qaramay hali tetik va yosh ko‘rinishini eriga yo‘ydi. Chavandoz otini, yaxshi er xotinini qaritmaydi deganlari shu. Ular yuvinib, artinguncha Nortoy ham yetib keldi. U yuvingan, tarangan. Ho‘l sochi yomg‘irdan keyingi yaproqday yiltillab turibdi. Ko‘ylagini ham almash-

tirishga ulgurgan. Direktorning oldiga oppoq tishlarini ko'rsatib, kulib, harbiylarcha dadil qadamlar bilan yurib keldi-da, shart-shart gapira boshladi, go'yo raport berdi:

– Xo'jayin! Buyrug'ingiz bajarildi. «Boy xotin» rozi. «Jonim bilan xizmatlarini qilaman!» dedi. Men chiqib kelayotganda supurgi olib, uyga kirib ketayotgan edi, hozir saranjomu sarishta qilib qo'ygandir!

– Yasha! Sen boru men bor-da, – dedi Azimxo'jayev yumshoq sochiq bilan go'shtdor bo'ynini, serjun ko'ksini arta turib. Birdan Nortoyning ko'ziga ko'zi tushib qoldi. – He, o'la, jinday simiribsan-a!

– Xuddi shunday! Yetmish besh kilometr u yoqqa, yana shuncha bu yoqqa, buning o'rtasida shaharda jon hovuchlab besh-o'n kilometr yurishning o'zi bo'ladimi, xo'jayin. Hordiqni shunaqa qilib chiqarmasak bo'lmaydi. Yo bugun ish bormidi?

– Yo'q, Nima qilib xoda yutgandek tippa-tik turibsan, o'tir, hozir ovqat qilamiz. – Azimxo'jayev shofyoriga uning izohidan keyin rahmi kelgan bo'lsa ham, baribir, ichganiga rozi bo'lmadi.

– Hozir ovqatlandim.

– Seni hech kim och deyatgani yo'q, o'tir!

Bundan keyingi vaj ortiqcha ekanini bilgan Nortoy indamasdan Ummatalining yonidagi stulga og'ir cho'kdi. Yuvilib-taranib archilgan tuxumdek bo'lib olgan Azimxo'jayev hozirgina xotini joy qilgan hovuz bo'yiga o'tar ekan:

– Ummatali, qani keling, ovqat pishguncha aqlni jinday gimnastika qilib olaylik, – dedi.

Ummatali: «Hali menga ichirib, sharmanda qilmasa edi. Tuzukkina ishqiboz bo'lsam go'rga edi», deb turgan edi, Azimxo'jayev Nortoyga shaxmatni olib chiqishni buyurdi. «Xayriyat! Shaxmatni aytayotgan ekan!» degan Ummatali Nortoyning orqasidan uyga kirdi. Shaxmatni uning qo'lidan olayotib asta so'radi:

– Shunaqa ishqibozmi?

– Bo'lganda qanday! Ikki kishi bo'lsa, biri bilan o'ynab, birining etagidan ushlab turadi.

«Menga toza xudo beribdi: qoldiraverib enka-tenkamni quritarkan!» degan Ummatali donalarni terar ekan, Azimxo'jayev ogohlantirdi:

– Sharti shu: tez yurish!

– Salmoqiroqman-ku, – qizardi Ummatali. Gapga Nortoy aralashdi:

– Unda xo'jayinbop emas ekansiz. Bu kishining yuragi pishib ketadi.

– Atom asrida qanaqa qilib sekin o'ynab bo'ladi. Sekin o'ynash qoloqlik, – u dona surdi. O'yin boshlandi... Ummatali Azimxo'jayev shaxmatni tez o'ynaydi, desa, ovqatni ham undan sekin yemas ekan! Jadal ishi qolib ketayotgan ustadek shoshib yeganidan bo'lsa kerak, birpasda qirilgan boshi, keng peshanasi, go'shtdor bo'ynini ter bosdi. Shoshib ovqat yeganidek, darrov qo'lini ham artdi. Bu odati o'ziga ma'lum shekilli, qo'lini artmoqchi bo'lgan Ummatalidan sochiqni tortib oldi.

– Siz menga qaramang, olavering. Men samolyot kashf etilgan yili tug'ilganman. Xotini uni quvvatladi:

– Bu kishining odati shunaqa: kulcha pishguncha non kuyib turadi. Siz bu kishiga qaramang, olavering. Bu kishiga qarab qo'l artgan och qoladi. Qani, Nortoy, akang bilan olish.

Ummatali umrida bunaqa yuz bir xislatli odamni endi ko'rishi edi.

Ertasi u, tabiatiga o'tirib qolgan bu odam bilan maslahatlashib, uning yuzini yerga qaratmaslik niyatida ishga astoydil kirishdi. Buning ustiga o'zi ham ishni toza sog'ingan edi.

QO'RQOQ XOINGA AYLANDI

A'zam Simonani ko'zi tinib, issiq quchog'iga bosganicha besh-o'n kun maishatdan boshi chiqmadi. Keyin birdan Simona yo'q bo'lib qoldi. Bir kuni mayor kirib keldi. Yonida yana bir odam. Mayor har galgidek qalbakinamo tabassum bilan uning hol-ahvoliini so'ramadi. Quruqqina ko'rishib, uni bir xonaga taklif etdi. O'tirib, ikki tirsagini stolga qo'ydi-da, ko'zini A'zaminga tikdi. Bu tikilishda: «Biz seni astar-avranggacha tekshirib bo'ldik. Endi senga vataning emas, sichqon ham o'z uyasidan joy bermaydi. Sen endi kaftimizdagi danaksan: istasak ekib ko'kartiramiz, istasak chaqib, mag'zingni talqon qilib yeymiz», degan ma'no bor edi.

– Qani, endi ish boshlaylik, – dedi mayor. Qanday ish haqida gap borayotganini to'la tasavvur qilolmasa ham, bu maishatlar bekorga emasligiga fahmi yetgan A'zaming «Marhamat!» deyishidan boshqa iloji yo'q edi. U shunday dedi. Bu beto'xtov savoldan chehrasi sal yorishgan mayor:

– Juda yaxshi, biz ham tayyor! – deb kuldi. Shu daqiqadan boshlab A'zam avval vatanini tark etib muhojir hisoblangan bo'lsa, endi xoinlik yo'lga kirdi, to'g'risi. uni shu yo'lga kiritib oldilar. U razvedkaning butun savollariga qo'lga tushgan qo'rqqoq o'g'ridek snosha-pisha javob berardi. Uning dastidan kasbiga doir na biror objekt va uning xarakteri, na o'zi bilgan zavodlar va uning mahsuloti, ko'lam, na aerodromlar va ularning xii, ahvoli, na maxsus o'quv yurtlari va ulardagi mashg'ulotning olib borilishi qoldi. Hammasini bilganicha sayra berdi,

o'z bilganicha tahlil qildi. Har bir ma'lumotni bayon qilar ekan, go'sht tashlagan kishining qo'liga termilib, dumini likillatgan laychadek suhbatdoshlarining xatti-harakatini kuzatar, so'zining qanchalik ma'qul bo'lgan-bo'lmaganini ko'zlaridan uqib olmoqchi bo'lardi. Pixini yorgan mayor esa, «faqat shumi? Bu bizga yetarli emas, bisotingdagini chiqaraver, baribir kovlab topib olamiz. Sen ko'p narsani bilasan, bilishing kerak», degandek ba'zan norozinamo qovog'ini solar, ba'zan pisand qilmayotgan kishidek beparvo sigareta tutatar, kulini o'yin qilib chertib tushirardi. Unga sari A'zamning yuragi po'killab, «Bu qanday bo'ldi? Nahotki, yolg'on-yashiq gapirishim kerak» deb, ko'zi javdirardi. Garchand, uning javdirashlari mayor va uning sherigiga ayni muddao bo'lsa-da, ular sir bermasdi. Ular shunday tajribali ish olib borardiki, bir necha kun ichida A'zam shilinib tushdi. Chunki uni: «Aytganimga qanoat qilishmasa nima qilaman» degan vahima bosgan, bu vahima ishtahasini bo'g'ib, uyqusini qochirgan edi. Bahimasi to'g'ri chiqdi. Suhbatining oxirgi kuni yana boshqa bir odam bilan kelgan mayor, uni sensirab, o'dag'ayladi:

– Bergan ma'lumoting bir kunlik ovqatingga arzimaydi. Bu nima nayrang! Bilamiz, seni qaysi maqsad bilan boshpana qidirganingni. Bu – nayrang! Sen atayin yovuz niyat bilan qochgansan! A'zamning jon-poni chiqib ketdi. Ko'z oldi qorong'ilashib, ichiga muz to'lgandek bo'ldi.

– Yo'q, yomon niyatim yo'q! O'zim qochdim! Sizlardan panoq qidirib qochdim. Xudo ursin, yolg'on bo'lsa! – dedi u jon holatda.

– Sizda xudo bormi! – dedi yangi kelgan kishi, – siz xudoni yarimta araqqa almashasiz.

– Yo'q, xudoga ishonaman, har narsa deng, ishonamiz. – U duduqlanib, «Lo iloha illollo» dedi.

– Yo‘q, yolg‘on gapiryapsan! Qanday niyat bilan qochganingni yaxshi bilamiz. Ayt to‘g‘risini.

– Axir men...

A‘zam u yog‘ini aytguncha bo‘lmay, mayor stolga mushti bilan tarsillatib urib, o‘rnidan turdi. Stolni aylanib, shiddat bilan uning yoniga o‘tdi. Chaqqon bir harakat bilan engagidan ko‘tarib, o‘ziga qaratdi. Uning ko‘zlarida A‘zam shu vaqtgacha ko‘rmagan bir vahshiylik bor edi:

– Kimni laqillatyapsan, kimni?

A‘zam taxta bo‘lib qotdi, betida qon qolmadi. Bu gaplar o‘ngida bo‘layotganiga ishonmadi. Chiroyli ko‘zlari xunuk pirpirab, tanglayigacha muzlab ketdi. Tili g‘o‘ldirab, nima deyishini bilmasdi. Unga sari mayor avjiga chiqardi:

– Ayt, qanday yovuz niyat bilan qolding? Nima ishlar qilmoqchi eding?

– Hech qanaqa... Hech kim... – hamon duduqlanardi A‘zam. Badanini bosgan muzday terdan yoqasi bo‘yniga chip-chip yopishar edi. Endi nima qildi? Nima desa, bular ishonadi-yu, tuhmatdan u qutuladi? Ishontirolmasa-chi? Nahotki, josus, deb otib tashlashsa!

A‘zamning ko‘z oldiga kinoda ko‘rgan, o‘qigan kitoblaridagi qo‘lga tushgan josuslarning taqdiri keldi. Bundoq o‘ylasa, hammasining boshiga it kuni tushgan, keyin otib tashlangan, hatto osilganlari ham bor. Uning shu kungacha bo‘lgan, yursa yo‘lida, uxlasa tushida erkalagan shirin orzu-o‘ylari erta yozga qolgan yupqa qordek bir zumda erib yo‘qoldi. O‘rnini bevaqt, dahshatli o‘limning xunuk ko‘lankasi egaliadi. Egalladi-yu, xo‘rligi keldi. Issiq o‘rnini sovutib, ona yurtini tark etganidan, tosh otmaganga tosh otib, xotini, qiziga tuhmatlar yog‘dirganidan, Jemsning so‘zlariga uchganidan, unga havasi kelganidan, uning hayotini orzu qilganidan ming-ming pushaymon etdi. Shu lahzada ona o‘lkaning tuprog‘ini yalab, tavbasiga tayanib, uzr so‘rashga rozi edi-yu, qarshisida qovog‘idan

qor yog'ib, erkini bog'lab o'tirganlar changalidan chiqib ketish qanchalik mushkul bo'lsa, asli holiga qaytishi ham shunchalik dargumon edi. Axir sanamay sakkiz deb, shu qisqa vaqt ichida ozmuncha bema'ni gaplar qildimi?!

U ikki o't o'rtasida edi. Bir o't – ortiga qaytish, xayolidan yiroq bo'lgani uchun, o'zini ikkinchi o'tga urishga, undan shafqat so'rashga majbur edi. Lekin bu qarshisida o'tirganlar turqida rahm-shafqat u yoqda tursin, insonlik uchqunlari ham ko'rinmas edi. Yo unga shunday ko'rinyaptimi? Ularning ko'nglini yumshatish uchun A'zam nimalardir deb duduqlandi. Ularda esa, jinday o'zgarish ko'rmadi. Aksincha mayor yanada o'dag'aylab ketdi.

– Qani, bo'li! Nimani kutyapsan? Peshanangga to'pponcha tiraganda javob berasanmi?

– Nimani aytaman...

– Niyatlaringni! Uchrashadigan odamingning nomi nima? Qayerda turadi? Parol nima? A'zam hayratdan yelkasini qisgan edi, mayor tarsillatib yelkasiga soldi:

– Yelkang joyida tursin! Tiling bilan javob ber.

A'zam yana duduqlandi:

– Hech...

– Qachongacha shu javobni qilasan?

Gapga mayorning hamrohi aralashdi.

– Qani, ayt-chi, Simonaga nima deding?

– Qaysi Simonaga?

– Nechta Simonani taniansan?

– O'sha muallimami?

– Ha, o'sha o'ynashingga. Issiq quchog'ida erib turganingda nima deding?

A'zam uchun bu yana kutilmagan gap edi. Birdan xayoli Simona bilan ko'rishgan chog'larga ko'chdi. Gapirgan gallarini bir-bir eslashga tirishdi, shu lahzada hammasini xotirlash qanchalik qiyin bo'lmasin harakat

qildi. Biror shubha tug'diradigan narsa topmadi. Yo kayfi oshgan paytda aljib qo'ydimikin? Undoq desa, Simona bilan unaqa esyo'qotar bo'lib ichishgani yo'q. To'g'ri, bir marta sal hushini yo'qotgan edi, shunda biror gap o'tgan ekanmi? Bordi-yu, o'tgan bo'lsa, nahotki Simona oqizmay-tomizmay yetkizdi. Yo'q, Simona buni qilmaydi. Qilishi mumkin emas! Nega endi? Nima, A'zamning unga o'tqazib qo'ygani bormi! Baribir u ham shu mayor qo'ygan odam-da!

A'zamning xayoliga kelgan Simona shu lahza ko'ziga cho'lqurbaqadek xunuk ko'rinib, nafratini qo'zg'atdi. Asli u bilan shu ishni boshlamasa bo'lar ekan. Qachon bo'lsa xotin zotidan tili kuyadi. U yoqda Nafisa partbyuroga chaqirtirib, ne kunlarni boshiga solgan edi. Uniki ham holva ekan. Mana bunisiniki yomon bo'ldi. Bunikidan qon hidi keladi. Yo'q, A'zam doim tiliga mahkam edi. Simonaga hech narsa demagan. Bular o'zi to'qiyapti. Shu ishonch bilan:

– Hech narsa deganim yo'q, – dedi.

– Ehtimol, quchog'iga ham kirganim yo'q dersan?

A'zam boshini quyi tushirdi.

– Xush yoqib turganda og'zingdan chiqib ketgandir, yaxshilab o'yla.

A'zam boshini sal ko'tarib, yoniga silkidi.

– Qızıqmısz, polkovnik! – dedi mayor tutaqib, – bu-larning tilini kaltak chiqaradi. Ikki og'iz savolga bulbul bo'lib sayraydigani bu yoqqa o'tadimi!

Shunaqa pishiqki, ming gradus issiqda erib, Sibir sovug'ida ham qotmaydi. Anavilarning ixtiyoriga top-shiramiz, ikki-uch kundan keyin o'zi qog'oz so'rab yozib beradi.

«Anavilari» kim bo'ldi?» – A'zamning boshiga cha-qin tegdi. Bu kuni ham bir nav shekilli. Nahotki, kınoda ko'rganlaridek og'zi-burni qop-qora qonga belanib, tili og'ziga sig'may sement polda yotadi. Uning eti jimir-

lab, shu o'tirishi ham g'animat ko'rindi. Harna qilsa ham oldini olgani yaxshi lekin, nima deb o'zini oqlashni bilmay, faryod urib, «Men josus emasman!!» deganicha mayorning oyog'i ostiga tashlandi. U oyog'ini siltab tortib olgan edi, sherigining iligini quchoqladi. U siltamasa-da: «Beting qursin, nari tur, shimimni iflos qilma», degandek o'rnidan turib, uyning narigi burchagiga ketdi. A'zam goh unga, goh bunga oyog'ini arava bosib, sudralib qolgan och itdek boqardi, u shu lahzada tovuq bo'lib go'ng titishga, cho'chqa bo'lib balchiqqa ag'anashga rozi edi. Lekin buni ham qarshisida turganlar unga ravo ko'rmoqchi emas edi. A'zam «meni bu yoqqa ajal quvib kelgan ekan» deb pushaymoniga tayanib turganda eshik birdan tarsillab ochilib, ikkita barzangiday yigit kirib keldi. Ular mayorning ishorasi bilan A'zamning qo'liga yiltillab turgan naruchnik soldi. Bittasi «yur»! imosini qildi. A'zam tizzalaridan darmon qurib, zo'rg'a o'rnidan turdi. Yigitlarning uni mukkalab ketishiga ko'zi yetdi shekilli ikkisi ikki qo'ltig'idan qo'ltiqlab oldi.

A'zam ostonadan hatlash oldida yoshli ko'zini «shafqat qiling!» degandek mayorga burdi. U parvo qilmay, gals-tugini tuzatardi.

A'zam shu olib chiqib ketilganicha yeri, devorlari sement, deraza o'rnida kichkinagina tuynugi bor katalakda bir hafta yotdi. Shiptir hidi kelib turgan bu xonaning asli nima bo'lganini shuncha o'ylab u topolmadi. Qamoq kamerasi desa, bu yaqinda odam yashaganlik belgisi yo'q. Jilla bo'lmaganda, karavotmi, to'mbochkami turardi. Molxona desa, mol zo'rg'a sig'adi. Nahotki, molni shunaqa nur tushmas, tor katalakda boqishsa! Parranda o'lsa turmaydi. Unga nima bo'ldi? Yoki josuslikda ayblanganlar shunaqa baqirsa tovush tashqariga chiqmas sement hujrada olib turilib, keyin yo'qotib qo'ya qolinadimi? Otib tashlanadigan odamning qayerda turishining nima ahami-

yati bor? Demak, mening ishim adoyi tamom bo'ldi. Meni xudo urib, ajal quvib kelgan ekan. Ahmoq bo'lmasam, shu kunlarga tusharmidim!! Ko'p qatori uy-joyim, bola-chaqam bor edi. Birov meni boshing kal, burning puchuq, deb peshanamga chertayotgani yo'q edi. Bir odamcha topib-tutib, bir odamcha kirib-chiqib yurgan edim. Kata bo'lmasa kichikroq yeb, yumshoq yotib, yengil turib kunim o'tayotgan edi. Kim seni yo'ldan ozdirib, vasvasaga soldi? Kimga, qaysi donoga maslahat soldingki, shu yo'lni ko'rsatdi? Jemsmi? Jemsnning padariga ming la'nat! Qayoqdan ham o'sha zulukka o'xshagan sovuqni uchratdim?! Gap-so'ziga ishondim? Nima, u mening ikki tug'ishib, bir qolganimmidi? Baqilladi qo'ydi-da, nega men ishonishim kerak edi?! Ha, xo'p, seni qadr-qimmat qilmabdilar, sendan keyingilar oldingga o'tib, sen keyinda qolibsan, ular tom boshidagi lolaqizg'aldoqdek ko'zga tashlanib, sen gunafshaday panada qolib ketibsan, shumi alaming, ginang? Shundan ko'ngling olinganmi? Shunga kosa otib, lagan sindirish kerakmidi? Yana nima? Xotiningdan ko'ngling to'lmaganimi? Nimasidan? Bir xotincham husni, aqli-farosati bor. Aybi sen uning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib, eshaging loydan o'tgandan keyin sekingina tashlab ketmoqchi bo'lganingda etagingdan mahkam ushlab qolganimi? Nima, nomusini barbod berib, faryod urib qolishi kerakmidi? Shunda ko'ngling to'larmidi? Yoki undan yaxshirog'i bor edi-yu, uylanolmay qoldingmi?

Baribir shundan a'losini topish gumon edi. Yana nima? Shu! Shu bo'lsa qoziqda turmas narsalarga achchiq qilib, allakimlardan o'pkalab, topgan yering shu bo'ldimi! Bu yog'i-chi? Bu yog'iga nima deysan! Quturgan itdek benomu nishon yo'qolib ketaverasanmi? Sening bu yerdaligingni kim biladi-yu, kim xabar oladi? Seni sevib ardoqlaganlarning basharasiga o'zing oyoq tirading, sen

e zozlab. ikki bukilib xizmatini ado etmoqchi bo'lgan kishi,aring esa, sendan yuz o'girdi. Seni sinq sopol parchasidek beqadr qilib, it bog'lasa turmaydigan mana shu katalakka keltirib tashladi. Hali oldinda ne gap, ne so'zlar borligini xudo biladi! A'zamning mana shunday o'y va tavba-tazarrular bilan miyası shishib, idroki tasavvur qilishdan tolganda eshik taraqlab ochilib, boyagi barzangilardan biri kirib keldi. Na gap-so'z, na basharaga qarash bor. Qo'lidagi bordon bo'lib bordon emas, sholcha bo'lib sholchaga o'xshamas bir paosni katalak to'riga «Ana o'sha yerda yot!» degandek uloqtirib tashladi. Palos shaloplab yerga tushishi bilan ohak, zax, mog'or, chirik, shiptir hidi aralash qandaydir qo'lansa isi hamma yoqni tutib ketdi. Lekin bu badxo'r hidni es-hushi gangib qolgan A'zam ortiqcha payqamadi. It oldiga tashlangan narsani beixtiyor iskab korgandek, u ham telbaiarcha bir-ikki qadam qo'yib, uni paypastadi. Allanima oalodan to'qilgan palos ekaniga fahmi yetdi-yu, hali uzoq yotar ekanman-da, degan vahima vujudini qaqshatib yubordi. Iliklaridan darmoni qurib, uning ustiga o'tirib qoidi. Tunni qanaqa qilib o'tganini bilmadi. Cho'zilsa, yonidan yer o'tadi, zax a'zoyi badanini ezg'ilaydi. Chor-nochor ko'zi ilinsa, allaqanday dahshatli, keyinchalik nimaigini aniclab ololmagan narsalar bosib keladi. Ko'zini ochib, tushida ko'rdimi yoki xayolidan o'tdimi, ajratib ololmaydi. Har ikkisi bir-biriga qarishib ketgan edi. Turib yuray desa. oyoqlari titraydi. Bir mahal yana ko'zi ilinib (nechanchi marta!) uyg'onsa, qorni ochib qolibdi. Umri bino bo'lib ochlik nimaligiga ishi tushmaganidanmi, yana battar vahima bosdi: Ovqat berishmasa-ya! Berishmasa qo'lidan nima ish keladi? Faryod urib baqirganda ularning joni achirmidi! Joni achisa, shu yerga tashlab qo'yisharmidi! Achimaydiki, birortasi eshik ochib, «Ahvoling qalay?» demaydi-da! Odam necha kun och yotishi mumkin? Men

necha kunga chidarkinman? Ochlikdan o'lish juda qiyin bo'lsa kerak. Kishilar rakdan o'lishni dahshatli deyishadi. Ochdan halok bo'lish undan yengil emasdir. Ikkalasida ham odam bolasi o'limning salmoqlab vujudingga chang solishini ko'rib turadi. Ko'rib turadi-yu, taqdirga tan beradi. Lekin ochlikdan qutulish mumkin. Rakdan davosi yo'qligidan o'lsa, ochlikdan davosiga imkon berilmagandan halok bo'ladi. Nahotki, men shu yoshimda bir burda nonga zor bo'lib, tuhmat girdobida o'lib ketsam!

A'zamni och o'limning dahshati bosdi. Uning vahimasidan o'zini sal tortib olib, vaqtni bilmoqchi bo'ldi. Beixtiyor bilagiga qaradi. Qo'lida soati yo'q. Ha, yechib olishgan edi. O'rnidan qo'zg'alib, turmoqchi bo'lgan edi, shimi tushib ketgudek pastga sdirildi. Kamarini tortay desa, u ham yo'q.

Lipasini ikki qayirib, yegulik bir narsa so'rash niyatida eshik oldiga bordi. Chala randa'angan, qo'pol eshikka uzoq tikilib qoldi. Tikilgan sari ko'z oldidan shirin taomlar bir-bir o'taverdi. Battar ko'ngli behuzur bo'lib, og'zi suv ochib, o'rniga kelib o'tirdi. Yana eshikka boqdi. Eshikdan ko'zini olib, tuynukka boqdi. Qochmoqchi bo'lgan kishidek, o'zining sig'ish-sig'masligini chamaladi. Sig'ishiga ko'zi yetmadi. Xo'sh, sig'ganda qo'lidan nima ish keladi? Hamma gap shu katalakdan chiqib olishda bo'lganda bir yo'lini topardi-ya! Bu katalakkina emas, u yog'i ham begona yurt. Duch kelgan: «Bu taka nima qilib, daydib yuribdi?» deb hiqildog'idan xippa bo'g'ib, politsiyaga ushlab beradi! Qani endi shu mahal qushga aylansa-yu, pir etib uchib chiqib ketsa! Uzoq-uzoqlarga borib tushsa! Go'ng qarg'a bo'lishga ham u rozi edi shu topda!

Buning mumkin emasligini bilgan A'zam bo'shashib borib o'rniga o'tirdi. Birdan ko'zi tuynukdan qarshi

devorda obi nondek bo'lib tushib turgan shu'laga tikilib qoldi. Xuddi issiq nonning o'zi-ya!

Uning xayoli tandirga ketdi. Tandirdan endi uzilgan issiq non qanday shirin bo'lardi. Hozir qattig'i bo'lsa ham mayli, qorasiga, hatto kuyganiga rozi. Uning fikri-o'yidan ovqat ketmay qoldi. Ko'z oldiga goh tutuni ishtahani ochadigan kabobpazlik keldi, goh eshelayotgan cho'zma lag'mon, goh damlog'lik palov. Borib-borib barchasidan, xayolan, umidini uzib, atalaga ham rozi bo'ldi-yu, u ham shu mahal anqoning urug'i ekanini o'ylab, xo'rliги kelib, ezilib ketdi.

Butun umidi shu qarshisidagi qo'pol eshikda. Nimaki kirsam, shu eshikdan kiradi. Ko'zi shu eshikda bo'lib qoldi. Qani uni ochadigan mard! Devordagi kulcha shu'la surilib borib, burchakka o'tdi, keyin bir cheti mayishib, yarimta bo'ldi. Undan keyin butunlay yo'qoldi. Qo'lidagi kulchachasini birov tortib olib qo'ygan boladek A'zamning ko'ngli buzilib, endi ochdan o'lishi muqarrarga o'xshab ketdi. O'lim dahshati uni o'rnidan turg'azdi.

Eshikni qoqdi, quloq tutdi. Qulog'ini tutdi, eshik qoqdi. Bir mahal eshikning qoq o'rtasida so'lkavoydek nur paydo bo'ldi, unda orqasidan surib ochib yopiladigan qopqoqlik teshik bor ekan. Undan birov bir ko'zi bilan qaradi. Yana yopdi. A'zam «Yotib qolgandan, otib qol» degan maqolga amal qilib, yana taqillatdi. Bu gal eshik zarb bilan ochilib, ostonada o'sha barzangi ko'rindi. «Nima deysan, gapir!» degandek g'o'dayib, A'zam yeb, u quruq qolganday xo'mrayib turdi. Bu dabdabadan shoshib qolgan A'zam ovqat so'rashga botinolmay chanqaganini aytdi. Eshikni daranglatib yopgan barzangi anchadan keyin bir krujka suv uzatdi. Uning ko'zidagi qandaydir jilmayish «Och qoringa sassiq sarimsoqmi!» degan ma'noni ifodalab, masxaralab turardi. Shu ahvolda ikki kun o'tdi. A'zam holdan toyib, yiqilishga yetdi. «O'ligim shu katalakdan

chiqishi aniq ekan», deb yig'lab, endi «o'rniga» cho'zilgan edi, eshik ochilib, oriq bir odam ikki burda non bilan bir tarelkada yuvindiga o'xshash bir nima uzatdi.

Butun bir xazinani in'omga olgan g'aribday entikib qolgan A'zam chapillatib birpasda yutib bo'ldi. Umrda bunaqa shirin ovqat yeganiga ishonmas edi!

Lekin to'ymagan qorni battar tatalab ketdi. Shu xilda bir hafta o'tdi. A'zamning orzu tishi sinib, umid ipi uzilib bo'lgan edi. Chigirtkaday ozib ketdi. It olgan tulki ahvoliga tushib o'tirganda eshik shoshmasdan ochildi. Eshikda paydo bo'lganlarning biri «Bu yoqqa yur!» ishorasini qildi. Tizzalari shiqillab o'rnidan arang turgan A'zam oldiga tushdi. U avvalgi vaqtdagidek: «Qayoqqa ketyapman? O'limgami?» deb tashvishlanmasdi. U uchun hammasi baribir bo'lib qolgan edi: idrok o'tmaslangan, orzusi qanotidan ayrilgan!

U gandraklab, o'sha oxirgi marta bo'lgan xonasiga kirib bordi. Qarshidagi oynaga ko'zi tushdi-yu, vahimada uyquga ketgan odamni tun yarmida to'satdan uyg'otgandek ko'zi birdan ochilib ketdi. Shu oynadagi o'zimi?! Soqollari o'sgan, quloq-burunlarini ham jun bosganga o'xshaydi, afti-basharasi kir, ko'zi chuqur quduq tagidagi suvdek yiltillab qolibdi. Shunday oriqlab ketibdiki, peshanasi do'mbiraga tortilgan xom teridek sarg'ayib, quloqlari shalpayib, yupqa tortibdi. Kekirdagi yong'oqdek bo'lib chiqib yotibdi. U qarshisidagi stol suyanchig'ini tutib qolmaganda dahshatdan yiqilib tushardi. Oxirgi marta «suhbatlashgan» mayor bilan polkovnik deraza oldida tashqariga qarab nimanidir gaplashib turardi. A'zamning kirganini ko'rgan bo'lishsa ham, pinagini buzishmadi. Go'yo unga ahvolini oynada ko'rib, tanasiga o'ylashga vaqt berishdi. Faqat uni olib kirganlardan biri ketishga ijozat so'ragandagina ular bu yoqqa o'g'irilishib, o'rtadagi stolga qarab yurishdi. Mayorning imosi bilan ijozat so'raganlar chiqib ketishdi.

– Xo'sh, qog'oz-qalam ham so'ramabsiz? Iqror bo'lishdan och o'lishni afzal ko'rdingizmi? Ixtiyoringiz, – dedi mayor vazminlik bilan. A'zamning javob beradigan ahvoli yo'q edi. Yiqilib tushishdan qo'rqib o'tirishga ruxsat so'radi. Mayor «o'tirishga ruxsat beramizmi, a?» degandek sherigiga istehzoli qarab, qalin labining bir burchini uchirdi. U ma'qullab asta ko'z qisdi.

– Turib javob berganingiz ma'qul edi-ku, mayli, o'tiring. Biz dushmanimizga nisbatan ham zolim emasmiz!

Mayorning bu «marhamati»dan keyin A'zam inqillab o'tib, stulga o'tirdi. Yomon o'gay ona qo'lidagi yetimchadek bo'ynini qisib, ko'zini mo'ltillatdi. Lekin qarshisida o'tirganlarning hech birining ko'zida mehru shafqat uchquni ko'rinmas edi.

– Ixtiyor sizlarda, – dedi pichirlagandek A'zam.

– Yashashni istaysizmi? – unga engashdi polkovnik.

– Shu yoshda o'lib ketish uvol bo'lsa kerak! – javob qildi mayor, – Simonaga o'xshaganlarning xipcha belidan quchib ayni yashaydigan payti. To'g'rimi? Yoki hech narsa kerakmasmi, yashashdan to'ydingizmi? A'zam-ku jon deb yashardi, lekin yashashning uddasidan chiqolmay garang edi. Shu lahzada uning ko'ziga bir mahal shaydosi bo'lgan Simona ham ko'rinmadi. U bilan o'tgan shirin daqiqalar – tush, yoki bundan bir necha o'n yillar burun bo'lib o'tgan xotira. Hech ham bu yaqin orada bo'lganiga, atigi bir-ikki hafta o'tganiga ishonmas edi. So'nggi bir hafta uning yillik kuch-quvvatini olib, qaritib, xayolini o'g'irlab, to'mtoq qilib ketgan edi. U indamadi.

– Sizning yovuz niyat bilan qolganingiz aniq.

Mayli... Biz o'zimiz bu chigal ipning uchini topib olamiz. Shu gunohlaringizdan kechsak, iqror bo'lasizmi?

Polkovnikning bu «olijanob»ligini mayor to'ldirdi:

– Bizda labz bitta, ishonavering!

A'zam, «Mening iqrorig bularga bunchalik juda zarur ekan?» deb o'tirmadi. Buni o'ylaydigan ahvolda emas edi. Uning nazarida qop-qorong'i uyga eshik tirqishidan nur tushgandek bo'ldi. Ko'zi nimanidir ilg'adi, badaniga qon yugurdi. Uziq umid ipi ulanib, jon bitgandek boshini ko'tardi. Ko'zi jiqqa yosh edi. Birdan-bir yo'l shu deb bildi shekilli tavakkal bilan yo'q gunohni bo'yniga olishga qaror qildi: yo ular labzida turmasdan josuslikda ayblab otib tashlaydi-yu, bu azoblardan birato'lasiga qutuladi, yoki so'zida turib, yashash imkonini beradi.

– Mayli, nima bo'lsa men rozi... – dedi ohistagina u. Ikkala suhbatdoshning yuzida shu vaqtgacha bo'lmagan mamnun o'zgarish qalqdi. Hatto buni polkovnik tili bilan alohida ta'kidladi:

– Mana bu boshqa gap! Yigit degan bundoq bo'ladi! Ular labzida turdi.

Bu labzda turish – A'zamning qachonlardir ijro etiladigan o'z o'limi hukmini o'z qo'li bilan yozib berishidan iborat edi!

A'zam injener sifatida yovuz niyat bilan atayin bu yurt-da qolganini yozib berdi, tepasida to'rtko'z bo'lib turgan mayor «ba'zi» tuzatishlarni eslatib, to'ldirib bordi. A'zam ostiga o'z ixtiyori bilan iqro bo'lganini alohida ta'kidlab imzo chekdi. Bu ham kamlik qilgandek mayorning taklifi bilan mikrofonga o'qib berdi. Buning oxiriga «Bu iqrorigning o'z qo'lim bilan yozilgani bor!» degan jumla qo'shildi. Keyin bu lentani unga o'qib eshittirishdi.

– Shu sizning o'z tovushingiz, shundaymi msye A'zam? – dedi mayor. A'zam tasdiqladi. Mayor iqrornomani ko'rsatdi:

– Shu o'z dastxatingiz, shundaymi, msye A'zam? A'zam ma'qullab bosh irg'adi.

– O'z ixtiyoringiz bilan iqror bo'ldingiz, shundaymi?

– Shunday.

– Juda yaxshi. Bizga savolingiz yo'qmi?

– Yo'q.

Mayor odam chaqirib, ular qo'liga A'zamni topshirdi.

U, «Nega bular qo'liga yana topshirildim!» deganicha hayron chiqib ketdi. Eshik zich yopilishi bilan arzimagan nayrangga ilinib, oyoq-qo'lini o'zi chandib bog'lab bergan yuraksiz xoinni masxaralab ikkisi birdan kulib yubordi. Kulgidan avval polkovnik to'xtadi va uqtirdi:

– Mana bu chinakam qo'rqqoq va tuturuqsiz odam. Bunaqalarning na o'z yurtiga, na o'zgaga tuzuk nafi tegadi. Hukumat buning kimligini yaxshi bilmaydi shekilli bo'lmasa bitta beburddan qutulganiga shukur qilardi.

– Unday bo'lsa...– mayor luqma tashlamoqchi bo'lgan edi, hamrohi gapirtirgani qo'ymadi, uning nima demoqchiligini tushunib turgan edi.

– Lekin bu bebosh bizga kerak. Boshqa tuzugi bo'lmagach – ilojimiz qancha! Ulardan qo'limizga odam tushmaganiga ham ancha vaqt bo'lib qoldi.

– Ha, ancha bo'ldi.

– Demak, arablar aytgandek, suv yo'g'ida tayammum. Lekin doim ko'z-quloq bo'lib turish shart: o'z yurtini qadrlamagan bizga sadoqatli bo'larmidi!

– Albatta!

– Yaxshisi shu bo'ldiki, oyog'ini o'z yurti tuprog'idan uzil-kesil uzib oldik. Endi no'xtalangan eshakdek istagan tomonga minishimiz mumkin.

– Minamiz ham-da? – kerildi mayor, – qani endi «g'ing» deb ko'rsin-chi!!

– Bunaqalar «g'ing» deyolmaydi: tovuq bo'l desang, go'ng titadi, cho'chqasan desang, balchiqda yotadi!

Xoinda, ayniqsa, qo'rqqoq xoinda g'urur bo'lmaydi.

– Saldan keyin polkovnik «bu yog'i endi sizning ishingiz» deb, mayor bilan xayrlashdi.

YOMONNING KASOFATI BA YAXSHINING SHAROFATI

Nomard solgan ko'prikdan o'tsang, g'arq bo'lasan, degandek kasofat A'zamning kasrı Nafisaga tegmay qolmadi.

Qiyinalib chaqqan yong'og'ing puch chiqqanda alam qilgandek Nafisa avval o'z qadriga yig'lagan bo'lsa, endi og'ziga kuchi yetmaganlarning «mish-mishi»dan nomus qiladi. Biri achingandek hamdardlik bildirib, yarasini tirnab ketadi. Bir xili ochiqdan-ochiq: «U-ku, go'ngini cho'qilab yurgandir, do'sti-dushman oldida sizga jabr bo'ldi. Tovoningizni bosadiganlar topilib qoladi. Attang, tekislikdagi do'nglikday ancha ko'zga tashlanib qolgan edingiz!» deb yuragiga vahima soladi, mehnat bilan orttirgan obro'yiga shak keltiradi. Chindan ham uning «tovonini bosadigan» hademay topilib qoldi. Kuzda o'rin yo'qligidan bolasini bog'chaga olmagan ayollardan biri kelib, «Eringiz bunaqa ekan, shuning uchun bizga o'xshagan beva-bechoraning bolasi ko'chada tuproq changitib umri o'tarkan», deb achitib ketdi. Bolasining kiyim-boshini kir-chir tutadigan bir juvonnı bir mahal Nafisa kabinetiga chaqirib, «o'zingiz yoshgina ekansiz, bolangizning turqi-atvoriga qarang, qo'lining kirini ikkita it yalasa to'yadi», deb qizartirgan edi. Shuning ham tili chiqdi. Nafisani ko'chada to'xtatib, «Pochcham Parijdan posilka yubordilarmi? U yoqlarda yaxshi iroqi sovunlar bo'ladi deyishadi, olqindisini bo'lsa ham bering, jiyaningizni yuz-qo'lini yuvib turardim», dedi qoshlarini chimirib, jingalak gajaklarini serkillatib.

Bular bari maydasi ekan. Gadoyning raqibi gadoy degandek, bir bog'cha mudirasi maorifdagi bir yig'ilishda uni tilga olib qoldi. Ochiqdan-ochiq, «xoinning xotini yosh

avlodni tarbiyalashga loyiqlimi?» demagan bo'lsa ham, shu atrofda til chaynab ba'zi bir soyasidan hadiksi-raydiganlarning yuragiga vahima urug'ini sochib qo'ydi.

– Mahmadona bu juvonning nega bunchalik kuyib gapirishining sababini Nafisa ham, bu yerda o'tirganlarning ko'pchiligi ham biladi. Birinchidan, bu juvon o'z bog'chasining Nafisanikidek ibratli bo'lib, tilga tushmaganidan ko'ngli to'lmasa ikkinchidan, keksa tarbiyachi bo'la turib, ana shu namunali bog'chani unga bermay, yoshgina bir juvonnı mudira qilib qo'yganlariga chidamaydi. Bu haqda orqavoratdan sasib yurganini ko'pchilik biladi. Endi payt topib, eng nozik bir vaqtda hujum qilyapti.

– Nafisa bu «o'zi bilarmon» juvonning gapidan emas, tinglab o'tirganlardan xafa bo'ldi. Majlis oxirigacha biror kishi uning gapiga «Hay, undoq emas, bundoq» deb javob qaytarmadi. Bo'lmasa, bu yerda o'tirganlar yosh bolalar emas, oldi nevara ko'rgan, turmush achchiq-chuchugini tatiganlar. Nafisaning kimligini ham, erining ishiga uning ninaning uchicha aloqasi yo'qligini ham bilishadi.

– Hatto bular ichida: «Nafisa singlim, xafa bo'lmaginku, bu senga erlik qilmaydi, yog'och qozon bitta osh pishirishga yaraydi», deb A'zam bilan yashab turganidayoq uning kimligini baholaganlar ham bor. To'g'ri, bita-yarimtası yalatma gap qilib, uning yoniga tushmoqchi bo'ldi. Lekin buni bilgan bildi, bilmagan yo'q.

– Nafisa ana shunisiga chidamas edi. Nahotki u endi qora qozonu, yaqin yurganga qorasi yuqadi! Sal o'tmay bu narsa amalda ko'rindi. Uning bog'chasi uchun buyurtirilgan bolalar stol-stullarini boshqa yoqqa berib yuborishdi. Nafisa da'vo qilib borgan edi, bittasi «och qornim, tinch qulog'im» deb yurib tursangiz-chi, deya unga «mehribonlik» qilgan bo'ldi. Nafisa bildiki, bu o'sha mahmadona juvon gapining ta'siri! Bu narsa yozgi

remont paytida yana yaqqol ko'indi. Ibratli bog'cha – yasli sifatida hammadan oldin remont qilinadigan, remont vaqtida katta-kichik xabar olib turadigan yer ro'yxatning etagiga qo'yilibdi. Nafisa bundoq qarasa, yog'in-sochinga qolib ketadigan. To'g'ri lozim idoraga kirib bordi.

– Bu qanday bo'ldi? – dedi har vaqtdagidek dadil.

Boshliq hamma narsaga aqli yetib turgan bo'lsa ham o'zini go'llikka soldi:

– Tushunmadim.

– Yog'ingarchilikka qolib ketadi-ku!

– Qolmaydi. Xotirjam bo'ling, qoldirmaymiz. Lekin uning yolg'on gapirayotgani ko'zidan ko'rinib turardi. Nafisa uning so'zining ohangi va bezovtaroq bo'lib qarashidan shuni sezdi, bu bog'chani endi qo'llab-qo'ltiqlamoqchi emas. Bog'cha yonsa-yonsinki, unga gap-so'z tegmasin, uning kabobi pishsa bas. Nafisaning bog'chaga joni achidi. Bitta uni deb, shuncha bolaga jabr bo'ladi. Bog'chaga, u tufayli, shu xil munosabatda bo'linaversa. hademay etakka tushib qoladi, jamoaning shuncha mehnati yelga ketadi. borib-borib yana kaltak uning boshida sinadi. Oqimning borishi shundan dalolat berib turibdi.

Ehtimol, u ketsa, bunday bo'lmas, bog'cha o'z o'rnida, o'z mavqelda qolar.

Shu qarorga kelgan Nafisa kursiga o'rnashibroq o'tirdi-da, og'ir bir nafas oldi.

– Bo'lmasa, meni mudiralikdan ozod qilinglar, – dedi boshliqning ko'ziga tik qarab.

– Nega? Nima uchun? – go'yo ajablangandek bo'ldi boshliq.

– Endi, – dedi hammasiga tushunib turgan Nafisa, – sizlar ham o'zinglarni go'llikka solmanglar, men ham qilsiz qiyinalib yurmay. Ikki o'rtada bog'chaga jabr bo'ladi.

– Nima deyapsiz, singlim. Sal uyquga to'ymaganga o'xshaysiz. Boring, damingizni oling. Sizni kim bo'sh-taman deyapti! Bunaqa bema'ni gaplarni qo'ying. Hali birga uzoq ishlashamiz. Boring, bugun shashtingiz past, boshqa vaqtda gaplashamiz. Remont bo'ladi. Bitta remont uchun...

– Bitta remont uchun emas! – uni bo'ldi shartta Nafisa.

– Nima uchun bo'lmasa?

– Erim uchun. Bor bo'lib to'rda, o'lib go'rda bo'lmagan erim uchun!

Boshliq «Voy, nodon-ey!» degandek shunaqa xandon solib kuldiki, Nafisa erini tilga olganiga uyalib ketdi. Boshliq ko'zlaridagi yoshni atir purkagan ro'molchasi bilan atayin uzoq artib, keyin dedi:

– Yosh bola bo'lib qolibsiz, Nafisaxon. Sizning pasportingiz o'z nomingizdami, yoki ikkalanglarga bit-tamidi? Alohida bo'lsa nimadan qo'rqasiz?

Bola ota uchun, xotin er uchun javobgar emas. Yal-langizni qilib yuravering. Kishilarning soyasiga qarab to'n bichadigan vaqtlar o'tib ketgan. Erga tekkandan keyin bizga kelgan emassiz, bizga kelgach, turmushga chiqqan-siz. Garchand, to'yga aytmagan bo'lsangiz ham, sizni biz yaxshi bilamiz. Aslo xavotir olmang.

– Shunday bo'lsa ham... – bo'shshib gap boshlagan edi Nafisa, boshliq ilib ketdi. Nazarida ayni maqsadidagi payt kelgan edi.

– Bo'lmasa, bunday qilaylik, singlim. Siz yo'q deyap-siz-ku, aslida qattiq charchabsiz. Otpuska qiling, biror dam olish uyiga boring. Putyovka bor. Aytaman, imtiyozli qilib to'g'rilab berishadi. Kelishdikmi? Xo'pmi?

– Xo'p! – dedi Nafisa hammasiga tushunib.

– Siz ham yozda bir otpuska qilib qo'ying! Nafisa-ning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib chiqarib yuborgan

boshliq, uning orqasidan eshikni zichlab yopdi-da, dimiqib ketgan kishidek oxori to'kilmagan oq ko'ylagining ko'krak tugmachalarini yechib, uzoq yelpindi, hatto ichidan dardini chiqarib yuborayotgandek uzoq «uh-h» tortib qo'ydi. Nafisa esa, ziyrak Nafisa esa, «odamgarchilik» va «mehribonlik» tubida qanaqa bo'tana niyatlar yotganini fahmlab, basharasiga oyog'ini tiragan betavfiq eridan emas, sariq chaqaga qimmat, o'zi ulug', sup-rasi quruq bu maxluqning shamolidan dimog'i achib, yuragi cho'chib yurgan «vatanparvar»lardan xafa bo'ldi. Nahotki, bu amaldor shunchalik yuraksiz, shunchalik kaltafahm! Nahotki, yomonning xotini yoki bola-chaqasi ham yomonu, ularning kasri bularning obro'yiga, amaliga, mavqeiga putur yetkazadi. Bularning og'zidan oshini to'kib, tagidan mashinasini tortib oladi! Ko'chasini changitib, dabdabali xonalariga gard o'tqizadi. Tag'in bu munofiq ishlarini pinhona, shirinso'z, oltin o'ra va'dasi bilan niqoblaydilar, yelkangga qo'l tashlab, kabinetlaridan eshikkacha kuzatib, qo'lni qattiq siqib xayrlashib amalga oshiradilar. Ko'zlarida, xatti-harakatlarida hammasi ko'zgudek ko'rinib turgan bo'lsa ham uyalishmaydi. Yoki bilinmaydi, deb o'ylashadimi? Yoki hech kimning basharasiga «Munofiqlik qilmang! Men ichingizni ko'rib turibman!» demaganidan ular shunaqa surbetlik qilishadimi?

Xuddi shundaydir. Mana, men hammasini bilib turib hech narsa demadim, deyishga jur'at etmadim-ku! Vaholanki, aytishim mumkin edi. Shunday o'ylar to'fonida goh uchib, goh cho'kib bog'cha-yaslisiga qaytgan Nafisa kabinetiga kirib achchiq yig'ladi. Qo'li ishga bormay uyiga jo'nadi. Saldan keyin uni so'roqlab telefon qilgan Ummataliga ziyrak xizmatchilari: «Bugun noxushroq kelib, toblari qochib chiqib ketdilar», deb javob qilishdi. «Tag'in nima bo'ldi, bechoraga? Hech boshi tashvishdan

chiqmadi-chiqmadi!» degan Ummatali shahardagi ishlarini bitirib, Surayyoga bitta qo'g'irchoq oldi-da, unikiga kirib bordi.

Nafisa «orqadagi gap, oxurdagi nishxo'rd» deb o'ziga dalda berib, televizor ko'rib o'tirardi. Televizorda esa, uch bolasi bilan beva qolgan bir xotinning taqdiri hikoya qilinardi. Eri borida chiroyli kiyinib, yaxshi yeb yurganiga mast bo'lgan xotin, boshiga tushgan bevalikni mardonavor yengib, necha sinov, necha g'ovlardan o'tib, bolalarini oyoqqa turg'izadi, kishi qatoriga qo'shadi. Ummatali eshik qo'ng'irog'ini bosganda o'sha beva birinchi maoshiga ichib kelgan kenja o'g'lining boshida: «Senga qaysi nomard ichirdi, bolam? Sening yosh joningga qasd qilgan kim!» deb turgan edi. Shuning uchun birinchi qo'ng'iroqni Nafisa eshitmadi. «Shu mahalda chaqirgan kim ekan?» deb og'rinib o'rnidan turgan bo'lsa ham, Ummatalini ko'rib, quvonib ketdi.

– Nechuk? Kimning shamoli uchirdi? – dedi ko'rishayotib. Unga stol tutdi.

– Bugun yana xafa bo'lib yurganmishsiz. Tinchlikmi?

– Tinchlik. Yana o'sha g'alva.

– Yana bir narsa qilibdimi?

– U-ku, o'lganlardek jim bo'lib ketdi. Bu yerda ba'zi birovlarining paytavasiga qurt tushib qoldi.

– Tushunmadim? – «Ochiqroq gapiring!» degandek tikildi Ummatali. Uning vujudi quloqqa aylangan edi.

– Xoinning xotini bo'lganimdan keyin...

– Bir narsa deyishyaptimi? Ochiq aytishmasa ham...

– Hm,— deb qo'ydi Ummatali. Ko'nglidan: «Hammasi tushunarli. Bu bizning hayotda yangilik emas. Lekin hozir bo'lmasligi kerak edi. U baqaterak kesilib, to'nkasi kovlab olib tashlangan bo'lsa ham, mayda ildizlar bor-da, unda-bunda ko'zga tashlanib qoladi. Afsus!» degan fikr o'tdi.

– Menga qarang, Nafisa, g'amni o'rtoqlashgan yaxshi, bir kishiga og'irlik qiladi. Endi nima qilmoqchisiz? – dedi Ummatali ko'nglida bir reja tuzilgan kishidek.

– Otpuska berishyapti, dam olishga yuborishyapti. Keyin yana bir gap bo'lar. Lo'lining eshagini sug'orib, pulini olib turay-chi! Ko'chada qolmasman.

– Kim ko'chada qolibdiki, siz qolasiz! Bu to'zon o'tib ketadi. Lekin o'tguncha ko'zni achitgani yomon. Bundoq qilsak, Nafisa, qo'ying shu bog'changizni! «Nega endi?» deganicha Nafisa tikilib qoldi. Lekin nima uchundir, ko'ngliga qiziq fikr kelib, kuldi:

– Badavlat kuyov topdingizmi?

– Yo'q, – dedi Ummatali go'yo bu so'roq jiddiydek, – qo'ying bog'chani ham, shaharni ham. Sovxozga yuring. Shahardan kamligi yo'q. Bog'chani kengaytiraymiz. Yangi bino soldik. Tinchgina ishlaysiz. Kishilari biram yaxshi. Havosini aytmay sizmi?

Bu gapdan Nafisaning qorong'i ko'ngliga nur to'lgandek bo'ldi. Sovxozga taklif etishning ma'nosi boshqa, go'yo Ummatali uni o'ziga turmushga chiqishga taklif qilayotgandek yuragi bir hapriqib, ko'zi pirlirab ketdi. Yuziga sal qon yugurganini o'zi ham sezdi shekilli, Ummatali olib kelgan qo'g'irchoq «bola»ning sochini silab, goh ochilib, goh yumiladigan ko'zini o'ynab o'tirgan Surayyoni engashib tizzasiga oldi. Roziligini kutib turgan Ummataliga javob qilish o'rniga, qiziga gap qotdi:

– Amakingga rahmat dedingmi?

Uyalgan Surayyo besh marta aytdim, degandek panjasini yozib ko'rsatdi. Uning bo'g'in-bo'g'in barmoqlarini kaftiga olgan Ummatali bolani gapga soldi:

– Qo'zini yaxshi ko'rasanmi?

– Oqinimi? Qorasinimi?

– Sen qanaqasini yaxshi ko'rasan?

– Men hammasini. Siginini ham.

- Buzoqni-chi?
- Buzoqni ham. Shoxi yo'g'ini.
- Soqoli borini-chi?

Gap nima haqda ketayotganiga tushunmay, Surayyo oyisiga qaradi.

– Nega menga qaraysan? Amakingga javob ber. Nimaning soqoli bo'ladi?

– Buvamni.

Kulib yuborishdi. «Voy, bolasi tushkur-ey!» degan ona, bolasini bag'riga bosib o'pdi.

– Ha, rostdanam, boboy tuzalib ketdilar-mi?

Nafisa boshi bilan «yo'q» ishorasini qilib:

– Cholni yiqitdi. Farzand dog'i yiqitdi, – dedi achinib, – u o'lgur otasini ko'pda yoqtirmas edi-ku, chol astoydil yaxshi ko'rar ekan. Bo'lmasa, oldida azamat o'g'illari bor.

– O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qiligi, Nafisaxon! Og'zidan ona suti ketmagan bolalarga siz bilan biz qancha kuyib-pishamiz-ku. U topar-tutarli edi.

– Topgani o'lsin, tomsa, otasiga yalatmas edi!

– Har kim ekkanini oladi. Bu qilmishining bir ko'rgiligi bor hali unga. Qilmish – qidirmish! Ko'ngilxushlik bilan borib turgan suhbatga A'zamning qilmishi aralashuvi choyga pashsha tushgandek hammasining tabiatini xira qildi. Bu holatdan ularni yana qizchani o'zi chiqardi.

– Siznikida soqolli buzoq bormi?

– Buzoq emas, echki. Soqoli bor echki bo'ladi.

– Soqolidan bog'lab qo'yasizmi?

– Nega? Bo'ynidan.

– Soqolini nima qilasiz?

– Joyida turadi. Sen borsang o'ynaysan. Borasanmi?

Qiz javob o'rnida oyisiga qaradi:

– Boramizmi? Adam o'shatdadir.

– Adang u yerda yo'q. Juda uzoqda. Hech kelolmaydi.

– Bo'lmasa men, men kimni ada qilaman?

«Bola bechora, adasini sog'inibdi», degan Ummatali bilan Nafisaning ko'zi nogoh to'qnashdi. Surayyoning savoli o'zining samimiyligi bilan onasining yuragini o'rtab yuborgan bo'lsa, ota diydoriga to'ymay ulg'aygan Ummatalining yodiga go'dakligini tushirdi. Uning otasi ham birdan yo'q bo'lib qolgan edi. Es-es biladi: oriq, mo'ylovi bor, doim kulib turadigan odam edi. Guzariga opichlab chiqib, ikki tomonida shokilasi bor uzun obakidandon olib bergan. Shundan boshqa hech narsani eslamaydi. Ehtimol, u ham shu oldida o'tirgan ma'suma qizdek otasini so'roqlagandir, ichikib, o'rniga ag'anab yig'lagandir. «Dadang Olatog'da, oldiga borib bo'lmaydi, olabo'jilar bor», deganini hamon o'qtin-o'qtin xotirlaydi. Demak, u ham sog'ingan. Bo'lmasa onasi bunaqa so'zlar aytib uni qo'rqitmas edi.

Ummatalining gunohsiz qizga rahmi keldi. Tili bilan bir narsa demasa ham, yumshoq ipak sochlarini siladi, qo'g'irchog'ini to'g'rilab qo'lga tutdi. Bola hamon o'z savoliga javob kutgandek javdirab turardi.

– Meni ada qila qol! – dedi Ummatali oxirini o'ylamasdan bolaning ko'ngli uchun. Lekin Nafisa buni o'zicha tushunib, lavlagi bo'lib ketdi. Ana shundagina Ummatali o'z javobi bilan qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarganini fahmladi, badanini muzday ter qopladi. O'zini o'nglab olmasdan qiz yana savol berdi: – Siz ketib qolmaysizmi? Ummatali «bo'lar ish bo'ldi» degandek:

– Yo'q! – dedi.

Qizining savollaridan xijolat teriga botgan Nafisa, uni bag'riga bosib, og'zini berkitdi. Bu bilan ham kifoyalanmay, yolg'ondakam urib:

– Savoling qurmasin! – dedi.

Shundan keyin Nafisa, unashilgan qizdek uyalib, Ummatalining yuziga qarolmadi. Choy damlab kelib ham, piyola uzatib ham, televizorni goh oqish, goh qoramtir

qilganida ham u bilan ko'zini to'qnashishidan olib qochdi. Hatto ko'nglidan, «Tezroq keta qolsaydi», degan xayol ham o'tdi, lekin u quyuq xayriashib ketganda o'rnini yo'qlanib, uyi huvillab, qizining: «Endi qachon kelasiz? Yana qo'g'irchoq olib kelasizmi?» degan biyron so'zlari jaranglab, shuning bittasini o'zi olib bermaganiga o'kingandek bo'ldi. Nahotki niyati jiddiy? Surayyo bilan hazillashdi shekilii. «Hazil! Meni bitta bolam bilan, yana xoinning bolasi bilan boshiga uradimi? O'zi kechagina bir tuhmatdan zo'rg'a qutulib kelgani bo'lsa. Meni olib, boshini yana yuvindiga tiqadimi! Qo'y, bechora tinchgina yashasin. Yoki ikki yorti bir butun qilmoqchimi? Yo'g'-e! Bir hazillashdi-qo'ydi-da! Hali Qimmatxon bilan topishib ketadimi! Ammo shunday kishi Qimmatxonga uvol! Uni hidlamagan it qolmadi. Tag'in kim biladi, o'rtaga nozik odamlar tushsa, u ko'z yoshi qilib tavbasiga tayansa, bitishib ketadimi? Yo'q, u bilan topishmasligi kerak. Yigitlik hamiyati bo'lsa, tupurgan tupugini qaytib og'ziga olmaydi. Qanday qilib bilib-ko'rib turgan holda irganmasdan yana qo'yniga kiradi».

Bu o'ylar umrida begona yigitga bilagini ushlatmagan Nafisaning badanini seskantirib yubordi, palag'da tuxum yutgandek ko'ngli aynidi. Shunday yigitning qadriga yetmagan Qimmatxonga nisbatan xotinlik qahrini kelib, nafratlanib Ummatalini himoya qila boshladi. Eridan umidi bor ekan, yaxshi kunida nonni yog' bilan yegan, yomon kunida shataloq otmasdan, sabr qilib o'tirmaydimi! Avvalam uni sevmagan. «Sevaman» deganu uni sevmagan. Sevaman deb o'zini aldab yurgan. Unga erkak kerak bo'lgan. Borida ochilib-sochilib yurgan, ko'zidan g'oyib bo'lgach, o'rniga yana bir erkak yollagan. Bunaqa xotin Ummatali tugul, erkak zotiga loyiq emas. Aqli butun bo'lsa, xotining shu qilganiga uni kuydirib, o'rniga qirchillama qiz oladi. Kuyib o'lsin. Bunaqa xotinlarning kuyib

o'lgani yaxshi, boridan yo'g'ri. Xotin zotiga isnod keltiradi. Nega shunaqalarga indashmaydi? Birovning uyidan eski sochig'ini beso'roq olgan – o'g'ri, jinoyatchi. Shu uy ega-sining insonlik nomusini bukib, yuztuban ish tutgan nega jinoyatchi emas? Bundan zo'r jinoyat bormi? Birinchi navbatda shunaqalarni jazolash kerak. Toki sof kishilarning sha'niga isnod keltiradigan, uning umrini bevaqt xazon qiladigan dunyoda qolmasin! Shunday muhokamalardan keyin Qimmatxonga qancha g'ashi kelgan bo'lsa, uning qurboni bo'lgan Ummataliga shuncha mehri uyg'ondi. U avvalgidan ham o'ziga yaqin kelgandek tuyuldi. Uning gap-so'zida, yurish-turishida odamiylik mavjud. Bu odamiylik, bunday odamiylik faqat vijdoni toza, ko'ngli oq odamdagina bo'ladi.

Nafisaning xayolida Ummatali bora-bora shunday odamga aylandiki, undan ko'ra yaxshisini, undan ko'ra sofini umrida uchratmagan, unga gard qo'nsa yelpib, yursa yo'lga poyandoz solishga tayyor edi. Uning har so'zi dardiga em, maslahati qonun, yo'l-yo'rig'i o'rinli. Shuning uchun bo'lsa kerak, bir haftadan so'ng Nafisa ta'tilga chiqib, shahar chetidagi dam olish uyiga ketadigan bo'lganda Ummatali mashina yuborib, o'zi kelmaganda ko'zlarini allakimni qidirgandek mashina atrofida javdirab, yuragi uzilgandek bo'ldi. Shofyordan: «O'zlarini nega kelmadilar? Tani-jonlari sog'mi?» deb so'rashiga sal qoldi. Keyin bilsa, dam olish uyi shundoqqina sovxozning yo'lida ekan. Kechqurun: «Yaxshi o'rnashib oldingizmi? Kayfingiz nechuk?» deb keldi. Sovxozda bo'layotgan ishlardan quvonib gapirib, o'tgan-ketganni eslashdi. Shunda «birdan» Nafisa Qimmatxonni tilga olib:

– Shu o'tirishimizda ko'rib qolsa-ya!– dedi.

– Ko'rsa nima! Undan hech kimning tili qisq yeri yo'q.

– Ming qilsa ham nikohingizda...

– Rostini aytaymi, Nafisaxon, hech esimga kelmaydiya. Ko'ngil qolgandan keyin yomon bo'larkan.

– Qolgan ko'ngil – chiqqan jon, deb bekorga aytishmaydi.

– Juda to'g'ri. Bo'lmasa bir-ikki yil emas, bir necha yil bir yostiqa bosh qo'yganmiz.

– U ayshini qilib yuribdi, sizning ham bir kuningiz o'tyapti-ku, Mas'udjonga qiyin bo'ldi: ikki o'rtada sarson. Ko'p ichikadi. Ba'zan yolg'ondan bo'lsa ham: «Dadang telefon qildi», deb ko'nglini ko'tarib turardim. Mana endi men ham...

Ummatali, «Hali shunaqa mehribonlik ham qilib yurganmiding», degandek hamsuhbatidan ko'nglida minnatdor bo'lib, o'g'lining taqdirini o'ylab xomush tortdi.

– Sekinroq aytasizmi, Nafisaxon, bolaga juda yomon bo'ldi. Jon deb o'zimga olardim-ku, onasi osonlik bilan xo'p demaydi.

– Xo'p deyishi ham mumkin, hozir o'zi bilan o'zi ovora, ko'ziga bola ko'rinmaydi.

– Nima, yana yangisini topibdimi? – ijirg'anib so'radi u.

– Voy, hali eshitmadingizmi? Hozir bitta yoshgina yigit bilan topishgan. Xotini kelib, qiyomat-qoyim qilib ketibdi.

– Juvonmarg bo'lsin, birovning turmushini buzmay!

– Bunaqalarga balo ham urmaydi, Ummatali aka, chumchuqdek bir silkinib, uchib ketaveradi.

– To'g'ri, sharmandaga shahar keng. – Yuragining allaqayeri achishgandek bo'lib dedi Ummatali. Shunday bebosh xotin hali ham o'z nikohida turganidan bo'lsa kerak, o'ylanib salmoqlandi:

– Orani ochdi qilib qo'yish kerak edi, ishdan qo'l tegmaypti. Ana-mana bilan tong otib, kun botib vaqt o'tyapti. Nafisa indamadi. Bir narsa deb maslahat bersa, o'rniga o'zini ro'kach qilayotgandek bo'lib ko'rindi. Lekin ko'nglining bir cheti uning o'shanday «it tekkan» xotin

bilan haligacha bog'liqligidan xira tortdi. Dam olish uyi sovxozning yo'li ustidaligi yaxshi bo'lgan ekan, shu kundan boshlab, Ummatali o'tgan-ketganida boshini suqib o'tadigan bo'lib qoldi. Ba'zan: «Mana buning ta'mini ko'ring! O'zimizning sovxozdan» deb meva-cheva tashlab o'tadi. «Zerikayotganingiz yo'qmi?» deb tegishadi. Bir kirdanda voleybol o'ynayotgan yigitlarni ko'rsatib:

– Yoshlar ko'p ekan-a! – deb qo'ydi.

Bu rashk alomati deb, to'g'ri tushungan Nafisa ham bo'sh kelmadi, tubli qilib:

– Burgut toshbaqa go'shti yemaydi! – dedi. O'zini toshbaqaga o'xshatib, bunchalik yerga urganidan Ummatalining ko'ngli zirqirab ketgan bo'lsa-da, uning taqdirini o'ylab «Buning ham ahvoli og'ir: etagiga axlat tekkan» deb qo'ydi. Shunday bo'lsa ham, ko'ngli uchun:

– Gavhar go'ngga tushgani bilan qadrini yo'qotmaydi, Nafisaxon, bunchalik o'zingizni pas tutmang, – dedi.

Nafisaga yoqib tushdi shekilli quvnoq kulib, minnatdorlik bildirdi:

– Rahmat, juda yuqoriga chiqarib qo'ydingiz.

Tushishda toyib ketmasam edi.

– Toysangiz o'zim ushlab qolaman.

– Ha, shunaqami?! – nazokat bilan erkalandi Nafisa. U shu daqiqada birdan yosharib, do'ndiq qizlardek ochilib ketdi. Ko'nglining ufqida qachonlardan beri cho'kib yotgan qayg'u-alam g'ubori tonggi tumandek tarqaldi, tabiati yorishdi. Bu yorishish uning tilini burro qildi.

– Ehtiyot qiling, o'sha ushlab olayotganingizda qo'lingizdan tushib ketmay.

– Yo'q, tushmaysiz, qo'llarim baquvvat. Ummatali qo'lining kuchini ko'rsatayotgandek Nafisaning kafti orqasini qattiq siqib qo'ydi. Nafisa qo'lini tortib olmadi, faqat ko'zlarini yerga tushirdi. Shundan uch kun o'tgach, «Sovxozga kelib-keting» deb odam yubordi. Sababini

tushunolmagan Nafisa, Ummatalining yuzidan o'tolmasdan, indamay mashinaga o'tirdi. «Nima gap?» deb shofyordan surishtirishga ham botinmadi. Undan keyin, o'zi ham uni sog'inganga o'xshardi. Yo'lda keta turib: «Sevgi deganlari shu emasmikan?» deb ko'ngliga savol berdi-yu: «Ha, shu! Yana sevgiga muhtalosan. Bu otashdan bir tiling kuygan edi, endigisi shoyad xayrli bo'lsa!» deb o'zini iqror etishga botinmadi. Lekin uni ko'rishga yuragi entikib, ko'zi uchib turganiga amin edi. Ummatali uni eski qadrdonlardek kutib oldi. «Yaxshi keldingizmi? Atrof chiroyli-a?» degandan keyin to'g'ri direktor huzuriga boshlab kirdi.

So'rash yo'q, netish yo'q, birdan:

– Men bog'chamizga taklif etgan kishi – shu! – dedi.

Ikkiga bo'lingan, ikki xil ko'rsatadigan ko'zoynagining ostki qismidan qarab, nimanidir jadal bilan yozayotgan Azimxo'jayev o'ziga xos tetiklik bilan boshini ko'tardi. Ko'zoynagining tepa qismidan termilib, qo'lini uzatdi, Nafisaning qo'lini qo'yib yubormayoq:

– Juda yaxshi. Men rozi. Ko'rsating. Yoqsa, ish boshlasinlar. Hamma shartimizni ayting. Oltin tog' va'da qilmang! – dedi.

Nafisa hang-mang bo'lib qoldi. Ummatali oldinroq ogohlantirib qo'ymaganidan sal xafa ham bo'ldi. Unga ergashib direktor kabinetidan chiqdi.

O'pkaladi:

– Kishi ham shunaqa dangalchi bo'ladimi?

– Menmi, direktormi?

– Ikkingiz ham!

– Nima, sizga pismaniq yoqadimi? – hazilga oldi

Ummatali.

– Gap unda emas-ku.

– Gap bug'doyda deng, – uning so'zini bo'ldi kulganicha suhbatdoshi, – hammasini tosh-tarozi qilib bo'lganmiz, siz ajablanmasligingiz mumkin.

– Shunday bo'lsa ham...

– Unda ayb menda. Meni kechirasiz! Nafisaning o'pkalashi o'pkalashdan ko'ra erkalanishga o'xshardi. Shuning uchun ham Ummatali darrov uzr so'ray qoldi. Uning bu uzr so'rashi: «Nafisaxon, sizning urganingiz un oshi, so'kkaningiz so'k oshi. Shu o'pkalashingiz ham o'zingizga yarashadi», deb turardi. «Buncha yoqimtoy bu kishi», degan Nafisa yangi solingan bog'chaga qanaqa qilib kelib qolganini bilmadi. Undagi kishilar bilan tanishdi. Binoni aylanib chiqdi. Tajribali murabbiyalarga xos nazar bilan atrofni kuzatdi. Hatto oppoq choyshabni ko'tarib, to'shakni ham ushlab ko'rdi. Yostiq jildining tugmasi yetmaganidan labini tishlab, «Yaxshimas. Tugmacha degan nima!» tarzida bosh chayqadi. Umuman, unga bog'cha yoqdi. Lekin shahardagi o'z bog'chasiga o'xshatish uchun hali ancha-muncha ter to'kishi, o'sha dangalchi direktor bilan necha bor jang qilishi kerak edi. Shunda ichki bir nido: «Cho'chima. Ummatali bor-ku!» deb dalda berdi. Bu nido uni qanoatlantirardi.

– Qalay? – dedi Ummatali bu yoqqa chiqishgach.

– Yaxshi! Ancha ishi bor.

– Shuning uchun ham shahardan sizni taklif etyapmiz. Nafisa esa, «faqat shu uchungina meni olib chiqib kelayotganmikinsiz? Boshqa ma'nosi yo'qmi?» degan xayolga keldi. Shubhaga o'xshagan bu xayol yuragini shig'illatib yubordi; nahot tunov kungi gaplari hazil bo'lsa! U bu fikrni tezda bir chetga kuch bilan yig'ishtirib, Ummatalidan so'radi:

– Ayting-chi, direktoringiz bolani yaxshi ko'radimi?

– Bilmadim.

– O'z bolasi yo'qmi?

– Bir qiz, ikki o'g'li bor ekan. Hammasi o'zidan tinchib ketgan. Bitta nabirasi shu yerda, buvisi bilan.

– Demak, bolani yaxshi ko'radi. Bo'lmasa, qulog'iga bola yig'isi yoqmaydigan yoshda nabirasini oldida tutmas edi.

Ummatali Nafisaning bu «falsafasi» ma'nosini tushunib, kulib yubordi.

– Nima, bolani yoqtirmasa, bog'chaga qarashmaydi, diysizmi? Xotirjam bo'ling. Xomtokda ketgan g'o'raga joni achiydi. Nafisa shu kuni kechgacha sovxozda bo'ldi. Ummatali sovxozni aylantirdi. Gox faxrlanib, goh achinib qilingan va qilinayotgan ishlardan so'zlab berdi. Uning so'zidan bu yerlardagi har bir tup tok, har dona chechak, har tup meva uning taqdiri bilan bog'liq, quvonchining boisi, umrining samarası. Sovxoz yerida bir balandgina tepalik bor. Televizorda sovxoz haqida biron narsa berishmoqchi bo'lib kelib qolishsa, uni ko'rib operatorning xazinaga yo'liqqan sayyohdek ko'zi yonib ketadi. Chopqillab ustiga chiqib, atrofga nazar tashlaydi-yu, mahliyo bo'ladi qoladi. Bir tomon uzumzor bir tomon olmazoru olchazor. O'rtada kunga solingan qilich damidek yarqirab anhor oqadi. Unga qiyalab tushgan maysazor boqilgan saman ot sirtidek ming tovlanadi. G'uj-g'uj pada ko'zga tashlanib, olislar gulxan olovidek jimirlaydi. Qorli tog'larga borib taqalgan bu to'lqinsimon kenglik ko'rganning havasini keltirmay qolmaydi.

Ummatali Nafisani ana shu tepalikka qo'lidan ushlab, boshlab chiqdi. Usti yassi bo'lgan bu tepalikda u yoq-bu yoqqa qarab, shaharda o'sgan qizning ko'zlari yashnab, ichidan hayajoni qaynab-toshdi:

– Voy-bo'y, buncha chiroyli! O'zinglar yasaganmisizlar bu yerni? Hamma yoq kaftda turgandek ko'rinadi-ya!

– Tabiat o'z go'zalligini namoyish qilish uchun shu tepalikni bunyodga keltirgan. Nafisa qo'llarini peshanasiga soyabon qilib uzoq-uzoqlarga suqlanib qaradi. Uzoq qo'yilgan gugurt qutichalaridek bo'lib g'uj ko'ringan

qishloqlarni, ko'lga o'xshab turgan ko'm-ko'k uzumzorni, yo'l yoqasida saf tortib ketgan mirzateraklarni, unda-bunda sadarayhondek nazarga ilinayotgan yakka sadaqayrag'ochlarni tomosha qildi. Ora-sira zavqini tili bilan tarjima qilib turdi. Unga ma'qul bo'lganidan mamnun Ummatali pastga yugurib tushib, tepalik etagidagi uzumzordan ikki bosh charos uzib chiqdi. Chayladagi suvga chayqadi.

– Mana buni yeb, tomosha qilsangiz yana yaxshi: ko'zingiz husnini, tilingiz ta'mini biladi.

– Voy ovora bo'ldingizmi! – degan Nafisa bir boshini olib, bir boshini uning o'ziga qoldirdi, shuncha qilsa ham olmadı, – o'zingiz ham yeng, taom egasi bilan shirin.

– Biz kunda shunda. To'yib qolganmiz.

– Ko'ribmi? Yebmi?

– Ikkisiga ham. Ichida yurganingdan keyin ko'pda ishing ham bo'lmaydi. Ba'zan bir bosh-yarım boshni nahorga yemasam...

– Anavi, anoyi kishini ko'ring. Nahorda emish. Albatta nahorda yeganingizdan kuni bilan ishingiz bo'lmaydi-da. Bu chaylada kim turadi?

– Bir bog'bon chol.

– U kishi ham hech narsani bilmas ekan-a! Bir sodda kishi qassobning oldiga borib, go'shtga aqlim yetmaydi, mana shu yeridan kesa qoling, deb lahm soni bilan biqinini ko'rsatgan ekan.

– Dilgirlikdan chiqib qolgan deyishadi.

– Dilgirlikdan? – Nafisadagi quvnoqlik suv sepilgan cho'g'dek bir zumda o'chdi.

– Ha. Urushdan uchta azamat o'g'li qaytmagan ekan.

– Bechora!

– O'zining bu atroflarga mehnati singgan odam. Katta bog'bon.

– Boshqa bolalari bormi?

– Bor. Chiqargan qizi huv anavi qishloqda turadi.
– Ummatali qo'li bilan ko'm-ko'k ko'lga o'xshab turgan daraxtzorni ko'rsatdi. – Bir o'g'li Toshkentda o'qiydi. Cholning o'zi tili shirin, yetmish hunarga omil. Bir ish bo'lsa maslahatning boshida, sovxozda u kirmagan eshik, uning og'zi tegmagan qoshiq yo'q. Shu tepa ham uning nomida «Chol tepa» deyishadi. Otaning o'zi ham qirga poda chiqqandan to kuzgacha shu yerda.

– Ko'rinmaydilar-ku.

– Shu atrofda yurgandir. Ularning bu gapini eshitgandek chol toklar orasidan chiqib keldi. Bir qo'lida tokqaychi, bir qo'lida katta bir bosh uzum. Yuz ko'zini jumbosgan, sersoqol, kipriklari uzun ko'zi tez-tez pırpırab turadi. Egnida yaktak, boshida nursizgina do'ppi, oyog'ida tikanu giyoh tirnab tashlagan, qanday teriligi noma'lum etik. U keksalarga xos salmoqlab tepalikka chiqib keldi. Uzunni Nafisaga tutib, Ummataliga gap tashladi.

– Kelin kelgan ekan-da. Sayr qildirib yuribsizmi? Juda yaxshi. Sayr qilsa kishining bahri ochiladi. Nafisa qıppıqızarib ketdi, Ummatali xijolat tortdi. Darrov izoh berdi:

– Bog'chamizga mudira bo'lib kelmoqchilar.

– Hm. Men kelinposhshamı debman. Kelinni hech bu yoqlarga olib kelmadingız shekilli? Mevani o'z qo'li bilan uzib yegandan dasturxondagısını yaxshi ko'radigan shaharparastga o'xshaydi. Ha, ular dalaga chiqsa qorayishdan qo'rqadi.

Nafisa bilan Ummatalining ko'zlari to'qnashdi. Nafisanıkida sodda cholning so'zlaridan uyalish va shu bilan birga uning dono gaplaridan zavqlanish bo'lsa, Ummatalinıkida javobsız xijolat va dakkidan tortinısh bor edi. Nafisa, nima uchundir:

«Javob bermaysizmi?» degandek ko'zining bir chetini chimirdi. Ummatalining esa, tili so'zga kelmas, rostini aytib, cholning tabiatini xira qilishni istamagandek, yolg'on

gapirib aldagisi ham kelmadi. Undan keyin tarixini ham-maga aytishi shartmi!

Chol javobga unchalik muhtoj emas ekan shekilli, kutib o'tirmadi. Tok qaychisini chiqillatganicha chaylasiga kirib ketdi. Ichkaridan ularni o'z huzuriga taklif etdi. Ko'nishmaganidan keyin bitta non bilan termosda choy ko'tarib chiqdi.

– Ey, nimaga ovora bo'lyapsiz? – yugurib qo'ldan oldi Ummatali.

– Chaqirsam kirmasanglar. Bir piyola choy ichmasdan ketasizlarmi? Uzumning shirası axir tomog'inglarni olgandır.

Ummatali choy quyib, odob yuzasidan cholga uzatdi. Chol: «O'zinglar ichaveringlar!» deb olmadı:

– Mehmonga bering, – dedi u Nafisani ko'zi bilan ko'rsatib.

– Voy, sizdan oldin ichamanmi, – degan Nafisa olishga majbur bo'ldi.

– Agronom bolam, – gap boshladi chol, – tunov kuni yangi tokzor haqida gap ochdingiz. Men xursand bo'ldim. Yurgan yo'limda qayerdan qancha qalamcha olishni mo'ljallab qo'yyapman. Ummatali birdan jonlanib ketdi.

– Juda yaxshi-da, otaxon. Sizga o'rgatguligi yo'q. Butun tokzorlarni aylanib chiqsam, o'zimizning dasturxonbop yaxshi uzumlarimiz kam.

– Yo'q deyavering, – unı bo'ldi chol o'kingandek, – hozir vinobopiga kuch berishyapti.

– Vino uchun ham kerak. Lekin o'zimizning sohibi, shivirg'onı, echkiemar, kattako'rg'on, daroyi, hasayniga o'xshagan ajoyib navlarimiz yo'qolib ketmasligi lozim. Yangi tokzorga xuddi shulardan ekamiz.

– Balli, o'g'lim, otangizga rahmat! Bu juda savob ish. Siz joynı boshiqlar bilan gaplashavering, har qancha ko'chatu qalamcha bo'lsa men yetkazib beraman.

– Rahmat! Bog‘bonligini ham o‘zingiz qilasiz.

– Yo‘q, yo‘q, bolam! Meni bu yerdan qo‘zg‘atma. Issiq yerimni sovutding – bo‘lmaydi.

«Shu yer» deganda tepalikni tushungan Nafisa, otaning yonini oldi:

– Otamning ishlari shu tepalikka tushgan ekan, bezovta qilmang.

– Bu yer menga daf‘i savdo. Pastga tushdim siqilib ketaman, birov sandiqqa solib qulflab qo‘yayotganga o‘xshaydi. Undan keyin mening shartim ketib partim qolgan. Yoshroqni qo‘y! – Chol «endi bu haqda gap ochma!» degandek Nafisaga yuzini burdi.

– Siz ham shahardanmi? Juda yaxshi. Shahar nafasini olib chiqib qorishtirmasanglar, qishloqning qad ko‘tarib ketishi og‘ir. Ikkisi og‘a-ini. Og‘asining mehribon bo‘lgani yaxshi. Keling, kelsangiz ziyon qilmaysiz. Bu yerlarning havosi o‘zgacha. Bahringiz ochiladi.

«Bahringiz ochiladi» jumlası Nafisaning qulog‘iga «baxtingiz ochiladi» bo‘lib eshitildi. Yuragi qandaydir totli shuvillab, nafasi tiqilgandek entikdi. Shu bilan bir vaqtda vahima bosdi. Bu nimaning vahimasi – bilolmadi. Bu holatdan bexabar chol yana gapga kirdi.

– Yana bitta qiladigan ishingiz bor, Ummatali. Ummatali «Xo‘sh? Xo‘sh?» degandek uning soqol-muylov bosgan og‘ziga qaradi.

– Ko‘ksulton, qizil sulton, nashvati, tosh nok, mag‘zi qizil jaynaqi olma, shotut, taram-taram Samarqand olmasiga o‘xshash talay mevalar ham kamayib ketyapti. Shu beparvolik bo‘lsa, besh-o‘n yildan keyin doriga qidirib qolamiz. Shuni ham bir o‘ylab ko‘ringlar.

– Yaxshi esga soldingiz, ota! – dedi Ummatali mamnun xayolga cho‘mib. – Chindan ham ko‘p narsa kamayib ketyapti. Nega bunday? Beparvolik oqibatimi yoki tabiati nozik mevalar bo‘lganidan mehnatidan qochilyaptimi?

El undan yuz o'girib yemay qo'ygani yo'q. Tosh nokni kuzda dimlab, qishning qoq o'rtasida, tashqarida sovuq chirsillab turganda dasturxonga qo'yish, el og'ziga tutish qanday gashtli. Atiri dimog'ingni ochadi. Ko'ksulton-chi? Qon bosimi oshganning davosi. Shotutning hikmatini Abu Ali ibi Sino «Alqonun»da yetti joyda tilga oladi. Xo'sh, nega bular yo'q bo'lib ketishi kerak? Aslo mumkin emas! Indamay ko'zni lo'q qilib turish – jinoyat. Jinoyat bo'lganda ham kechirilmas jinoyat. Aksincha! Ularni ayni ko'paytiradigan davr: suv serob, yerlar keng, o'g'itu dori-darmon mo'l, kishi yetadi. Demak tashabbus kerak. Ota yaxshi esga soldi. Yo'lga chiqsang keksalarning maslahatiga quloq sol, qaytgach, uydagi ishni bolalardan bilib olasan, degani shu. Dono keksaning yo'talida ham hikmat bor. Ular bilganini pari bilmaydi. Archani o'tga solsang isi chiqqanday, bular bilan suhbatlashib tursang ancha narsa o'rganasan, degan Ummatali, otaning ko'nglini tinchitdi.

– Buni ham qilamiz! Siz bundoq sinchiklab ko'z soling-chi, yana qanaqa mevalar yo'q bo'lib ketyapti. Yana yangilardan nimalarni yer ko'taradi.

– Ha, bolam, bu yermi? Bu yerga cho'yan eksak, traktor bo'lib chiqadi! Bu yerda tosh ko'mib, qayroq qilib sotganlar bor. Yoshlarning yuziga birdan kulgi sochildi. Hatto Nafisa qiqillab kuldi. Chol, go'yo bu fikriga qarshi chiqadigan kishilar boru, ular Ummatalini yo'ldan uradigandek bezovtalik bilan yanada jiddiyroq tasdiqladi:

– Siz, bolam, bozorga olib chiqsa, o'ttiz ikkita tishi bor deb, sariq chaqaga olmaydiganlarning gapiga quloq solmang. Bu yerlarda hikmat ko'p. Xudoga shukur, mana endigi yil oltinchi muchalim keladi. Shu yerdaman. Birovdan kamligim yo'q: ko'p qatori elga dasturxon yozib, el qatori obro' topib kelyapman. Hammasi shu yer tufayli. Bu yerga mehnat qilgan kam bo'lmaydi. Bahorda loy

kechgan, kuzda moy ichadi. Kuch-quvvatingiz, aqlingiz bor, yaxshilikka ishlating. Yaxshilik ekan esonlik o'radi, ha, esonlik o'radi.

Ummatali otaga qarab turib, keksa gapirsa, tagıdan qo'sh ma'no qıdıraver, ular ilmi bilan emas, turmush tajribasi bilan dono bo'lib ketgan degan fikrga keldi.

– Yo'q, ota, buni albatta ro'yobga chiqaramiz, – yana cholni ishontirdi Ummatali. – Nimaki fikringiz, maslahatingiz bo'lsa, tortinmay aytavering, jonu dilim bilan eshitaman.

– Ha, ballı. Bizlar ham g'anımat. Kuzgi yaproqday gap – sal el turdı shirt uzilib ketamiz. – Chol qovjirab ketgan nursız ko'zlariga yosh oldi. – Sizlar bor – yuribmız. Odamning joni temırdan qattiq ekan, bo'lmasa...

– Ana shunısı ortıqcha, otaxon. Unaqa demang. Sizlarsız bu hayot burguti ketgan uyaday huvillab qoladı. Bu yerlarga fayz kiritib turgan sizlar. Sizlarsız biz sopi yo'q ketmon.

– Ha, bolam, ishqilib omon bo'linglar. Bizni ızzat-ıkkrom qilsanglar, sizlarnı o'zi azızu mukarram tutsın, – dedi chol va boyagıdan ko'ra cho'kib ketgan, munkillab qolgandek do'mbillab, chaylasiga kirib ketdı. Tepalikdan xomush tushib kelishar ekan, Nafisa soy yoqasını ko'rsatib, u yerdagi kishilar nıma qilishayotganını so'radı.

– Bu yoqqa kelayotganingızda yo'l yotqızayotganlarnı ko'rgandirsız? Shag'alni shu yerdan olishyapti. O'rnını sal epaqaga keltırıp, ko'l qilish niyatıdamız. Baliq urchıtamız.

– Rejanglar katta! – dedi Nafisa ishonqıramay. Ummatali esa, hazılga burdı:

– Bizlar ishga kirgandan keyın yo arava sınadı, yo ot ishdan chıqadı. O'zımız ham ko'ylakdan yoqa, ishtondan lipa qolguncha olishamız. Mabodo sizga o'xshagan. «Qanı, ko'rsat kuchingni!» deb qolsa bormı, ellik yildan

beri yotgan to'nkani qo'porib tashlab, o'rniga o'sma ekib beramiz.

– Bugun muncha biyronsiz! Yaxshi tush ko'rganmisiz? – balog'atga yetib, butun husni-latofati barq urib turgan yosh qizlardek nozlanish bilan dedi Nafisa. Ummatali ham shart kesdi:

– Siz kelgansiz!!

– Hali seni yaxshi ko'rib qoldim ham dersiz.

– Desam arzimabdimi?

Bu gal Nafisa churq etolmay qoldi...

Nafisa shu kuni kechgacha sovxozda bo'ldi. Uni mashinagacha kuzatib chiqqan direktorning xotini gapni yana ishga burdi:

– Voy, aylanay, xo'p deb kelavering. Uzukka zumrad ko'zdek yarashib turibsiz. Nima ko'mak bo'lsa biz bor. Bu yoqda yengini shimarib Ummatali akangiz turibdi. Nafisaning qulog'iga keyingi jumla g'alati eshitildi. «Ummatali niyatidan ularni xabardor qilgan shekilli», degan fikr ko'nglidan o'tdi. Yuragiga issiq mehr nuri oqdi.

17

SHOHGADO

A'zam katalakka boshqa qaytib kirmadi... Bir soatdan so'ng hammomga tushgan, soqollari olingan, to'yib ovqatlangan A'zam yumshoq to'shakda uxlab yotardi. Oriq tomog'idagi yong'oqdek kekirdagi turtib chiqib turardi.

Shu kundan boshlab u burnidan ip o'tkazilgan yuvosh tuyaga aylandi. Xo'jayini qayoqqa yetaklasa shu yoqqa yuradi. U yana bir oz vaqt o'ziga kelgunicha shu yerda bo'ldi. Bu orada uni yana g'ujumdek so'rib, ichidagi o'zlariga kerak bor gapni tortib oldilar. Keyin boshqa shaharga jo'natib yubordilar. Uqtirishlariga ko'ra, u shu yerda ishlaydi. Ketish oldidan Simonani ko'rish niyati borligini

mayorga imo-ishora qilgan edi, mayor qalin lablarini bir narsadan iringan kishidek bujmaytirib:

– Nima qilasiz u shilimshiq qurtini! – dedi beparvogina, – nishxo'rd qorin to'yg'izmaydi. Bechora A'zam mayor tomonidan Simonaning bu yoqqa kelishi man qilib qo'yilganini, Simonaning kuzatuv ostida yurganini bilmas edi. Axir, hatto Simona A'zamning boshiga tushgan keyingi hangomalardan xabardor bo'lishi mumkin emas!

Erki chandib bog'langan, ortiqcha harakatga haqqi-huquqi yo'q A'zam o'sha birinchi kunlari atrofida girgitton bo'lib yurgan yoshgina leytenant bilan tayinlangan yerga tunda yetib keldi. Aeroportda ikki kishi kutib oldi. Mashinada shahardan chiqib ketishdi. Ancha yurishdi. Shahar alomatlari borgan sarı yo'qolib, qishloq tusi ko'zga tashlandi. Qorong'ida kurk tovuqdek hurpayib turgan daraxtlar, goh-goh kuldagi cho'g'dek yiltillab qoladigan chiroqlar, kishilarning deyarli uchramasligi bu yerlar alohida bir zona ekanidan dalolat berib turardi. Chindan ham shunday bo'lib chiqdi. Bu yer alohida kichkina shaharcha edi. Bu yerda qandaydir harbiy qism ham turardi. Lekin ko'pchilik kishilar harbiycha kiyinmagan bo'lsa ham xatti-harakatlarida, gap-so'zlarida harbiylarga xos keskinlik, intizom bor edi.

Uni aeroportda kutib olganlarning biri – sichqonnikiga o'xshagan mayda va siyrak tishlik kishi o'sha kuniyoq uning turadigan yerini, qiladigan ishini aytib berdi. Bir xonaga olib kirib, bu yerda ko'rgan-bilganlarini hech qachon, hech kimga og'zidan gullamasligi haqida tilxat oldi. U yerdan chiqib kelishar ekan, sichqontish:

– Baxtingiz bor ekan bu yerga tushibsiz! Maoshingiz ham chakki emas. Istagan mademuazelga qarmoq tashlasangiz hidlaydi, – deb eski qadrdonlardek kulib qo'ydi. Keyin birdan yana jonlandi: – ha, aytgandek bu yerda sizning tomondan ham kishilar bor. Dardlashib turasiz.

Chindan ham bu yerda «uning tomoni»dan bo'lgan bir yigit bor ekan. U tojik, sobiq soldat edi. Ismi Shohgado bo'lgan bu yigit urush yili frontga tushdi. Urush mashqini olgunicha yarador bo'lib, maydonda qolib ketdi. Keyin harbiy asirlikning mashaqqati boshlandi. Undan keyin nemis harbiy zavodida ishladi. Urush tugashiga yaqin u yerdan qochdi. Qochishiga sabab sovet askarlari qo'liga tushsa, «ha, bu yerda bizga qarshi otiladigan o'q-dorini sen tayyorlab berayotgan edingmi?» deb ayb qo'yilishidan qo'rqqan edi. U qo'lga tushdi, yana lager, yana azob... Uni amerikaliklar ozod qildi. Tikan simlar olib tashlandi. Ovqatga maza kirdi. Kasallarga dori-darmon paydo bo'ldi. O'lik umidlar tirildi. Oldi odamlar yurtlariga keta boshladi. Sovet asirlaridan ham bir qismini yurtidan kishilar kelib olib ketdi. Shohgadoning ham yuragidan o'tob chiqib, «Xudoga shukur, yurtimga qaytadigan bo'ldim. Hamma sarson-sargardonlik endi orqada» deb turganda lager atrofiga yana tikan sim tortildi. «Moskva asirlarni tan olmasdan qirib tashlayotgan emish. Asir vatan xoini emish. Juda rahmi kelganiga ona shahar – qishlog'ining suvini ham ho'platmasdan to'g'ri Sibirga borsa-kelmas qilib haydayotgan emish», degan mish-mishlar tarqaldi. Xatto, «Men zo'rg'a qochib qoldim!» degan bittasi ham paydo bo'ldi. Yana allanima vahimalarni og'zini ko'pirtirib gapirib, asirlarning yuragini taka-puka qildi. Yurtga qaytmoqchi bo'lib turganlar sekin-sekin o'zini chetga oldi. Bir xillari «Tavakkal, peshanamdan ko'rdim. Bir boshga bir o'lim!» deb jo'nayverdi. Ular ketidan yana mish-mish keldi. Bo'ynida aybi borning oyog'i qaltirar, degandek Shohgadoning ko'z oldiga zavod keldi-yu, bosgan qadami oldiga bosmay qo'ydi. Nemis lagerida tortgan azob-uqubatlari, nima uchundir, ko'z oldida gir-gir aylanaverdi. Yurib xayoli chuvaldi, yotib uyqusi qochdi. Buning ustiga: «Harbiy asirlarning oilalariga ham kun yo'q emish.

Xotinini surgun qilib, bola-chaqasini yetimxonalarga olib ketarmish», degan yana bir dahshat xabari tarqaldi. Bu mish-mishlar shunaqa avjga chiqib ketdiki, vakil suhbatlashgani kelsa, odam to'planmaydigan bo'ldi. Yig'ilganlar ham qo'rqa-pisa siqilishib o'tirdi. Suhbatga kelgan odamning gap-so'ziga shubha bilan qarab, orqasidan xo'mrayishdi. Shunday qilib, «Yurtimga qaytishni istamayman» degan ro'yxat kundan-kun uzun bo'ldi.

Bu ro'yxatda Shohgado ham bor edi. Shu ro'yxatga tirkalganicha hamon begona yurtida daydib yuradi. Uning erkini «himoya» qilganlar unga zavoddan ish topib berishdi. Lagerdagi gaplarga goh ishonib, goh ishonmay, «O'zim har joydaman, ko'nglim sendadir» bo'lib, belaligi o'tgan yurtini, sevib uylangan xotinini, uning qornida olti oylik qolgan, hali o'zi diydorini biron marta ko'rmagan farzandini (qizmi-o'g'irligini ham bilmaydi) sog'inib, goh hud, goh nohud kun kechirib yurdi. Ba'zan xat yozmoqchi bo'ldi-yu, yana botinmadi, tinch yotgan ilonni qo'zg'atishdan qo'rqdi. Bordi-yu, uydagilar uning asir tushganidan bexabar, halok bo'lgan deb kuyib-yonsa ham issiq o'rnida yashab turgan bo'lsa, buning xati borishi bilan bu hayotlari ham holva bo'lib qolmasin! Jilla bo'lmasa, ular tinch bo'lsin, degan aqida bilan hamma og'irlikni o'ziga oldi. Kimga maslahat solsa: «O'zing bilasan. Tag'in bir narsa bo'lsa uvolingga qolmay!» deydi. Yonidagi stanokda ishlaydigan yigitdan:

– Seningcha qanday? – degan edi, u yoshlik quvnoqligi bilan:

– Uylan. Uylansang bunaqa bezovta bo'lib, tushingga xotining kiravermaydi, – dedi yelkasiga urib.

Shohgadoning umidi o'z xotini. Bu yerda bola-chaqa qilib, qaytib borgach uning yuziga qanaqa qilib qaraydi! «Meni senga bino qo'yib kutib o'tirsam sendan kelgani shum!.. «To qabrgacha sevganim-sevgan,

deganing qani? Men, nodon, so'zingga ishonib guldek yoshligimni xazon qilib o'tiribmanmi?» desa, nima deb javob qiladi! Bundan o'lgani yaxshimasmi? Shohgado shunday aqida bilan yashab, «yaxshi kunlar» kelishidan umidvor bo'lib yurganda birdan zavod kontorasiga chaqirib qolishdi. Chiqsa, shu zavodda aylanishib yuradigan, lekin nima ish qilishini bilmaydigan bir odam o'tiribdi.

– Sal kam oliy ma'lumotli ekaningizni nega yashirib yuribsiz? – dedi dabdurustdan.

– Kimdan?

– Hammadan. Yaxshimas!

Shohgadoning xayolidan, «Kimdan bilibdi? Biror yerda yozilmagan-ku!» degan fikr o'tdi. Lekin kim bilandir shu haqda gap bo'lganini elas-elas eslaydi. Parvo qilmay:

– Stanok uchun nima farqi bor? – dedi.

– Biz uchun farqi bor. Insofdan emas. Zambarak bilan quyon ovlanmaydi. «Buncha bu janob mehribon! Oxiri xayrli bo'lsin» deb Shohgadoning ko'ngli xijil tortdi. Biror hafta o'tgach, u odam yana uchrashdi. Undan keyin yana bir odam bilan keldi. Xullas, u qildi-bu qildi, yurtini sog'inib, og'ir mehnatdan qobirg'asi qayishib yurgan yigitni fransuz razvedkasi qo'lga ilintirdi. Mana bir necha yilki, u mana shu shaharchada monitorlik vazifasini o'taydi, ya'ni fors va tojik tilida beriladigan barcha chet el radio eshittirishlarini muntazam kuzatadi, lentaga yozib oladi, keyin tarjima qilib, yakun yasaydi. Bu hujjatlar yuqoriga ketadi.

A'zam kelganda uning fe'li aynib yurgan edi. Stalin vafotidan keyin qattiq muzlar erib, hayotda yangi qoidalar qayta hayotbaxsh nurlarini socha boshlaganidan xabar topgan Shohgado bag'riga shabada tekkandek bo'ldi. Yengil nafas olib, o'zicha reja tuzib yurdi. Tavakkal qilib uyiga yashirin xat yozdi. Sal o'tmasdan javobi keldi. Yana yozdi, yana javob. Undan keyin xotini bilan o'g'lining, hali

biron marta diydorini ko'rmagan o'g'lining surati keldi. O'g'li ham o'z qo'li bilan yozibdi!

Xotini hali kutib o'tiribdi... Xotin bir xatida Shohgadoning shuncha hayallab yurishi bekor ekanini, hech kimni hech qayoqqa hech qachon yuborilmaganini, asirda bo'lgan qancha odamlar qaytib kelib tirikchiligini qilib yurganini, hatto asirlik urushning boshidan bo'lgan kichik tog'asining kechagi hafta katta orzu-havaslar bilan kelin tushirganini, avvalgidan ham ishlari rivoj topib, o'zi salomatlanib (front yarasidan) ketganini erinmasdan yozgan edi. Bu xabardan o'zining shuncha vaqt laqma bo'lib, allakimlarning gapiga ishonganidan, shuncha umrini vatangadolikda ming bir iztirob bilan o'tkazganidan o'rtanib ketdi. Peshanalariga mushtlab urdi: «Bu bosh emas, qovoq, bo'sh qovoq» dedi. Endi hech kimning gapiga kirmaslikka, nima bo'lsa bo'lsin yurtiga qaytishga qasd qildi. Lekin qanday qilib? Bu yerdagilar o'ng'aylik bilan chiqarib yubora qolmaydi!

Bu ezgu niyatini o'z boshlig'iga qanday ma'lum qilishni bilmay, ma'lum qilsa oladigan javobidan yuragi po'killab yurganda o'sha A'zamni kutib olgan bo'linma boshlig'i sichqonnikiday mayda va siyrak tish kapitan o'z huzuriga chaqirib qoldi. Kapitan o'z xodimining xatti-harakatidan bexabar emas edi, albatta! Shunday bo'lsa ham gapni tomdan tarasha tushganday qilib boshlamasdan olisdan aylantirib keldi:

– Sog'liqlaringiz yaxshimi, Shoh?

– Rahmat, yomonmas! – Shohgado bu mehribonlik ostida bir balo borligini darrov payqadi. Demak, sichqon-tish hamma narsadan xabardor. U ham shunga o'zini mosladi.

– So'nggi vaqtda juda xayolchan bo'lib qoldingiz.

Madaniy dam olish oqshomlarida kam ko'rinasiz.

– Nega, bo'lib turaman.

– Yo chetdan topdingizmi? – mamnun kuldi kapitan. Bu yerda madaniy dam olish oqshomi deb, radiostansiya xodimlarining kechalari bo'ladigan shovqin-suronli ayshishratlarini atalardi. Shohgado avvallari bu yerda ko'p qatori bo'lib turardi. Uyi bilan yozishadigan bo'lgandan keyin bu kechalarning yoshlik qonini ko'pirtiradigan qiy-chuv, o'yin-kulgilari ham qulog'iga kirmay qoldi. Butun xayoli uyida. Zeriksa, xuddi o'ziga o'xshagan sal puchuqroq o'g'li va yoshligi gulsafsarlari g'am-anduhda bemahal so'linqiragan xotining suratlariga soatlab qarab o'tirardi. Bu surat uni tomma-tom quvlab o'ynagan, kaptar uchirgan, mushuk quvlagan, xo'roz urishtirgan, anhorida cho'milgan – bolaligi o'tgan yerlarga, bo'lajak xotini ilk ko'rgandayoq sevib qolib, muhabbatini qanaqa qilib izhor etishini bilmasdan, ko'rsa tildan qolib orqasidan biyron bo'lib yurgan azamat yigitlik yillariga keyinchalik murodi maqsudiga yetib, u bilan qovushgan tengi yo'q totli kunlarga yetaklab ketdi. Qanday ajoyib edi o'sha kun, o'sha yillar! Hamma, hammasi tushdek xayolidan o'cha boshlagan, eskirgan suratdek xiralashib, tusini yo'qotib, tanimas holga kela boshlagan edi. Mana barchasi yana jon paydo qildi, tilga kirdi, usta san'atkor qayta tiklagan ajoyib suratdek asl jozibasini kasb etib turibdi.

Shuning uchun ham kapitanning keyingi savoli hazil aralash qochiriq bilan aytilgan bo'lsa ham, Shohgadoga malol keldi. Peshanasini tirishtirib, ensasini qotirdi. Lekin boshlig'i huzurida o'tirganini unutmasdan boshi bilan rad javobini qildi. Uning sovuq javobi suhbatdoshning malla yuziga sochilib, sichqon tishlarini ko'rsatib turgan tabassumni bir zumda sidirib oldi. Aslida bu tabassum bir niqob edi. Bu niqobni tezroq olib tashlashga Shohgadoning javobi ko'mak berdi, xolos. Sichqontish o'nashib o'tirayotgandek qimirlab, jiddiy tus oldi.

– Bilishimcha, yurtigingizdan xat olayotganmishsiz, – dedi u va hamrohining javobini tilidan oldin ko'zidan uqib olmoqchi bo'lgandek unga ikki ko'zlab tikildi. Shohgado bunday so'roq bo'lishini allaqachon kutganidan xotirjamlik bilan:

– Shunday. Xotinimdan xat kelyapti. Mening bunga haqqim bo'lsa kerak?

– Albatta! Albatta! – shoshib qolgandek darrov javob qaytardi u va uchli engagini uch barmog'i orasiga olib, asabiy qashidi. Bu endigi savolning debochasi ekanini sinashta bo'lib qolgan Shohgado darrov payqadi. Hadis olgan polvondек hozirlik ko'rib turdi. Chindan shunday bo'lib chiqdi:

– Siz bilan biz bir maqsad kishilari. O'rtamizda ortiqcha sir bo'lmasligi kerak. Mumkin bo'lsa o'sha xatlarni menga tarjima qilib bersangiz.

Imkon boricha asliga yaqin bo'lsin.

– Oilaviy, shaxsiy xatlar-ku, sizga uning qizig'i yo'q. Tarjima qilishga arzimaydi. Shundoq ham aytib berishim mumkin.

– Yo'q, tarjima qilavering. Ozigina vaqtingizni men uchun ayamang, azizim!

Shohgado oyog'ini qattiq tirab olishga botinmadi. Hozircha kirib-chiqib turgan eshigini qanday qilib darrov berkitib tashlaydi. Go'yo rozi bo'lgandek sichqontish oldidan chiqdi. Tengi yo'q o'tmishi barq urib turgan xatlarni yana bir bor o'qiyotib, birdan g'azabi qo'zg'ab ketdi: nega endi uning shaxsiy xatiga bu janoblarning burnini suqishi kerak. Nega bu muqaddas his-tuyg'ular to'la mo'jizakor xatlar volleybol to'pidek qo'lma-qo'l o'tishi kerak?

Nega? Nima maqsadda buni tarjima qildiryapti? Oddiygina qiziqish bo'lsa, mazmunini so'rab qo'ya qolmaydimi! Buning ostida boshqa sir bor. Ya'ni uning oyog'iga bolta bo'lib uriladigan, qo'lga yechilmas zanjir bo'lib tushadigan sir bor. Aks holda bu mag'rur janob

alohida vaqt ajratib, alohida topshiriq yo'sinida uni majbur etmas edi. Demak, niyati buzuq. Shohgado xatni qayta-qayta o'qib, undan yangi ma'nolar topdi. Bu xatlar, yana boshqacha ma'no va qadr-qimmat kasb etgandek bo'ldi; ko'ziga chiroyli ko'rinib, shu bilan bir vaqtda hayotiga xavf soluvchi yovuz narsaga ham o'xshab ketdi. Bu his-tuyg'ular aralashi uni ehtiyot bilan harakat qilishga, xatlarni chetroqda, begona ko'zdan yiroqda saqlashni ta'kidlardi. Xonasida qoldirishni lozim topmay, yaxshilab yumshoq qog'ozga o'radi-da, yoniga solib oldi.

Ertasiga kapitanni uchratib, tarjima qilolmasligini ochiq-oydin aytdi. Bunday javobni xayoliga keltirmay, tarjimani bugun-erta kutib turgan sichqontish birdan jar oldidan chiqib kelgan odamdek qotib qoldi. Bu oddiygina javob emas. Shohgadoning fe'li aynib, niyati buzilganini ko'rsatardi. Garchand, kapitan undagi o'zgarishni o'z kishilari orqali anchadan beri kuzatib, bilib yurgan bo'lsa ham uning topshirig'ini rad etarli darajada bunchalik o'zgarib qolganidan bexabar edi. Bildiki, Shohgadoning bu javobi oddiygina javob emas, buning tagida yanada zo'rroq gaplar bo'lishi kerak. Axir Shohgadoni u endi ko'rayotgani yo'q. Bir necha yillardan beri qo'ydek yuvosh, barradek yumshoq xodim edi. Hech qachon uning gapini ikkita qilgan emas. Aksincha, undan doim xotirjam edi. U hech qachon ba'zi birovlarga o'xshab mahmadonalik qilavermas, yengil-yelpi harakatlardan o'zini tiyar edi. Hozir qarshisida turgan yigit asti u emas, unga o'xshamas edi. Kishining bunday o'zgarib qolishi uchun juda zo'r sabablar bo'lishi kerak. Bu katta sabab xatlarga emas, albatta. Bunda yot qo'l yo'qmi? Bu bexabar bo'lib, unga «begona» tuzoq qo'ymadimi? Uning bu xatti-harakatini dabdurustdan qayirib, yo'qotib bo'lmaydi. Oldin tubiga yetishi kerak. To'g'ri, u Shohgadodan xatlarini so'raganda uning uzoqni ko'zlagan

rejasi bor edi. U Shohgadoning xotinidan keladigan xatlarni ham razvedka yo'li bilan foydalanmoqchi edi. Shu maqsadda u yoqqa yuboriladigan xatlarning maxsus matnlarini tayyorlab, ularni kerakli darajada ishlab chiqish uchun mutaxassislarni jalb etish mo'ljallangan edi. Modomiki, Shohgado halitdan kelgan xatlarni tarjima qilib ko'rsatishdan bosh tortayotgan ekan, bunga alohida tadbir kerak. U o'z kasbiga xos vazminlik bilan xodimini ko'zdan kechirdi. Go'yo ortiqcha bir narsa eshitmagan kishidek xotirjamlik bilan so'radi:

– Sabab? Ichida biror gap bor ekanmi?

– Yo'q.

– Bo'lmasa nega rad etyapsiz?

– Lozim topmadim.

– Qiziq. Siz bunaqa emas edingiz, Shoh, o'zgarib qolibsiz.

– Ehtimol, – yelkasini qisdi Shohgado. – Baqt o'tyapti kishining o'zgarishi turgan gap.

Shohgadoning beparvo javobigina emas, turish-turmushi ham har vaqtdagidan o'zgacha edi.

Sichqontish ichida hayron bo'lsa-da, tashiga chiqarmadi. Ko'nglida: «G'aflatda qolibmiz sheki'li, buning qanoti chiqib qolibdi», deb qo'ydi. Hozir, shu daqiqada, gapni cho'zmaslikni lozim topdi.

– Ixtiyoringiz, Shoh. Lekin u yoqdan keladigan yolg'on-yashiq gaplarga ortiqcha ahamiyat bermasligingizni iltimos qilardim. Unda sovet razvedkasining qo'li yo'q deysizmi? Yana qon qaqshab, keyin pushaymon yeb yurmang. Sizdan oldinroq aldanganlarning suyagi Sibirda chirib bitdi. Bola-chaqasi bevatan bo'lib allaqayerlarda daydib yuribdi.

– Yolg'on! Yolg'on! – deb yuborganini Shohgadoning o'zi ham bilmay qoldi. Buni kapitan hech ham kutmagan edi.

– Nima, qaytmoqchimisiz?

Shohgado endi niyatini ochiq-oydin qildi:

– Shunday! Qaytmoqchiman. Vatangadolik jonga tegdi. Baxtimdan ko'rdim.

Sichqontish darrov to'nini o'zgartirdi:

– Shuni aytmay sizmi, birodar! Men biror narsadan ko'nglingiz olinibdimi, kam maosh to'layotgan ekanmizmi, deb xayol surib yuribman. Bunday deng!

Bu boshqa gap. Biz bo'yingizdan bog'lab ishlatmayotganimizdek, oldingizga g'ov bosib, yo'lingizni ham to'smaymiz. Bir oz sabr qiling. Maslahatlashaylik. Shundaymi? Vokzalda o'tirganimiz yo'qki, duch kelgan poezdga solib yuborsak.

A'zam kelganda ana shu suhbatning bo'lib o'tganiga endi bir hafta bo'lgan. Shohgado ishga qo'li bormay, fikri-xayoli uyida, bola-chaqasida kezib yurgan vaqt edi. Shuning uchun A'zamni u bilan tanishtirmoqchi bo'lgan sichqontish:

– Shu kunda uni shayton yo'ldan urib yuribdi, vasvasaga tushib qolgan. Hamma gapiga ishonavermang, – deb ogohlantirishni unutmadi. Hujjatlari bilan tanishib chiqqach, hatto unga topshiriq berishga kirishdi.

– Siz sovetdan qochib keldingiz, shundaymasmi?

Joningizdan zulm o'tganki, qochgansiz, shundaymi?

– A'zamning tasdiqlashiga ko'zi yetganidan javobini kutib o'tirmadi, davom etaverdi, – shunday bo'lgach, ayting bu nodonga, siz qochgan tuzoqqa u tushmasin. Sibirni ko'rmagan bo'lsa, ko'rsatishadi. Biz gapirsak, albatta, ishonmaydi. Siz o'z og'zingiz bilan ayting, tushuntiring. Jinday qo'shib-chatsangiz ham hech narsa qilmaydi. Yaxshilik yo'lida yolg'on gapirish gunoh emas.

So'nggi kunlarda yetti uxlab tushiga kirmagan voqealarga duch kelayotgan, duch kelgan sari ko'zi ochilib borayotgan A'zam bu topshiriqning nimaligini

darrov fahmladi. Bir tomondan o'ziga ishonib, shunday mas'uliyatli topshiriqni berilayotganidan ichida: «Bu yerda ishim tuzuk bo'ladigan ko'rinadi, halitdan menga suyan-yapti», deb kerildi. O'sha bir haftalik katalak uning yuragini olib qo'ygan, esiga tushgan sari tirnog'igacha muz yuguradi. Keyingi «rasmiyatlar»dan so'ngra o'zining oyoq-qo'li fransuz razvedkasi tomonidan chiyratma ip bilan chandib tashlanganini. bundan qutulish iloji aslo yo'qligi. endi birdan-bir yo'l mutellik bilan xizmat qilish ekanini u yaxshi tushunardi. Shuning uchun sichqontishning uqtirishlarini odatdagi gapdek eshitdi va qo'lidan kelganicha urinib ko'rajagini bildirdi. Shohgado bilan mamnun kishilardek tanishib, sertakalluf bo'ldi. Ikk suhbatlardan oq fahmladi-ki, yurtini. bola-chaqasini sog'ingan, vatangadolik joniga tekkan bu yigit yo'lida tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirib bo'lsa ham o'z niyatiga yetmoqchi. Kechqurun birga nonushta qilishar ekan, Shohgado Azam kutgan savolni berdi:

– Yurtdan chiqqaningizga qancha bo'ldi, jo'ro!

– Yaqinda.

– Nima jinoyat qilib qochdingiz?– dangal so'radi Shohgado. Uning nazdida o'z yurtidan, ayniqsa, O'zbekistondan joydan bir katta jinoyat qilgan, uning oxiri o'lim bilan tugaydigan bo'lsagina, jon talvasasida qochish mumkin edi. A'zam sichqontish bergan qo'llanma bilan javob qaytargan edi, Shohgadoning joni-poni chiqib ketdi. Garchand, tili bilan nojo'ya gapirib, qaltis bir harakat qilmagan bo'lsa ham, qarashi, o'zini tutishi: «Bu kuningdan it bo'lib, p... yesang bo'lmaydimi! Sendan balchiqda yotgan cho'chqa yaxshi, ko'rnamak! Sadqayi odam ket! Shu ahvolda yana bosh ko'tarib yuribsanmi?! Hayf! Hayf!» degan ma'noni anglatib turardi. A'zamga bu haqorat qanchalik og'ir bo'lmasin, surbetlarcha chidam berdi. Boshqa qanday iloj bor!

– Mana qidirgan jannatingiz shu yerda, maza qilib bundan buyon yashayverasiz. Bino serob. Qizlar kelib turadi. Fransuz qizlarining tannoziqligini eshitgansiz, albatta! Menga o'z qishlog'imning changi ma'qul. Mushugi – sher, giyohi – chechak. Hammasi o'g'limning «Dada, dadajon!» deb bo'ynimdan bir quchoqlaganidan o'tib ketaversin. Yomon bo'lsa ham o'z yurtim yaxshi. Peshanamdan ko'rdim. Shohgadoning pichingli bu haq gapiga A'zam ichida tan bersa ham, zohiran bildirishni istamadi. Ko'z oldiga yurtida yurgan kezlari kelib, yuragining allaqayeri «shuv» etgandek bo'ldi! Nahotki bu sog'inish! Halitdanda?! Lekin ko'ngli qurum bosgan mo'ridek qop-qora edi!

A'zam Shohgado bilan bo'lgan bu suhbatini oqizmaytomizmay sichqontishga yetkizgan edi, nishli engagini cho'qqaytirib lablarini chirt qisdi, og'ir o'ylanib qoldi. Uning yuragida allaqanday yovuz kuchlar g'alayon qilayot gani qisiq ko'zlaridan ko'rinib tursa ham, sir boy bermadi. Axir u hamma narsani bu qarshisida turgan yigitga ishonavermaydi: u bugun qo'zidek yuvosh, kim biladi ertaga nima qiliq chiqarib, tulkiga aylanadimi, shergami! Bularning tilini qisib, boshida kaltak o'ynatib turmagan yutqizadi. Mana bittasi, shuncha yildan beri to'tidek nima desang, shuni qaytarar edi, bugun kalxat bo'lib ko'zingni cho'qimoqchi! «Yurtimga ketaman!» deydi. Ketsa ketaversin, undan nariga o'tib ketmaydimi! Lekin u hazilakam sirimizni bilmaydi. Ularning razvedkasi qo'liga tushsa bormi, jiqqa yog'a! Aslida o'sha boshlab xat olishida qayirib tashlasa bo'lar ekan! Undan foydalanamiz, deb g'afiatda qoldida! Oqibati mana bunaqa ishkal bo'lib o'tiribdi. Baribir hali ham kech emas. Axir ularning roziligisiz qush bo'lib osmonga uchib ketmaydi-ku! Sichqontish yangi kelgan A'zamning ko'ngliga g'ulg'ula solmaslik, qolaversa, unga ishonmaganidan yupatib qo'ya qoldi:

– Zorimiz bor, zo‘rimiz yo‘q, birodar! Tekinga ishlayotgani yo‘qki, endi nima qilamiz desak. Haftada kaftini to‘latib pul sanab turibdi. Bu pul u yoqda qayoqda! Mayli ketsa, ketaversin. O‘rniga odam topiladi. Hali bu kunlarini eslab, shunaqa o‘kinadiki... tushimmidi deb yuradi. Mayli, ketaversin. Xo‘sh, sizning ishlaringiz qalay? Ko‘nikib qoldingizmi? Hech shoshmang, bizning ishda shoshma-shosharlik ayniqsa ketmaydi.

A‘zamning ishi ham Shohgadonikiga o‘xshagan monitoringlik – operativ tarjimonlik. Farqi shuki u Toshkent, Boku, Olmaota, Ashxobodni eshitadi. Plyonkalarni tartibga soladi, yana bir kishi bilan birlikda juda kerakli yerlarini alohida ajratib, boshlig‘iga xabar qiladi. Ishi juda ham og‘ir bo‘lmasa-da, harbiy intizom juda kuchli edi. Sichqontish yuragidagi g‘alayonni yashiradigan bir soxta tabassum bilan A‘zamning ishlariga muvaffaqiyat tilab, qo‘lini olar ekan, o‘smoqchilagandek tegishdi.

– Siz ham endi ish o‘rganganingizda yurtingizni sog‘inib qolmasangiz edi, – dedi u, lekin javobni kutmasdan A‘zamnini tinchitdi, – aminmanki, siz bu tentaklikni qilmaysiz!

* * *

Shohgado yurtiga qaytishga uzil-kesil rozilik oldi. Hatto uning shuncha yillik xizmatlarini taqdirlab, to chegaragacha bo‘lgan xarajatni ko‘taradigan bo‘lishdi. Kichikkina yig‘inda oq yo‘l tilashdi. Shohgadoning og‘zi qulog‘ida. Har ko‘rganda A‘zamga «Xom o‘ylagansiz» deb qo‘yadi. A‘zamga joni achiyotgani yaqqol ko‘rinib turardi. Shohgadoning jo‘nash kuni yetdi. Ba‘zi birov «Xotiningga, o‘g‘lingga tuzukroq sovg‘a ol, bu yoqniki tansiq!» desa ham, «Ular uchun o‘zimning borishimdan zo‘r sovg‘a yo‘q» deb rozi bo‘lmadi. Undan baxtli odam yo‘q edi!

Lekin safar oldidan yuvinib olmoqchi bo'lib, vannaga o'z oyog'ini bilan kirdi-yu, u yerdan o'ligini zambilda olib chiqishdi! Vannada «yurak kasali» tutib, halok bo'libdi...

Birov ishondi, birov ishonmadi. Ammo «hurmati» ni keltirib ko'mishdi. Qabri ustida sichqontish:

– Ajoyib xodim edi! Afsus, oilasi bilan diydor ko'risholmadi! – dedi. Biroq uning ko'zimi, pirpirab turgan labimi, ishqilib, allaqayeri «Oilasi bilan diydor ko'rishgani qo'ymading-ku!» deb unga imo qilayotganga o'xshardi. A'zam esa, hech narsa tushunmay, «Buning o'limi qiziq bo'ldi-ku!» deb baqrayib turardi. Lekin ko'zida yosh bor edi.

18

AVRASH

Qoplonbekning fikricha, Tamanno sovuq suv emas, qaynoq suv. Simirib ichaman deganning tili kuyadi. Shuning uchun u shoshmasdan, asta-asta ho'play boshlaydi. Sevdiradigan ham til, bezdiradigan ham til, deb ko'nglidan o'tkazgan Qoplonbek Tamanno kirishi va otasi yoniga o'tirishi bilan oq otchakak yuzidan tabassumini aritmadi, bir luqumini maza qilib yutib, keyingisidan umidvor bo'lgan laychadek bit ko'zini goh undan, goh Hojidan uzmaydi. Ular og'zidan chiqqan har so'zni koptokdek epchillik bilan ilib, bilimdonlarcha javob qaytarishga, shu bilan o'z fikrinigina emas, aqlini, ko'pni ko'rganini, tadbirkorligi va uquvini namoyish qilmoqchi bo'lardi. Stol ustidan shokolad olib, bir chetini irimigagina chimtib tishlagan Tamanno, oppoq tishlarini ko'z-ko'z qilayotgandek kulib so'radi:

– Yana bir-ikki kungami? Tuxum qilmaydigan tovuqqa don bermaydigan Qoplonbek uni ko'rish va suhbatlashishdan o'ta minnatdor kishidek mamnuniyat bilan don sochdi:

– Agar siz qarshilik qilmasangiz besh kun turmoqchiman.

– Marhamat, janob! Istaganingizcha turishingiz mumkin. Bu shahru olamga hamma sig'adi. Faqat ba'zi davlat arboblari-gagina torlik qiladi.

– Yo'q, yo'q, xonim, yanglishasiz, – deb qarshilik bildirdi Qoplonbek va samolyotda bo'lgan suhbatni esladi va shu bilan bir vaqtda suhbatdoshining muhofazasiga qoyil qoldi. Qoplonbek o'sha vaqtdagidek o'z fikrini quvvatlashga kiritishdi.

– Shuni unutmangki, xonim, to'qay ustida aylanib yurgan ona laylakning xayoli bola-chaqasida bo'lganday u buyuk arboblar doim xalqini, xalqlarni o'ylaydi.

– Demak, Gitler ham shunday edi, demoqchisiz.

– Hech shubhasiz! Hatto u g'oyasi yo'lida uylanmay o'tdi.

– Eva Braun kim edi, unda?

– Bilasizmi, xonim, meni kechiringu, erkakda ba'zan xotin kishi bilan suhbatlashish, uning yonida o'tirish, xotin-qizlargagina xos iffat va nazokatni his qilishga ruhiy muhtojlik bo'ladi. Eva fyurer hayotidagi ana shu bo'shliqni to'ldiruvchi xilqat egasi edi, xolos. Yolg'iz umrining so'nggi kuninigina u o'ziga bag'ishlab, nikohga kirdi. Tamanno uning fikriga qo'shilmasa ham, tuz yalagan tuzlig'ining hurmatini qilyapti, deb o'yladi-da, mehmonlik hurmati yuzasidan qayd etdi:

– Har holda siz u to'g'rida o'zgacha fikrdasiz.

– Bu faqat mening fikrim emas...

Hoji uning so'zini bo'ldi:

– Sizga o'xshash fikrdagilar ko'pmi?

– Ko'p! – qat'iy dedi Qoplonbek. U ko'p emasligini bilsa ham alamzadaligidan tan olmasdi. – Har o'lkada topiladi.

– Bu gapingiz to‘g‘ri, har mamlakatda topiladi, lekin ko‘p emas.

Kishi astoydil mehr qo‘ygan va unga xizmat qilgan g‘oyasini doim eng to‘g‘ri va keng tarqalgan, jilla bo‘lmasa, tarqaladigan deb his qiladi. Xuddi shunday Qoplonbek ham gitlerizmning halok bo‘lganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan bo‘lsa ham, tan olmas, ustiga musht tushgan simobday sochilib tuynuklarga kirib ketgan, vaqti kelsa, yana bir butun holga keladigan kuch deb tushunadi. Uning istiqboli haqidagi gap, qaysi shaklda bo‘lmasin, doim unga qandaydir huzur baxsh etadi. Shu yo‘lgina vatanimning men uchun bekitib, tambalab tashlangan eshigini ochadi, deb o‘ylaydi. Bu esa, uning oliy niyati. Suhbatning chuqurlashib, mezbonlarning ixlosini qaytarib qo‘yishdan cho‘chigan Qoplonbek, garchand bu haqda yotib tortishishga tayyor bo‘lsa ham, o‘zini qo‘lga oldi, hazilga ko‘chdi:

– Aniq ma‘lumot olish uchun Amerika jamoat fikrini bilish institutlariga murojaat etmoq lozim bo‘ladi.

– O, katta ketdingiz, msbe, – yuziga kulgi sochildi Tamannoning, – busiz ham aniq. Sizga qolsa, bunaqalar yurtingizda ham bor, hatto.

– Topiladi! – otdan tushsa ham egardan tushmadi Qoplonbek.

– To‘g‘ri, topish mumkin, lekin yurt tuprog‘idan tashqarida.

Qoplonbek Tamannoning qochirig‘ini to‘g‘ri tushundir, otchakak yuzlari ma‘noli jilmaydi. O‘zi qachonlardir tark etib chiqqan vatanga doir siyosat bilan ko‘proq shug‘ullangan Hoji, ikki yoshning so‘zlariga qahrabo tasbehini o‘g‘irib, quloq solib o‘tirdi-da, miyig‘ida kulib yakun yasagan bo‘ldi.

– Yigirmanchi asr shunaqaki, siyosat bilan erkak-xotin barobar shug‘ullanadi. Shuning uchun ham dunyo notinchmi deyman-da!

– Faqat shu uchungina bo'lsa biz xotin-qizlar asli siyosatga aralashmaslikka so'z berardik. Afsuski... Shuni unutmangki, dada, bizning qalbimiz yumshoq. Yumshoq qalb urushqoq bo'lmaydi.

– Unday bo'lsa, aksincha, senlarga topshirish kerak ekan!

– Ha, nima! Uyda bola yig'lasa ona tez ovutadimi, ota? Dunyo ham katta oilada. To'g'rimi, Qoplonbek?

– To'g'rilikka to'g'ri-yu, – hazilga oldi u, – elakka chiqqan xotinning ellik og'iz so'zi bor, degandek, ikkita davlat boshlig'i xotin uchrashib qolsa, suhbatu muzokara bir yilga ketdi deng!

– Muzokaraning oxiri ham modaga borib taqalib, tamom bo'lsa kerak! – Hoji ham tasbeh o'g'irishdan bir zum to'xtab chertdi.

– Bombadan moda haqidagi gap ming marta yaxshi, – dedi Tamanno.

– Davlat boshliqlari moda haqida so'zlashsa uyatda, qizim.

– Bomba haqida, bitta bomba bilan qanaqa qilib ko'proq odamni qirib tashlash haqida, qaysi xalq qaysi xalqning yelkasida ko'proq minib o'tirishi haqida gapirishsa uyat emas-ku, moda haqida... Qo'yinglar-ey, ming qilsa ham erkaklarsiz-da, xotin ahlini tan olginglar kelmaydi. Shuni bilinglarki, xotin gapiga quloq solgan erkak yutqizmaydi!

Keyingi jumla Tamannoning o'z shaxsi haqida ediki, buni Hojigina tushundi. Bu unga ta'na edi. Hojining qalbi zirqirab ketdi. «Nahotki, u hali ham o'sha fransuzini unutmagan! Mendan norozi bo'lsa!» deb ko'nglidan o'tkazdi. Qo'lidagi tasbehining bir donasini ikki barmog'i orasida ushlaganicha to'xtab qoldi.

– Aqli-hushi butun xotinning gapiga degin, qizim, – dedi Hoji. Bu bilan u «sen yohsan, hali esingni tanib

olganing yo'q, shuning uchun men tergab turishim, yo'lga solib turishim shart. Izmimdan chiqsang nodonlik, o'zboshimchalik bo'ladi, sen mendan xafa bo'lma!» demoqchi edi. Tamanning qarashi esa, bu ma'noni tushunmaganidan, hatto tushunish niyati yo'qligidan kafillik berib turar edi.

Xayrlashayotib Hoji dedi:

– Bek, biz ham musofir. Ataylab bo'lmasa ham, yo'lingiz tushganda kirib turing. Siyosat bo'lmasa, sog'ingan yurtimiz, bog'i-rog'i, meva-chevasi, o'tgan-ketgandan gaplashib turamiz.

– Rahmat, Hoji ota! Sizlar bilan tanishganimdan benihoya mamnunman.

– Biz ham! Sizni ko'rishga doim mushtoqimiz.

– Men bo'lsam, endi sizning g'ashingizga tegadigan gaplardan so'zlamaslikka so'z beraman. – Tamanning bu nozu karashmali so'zini o'ziga otilgan guldek darrov ilib olgan Qoplonbek, bo'sh kelmadi:

– Shubhasiz, dunyoda qancha qiziq gaplar bor. Har odam haqidagi mish-mishlarning o'zi bir haftaga yetadi.

– Hali o'g'limiz Abulbaraka bilan tanishganingiz yo'q. U ham o'z o'rnini sotib oladigan yigit. Hojining bu gapi Tamanning yer ostidan otasiga qarashga majbur qildi, chunki ota-bola o'rtasida o'tib turadigan garmsellardan uning xabari bor edi, albatta.

– Bizning akaga o'xshagan bu atrofda yo'q, – deb akasicha uni ulug'lab qo'ydi. Hojining turishida esa, sen ikkala aka-singil meni bot qarityapsanlar. Soqolimdagi keyingi oqlar sen tufayli, degan ma'no bor edi. Bu iltifotlardan ko'ngli yozilgan Qoplonbek bu xonadonga serqatnov bo'lib qoldi. Buning uchun bahona doim topiladi: radiodan eshitgan biron yangilik, ayniqsa, Turkistonga doir yangilik joni-dili. Oyog'i yerga tegmaydi, chunki bunday yangiliklar birinchidan boyning tabiatiga mos tushsa, ikkin-

chidan o'zining bahrini ochadi. Albatta, bu yangilik yoki xabarga darrov «o'z tahririni» kiritadi, suhbatga loyiq qilib oladi, qo'shib-chatadi. Har borganda Hojining ko'nglini ovlashga urinadi, uning yuragiga qarmoq solib boqadi. Ba'zan niyatidan uchqunlar chaqnatib qo'yadi. Lekin nima uchundir Hoji parvo qilmaydi. Hatto Qoplonbek niyatiga yaqinlashtirib qo'ygan suhbatni kichik bir harakat bilan uzoqlarga uloqtirib tashlaydi. Shunda ham u bo'sh kelmaydi, surkalib boraveradi. U xuddi cho'zib turilgan rezinaga o'xshardi, Hoji sal bo'sh qo'ydi yana u holga qaytmoqchi bo'lardi. Hoji esa, yo bilib, yoki bilmasdan doim uni cho'zishga urinardi. «Qari bilganni pari bilmaydi» degan qarorga kelgan Qoplonbek Hojining nozik hislarini erkalashga kirishdi. U bir kelishida kaftdakkina Qur'on ola keldi.

– Bu mendan sizga mukofot, Hoji ota, – dedi kibr-lanib u va kitobga bo'lgan hurmatini bildirish uchun ikki kafti ustida ikki bukchayib uzatdi. Xuddi shunday izzatu ikrom bilan Hoji qahrabo tasbehi ustiga ikki qo'llab olar ekan, yashnab ketdi, labi bilan o'pib, peshanasiga surtdi. U bu nusxani ko'rmagan edi. Chindan ham u xursand bo'ldi:

– Rahmat, azizim, boshimni osmonga yetkazdingiz, bu in'om emas, g'aznayi karomat. Hoji Qur'onning ixchamligini, bezagini, salmog'ini ko'zdan kechirdi, keyin unga biriktirilgan jaji lupa bilan duch kelgan yeriga ko'z tashladi. Bir mahallar hijjalagan, qiroatini keltiraman deb, necha tunlarning bahridan o'tgan tanish satrlarni sharil-latib o'qib ketdi.

– Juda yaxshi! Bemalol o'qisa bo'ladi! – deb ma'qullab qo'ydi. Keyin uning tarixini surishtirdi. O'z tad-biridan takabburona mamnun kulib turgan Qoplonbek butun tafsiloti bilan, hatto shu yerning o'zidayoq esiga kelib qolganini ham qo'shib-chatib hikoya qilib berdi. U

bu yolg'onlarni shunchalik hunar bilan bayon qildiki, Hoji qo'lida oddiy Qur'on emas, tengi yo'q mo'jiza turgandek yana bir sidra ko'z yugurtirib chiqishga majbur bo'ldi. Qoplonbek hikoyasini shunday yakunladi.

– Urush oxir bo'lib qolgan. Sovet bosib kelyapti. O'zimning legiondaligim yetmagandek, qo'ynimda ushbu kalomulloyi sharif. Ko'plar formasini yechib tashlab qochyapti-ku, men Qur'onni o'yayman. «Kel, nima bo'lsa, bo'ldi», dedimu, Ollo taoloning o'ziga yolvordim. Suv o'tmas qog'ozga o'rab, qo'ltiq tumor qilib ichimdan taqib oldim. Sig'inganim Ollo taoloning o'ziga ma'qul tushdimi, shuncha qirg'in-to'polondan gard yuqmay o'tsam-a!

– Sizning bu oliyjanobligingizga Xudoning rahmi kelgan, azizim. Xudo aziz tutgan qulini bandasi xor qilolmaydi. Astoydil sig'ingansiz-da.

– Hech shubhasiz, taqsir! – dedi Qoplonbek ko'ksiga qo'lini qo'yib. U tadbirining bunchalik samara berishini o'zi ham kutmagan edi. Eng nozik yeridan oldim, degan Qoplonbek yana otini surib ketdi.

– O'zi ham Istanbul nashri, taqsir! Otaxonimiz Bali Qayumxon olib kelgan ekanlar, besh-o'ntagina xudojo'y, pokiza yigitga in'om qilgan edilar.

– Mana ko'rib turibmizki, adashmagan ekan u kishi. Ham u kishi savobda, ham siz. Qolaversa bu yog'idan biz manfaatdor.

Bu maqtovlardan keyin kitobcha Hojiga juda yoqib ketdi shekilli, endi nashr qilgan yurtni maqtab qoldi:

– Ofarin! Ofarin, Usmonli turklariga! Islom yurti, deb shuni aytadilar. Kalomullo sharif nashriga shuncha diqqat qilib, hammavaqtbop chiqaribdimi, bu imoni puxtaligidan dalolat, do'stim. O'tgan hafta bir tanishinikida ko'ziga yaxshi ko'rinib, sekingina cho'ntagiga solgan, keyin Hojiga in'om qilish xayoliga kelgan bir kitobchadan shuncha daromad ko'rgan Qoplonbek, eshilib ketdi, zavqi

oshiq, Hojining ko'ngliga chuqurroq o'rnashib olish payiga tushdi.

– Muhammad Mustafoning suratlari ham bor-a, ko'rganmisiz?

– Yo'g'-e! – ajablandi Hoji Qur'onda suratga tushish man etilganini eslab. Lekin Qur'onni shuncha qiyinchiliklardan ham tishida tishlab o'tgan odamning yolg'on gapirishiga qat'iy shak keltirolmadi.

Qoplonbek esa, bir mahal qayerdadir qulog'iga kirgan gapni aytib qo'yganidan, buning ustiga Hoji ochiq rad etmasa ham shubha ostiga olganidan shoshgandek bo'ldi. Sirtlon sirtidan sirini bermas mataliga amal qilib, bo'sh kelmadi:

– Tushgan ekanlar. Yoki keyin olishganmikin? Har holda rasmlari bor. Muborak sochlari yelkalariga tushib turibdi. O'zlari ham xuddi sizga o'xshaydilar, Sizni ilk ko'rganimdayoq o'sha surat esimga tushgan edi.

– Yo'g'-e, undoq emasdir, – Hojiga xush yoqqandek bo'ldi, – u kishi hech kimga o'xshamasalar kerak, o'xshamasliklari lozim. O'zining payg'ambarga o'xshashligidan Hoji ich-ichida mamnun bo'lsa ham, sal qarshilik bildirishi yana suhbatdoshini cho'chitib qo'ydi. «Yo'q, sizga o'xshaydi» deb qat'iy aytmoqchi bo'lib turganda, yana Hojidan tap tortdi:

– Ehtimol, men adasharman.

– Adashasiz, bo'tam, adashasiz! U kishiga Ollo taoloning nazari tushgan, u kishiga hech kim o'xshamaydi. Qoplonbek endi nafasini ichiga yutdi, sukutga ketdi. Kutmaganda Hojining o'zi:

– Lekin bir ko'rib, tavob qilsak, savobdan xoli bo'lmas edi! – deb qoldi.

Qoplonbek egaridan tushgan yo'rg'asiga darrov mindi:

– Bemalol! Bemalol, Hoji ota. Men o'sha o'rtog'imdan bir surishtirib ko'ray, shoyad begona qo'lga o'tib ketmagan bo'lsa!

– Yaxshi bo'lardi. Mabodo, o'ziga judayam... bizga o'tqizsin, rozi qilamiz.

– Xo'p bo'ladi. Albatta surishtirāman. Shu bahona bo'ldi-yu, Qoplonbek yana bir kuni Hojiga uchrashdi. Bu gal uni poyabzal magazinidan topdi. Hoji ulkan magazinning bir chetidagi oynavand kabinetida katta-kichik daftar, qog'oz, qo'sh telefon orasida uddaburo kishilarga xos tiyraklik bilan o'tirardi. Qoplonbek uyida ko'rib yurgan yumshoq, mayin, sodda, xudojo'y Hojiga sira ham o'xshamas edi. Qoplonbek payg'ambarning surati begona qo'lga o'tib ketganini, ya'ni hajdan qaytayotgan bir odam qo'ymasdan falon pulga olib ketganini achinish bilan eshittirganda Hoji «chakki bo'libdi» deb qo'ya qoldi, ortiqcha qiziqmadi ham. Bu Qoplonbekni hayron qoldirdi. Bu to'qigan yolg'onining etagiga yana va'da urug'ini sepmoqchi, shu bilan uchrashib turishga xamirturush tashlab ketmoqchi edi, Hoji ishdan bo'shamadi.

Qo'lida bir necha rangli yo'g'on sharik ruchka Goh u rangini, goh bu rangini chiqarib, oldidagi dasta qog'ozlarga allanimalar yozadi. belgi qo'yadi, imzo chekadi. Oldiga kirganlar bilan gapi juda qisqa. Birdan bir nima esiga tushgandek burama shnurli, pardozlangan fil suyagidek oppoq telefon trubkasini olib, kim bilandir yo'lga chiqqan molining haligacha yetib kelmaganini zar-da bilan gaplashdi. Hatto:

– Ogohlantirib qo'yay, ikki-uch kundan keyin modadan qolishi mumkin. Narxi tushib ketadi. Qabul qilmayman! – deb tahdid ham qildi trubkaní ilayotib, yana o'zicha po'ng'illab qo'ydi. Shu kayfiyati sabab bo'ldimi. qog'oz ti-tishdan to'xtadi. Birdan telefon jiringlab qoldi: «Labbay!» deyish bilan boyagi tundlik yuzidan pardadek bir zumda sidirildi. Yuz-ko'ziga tabassum zarralari sochildi. Hatto trubkaní qandaydir boshqacha ushladi.

– Jonim bilan, xonim. Sizga manzur bo'ladi-ku, xursand bo'lmaymizmi? Hozir yetqizadi.

Hoji trubkani qo'yar-qo'ymas gumashtalaridan birini knopka bosib chaqirdi. U kirishi bilan:

– Kecha ochilgan moldan bir nusxa olib kel! – dedi. Zing'illab chiqib ketgan gumashta, birpasda qo'lida bir qog'oz quti olib kirdi. Hojining ochishini kutmasdan, o'zi epchillik bilan ichidan yumshoq xitoy qog'ozga o'ralgan bigiz poshna, chindan ham erinmagan ustaning hunari bo'lgan oppoq tuflini olib, xo'jayinining qo'lga takalluf bilan tutdi. Hoji uni endi ko'rayotgandek suqlanib boqdi, kaftiga qo'yib gulchini orqali ingichka uchiga nazar tashladi. Nima uchundir, salmoqlab ko'rdi. Ostini ag'darib, charmidagi «Andre» tamg'asini o'qib turib, o'kindi:

– Asli o'shanda hammasini olib qo'ya qolsam bo'lar ekan. Xaridor injiq, ta'bi nozik. Nimanı yoqtirib, nima ıqıga o'tirmasligini oldından bilib bo'lmaydi. Bo'lmasa-ku... Yaxshi ketdi-a?

Gumashta bosh ırg'adı.

– Attang! Xo'sh, mayli! Hozir Parij bilan bog'lanişhaman. Mabodo qo'llik bo'lib ketmagan bo'lsa, u qolganini ham o'zım olaman. Sen buni hozir Adliya saroyiga yetqiz. Yo'q, yaxshısı uylariga eltib ber. Adliya ministrining kenja kelinlariga yoqib qolibdi. U kishining kiygani, butun shaharga rasm bo'lgani!

Gumashta tuflini aslıdan ham kelishtirib qutichaga soldi. Ip bilan bog'layotgan edi, Hoji qo'lini siltadi:

– Ipak lenta bor-ku! Qachon senlarga aql kiradi. Gumashta chiqib ketishi bilan tippa-tik turgan Qoplonbekni endi ko'rib qolgandek:

– Keling, o'tiring! – dedi. Uning o'tirish-o'tirmasligiga ahamiyat bermasdan «ıshqilib, la'nati betovfiq, sotib qo'ymagan bo'lsin-da» deb trubkaga qo'l cho'zdi. Qoplonbek bildiki, Hojining ishi tugab, u bilan gaplasha-

digan emas. Shuning uchun boyagi bahonasini yana takrorlagan edi, xuddi boyagidek beparvolik bilan Hoji:

– Attang! – dedi xolos. Avvalgi qiziqishidan asar ham yo‘q edi. O‘sal bo‘lgan Qoplonbek «o‘zi nima gap, orqamdan birortasi latta tutadimi?» deganicha chiqib ketdi. Hozir Saidakbar hojining imoni pul bo‘lib turganini Qoplonbek tushunib yetmas edi!

19

«BOY XOTIN»NING SARGUZASHTI

Nafisa yo‘qolgan o‘tmas tangadek A‘zamni esdan chiqarib, sirdosh o‘rtoqlari uchrashganda «Eringdan darak yo‘qmi?» desa, «Erim sarig‘i ikkita tuxum qidirib ketgan. Topmaguncha kelmaydi», deb xandon solib, dardining yaralari bitib ketgan kez edi. Azimxo‘jayev katta ko‘chaning og‘zida tursa, to‘qimi boshqacharoq bir juvon kelaverdi. Avvaliga, birortasining mehmonidir, deb ortiqcha e‘tibor bermadi. Lekin bunaqa mehmon kimnikiga kelishi mumkinligi xayolini band qildi. Har holda bu atrofning kishisi emas, shahardan chiqqan. Shaharda ham bular burundagi xoldek ajralib turadi, ko‘zga tashlanadi: Qoshga qalin tortilgan o‘sma, beso‘naqayligi bilan erkak diqqatini tortsa, jingalak gajak va qiyshiq ochilgan parq shu diqqatini buzuq o‘ylarga olib boradi. Atrofdagi kishi bo‘lmaganidan juvon to‘g‘ri Azimxo‘jayevning qarshisiga qarab yo‘l tutdi. Sal narida beparvogina to‘xtab, avval Ummatalini so‘radi. Uni toqqa, mollar oldiga ketganini, bugun-erta qaytmasligini bilgach:

– Bog‘changlar qayerda?– dedi.

Kishilar bilan muomala qilaverib, odamlarning miridan-sirigacha biladigan bo‘lib ketgan Azimxo‘jayev darrov fahmladi: bu satang Ummatalining xotini. Bu chiqib kelishi yaxshilikka emas. Turqi buzuq. Juda bo‘lmaganda

og'zi shaloq bitta-yarimta xotinga maza-bemaza gaplarni aytib, bir yilga ermak tashlab ketadi. Endi qaddini ko'tarib, bog'chani ancha yo'lga qo'yib olgan Nafisani esa, qon yig'latib, dillini siyoh qilib ketadi. O'ttiz ikki tishli og'izdan chiqqan gap, qirq elatli yurtga tarqalgandek, Ummatali bilan Nafisa o'rtasidagi munosabat ham, albatta, buning qulog'iga yetgan. Etganu xotinlik nafsoniyatiga tegib: «To'xtab tur, senlarni bir sharmanda qilib, etagingni boshingga yopib kelmaymanmi!» deb kelgani bu. Bo'lmasa shu vaqtgacha bir chiqqasmidi! Xuddi shunday! Qimmatxon qovog'idan qor yog'ib, qasd qilgan odami qo'lga tushsa, g'ijimlab tashlaydigan bir alfozda yanib turardi. Azimxo'jayev bir ko'ngli, o'zini tanitib, yaxshilik bilan nasihat qilib jo'natib yubormoqchi bo'ldi. Lekin uni boshdan-oyoq kuzatib turib, turqi-atvorini ko'rib, bundan yaxshilik chiqishiga ko'zi yetmadi. Ikki o'rtada sharmanda bo'lib qolishi mumkin: «Xizmatchilaring buzuq, o'zing qo'shmachisan!» deyish ham bu maxluqqa hech narsa emas. Yaxshisi...

– Hozir, – dedi Azimxo'jayev direktorlik salobati bilan. Tezgina magazinga burildi. U yerda kim bilandir chaqchaqlashib turgan shofyori Nortoyni chaqirib, yo'l-yo'lakay unga bir nima shivirladi. – Mana, singlim, bu yigit boshlab boradi.

Mashinaga o'tiring! – dedi.

– Uzoqmi? – bir sirni sezgandek ajablendi juvon.

– Ha, ancha yo'l. Urinib qolasiz.

– Voy, menga shu atrofda deyishgan edi-ku.

– Bilmaganlar aytgan. – pinagini buzmadi Azimxo'jayev.

Juvon og'rini boshlab mashinaga o'tirdi. Nortoy mashinani yeldirib ketdi. Qimmatxonning yuragi bir ko'ngilsizlikni sezayotgandek atrofga javdirab qarardi. Mashina salda sovxoz markazidan chiqib, soylikka tushib keta boshladi.

– Qayoqqa olib ketyapsiz meni, inim? – xavotirsiradi Qimmatxon, – sovxoz u yoqda qolib ketdi-ku.

– Sovxoz qayoqda qoladi! Sovxozning u boshidan, bu boshigacha bir kunlik yo'l. Xavotirlanmang, bo'riga ta-latmayman.

– Axir menga...

Nortoy gapirtirgani qo'ymadi:

– Bilaman. Xuddi aytgan yeringizni ostonasiga olib borib tushiraman. Oyog'ingizni chalishtirib o'tiravering.

– Shunaqa uzoqmi?

– Uzoq bo'lganda qandoq! Narigi qishloqda. Bolalarni har kuni avtobusda olib borib, avtobusda olib kelamiz. Qimmatxon, albatta, bu gapga ishonmadi. Uning bu harakatida bir sir bor. Shofyorga nazar soldi: sal asabiy, harakatlari shoshinqiragan. Mashinani ham uchirib ketyapti. Qimmatxonning yuragiga vahima tushdi. Yigitning niyati buzuq bo'lib ko'rindi. Agar yo'ldan sal chetga chiqsa, yordamga odam chaqirishni mo'ljallab, yuragi taka-puka bo'lganicha boraverdi. «O'zim rozi bo'lmasam, bitta o'zi nima ham qilardi», dedi voqeani o'z gazida o'lchab. Lekin yangi shimarilgan azamat yigitning baquvvat bilagiga hasad qilgandek bo'ldi, totli bir daqiqa xayolidan o'tdi. Shu vaqt mashina taqqa to'xtadi. Bexos o'tirgan Qimmatxon qalqib ketdi. Shofyor shiddat bilan mashinadan chiqib, Qimmatxon o'tirgan tomonning eshigini zarb bilan ochdi:

– Keldik! Qani, tushing!

Nortoyning ko'zi qinidan chiqib ketay derdi. Vujudida asabiy titroq bor. Qimmatxon buni ko'rib hang-mang bo'lib qoldi. Surishtirishga ham botinmay mashinadan chiqdi: Yo tavba! Atrof biyday dala. Kimsasiz yo'l usti. Osmonida dog'i yo'q. Nortoy tarsillatib mashina eshigini yopdi.

Hayratdan ko'zi ola-kula bo'lib turgan Qimmatxonga yo'lni shiddat bilan ko'rsatib, titraganicha dedi:

– Qani, tuyog'ingizni shiqillatib qoling! Sovxoz terri-riyasida ikkinchi marta basharangizni ko'rmay! He, o'sha...

U ana shunday shiddat bilan joyiga o'tirdi-da, mashinada ham alami borday jahl bilan haydab ketdi. Qimmatxon gangraganicha yo'l o'rtasida qoldi. Shu kuni kechqurun ish bilan tog'dan tushgan Ummatalini Azimxo'jayev yengidan ushlab, bir chetga oldi. Bo'lgan voqeani qisqagina qilib aytib berdi.

– Uningiz yomon kitobning chiroyli muqovasiga o'xshaydi. Juda turqi buzuq, – dedi xotirjamlik bilan.

– Endi, inim, o'ladigan kasalning o'lgani, qolganlarning tingani yaxshi. Bunaqa uzib-ulab yurganingizning nafi yo'q. Bir yoqlik qiling.

Ummatali: «Ishtan qo'l tegmayapti, bo'lmasa etagimga yopishgan xasdek, jonim bilan qoqib tashlardim», deganga o'xshagan gap qilgan edi, Azimxo'jayev mehribonlarcha koyib berdi:

– Bu ish emasmi? Insonning hayotiga doir narsadan ko'ra zo'r ish bormi! Yo'q, cho'zmang, oxiri yaxshi bo'lmaydi. Yoki...

Ummatali bu yog'ini tushunib, darrov javob qildi:

– Be! So'z bitta!

– Undoq bo'lsa, tezlatiing! Keyin, – dedi g'alati bir kulib, – bu yog'i endi kuz, undan u yog'i qish. Bu yerlarning qishi qattiq bo'ladi, yolg'iz yotgan sovqotadi. Ha, o'zingizdan o'tar gap yo'q. Bu yog'ini ham ketga siltashning hojati bo'lmasa kerak. Yoki Nafisa bir narsa deyaptimi? Chigali bo'lsa, ayting, ko'plashib yechamiz.

– Nima derdi. U ham shuni... orangizni ochib oling oldin deydi.

– Bo‘pti! To‘g‘ri aytadi, haligi kelish turqi bo‘lsa, uningiz ishtonini yechib dorga osishdan toymaydi. Zahari chak-chak tomib turibdi. Kechasi bilan shuning xayolini surgan Ummatali tog‘dagi ishini bitkazib, bir haftadan keyin Qimmatxon bilan orani rasmiy ochdi qilgani shaharga tushib ketdi. Oldin uning o‘ziga uchrab, maqsadini yotig‘i bilan aytdi.

– Yoshrog‘ini topdingizmi? – dedi Qimmatxon dabdurustdan o‘shshayib.

– Sen topganingday, menga ham nasib qilgani bordir. Har kim o‘z ko‘ngli tortgan oshni ichadi.

– Ho-o, – dedi Qimmatxon cho‘zib, – endi men «puf» sassiq bo‘ldimmi? Shirinini ko‘nglingiz tusab qoldimi?

Ummatali unı shartta bo‘ldi:

– Bu gaplar bari befoyda, Qimmat! Bo‘ladigan bozorni qilaylik. Baribir men bilan yashamoqchimassan, shundaymi?

– Nega yashamas ekanman, – yaltoqlandi u, – qaytangga ilgorigidan yaxshi erkalashlarni bilaman. Bir kecha qoling, ertasiga o‘zingizning ham ketgingiz kelmaydi. U shunday gaplarni gapirar ekan, jinday bo‘lsin, uyalish u yoqda tursin, rangi ham o‘zgarmas edi. Aksincha, zavqlanayotgan kishidek goh qoshini uchirar, goh ko‘zini qıchnıq bilan chimırar edi. Ummatali bildiki, uning oldidan hayo-yu, uyat yuzini bekitib o‘tadi. Gap cho‘zib o‘tirish befoyda. Ishni sudga oshirdı.

Qimmatxon sudga pardoz-andoz, tamanno bilan keldi. Unı bir ko‘rgan odam kimligini aniqlab olsa bo‘ladi.

Sud ikki tomonni tinglab, Qimmatxonga Ummatali ustidan chiqqan badbaxt kechanı eslatgan edi:

– Yolg‘on!! – deb tondi.

– Yo tavba! – dedi sodda Ummatali yoqasini ushlab. – «Ayb menda!» deb, oyoqlarim ostiga tashlanib yig‘lagan sen emasming?

– Yo‘q, men emas! Bu – tuhmat, bo‘hton? Xotin-qizlar tengligini ko‘rolmaslik. Ming qilsa ham chet elga qochib ketganning bolasi-da, bizga yuragida keki bor.

Shu yeri Ummataliga og‘ir botdi. Qoni boshiga tepdi.

– Bas, manjalaqi!

– O‘zing buzuq!! Xalq dushmani!!

Sudya ikki tomonni bosdi. Ummatali, «Xalq do‘stining ahvolini qarang», deganicha nafasini ichiga yutdi. Oraga xalq maslahatchisi ayol tushdi. Boshlab Qimmatxonga nasihatomuz gap qildi:

– Shu iflosga bulg‘ayotgan eringiz bilan yana yashash niyatingiz bor bo‘lsa, nega unga rahmingiz kelmaydi? Nega «xalq dushmani» deb bitgan yarasini tirnaysiz? Yuz-ko‘ziga axlat sochib, yana qaysi yuzingiz bilan qo‘yniga kirasiz? Sovigan ko‘ngil isitilgan oshdek bad-hazm bo‘lishini bilasizmi! Qaytib kiradigan odam chiqqan eshigini qattiq yopmaydi? Tilim bor, huquqim teng, deb har narsani gapiravermaydi, kishi. Suydiradigan ham til, kuydiradigan ham til. Ming qilganda ham u kishi erkak, siz xotin. Erkak – podsho, xotin – vazir.

Undan ko‘ra sizdan ayb o‘tgan bo‘lsa, uzr so‘rang. U kishi kechirsin.

– Uzr so‘rang? – uning so‘zini og‘zidan yulib oldi Qimmatxon, – undan keyin o‘larkanman, g‘ing desa oyog‘ini yalab!

– Hech shunaqa qiladigan erkakka o‘xshamaydi.

– Sizga shunaqa qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan bo‘lib ko‘rinyapti. Har tillari borki, ilon po‘st tashlaydi!

– Unday bo‘lsa rozi bo‘ling, ajraling, nima qilasiz bunaqa yomon erni! – dedi go‘yo payt poylayotgandek quloq solib o‘tirgan sudya. Qimmatxon qurbaqaday sap-chib tushdi:

– Ho, nega ajralar ekanman! O‘zim egib olaman! Sudya bilan maslahatchilari shuncha qildi, baribir u tilini

bermadi. Bidillayverib joniga tegdi. Sudya oxirgi tadbir tariqasida Ummatalidan so'radi:

- O'sha kecha akt tuzganmisiz!
- Yo'q.
- Guvohingiz bormi?

Ummatalining esiga A'zam tushdi. Uni ro'kach qilishning ahamiyati yo'q, ham uzoqda, ham etagi bulg'angan. Nochor qolib:

- Yo'q, – dedi.

Sudya afsuslangandek ko'zini suzib qo'ydi.

– Bor edi-ku, – dedi piching bilan kerilib Qimmatxon, uni tilga ololmasligiga ko'zi yetib, – ayting, chaqirtiring!

– Rostdan bormi? – jonlandi sudya, – kim bo'lsa ham aytavering. Qonun oldida hamma teng. Qimmatxon «Yana bitta nozik yeridan ushladim. Aytib bo'libdi!» deb ich-ichidan kibrlansa, Ummatali A'zamni chet elda ko'rnamaklik qilib qolib ketgani uchun emas, guvohlikka arzigudek odam bo'lmaganidan tilga olishni lozim topmas edi. «Tiling shunaqa gaplarga qichiydi sening, buzuq!» degandek ko'z qirini unga tashlab:

- Yo'q! Guvohim yo'q! – dedi.

Qimmatxon mamnun kerilib, ishshaydi. Bu ishshayishda «O'la, tilga ololmading-ku!» degan ta'na bor edi. Sud ajrim chiqarolmadi. Juda ezilib ketgan Ummatali keyinda qolib, sudyaga: – Bu qanday bo'ldi, hammasi ko'rinib turgan bo'l-sa... – degan edi, sudya:

– «Ko'rinib turgan narsani deloga tikolmaymizda. Fakt kerak, akt kerak, guvohlar tasdiqlashi lozim, birodar! – deya tor yelkasini qisdi. – Hatto, u «meni buzuq deb haqorat qilyapti» deya sizning ustingizdan jinoyat ishi qo'zg'ash mumkin. Bu juda qaltis narsa.

- Qiziq!.. – ajablandi Ummatali.

– Xo'sh, qo'lingizda nima dalilingiz bor? Kim ko'rgan, kimga arz qilgansiz. Qonun dalilga suyanadi.

– Axir...

Bunaqa «qo'ydi-chiqdi»ning son mingtasini ko'rgan sudya bildiki, yigit bechora o'rinsiz qiynalyapti. Qiynalishining sababi aniq. Buni sudyaning o'zi ham tushunib turibdi. Bunday xotin bilan murosaga borgandan xotinsiz armonda o'tgan yaxshi! Lekin u ham ilojsiz! Ajrim chiqarishi uchun ikki tomon rozi bo'lishi, hech bo'lmaganda, bir tomonning qo'lida suvga tushsa cho'kmaydigan, o'tga tashlasa yonmaydigan dalilu guvohlar mavjudligi shart. Bu holda ajratib yuborsa, yuqori tasdiqlamaydi. Demak, bu uning ish faoliyati uchun nuqson. Nuqsonli ish tutishni kim istaydi? Shunday bo'lsa ham kaptari qo'lidan uchgan boladek xomush turgan Ummataliga rahmi keldi. Chindan ham unga jabr: xotini bo'lib yasholmaydi, xotinsiz bo'lib uylanolmaydi!

Sudya Ummatalini boshlab kabinetiga olib kirdi. O'tirishga taklif etdi. Papiros tutdi. U olmagach, o'zi chekib, tutun burqsatdi.

– Birorta turmush qurmoqchi bo'lgan kishingiz bormi?
– dedi mehribon bir ovozda. Oldiniga ikkilanib turgan Ummatali tavakkal qilib:

– Bor! – dedi.

– Hozir birga turasizmi?

– Yo'q.

– ZAGSsiz turishga rozi bo'ladimi? Rozi bo'lsa, yashayvering. Farqi shuki, bola tug'ilsa, uning nomida bo'ladi.

– Keyin-chi?

– Keyin... keyin nima bo'lardi? Vaqt o'tishi bilan bu yog'i ham to'g'rilanib ketadi. Siz uchun birdan-bir yo'l shu. Bunaqalar hozir ko'p. Ummatalining ko'ngli suv ichgandek bo'lib, yorishib, ko'chaga chiqsa, muyulishda ulama sochini uchini o'ynab Qimmatxon turibdi. Yo'lni chap solgan edi, u quvib yetdi. Bo'ydoqlarning hirsini uyg'otadigan bir tarzda gap boshladi:

– Ha, muncha teskari qaraysiz, arpingizni xom o'rdimmi! Yuring, anavi hovlida yaxshi lag'mon qiladi. Keyin o'zim orqalaringizni yaxshilab uqalab qo'yaman. Sog'ingandirsiz. Yo sog'inmadingizmi? Shuncha vaqt-gacha sog'inmay bo'psiz! Uylaringizni biram chiroyli qilib, mollarga to'ldirib yasatib qo'yganman... Kirsangiz chiqqingiz kelmaydi. Yuring, bo'lmasa to'g'ri uyga bora qolaylik. Quymoq solib beraman. Yuring!

Ummatali churq etmadi. U bachkanalik qilgan sari, buning g'ashi kelardi. Bir-ikki achchiq so'z bilan siltab tashlab ketay desa, yo'l usti, ko'cha. Damini ichiga yutib, qadamini tezlatdi. Bunga ham, hamrohi gap topdi:

– Buncha chopasiz! O'n sakkiz yashar palov damlab, eshikda qirq kokilini yoyib kutib turgan bo'lsa ham.

Ummatali yana indamadi. Oxiri bo'lmagach, o'zini bosib:

– Xudo xayringni bersin, meni tinch qo'y, – dedi.

– Hali shunaqami! – dedi Qimmatxon titrab-qaqshab. Yugurib Ummatalining oldiga o'tdi, yo'lini to'sdi. – Hoy, menga qara, o'sha manjalaqiga seni uylantirib bo'pman. Istasang, istamasang mening erimsan. Baliq bo'lib suvga kirib ketsang topib chiqaman. Xo'p, desang deganing, bo'lmasa shu yurishim yurish. Shaltog'im sening hovuzingga oqqani oqqan. Yaxshisi, uyga yur. Yopiq qozon yopig'icha qolsin!

– U qozonga qopqoq topilmas endi! – achitib oldi Ummatali.

– Hali shunaqami! Gap shum! Bo'pti! Sen hali to'xtab tur, ko'zingni moshdek ochib qo'ymasam! Bola tashlagan biyaday bo'lib o'zing qaytib kelasan! Hali to'xtab tur!

U titrab-qaqshab, asabiy bir holda Ummatalining yonidan o'tib ketdi. Qimmatxonning bunaqa bo'lib ketganini tushunib yetmagan Ummatali baqrayib qoldi. Anchadan keyin «sharmanda» deganicha labini tishlab, boshini sarak-sarak qildi.

Ummatali horib-tolib, burnidan chertsa yiqilguday bo'lib, ko'rgan-eshitganlari mudhish tushday xayolidan ko'tarilmay, sovxozga chiqib kelsa, hovlida bir uy xotin-xalaj, yosh-yalang. O'rtada «Boy xotin». Uni o'z holiga qo'ymay nimanidir hikoya qildirishayotgan bo'lishsa kerak. Ummatali kirishi bilan noqulay jimlik cho'kdi. Buni bittasi shaddodlik bilan buzdi:

– Voy, xola, nimadan tortinasiz. Ummatali akam o'zingizni bolangiz. U kishi ham jon deb eshitadilar. Eshitasizmi, Ummatali aka? Xolam qanaqa qilib «Boy xotin» bo'lganlarini aytib berayotgan edilar.

– Albatta, eshitadilar, – dedi yana bittasi Ummatali uchun, – qiziq bo'ladi-yu, eshitmaydilar! Ummatali noqulay ahvolda qoldi: chiqib ketay desa, o'tirganlarga malol keladi. Yig'ilishlari buzilishi mumkin. Buning ustiga o'zi ham o'lgudek charchagan. Biror yerga chiqib ketguday ahvoli yo'q.

– Sizlar bermalol o'tiraveringlar, – dedi u uzr so'ragandek, – men shahardan charchab chiqdim, uyga kirib bir oz dam olaman. U uyga o'tib ketdi. Qizlar: «Yaxshi bo'ldi. Kelinlarning yangasi, qizlarning ammasi bo'lib ichimizda nima qiladi», degandek bir-biriga ko'z qisishib qo'yishdi. Faqat «Boy xotin»: Biror narsa yermidingiz? – dedi uning orqasidan.

– Yo'q, qornim to'q. – O'zi ochiq, pardasi tushiriqlik uydan Ummatalining tovushi keldi.

– Oh, sodda xolam-e, – dedi boyagi shaddod juvon, – erkak zoti shahar tushdi-yu, og'zida tili, cho'ntagida puli bo'lib, och chiqadimi? Ummatali akamday so'qqaboshku, doim o'z g'amini o'zi yeb yuradi. Ba'zilar kuldi, Nafisa esa, qizarib, yerga qaradi.

– Shunday qilib, soyda uloq bo'larmish degan mish-mish tarqaldi, – deya hikoyasini davom ettirdi «Boy

xotin», – u vaqtda radio yo'q, televizor yo'q, katta-kichik hamma tomoshaga chanqoq payt. Men o'lgur ham, o'sha vaqtda havasga o'sma qo'yib, sochimni mayda o'rib yuradigan vaqtim. Og'zimdan saqich tushmaydi. «Chang» chalib hammani mahliyo qilardim, ayniqsa «biyov-biyovi»ga usta edim. Uch-to'rtta bo'lib biz yosh-yalang ham uloqqa bordik. Shahardan odam chiqqan. Zarbof to'nli ulus qozisidan tortib, chorkarj duxoba do'ppi, juncha kamzul kiygan boyvachchalargacha o'sha yerda, chophonining paxtasini osiltirib beva-bechora ham turibdi. Xotin-xalaj ham bir tomonda. Uzoqdan kelgan dehqonlar aravasining shotisini laylak qilib, ostida o'tiribdi.

Chavandozlar otini sovutish bilan ovora. Qanaqa sovrinlar berilishi og'izdan tushmaydi.

– Kim uloq berayotgan ekan, xola? – boyagi shaddod juvon so'radi.

– Bir boy. Ellik yoshida farzand ko'rgan ekan. Otiyam bir narsa edi, shu vaqt esimdan chiqdi.

– Ha, oti o'lsin, hikoyani aytavering! Xola birpas eslab turib topolmagach, «hozir tilimning uchida turuvdi-ya!» deganicha hikoyasiga tushib ketdi:

...Qiy-chuv bilan uloq boshlandi. Yigitning sarasi maydonda. Yiqilgan qayda-yu, yugurgan qayda. Uloq qizigandan-qizib ketdi. Bir vaqt mening akam uloqni olib, taqimiga bosganicha otning boshini qo'yib qoldi. Qani unga teng keladigan! Yeldirib borib, manzilda turgan mursak to'nli kishining oyog'i tagiga uloqtirdi. Ana qiyqiriq – mana qiyqirish! Sovringa bir juff beqasam olibdi: otini yo'rttirib biz qizlarning qoshiga kelib qoldi, menga uloqtirib, «olib qo'y!» dedi. Albatta, hammaning ko'zi unda. U to'xtagan yer, u gaplashgan odamda. Men o'lgur, yuzimni bekitish xayolimdan ko'tarilib, ro'molni yelkamga tushirib, taltayib o'tiribman. Uzoqdan bir shaharlik o'lgur kuzatib turgan ekan. «Kim u?» deb so'rabdi

qo'shnisidan. «Chavandozning singlisi» debdi biladiganlardan biri. Shaharlik og'ir xo'rsinib, mo'ylovini ma'noli burab qo'yibdi. Uloq oxir bo'lguncha ham mendan ko'zini uzmad. Men bo'lsam, hech narsadan xabarim yo'q, ochilib-sochilib o'tiraveribman. Bir hafta o'tgandan keyin oyim bilan dadam allanmani pichir-pichir qilishadigan bo'lib qoldi. Bu orada qishloq oqsoqoli bir-ikki eshik taqillatib kelib-ketdi. Keyin bilsam, mening savdom bo'layotgan ekan. Bir kuni kechasi onam rahmatlik gapni uzoqdan aylantirib kelib: «Har kimning peshanasi. Birov tengiga, birov yoshi ulug'roqqa tegadi. Taqdiri azaldan qochib bo'lmaydi», deb qoldi. Darrov bildimki, (o'zim ham ziyrakkina qiz edim) meni yoshi katta odamga berishmoqchi. Yig'ladim-siqtadim. Iloj qancha! Dabdabali to'y keldi, qo'ni-qo'shni yog'liq oshni yeb, mo'ylovini burab, kekira-kekira chiqib ketdi. Men bo'lsam uyda qon yig'lab, zardob yutib o'tiribman. Tomog'imdan na issiq o'tadi, na sovuq. Rahmatlik ammam atrofimda girdikapalak.

– Nega endi? – qiziqib qoldi bir yosh qiz.

– Bir narsa qilib qo'ymasin, deb mendan qo'rqardi. U vaqtda o'zini bunaqa qilib qo'yganlar ozmidi! Simob, zahar ichgan qancha-yu, jarga o'zini tashlagan qancha!

– Gapning beliga tepmay tur, – dedi boyagi shaddod juvon, yana nimadir so'ramoqchi bo'lgan qizga. Uni boshqasi ilib ketdi:

– Savollar yozma berilsin, qarshilik yo'qmi?

Yo'q! Qani, xola, bu yog'ini davom eting.

– Saqichu changlarim qishloqda ordona qolib, shahar-ga kelin bo'lib tushdim, boyvuchcha kelin. Erim Saidakbar degan ko'nchi boy ekan. Mendan oldin ikki uylanib, biridan farzand ko'rmagan, ikkinchisining bolalari turmagan ekan. Birinchisi: «Qo'sh xotinli erdan chol yaxshi», deb boshini olib ketgan. Keyingisi bir kechadayoq o'lib qolgan. Sababini hech kim bilmaydi. Allaqaysi yurtlik

bir musofir ekan. Qo'shnilari: «Oydek juvon edi. Shu uyga kelin bo'lib tushibdiki, yurtini sog'inib, ko'zidan yoshi tinmadi, na yeganı ichiga tushdi, na kiygani ta-tidi», deb hikoya qilishardi. Erim judayam yomon ki-shı emas edi. Ba'zi erkaklar singari salga og'zidan adi kirib, badi chiqavermas edi. Lekin o'lguday quv. Yerning ostida ilon qimirlasa bilardi. O'sha mahalda o'rischa gaplashib, Maskopdan gazeta olib o'qirdi. Boyvachcha yurishni o'shanga chiqargan edi. Otga minsa, egarga duxoba yopilgi tashlab o'tirardi. Qoshiqda, ovqat yeb, yalang'och xotirlarning suratini bir dasta qilib yig'ib yurardi. Peterburgda tushgan chaqmoq telpakli surati uyning to'rida osig'liq turardi.

– Juda kulturniy ekan-ku! – dedi kimdir to'dadan kulib.

– Kulturniy bo'lmay o'lsin! Harom ishga ko'p yurardi. Bir kuni tushlik ovqatni yeb turib, quduqdan suv tortgandek nimchasining cho'ntagidan zanjirli kumush soatini oldi. Xayol surib qarab turdi-da, shaq etib qopqog'ini yopdi. «Uch kunlik ishım bor. Tutilib qolsam xavotir olma», dedi-da kamzulinı bilagiga solgancha chiqib ketdi. Ikki kun o'tmay, bir ko'zi bog'liq kelib qoldi. «Ha, nima qildi?» desam, «cho'p kirib ketdi!» deydi. Lekin bir hafta o'tdi yechmaydi, o'n kun o'tdi yechmaydi. Keyin bilsam, o'sha ketishida ikki-uchta bo'lib yomon xotinlar bilan bog' say-liga chiqishgan ekan. O'shalardan bittasi ichishib o'tirib, nima bo'libdi-yu, ko'ziga kabobning sixini tiqib olibdi. Ko'r bo'lishiga sal qoldi. O'ziyam u narsa ovoza bo'lib ketmasin» deb, g'ing deganning og'ziga pul tiqdi. Pul-ning zo'ri bilan bosib ketdi. Shu sabab bo'ldi-yu, mening ham sal ko'zim ochildi. «Nega tug'maysan?» desa, «Siz-ga bolaning nima keragi bor? Ko'chadagi xotinlar bo'lsa bo'ldi!» deb og'ziga urdim. Lekin o'zimdan o'tganni o'zim bilardim. Xoli qoldim:

*Qo'limdagi qo'sh uzukning
O'zi boru ko'zi yo'q.
Toleimni bor deydilar,
Oti boru o'zi yo'q!*

– deb nolish qilardim. Besh yil bola ko'rmadim. Men bor-magan folbinu azayimxon qolmadi. Jo'jaxo'roz quchoqlab o'qitishdan tortib, Shohimardon pirimu O'sh buvamga jonlik atadik. Bo'lmadi. Erimning tili chiqa boshladi: «Ustingta xotin olaman», «Mening javobimni berib, keyin xotin olasiz. O'lsam ustimga xotin keltirmayman. Och qornim, tinch qulog'im!» deb turib oldim. Bu orada inqilob bo'lib qoldi. O'zi bilan o'zi ovora bo'lib ketdi. Yotib uyqus kelmaydi, o'ngga ag'dariladi «uh!» deydi, chapga ag'dariladi «uh» deydi. Yegani botmay qoldi. Uy-joy ko'ziga xunuk ko'rinib, joni tashvishiga tushdi. Bir oz davlatini beva-bechoraga in'om qilgan bo'ldi. Yoshi o'tib qolsa ham, uylanish u yoqda tursin, qarzdandan boshi chiqmagan xizmatkori Qurbonaliga «otalik» qilib, uylantirdi, tashqaridagi puturdan ketgan bir uy bir ayvonni naridan beri tuzatib, ularga berdi. «Bugundan boshlab siz xizmatkor emas, men xo'jayin emas. Og'ani birodarmiz», dedi. Hatto uringan jujuncha kamzulini olib chiqib, kiygizdi. Oyog'iga kavush-mahsi qilib berdi. O'zi tugul, xotinini ham sizlab gapiradigan bo'ldi. Shu to's-to'polonda bo'yimda bo'lib, qiz tug'dim. Lekin erimning ko'ngli yorishmadi.

«Bolang shumqadam keldi. Kundan-kun omadim ketyapti», deb ancha vaqt qo'liga olmay yurdi. «Davlating o'lsin, odamdan aziz bo'lmay!» deb ichimda qarg'adim, ba'zan xo'rligim kelib yig'ladim. «Farzand dog'iga uchra, ketingda «otam, voy otam!» deb yig'laydigan tuyog'ing qolmasin!!» deb duoyi bad qildim. Yo'q, saldan keyin yana ishi yurishib, gulduros kekiradigan, dadil va shiddat bilan gapiradigan bo'lib qoldi. Men bu mahalda uchinchi

bolamga og'iroyoq edim. Payt topdi: «Hoy, xotin, agar bu gal ham qiz tug'adigan bo'lsang, qishlog'ingga eltib tashlayman», deb bigizini tiqardi. Yo'q, bu gal ham qora bosgurning aytgani bo'lmadi, qiz tug'ildi. Ana shunda uning o'dag'aylashlarini ko'rsangiz: men ajal bilan jon talashib yotibman-u, tepamga kelib, u gaplarni qiladi, bu gaplarni qiladi, asti qo'yavering, bu jinni bo'lib qolganmi, dedim. Na doyaning, na opasining so'ziga quloq soladi. Zo'rg'a tashqariga itarib chiqarishdi, u yog'iga Qurbonali bechora: «Qo'ying, boy ota, qiz bergan xudo o'g'ilni ham o'zi beradi», deganicha olib ketdi.

– Qurbonali... Ummatali akaning familiyasi-ya! O'xshashligini qarang! – dedi xolaning yonida o'tirgan puchuq juvon.

– Ha, Qurbonali. Ummatalining familiyasi Qurbonaliyevmi? Bilmas ekanman. Qurbonali bechora yaxshi odam edi. Halol. Mehnatkash. Ko'chadan tanga topsa egasini izlab qo'lga bermaguncha ko'ngli tinchimaydigan, haromdan hazar qiladigan pokdomon edi... Yo'q, keyin o'g'il ham tug'ib berdim, to'qliday o'g'il. Lekin bu o'g'il menga armon bo'ldi.

– Nima qilib? – shoshib so'radi bir xotin. Xola doka ro'molining uchiga yosh qalqigan mijjasini artdi, dimog'ini tortib, uzoq «uh»ladi.

– Bu mahalda uvog'i to'kilsa uvol bo'lmaydigan bulka non endi chiqqan edi, – hikoyasida davom etdi xola, – yana savdo-sotiq avjida. Erimning teridan bit semirib yurgan payt. «O'g'il ko'rdim» deb elga osh berdi. «Davlatimning barakasi o'chmasin!» deb o'g'luga Abulbaraka degan nom qo'ydi. Uch qizini uning bir mo'yiga olmasdi. Ko'chadan keldi, qo'lida. Qo'lida uxlab qolsa hamki, yerga qo'ymas edi.

– Kechikib ko'rgan farzand shunaqa shirin bo'ladi, – dedi o'rta yosh xotin xolaga izoh bergan bi y... da.

– Ehtimol, – unga qo'shildi xola, – lekin bolam tushkur juda yig'loqi, uzun qish kechalari ko'zini yummas edi. Tepasida o'tirib chiqardim. Hadeganda bo'ynini tutmadi. Shunda bo'yin go'shti yeganlarim!

– Voy, shunaqa odat bormi? – xuddi shu azob boshiga tushib turganday dedi bir yosh juvon.

– Ha, aylanay, o'sha vaqtda shunaqa deyishardi: bolasi vaqtida bo'ynini tutmasa, onasiga bo'yin go'shti berishardi. Ko'p yig'lasa ko'zi qora bo'ladi, deyishardi. Endigilarning bunaqalar bilan ishi yo'q. Bola «ing» desa, duxtirga yugurishadi: tekin duxtir, arzon dori-darmon. Bizlar bechora bitta bolani katta qilguncha ona sutimiz og'zimizdan kelardi: folbinga yugur, kinnachiga chop, domlaga o'qit, isiriq sol, ko'zmunchoq taq, «is» chiqarib yubor, u pirimga ata, bu pirimga ata... eh-he, bunaqa ovoragarchiliklarning soni yo'q edi. Hozirchi? Kichik bo'lsa yasluga, kattaroq bo'lsa bog'chaga ber. O'zi yuvib-tarab o'zi katta qilib, maktabga uzatadi. Tunov kuni ko'rsam Nafisaxon anavi mahallada yuribdi. «Ha?» desam, «Bitta bolam bog'chaga ikki kundan beri bormaydi. Xabar olgani kelyapman!» deydi. Kecha ikkitasini boshlab ketyapti. Ota-onasining vaqtida olib ketgani «qo'li tegmagan» emish.

Orqasidan: «Uyidagi oshini ham pishirib berib keling», deb kuldim. Buning ustiga duxtirlarning mehribonligi! Bola sal isitma chiqarsa, beminnat dastyor–telefonda chaqirding, baraka topkur, o'zi mashinada uchib keladi. Yonida yordamchilari ham bor. Sizlar nolimasanglar ham bo'ladi.

– Bularning gapini qo'yavering, xola, qaynatsa ko'pikka chiqib ketadi! Keyin nima bo'ldi? Hikoyani oling, suhbatni iziga burib qo'ydi boyagi shaddod juvon.

– Ha, aytganday, erim shu ahvoliga mushukdan qo'rqardi.

– Voy, erkak kishi-ya! – deb yubordi biri.

– Ha. Bolaligida bir narsa bo‘lib, yuragini oldirib qo‘yganmi, tomda mushuk miyovlasa, uyda ko‘zi olakesak terardi. Buni mahallaning bolalari bilishar ekan. Yangi tushgan yillim ro‘zada ramazon aytib kelib qolishdi. Men o‘lgur, bilmasdan bitta kulcha chiqarib yuboribman. Sal o‘tmasdan bittasi derazadan mushuk tashlab qochsa bo‘ladimi! Erimning og‘zidagi og‘zida, bo‘g‘zidagi bo‘g‘zida qoldi. Taxta bo‘ldi-qoldi, qani tili so‘zga kelsa! Mushuk o‘lgur ham odamga o‘rgangan ekan shekilli, shuncha «pisht» deyman, qani qochib keta qolsa! Qaytangga miyov-miyov deb erimga qaraydi, qo‘l ko‘tarsam pixillaydi. Unga sari erimni bezgak tutadi, yuzini yaktagi bilan yopib oldi. Oxiri mushukni bo‘ynidan ushlab, hovliga uloqtiribman. Keyin bilsam, mahallaning sho‘x bolalari bu uydan pul chiqishiga o‘rganib qolishgan ekan, meni non berganim alam qilibdi, mushuk shunga tashlangan ekan. Suv sepib, erimni zo‘rg‘a o‘ziga keltirib olibman. Shu-shu o‘ttiz kun ro‘za kech kirdi mayda tayyorlab qo‘yadigan bo‘ldi. Bolalar ham kanda qilmaydi. Ba‘zi kun ikki-uch safi keladi. Erim «og‘ziga ur!» deb yonini kovlagani-kovlagan. Maydasi bo‘lmasa, o‘zi chiqib ertaga qo‘shib berishini va‘da qiladi. Bo‘yimda bo‘lmay yurgan yillari:

*Ramazon aytib keldim eshigingga,
Qo‘chqorday o‘g‘il bersin beshigingga,*

deganda tanga ham berib yuborardi. Bir kuni, – deb piq etib kulib qo‘ydi «Boy xotin», – nima bo‘ldi-yu, jahl ustida «ko‘rpangga mushuk kirsin!» deb qolmasmanmi! Qoldim baloga, qoldim baloga! «Sen menga yomon ko‘rganim mushukni ravo ko‘rdingmi? deb, oyog‘ing singur, biqinimga bir tepsa bo‘ladimi? Bir hafta, o‘n kun nafas ololmay yurdim. Bundoq oynaga solib qarasam, kavushining izi taqaday bo‘lib turibdi.

– Rostakamiga o'rniga mushuk qamab qo'y mabsizda, xola, joni chiqib o'lardi, – «Boy xotin»ga o'tirganlardan kimningdir rahmi keldi.

– Ha, bolam, sizlar hozir shunaqa deysizlar. U mahalda xotin mushfiq be navo edi. Eshikdan tovushi kelsa, ichkarida ikki bukchayib turardik. Eshikdan kirdi salom berib, yelkasidan to'nini olmay ko'rchi, o'sha kuni tonging otmaydi. Mahsisini tortib, paytavasini ichiga solib, bir chetga artib-surtib olib qo'yish, oyog'iga suv quyib turish, sochiq olib darrov qo'lga tutish – har kuni kanda bo'lmas edi. Ijzatisiz ostona hatlab, eshikka chiqib bo'psan. Naq boshlaringda yong'oq chaqadi! Bir yili o'sha chavandoz akam bilan gap-so'zga borib ota-onamning oldiga olti oy yoz yubormadi. Otam bechora munkillab kelib-ketib tursa ham, onam bechora yetib kelolmaydi. Tiq etsa eshikka qarab, har ko'ringanga arz qilib yig'lab o'tiribdi, deb eshitdim, shuncha xudoning zorini qilaman, qani, qahri qattiq, tosh yurakning rahmi kelsa! Yig'lab boqdim, yalinib boqdim, miq etmaydi. Oxir bir kuni ruxsat oldim. Endi yo'lga chiqay deb, arava qo'shtirib tursam, Qurbonali bir yigit bilan kirib qoldi: onam vafot etibdi! O'ligi ustiga kirib bordim. Shunaqa qilib, onam rahmatlik bilan vidolashmay qolganman.

– Voy, zamoninglar qursin! – boyagi shaddod xotining astoydil qahri keldi.

– Vo, bolam, sizlar nimani bilasizlar: ko'zini ochib, gulzorni ko'rgan kapalakday erkinsizlar. Nimaki xo'rlik bo'lsa, biz ko'rdik, nimaki zahar-zaqqum bo'lsa biz yutdik. Hali ham turib-turib xo'rligim keladi. Biz uchun osmon yiroq, yer qattiq edi. Odam boshi – soyning toshi, ne to'lqinlar o'tmas ustidan!

– Eringizni haj qilgan deyishadi-ku, nahotki «hoji» shunaqa noinsof bo'lsa?

– Ha, bolam, silagan bilan mushukning dumi to'g'ri bo'ladimi! Hojiligi ham bir nayrang. Makkatilloga bormagan. O'rniga odam yuborgan, badalhoji!

– Voy, shunaqasi ham bo'ladimi? – ajablandi Nafisa.

– Bo'ladi. Kishi bir sabab bilan o'zi bormay, xarajatini ko'tarib o'rniga odam yuborsa, hojiga borgan savobini topadi, hoji nomini oladi. Buni kasalmand, yoshi o'tib qolgan badavlat odamlar qilguvchi edi. Mening erimga balo ham urmagan, «xo'p!» de, yana bir uylanay deb, ayg'irdek kishnab yurgan chog'i edi. Savdo-sotig'ini qizg'andi, pul ko'ziga yaxshi ko'rindi. Lekin hoji so'zini darrov ismi oxiriga qo'shib oldi. Qo'shaloq qilib aytmanganga xo'mrayib, haddi sig'adiganga «qo'sh aytishga tiling kelmasa «Hoji ota» desang bo'ladi» deb tanbeh berib tuzatdi. Hojisini aytmasdan to'yxati kelsa, kam-sitilganday bormay yurdi. Tulki dumini maqtaganday, hojiligi bilan kibrlangani kibrlangan edi. Bu dovrug'i ham uzoqqa cho'zilmadi. Keyinchalik, «Boy-kambag'al teng bo'ladi», degan kezlari o'ziga erish ham ko'rinib qoldi. Birov «hoji»sini qo'shib aytganidan, avval faxrlansa, endi dashnom eshitayotgandek, yutib bo'lmas narsani og'ziga solib qo'yib, nima qilishini bilmayotgan odamdek lohaslanardi. Inqilobdan keyin savdo-sotiqqa ruxsat berilgan yillari moy quyilgan gulxanday yana uch-to'rt yil gurillab yurdi. Bildiki, baribir oxiri voy. Sho'ro chalib ketadi, qo'lidagi bor-yo'g'ini qoqib oladi, boshi o'limda, mulki talonda. Bunaqa odamlarga mol-dunyodan ajralish jon berishdan qiyin. Darrov evini qildi. Bor-yo'g'ini yig'ishtirib chet elga qochdi-ketdi. Men sodda hamma narsani qo'lga yig'ib berib, «seni odam kelib olib ketadi» desa ishonibman. «Nega endi o'g'lingni olib, meni uchta qiz bilan tashlab ketyapsan?» ham demabman.

Keyin odam yuborish qayoqda, tirikmisanlar deb xat-xabar ham kelmadi. Shunday qilib, tuzliqda tuz-

siz beva qolganman. Hammasi ham mayli, bosh omon bo'lsa do'ppisiz qolmaydi, qarab turib, yakka-yu yolg'iz o'g'limni berib yuborganimga hali chidamayman. «Tashlab ket o'g'limni, o'zim bilan boradi!» demaymanmi, o'zi-ku kuzgi yaproqday qaltirab turgan payti, hech narsa deymasdi, o'zi qayoqqa borsa boraversin. Menga desa, u dunyoga o'tib ketmaydimi! Men laqma qarab turib, o'g'limdan ajralib, haligacha ko'z yoshim arimaydi. Tushlarimga kiradi, – «Boy xotin»ning xo'rliigi kelib, ko'zi yoshlandi. Jim turib qoldi. Tinglovchilar ham sukutga cho'mgan, go'yo xolaning alamini birga o'rtoqlashardi. Xola dimog'ini bir-ikki ketma-ket tortib, artindi-da, dedi: – Murg'akligida yig'lab emadigan bola ulg'aysa gapdon bo'ladi, deyishadi. Abulbarakam ham yig'loqiroq edi. Kim biladi, qaysi yurtlarda yigitlarning mirzosi bo'lib yuribdi. Ishqilib, omon bo'lsa bas! Yelkasiga ko'zmunchoqlik uhfa taqqan beqasam to'ncha kiyib, amirkon etikchalarini do'qillatib yurganlari shundoq kechagidek ko'z oldimda turibdi. Tushimga ham bola bo'lib kiradi. Hozir bola-chaqalik bo'lib ketgandir. Tushimda shuncha qilaman, qani bir og'iz tovushini eshitsam! Bolam bechora ko'zini mo'ltillatib turgani-turgan. U ham meni sog'inar-a? Yo esidan chiqib ketganmikanman? Pishiqqina edi, «Oyijon»lab bo'ynimdan quchoqlagani-quchoqlagan edi. Bir marta yana bo'yi-bastini ko'rsam, armonim yo'q edi, go'rimda oyog'imni uzatib tinchgina yotardim.

Yana xola sukutga ketdi. Hamma jim. Hovlida charx urib yurgan qaldirg'ochning uchishi eshitilardi. Qayerdadir sigir ma'radi. Tovuuq qaqilladi. Patillab ko'chadan motosiki o'tdi. Yana jimlik.

– Tuyaning terisi bir eshakka yuk bo'ladi, deganday undan keyingi azoblarimni aytmaysizlarmi! Erim o'lgur-ku, sherning og'zidan haqini tortib olib yeydigan edi, yo'lini topib ketgandir. Bu yoqda uning kasriga men qoldim.

«Boyning xotini, qonimizni so'rganning boyvuchchasi» deb o'tgan ham, ketgan ham tosh otadi. O'zimning alamim o'zimga yetmagandek bularnikiga ham kuyaman. Boyvuchcha bo'lib, bundoq bir ro'shnolik ko'rgan, yayrab-yashnab yurgan bo'lsam ham go'rga! Yog' ichidagi buyrakday siqilib umrim o'tgan.

Bir kuni o'sha chavandoz akam tushib-borib qoldi. Bo'lgan voqeani aytdim. «Qaytaga zulmdan qutulibsan», dedi. Bu vaqtda u sho'ro faollaridan bo'lib, qishloqmaqishloq yurardi. Rahmatlikni shu faolligi boshiga yetdi: mushtumzo'rlar soyda chopib ketdi. O'sha o'ldirilishidan sal oldin, meni shaharda «Boy xotin» deb betinch qilishayotganini eshitgan bo'lsa kerak, kechqurun kirib kelib qoldi. Surishtirdi. Aytdim. Indamasdan chiqib ketdi.

Mahallaning kazo-kazolarini boshlab keldi.

– Ey mening singlim, – dedi. – Bir kambag'alning qizi edi, zamonaning zayli bilan boyga tegib qolgan. O'zinglarga ma'lum, boy qochoqda. Suvniki suvga, o'tniki o'tga ketdi, qatiqning puli qoldi, deganday, o'sha kambag'alning qizi. Men qishloqqa olib ketaman. Boydan qolgan uyjoy sizlarga. Bog'cha ochasizlarmi, maktab qilasizlarmi, ixtiyor sizlarda. Mol-mulki ham sizlarga. Insof qilsanglar uchta yetimi uchun uncha-buncha beringlar, bo'lmasa bunga ham da'vosi yo'q. Xo'sh nima deysizlar? – dedi.

Kirganlar bir-biriga qarab qolishdi, birortasidan nido chiqmaydi. «Bo'pti bo'lmasa, – dedi och uyda to'q o'sgan akam, – biz ketdik. Omon bo'linglar. Qani, singlim, ko'chaga chiqdik, bular eshikni qulflab olsin!» Kelganlar birdan tipirlashib qoldi. Bittasi «undoq emas, yigit, shaharliklardan hali insof ketgani yo'q. Judayam yuzimizga tupurib ketmang. Tun o'tsin, tong otsin. Bitta-yarimta arava qiling. Singlim o'ziga kerakligini olsin» dedi. Akam rahmat aytib, qo'lini ko'kragiga qo'ydi. Ertalab yo'lga chiqdik,

uchta qizim bag'rimda. Uy-joy qolganiga emas, o'sha hovlida xuddi bittayu bitta o'g'lim, ko'zimning oqu qorasi Abulbaraka qolayotgandek kela-kelguncha yig'ladim. O'shanda oqqan ko'z yoshlarim hali tinmaydi, azizlar, hali-beri tinadigan ko'rinmaydi. Ishqilib, diydor ko'rishmoq qiyomatga qolmagan bo'lsin!!

– Qizlaringiz qayoqda, xolajon? – qiziqib qoldi Nafisa.

– Bittasi otasiga ichikib, saldan keyin kasal bo'lib qoldi. Qizim bechora shunaqa ichikdiki, cho'p bo'lib ozib ketdi. Kechalari «ada»lab alahlaydi. Uyg'onib yig'laydi. Qo'ni-qo'shnilar, «og'ziga tuplatib qolmagan ekansizda», deyishadi. O'sha paytda dadasining ko'ziga farzand ko'rinibdimi? Uning bunaqa dom-daraksiz bo'lib ketishini tush bilibmizmi! Hali-hali esimda: qizim bechora, o'lyaptiku ko'chadan erkak tovushi kelsa, «Ada! Ana adam! deb talpinadi. Qani turishga kuchi yetsa! Alamiga chidolmay, yotgan yerida o'zini ko'tarib-ko'tarib tashlaydi. Bolam rahmatlik yomon qiynalib jon berdi. Uvoli dadasini tutmasa asti rozi emasman! Norastaning ko'z yoshi imonni kuydiradi! Bittasini qizamiq yedi. Bittasi, xudoga shukur, uyli-joyli bo'lib ketgan edi, ikkita bolalik bo'lganda eri:

«Chet elga qochib ketgan kulakning qizi ekansan, menga kasring tegadi», deb qo'yib yubordi. Hozir shaharda, tekstilkombinatda ishlaydi. Ishlari yaxshi, o'zini tutib olgan. Bolalari katta bo'lib qoldi. Avvaliga tishi yo'q odamga qattiq non berganday xafa bo'lib yurdi, yo'q, hozir ko'nikib ketdi. Odam bolasi o'limdan boshqa hamma narsaga o'rganadi, o'rganib ketdi. Besh barmoq bir vaqtda tug'ilgani bilan barobar bo'lmas ekan! Mana birovdan oldin, birovdan keyin bo'lib, oh-voh bilan umrim o'tib kelyapti. «Boy xotin»lik tarixim shu, xolang o'rgilsinlar.

«Poshsho»sini o'ragan bolarilardek «Boy xotin»ni qurshab o'tirgan qiz-juvonlar azadan tarqagan xotinlarday gap-so'zsiz turib-turib ketishdi. Ularni xolaning achchiq sarguzashti og'ir tosh bo'lib yelkalaridan bosardi, tillarini bog'lab qo'ygandi. Bittasi «bechora xolam!» desa, boshqa biri nidosiz boshini silkib, unga ich-ichidan achi-nardi. Faqat boyagi shaddod juvon hammasini esidan darrov chiqarib, yoki quvnoq ko'ngliga yaqin olmaganmi, o'rnidan qo'zg'alayotib, kulib gap tashladi:

– Xolamda gap ko'p. Har dumalatganingda bir doston to'kiladi.

– Ha, bolam, xolangning dostoni uzun. Har betiga ko'z yoshi to'kilgan. Hech kimniki ko'ngli vayron, ko'zi giryon xolangnikiga o'xshamasin, asti o'xshamasin!

Xolaning ko'zi yoshdan xira. Osmonda esa, qora baxmalga qadalgan gavhar donalaridek yulduzlar charaqlaydi. Chigirtkalar chiyillashi avjida. Uzoq-uzoqda boyqushga o'xshagan bir qush nido beradi. Kimningdir uyidagi radiodan bo'g'iq kuy taraladi. Ko'chaning ikki betidagi qator teraklar uchi shamoldan shivirlashadi. Xola sarguzashtining ta'sirida boshqalarga ergashib ko'chaga chiqib qolgan Nafisa, muyulishga borganda, Ummatali esiga tushib, orqasiga qaytdi: axir u juda qaltis ish bilan shaharga tushib ketgan edi-ku!

Nafisa yuziga yopiq qolgan eshikni asta ochib kirib borsa, Ummatali, xolani quchoqlab, ho'ng-ho'ng yig'lardi. Xola esa, entikib:

– Voy, sen o'sha, baraka topgur, Qurbonalining o'g'limisan? «Abulbarakamning jo'rası», deb seni necha marta ko'targanman. Quvnoqqina bola eding, «gah» desa, zaxcha bolasiday og'zingni ochib turarding. Voy, bo'yi-bastingdan xolang aylansin, tirik yetimginam! – deb qoqindiq bo'lar, ko'z yoshi daryo edi. Nafisa hang-mang bo'lganicha turgan yerida qotib qoldi.

JANNAT QIDIRGAN YIGIT

Nafisa «er degan bundoq bo'lar ekan-ku, esiz-esiz anavi usti yaltiroq, ichi qaltiroq bilan o'tgan umrim!» deb bir sirdosh o'rtog'iga yuragini yorganda, u Ummatali bilan yashay boshlaganiga bir qovun pishig'i bo'lgan edi.

To'g'ri, ilon chaqqan kishi ola arqondan cho'chiydi, deganday u ham bu masalaga avval yuragi betlamay qaradi. Ummatali odam qo'yib, ketidan o'zi uchrab, «Nafisaxon, ahvol shu, xo'p desangiz, butun sovxoz guvoh, birga yashayveramiz, yo'q desangiz yana o'zingiz bilasiz. Zorim bor, zo'rim yo'q. Lekin umrning zoye o'tmagani yaxshi!» deganda ikkilanib qoldi. Nima deyishini bilmadi. Bir oz vaqtga ijozat so'radi. Uyga kelib o'yga cho'mdi. Tunlari xayol, olag'ovur tushlar bilan o'tdi. Yuragiga bundoq quloq solsa, rad etishga majoli yetmaydi. Shunda ba'zi bir og'ziga kuchi yetmaganning: «Daftardan o'tmasdan xotinlik er bilan yashayapti. O'zi shahardan er deb chiqqan ekan shekilli!» deyishlari ham esiga kelmay qoldi. Shahar darvozasini yopib bo'ladi, ammo el og'zini yopib bo'lmaydi, dedi-yu, sevib, sevilganidan mamnun boshini ko'tardi: bas, shuncha chekkan azoblarim ham yetadi! Sevgim – baxtim, sevgim – dardim! Uning sevgisi karvonday o'tkinchi, selday ko'chkinchi emas. U bechoraning ham hayotida halovat yo'q, mendan boshqa na dardkashi, na mehriboni bor. Erta-yu kech ishim deydi, sovxozim deydi.

Ishim degan odam, albatta oilani ham deydi. Bir yigit bo'lsa shuncha bo'ladi. Menga bundan ortig'i chiqmaydi, bundan ortig'ining keragi ham yo'q. Yoshimizda sal ko'proq farq bo'lsa hech narsa qilmaydi. Har kim ko'ngli tortgan oshni ichadi. Ko'nglim shuni debdi, bas, shuni

deganim degan. Muhabbatsiz umrning na nuri bor, na shodligi!

Nafisa uzil-kesil bir fikrga kelgan bo'lsa ham, qaynatasini Teshaboyning oldidan o'tishni lozim topdi. Bir dam olish kuni Surayyoni yetaklab tushib bordi. Butun kuch-quvvatini noqobil o'g'lining g'am-alami ilik-iligidan so'rib olgan Teshaboy:

– Biz nima gunoh qiluvdik, kelin, buncha unutib yubormasangiz! – deb ginaxonlik bilan qarshi oldi. Bo'yi cho'zilib qolgan nevarasini bag'riga bosib, yuz-ko'zidan o'pdi. Ko'zidan yoshini tiyolmas edi.

– Buva, nimaga yig'layapsiz? – dedi dunyo tashvishlaridan hali bexabar norasta nevara.

– Buvangning ko'zi shunaqa seryosh bo'lib qolgan, bolam, – dedi Teshaboy va uni yana bag'riga bosdi.

– Qo'ying, yig'lamang. Men sizga shokoladli konfetlar olib keldim.

– Xo-o, barakalla! Kat-to qiz bo'l, umring dard ko'rmasin, – bobo nevarasini tutgan qog'oz to'rvadagi sovg'ani olib, yoniga qo'ydi, – o'zing ham yedingmi?

– Ha, uyimizda tag'in bor. Sob bo'lsa tag'in olib kelib beraman, yeyavering!

– Himmatingga balli, qizim!

Himmati baland nevarasining dadasinikiga o'xshagan ko'zlarining bolalik zavq-shavqi bilan to'lib yashnashi Teshaboy bag'rini ezib yubordi. Shunda A'zamning umri bino bo'lib, biron marta sovg'a-salom olib kelmagani ota ning ko'nglidan o'tdi. Lekin baribir joni jiz-jiz achir edi. Surayyo bolalarga qo'shilib, o'ynab ketgach, Teshaboy so'radi:

– Darak yo'qmi?

– Yo'q.

– Endi burniga suv kirib qolgandir?

– Bilmadim.

– Musofirlikning o'zi bo'ladimi, kelin. «Uh» deb boshi yostiqqa tekkanda biladi. U hali chuchvarani xom sanab yuribdi. O'zingizning ishlaringiz durustmi?

– Shukur, yomonmas.

– Hali ham o'sha sovxozdamisiz yo shaharga qaytib tushdingizmi?

– O'sha yerda. Lekin sizlardan uzoqlashib ketdim.

– Qayerda bo'lsanglar ham omon bo'linglar. Ora uzoqlashsa ham, o'zinglar uzoqlashmanglar. Nafisaning ko'nglidan: «Ummatali bilan bo'lgan munosabatimdan otaning xabari bor», shekilli degan fikr o'tib, ichidan zil ketdi. Uning bu mushkulini yana Teshaboyni o'zi yengil qildi. U salmoqladi:

– Asli shahardan dala yaxshi. Kishining bahri dili ochiladi. Surayyo sizni qiynamayaptimi?

– Yo'q. Avvallari sal ichikdi-ku, keyin esidan chiqarib yubordi.

– Bir tomondan shunisi ham yaxshi. O'ksib o'sgan bola kasalmand bo'ladi. Lekin dadasining qilmishi yomon bo'ldi. Anor suvining dog'i yuvgan bilan ketmaydi. Itning bojasi, qulning xo'jasi ko'p, degandek boshini yetimchadek har ko'ringanga bir egib yurgandir! G'aribning kunidan tuni uzun bo'ladi. Nafisa indamadi. Uning aytadigan so'zi yo'q edi: yarasi bitib, uncha-buncha tirnaganga og'rimaydigan bo'lib qolgan. Nafisa kuni bilan bog'da bo'ldi. Gap orasida turmush qilish niyati borligini qaynanasiga imo-ishora bilan bildirdi, otadan rozilik olib berishni o'tindi. Mehmon hurmatiga tayyorlangan ovqat oxir bo'lib, dasturxon yig'ilish oldida qaynana bu sirasrordan Teshaboyni xabardor qildi. Ota bir necha daqiqqa boshini quyi solganicha sukutga ketdi. Oppoq soqolini tutamlab, ketma-ket siladi. Keyin boshini ko'tarib:

– Mayli, kelin, inon-ixtiyoringiz o'zingizda, – dedi u siniq tovush bilan. Uning qiynalib gapirayotgani shundoq

bilinib turardi, – odatda kafan kiygan qaytmas edi. Bu ham shular qatorida. O'zidan ko'rsin. Shunchalik bizni hurmat qilib, oldimizdan o'tibsiz, rahmat. Qani qo'lingni och, – birdan ota sensirab, fotihaga qo'lini ko'tardi, – umringdan baraka top. Tuproq olsang, oltin bo'lsin, xor-zorlik ko'rma! O-omin!

Teshaboyning yuziga tortgan qo'li ketidan, buloq ko'zi ochilganday duv yosh to'kildi. Qaynana ham ko'z yoshini ro'molining uchini qayirib artdi. Nafisaning boshi quyida edi. Oraga cho'kkan lohas jimlikni yana otaning o'zi buzdi:

– Kelin, qaytadigan bo'lsang, tur endi, kech qolma bola bilan.

Teshaboy ko'cha eshikkacha kuzatib chiqdi. Nevarasining peshanasidan o'pa turib dedi:

– Nafisa, avval kelinim eding, endi qizimsan. Uzoqlashib ketma, tez-tez kelib tur. Taqdirga nachora! Orada yomonimdan bo'lgan mana bu yaxshim bor. Sog'inamiz. Ko'nglingga olma-yu, bir narsani aytib qo'yay: mabodo bola ortiqchalik qilib qolsa, asti tortinma, bizga keltirib tashla. Uni bolajonlikkina xotini to'ldirdi:

– Ha, rost! U uchun alohida qozon osarmidim! – Nafisa kutilmagan bu gaplardan seskanib ketdi.

– Yo'g'-e! – deb yuborganini o'zi bilmay qoldi.

– Hozir-ku, albatta yo'q deysan. Kim biladi qanaqa odamga turmush qurasan. Bir xil erkak o'gayni chiqishtirmaydi.

Teshaboyning bu gapi, nima uchundir Nafisaga kutilmagan jur'at baxsh etdi:

– Bitta-yu bitta bolamni yoqtirmasa, men ham uning o'zini yoqtirmay qo'ya qolaman! Nafisa yo'lda qaytar ekan, «Nahotki Ummatali o'shanaqa erkak bo'lsa?» degan fikr miyasida bir oz vaqt charx urib yurdi. Bu yovuz savolni, «Yo'q, Ummatali unday kishilardan emas!» degan

ishonch to'liqini tag-tugi bilan yuvib ketdi. Nafisa yengil tortib, sovxozga qaytdi. Shunday xushtabiat va ishonch bilan Ummatalini uchratgan Nafisa, avvalgidek birov ko'rib qoladi, demasdan quvonch bilan uning ko'ksiga boshini qo'ydi:

– Men siznikiman! Siz meniki! – dedi. Lekin nima uchundir ko'zidan yosh tirqirab chiqdi. Bunchalik xayrli oqibatdan shoshib qolgan Ummatali:

– Nega yig'laysiz, Nafisaxon? – deganini biladi. Bundoq qarasa, Nafisa ancha narida yosh qizchalarday xandon chopib ketyapti. Bu quvonch, sevgi yoshi edi albatta!

Bir haftadan keyin ular yoru birodarlarga kichkinagina o'tirish qilib berishdi. Buni eshitgan Qimmatxon shahardan turib, bir-ikki mushtini ko'rsatdi-yu, chiqib kelishga yuragi dov bermadi. Nortoyning gapi qulog'ida turgan bo'lsa kerak! Besh oylar chamasi o'tgach, Ummatalini birdan prokuror chaqirib qoldi. «La'nati arz qilgan shekilli!» deb ensasi qotib tushib borsa, prokuror yo'q. Bir aylanib kelsa, yana yo'q. Shunda o'sha yerda o'tirganlardan biriga murojaat etdi. U odam prokurorning raykom byurosidaligini aytib, nima ish bilan kelganini so'radi.

– Hm, sizmi Qurbonaliyev, – dedi u odam Ummatalini eshitib, – o'tiring. Ishingiz menda. «Ishingiz» so'zini eshitgan Ummatli yuragi dukillab, u ko'rsatgan yerga omonatgina cho'kdi.

– Qimmatxon Qurbonaliyeva kim bo'ladi sizga? – dedi u odam bir delo ochib, varaqlab ko'zdan kechirgach. Delo ancha qappayib qolgan edi. Bu yana Ummataliga ta'sir qildi.

– Xotinim. Lekin birga turmaymiz.

– Hozir qayerda?

– Bilmayman.

– Xabaringiz ham yo'qmi?
– Nimadan? – yuragi shuvillab ketdi Ummatalining.
– Xotiningizdan, o'g'lingizdan.
– O'g'lim bog'chada. Onasini kim bilandir bir yoqqa ketgan deb eshitgandim.

– Kelgan. Shu yerda. Uni shu bir hafta ichi ko'rganmidingiz?

– Yo'q.

– Kimlar bilan aloqasi borini bilarmidingiz?

– Yo'q. Qiziqmadim.

– Afsus!

– Mening afsuslanadigan yerim yo'q. Birga yashash niyatim bo'lmaganidan keyin qiziqib nima qilaman.

– Shu vaqt bizga foydangiz tegardi-da.

– Unda ogohlantirib qo'yish kerak edi, – dedi kulgansimon Ummatali o'rnashib o'tirib, – o'zi tinchlikmi?

– Tinchlik bo'lsa, sizni chaqirarmidik, birodar. Hech narsadan xabaringiz yo'qqa o'xshaydi.

– Yo'q! – entikdi Ummatali va suhbatdoshining og'ziga hayajon bilan tikildi.

– Uch kun burun uyida bo'g'ib ketishibdi. Ichkilik bo'lgan, ichkilikdan keyin shunaqa qilib ketishibdi. Ummatali achinishini ham, «battar bo'lsin!» deyishini ham bilmay qoldi. Ko'z oldiga suddan keyingi uchrashuv keldi. U hamon o'sha yerda jilpanglab turgandek, saldan keyin mushtini ko'rsatib «xap, senimi, to'xtab tur hali», deyayotgandek bo'ldi. Ummatali tunda qo'lini shilimshig' narsaga nogoh urib olgan odamdek ijrg'anib, yuzini burushtirdi. Shu onda Qimmatxonga rahmi emas, nafrati keldi: odam bo'lib, odamdek yashay bilmaganning nimasiga achinadi! Rasmiyat uchun so'radi u:

– Jinoyatchilar ushlanganmi?

– Hozircha yo'q. Lekin ushlanadi, qayoqqa boradi, deysiz, – ishonch bilan javob qildi tergovchi.

– Shunga yordamingiz tegarmikin, deb chaqirtirgan edik, «bilmayman»dan nariga o'tmayapsiz! Tergovchining so'z ohangida gumonsirashni sezgan Ummatali darrov javobini qaytardi:

– Bilsam jonim bilan edi!

– Nahotki, nikohingizda turgan odam nima qilyapti, kimlar bilan uchrashyapti, qiziqmasangiz! Ummatali butun tarixini aytib berishga majbur bo'ldi.

– Bundan xabarimiz bor. Har holda... – salmoqladi tergovchi va o'rnidan turib, u yoq-bu yoqqa yurdi. Burchakka borib to'xtadi-da, orqasi bilan turganicha:

– Ochig'ini aytish kerak, hatto sizdan gumonimiz bor: taloq so'rasangiz, bermagan. Uylanmoqchi bo'lgansiz, monelik qilgan! – dedi va birdan o'girilib, Ummatalining ko'ziga ko'zini qadadi. Undagi o'zgarishni sinchiklab kuzatayotgani shunday bilinib turardi. Ummatalida hech narsa sezmad shekilli, joyiga o'tib o'tirdi: – Bunga nima deysiz?

Haq kishilarda bo'ladigan xotirjamlik bilan Ummatali dedi:

– To'g'ri, har narsa deyishga haqingiz bor. Lekin vaqt ko'rsatadi. Men o'zimni oqlab, sizning g'ashingizga tegmayman.

– Yordam ham bermaysiz?

– Qo'limdan kelsa, marhamat! Siz so'rayotganingiz yo'q, ayb qo'yyapsiz.

Ummatalining ovozidagi norozilikni tergovchi sezdi. Shundan keyin ba'zi bir narsalarni aniqladi. «Chaqirsak, kelib turing», deb chiqarib yubordi.

Ummataliga tergovchining gapi kela-kelguncha alam qildi. Bu it bilan yashab bir ro'shnolik ko'rgan bo'lsam ham mayli edi. Boshimga eng mushkul ish tushganda boshvog'ini uzib, o'zimning dardim o'zimga yetmagandek, ne-ne isnodga qo'ydi-ku, tag'in birov o'ldirib ketganda

tuhmati bo'ynimga tushishi ortiq! Tavba! Boshim hech tashvishdan chiqmas ekan-da!

Uning ko'ngli xotirjam bo'lsa ham, bu tuhmatnamo gapning o'rtada o'tishi tabiatini ancha vaqt g'ash qildi, qonini qaynatib, o'yini buzdi. «O'lmay o'lgur qora qozon. Uzoq yurganga ham qorasi yuqmoqchi-ya!» deganicha uyiga yetib keldi. Bo'lgan gapni Nafisaga aytib berdi. Oldiniga «Voy, bechora-yey!» deb shoshib qolgan Nafisa, tezda kim va nimaga o'lganini o'ylab: «Xotin zotiga isnod keltirib, to'ng'iz qavmida ketibdi», dedi. Saldan keyin u esidan chiqib, ko'z oldidan Mas'ud o'tdi. Ana unga rahmi keldi.

– Mana shunaqa ekan, bog'chaga o'tib, Mas'udjonni olib kelavermadingizmi?

– Yana ularning gumoni oshmasin dedim.

– Gumon! Gumonini yer yutsin! Gumoniga balo bormi! Erta-yu kech orqasida iliqib yurganlardan gumon qilsin! – dedi Nafisa g'azabidan titrab va o'sha kuniyoq direktordan mashinā so'rab, shahar tushib ketdi. Shom qorong'isiga qolmasdanoq Mas'udjonni olib chiqdi. Eshikdan gapirib kirdi:

– O'lganimning kunidan indamay yurgan edim. Endi bir kun qolsa uyat! Eshitgan quloqqa xunuk, – keyin Mas'udga qaradi:

– Shu yer yaxshi, a Mas'udjon? O'zimning oldimda bo'lasan. O'zim senga uch g'ildirakli velosiped olib bera-man. Yo'lda charchab kelgan bola, velosipedning nomini eshitib, birdan ochilib ketdi. G'alvırak yong'oqdek tishi-ning oqi ko'rindi:

– Qachon?

– Qachon desang, o'sha kuni.

– Ertaga, xo'pmi? Yo'q, hozir.

– Hozir do'kon bekildi, o'g'lim!

– Mayli, bo'lsa, ertaga, – bola chekindi, lekin ta'kidlashni unutmadi. – Albatta ertaga olib berasiz.

Bola ruhini yaxshi bilgan Nafisa uni bag'riga olib quchoqlab o'pdi-da, ko'nglini tinchitdi:

– Albatta, o'g'lim, albatta. Mening ozgina pulim bor, dadang ham qo'shsa, yetadi. Endi hamma gap dadasi-da qolgandek bola Ummataliga iltijo bilan qaradi. Lekin nima uchundir «pulingiz bormi, qo'shasizmi?» deyishga botinmadi. Buni uning munchoq ko'zlaridan uqib turgan Nafisa, bola uzoq qiynalib qolayotgandek yoniga tushdi:

– Nega indamaysiz, Mas'udjon sizga qarab turibdi, – dedi xayolga ketgan eriga. Ana shunda Ummatali bir katta xato qilib qo'ygan kishidek darrov esini yig'ib oldi:

– Albatta ertaga velosiped olamiz. Pulim bor. Pul beraman. Uchalamiz birga boramiz. O'zim minishni o'rgatib qo'yaman. Mas'ud mana shu keyingi jumlagi darrov javob qildi:

– Ho, o'zim bilaman. Bog'chada minganman.

– Bo'пти! Bo'lsa bu yog'i ham yaxshi ekan.

Xotirjam bo'lgan bola, o'yinga ovora bo'lib ketdi. Ummatali unga eshittirmasdan, go'yo o'zining olib chiqmaganiga bahona izlagan bir tarzda xotinini sinamoqchi bo'ldi.

– Ayni sho'x payti, sho'x bola chaqqonning bir qo'lini, noshudning ikki qo'lini bog'laydi, deyishadi...

Nafisa oxirigacha gapirtirmadi:

– O'smoqchilamay qo'ya qoling, hammasini bilib, tilingiz tagidagi tilingizni ko'rib turibman. Men sizga shu bolani deb tekkanman.

– Meni deb emasmi?

– Yo'q!! – kuldi xotin. – Sizning nimangizni yaxshi ko'raman, sochingiz oq bo'lsa, cho'ntagingiz qoq bo'lsa, yaxshi ko'rganingiz yong'oq bo'lsa, tag'in nima?..

– Nafisa u yog'iga qofiya qidirib, shoshib qoldi.

Ummatali to'ldirdi:

– Yurganingiz qiru tog' bo'lsa!

– Topdingiz, juda topdingiz!!! Yur, Mas'udjon o'g'lim, dadangning gapini qo'yaver! – dedi go'yo u eshita-yotgandek, vaholanki, Mas'ud Surayyoning qo'g'irchog'ini tomosha qilardi. Shunday bo'lsa ham, Nafisa unga gapiraverdi. – Bu kishim shunaqa, o'g'lim, meni sinaganlari sinagan. Sinash o'lsin, shu vaqtgacha ado bo'lmasa! Yaqinda farzand ko'radilaru hali ham sinash... – gapning bu yog'i ginaga aylanib ketdi. Ummatali bunday nazar tashlasa, xotini o'ksiydigan. Yana hazilga olib, gapni burdi:

– Xotinjon, odam umrning har kuni bir sinov, imtihon. O'qishniki bo'ladi-yu, turmushniki bo'lmaydimi! Senga tegishmasam, kimga tegishaman, baraka topkur! Sen boru men bor. Sen bo'lmasang bu dunyoning menga qizig'i yo'q.

Erining samimiyiligiga hech qachon shak keltirmagan Nafisaning yuziga yana mamnuniyat nurlari sochildi. Ko'zlarini charaqlab, sadaf tishlari shomdan oldin yoqilgan chiroqdek oppoq ko'rindi:

– Shunaqa deng! Juda so'zga ustasiz-ey, avlodingizdan shoir chiqqanmi?

– Ehtimol. Lekin endi chiqishiga aminman.

– Nega endi?

– Chunki shoirlar tug'iladigan zamon endi keldi, barmon kuylaydi. Shu vaqtgacha o'tganlarining ko'zidan yosh arimadi. Nafisa erining bu javobiga parvo qilmay, uning boyagi tegishuvini eslab ketib, erkalandi:

– Siz menga unaqa turli so'zlar qilmang. Menga mumkin emas. Bilib qo'ying, kichkinangizga yomon bo'ladi. Ummatali «shuni oldinroq aytib qo'ymaysanmi, jonidan!» degan ma'noda ko'ksiga qo'lini qo'ydi. Nafisa esa, «ha shunaqa!» deb bir barmog'ini silkitganicha tahdid qildi.

Bir ozdan keyin ikkalasi Mas'udning ikki qo'lidan ushlab, kinoga chiqib ketishdi. Surayyo esa, «Boy xotin»ning oldida qoldi. Unga buvasi qiziq-qiziq cho'pchaklar aytib beradi!

Ertasiga Ummatalini yana bir xabar kutib turgan edi. Kuzning yaxshi kelganidan mamnun, planini butun ko'rsatkichlari bilan do'ndirib qo'ygan Azimxo'jayev trestdan chiqib kelayotsa, boshliq o'z kabinetidan chiqirib qoldi. Uni yilni yaxshi yakunlashi bilan tabriklab, endi nima qilayotganini surishtirdi. Direktor tog' tomonning toklarini yopib bo'lganini, pastdagilarning kesish ham oxirlab qolganini aytdi.

– Sovuqqa qolmaydimi?

– Yo'q. Ilgarigidek qo'l bilan ko'marmidik, mashina shundoq yurib, ustiga tuproq tortib ketadi.

Bizning ish ham yengillashib qoldi.

– Yaxshi, – dedi boshliq, lekin uning xayolida boshqa narsa bo'lsa kerak, bir nuqtaga tikilib qoldi, keyin Azimxo'jayevning ikki bo'lak osti boshqa, usti boshqa ko'rsatadigan ko'zoynagiga qaradi.

– Bilasizmi, Azimxo'jayev, – dedi u birdan, – biz sizni chet elga yubormoqchimiz.

– Nima gap? Ko'p vaqtgami?

– Yo'q! Qishloq xo'jalik mutaxassislaridan delegatsiya tuzilyapti. Bog'dorchilikdan ham bir odam so'rashgan. Shunga sizni tavsiya etmoqchimiz. Boshliq uning fikrini so'ragunicha, stol ustida turgan uchta telefonda bittasi jiringlab qoldi. U so'zi og'zida qolib, trubkani oldi:

– Labbay! Ha, sizmi? Juda yaxshi, telefon qildingiz. Hozir o'zim chaqirsammikin deb turuvdim. Mening oldimga kiring. Qo'shningizni ham ola keling. Sal o'tmay atayin oldinma keyin qo'yilganday bir novcha va oriq odam bilan pakana va yo'g'on odam kirib keldi. Azimxo'jayev ularning istiqboliga turdi. Boshliq avval

ko'rishgan bo'lsa kerak, kirishlarini ma'qullagandek sal bosh qimirlatib, o'tirgan yerida joy ko'rsatdi.

– Mana, o'rtoq Azimxo'jayevning o'zlari kelib qoldilar. Men kechagi gapni aytdim, – dedi boshliq kirganlarga qarab. Kelganlarning biri – novchasi partbyuro a'zolaridan biri, semizi bosh agronom edi.

– Xo'sh, o'zingiz nima deysiz, Alixo'ja Saidovich? Azimxo'jayev bu gap boshlanganidan buyon boshqa bir nomzodni o'ylaydi: Ummatalini tavsiya etsa nima qiladi? Yosh, kuch-quvvatli, ilmi ham yaxshi. Otgan nishoniga o'qi tegadi. Shunday bo'lsa ham u qayoqqa ekanini surishtirdi. Issiq o'lkaga ekanini bilib, xayoliga ikki narsa keldi: o'z yuragining tez-tez betinch qilib turishi va Ummatalining so'nggi vaqtda sitrus mevalarga qiziqib yurgani. «Qiziq, deb qo'ydi ko'nglida, yoshlik va tinib-tinchi-maslik yaxshi-da. Sal vaqt ichida navi yo'qolib ketayotgan uzumlar bog'i barpo etdi. Tog'ning etagini yong'oqzor qilyapti. Bu yog'iga bog'bon chol bilan kelishib, kechagina ko'ksulton, toshnok, jaydari olxo'ri, mag'zi qizil jaynaqi olmaga o'xshagan talay tansiq mevalar ko'chati o'tqazdi. Endi, «bu yerlarda sitrus mevalar o'sarmikin?» deb kitob titib, keksalardan so'rab yuribdi. Aqli butun, didi o'tkir. Shu borsa ayni muddao bo'lardi».

– Mening nomzodimni tilga olganinglar uchun xursandman, albatta. Rahmat! – dedi Azimxo'jayev ko'ksiga qo'lini qo'yib, – lekin tuprog'iga tuxum ko'msa pishadigan issiq o'lkani mening yuragim ko'tarolmaydi. Buning ustiga ancha olis ekan. Xo'p desanglar, o'rnimga boshqa odamni tavsiya etardim.

Istiqboli juda porloq, harakatiga yarasha aqli-idroki ham bor. Sal piligini ko'tarib qo'ysak, yanada charaqlab ketadi.

– Kim bo'ldi u? – dedi ajablanib boshliq. Uning so'zida «men bilmagan bu odam kim ekan?» degan fikr bor edi. Boshqalar ham hayron: ko'zlari uchrashdi.

– Mendagi agronom.

– O'tgan yil borganmi?

– O'tgan yil emas, shunga ham uch yil bo'lyapti.

Boshliq boshini tushirdi. Semiz «anavi...» deb gap boshladi-yu, u yog'ini aytmadi. Aytganda, «Anavi qamoqdan kelganmi?» degan bo'lardi. Qushning qanot qoqishidan qayerga tushishini biladigan Azimxo'jayev, uning nima demoqchi ekanini fahmladi. Uyg'ur qovog'i uyulib tushdi. Ko'zoynagining ustidan g'alati bir qarash qildi.

– Ha, o'sha, qamoqdan kelgan! – dedi u ta'kidlab, keyin yozg'irdi, – og'zimzdagi saqich chirib ketsa ham chaynayverar ekanmiz-da! Menimcha, uni allaqachon tuflab tashlash payti keldi. Boshliq yaxshi biladiki, Azimxo'jayev, avvalam bekorga bir narsani tilga olmaydi: aytadigan so'zining qimmatini yaxshi anglaydi. Ushlaganni uzadi, otganini yopishtiradi: shunday bo'lsa ham unga yer ostidan ko'zining qirini tashladi: har vaqtdagidan ko'ra zol o'tiribdi. Demak, ishonchi komil.

– Yaxshi, o'ylashib ko'ramiz, – dedi u.

– Agar savlatga borib kelmasin, naf olsun, desanglar shuni yuborasizlar. Sitrus bilan qiziqib yuribdi, – bo'sh kelmadi Azimxo'jayev o'rnidan qo'zg'alar ekan. Eshikdan chiqib keta turib, semiz bosh agronomga «sening harom eting ko'p, ozishing kerak, seni ozdirish kerak» degan ma'noda o'qrayib qo'ydi. «Temirni issig'ida ur» degan o'y miyasiga keldi-yu, to'g'ri undan yuqoriga chiqib bordi. Boshlab Ummatalini unga tavsiya etgan rahbarning huzuriga kirdi. Bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay hammasini aytib berdi.

– Orqaga qarayverib, bo'ynimiz og'rib ketmaganil! – dedi u semizni eslab, – lochin bo'lib uzoqqa ham boqsang-chi! Yo'q, bular tuya minib olisga emas eshak minib oyog'ining ostiga qaraydi. Bir kishi hunarini sevsa shunchalik sevadi, shunchalik jon fido qiladi-da.

Keyingi jumla Ummatali haqida ekanini bilgan rahbar uni to'ldirdi:

– Men ham uni tanimas edim. Bundoq qarasam nimasidir o'zgacha, bunaqa odamlarni «mehrigiyosi bor» deydi xalq. Keyin sizga tavsiya qildim.

Adashmadik shekilli.

– Qaytaga yutdim. Kutganimdan a'lo. Ochig'ini aytaymi: o'rnimga mo'ljallab yuribman.

– Yana o'ziga aytib, taltaytirib qo'ymang.

– Taltayadigan xilidan emas. Suvga solsang bo'kmaydi. Menga ishonavering!

– Undoq bo'lsa, yaxshi! Katta yig'inlarga qo'shib turing, ko'rsin, bilsin, chiniqsin.

– Borib turadi. Erinmaydi. Tunu kun jannat qidiradiganlardan.

– Shu safarga ham borib kelsa, yomon bo'lmaydi.

Sitruslar bilan qiziqib yurgan bo'lsa tag'in yaxshi.

U tomonlar – koni. Ehtimol, bizbop biror navini topib kelar.

Rahbar shu so'zlarni ayta turib, trestga telefon qildi, o'z fikrini bildirdi. U yoq ham ma'qulladi shekilli, trubkani mamnun qo'yib:

– Bo'ldi! – dedi. Azimxo'jayev bu xabarni topib kelganda Ummatali to'pig'idan loy kechib, uch-to'rtta odam bilan panniqlarga joy tayyorlayotgan edi.

– Qishda ernak qilamiz! – dedi Azimxo'jayevni ko'rib. Direktor kishilar oldida topib kelgan yangiligini aytgisi kelmay, shaxmatni bahona qildi:

– Azamatlar qolganini o'zligisi tugatib qo'ya qolsa. Siz bilan biz bir aqlni gimnastika qildirsak.

– Anchadan beri cho'qishganimiz yo'q. To'g'rimi, yigitlar? Yigitlardan biri javob qildi:

– Bu kishining qiladigan ishiyam qolgani yo'q.

– Unda yana yaxshi. Bu kutilmagan yangilikdan Ummatalining og'zi qulog'iga yetdi. Lekin bu beg'ubor sevinchga loy sachratuvchi ham topilib qoldi. Azimxo'jayev bilan bo'lgan o'sha suhbatda o'z so'zini o'tkazolmaganidanmi, yoki uning uchirig'iga chidolmaganidanmi, trest bosh agronomi bir hafta o'tgach, sovxozga chiqib kelib qoldi. Ummatalini yoniga olib:

– Qani, agronom, dalangizni ko'rsating, o'zgarishlar katta emish, deb qoldi. Uning yupqa labi asabiy pirpirashidan bexabar Ummatali, «Bizning ish bilan ham qiziqadigan bor ekan-ku», deb oldiga tushdi:

– Jonim bilan, marhamat! Biz tomonlarga hech chiqmaysiz ham. Gazik mashinaning orqa tomoniga Ummatalini o'tqazib yuborib, o'zi shofyor yoniga o'rnashib o'tirayotgan bosh agronomga shu oddiy ginaxonlik ham malol keldi, qayirib tashladi:

– Respublikada bitta sizning sovxoz menga qaramaydida. Buning ustiga sizdek agronom bor yerda biz nima ham qilardik. Ummatali ana shundagina bosh agronomning yuragida qandaydir kudurat borligini payqadi. Lekin bu kudurat nimadan va qachon paydo bo'lganini bilolmay bir oz boshi qotdi. Bosh agronomning kelishidan foydalanib, maslahatlashib oladigan anchagina rejalari bor edi, uning yomonlagan otdek bu turqini ko'rib, hafsalasi pir bo'ldi. Yo'lga chiqish oldida boshlangan bu ko'ngil xiralik sovxozning birinchi-ikkinchi bo'limlarini aylanganda ham yozilmadi. Ikkinchi bo'limdan chiqaverishdagi Ummatali obod qilgan yosh yong'oqzorga kelganda yana battar avj oldi.

– Bu nima? – ko'rib turib jo'rttaga jerkidi bosh agronom.

– Yong'oqzor, – beparvogina javob qildi Ummatali.

– Yong'oqzor?! Endi bir kami bolalarning ko'chada yong'oq o'ynashi qoluvdi! O'smirligidan yuragiga mehri tushgan sevimli yong'og'ini kutilmaganda bunday yerga urilishi Ummatalining a'zoyi badanini titratib yubordi. Go'yo birov uni nohaq ko'nglini og'ritgan, bilib turib og'ritgan edi. Shunday bo'lsa ham u o'zini bosib, yotig'i bilan javob qildi:

– Yong'oqni bolalar o'ynashi esingizga keladi-yu, nega insonga, inson organizmi uchun bo'lgan nafini unutasiz, o'rtoq bosh agronom.

– Ehtimol, hali dorixonalarda sotilishini ham taklif etarsiz?

– Xo'sh, sotsa nima qilibdi! Bilasizmi, Michurin yong'oq haqida nima degan? – Ummatali uzil-kesil uning og'ziga urmoqchi bo'ldi.

– Desa, Rossiya sharoitini ko'zda tutib degan.

– Yo'q, kechirasiz. Michurin faqat o'z qishlog'i, o'z o'lkasi uchungina qayg'urganida bunchalik mashhur bo'lib ketmas edi. Buyuk kishilar doim insoniyat uchun qayg'uradi, uning tashvishida yashaydi.

– Leksiya o'qimang, u yoshdan o'tganman, – bosh agronomning ensasi qotdi, bir ko'zi ijrig'anib qisildi.

– To'g'ri, leksiyaga muhtoj emassiz, men faqat yodimgizga solib qo'ydim, xolos. Yana shuni qo'shmog'im mumkinki, yong'oq butun bir kombinat daraxt. Bir kilosida uch kilo non, yetti kilo kartoshka, to'rt kilo go'sht, o'n besh kilo sutning quvvati bor. Bosh agronom istehzo bilan kuldi:

– Otangiz vahimachi o'tganmi?

– Bu vahima emas, fakt!

– Fakt, fakt! Hali shunaqa donolik qilib vinobop uzumlar o'rniga jaydarilarini ko'paytirib yotibman deng. Ummatali bildiki, o'z tashabbusi bilan navi kamayib ketayotgan emishbop uzumlardan iborat tokzordan ham bosh

agronomning xabari bor va bundan u xursand emas. Demak, ortiqcha gapga o'rin yo'q. Cho'zmasdan:

– Shunday! – deb qo'ya qoldi. Bu beparvo javob bosh agronomning jonidan o'tib ketdi, yalt etib unga o'girildi:

– Hoy, menga qarang, agronom! – u Ummatalining ismini aytishni ham o'ziga ep ko'rmay qoldi. – Bir litr shampanskoye necha pul turadi, bilasizmi?

– Bilaman, juda yaxshi bilaman.

– Siz obod qilgan bog' uzumining kilosi-chi?

– Buni ham bilaman. Shampanskoyedan arzon.

– Shunday ekan, nega davlatga ziyon yetkazadigan ishga kuch berasiz?

Bosh agronomning balanddan kelishi Ummatalining nozik yeriga tekkan edi. Shunday bo'lsa ham o'zini bosdi:

– Qo'rqityapsizmi yoki tushuntiryapsizmi? Agar qo'rqitmoqchi bo'lsangiz, kechikdingiz, u vaqtlar o'tib ketgan. Tushuntirish niyatida aytayotgan bo'lsangiz, men tushunib shu ishlarni qilyapman.

– Nega? – yana siltadi bosh agronom. Ummatali kulgiga olmoqchi bo'ldi:

– Chunki hamma shampanskoye ichmaydi.

– Qiziqchilik qilmang!

– Qiziqchilik qilmasam, foyda deb kishilarni ajoyib nav uzumlardan mahrum qilishga haqimiz yo'q. Bu uzumlarining kishi organizmi uchun foydasi shampän vinosidan pul shaklida keladigan foydadan kam emas. Insondan aziz narsa yo'q – buni yaxshi bilasiz. Yana shuni eslatib qo'yayki, men vinobop uzumzor o'rniga emas, balki ikkisini teng ko'rganim holda, kishilar xayolidan ko'tarilayotgan ana shu navlarga kuch beryapman, yangi bog'lar tuz-yapman, yangi bog'chalar ochyapmiz. Bundan keyin ham shunday qilish fikridamiz.

– Yo'q, qilmaysiz. Bundan keyin bizdan beijozat bir tup ham o'shanaqa tok ekmaysiz.

– Nega bunchalik qattiqqo'llik?
– Chunki davlat bizdan vinobop uzum talab etadi, shu yuzasidan plan beradi. Davlat plani – muqaddas. Tushunarlikmi?

– Kishi sog'lig'i, maishati davlat ahamiyatiga ega emasmi? – qarshi savol qo'ydi Ummatali.

– Meni davlat bergan plan qiziqtiradi.

– Men uchun ikkalasi ham muqaddas.

– Menimcha, siz uchun ikkinchisi muhimroq ko'rinadi.

– Yanglishasiz! Aslini olganda ikkalasining negizida ham bitta manfaat yotadi.

– Endi shu tomonga o'tib oldingizmi?! – Nochor qolgan bosh agronom atayin chertdi. Bu jumlaning kecha dushman eding, endi bu tomon bo'lib oldingmi deb to'g'ri tushungan Ummatalining tirnog'igacha zirqirab ketdi.

– Hoy, menga qarang, bosh agronom, meni haqorat qilish uchun kim sizga ruxsat berdi? Siz shuni qulog'ingizga quyib olingki, men har vaqt shunday bo'lganman va shundayligimcha qolaman. Nimaki ish qilayotgan bo'lsam imonim butunligidan, ishonchim komilligidan. Qilning qiyig'icha ham hadiksiraydigan yerim yo'q! – Ummatali sal nafasini rostlab oldi, keyin yana qo'shib qo'ydi: – Ochig'ini aytganda, o'rtoq bosh agronom, bunaqa chirik gaplardan voz kechish payti allaqachon yetgan – o'zingizga ortiqcha yuk qilib olib yurmang. Bosh agronom ko'rdiki, Ummatali sal buksa egilib keladigan sambit emas, xuddi o'zi yaxshi ko'rgan serbutoq yong'oq: egilmaydi, charsillab sinadi. Faqat ko'rinishdangina mo'rtga o'xshaydi. Ummatalini o'z izmiga solib ololmagan bosh agronom shaharga qaytish oldidan Azimxo'jayevga til chaynadi:

– Agronomingiz juda o'zboshimcha. Pand berishi mumkin. Uning nimaga imo-ishora qilayotganini fahmlagan Azimxo'jayev miyig'ida kulib:

– Menga shunaqasi yoqadi! – deb qo'ya qoldi.

NOSHUD ARTIST BA KO'R BOLA

Qoplonbekning nazarida bu xonadonga yaqinlashuvning ikki yo'li bor: biri oila kaloni Saidakbar hoji bilan xushmuomala va biri uning o'g'li Abulbaraka bilan inoqlashish. Ikki kishini birdan quchoqlagan birini bag'ridan chiqarib yuboradi. Birdan boshlash kerak, to'g'risi, yakka-yakka ko'ngliga qo'l solib, zamin tayyorlash kerak. Hoji bilan muomalasi yomon emas. Igna tutsa, ip bo'lib teshigidan o'tib turibdi. Xonadan chiqsa bukilib, kirsam ta'zimini kanda qilmaydi. Hojatxonaga o'tsa ko'zi olazarak.

Qani endi tezroq chiqsa qolsa-yu, qo'liga suv quysa, yelkasidagi sochig'ini tutsa! Shunda Hojining ulug'vorlik bilan: «Barakallo, rahmat, inim! Suvdek serob bo'ling!» degani ham unga boshqacha eshitiladi. Hatto bir kuni uning Tamannoga: Ko'p boodob yigit ekan. Turkistonning asl yigitlari shunaqa sertakalluf, fidoiy jon bo'ladi, qizim! Sen ularni ko'rmagansan, bilmaysan, qadrlamaysan deganini o'z qulog'i bilan eshitdi. Shundan keyin, garchand Hoji uni do'konida sovuqroq qarshi olgan bo'lsa ham, hechqisi yo'q. Ish bilan band edi. Yoki boshqa sababi bor edi-yu, bu payqamadimi? Nima sababi ham bo'lishi mumkin. Ishlik odam! Uni qoyilmaqom qilib, avrab qo'yibdi. Endi Abulbarakaning yuragiga qo'l solib ko'rish kerak. Buning uchun tadbir kerak. Klark bekorga bu haqda alohida ta'kidlagani yo'q! Shunday qilishi kerakki, vaqti kelib, Tamannoga og'iz solganda ikkisi baravardan «Ayni muddao!» deb yuborsin. Keyin o'z xo'jayinlarining ham ko'ngli to'lishi shart! Lekin Abulbaraka qattiq narsa emaski uqalasa, yumshoq emaski ezsa, xuddi jo'n olmos qarshisidagi qalin oynaga o'xshaydi, uncha-munchaga kesilib bo'пти! Axir bekorga Parijda o'qib, oq-qorani tanib,

doktor bo'lib qaytmagan. Buning ustiga o'zi juda ziyrak, past-balandni biladi. Hatto otasi uning ba'zi ishlaridan xursand emas, deb eshitadi. Kasaba ishlarida faol. Beva-bechoraga moyil. Ularni himoya qilib, ba'zan gazetalarda ham maqolasi chiqib turarmish.

Kasalxonasida doim uch-to'rtta kambag'al bepul davolanishini o'zi aniq biladi. Bundan otasining norizoligini Qoplonbek bir necha marta eshitgan.

Hoji: «Bizning o'g'il fuqaroparvar!» deb kulgan edi. Qoplonbekning bu yerdagi o'z kishilari ham: «Qo'li ochiq yigit! Qani endi bizga moyil bo'lsa, ancha ish berardi. Afsus...» deyishadi. «Ey, azamat, deb qo'ydi ichida shularni o'ylab Qoplonbek, biz ham suv ko'rib, ishtonni pufak qilganlardan. Ne-ne ko'chalardan barimizga loy sach-ratmasdan o'tib kelyapmiz». Chindan ham Qoplonbek hazilakam kishi emas edi. U o'ziga tuzuk oilada dunyoga keldi. Dadasi mahallada birinchi bo'lib galstuk taqqan, uchi to'mtoq botinka kiyib, shimini ustiga tushirganlardan edi. Bir oz Qozonda ta'lim olib, o'sha yerdan soch qo'yib kelgan ekan! Ha, aytgandek uning no'g'oy do'ppi kiyib, oyog'ini chalishtirib tushgan chiroyli suratini Qoplonbekning onasi u qamalib ketgandan keyin ham ardoqlab-asrab yurardi. Bu mahalda Qoplonbek o'smir yigit edi. Albatta, otasining kasri unga tegmay qolmadi: bir yilcha o'qishdan chetlanib qoldi. Boshlab dadasining qamalishi, keyin o'zining u tufayli eshitgan gap-so'zlari yosh yigitning yuragini zaxa qildi. U johil o'gay ona qo'lidagi yetim boladek bo'ynini qisib yurdi. Nimadandir kamsitilib, kimdandir dakki eshitayotgandek ko'rindi. Esini tanib, mustaqil hayot yo'liga kirgan sari bu alam kekka aylandi. Bu kekini qanaqa qilib, kimdan olishni bilmasa ham bag'rida og'ir tosh, o'chmas dog' bo'lib yotdi. Urush boshlanganidan butun el-yurt larzaga kelib, g'azabdan qo'llar mushtga tugilgan, ko'zlarida bosqinchi

yovga nisbatan nafrat chaqnagan bo'lsa, Qoplonbek yengil nafas oldi. Fransiyadek mamlakatni ikki oyga yetqizmay ikki buklab tashlagan Gitlarning hademay bu yergacha yetib kelib qolishiga shak-shubha qilmadi. Lekin tilini mahkam tutib, sevinchini yashirib yurdi. Safarbar qilinib, onasi bilan xayrlashar ekan: «Yig'lama, ona, yaxshi kunlarda ko'rishamiz!» deb o'zining ko'nglidagi niyatini aks ettiradigan ma'noni bildirdi, mag'rur chiqib ketdi. Dushmanning vaqtgacha bo'lgan shiddatini ko'rib, g'olib kelishiga sira ham shak keltirmadi. «Otamning boshini yeganlar, meni quvg'in qilganlar uchun qon to'kib, esimni yeganim yo'q!» dedi-yu, asir tushib ketdi. Lagerda ham uzoq yotmadi. Turkiston legioniga birinchilar qatori yozildi. Hatto boshqalarga: «Yurlaring, bekorga pashshadek qirilib ketasanlar. Baribir hech kim bu sadoqatlaring uchun rahmat aytmaydi», deb dakki berdi. Uning tashabbuskorligi Turkiston legioni boshliqlariga ma'qul tushdi. Uni darrov safarbarchilar guruhiga qo'shib olishdi. U lagerma-lager yurib, yolg'on-yashiqdan og'iz ko'pirtirib, odam to'pladi. Bu yo'llar bilan legion ishi rivoj topavermagach, uni yana «asir» qilib lagerlarga tashladilar. Qoplonbek u yerda ichdan ish olib bordi. Lekin bir kuni og'zidan qoni kelishiga ham oz qoldi. U besh-o'ntasini atrofiga yig'ib, «qolip»ga solayotgan edi. Bittasi tars etib quloq-chakkasiga qo'yib qoldi. «Nimaga urasan?» degan edi, «Nega kishilarni harom yo'lga boshlaysan?» dedi. «Rosti shu-da!» deb balanddan kelgan edi: «Mana bu ham kaltaklashning rostakami!» dedi-yu, ag'angatib do'pposlab ketdi. Bir keksaroq asir: «Qo'yinglar, bu yer urishadigan joymi, tavba deb o'tiringlar», deya ajratib qo'ydi. Kaltaklagan asir «Tavbani biladimi bu vatanfuru-sh! O'z qo'limiz o'zimizga yetmaganday, xoinlikni tavsiya etadi-ya!» deganicha peshanasidan terini artdi. «Yana shu qiliqni qilsang, ko'rasan!» deb Qoplonbekka tahdid

etdi. Qoplonbek esa, kechagi hafta xo'jayinlar atayin kiygizib kiritgan eski qizil askar ko'ylagining yirtilgan yoqasini epaqaga keltirish bilan ovora. Peshanasi g'urra, og'zi qon...

U Turkiston legionida astoydil xizmat qildi. Ayniqsa, egionga adashib kelib qolgan, bu yerdagi ishlarning turgan-bitgani jiqqa yolg'on ekanini tushunib, partizanlarga qochmoqchi bo'lgan bitta hamshaharini ushlab berib, ko'zga ko'rindi. Qochoqni ibrat bo'lsin uchun saf oldiga qo'yib otib tashladilar, Qoplonbekni esa, bir bahya ko'tardilar, «Chig'atoy» degan tilda chiqadigan «Milliy Turkston» gazetasida N. Abdulla deganining unga bag'ishlangan ocherknamo bir narsasi ham bosilib chiqdi. Ocherkda dadasini NKBD qamoqqa olayotganda Qoplonbek pichoq bilan bittasiga tashlanganini alohida bo'rttirib ko'rsatiladi. Qoplonbekning tushiga ham kirmagan bu voqea o'ziga ma'qul bo'ldi. Keyinchalik o'zi ham gapirib yurdi...

Praga qo'zg'olonini qon qaqshatgan Turkiston polkida Qoplonbek ham bor edi. Ancha ko'tarilib qolgan Qoplonbek bu yerda shunaqa jonbozlik ko'rsatdiki, gitlerchi komandirning ko'zi o'ngida, «Sen qo'zg'olonchilarning qurolini uyingda asrab bergansan», deb oy-kuni yaqin homilador xotinni chavaqlab tashladi. Uning bu «qahramon»ligi beiz qolmadi. Uni SS guruhiga o'tkazdilar, unvon berdilar. Varshava qo'zg'olonini qonga belashda yana ish ko'rsatdi. Undan «krest» ordeni olib, rota komandiri bo'lib qaytdi. U quturib ketdi. Bir nemis qiziga uylanib ham oldi. Aslida «oliy irq» nemis qiziga uylanishga haqi yo'q. U buning yo'lini topdi. Qo'mondonlikka: «Otam turkistonlik, onam Volga bo'yilik nemis. Otam inqilobdan qochib, shu yerga kelib turgan. Shunda uylanishgan» – dedi. Buning tasdig'i uchun ikkita «guvoh» ham topdi. Ular «krest» ordenli burro, aytgani-aytgan, degani-degan bo'lib turgan komandirini kuyib-pishib himoya qildilar. Buni qa-

rangki, uning qonini tekshirishgan edi, «oliy irq»qa mansub chiqdi. Shunday qilib, u maishatni ham unutmadi. Besh-o'n kun, «Men Gitlerga kuyov bo'laman», degandek bosar-tusarini bilmay karillab yurdi. «Ozod» Turkistonga yirik arbob bo'lib borishiga imoni komil edi. Borganda nima ishlar qilishini, kimning boshida yong'oq chaqib, kimning burniga chertishni mo'ljallab qo'ydi. Ayniqsa uni «xalq dushmanining o'g'li» deb og'zidan oshini tortib olganlarni, uni kamsitib, umriga tahdid qilganlarning ona sutini og'zidan keltirib, o'zining kimligini ko'rsatadi! Bundan boshqa ham uning qiziq-qiziq rejaları bor. Hozir sanab o'tirish zarur emas. Axir Gitler hokim bo'lgan yerda uning oshig'i olchi bo'lmay iloji qancha. Hali u ancha ishlar ko'rsatib yana yuqorilaydi. Ehtimol, qo'sh-qo'sh ordenlar olar. Qoplonbekning ishtahasi katta edi. Lekin u qanchalik kuch bermasin, kechalari uyqusi qochib afsonavor rejalar tuzmasin, «Turkistonga arbob-xaloskor bo'lib kirib borish» ishtiyoqida yonmasin, u bino qo'ygan «G'olib nemis armiyasi» kundan-kun shalag'i chiqib, chekinmoqda edi. U avvaliga bunga ishonmadi. Gitlerning dabdabali nutqlariga jon-dili bilan ishonib, frontda ahvol bugun-erta o'nglanib ketishiga umid ko'zini tikdi. Lekin nima uchundir fyurerining bashorati ijobat topmasdi. Sababini bilmay garang edi. Karta olib fol ochardi. Foli ko'nglidagidek chiqsa xandon solib, o'ng kelmasa yerga urib, kufri tanib jig'ibiyroni chiqardi. Bo'g'ilib ketgan yoqasini yechib, xunob bo'lardi.

«Nahotki, o'sha men urush boshida ko'rgan, soya-sidan hurkib tumtaroq qochib yurgan qizil askarlar shunaqa kuchga to'lib, uddaburo bo'lib ketgan. Bu yerda kishi aqli yetmaydigan bir sir bor, juda qiziq sir bor! Bu tasodif. Vaqtinchalik. Uzoqqa cho'zilmaydi. Ne-ne beli baquvvat davlatlarni bir-ikki hamlada bukib tashlagan Gitlerdek odam kelib-kelib Moskva oldida tiz

cho'ksa! Bunday bo'lishi mumkin emas, mumkin emas!» Qoplonbek ko'ksidagi «krest»ni jiringlatib qanchalik kuyib-pishmasin, duo qilmasin, kuch bermasin uning niyatini chappasidan keltirmoqda edi.

«Hash-pash» deguncha g'olib qo'shin Prussiyaga kirdi. Zambaraklarning ovozi Qoplonbek turgan yerdan ham eshitilib qoldi. Tarvuzi qo'ltig'idan tushgan Qoplonbek bir kuni oyog'i yerga tegmay yelib kelib qoldi. Hovlida gulxan qilib, bor-yo'q qog'ozlarini kuydirdi, kulini sochib tashladi. Uyga kirib, shu kungacha mag'rur kiyib yurgan, yoqasiga «Ollo, Turkiston biz bilan» deb yozib qo'yilgan formasini olib bir chekkaga uloqtirdi. Allakimning yetti pushtini ag'darib so'kdi. Shu qora kunga ehtiyotdan olib qo'ygan jo'ngina kostyumini kiydi. Kichkina chamadon bilan ko'chaga otildi. Xotini bilan xayrlashmadi ham. Oyog'i ostida o'ralashib yurgan tetapoya qizchasini yiqitib o'tib ketdi. Big'illab yig'laganiga ham quloq solmadi. Lekin xotiniga «krest»ni tayinroq joyga ko'm» deyishni unutmadi. Uning tuxumi og'ziga kelib qolgan edi. U shu qochganicha Amerika qo'shinlari panohiga o'tib oldi. Besh-o'n kun qo'rasini yo'qotgan itdek daydib yurdi. Kim ko'ringanga ishshayib, chaqirsa «labbay!» deb, o'tirsa o'rni, yursa yo'li kuyib, bezovtalanib kun o'tkazdi. Uning umid kosasi chil-chil singan, unga «Go'zal Turkiston»ning suvi bir umrga harom bo'lgan edi. Qo'lga tushib, peshanasiga to'pponcha tiralmaganidan shukronalik qilib yurganida tim siyoh ufqida yalt etgan nur paydo bo'lib qoldi. Bu Cherchilning Fultonda so'zlagan nutqi edi. Bu sovuq munosabatlar urushining boshlanishi edi. «Bu dahanaki jang nechuk rostakamiga aylanmasin!» degan Qoplonbek, o'sha kundanoq haftada bir esiga kelmaydigan soqolini kunda qiradigan bo'ldi. Sochini silliq tarab, shimining dazmolini joyiga keltirdi. Kechagi ittifoqdoshiga bugun mushtini ko'rsatib unga

endi gumon bilan qarayotgan Amerika razvedkasiga yana «rossiyashunoslar» kerak edi. Gitler arxivlari materiallari ko'zdan kechirilib, tajribali kishilar oyoqqa turg'izildi. Bu-lar orasida alamzada Qoplonbeklar ham bor edi. Boshiga klysa, oyog'iga yetqizolmay yurgan bu afandilar birinchi imodayoq qo'llarini qovushtirib, ta'zim qildilar...

Qoplonbek darrov dumini likillatib, yangi xo'jayinining oldiga tushdi. U yangi xo'jayinning og'zidagi chuchmal rezina: istasa shimib sharbatini yutadi, istamasa tupurib tashlaydi. Bu xo'jayini avvalgisidek mahmadona emas. Unar-unmasga minbarga chiqib, og'zini ko'pirtiravermaydi. Lekin u xatti-harakatining zaminida Qoplonbekka xush yoqadigan, uning ayni muddaosi – «o'sha ezgu niyat» yotadi. Demak, u elburundan tavbasiga tayanib, qasos qilichini qiniga solmasa bo'ladi. Hatto avvalgisidan bu an-cha tadbirkor va badavlat. Davlatmandlik nimalarga qodir ekaniga uning fahmi yetadi. U aminki, Gitlerning umurtqa-sini sindirishda bu yangi xo'jayini asosiy rol o'ynadi. Modomiki shunday ekan, nega bu galgi to'qnashuvda ham g'olib chiqmasin. Ittifoq urushdan horib-tolib chiqdi, xazinasini sovurildi, qarzga botdi. Elning bel-quvvati yigit-lari – asosan qirilib ketdi. O'zini tiklab olishi o'ng'aymi!..

Yangi xo'jayiniga sadoqat bilan xizmat qilayot-gan Qoplonbek bir narsadan xafa! Nega bu tezroq to'qnasha qolmaydi! Ayni payti-ku! Gitlerchasiga tarsilla-tib olmaydimi: kuch-quvvati bo'lsa bor, davlati keragidan ortiq. Yana nima kerak?! Dahanaki jang qilib, chakagini og'ritib o'tiradimi!!

Qoplonbek mana shu xunobgarchilikda bir necha yil-ni o'tkazdi. «Dunyo tinchligining kafilini olgan Amerika» arab o'lkalariga mundoq nazar solsa, yelkasiga kun tu-shib, qimirlab qolibdi. Mustaqillik dardida bosh ko'taryapti. O'ziga ibrat qilib Ittifoqni olyapti. Shu xilda borishi bo'lsa, erta-indin o'z huquqini o'zi jilovlab, «Sotsializm quramiz,

shu to'g'ri yo'l shu!» deb turib olishi mumkin. Bu, albatta, Amerikaning manfaatlariga zid. Mayli, ular mustaqillik olsin, lekin Vashingtonning panohida, uning «ko'magi», «maslahatlari» bilan qaddini ko'tarsin. Buning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun bu yerlarda uning qulog'i, ko'zi bo'lsin. Bu ko'z va quloqlar hokimiyatni qo'lga olishga intilayotgan firqalar, qabilalar, oqimlarning ishini kuza-tib boradi, rahbarlari haqida ma'lumotlar yig'adi, kerak bo'lsa yo'lga soladi, siyosiy ig'vo chiqaradi, lozim bo'lgan paytda mablag' ajratib, davlat to'ntarishlarini tashdan turib boshqaradi.

Qoplonbek puxta ishlangan uzun zanjirning bir halqa-si sifatida yaqinda bu yoqqa tashlandi. Uning boshlig'i Klark oq yo'l tilar ekan: «Bek, sizni katta baxt kutyapti. Bo'sh kelmang! dedi. Nima ishlar qilishini, kimning rah-barligi ostida ishlashini ta'kidladi. U ilk topshiriqni ko'ngil-dagidek bajarib qaytdi. Shu orada o'zining Tamanno bilan bo'lgan uchrashuvini ham bildirdi. Shaharning boobro' kishisi bo'lgan Saidakbar hoji haqidagi surishti-rish Klarkni qanotlantirdi. Bu xonadonga o'z kishisi kirib borsa ayni muddao. Hoji ancha-muncha qulfga tushadi-gan kalit. Shuning uchun Qoplonbek Tamanno haqida gap ochganda yelkasiga qoqdi: «Mana bu qo'shaloq baxt! Qo'lingizni bemalol uzatavering, yetmasa biz bor!»

Mana uning maslahati bilan bugun bu xonadonga u kirib kelyapti. Kecha bu yerdagi hamkasabalari bilan yana bir kelishib oldi. Ular ko'proq tinchlikparvar o'g'lidan, ya'ni Abulbarakadan hadixsirashardi.

– Bu tishda chaqib bo'lmaydigan yong'oq, – desa biri, boshqasi:

– Tosh ham olmaydi, cho'yan bolg'a kerak, – dedi, uchinchisi:

– Uni chaqaman deb urinmang, befoyda. Yaxshisi iylash, yumshoq silab iylash. O'zi rahmdil. Ana shu torni

chertish kerak. Sher bo'lib o'kirib emas, mushuk bo'lib qo'yniga yumshoq kirish kerak, – deydi. Shu keyingisi Qoplonbekka ham ma'qul tushdi. Mana, u kecha shu niyatda olgan sezilar-sezilmas yo'l-yo'li bor qimmatbaho oq neylon ko'ylagini kiydi, tovlanadigan qora galstugini ixcham tugun qilib taqdi. Kosibning ko'vasidek shundoq ham yiltillab turgan uchi ingichka botinkasini derazaning yumshoq shtoriga naridan-beri artdi. O'zini oynaga solib, chakka sochlarini nazokat bilan orqasiga silab qayirdi. Mehmonxona navbatchisiga o'zining kechroq qaytishini aytib, restoranga o'tdi. Bir juft «Napoleon» konyagini antiq qog'ozga o'rab, to'g'ri Abulbaraka huzuriga kirib bordi.

Uning bu mahalda uyida bo'lishini bilardi. Sog'inib qolgan eski qadrdonlardek uning qo'lini olib, hol-ahvolini so'radi. Hurmat yuzasidan, to'g'risi, o'zining alohida munosabatda ekanini ta'kidlash uchun otasini uzoq surishtirdi. Yana ko'ngliga bir narsa kelmasin, deb, «Tamannoxon albatta sog'-salomat bo'lsalar kerak», deyish bilan chegaralandi.

– Mehmonxonada o'tirib zerikdim. Bundoq o'ylasam, sizning bo'sh vaqtingiz. Bir otamlashib kelmaymanmi, dedimu, mana bu antiqani qo'ltiqqa qisib kelaverdim. Parijda biron qadrdon bilan maydalasharman, deb oluvdim. Buni qarang, sizga nasib qilgan ekan-ku. Busoadada bir tanishim hirslik qilib yuribdi! Jilla bo'lmasa, po'kagidan hidlat, anchadan beri bunaqasini totiganim yo'q deydi. – Bu ishidan u mag'rur kuldi. – Baribir ko'nmadim, hidlasa ham ta'mi ketadi-da! Undan keyin o'zingiz bilasiz, suqi kirishi mumkin. Biz o'zbeklar irimchi, tabiati nozik xalq. Ba'zilar singari qo'l yuvmasdan dasturxonga o'tirmaymiz. To'g'rimi?

– Har xalqning o'z odati o'ziga a'lo, – dedi uning fikriga qo'shilmagan Abulbaraka, – undan keyin siz aytgan o'sha «ba'zilar» ovqatni qo'l bilan yemaydi.

Darrov qarshilikka uchraganidan shoshinqiragan Qoplonbek bo'sh kelmadi:

– Baribir kishining tabiati xira bo'lib turadi.

– Bu ham o'rganishdan. Busoadada nima qilib yurib-siz?

– Sahroyi Kabirni bir ko'rgim kelib qoldi. Talaballigimda muallimimiz juda qiziq qilib gapirib bergan edi.

– Xo'sh, qalay? – uning yolg'oniga ishondi Abulbaraka. Vaholanki, Qoplonbek u yoqqa boshliqlari tomonidan yuborilgan edi: o'sha tomonda fransuz atom bombasini sinash uchun maydon tayyorlanayotganidan xabar topishgan edi. Qoplonbek ikki kishi bo'lib «turist safari»ga chiqqan, ba'zi narsalarni iskab kelgan edi. Tajribali tulki Qoplonbek turqini o'zgartirmasdan safarini maqtab ketdi:

– Aytganlaricha bor: Ollo taollo shuncha ipak qumni bir yerga to'plab, nima qilmoqchi bo'lgan ekan? Quyosh tandirining og'zi shu tomonga qaratib qurilgan ekanmi, deng, qumi toshko'mirning qo'ridek bozillab turibdi. Fransuzlarga ham balli, shu olovning orasidan yo'l yotqizib chiqibdi, xuddi dumiga ip bog'lab, ufqqa otilgan yoy o'qiga o'xshaydi. Mehmonxonasiga kirsang muzday, dengiz havosi dimog'ingni yayratadi. Yonidagi hovuzini aytmaysizmi, bir sho'ng'iding, hordig'ing tubida qoladi. O'zini ham risoladagidek qilib ishlagan – allaqayoqdan erinmay suv tortib kelibdi. Qoyil!

– Fransuzga emas, pulga qoyil qoling! Ming ko'yga solib, ming maqomga yo'rg'alatadigan undan kelayotgan daromad. Dunyoda sizga o'xshagan ishqibozlar ozmi? Yasatib qo'yilgan tuyalarni ko'rdingizmi? Minib sahroga kirib-chiqishingizga emas, cho'ktirib, turgizishga ham haq oladi. Ekzotika uchun uning ustida suratga tushadiganlar undan ko'p. Bu tuyalarning qumalog'i – oltin, hoynahoy siz ham qatordan qolmagandirsiz? Abulbaraka kulib hamsuhbatiga qarab turar ekan, «meni chaqir-

dingizmi?» degandek oqsoch xotin ko'rinish berdi. U mehmonga ishora qildi. Dasturxon kirdi. Tabiati ochilib turgan Qoplonbek:

– Birato'lası ikkita ryumka ham bera qoling, – dedi. Oqsoch ryumka bilan unga kerak bo'ladigan zakuska ham olib keldi: yaproqlanib, betiga shakar sepilgan limon, qovurilgan xurmo mag'zi, mango sharbati.

– Ijzat berasiz-da, azizim, – degan Qoplonbek chaqqonlik bilan konyakni ochib, yana bir qoyil qolgandek qog'ozini hijjaladi. Qadahlarga quydi:

– Qani, do'stim, ermak-da. Birov buning ketidan quvib ichadi, deysizmi? Bir ko'nglim tortib qoldi. Qani, sog'liq bo'lsin, do'stligimiz yo'qolmasin. Umuman, Abulbaraka ichkilikni yomon ko'rmas edi. To Parijga o'qishga ketgunicha otasining ta'qibida bo'lib, ichsa ham o'g'rincha qilib yurdi. Parijga borgandan keyin oqimga tushib ketdi. Baribir otasi har xatida «bu nopok shayton suvidan» o'zini tiyishni ta'kidlab turdi. Lekin o'g'lining hamma ichib turgan ulkan bir shaharda tovuq ochgan o'rdak bolasi bo'lib yurishiga, albatta, aqli yetmas edi. Shunday bo'lsa ham o'z munosabatini bildirib turdi. To'g'ri, Abulbaraka «kordonruj» shampanini xush ko'rar, ora-sira «Sotern», «Bujolo», «Bardo» kabi yengil vinolarni ham totib turardi. «Og'iz kuyganda issiq choy ho'plagandek bo'ladi» deb konyakni ko'pda yoqtirmas edi. Shunday bo'lsa ham bu oilaga o'zini yaqin tutib yurgan kishining qo'lini qaytargisi kelmadi, ryumkaning nozik belidan qo'sh barmoqlab ushladi:

– Qani, oldik bo'lmasa. Mening uyimda sizning quyib berishingiz qiziq bo'ldi.

– Sizniki, meniki bormi, azizim, – xush yoqdi Qoplonbekka, – bu gal bizdan, narigi gal sizdan-da! Bu dunyoda bir-birovga qilgan odamgarchilik qoladi. Yaxshiyam Tamannoxon kurortga borgan ekan, bo'lmasa siz qayoq-

da-yu, men qayoqda edim. Qoplonbek mamnun simirib, limon zakuska qildi, Abulbaraka esa, mango sharbatidan ho'pladi.

– Tuzatib so'ramadim, Tamannoning sog'liqlari yaxshi bo'lib ketdimi? – yana gap boshladi Qoplonbek.

– Rahmat, yaxshi, yoshlikning jarohati tez bitadi. Tamannoning kasali sababi Qoplonbekning qulog'iga chalingan edi, lekin mukammalroq bilishga havasi bo'lsa ham, botinmadi, akasidan so'rashga uyaldi. Keyin bundoq o'ylab qarasa, bildi nima-yu, bilmadi nima! Bir fransuz yigiti bilan yurgani uchun Hoji bersa, mana bu qarshisida o'tirgan yigit rozi bo'lsa, Qoplonbek yo'q dermidi!

Gapning bug'doy xamiriday qovushib borayotganidan xursand Qoplonbek gapni boyagi mavzuga burdi. Yonidan surat chiqarib, hamrohiga uzatdi:

– Busoadada biz ham chetda qolganimiz yo'q. Hoy, men sizga aytsam, kishi ona yurtining hayvonini ham sog'inar ekan. Tuya ko'zinga olovdek issiq ko'rinsa bo'ladimi!

– Qishloqda turarmidingiz?

– Shaharda-ku, qozoqlar ko'mir, saksovul olib kelib turmaydimi. Shahardan chetga chiqsang, ko'zing tushadi.

– O'zbekistonning shaharlari juda oboddir.

– Unaqasi ham bor, bunaqasi ham bor.

Qoplonbekning ichidagi g'ayirlik qurtlari qanchalik g'imirlab, tuhmat yog'dirishga tayyor bo'lsa ham, begona suhbatdoshi qoshida o'zini xolis tutmoqchi bo'ldi.

– Urush damini ancha qaytarib qo'ydi, bo'lmasa...

Ha, aytgandek, siz urushdan keyin ko'rmagansiz...

– Yo'q. Nasib qilmadi.

– Bekor qilibsiz-da, qaytish kerak edi. Ko'p asirda bo'lganlar qaytishdi shekilli.

– Qolganlari ham ancha, – gapni chuvatmadi Qoplonbek.

– Gunohingiz kattaroqmi? – hazilga oldi Abulbaraka.

– Gunoh nima qiladi, azizim! Jon shirin ekan, ochlikdan lagerda o‘lib ketmay deb, besh-o‘n kun nemisga xizmat qilishga to‘g‘ri keldi. Qay xizmat!

Vaji tirikchilik.

– Unday bo‘lsa...

Qoplonbek uning so‘zini uzun oh tortish bilan bo‘ldi. Ona yurtni sog‘inib sarg‘ayib ketgan odamdek hazin salmoqladi:

– Yurak yo‘q qaytishga. Sibir degan borsa-kelmasi... Keling, shu dostonni boshlamaylik. Bu doston uzun doston, qonli doston. Men aytganim bilan siz ishonmaysiz.

– Nega? – ajablendi suhbatdoshi. Ko‘nglidan bunga ham sho‘rolarning oq tuxumi qora ko‘rinib, yo‘tali bomba bo‘lib eshitiladi, shekilli. Alamzadalardan ekan-da, degan fikr o‘tdi. Qoplonbek boshqa yerda oson deb boshlashi mumkin bo‘lgan dostonini bu yerda varaqlamadi, uning ichi yonib borardi. Buning bosish yo‘li bitta – konyak. U yana quyib, shishani avaylab zakuskalar orasiga qo‘yarkan, Abulbaraka joniga ora kirib boyagi suratni uzatib qoldi:

– Yaxshi tushibsiz.

– Bir xotira-da! – gapni burib ketdi u, – ming qilsa ham shaharda tug‘ilganmiz-da, kim tuya minibdi deysiz. Tuyadagi odamning o‘zi atayin tebranib yuradi deb o‘ylarkanman. Kechagi gal minganimda bildim: beixtiyor o‘zi tebratar ekan. Qadami kattaligidanmikin?

– Oyog‘i uzunning qadami yirik bo‘ladi-da, – hazilnamo dedi Abulbaraka, – olib qo‘ying, O‘zbekistonga qaytganingizda yig‘ib albom qilasiz. Bolalaringiz ko‘rib yuradi, xursand bo‘ladi.

– Koshkiydi...

Qoplonbekning o‘kinganini ko‘rgan Abulbaraka dalda berdi.

– Qaytish kerak, birodar, o'zga yurtning shohligidan o'z yurtini gadoligi yaxshi. Boburni o'qiganmisiz?

– Yo'q. U kim?

– Eh, attang. O'qiganingizda bu yoqlarda bir kun ham qolmas edingiz, – u izohlab o'tirmadi, – shoh bo'lib yurtini sog'ingan-a!

Sal xijolat tortgan Qoplonbek qarshi savol tashladi:

– Nega sizlar qaytmaysizlar axir, sizlar ham...

– Men aqlimni shu yerda taniganman. Hech narsa tuzukkina esimda qolmagan. Lekin sog'inaman. Nimani sog'inishimni bilmaymanu, sog'inaman. Dadam bo'lsa qaytolmaydi, qochoq. Sho'rodan mulkini olib qochgan. Iqi sevmaydi.

– Payt poylayaptilar deng! – hazilga olgandek bo'ldi Qoplonbek, aslida Abulbarakaning fikrini bilmoqchi edi. Suhbatdoshi kuttirib o'tirmadi:

– Kutganlarining foydasi yo'q. U kishining niyati ro'yobga chiqmaydi.

– Shundaymikin? – o'smoqchiladi Qoplonbek. Lekin ichidagi bir kuch: «Bekor aytibsan. Men ham o'sha kunni kutib yurganlardanman. Shu yo'lda xizmat qilyapman. Biz niyatimizga yetamiz, yetishimiz shart. Buning zamini bor», deb baqirishni istardi.

– Men bunga aminman. Moskva oyoqqa qattiq turib olgan. Ketsa, o'sha urushda ketardi. Qoplonbek hamon yuragini ochib tashlolmay alamda edi. Yotig'i bilan.

– Ittifoqdoshlari bo'lmaganda kim biladi... – deb qo'ydi sekin.

– Menimcha, shu xato fikr. Ittifoqdoshlari qachon jangta kirdi? Gitlarning peshanasi g'urra bo'lganda. Hech tog'dan tosh dumalatganmisiz?

– Yo'q.

– Dumalatganingizda bilardingiz. Ittifoqdoshlar urush ochganda Moskva katta xarsang tosh bo'lib Gitlarning

boshiga ag'darilib kelayotgan, yo'l-yo'lakay unga bosh-qalari qo'shilib qaytarib bo'lmas sur'at va kuch paydo qilgan payt edi. Nima uchundir ba'zilar shuni endi tan olmayapti. Yaxshi emas. Dushman bo'lganingda ham haqiqatdan ko'z yummaslik kerak. Bu insoniy burch. Keyingi gaplar Qoplonbekka qaratilgandek, u qizarib ketdi. Buni payqagan Abulbaraka uni bu xijolatdan chiqardi:

– Buni sizga tegizib aytayotganim yo'q. Siz kim? Siz oddiy bir, kechirasiz, vatangado. Vatanningizni sog'in-ganingizdan, qaytishga o'sha tuzumdan qo'rqqaningizdan ham xolis bo'lmasligingiz mumkin. Men siyosat darg'alarini ko'zda tutyapman. Kechagi gapini bugun yolg'onga chiqarib, tonayotganlarni aytyapman. Qoplonbek bildi-ki, Abulbaraka puxta to'qilgan mato. Uncha-munchaga yirtilmaydi. Maslakdoshlarining aytganidan ham pishiqlichida: «Ajabo, bu odamlar siyosatni, ayniqsa, Ittifoqni qayoqdan bunaqa puxta biladi. Xuddi Kremldan hozir kelganga o'xshaydi-ya! Yoki bularning Moskva bilan bog'langan yashirin tashkiloti bormi? Klark: «Sinchiklab qarang, ostida bir narsa bo'lishi kerak», degan edi, bir narsani bilgan ekan, xumpar. To'g'ri, u yolg'iz bizning kanal bilan ishlaydimi! Biz bilmagan qancha yo'llari bor. Demak, ehtiyot shart: ikki qulog'u bir burun kifoya emas, butun vujud bilan kuzatish kerak. Buning yuragiga ancha qo'l solib oldim. Bu oilaga kirsam yana yaxshi. Mana shu nozik joyidan ushlab. Hoji ko'ziga yomon ko'rsatishim, yomon ko'rsatishgina emas, bir amallab oradan ko'tarib tashlashim mumkin. Ana unda bu xonadonning yolg'iz erkatoyi o'zim bo'lib qolaman. Xo'jayinlarim oldida ham yuzim yorug'!» – deb o'ylardi.

O'z mushohadasidan quvonib ketgan Qoplonbek qadahini olib, urishtirishga uzatdi, o'zini xolis qilib ko'rsatdi:

– Keling, azizim, hammaning gunohi o'z bo'yniga, echkini ham, qo'yni ham o'z oyog'idan osadi. Bizga nima?

– Yo'q-yo'q! – qarshilik bildirdi Abulbaraka, – siyosat xalq uchun. Xalq o'z munosabatini bildirishi shart. Siyosatni besh-o'nta odam olib borgani bilan kaltak yurt-ening boshida sinadi, uning beli qayishadi. Xalqqa rostni aytib turmoq kerak. Xalq hukumat uchun emas, hukumat xalq uchun. Kechagi haftadagi «Almujohid» gazetasiga ko'zingiz tushdimi? Attang! U yerda Zeytuniyning yaxshi maqolasi bor.

– Zeytuniy kim?

– Shu gazetaning noshiri va muharriri. Hushyor yigit. Undan oldinroq bu haqda klubda bepul leksiya ham qilib bergan edi. Yana yangi dalillar bilan to'ldiribdi.

– Mustaqillik da'vo qiladimi?

– Nega da'vo qiladi? Da'vo emas, talab etadi, – shartta kesdi Abulbaraka. – Aksincha, Fransiya «mustaqilsiz, yana nima kerak» deb da'vo qilyapti. Qiziq, bo'yniga zanglagan zanjir solib qo'yib, marjon demoqchi bo'ldi. Kishilarning ko'zi ochilib qolgan: qatiq bilan qaymoqning farqiga boradi. Qani, oldik, gapga tushib ketib, sizni mahtal qilib qo'ydim. Shunaqa gaplar, birodar, uxlagandan boshqa paytda ko'z ochiq turishi kerak. «Bularning ishi kattaga o'xshaydi. Klarkning tipirchilaganicha bor. Mustaqillik bo'lib, davlat boshiga shu siyosatdagilar chiqib qolsa bormi... Yo'q. Chiqmasligi kerak. Biz ham ko'zimizni kattaroq ochishimiz kerak», degan Qoplonbek qo'lidagi konyakni bitta otdi. Undan keyin yana ichishdi.

Qoplonbekning ichiga tushgan har qadah konyak so'z bo'lib qaynasa ham, u o'zini tizginlab turardi. Axir uning ko'nglida gadoy topmas hazilakam hujralari bormi! Abulbaraka bilib qolsa bormi, bu xonadonning eshigi u uchun orqasidan shunaqa tambalanadiki, itarib tugul, tepib ocholmaydi. Mabodo, tepib ochgudek bo'lsa, u yog'i

yana ma'lum. Demak, qarshisidagi odam bilan juda ehtiyot muomalada bo'lishi lozim. Uning ilk vazifasi siyosat talashish emas, uning ko'ngliga yaqin kishi bo'lib kirish, ya'ni ko'ngliga so'qmoq ochish. Shu so'qmoqdan ichkari kirib borib, o'rnashib olishi lozim. Abulbarakaga konyak ta'sir qildimi, esnab, ko'ziga yosh chiqdi. Qoplonbek darrov mehribonlik qildi:

– Charchabsiz, azizim.

– Kechirasiz. Charchaganim rost. Menda uzoq yotgan bir bola bor. Birovning arzandasi, besh boladan tirik qolgani. Siz bilmaysiz, bu yurtda bola ko'p nobud bo'ladi. Shu deng, bola bechora, ayagan ko'zga cho'p tushar degandek, ko'r bo'lib qolgan. Ancha harakat qildik, to'g'risini aytish kerak, uddalolmadik. Dadasining yig'lashini ko'rsang, yuraging eziladi. Davosi bizning qo'lda-yu, harakat qilmayotganimizdek, sho'rlik: «Sadag'ang ketay, bir ilojini qil. O'la-o'lguncha duo qilaman. Men emas, bola-chaqam bilan cho'ring bo'lay!» deb yig'laydi. Bola esini tanib qolgan.

– Endi nima qilmoqchisiz? – qiziqib qoldi Qoplonbek.

– Ittifoqida yaxshi mutaxassislar bor deb eshitaman.

«Bunda ham ko'ziga Ittifoq yaxshi ko'rinibdi-ya», deb ensasi qotgan Qoplonbek, botinmay:

– Parijga yuborib ko'rmadingizmi? – dedi.

– Yo'q. O'sha yerlik bir doktor o'rtog'im bilan gaplashsam, bu yoqqa yuborishning foydasi yo'q deydi. Ana shu ish yuzasidan bir odam kelmoqchi edi, maslahatlashsam devdim, kechadan beri daragi yo'q. Kechasi bilan xayolim telefonda bo'lib, tinch uxlolmadim. Kasalxonada ham ko'zim to'rt bo'ldi. Nechta bolangiz bor, Qoplonbek? Qoplonbek ayni shuni kutib turgan edi, jon kirdi:

– Oh, azizim, bu narsada siz so'ramang, men jarahatimni ochmay, yuragim to'la zardob. O'zim o'lgudek bolani yaxshi ko'raman.

– Bolani yomon ko'radigan odam ham bo'ladimi o'zi! – shak keltirmadi Abulbaraka. Uning nazarida bola shunday bir chiroyli va shirin qo'g'irchoqki, uni yaxshi ko'rmaslik, u bilan quvonmaslik mumkin emas. Shuning uchun bo'lsa kerak, kasalxonasida kattadan ko'ra bola doim ko'p bo'ladi.

– Bilmadim. Lekin bolaning gadosiman. Qani endi, tinchgina oilang bo'lsa-yu, bolalaringning peshanasini silab yashasang. Bola yig'isini eshitsam, ko'zimga yosh chiqadi. Bolani urganlarni ko'rsam bo'g'ib tashlagim keladi.

– Unda nemisda qanday xizmat qildingiz? Bolalarning vabosi edi-ku.

– Biz front tushibmizmi! Qaytangga bizni boqaman, kiyintiraman deb nemis yutqazdi.

– Milliy legionlardan foydalanyapti, deb bir shov-shuv bo'lgan edi-ku.

– Ehtimol boshqalardir. Bizni Turkistonga kirishda solaman, deb pand yedi shekilli. Lekin Qoplonbekning: «Bizning harakatlardan ham xabari bor shekilli bu olg'irning», degandek yuragi orqasiga tortib ketdi. Uning ko'ziga boqdi. Yo'q, uning ko'zi hech narsani o'smoqchilab kuzatayotganga o'xshamaydi. Xotirjam bo'lgan Qoplonbek yana o'sha o'z nishonini mo'ljallab o'q ota boshladi:

– Bu la'nati urush bizni vatandan emas, bola-chaqadan ham mahrum qildi. Urush boshlanibdiki, jibljibondek lik-lik qilib, u yoqdan-bu yoqqa sakraganimiz sakragan. Bizda tuzuk qo'nim yo'q. Qo'nim bo'lganda ham kimga uylanasan!

– U yoqda uylangan bo'lsangiz kerak?

– Oliy irq nemis bizga qiz beradimi! Bir tomonimiz asir...

– Yo'q, yo'q. O'zbekistonda demoqchiman.

– Ha, u yoqdami? Yo'q. Studentlik, yetimlik bo'lib...

– Onam bor devdingiz shekilli.
– Ha, onam bor. Otadan tirik yetim edim.
– Tushunmadim.
– O'lik-tirigi noma'lum.
– Tashlab ketganmi?
– Yo'q. Bizni tashlattirishgan.
– Tushunmadim, – yana yelkasini qisdi bu jimjima javobdan Abulbaraka.

– Qamashgan! – dedi xo'rligi kelib turgan odamdek boshini quyi solib. Uning mo'ljalicha, charchab, esnab turgan odamning ko'ngli bo'sh bo'ladi. Uning bu harakati Abulbarakada mehru shafqat uyg'otishi, tili bilan: «Eh, at-tang, sizga jabr bo'lgan ekan-ku», deb qo'lga dastro'mol olmasa ham, jilla bo'lmaganda, o'kinib qarashi kerak, rahmi kelib, ko'ngli yumshashi lozim. Lekin bu narsa unda ortiqcha sezilmadi.

– Nima gunoh qilgan edi?

– Bilmasak. Har kim har narsa dedi. Lekin o'zi qo'lidagi go'shtini hidlagan mushukka «pisht!» deydigan odam emas edi.

– Nahotki, sababini bilmadingiz. Butun boshliq bir odam dom-daraksiz ketadi-yu... Qiziq.

– Buni sizga tushuntirish qiyin, juda qiyin!

O'sha o'ttiz yettinchi yilni ko'rmagan odam bunga ishonmaydi, xudo haqi, ishonmaydi.

Abulbaraka chindan ham ishonmadi. «Judayam unday emasdir. Sho'ro, har daraxtning yaprog'ini quritsa, tamaki bo'ladi, deb o'ylaydigan anoyilardan emas. Sening shaxsiy alaming qo'rg'on tepa qilib ko'rsatyapti. Sababi bo'lishi kerak, bo'lmasligi mumkin emas», deb o'yladi. Xomush tortdi. Buni hamrohi: «Ha, rahming kelmas ekan! Tosh ko'nglingni eritdimmi? Sen mehr qo'ygan sho'roning shunaqa bitmas yaralari bor. Yaxshi bilmay-sanki, uzoqdan jon fido qilib yuribsan. Ichida besh kun

murosa qilolmaysan, tentak!» degan xayol bilan go'yo alamdanda o'tirgani joy topolmay qolgan odamdek zud bir harakat bilan qadahiga konyak to'ldirdi. Sherigini taklif ham etmasdan bitta tashladi. Ko'ngil kosasi xo'rligidan limmo-lim to'lib turgan, ortiqcha bir og'iz so'z toshirib, ko'z yoshini tiyib ololmaydigan kishidek irg'ib o'rnidan turdi. Hamrohiga o'lik qo'ynikidek ko'zi bilan ma'yus boqib, xomush bosh irg'ab chiqib ketdi. Qarshisidan kelayotgan kishini ham ko'rib, ko'rmaslikka solib o'tib ketdi.

U o'z rolini qoyil qilolmayotgan noshud artistga o'xshardi. Uning qarshisidan kelayotgan boya Abulbaraka tilga olgan Zeytuniy edi. Uni ko'rib, yashnab ketgan Abulbarakaning ko'nglidan Qoplonbek «puf» etib o'chirilgan shamdek bir burqsab, so'ng so'ndi.

– Bu kim? – dedi Zeytuniy do'sti bilan qo'l siqishib ko'rishar ekan, Qoplonbek ketgan tomonga ishora qilib.

– O'sha senga aytganim vatanfurush. Men bilan otamlashgani kelibdi. Jinday tuzlab yubordim.

– Bo'lajak kuyovni-ya! Yaxshimas! – tegishdi Zeytuniy.

– Be! Tamannoning bir tola sochiga arzimaydi.

– Hozir ham bekorga kelmagandir.

– Albatta. Bunaqa odamlar kuzda hosil beradigan daraxtga bahordan salom qiladi, – Abulbaraka do'stini o'tirishga taklif etdi. U Qoplonbek o'tirgan stulni surayotgan edi:

– Buni qo'y, mana bunga o'tir! – deb hazar qilgandek boshqa stul tutdi.

– Stulidan hazar qilasan, o'zi bilan ichishasan – bu qanday bo'ldi?

– Yuz amri shirin! Undan keyin jinday yuragini ham titishim kerak edi.

– Xo'sh, qanday?

– Bijg'ib ketgan. Ming joyidan bekitadi, bari-bir hidi chiqib turibdi.

– Demak, ehtiyot bo'lish kerak.

– Xotirjam bo'lishing mumkin. Xo'sh, o'zingning ish-laring qalay? Qanday borib qaytding?

– Rahmat, yaxshi! – Zeytuniy Parijdan qaytgan edi, – do'stlar salom aytdi. Rene seni yaxshi ko'rib qolibdi. Sendan xursand, «Tushungan yigit, Tamannodan mah-rum etilgan bo'lsam ham u bilan tanishganimdan mam-nunman», deydi.

– Kayfiyati qalay?

– Yaxshi. Bir oz alamzada. Muhabbatimni ham shu mening iqim sevmagan tuzum bevaqt xazon qildi. Mu-habbatim haqi bu zo'ravon tuzumni asti kechirmayman va kechirolmayman. Unda endi shaxsiy qasosim ham bor, deydi.

– Ziyrak yigit, – ta'kidladi Abulbaraka.

– Yonib yotibdi. Fikri birdan ochilgan donishmandga o'xshaydi. Men borgan kuni studentlar klubida «Muhab-bat va oila» degan mavzuda bepul leksiya bor ekan. Burjua tuzumining toza po'stagini qoqdi. Savol ham do'lday yog'ildi.

– Xo'sh, qalay, shoshib qolmadimi? – birdan entikdi Abulbaraka. Uning nazarida Reneni burjua mahmadon-alarini chalish payiga tushgandek tuyulgan edi.

– Yo'q, bo'sh kelmadi. Fikri to'q. Uzoqqa ketadi.

– Tamannoni so'ramadimi?

– So'radi, – dedi Zeytuniy kalta qilib, lekin qarashida: «Gap ko'p, do'stim!» degan ma'no anglashilib turardi.

– Ochig'ini aytsam, senga Zeytuniy, ikkalasiga ham jabr bo'ldi. Dadam xato qilyapti. U gaz bilan o'lchaydi, vaholanki hozir hamma yerda metr. Rene ham menga yoqdi. Undan keyin bizning izdagi odam ekan. Ikkalasini qo'shib, qochirib yuborar edim-ku, qariganda dadamning uvoliga qolmay deyman.

– Hayot shunaqa murakkabki, do'stim Abul, ba'zan yon bosish zarur bo'ladi. Mana mexanika zavodini ol. Ish tashlashdi. Talab qo'ydik. Xo'jayin bir-ikki kun miq etmadi. Qarasak, yangi odam olib, bular ishsiz chirqilab qoladigan. Yana ishga tushib ketishdi. Ko'rdingmi? Nima ko'p, ishsiz. «Falonchini o'rniku, men kirsam, u beish qoladi-ku, deb o'ylamaydi. Vaholanki, shunday deyishsa kerak, deyish emas, o'sha ish tashlaganning safiga o'tishi lozim. Buning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun kishilarning ongini o'stirish kerak.

– Bu esa anchagina vaqt talab etadi! – uni to'ldirdi Abulbaraka.

– Vaqt-ku topamiz, o'rtoqlarning harakati yaxshi, lekin anavi ola ko'zlar imkon bermayapti. Sal irodasi bo'sh kishini qoqib ketyapti.

– Gazetani ko'proq chiqadigan qilish kerak.

– Imkon qani! Ayni muddao edi-ku! O'tgan yil jarimaga yo'liqmaganimda bu yilga mo'ljalim boshqacha edi. Hozir ham politsiyaning to'rt ko'zi mening gazetamda. Keyingi sonni ko'rdingmi? O'sha sondagi faktlarni qanaqa qilib tahlil qilsa bo'ladi, ehtiyot shart, pardalashga majburmiz, shunda ham senzura ikki soat tutib qoldi.

– Yildan-yil senga qiyin bo'lyapti, do'stim.

– Rahmi keldi Abulbarakaning va Zeytuniyning yolg'iz gazeta sohasidagi ishini emas, umuman, yurtini fransuz mustamlakachilar changalidan tezroq ajratib olish uchun kurashdagi faoliyatini esladi. Tinib-tinchimaydi. Goh ko'rsang, ishchilar orasida, goh ko'rsang, bir-ikki o'rtoqni olib dehqonlar orasiga chiqib ketadi. Suhbatlashadi, leksiya o'qiydi, gazeta tarqatadi. Asli kasbi advokatlik. Zeytuniyning yaxshilab tekislangan, hozir derazadan tushgan nurda yomg'ir yuvgan archadek moyi yiltillab turgan sochining qoshiga tushgan bir tutamini qo'li bilan qulog'i orqasiga sidirib, do'stining gapidan dumaloq qora mag'iz yuziga kulgi yoyildi.

– Bitta menga og'irimi, do'stim! Bu tabiiy axir! Fransuzning bu to'kin yurtdan chiqib ketishi, jon berishining o'zi bo'ladimi! Tirnoqni et bilan sug'urganday gap. Bir kuni bo'lsa ham umrini cho'zgisi keladi.

– Baribir chiqib ketadi.

– Majbur! Biz shuni bir kun, bir soat bo'lsa ham tezlatishga o'z hissamizni qo'shmog'imiz kerak. Har bir arab vatanparvarining shu kungi oliy vazifasi bu. Shu yo'lga bag'ishlanmagan kunimiz uvol. Abulbaraka komil ishonch bilan gapirayotgan zahmatkash, polisiyaning ne-ne do'qlariga bardosh berolgan qadrdon do'stining yoniq ko'ziga, iroda va ishonch baxsh etib turgan vujudiga faxrlanib tikilib qoldi. Chindan ham u o'zi aytgan odam: yurtining, xalqining taqdirini o'ylab kechqurun yostiqaqa bosh qo'ysa, yana shuni o'ylab ertalab undan boshini ko'taradi. U, uning do'stlari tufayli mamlakatda milliy harakat kuchayib, erkinlik nurlari fuqarolarning yelkasini qizdiryapti. Ishchi xo'jayinining ko'ziga tikilib qarab, dehqon zamindordan huquqini talab etyapti.

– Endi Parijdan eshit! Asosiy ish yuzasidan o'rtoqlar bilan to'planishda batafsil gaplashamiz. Qisqasi shuki, parijlik o'rtoqlar bizning rejamizni ma'qullashdi. Endi sening iltimosingga kelsak, Ittifoq elchixonasida bo'ldim. Gaplashdim. Hozircha hech narsa deyishgani yo'q. Javobini berishadi. Ungacha bolaning nomidanmi, otasining iltimosnomasini yuborish kerak ekan.

– Yaxshi, men doktorlar fikrini yozib berishim mumkin.

– Bu ham ma'qul. Hozir bola qayerda?

– Menda.

– Kel, bugungi ishni ertaga qo'ymaylik. Ovqatni o'sha yerda qilarmiz. Mening qornim juda ham ochmas. Yo seniki piyoz po'stimi?

Oqsochdan ovqatni haligina surishtirgan va kirib qolishini kutib turgan Abulbaraka sal ikkilanib turgach:

– Mayli, yur! – dedi. Uning qornini mango sharbati ho'plab ichilgan boyagi konyak mushuk bo'lib tirnayotgan edi. Hovliga chiqishlari bilan Abulbarakaning ko'zi olma soyasida hassasiga engagini qo'yib, xayolga tolib o'tirgan Qurbonaliga tushdi. Do'stiga «hozir» deb uni darvozaga yo'lladi-da, o'zi chol tomonga yurdi. Qurbonali so'nggi kunlarda tez-tez kasal bo'lib turar, ayniqsa shu uch-to'rt kundan beri mazasi yo'q edi. Abulbarakani ko'rishi bilan o'rnidan qo'zg'algan edi, u:

– O'tiravering, ota! Qalay, yaxshimisiz? – deb qimir-latmadi.

– Shukur. Kechagi doringiz kor qildimi, bugun durustman.

– Doridan bormi?

– Bor.

– Tamom bo'lsa yana keltirib beraman. Bemalol iste'mol qilavering. Shu dori sizga yoqishi kerak.

– Rahmat, bolam, rahmat! Bu yaxshiliging mendan qaytmasa, xudodan qaytsin!

– Ana, xolos! – dedi Abulbaraka otaning ko'zidagi yoshni ko'rib, – hali otdek bo'lib ketasiz.

Abulbaraka otaning tomirini ko'rdi. Tilini chiqartirib qaradi.

– Ishtaha qalay?

– Bir navi.

– Bo'lmasa bugun ishtaha dori keltiraman. Lekin unaqa xafa bo'lmang. Yaxshi bo'lib ketasiz. Ota yoshli ko'zini engiga artib, Abulbarakaga ma'yus boqdi:

– Endi, Abulbaraka o'g'lim, xudoning sanab bergan kuni, o'lchab bergan rizqi tugaguncha, bu xonadondan noni nasibamni totib turaman. Ajal haq, qochib qutulib bo'lmaydi. Vatanni ko'rish nasib qilmadi. Manglayim sho'r ekan. Mabodo, imkon bo'lib qolsa, mayli, bir yildan keyinmi, o'n yil o'tadimi, xokimni yurtimga jo'nating. Begona tuproqda chirqillab yolg'iz yotmasin!

Qurbonalining xira ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. Artib tugatolmas edi. Oppoq soqoli qaltirab, qo'llari titrardi. Bir-ikki dimog'ini bo'g'iq tortdi. Abulbarakaning dalda berishiga quloq solmay, hassasini do'qillatganicha qo'raning bir chetidagi kulbachaga yo'l oldi. Saldan keyin yo'rg'a bo'lib qolgan kulba eshigining «g'iyq» etib ochilgani eshitildi.

«Bechora chol, o'lishdan emas, xoki begona yurtda qolib ketishidan qo'rqadi!» deb orqasidan o'ksib turgan Abulbaraka, uning hayotini esladi. Esladi-yu, «Nima ko'rdi, bechora, dunyoga kelib?» dedi. Abulbaraka esini tanibdiki, uning tashvishli ko'zini ko'radi. Yurtimda bola-chaqam bor, deb bu yerda shuncha qilishsa ham uylanmadi. «Yurtimni eslatib turadi, deb qo'raning hovlisiga allaqayoqdan topib kelib zog'ora o'rik, jaylaki olma ekdi, tok o'tqazdi. Vatanimdan birga kelgan, bu jonvor!» deb «Qoplon» itini yonidan qo'ymadi. Ana u ham akasidek qarib, yunglari to'kilib, devor tagida yotibdi. Hatto o'zini talagan pashshalar bilan ham ishi yo'q. Abulbaraka otasining hayotini o'ylab, yuragi achiganicha mashinada kutib o'tirgan do'stining yoniga xomush chiqib bordi.

– Hayallab qolding? Tinchlikmi? Xomushsan?

– Chol bechora vasiyat qildi, – dedi Abulbaraka qisqagina.

– Kasali og'irmi?

– Kasalidan ham armoni og'ir. Uni kasal emas, armon, yurtini sog'inish ko'proq qiynayapti. Ayniqsa keyingi vaqtda o'tirsa ham «vatanim» deydi. tursa ham

– To'g'ri, vatangadolikdan og'ir dard yo'q, do'stim. Bir dono aytgan ekan: menga o'nta jannatdan bola-chaqam bilan yurtimda o'tgan bir kun a'lo Vatan! Vatansiz o'tgan umr umrmi, bir tirkchilik, xolos. Hatto tilsiz, ongsiz hayvon o'zi o'sgan cho'lu o'rmonini sog'inib o'ki tortadi, faryod soladi. chiyillaydi. Axir bu odam-ku. Tau

atning eng oliy mo'jizasi! – Zeytuniy katta yo'lga chiqishi bilan mashinaning yurishini tezlatdi. Bir-ikki qisqa-qisqa signal ham berdi. Keyin yana yonida o'tirgan do'stiga sal o'girildi, – Vatan mehri juda qiziq, tuyg'u. Mana men. Parijga borsam darrov zerikaman, qaytgim kelib qoladi. Bo'lmasa o'zing bilasan, ikkalamiz ham o'sha yerda o'qiganmiz. U yerda ajoyib o'rtoqlarimiz bor. Birov: «Sen kim?» deb yo'limni to'smaydi. Yo'q, baribir, bu yerni sog'inib qolaman. Samolyotdan tushishim bilan ko'zimga olovdek issiq ko'rinadi. Bo'lmasa Parij qanday chiroyli! Yo'q, vatan o'zi ajoyib joy, uning mehriyosi bor. Yosh ulg'aygan sari yanada qattiq tortarkan. Men avvallari uncha bilmasdim.

– Avval sen uning oddiy o'g'li eding, endi uning xaloskorisan, uning sha'ni-shukuhi uchun kurashayotgan zahmatkashisan.

– Bo'ldi! Bo'ldi! Oshirib yubording! – Zeytuniy hamrohini gapirtirgani qo'ymadi. Uning arablardagina bo'ladigan o't chaqnab turgan dumaloq, qorasi katta ko'zi mag'rur porlardi.

Abulbaraka so'zini yakunladi:

– Mehnat to'kilgan ona yerning mehri alohida bo'ladi, do'stim. Uning narxi va o'lchaydigan o'lchovi yo'q. Ishonki, bo'lmaydi ham!

– Unda qadri tushib ketadi.

– Albatta. Nimaniki pulga sotib olib, tarozida tortib, metrda o'lchanar ekan, bilki u arzon narsa!

– Menimcha, begona yurtda, bola-chaqangdan uzoqda, tug'ilib o'sgan vatanningni sog'inib o'lish juda og'ir bo'lsa kerak.

– Qiyin ham gapmi!!

Ikkala o'rtoq jim qoldi. Ularning uchqur xayolini vatangado Qurbonali olib qochgan edi.

Ular kasalxonaga yaqinlashar ekan, Abulbaraka birdan oldinga engashib, maydonchada ko'r o'g'li bilan o'tirgan kishini ko'rdi.

– Ana ota-bola o'tirishibdi. Ishimiz o'ngidan keldi. Bechora, bo'sh qoldi, topganini tishida tishlab o'g'lining oldiga yuguradi.

– Butun umidi shu o'g'li bo'lgandan keyin qayoqqa boradi ham! Ismi nima?

– Zilol.

Mashina to'xtashi bilan Abulbarakani ko'rib, o'rnidan irg'ib turgan Zilol uning yonida begona odamni ko'rib, sal tisarildi, uyalgan bo'ldi. Keyin u odamni tanib qoldi shekilli yuziga birdan quvonch nuri sochilib, qadamini tezlatdi, ularga peshvoz chiqdi, egilib salom berdi. U egilar ekan, qulog'ining orqasida turgan kir oq sallasining peshi chakkasidan osilib, engagigacha tushdi. Quyoshda qotib ketgandek ingichka, pishiq va uzun bo'ynining tomiri bo'rtdi.

– Men hamrohingiz kim ekan debman. O'zimizning Zeytuniy ekan-ku, – dedi u yuzi qoraligidan yanada oppoq bo'lib ko'rinayotgan tishlarini yiltillatib. Uning yirik va baquvvat tishlaridan soqoli moshguruch bo'lsa ham hali o'zi baquvvatligi, harakatchanligi ko'rinib turardi. Abulbaraka uning kaftlari tosh bitib ketgan qo'lini oldi.

– Mana, endi Zeytuniyni duo qiladigan bo'ldingiz. Ishni o'sha biz maslahatlashganday to'g'rilab kelibdi.

– Shundaymi! – Zilolning arablardagina bo'ladigan qorachig'i katta yumaloq ko'zi yashnab ketdi. – Umlaridan baraka topsinlar. Hizr doim yo'ldoshlari bo'lsin! Siz ham kam bo'lmang! Bu yaxshiliginglarni aslo unutmayman. barakalla!

Zilol sevinchdan o'zini qayerga qo'yishni, bu mehribon kishilarga qanday qilib minnatdorlik bildirishini bilmay nuqul duo qilardi. Ko'zidan tirqirab chiqqan yoshini

yengiga artardi. Barlarini olib o'pardı. Ikki o'rtiq esa, xijolat tortib, uning qo'lidan barlarini olib «qo'ying, kerakmas» deyishganicha narroqda otası: yonidan uzoqlashgandan beri nima gap bo'layotganiga tushunmay tippa-tik turgan, sochlari ajriqdek qalin va chatishib ketgan ko'zi ojiz bola oldiga yurısndı. O'n ikki-o'n uch yoshlardagi miqtidekkina bola kishilarning qadami yaqinlashganini sezib, necı nar-sani ko'rınaydigan ko'zlarini tez-tez pırpıratdı-da, salomı berdı. Unga alik olgan Zeytuniy yelkasiga barmıoqları kalta qo'lini qo'ydı.

– Katta doktorga yuborsak, borasanmi?

– Ha, dadam bilanmi? Dadam avtdilar. Qachon?

– Raqında.

– Bo'ptı jon amaki, tezroq yuboring.

– Xo'p-xo'p, jıyan!

Bolaning ıyraklıgı Zeytuniyning mot qilgan ıstıqlı U bolaning popukdek qosh-ko'zlariga, chiroylı burniga otasınıkidek uzun bo'yniga qarab turib, juda rahmi keldi, natto shu ishga aralashib katta savobga colayotganidan faxrlangandek bo'ldı: Ittifoqları ko'zi ochilib qaytsa qanday yaxshi bo'lardı!

Bolaning ona qornıdan qayta tug'ılğandek bo'lishı bu yerda turgan gap. Lekin o'zi va o'rtıqlarınning olib borayotgan ishiga qancha nafi tegardı. Bundan zo'r tashviqot bormı! Xuddı shunday bo'lardı! Bolanı yetaklab borgan otası, oldıga solib o'ynatib keladı. Qo'zıchoqday o'ynatib keladı. Bunga mening ishonchim komı. Xuddı shunday ishonch bilan ojiz ko'zı: javdırab turgan bolanı yupatdı:

– Ko'zlarıng, albatta, ochıradı, jıyan! G'am ema! Bolaning ajinsız silliq va qoracha yuzıga quvonch nurları tarqaldı, ojiz ko'zı yorug' dunyoni ko'rishga orziqayotğandek pırpırab ketdı. Zeytuniyning gaplarını jon qulog'ı bilan tinglab turgan otası:

– Oh, qani edi, azizlarim! – dedi titrab, – Xudodan kecha-yu kunduz so'raganim shu-ku! Aytganingiz kelsin. Farishta «omin!» degan bo'lsin. Zilolning hadeb duo qilaverishidan xijolat tortgandek bo'lgan Abulbaraka, o'g'lini palatasiga yotqizib, o'zini kabinetiga kirishga taklif etdi. Zilol xursandlikdan yuzlari yonib turgan o'g'lini yetaklab, yiroqlashar ekan, Zeytuniy hamrohiga dedi:

– Qiziq, bundoq qarasang ko'zi ochiq, lekin ko'rmaydi! Tug'mami?

– Keyin bo'lgan.

Ular Abulbarakaning qandaydir dori hidi sal anqib turgan bejirimgina kabinetiga kirib borishdi. Endi o'tirishlari bilan Zilol ham eshikda paydo bo'ldi, uning butun harakatidan, «Qani yana nima maslahat bor? Qulog'im bilan-gina emas, butun vujudim bilan tinglashga tayyorman, gapiraveringlar», degan ma'no bor edi. U shoshibgina yerga cho'qqaydi.

– Stulga o'tiring, bu nimasi! – dedi Abulbaraka ko'ngli og'rib.

– Xo'p! Xo'p! – Zilol gunohini tuzatayotgan odamdek irg'ib o'rnidan turdi, yonidagi stulga omonatgina cho'kdi.

– Shunaqa qilib, Zeytuniyni ham tanir ekansiz-da, amaki! – deb Abulbaraka tegishgan edi, Zilolning gap xazinası ochilib ketdi:

– Nega tanimas ekanman! Bizning zavoddagilarning hammasi yaxshi biladi. Borib va'z aytganlar. Rost gapni aytganlar. Kishilarning ko'nglidagini topib gapirganlar.

– Shundaymi! – Abulbarakaning tovushida xursandlik bilan birga faxrlanish ohangi bor edi.

– Bu kishi ketganidan keyin zavod xo'jayini biram jig'iblyron bo'ldi, naq boshqaruvchisini tiriklayin yutib yuboray dedi. Bunaqa jahli chiqishini endi ko'rishim. Dir-dir titraydi, ko'zi qinidan chiqib ketay deydi. Uning bu gapı Abulbarakaga yana yoqdi.

– Ishqilib, ishchilar xursand bo‘lib qolishdimi? Shunisi bizga kerak.

– Xursand ham gapmi? Yana qachon keladilar, deb kunda kutishadi.

– Bu ham yaxshi, – dedi Abulbaraka va do‘stiga:

«Ishlaring shunaqa yaxshi, qadrdonim, sen bo‘lsang nuqul ko‘ngling to‘lmay yuradi. Eshityapsanmi bu odamning gapini? Men juda mamnunman», degandek ko‘zining qirini tashladi. So‘ngra yana Zilolga yuzlandi. – Ana shu sizga ma‘qul bo‘lgan odam o‘g‘lingizning ko‘zini ochmoqchi, shuning harakatida yuribdi.

– Barakallo. Asti davlatlari kam bo‘lmasin, obro‘ylari bundan ham baland bo‘lsin.

Zeytuniy: «Qo‘y endi, meni hadeb maqtataverma!» degan ma‘noda Abulbarakaga qaradi, Zilolga dedi:

– Endi sizdan elchixonaga bitta iltimosnoma kerak bo‘ladi.

Boyadan beri bulbuldek sayrab turgan Zilol, birdan xomush tortib, bo‘shashdi. Yetimchadek bo‘ynini qisdi, kaftini yozdi:

– Menda savod qayoqda!

– Bu yog‘idan tashvishlanmang. Shunday xat yozishga rozimisiz?

– Roziligimni so‘rab nima qilasiz, sizlar nima desanglar shu-da. Sizlardan boshqa mehribonim bormi? O‘g‘lim uchun o‘kirib turgan sherning og‘ziga kirib chiq desanglar kirib chiqaman. Xudo xayringlarni bersin, nima kerak bo‘lsa qilaveringlar. Men xizmatinglarga tayyorman. Tuproq olsanglar oltin bo‘lsin. Murodi maqsudinglarga yetinglar.

– Murodi maqsudga birga yetamiz, amaki! – dedi uning so‘zini bo‘lib Zeytuniy.

– Inshoollo!

Zeytuniy elchixonada aytganlaridek qilib shu yerning o'zidayoq yozib chiqdi. «Sen ham o'qib ko'rchi», deb Abulbarakaga ko'rsatdi. Ma'qul topdi. Hamon duodan og'zi bo'shamayotgan Zilolga o'qib eshittirishdi. U mehnatda qotib ketgan barmoqlari bilan ruchkani no'noq ushlab, har harfni bittalab hijjalagancha zo'rg'a imzo chekdi. O'z savodsizligidan xijolat tortib, uzr so'rar ekan:

– Shu imzom o'tarmikin? Masxara qilishsa-ya! – dedi.

– Kimni? Siznimi? Masxara qilishsa sizni shu kunga solgan janoblarni masxara qilishadi. Sizda nima ayb! Maktab bo'lib, o'qimabsizmi?

– To'g'ri aytasiz! Bizning vaqtda maktab hecham yo'q edi. Kitob bilan bir polyon o'tinning biz uchun farqi yo'q. Kitob bizga gapirmaydi.

– Yo'q, hali ham o'rganing. Kech emas.

– O'rganaman. Mana shu o'g'limning dardiga bir davo topib olay. Uni ham o'qitaman, o'zim ham o'qiyman. O'sha kuni va'zingizda ham aytdingiz. Esimda turibdi. Qirovi to'kilgan pichoqdek shart-shart kesib gapirdingiz. Keyin bundoq o'ylab qaragam, savodsizlik ko'zi ochilmagan kuchukka o'xshagan narsa ekan. Kim yetaklasa ergashib ketaveradi.

– To'g'ri tushunibsiz. Boshqalar ham shunday tushundimi, ishqilib? – kulimsiradi Zeytuniy, – yoki «esiz ketgan vaqt!» deb yurishdimi?

– Ana, xolos. Po'latga suv bergandek bo'ldi. Vino zavodiga borgan ekansiz. Buni ham eshitdik. Ular ham xursand. Yaqinda vakillari kelib biznikilar bilan nimanidir maslahatlashib ketishdi. Endi biznikilar bormoqchi bo'lib yurishibdi.

– Juda to'g'ri qilishadi. Bir fikrdagi kishilarning ko'p bo'lishining o'zi kifoya emas. Bir butun bo'lishi ham shart. Shu butunlik yengadi.

– Besh barmoq bir musht emas-da, – lo'nda qilib to'ldirdi Zilol.

– Balli! Topdingiz! Ana shuni har ishchi bilishi kerak.

– Bilib qoldi. Sizga o'xshaganlar tez-tez borib tursa, qulog'iga quyib tursa, ishchilar yo'lini topib oladi.

Bu samimiy suhbatdan zavqlangan Abulbaraka:

– Amaki dono! – deb yubordi.

– Bularni hayotning o'zi mulla qilib qo'ygan. Har gapida qo'sh ma'no bo'ladi. O'zi sergap bo'lsa ham maqto'vni yoqtirmagan Zilol, diqqatini gapdan hozirgina qo'l qo'ygan qog'ozga burdi.

– Endi bu nima bo'ldi? O'zim yuboramanmi?

– Baribir. Biz yuborsak ham bo'laveradi. Siz ovora bo'lmay qo'ya qoling. Ishchilarga bizdan salom ayting.

– Jonim bilan! O'zingiz yana bir zavodga keling. Tami og'zimizda.

– Rahmat. Boraman, albatta, boraman! Jim bo'lib ketmang, ko'rishib turaylik. Mana, tanishib oldik.

– Endi sizlardan ajralib qayoqqa borardim!

Etaginglardan ushlaganim, ushlagan. Agar qo'limgan chiqib ketmasanglar...

– Siz qo'yib yubormasangiz bo'ldi.

– Menmi? Xotirjam bo'ling. Biz qattiq ushlaganmiz. O'n qo'shchiga bir boshchi degan gap bor... Zilol bu uchrashuvdan qanot chiqarib, mamnun qo'zg'alar ekan, Abulbaraka tegishdi:

– Ittifoqqa jo'nasangiz, puldan bormi?

– Topaman. O'limligimni sotsam ham topaman.

Yoru do'stlarim bor. Qarz ko'tarsam ham topaman. Undan keyin shu kunda xotinimdan qolgan uyni ijaraga qo'yyapman. O'zimizning zavodga yaqinda kelgan bir yosh injener o'tirmoqchi. Uch-to'rt oyligini oldidan so'rasam yo'q demas. Ha, aytganday uni sizning yurtigingiz tomondan deyishadi. Chiroylikkina yigit. Tanimaysizmi?

– Ismi nima ekan? – go‘yo o‘zi tug‘ilgan yurtidagilar-ning hammasining ismini biladigandek so‘radi Abulbaraka.

Zilol o‘ylab qoldi.

– Ha, nima ham edi. Hozir tilimning uchida turuvdi-ya! – u topib aytolmadi. Abulbaraka: «Sen taniysanmi?» degandek Zeytuniyga qaradi. U ham yelkasini qisdi. Bu yosh injener A‘zam edi.

22

KENG UFQLAR

Azimxo‘jayev Ummatalining kabinetini eshigida yangi paydo bo‘lgan «Agronom maslahati uyi» yozuvini ko‘rib, miyig‘ida kuldi, eshikni qiya ochib tegishdi:

– Maslahatga kirish mumkinmi, o‘rtoq agronom?

– Bemalol, bemalol! – dedi ochiq yuz bilan Ummatali va direktorning istiqboliga turdi. – Shunaqa qilmasak bo‘lmay qoldi, Alixo‘ja Saidovich. Yoshlarda ishtiyoq zo‘r. Leksiyalar kifoya qilmayapti. Hatto nariroq borib agronomiya yangiliklarini o‘zlashtirish va joriy qilish kursi ochamiz shekilli-da. Avvalgidek bitta bo‘lim boshlig‘i yoki brigadirning bilishi kifoya emas, har ishchi, har bog‘bon o‘zi bilsa qanday yaxshi. Tashabbus oshadi.

– Bu-ku to‘g‘ri, – kulgiga oldi odati bo‘yicha Azimxo‘jayev, – bilimi oshib, ketmonga qo‘li bormay qolmasmikin?

– Yo‘q, yo‘q, Alixo‘ja Saidovich, kishi qancha bilimli bo‘lsa, mehnatga shuncha hurmat bilan munosabatda bo‘ladi.

Azimxo‘jayev tegishgan edi, lekin aqlli javob olib mamnun bo‘ldi. U qilganlarini yaxshi biladi, ularga ana shu Ummatalidek bir agronom kerak edi. Ayni muddao bo‘lyapti. Bunaqasi kam bo‘ladi. Tinib-tinchimaydi. Butun vujudi, o‘y-xayoli bilan dala kishisi – onasi adashib shaharda tug‘ib qo‘ygan. Mana bundan avvalgi yili bunyod

qilgan yangi bog'i songa kirib qoldi. Unda allaqachon ba'zi birovlarining yodidan ko'tarilib ketgan uzum navlari bor. Ishqilib, miyasi doim nima bilandir band. Nima-dir tashkil qiladi, nimanidir maslahatga tayyorlab yuradi. Shunaqa odamlarni zo'rlab, shaharga ishga qo'ysang, yuragi siqilib, tars yorilib ketadi. Dalaning har giyohi uni bir fikrga keltiradi, tashabbusini qo'zg'aydi. Ummatali go'yo direktorning xayolidan o'tgan shu fikrlarni tasdiqlamoqchi bo'lgandek uni bir necha daqiqa o'tirishga iltimos qildi va gap boshladi:

– Kecha Beshyong'oq tomondan o'tib kelayotib, bir fikrga keldim. Nega o'sha yerlar bo'sh yotibdi?

– Suv yuqoriga oqmagani uchun! – Azimxo'jayev u yerlarga suv chiqmasligini yaxshi bilsa ham, jo'rttaga uning qitig'iga tegib qo'ydi.

– To'g'ri, suv chiqmaydi. Bordi-yu, quduq qazisak-chi? Axir o'sha yerda yuz gektardan ortiq yer bor.

– Yaxshi maslahat. O'ylashib ko'rish kerak.

– Bo'lmasa shu ishni menga topshirsangiz, injenerni yonimga olsam, aniqlab, chamalab chiqsam, – quvonib ketdi Ummatali.

– Ma'qul. Lekin ancha mashmashasi bor. Xo'sh, keyin nima ekamiz? Bu haqda ham bir fikrga kelib qo'ygan Ummatali direktorni kuttirib qo'ymadi.

– Tut.

– Tut? – ajablangandek bo'ldi Azimxo'jayev.

– Ha, tut. Pilla qurti uchun tut. Axir qachongacha yetmagan bargni shahardan tashiyimiz? Uyatmasmi? Azimxo'jayevning yodiga bir lavha yalt etib tushdi. U mo'ysafid dadasini ko'rgani shahar tushgan edi. Bir mahal qarindoshnamo qo'shnisi big'illab chiqib qoldi. «Ayting, kesmasin, hovlimga soya solib turgan bittayu bitta daraxt shu! Jon Alixo'ja aka, ayting. Menga quloq solishmayapti», dedi. Azimxo'jayev nima gapligini to'la

fahmilarasa ham, u xotin bilan chiqdi. Eshigi tagida yuk mashinasi. Uch kishi hovlida. Bittasi tutning ustida, ikki-uchta shoxini kesib yerga tushirib ham bo'libdi. Azimxo'jayev tushuntirib, iltimos qildi. Hovlida turganning bittasi yonidan qo'lga olinaverib ziyalari yeyilib ketgan to'rt buklangan qog'ozni asta ochib, unga uzatdi. Bu qog'oz Shahar kengashining qarori ekanini Azimxo'jayev yaxshi bilsa ham, uzatuvchining hurmati uchun olib, ko'zdan kechirdi. Keyin mustasno sifatida yana iltimos qildi. Tuzuk kishilar ekan. «xo'p, mayli deb chiqib ketishdi. Lekin baribir uch kundan so'ng boshqa biri kesio ketibdi.

Ummatalining bu galgi tashabbusi, shu xayoldar: keyin, juda ma'qu! tushib, Azimxo'jayevning ko'nglini yorishtirdi: Ha, rost-da! Qachongacha shaharliklar o'st-radi-yu, biz tashib qurtimizga solamiz Yo'lni xarajatini, kishilarning ovaragarchiligini aytmayisizmi! Juda soz-da: Nega shu vaqtgacha o'zimning esimga kelmadim? Yo'q, qurt paytida: «Shu barg masalasini bir yoqlik qilish kerak», deb ko'nglidan o'tkazar edi-vu, plan: to'lgach, barcha zahmatlar esdan chiqib, shu kun uchun zarur boshqa ismlar bilan band bo'lib qolardi, endigi yil o'sha paytda yodiga tushardi. Ummatali buni o'ylab yaxshi qilibdi. Joyini ham topibdi. Lekin yer ko'p-ku:

– Hammasini tutzor qilamizmi? – aniqlamoqchi bo'ldi Azimxo'jayev.

– Yo'g'-e! – Ummatalining yuziga kuigi marjonlari sochildi, – shuncha tutzorning nima keragi bor! Yo' qo'shnilarga barg solamizmi? Olisharmikan? Bu kutilmagan «savdo» ishidan Azimxo'jayev ham kulib yubordi. Ummatali boshqa rejalarini aytdi:

– Bir qismini olchazor, oralatib gilos eksak. Qishlik nokimiz yo'q. Do'ngning orqasiga ellik-oltmish tup toshnok o'tqizsak. Tepani qiyalab yong'oqzor qilamiz. Ham tog' etagini nurashdari ushlab turadi, ham o'sha

yer yong oqbob. Azimxo'jayev agronomining bunchalik puxta o'ylab qo'yganidan mamnun bo'lib, endi tashkiliy tomonlarini xayolidan kechirib turar ekan. Ummatali qo'shimcha qildi:

– Ha, aytgancha, tutzorning bir yonida bir ozroq shotut ham bo'ladi. Bu qo'shimcha direktorning labiga kulgi chiqardi:

– Yana nima? Birortasi esingizdan chiqmadimi?

– Yo'q, hammasi shu! – dedi Ummatali direktornikidek tabassum bilan. Lekin yonidagi daftarchasini olib, ko'zdan kechirishni unutmadi. Ochgan betining orqa varagini ham ko'rib chiqqach, yana bir «hammasi shu» deb qo'ydi.

– Ma'qul, ishga kirishavering. Nimaki ko'mak kerak bo'lsa men tayyor! – dedi Azimxo'jayev yukining bir tomonini o'z tashabbusi bilan yelkasiga olayotgan Ummatalining sochi oqarinqiragan chakkasiga qarab turib. Shu lahzada u Ummatalini sovxozga tavsiya etgan o'sha rahbar o'rtog'idan xursand bo'lib qo'ydi, g'oyibona minnatdorlik bildirdi.

...Bu ishning Azimxo'jayev aytganidek ancha mashmashasi bor ekan. Buni Ummatali shug'ullana boshlaganda bildi. Boshlab u quduq qazib beradigan trestga bordi. Ular yo'q demadi. Lekin vazirlik roziligi kerakligini aytdi. U o'z vazirligiga chiqib, o'sha Qurilish vazirligiga aloqa xati yozish paytida sal ishkali chiqdi. Kapital qurilishlar bo'limi: «Bu yilgi rejada bu ish yo'q», deb turib oldi. Zo'rg'a vazir orqali to'g'rilab chiqdi. «Bular qiziq xarajatga pulimiz bor-ku, planini pesh qilib, rozilik bergisi yo'g'-a!» deb Qurilish vazirligiga kirib keldi.

– Marhamat, biz qarshi emasmiz. Quvuringiz bormi? – dedi qora ko'zoynakli bo'lim boshlig'i.

– Yo'q. – bo'shshadi Ummatali.

– Bizda ham tanqis.

– Agar haqini to'lasak...

Qora ko'zoynakli chiroyli yigit uni gapirtirmadi:

– Bizda sotilmaydi, hammasi planli.

Bo'shashib tushgan Ummatali iltijonamo dedi:

– Bo'lmasa bir yo'l ko'rsating. Shu ikkita quduq bizga juda zarur.

– Buning yo'li bitta, – dedi qora ko'zoynakli mag'rur tikilib, – qog'ozingizni qoldiring. Endigi yil planiga kiritamiz. Endigi yilning birinchi kvartaliga va'da berishim mumkin – shu ham juda zarurligi uchun. Ummatali nima deyishini bilmay qoldi. «Maslahatlashib ko'ramiz» deganicha qora ko'zoynaklining kabinetidan xomush chiqdi. Endi nima qildi? Bunaqa tashkiliy ishlarga direktorning o'zi usta. Asti bu yog'ini uning o'ziga qo'yib bersa bo'lar ekan. Attang! Qo'ltig'idan tarvuzi tushgan Ummatali zinadan pastga endi bir qadam qo'ygan ham edi, kimdir uni chaqirgandek bo'ldi. Gumonsirab orqasiga o'g'irilib qaradi. Qorong'iroq yo'lakdan kimdir u tomon qadamini tezlatib kelardi.

– Yaxshimisiz, Ummatali? Salomat bormisiz?

Qayoqlarda yuribsiz, o'rtoq? – dedi u kishi yetib kelib va Ummatalining qo'lini olib qattiq siqdi. Ummatali uni tanisa ham, eslab ololmay turgan edi, qo'lini qattiq siqishi yodiga soldi. Uning butun tanishlari ichida bittasi shunaqa qo'l siqib ko'rishadi. Bu – Zarif. Institutning ikki kursigacha birga o'qishgan. Keyin birdan o'qishni tashlab ketdi. Bir qizni yaxshi ko'rib qolibdi. Bir-biriga shunaqa oshiq-ma'shuq bo'lishibdiki, turmush qurmasa asti iloji yo'q. Qizning boyvachcha ota-onasi uni iqi sevmay «zora shu bahona bilan qizimizni tashlab ketsa», degan niyatda to'y shart-sharaitini katta qo'yibdi. «Qarz uzilib ketadi, xotin yonga qoladi», degan aqidaga amal qilgan Zarif bir o'rtog'idan qarz ko'taradi. Lekin to'y o'tib, qoni bir oz sovib, do'ppini yerga qo'yib fikr yuritsa, bu qarzdin qutulishi amrimahol. Muddati ham yaqinlashib

kelyapti. O'qishni shartta yig'ishtirib, ishga kirib ketadi – «sal keyinroq mulla bo'lish»ga qaror qiladi. Bu qarori ro'yobga chiqmaydi, «hademay» ishdan qaytsa, «dada, qaqa olib keldingizmi?» deydigan tili shirinlar ko'payib qoladi. «Ha, mayli, endi biz o'qimasak, bolalarimiz oliy ma'lumotli bo'lar», deb o'qishdan umidini uzadi.

Ana shu umidini uzib yurgan kezlarda Ummatalini uchratib qolgan, Ummatali uni qamalguncha ishlagan sovxoziga olib chiqib ketgan edi. Bir oz vaqt ishlab turgan, keyin: «Ro'zg'or ikkiga bo'linib qoldi, bolalarga onasining ikki ko'zi kamlik qilib qoldi», deb bo'shab ketgan edi. Mana endi yana uchratib turibdi. Bu orada qancha suvlar oqib, ne-ne baqateraklar kesilib ketdi. Zarif Ummatalining ko'ngilsiz sarguzashtlaridan xabardor bo'lsa kerak, uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirib, keyin ma'noli bir tarzda dedi:

– Xo'sh, endi ishlar qalay? Hammasi to'g'ri bo'lib ketdimi?

– Rahmat!

– Ob-bo, Ummatali, ko'rgulik-da, o'rtoq, – dedi yana tasalli berib va qayerda ishlayotganini, nima zarurat bilan bu yerda yurganini so'radi. Ummatalidan eshitib, darrov uning ko'nglini ko'tardi:

– Hozir to'g'rilaymiz-da, do'stim. Bitmaydigan ish bormi dunyoda! Xudo yorlaqab, bizning tomonlarga bir kelib qolibsiz, qaytib ketsangiz uyat bo'ladi. Ishning bitishini bunchalik naqd qilib qo'yganidan shoshinqirab qolgan Ummatali, «O'zingiz bu yerda nima xizmatdasiz!» deyishga ulgurmad. Zarif «Hozir!» deganicha orqasiga qaytib ketdi. Nariroqdagi bir xonaga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Saldan keyin yana shoshinqirab chiqdi. Ummatalining qo'lidagi qog'ozni olib, naridan-beri ko'zdan kechirgan bo'ldi-da, yana kirib ketdi. Bir ozdan keyin o'sha kirib ketgan eshikdan boshini chiqarib, Ummatalin

chaqirdi. Hamon ishining bitishiga gumoni bor Ummatali hadiksirab kirib bordi. Zarif uni xona burchagidagi savlatsizgina bir stolda o'tirgan chuvakkina kishi bilan tanishtirdi. U kirguncha hamma gapni aytib bo'lgan shekilli, yakun yasagandek ta'kidladi:

– Bizning nohaq jafo chekkan qadrdon do'stimiz, to'g'rilab bermasangiz bo'lmaydi. Chuvakkina kishi vaqtdan avval oqara boshlagan Ummatalining sochlariga qarab qo'ydi:

– Hoynahoy, o'shoqda oqargandir? – u javobni kutmasdan yana so'radi, – hozir ishlaringiz yaxshimi!

– Durust.

Uni Zarif to'ldirdi: – Shu ishini to'g'rilab bersangiz, ishi yana yaxshi bo'ladi-da.

– To'g'rilaymiz. Bunday o'rtoqlarning tezda oyoqqa turib ketishiga ko'maklashish har insofli kishining burchi, – dedi chuvakkina kishi Ummatalining aloqa qog'ozini ko'zdan kechirayotib. Keyin tegishdi:

– Buning ustiga vinolarning asili shularda bo'lsa kerak. Ummatalining ko'nglidan: «Bizda faqat uzumi yetishtiriladi», degan fikr o'tgan bo'lsa ham, cho'zib o'tirmadi.

– Topiladi, – deb qo'ya qoldi. Chuvakkina kishi telefonni olib qayernidir chaqirdi. Sovxozning iltimosini qisqagina tushuntirdi, keyin o'z fikrini aytdi.

– Hurmatli bir o'rtoq iltimos qilyapti, yo'q desak bo'lmas. Be, ularda quvur nima qiladi! Ulardan uzumning xilini so'raysiz. Mayli, shunday qila qoling, – chuvakkina kishi Ummataliga o'girildi, – mana, ish bitdi, birodar. Lekin bitta sharti bor: quvurni keyingi kvartalda qaytarib berasiz.

– Bizda quvur bo'lmaydi-ku, – Ummatalini yana tashvish bosdi.

– Ey, birodar, o‘shoqda yurganlaringizning ta’siri uribdi, orqada qolibsiz. Xo‘p, deyaversangiz-chi. Yo‘q bo‘lsa qaytarmaysiz-da. Pulini oladi. Shaxsiy bog‘changizga jimjima fontan quryapsizmi, xavotir olasiz!

Chuvakkina kishi shu gaplarni hazilomuz ayta turib, qog‘ozga rezolyutsiya qo‘ydi, Ummataliga uzatdi.

– Marhamat! Ishni boshlayvering. Muvaffaqiyat tilayman!

«Shunchalik ish ekan-ku, qora ko‘zoynakli juda bo‘y yetmas yerga olib chiqib qo‘ygan edi», degan xayol bilan Ummatali chuvakkina kishining qo‘lini siqdi:

– Biz tomonlarning ham havosi yaxshi. Chiqib boringlar, – deya tashakkur bildirdi. Kabinetdan chiqishgach, Zarif tegishdi:

– Bir yaxshilab eriydigan bo‘ldingiz, Ummatali.

– Marhamat! Qachon bo‘lsa biz tayyor, chiqib boringlar.

– Rahmat! Shularni bitkazib oling, keyin. Men doim shu yerdaman, kelib turing. Anavi kabinetim! Ummatali ko‘z tashlab kabinet eshigidagi yozuvni o‘qidi: AXO³.

Zarif uni kabinetiga taklif etdi:

– Qand solsa botmaydigan choyim bor!

– Rahmat, do‘stim, qo‘y so‘ygandan a‘lo ish qildingiz, – dedi Ummatali ko‘ksiga qo‘lini qo‘yib, – boshqa bir gal.

– Marhamat, qachon bo‘lsa bermalol!

Zarif uni vazirlikning ko‘cha eshigigacha kuzatib chiqdi va o‘z odaticha uning qo‘lini olib qattiq siqdi, quyuq xayrlashib qoldi.

Bu qo‘l siqish Ummatalining yodiga beg‘ubor studentlik yillarini soldi. O‘n kunlardan keyin Beshyog‘ochdagi ilk quduqdan ko‘kka otilib chiqqan butana suv esa, keng istiqboli ufqini birdan charoqlatib yuborgandek bo‘ldi. Suv uncha chuqurda emas ekan: yuz metrga yetmay

³AXO – ma‘muriy xo‘jalik bo‘limi.

«yer ostida juda ham siqilib yotgan edim, erkinlikka chiqadigan kun ham bor ekan-ku, otanglarga rahmat!» degandek qarsillatib chapak chalganicha ko'kka otildi, boradigan yerini qidirib shoshib qolgandek qaqroq yer betida ilon izi solib ketdi. Ummatalining og'zi qulog'ida, qistab yurgan qo'g'irchog'ini dadasi olib kelib bergan boladek yuzidan tabassum arimaydi, ko'zi yonadi. Yer ostidan chiqadigan suv boshqacha bo'ladigandek bir-ikki hovuch olib, termilib qaradi, hatto, nima uchundir, salmoqladi ham. Uning bu lahzadagi kayfiyatini oddiygina so'z bilan «sevindi» deyish insofdan bo'lmas edi, buning nomi boshqa, bunga so'z topish kerak!

Birinchi quduqning «mazasi» Ummatalining og'zida qoldimi, ikkinchisini kutib, quduq qazuvchilar bilan birga shu yerda tunadi. Lekin baribir ikkinchisining gashtini surish unga nasib bo'lmadi: shofyor kelib olib ketdi. Rayon ijroiya komitetidan direktorni yoki uni zudlik bilan yo'qlatishibdi. Azimxo'jayevning bundan uch kun avval to'satdan qon bosimi oshib ketib, kasalxonaga yotgani uchun Ummatalining borishi zarur bo'lib qoldi. Ummatalini tuman yer bo'limining mudiri yo'qlatgan ekan. Ummatali bu dag'al odamni yaxshi taniydi. Qachon ko'rsang bir narsadan fig'oni osmonga chiqib, bo'lar-bo'lmasga baqirib-chaqirib yuradigan bu odamni rayonda uncha xush ko'rishmaydi. Lekin o'zi shu yerning tub aholisidan bo'lgani, ko'pdan beri ishlab kelayotgani, past-baland lavozimni ko'rgani uchun «bu kasal uning qonida» deb parvo qilishmaydi. Bir kuni Ummatali Azimxo'jayevga: «Hammadan ham uning bechora xotiniga rahmim keladi», deb kulgan edi, direktor: «Shu ahvoliga xotinidan qo'rqadi: eshikdan kulib kirib boradi», deya bir qancha latifanamo lavhalar aytib berdi. Ummatali kirib borganda mudir qovog'idan qor yog'ib, ko'ylagining tugmalarini maykasi ko'ringuncha yechib, nimanidir ko'chirmoqda

edi. Ummatalining salomiga tuzukkina alik ham olmadi, ko'rishishga qo'l uchini uzatdi. «Ob-bo, toza paytiga kelibman-ku» degan Ummatali uning og'zini poylab turdi. U kuttirmadi:

– Bu qanaqa sabotaj?

Gap nima haqida borishini jon qulog'i bilan kutib turgan Ummatali darrov tushundi. Lekin bu oddiy narsa yuzasidan bunchalik dag'dag'a eshitishini kutmagan edi. Hafta boshida Ummatali direktor huzuriga kirsas, u xomush o'tiribdi. Buni sog'ligiga yo'yib, kayfiyatini so'radi. Azimxo'jayev javob o'rniga uning oldiga bir varaq qog'oz surdi. Ummatali ko'z yuritdi. Bu bug'doy o'rimiga tushish haqidagi rayon farmoyishi edi.

– Hali yaxshi yetilgan yo'q-ku! – dedi Ummatali. Azimxo'jayev churq etmadi. Noxushlik bilan farmoyishni olib, stoli tortmasiga solib qo'ydi... Shu tufayli o'rim-terim hali sovxozda boshlanmagan edi. Garchand, bu «o'zbo-shimchalik»ni ba'zi birovlar yoqtirmasligini Ummatali bilsa ham, lekin uning «sabotaj» deb baholanishini kutmagan edi. Bu ibora qanchalik dahshatli bo'lmasin, bunday do'q urishlarning vaqti o'tgani, o'z ishining to'g'riligiga imoni komil Ummatali direktorga aytgan o'sha so'zini vazminlik bilan takrorladi va yana qo'shdi:

– Hali yana uch-to'rt kunligi bor.

– Yo'q, siz menga tushuntirmang, – dedi uning og'zidan so'zini yulqib olib mudir, – men kecha kelgan kishi emasman. Shu yerda tug'ilganman, ko'chasida yong'oq dumalatib, dalasida sigir boqqanman. Savolga to'g'ri javob qiling: nega farmoyishni bajarmadingiz.

-- Atyapman-ku...

Mudir gapirgani qo'ymadi:

– Direktor qayoqda?

– Shifoxonada.

– Davolanadigan vaqtini topibdi! Shu bugunoq odam yuboring, ertadan ishga chiqsin, keyin davolanaveradi.

– Afsus, bu farmoyishingizni ham bajara olmayman. Axir kasal maslahatlashib kelmaydi.

Yotig'i bilan aytilgan bu javob ham mudirning yarasiga tuz sepgandek bo'ldi.

– Bu nimasi!! Qasddan rayonni orqaga sudrayapsizlarmi! Rayon uchun sizlarning ham jinday joninglar achiydimi o'zi?

– Siz birgina rayonni o'ylamang-da

– Xo'sh, o'rgating, nimanı o'ylay tag'in! – kinoya qildi mudir. – Biz rayon rahbarimiz – rayonni o'ylaymiz. Oblastga ko'tarilganda, oblastning g'amini yeymiz. Um-matali: «Shu ahvoning bilan oblastga ko'tarilib bo'psan. Shu yerda ham eskib qolganga o'xshaysan», deb ko'nglidan o'tkazdi. O'sha fikrini oydinlashtirdi:

– «Bizdan ketguncha, egasiga yetguncha» qilmasdan el-yurtnı sal o'ylash kerak.

Mudir: «Tentak, shu oddiy haqiqatni ham fahmiga yetmaysanmi?» degan bir yo'sında iljaydi:

– Shu el-yurtnı o'ylaganimiz-da. Axir bug'doy mening shaxsiy omborimga tushmaydi.

– Yo'q, bu – faqat rayonni, rayon planini o'ylaganingiz, agar el-yurtnı o'ylaganingizda, yetilmagan bug'doyni nega o'rmading, deb ikki oyog'ingizni bir qo'njga tiqib o'tirmas edingiz. Yotig'i bilan sababini so'radingiz, bizni ham, o'zingizni ham bekorga xit qilmas edingiz. Mudirga bu gap juda malol keldi, nahot qo'l ostidagi, kechagina kelgan agronom shu tilda u bilan gaplashsa! Bu og'rikan tishi qolib, sog'ini sug'urib olgandek alam qildi, burgadek sakrab tushdi:

– Hoy, menga qarang, agronom, men nasihat eshitadigan yoshdan o'tganman. Tushundingizmi? Birinchi yil ishlashim emas, aql tishim shu yerda chiqqan!

– To'g'ri, sizga o'rgatguligi yo'q. Lekin bu yilgi ob-havoni hisobga oling-da. Bahor sovuq keldi. Keyin bizning yerlar tog' etagi. salqinroq.

– Bilaman! Bilanan!

– Qani, yuring, yer boshiga chiqaylik, hammasi ma'lum bo'ladi-ko'yadi.

– Otangiz temirchimi? Gapni ko'p cho'zmang. Ertaga qoldirmay o'rim-terimga tushing. Yo'q, deydigan bo'lsangiz, mana qog'oz, yozing!

– Mayli, yozib berishim mumkin. – Ummatalining nazarida mudir birdan juda past tushib ketgan edi.

– Yozing! – mudir shiddat bilan qog'oz uzatdi. Ichida «yozib bo'psan!» deb turgan bolsa kerak, Ummatalining qog'ozni bamaylixotir olib, yozishga o'tirishidan ko'zi kosasidan chiqib ketgudek bo'ldi. Unga hammadan kechagina kelgan mushtumdek agronomni o'z ra'yiga sololmagani alam qilardi! Ummatali mudir talab etgan qog'ozni yozib bo'lgach, yana bir qayta ko'zdan kechirib, keyin unga uzatdi:

– Marhamat!

– Imzo chekdingizmi? – hamma gap yolg'iz imzoda bo'lganidek alohida ta'kidlab, mudir. Buni ta'kidlashdan ko'ra, do'q urish ekanini yaxshi fahmlagan Ummatali muhojiri kulib:

– Chekdim, vedomostga qo'yadigan qilib chekdim, – dedi.

– Bilasizmi, bu xatti-harakatingizning nomi nima? Bu «to'rachilik kayfiyati» deyiladi. Bundan tili kuyganlar bor. Hali ko'p o'kinasiz! Shunday do'q bilan ham Ummatalini o'z qo'ndog'iga qo'ndirolmagan va qachonlardir qo'ndira olishiga ko'zi yetmagan mudir, u yozib bergan qog'ozni chimirilib turib o'qib chiqdi. Xona burchagidagi seyfni daranglatib ochib, namoyishkorona bir tusda unga qog'ozni tashladi. Go'yo bu bilan: «Ko'rib qo'y, sening joning shu yerda!» demoqchi bo'lardi. Shu bilan bir vaqtda Ummatalining: «Keling, bu yoqqa bering. Hozir borib o'roqqa odam tushiraman». deyishini kutayotgan bo'lsa

kerak, seyfni yopishga shoshmadi. Ummatalidan nido chiqavermagach, zarb bilan qopqog'ini tashlab, kalitini burar ekan, po'ng'illadi:

– Vatanfurushning xotiniga uylanganingiz bejiz emasga o'xshaydi! Uning bu g'arazomuz gapidan Ummatalining aytadigan so'zi qolmagan edi. U qisqagina xayrlashib xonadan chiqdi. Lekin chiqish oldida bigizini sanchib olishni unutmadi:

– Ey, attang, bu gapni menga aytib chakki qildingiz. To'g'ri kerakli idoraga yozib berishingiz lozim edi.

– Kerak bo'lsa yozib ham beramiz!

– Mard bo'lsangiz yozasiz! «Bu odamning qo'lidan har qanday pastkashlik kelishi mumkin», deb o'ylagan Ummatali yer bo'limidan chiqqach, to'g'ri rahbariyatga kirib bordi. Baxtiga sekretar bo'sh ekan. Bo'lgan voqeani batafsil aytib berdi:

– Axir hali bug'doy yaxshi yetilgani yo'q, o'rtoq sekretar, bo'lmasa u odam bilan adi-badi aytishib o'tirishga kimning toqati bor. Axir bug'doydan qancha oldin qutulsak, o'zimizga shuncha yaxshi emasmi. O'zingiz bilasiz, biz asosan bog'dorchilik sovxozimiz. Bog'ning ishi esa, bir yil-o'n ikki oy tugamaydi. Sekretar uni xotirjam qildi:

– Yetilmagan bo'lsa, o'roqqa tushishning keragi yo'q.

– Rahmat-ey, bormisiz! – quvonib ketdi Ummatali, – u odam kishini qon qilib yubordi. Qachongacha o'zimizni o'zimiz aldaymiz. Plan sal keyinroq to'lsa hech narsa qilmas.

– Albatta. Xo'sh, quduq ishlari nima bo'lyapti? Suv chiqdimi?

– Chiqdi. Kecha chiqdi.

– Kuchi qalay?

– Yaxshi.

– Bu katta ish bo'ldi. Ha, aytganday, o'sha yerga bir oz poliz ham qilinglar. Lekin dori solmaslik sharti bilan!

Bir namuna ko'rsating. Dori bilan suv emdirilgan qovun-tarvuz elning joniga tegdi: na mazasi bor, na matراسi! Kelishdikmi?

– Kelishdik, – sekretar ko'nglidagini topib gapirganidan Ummatali yashnab ketdi. Axir uning o'zini ham ko'chatlar yetilguncha, orasiga qovun-tarvuz tashlash niyati bor edi. Ayni muddao bo'ldi.

Buni u joni dilidan ro'yobga chiqaradi. Sekretar kabinetidan mamnun chiqqan Ummatali sovxozga qaytayotib, yer bo'limi mudiri bilan bo'lgan «suhbat»ni yana eslab qoldi. Ko'ngli xira tortdi. Shu mudirga o'xshagan odam haq-nohaqligidan qat'iy nazar o'zinikini o'tkazishni yaxshi ko'radi, ba'zan nohaq bo'lgani holda g'olib chiqib yuradi. Modomiki, shunday ekan, oldini olib, tadbirini ko'rib qo'yish kerak. Ummatali xuddi shunday qildi: yo'l usti urug'nav laboratoriyasiga kirib odam ola ketdi. Uning ishtirokida bug'doyning ahvoli haqida kichik bir akt tuzdirib, tahlil uchun keragicha berib yubordi. U odam bilan xayrlashar ekan, ta'kidladi:

– Mumkin bo'lsa, daftardan o'tkazib, lozim topilganda spravka oladigan qilib qo'ying.

– Xotirjam bo'ling, bizning ishimiz doim hisob-kitobli! Ummatalining hadiksiraganicha bor ekan. Mudir birdan shov-shuv ko'tarib, masalani buyuroga qo'ymoqchi bo'lib qoldi. Ana shunda Ummatalining o'sha tadbiri mudirning nafasini ichiga tushirib yubordi.

Bundan xabar topgan raykom sekretari Azim-xo'jayevga:

– Agronomingiz chiyratma-ku! – deb kuldi. Aytganingizdek, istiqboli porloq ko'rinadi.

– Porloq. Meni ancha tinchitib qo'ydi. Imoni komil bo'lmagan ishga qo'l urmaydi, qo'l urdimi, boshiga qilich kelsa, qaytmaydi. Paxtavon dabdabalarni jinidan yomon ko'radi.

– Bu yaxshi xislat, – dedi odamlarni baholashda juda og'ir tosh qo'yadigan kekxa sekretar. – Yoshlarimiz baquvvat. Shunaqalarini ko'rganimda terimga sig'may quvonaman. Yoshim qaytib qolganidan o'kinmayman.

– Men ham xuddi shunday bo'laman-a, bir nuqtadan chiqib kelishimizni qarang! – mamnun ta'kidladi Azim-xo'jaev.

– Bir avlod kishilarimiz-da, do'stim, siz bilan biz ekkani ko'chat bir kunda gullaydi. Bilgan yoshlarga siz bilan bizning umr, do'stim, kattakon bir hayot maktabi, takrorlanmas hayot maktabi! Yoshi ulug' ikki rahbar kemalarini ne-ne to'fonlardan aqlu idrok va sabot bilan omon-eson olib o'tib, qirg'oqqa chiqqan kapitanlardek bir-birlariga hayot va yashash mazmuni to'la ko'zlarini tikib qolishdi. Ikkisi ikki chinordek mag'rur edi.

23

SIPO YIGIT BA QURBONALINING ARMONI

Hoji o'z do'konida Qoplonbekni sovuqroq kutib olishining yana bir sababi bor edi. U kechagi juma bir fransuz do'stinikida ziyofatda bo'ldi. Yangi kelgan kezlari uning qo'ltig'iga kirib, yo'lga solgan bu fransuzning bu shaharda bir nechta mundayroq vino zavodi bor. Hoji bilan bordi-keldisi yaxshi. Hojining ichmasligini bilib, u keladigan kuni antiqa sharbatlar topib qo'yadi. Ba'zan a'lo nav vinolarni maqtab: «Bir totib ko'ring, Hoji, butun gunohlaringizni yuvib ketadigan xilidan», deb tegishadi. O'zi ichib, uning havasini keltirmoqchi bo'ladi. Baribir Hoji ko'nmaydi. Shunda ham fransuz uni ichimlik bo'ladigan ziyofatlarda esdan chiqarmadi. Bundan ancha yil avval uni Parijga boshlab borib, chiroyli qizlarga oyog'ini uqalatgan ham shu zavodchi bo'ladi. Hali-hali Hojiga «Parijga boramizmi?» deb o'sha kunni esiga solib tegishadi.

Shu zavodchini obro'li fransuz ma'murlaridan bit-tasi kechasi chaqirib qoldi. Boy xavotirsirab kirib borsa, ma'mur ochiq yuz bilan kutib olib: «Bir maslahatli ish chiqib qoldi!» dedi. Keyin ishining nimaligini lo'nda qilib aytib qo'ya qolmasdan, mamlakatda yerli xalqning ko'zi ochilib, milliy mustaqillik talab eta boshlaganini, ka-saba uyushmalarning kuchayib ketayotganini, shu xilda boraversa, uning zavodidan keladigan daromadga putur yetishini, hatto uning zavodlaridan birida shubhali kishilar paydo bo'lganini zerikmasdan aytib chiqdi.

– Bu siz uchun yaxshi bo'lmasa kerak? – dedi oxirida o'smoqchilab.

– Albatta. Ba'zan men ham hayron bo'lib qo'yaman.

– Modomiki, siz ham bu narsadan xabardor ekansiz, bu juda yaxshi. Birlashib tadbirini ko'ramiz. Gap bun-day: Parijdan bir injener kelyapti. To'g'risi, tegishli idora yuboryapti. Uning o'z topshiriqlari bor. Shunga yordam kerak.

– Ya'ni qanday? – o'z hozirligini bildirdi boy.

– Shuni o'z zavodingizga olsangiz. Yaxshi bo'lardi o'sha shubhali kishilar paydo bo'lgan yerda ishlasa. Zavodchi qarshilik bildirmadi.

– Uning kimligi albatta sir saqlanishi shart. Keyin uning yelkasiga qoqib ham yurmang. Ko'p qatori yuraveradi.

– Albatta.

– Qisqa qilib aytganda, u ishchilar orasida siz bilan bizning manfaatimizga ishlovchi ko'z-quloq.

– Tushunib turibman.

Ma'mur bu yog'ini pishitib olganidan mamnun bo'lib, zarli sigara tutatdi. Chekmaydigan hamrohining havasini keltirib, turk tamakisini maqtab ketdi:

– Moydek yumshoq. Buning hidini qarang dimog'ing yayraydi. Chekmaysiz – bilmaysiz. Siz qizlarning farqi-ga yaxshi borasiz. Bu ham o'shanga o'xshagan narsa!

Zavodchi tanish bo'lsa ham, uncha sirdosh bo'lmagan ma'murning gapiga jilmayib qo'ya qoldi. Vaholanki, ma'mur endigi boshlaydigan so'ziga zamin hozirlab, uning ko'ngliga qo'lini solmoqda, uning maylini o'ziga tortayotgan edi. U sigarani juda maza qilayotgan kishidek yana bir uzun so'rib, og'zida tutunini qamab turdi-da, keyin buloq qilib chiqardi, gap boshladi:

– Yana bir iltimos: Siz anavi Saidakbar hoji bilan qalinsiz. Bordi-keldingiz bor. Shu bilan ikkisini bir amallab tanishtirsangiz. Bu gapga zavodchi tushunmadi: endi kelayotgan injenerga Hojining nima aloqasi bor? Buni payqagan ma'mur darrov evini qildi:

– Parijning iltimosi shu. O'zi ham o'shoq tomondan bo'lsa kerak. Ma'mur, garchand kelayotgan A'zamning razvedka yuborayotganidan, uning vazifasi Hojining xonadoniga yaqinlashib, Abulbaraka va uning do'stlarining xatti-harakatidan voqif bo'lib turish ekanini bilsa ham sermaishat, og'zi bo'sh boyga aytgisi kelmadi. Ishi tushib turadigan idoraning ra'yini qaytarolmagan zavodchi:

– Yaxshilikka bo'lsa qarshiligim yo'q, – dedi.

– Xotirjam bo'ling. Biz sizga yomonlik ko'zlamaymiz. Sizlarning manfaatingizni deb shu yerda o'tiribmiz. Yomonlikning qopqog'i – biz. Ana shundan keyin zavodchi fransuz yangi ishga kelgan injenerining o'zini Hoji bilan shundoqqina tanishtirib, sirni boy berishdan cho'chidi. Avvaliga u bilan uchrashganlarida A'zamning yo'q fazilatlarini oshirib, «Injenerga yolchib qoldim deb yurdi. Keyin uning Hoji kelgan tomondan ekanini aytib, qiziqirdi. Hoji: «Bir ko'rishadigan ekanmiz!!» degandan keyin boshqa bir narsani bahona qilib, bir juma uyida dasturxon tuzdi. Odatdagi mehmonlardan ancha-muncha kishilarni taklif etdi. Shu ziyofatda Hoji bilan A'zamnı qamti qildi. Keyingi yillarda razvedka ta'limini olib, o'zini tutib qolgan A'zam sipolik bilan suhbatlashib, boyning havasini keltirdi,

mehrini tovladi. A'zam papiros chekkani tashqariga chiqib ketganda Hoji fransuz do'stidan uni surishtirdi.

– Oilasi bilan kelganmi?

– Yo'q. Bo'ydoq ekan. Bir-ikki yil Parijda zavodda ishlabdi. O'zi yetim bola ekan.

– Yetim bo'lsa qiyin. Vaqtida uylana olmagan bo'lishi mumkin.

– Qari deyapsizmi! Endi yigirma sakkizga kiribdi. Hujjatini ko'rgandim.

– Yetim bo'lsa qiynalib o'sgan. Qiyinchilik kishini keksa ko'rsatadi. Tag'in ham pishiq ekan, ilmini bir yerga yetqizibdi. Boy uni quvvatladi:

– Ishiga puxta. Sal kunda qaddini ko'tarib ketadi. Bunaqalar jinday ko'makka muhtoj bo'ladi. Misoli ko'chat. Hojining xayolidan o'zining yangi ko'chib (to'g'risi, qochib) kelgan yillari o'tdi. Cho'ntagida shuncha mablag'i bilan garmselga uchragan niholdek hazilakam zahmat chekdimi! Shu fransuzga o'xshagan bir-ikki kishi tirgovuch qo'ymaganda bunchalik ildiz otib ololmasdi. Bu yigitning nimasi ham bo'lgan yonida! Tag'in ham uddaburo ekan, shunchalik qaddini ko'tarib, katta-kichik orasida o'z obro'yi bilan yuribdi. Bir narsaga ko'zi yetib, ishonganki, yurtini tashlab chiqqan. Hoji shunday mulohazada ekan, shu arab o'lkasida esini tanib, musulmon urf-odatlarini yaxshi biladigan, qachon bo'lsa, musulmonlarning sabr-liligini, qancha jabr tortsa ham xudodan ko'rib, qanoat bilan yashashini ma'qullab yuradigan fransuz boyi yana qistirib qo'ydi:

– Asli xo'ja ham bo'lsa kerak, zamona zayli bilan sho'ro siyosatiga qurbon qilganmi, ismidan olib tashlabdi. Bu ham Hojiga yoqdi: tagi asl ekan! Sovetdan dakki yegan Hojining xayolidan o'zining ko'rgan-bilganlari o'tdi: axir u ham «hoji»sini qanaqa qilib yo'qotishni bilmay qolmaganmidi! Uning nazarida A'zam katta, ba-

davlat, tagli-taxtli odamning farzandi. Qo'y ko'rmasa nam qiy ko'rgan Nazari baland. Uni o'sha asi xo'ja o'tgan ajoodlarining arvohi yor bo'lib, baxt yetaklab yuribdi. Lekin baxt bulog'ining ko'zi qayerdaligini bilmaydi. Shuni biror odam sal imo-ishora qilib yuborsa bormi, darrov u yog'ini o'zi jildillatib oqizib ketadi, nega shuni Hoji qilmaydi. Bir tomoni vatandoshi, savob bo'ladi. Bir tomoni... yo'q. kuyov qilishni halitdan mo'ljallasni yaxshimas. Ehtimol xotini bordir, xotini bo'lmaganda kishisi (o'ynashi, deyishga tili bormadi) bordir. Yo'q, bu tomonini hali qo'ya turay. Lekin o'zi kelishgan yigit ekan. Bittasi ilib ketib oolmasmikin?

Shu vaqt Hojining ko'ngliga A'zamni emas, qizi Tamannoni birov ilib ketayotgandek tuyuldi. U – oig'ir Qoplonbekka o'xshaydi. Shu kuni u ziyoratdan uyiga kelguncha goh A'zamni, goh Qoplonbekni o'yladi. ik-kisini taroziga soldi, o'lchadi. Qoplonbek chaqqonligi, so'zamolligi, tajribaligi bilan tarozi pallasini bosmoqchi bo'lsa, A'zam injenerligi, yoshligi, chiroyi va sipoligi bilan bo'sh kelmas edi. Borib-borib Hojining xayolida A'zam Qoplonbek turgan pallani laylak qilib yubordi. Qoplonbek kim? Aqli bilan emas, olg'irligi tufayli, tajribasi tufayli chaqqon. Sochiga oq tushib qolgan. O'ldimi shu yoshgacha chilla o'tirgan odamdek o'zini tiyib, uylanmay yurgan bo'lsa! Kim biladi, qayerda nechta harombachchasi chirqillab yotibdi. Shu tabiati bilan tinchgina yuroladimi? Undan keyin yoshi ham o'tinqirab qolgan. Yurt-eti ko'rgan, daydi. Xudo ko'rsatmasin, Tamannoga uylansayu, sal ko'ngli bo'lmasa, dunyoning qaysi burchagidan topib olasan uni. A'zamxo'ja bu boshqa gap. Hali yosh, ham tayin bir kasbi bor. Qayerga borsa xor bo'lmaydi. O'zi ham ko'rkamgina. Tamannoga ham, albatta, shu ma'qul bo'ladi. Asalari ham so'lgan guldan bol emmaydi. Kasbiga ham omil ko'rinadi. Bu quv fransuz bekorga maqtamaydi. Shu mahalgacha birorta odamni bunchalik

ma'qullab, tilga olmagan edi. Demak, yigitning o'zi epchil. Hammadan yaxshi tomoni shuki, uning Qoplonbeknikiga o'xshagan tanish-bilishi ko'p emas, Hojining davlatini talon-taroj qilavermaydi. Aksincha yoniga qo'snadi, bolalataadi, tishida tishlab shu xonadonga olib keladi. Bu yog'ini Hojining o'zi biladi. Har holda A'zamning tagi asl Xo'ja. Bir qon, bir tabaqa. Bu tomoni ham ma'qul. O'ylagan sari A'zamdanda fazilat, Qoplonbekdan nuqson topgan Hoji shu kundan boshlab, qizidan qutulish tashvishiga tushib qoldi. Tashvishga tushmay ham iloji yo'q edi. Bir tomondan qizining yoshi o'tib boryapti. Shu bir-ikki yil ichida uzatib qolmasa, qari qiz bo'lib, o'tirib qolish: mumkin. Keyin Hoji istamagan. rad javobini bergan bu erlik ba'zi bir xonadonlar emas, undan pastrog'i ham qaramay qo'yadi. Bora-borib xotini o'lib, bir-ikki bolalikkami yoki xotin qo'ygangami berishga majbur bo'lishi mumkin. Axir qiz bola ham chuchmo'maga o'xshagan narsa, fasli darrov o'tadi. Undan keyin Hojining qizini bu yerliklarga uzatish ra'yi yo'q. «Zamoni saodat» kelib yurtiga qayt-sa, ko'zining oqu qorasi yolg'iz qizi begona yurtda qolib ketadimi? O'z vatandoshiga bersa, qachon bo'lsa o'zi bilan birga. Shu o'ylar bilan bir necha kun boshi qotib yurgan Hoji, Qoplonbek jilpanglab do'koniga kelganda undan mehri sovib, A'zam ko'ziga issiq ko'ringan payt edi. Shuning uchun ham uni qizi ilinjida yurganini bilib. sal ko'krigidan itarib qo'rgan edi. Bu orada Saidakbar hoji besh-o'n kun yotib qoldi. Doktorlar biror narsa demagan bo'lsa ham Hojining o'zini vahima bosdi: xudo ko'rsatmasin, shu yotishida bu dunyodan nonu nasibasi uzilsa bormi, topgan-tutgani o'lda-jo'lda qolib ketadi. Abulbarakaning tabiati o'ziga ma'lum. Molu dunyo bilan ishi yo'q. Uning ishi boshqa. Ota uni chaqirib: «O'g'lim, mana bundoq yotib qoldim...» deb gap boshlagan edi. «Turib ketasiz. tashvishlanmang», dedi-yu. yonida

uzoqroq ham o'tirmadi: o'rtoqlari kutib turganmish, yig'inlari bor ekan. Bo'lmasa Hoji uni insofga chaqirib: «O'g'lim, issiq jonman. Yutganim o'zimniki, og'zimdagi omonat. Biron hodisa bo'lsa «undoq qil, bundoq qil», «falon joyda falonim bor», demoqchi edi. Yo'q, yaxshi kiydirib, shirin yedirib bino qo'ygan o'g'li parvo qilmadi. Shu ahvoli bo'ladigan bo'lsa, uning misqollab topganini qadoqlab sovurib tashlaydi. Ana shu kasallik ham Hojiga ibrat bo'ldi. Birinchi navbatda bironing xasmi bo'lgan qizidan qutulish kerak. O'zidan keyin biron kofir bilan topishib ketishi hech gapmas. (Hojining xayoliga qizi oshig'u shaydo bo'lgan fransuz yigit keldi). Undan keyin Tamannoni kim bu yo'ldan qaytaradi. O'g'liga qolsa-ku, kim bo'lsa baribir. Har kim ko'ngli tortgan oshni icharmish. Tavba. Hoji o'z halol pushtidan bo'lgan o'g'lining shunaqa chiqqaniga turib-turib ishonmaydi. O'ziga insof bermasa qiyin!

Bo'yi bo'yingga teng bo'lgandan keyin urib bo'lmasa, so'kib bo'lmasa! Juda, juda qiyin!

Saidakbar hoji hammasini obdan muhokama qildi, o'lchab tortib, qirqib shu qarorga keldi: A'zamxo'jani kuyov qiladi! Ko'zi ochig'ida uni o'z yo'l-yo'rig'iga soladi, tobiga keltirib pishitadi, past-balandni ko'rsatadi, o'z doirasiga olib kiradi. Vaqtiki bitib, ko'zini yumsa, xumdagi xumda, sandiqdagi sandiqda turaveradi. Ishni A'zamni kuzatishdan boshladi. Turli bahonalar bilan fransuz do'stidan surishtirdi. Uning: «O'zi tinchlikmi, juda eslab qoldingiz?» deganiga labini sirli qisib, «Keyin aytaman!» dedi. Birikki uchrashib suhbatlashdi. Do'koniga taklif etib, ishlari bilan tanishtirgan, uning bu ishlarga munosabatini sinagan bo'ldi. Ketishida endi rasm bo'lgan bir juft chiroyli tuflini «Qadamingiz xayrli bo'lsin. Mana qadrdon bo'lib qoldik, siz qayoqda-yu, biz qayoqda edik!» deb qo'ltig'iga qistirdi. Orqasiga odam qo'yib yana yurish-turishini

surishtirdi: risoladagi yigit. Lekin sal sho'xroq emish. Bu ham Hojiga fazilat bo'lib ko'rindi: yoshligida kim sho'x bo'lmabdi! Yigitning lattasidan o'zi asrasin! «Dasturxonga qarang!» desa, «Nimadan yeyayin!» deb o'tirsa bundan xunugi yo'q. Undan keyin qiziga shunaqasi yoqadi. Vaqt o'tishi bilan hovridan tushib qoladi. Mana bugun Hoji A'zamni uyiga taklif etgan. Aziz mehmon keladigandek betinch. So'nggi kunlarda tez-tez tobi qochib, kayfiyati buzuq Qurbonali bandiga yog'och o'rnatilgan «erkak» supurgisini sudrab kulbasidan chiqib kelar ekan, Hoji hovlining hali ham supurilmaganidan nolib qoldi.

Qurbonali so'nggi kunlardagi odatini qilib, bir uzib olay dedi-yu, yana: «Mehmon keladigan kuni yaxshimas. Mehmon atoyi xudo», deb bu shaxtidan qaytdi:

– Hovlini hadeb qirtishlayverish yaxshi emas. Davlat xas-cho'pga o'ralishib kiradi, Hojim. Hoji «ha, huv!» deganicha ko'nglini topganidan xursand ichkariga kirib ketdi. Toshoyning oldiga o'tirib, mo'ychinak bilan soqol-mo'ylovining haromzada tuklarini yuldi. Achishgan o'rnini qo'li bilan silab, soqolini jinday xinalab ham qo'ydi. Tamanno otasidagi bu o'zgarishni ko'rib, tegishdi:

– Yosharib ketibsiz, dada. Shu mahal oyim ko'rganlarida edi... Yo uylanasizmi?

– Oh, qizim, onang rahmatlikka o'xshagan xotin qayoqda endi! Biz o'tdik, endi navbat senlarniki. Sendan ham qutulib olsam, o'lsam armonim yo'q edi: qabrimda oyog'imni uzatib yotardim.

– Mening tashvishim shunaqa zo'rmi, bilmabman-a! – yana kulgiga olmoqchi bo'lgan edi qizi, Hoji jiddiy salmoqladi:

– Ota bo'lmaguncha ota qadrini, ona bo'lmaguncha ona qadrini bilmaydi kishi, qizim. O'z vaqtida o'g'il uylantirib, qiz chiqarmoq ota-onaning Ollo taolo oldidagi qarzi. Bu qarzni qandoq qilib u dunyoga olib ketaman? Xudo

oldida nima deb javob beraman? Sen bo'lsang, tushunmaysan, qizim, qari otangni kulgiga olasan. Mening senu akangdan boshqa kimim bor. Senlarni deb, senlarning ertangni o'ylab o'tga kirib, suvga sho'ng'iyman. Bo'lmasa mening bitta boshimga hech narsa kerakmas. Men ko'radiganimni ko'rdim, yeydiganimni yedim. Xudoga shukur, bir odamcha obro' orttirdim, davlat topdim. Endi senlar tinch bo'l deyman. Akangning ham ba'zi ishlari-dan xursand emasman. Mayli, ishqilib, omon bo'lsin, orqamda qolsin. Bir kuni esi kiradi, ota bolasi emasmi! Sen ham, qizim, jamalak soch emassan, katta bo'lib qolding, oq-qorani ayirding. Endi men bir narsa desam, «xo'p!» de. Nahotki senga bir tikanni ravo ko'rsam! Kim o'z ko'ziga cho'p tashlabdi! Tamanning esiga otasining keyingi kunlarda shu haqda ko'p gapirishi, qandaydir hamshahar yigitini bot-bot tilga olishi tushdi. Bir kuni bir o'tirishdan: «Yoshgina bir hamyurtimni uchratdim!» deb quvonib keldi. Bir oz vaqt o'tgach: «Es-hushi ham joyida. Injener. Bu shaharda nechta musulmon injener bor!» deb chertib qo'ydi. Bir oyachadan keyin: «Gap-so'z-lari bir ma'noli, murda eshitsa tiriladi, Xudo berarkan desa, hech gap emas ekan», deb havasi keldi. «Sen tanimaysan-a, qizim, o't-bo'tda ko'zing tushgani yo'qmi?» deb uni qiziqitirdi. Kechagi juma: «O'sha hamyurt yigitni mehmonga chaqirsam, sen nima deysan qizim?» dedi. Mana bugun u kelyapti. Demak, otasining bugungi gap-larini mana shularga qo'shib o'ylaganda chiqadigan ma'no kunday ravshan. Otasi bu gapu, bugungi o'tirishni bekorga qilayotgani yo'q.

Hammasini fahmlagan Tamanno hozirgina yuragini ochib tashlagan otasining xinalangan soqoliga, u dunyoga kelmasdan oldin nima bo'libdir chandiq bo'lib qolgan chap ko'zining jiyagiga qaradi. Mo'ychinakdan o'rni qizarib turgan yuzlarda, xomush ko'zlarda, ma'sum

turishda kishining rahmini keltiradigan nimadir bor edi. Undan keyin Tamanning o'zi ham avvalgi, Parijda ochilib-sochilib, muhabbati bilan yashnab yurgan qiz emas. Ilk muhabbati xazon bo'lgan, achchiq alam-lari unutilgan. Endi uning kimga tegishining farqi yo'q. U kim bo'lmasin, baribir Reneday sevolmaydi, Rene bo'lolmaydi. Boshqa bir muhabbatni kutishi amrimahol, bo'lmaydi ham. Modomiki, shunday ekan, jilla bo'lmasa, otasining ko'nglidagi ish bo'lsin, otasi xursand bo'lsin. Akasidan noroziligining o'zi ham qariganda unga yetadi. Buniki ortiqcha. Gunohi otaligimi!

Muhabbati so'nib, aqli bilan ish tutadigan bo'lib qolgan Tamanno, sovuqqina qilib otasiga yon bosdi:

– Sizga qarshi bir narsa deyapmanmi, dadajon! Kaftingizdagi bir hovuch suvman, istasangiz tuproqqa soching, istasangiz gulga quying.

– Barakallo, qizim. Boshing oltin bo'lsin. Sening shunday deyishingni bilardim. O'g'ildan ko'ra qiz ota-onaga mehribon bo'ladi. Mehribonimsan. Tobutim tepasida sochini yulib yig'laydiganim – sen! Davlatimning yarmi seniki. Men seni shunday baxtli qilayki, do'st-dushman ko'rib, ichidan kuysin. Barakallo, qizim. – Hoji ko'zida yoshi bilan qizining ikki chakkasidan ushlab, a'lo nav atir burqib turgan boshidan o'pdi. Tamanno o'z xonasiga chiqib ketar ekan, Hoji:

– Shu yerda bo'l, xo'pmi, qizim! – deb qoldi. «Xo'p!» javobini eshitib yana xotirjam bo'ldi. Aytilgan vaqtga soat-minutini to'g'rilab A'zam kelganda Tamanno o'z xonasida xazon bo'lgan muhabbatiga jinday aza tutib, taqdirga tan bergan edi. Shuning uchun oqsoch xotin mehmon kelganini xabar berganda u yasanib-tusanib, a'lo nav atirlarni burqsitib chiqib bordi. Bu xonadonda shunday bir qiz borligini Parijda o'z xo'jayinlaridan eshitgan, hatto bu haqda ma'lum yo'l-yo'riq olgan A'zam butun bilgan

odobu iffatini ishga solib Tamannoga peshvoz chiqdi, izzat-ikrom bilan so'rashdi. U o'tirmaguncha hurmatini saqlab tik turdi. Qizning:

– Xush kelibsiz? – deganiga boshini odatdagidan ko'ra quyi-roq egib tashakkur bildirdi. Suhbat turli mavzularda chalg'ib turdi. Ba'zan Hoji nimanidir bahona qilib, ularni yolg'iz qo'yib chiqib ketdi. Tashqarida ishi bor kishidek hovlini aylanib keldi. Xizmatchiga zarur bo'lmagan topshiriqlar berdi. O'z qo'li bilan Qurbonaliga ovqat olib chiqdi. U bilan o'tgan-ketganlardan ezmalandi. Uning so'nggi vaqtlarda fe'li aynib qolganini ishora qilib:

– Bandasiga shukronalik kerak. Suyuq loyga o'xshab betga sachrayverish yaxshi emas. Shamni puflasa o'chadi, cho'g'ni puflasa yonadi. Sabr tagi rahmon, – dedi. Qurbonali ham to'lib turgan ekan, to'kib soldi:

– Sabr bundan ortiq bo'lmaydi. Sabr bilan yerga tushganni yeb, eski kiyib, shu kunga keldim.

– Ana shu gap ham insofdan emas, – uni qayirdi boy ranjib.

– To'g'ri, boy, puli borning ishi o'ng, puli yo'qning gapi to'ng. Bizning gap albatta sizga malol keladi, yaxmalakdagi xirpi oshiqday sirg'anmaydi.

– Gap boyu kambag'allikda emas, peshanada. Har kim o'z peshanasida yozilganni ko'radi. Gap insofda. Insof – yarim imon.

– Ochig'ini aytaymi, Hoji? Mening imonim o'sha bola-chaqam, o'sha tug'ilib o'sgan yurtim. Dardu armonim ham shu, fikru imonim ham shu! Darmonim yetsa piyoda bo'lsa ham jo'nab ketardim. Bu vatangadolik juda jonga tegdi. Nima ko'rdim dunyoga kelib?

– Bu dunyoda ko'rmasangiz, u dunyo bor, noshukur bo'lmang. Xudoyo xudovando u dunyosidan mahrum qilmasin! Oldiga o'pka tashlab, qo'li yetmas tog'dagi quyruqni va'da qilayotgan xo'jayinidan kufuri qaynagan

Qurbonalining tepa sochi tikka bo'ldi. Uning ko'nglida intizorlikning olovi so'nib, kuli qolgan edi, baralla sochdi:

– Menga ming kunlik jannatdan bola-chaqam bilan o'z yurtimda o'tgan bir kunim yaxshi! Jannat o'sha bola-chaqam faryod urib qolgan yurt, kindik qonim to'kilgan, ota-onamning arvohi charx urib yurgan yurt.

– Bo'lmasa, keting! – achitdi Hoji.

– Yo'lni bilsam, kuchim yetsa qani edi!

– Yurtingizdagilar oshib-toshib ketmayotgandir! Siz ko'rgan u omborlarda sichqon hassa tayanib yurganmish.

– Qora nonga qorni to'q bo'lsa ham, o'z uyi – o'lan to'shagida. Urug'-aymog'ining oldida. Men-chi? Men nima-yu, daydi it nima! Bugun kayfiyati yaxshi bo'lgan Hoji xizmatkorini vazminlik bilan yengmoqchi bo'ldi.

– Kufur gapirmang, Qurbonali, birov eshitsa uyat bo'ladi.

– Nega uyat bo'ladi? Vatanfurushlik uyat, g'arlik, o'g'irlik uyat. Yurtini sog'inish ayb bo'libdimi? Qachondan beri? Yo'q! Ko'r ko'z yoshi qonimni ko'rguncha, garang faryodimni eshitguncha yig'layman. Toki bu nodon yo'lga birov kirmasin. Ahmoqning zo'ri bir yerga ikki qoqiladi, Xudoga shukur, men ahmoq emasman! Ko'r ko'zim ochildi, soqov edim til bitdi. Saidakbar hoji bildiki, hozir Qurbonaliga so'z uqtirib bo'lmaydi, imoni sachrab turibdi. Ichida: «Shahar ko'rgan echkidan qo'rq!» deganicha asta chiqib ketdi. Nafratidan titrab turgan Qurbonali uning orqasidan g'arib kulbasining eshigini zarda bilan yopgan edi, «yo'rg'a» bo'lib qolgan eshik yana ochilib ketdi. U alamidan Hojiga titrab-qaqshab qarg'adi.

– Bu dunyoga u dunyo qo'lim sening yoqangda! Meni vatangado qilmay bekafan ket. O'liklaringni it yesin! Ko'z yoshlarimning uvoli tutsin. O'tgan haqlarimga asti rozimasman!

U ho'ngrab yig'lab yubordi. Iliq ko'z yoshlari oppoq soqoliga duv to'kildi. Uning qarg'ishini eshitmasa ham, suhbatdan tabiati xira bo'lgan Hoji kirib borganda Tamanno bilan A'zamning suhbatlari chortang edi... Sertakalluf Hojining so'zini «yerga tashlolmagan» A'zam ertasiga ham keldi. Indiniga ham... Bir hafta o'tgach ham... Bir kelsa, Tamannoning o'zi yolg'iz. Xuddi bir mahal Simonada ko'rganiday badanga sirib tiqilgan shim va koftada. Butun qaddi-qomati: «Ko'r, havasing kelsin, men shunaqa chiroyliman», deb turibdi. O'zini zo'rlab, to'g'risi, boshqalarning maslahati va uqtirishi bilan sipo tutib yurgan yengiltabiat A'zamning ko'zi tinib ketdi. Og'ziga shirin narsa olgandek tamshandi. Xayoli qochib, salom-alikni ham yarimta qildi.

– Kechirasiz, – dedi Tamanno o'zining shu holatdiligidan uyalgandek, – bir o'rtoq'im kelgan edi, tennis o'ynagani chiqqan edim.

Lekin u kirib ketmadi, kiyimini almashtirmadi. A'zamning yonida yurib suhbatlashdi. Uy-joylarini ko'rsatdi. Uning gapiga emas, o'ziga mahliyo bo'lib yurgan A'zamning xayolidan boshlig'ining kecha bergan yo'l-yo'rig'i o'tdi. «Boshlanishi yaxshi. Endi temirni qizig'ida bosing. Modomiki, qiz sal moyillik bildirgan ekan, butun ixtiyorini tortib olish kerak. Hojining niyati bizga ma'lum. Qani bo'shashmang!» A'zamning bir narsadan sal ko'ngli to'lmas edi: Tamanno u kutganday chiroyli emas! Lekin boshlig'ining uqtirishi, o'z joni ko'ziga shirin ko'rinib darrov bu fikridan qaytdi: chiroyli qaddi-qomati bilan yaxshi kiyim husnining nuqsonini yopib ketadi! A'zamning ko'zi bir mahal ayvonning naqshdor ustuniga chiroyli qilib bog'lab qo'yilgan bir bog' isiriqqa tushib qoldi. Zamona uslubida solingan dabdabali binoga u yarashmayotgandek ko'rinib, Tamannodan so'radi:

– Bu nima?

- Isiriq.
- Siz bog‘lab qo‘yibsizmi?
- Yo‘q. Dadamlar. U kishi shunaqa irim-sirimni yaxshi ko‘radilar.
- Siz-chi? – tegishgandek dedi A‘zam.
- Dadamning qizi bo‘lganimdan keyin men ham yaxshi ko‘raman-da.
- Demak, kim sizni yaxshi ko‘rsa, u ham buni yoqtirishi kerak ekan-da.
- Bo‘lmasam-chi – jilpangladi qiz.
- Unda bugundan boshlab men ham yaxshi ko‘rdim.
- Avvallari yomon ko‘rarmidingiz?
- Bunisini bilmadim. Yaxshi ko‘rmagan bo‘lsam kerak. – Ikki juft ko‘z bir-biriga tikilib qoldi. Har biri o‘zgasining ko‘nglini uqlib turardi... Kechqurun Hoji: «Bugun A‘zam kelibdimi?» deb Tamannodan jo‘rttaga so‘ragan edi, u qizarib ketdi. Shundan bildiki, u niyat qilgan va yo‘lga solgan ish pishibdi. Shu kundan to‘y tayyorligini boshlab yubordi. Lekin ko‘ngli xijil. Bir baxtsizlikni kutayotgan odamdek ko‘ngliga chiroq yoqsa yonmaydi. Nega? Sababi bor edi. Bu sababni hali Hoji bilmasdi, xolos.

24

FOJIA

Qoplonbek o‘zining Saidakbar hoji tomonidan do‘konida sovuq kutib olinganini ishi ko‘pligi va qistalangligiga yo‘yib yurgan edi. Undan keyin uyida ham unchalik royish bermaganidan hayron bo‘ldi. Yana bir uchrashdi. Yana o‘sha ahvol. Buni birga ishlayotgan do‘stlaridan yashirolmadi. Bittasi miyig‘ida kulib:

- Anavi injener yigitni taniysanmi? Elating, – dedi.
- A‘zammim? Xo‘sh? – bir xunuk xabarni sezayotgandek entikdi u.
- Sening yo‘lingga tosh tashlab yurgan o‘sha.

– Yo'g'-e!

– Ana xolos. Bir niyati bo'lmasa, kunda Hojinikida bez teradimi?

Qoplonbekning ustidan bir chelak sovuq suv quy-gandek bo'ldi. Hojini bo'ralab so'kib, o'zini shundan bexabar, go'l bo'lib yurganidan ajablandi. Yana aniqlab ketdi:

– Tamannoga uylanmoqchimi?

– Buni endi o'zidan so'raysan, do'stim. Bizga maslahat solgani yo'q.

– Boshlaganingdan keyin oxirigacha, ayt-da, nomard. Qoplonbekning jahli chiqqanidan bir o'rtog'i kuldi.

– Qiziqsan, Bek! Qizidan umidvor bo'lmasa, yosh yigit u xonadonda Hoji bilan fol ochishadimi?

Qoplonbekning hushi o'ziga keldi: rost-da, A'zam u yerda nima qiladi; Hojiga teng bo'lmasa, Abulbaraka bilan o'rtoqligi bo'lmasa... Albatta Tamannoning ilinjida yelib-yuguradi-da!

Bu fikr uni o'tmas pichoq bilan so'yganday alam qildi. Unda rashk olovi yondi. Faqat rashk emas! Axir uni bu shaharga yuborar ekanlar, unga yuklatilgan vazifalardan biri Hojiga yaqinlashish emasmidi! U bu shahardagi ko'p qulflarning kaliti-ku! A'zam Tamannoga uylansa, u uchun bu xonadonning eshigi avvalgidek vaqt-bevaqt ochilavermaydi. Demak, bir tomondan topshiriqni bajarmasdan polkovnik Klarkdan gap eshitsa, obro'yiga, qolaversa, cho'ntagiga putur yetsa, ikkinchi tomondan kechagina ko'ziga naqd bo'lib ko'rinib turgan davlatdan, ya'ni Hojiga kuyov bo'lish, shu tufayli qo'lga kiradigan davlatdan mahrum bo'ladi. Uning hazilakam rejaları bormidi! Nahotki, hammasi yelga uchadi? Kim tufayli? Bir mishiqi, kechagina yurtidan qochib kelgan yengiltak tufayli! Yo'q, bunga yo'l qo'yolmaydi! Qarab, ko'rib turib, nahotki shu boladan tarsaki yeb qolaversa! Ishtondan

lipa, ko'ylakdan yoqa qolguncha olishadi! Yo u, yo o'zigina bu tuproqda yurishi kerak!

Qoplonbek qanchalik kuyib-yonib, o'z yog'iga o'zi qovurilmasin, bu yerdagi boshlig'ining:

– Papirosni labga qistirmasdan gugurt chaqmang! – degan maslahatiga quloq solishga majbur bo'ldi. Bu surishtirdi, ular ham kuzatdi. Qoplonbekning shubhasi to'g'ri chiqdi: ish pishib qolgan. Hojinikida to'y tayyorligi ketyapti. A'zam ham bir sirdosh o'rtog'iga: «Bu daydi yurishlar yaqinda barham yeydi. Xo'roz bo'lib, tuxum bosamiz», debdi. Demak, Qoplonbekning sovuq kutishlarining sababi aniq. Uning yonganicha bor! U o'tirishi lozim bo'lgan to'rda A'zam o'tiribdi. Unga suzilgan oshni A'zam yeyapti. Unga atalgan davlat, obro'y uning qo'liga o'tib ketyapti. Bunga shuncha vaqt ilhaq bo'lgan Qoplonbek asti chidamaydi, chidolmaydi!

U reja tuzdi. A'zamning o'zi bilan gaplashishi befoyda. U ham og'zidagi oshini birovga berib bo'pti! Bitta yo'l bor: oradan uni ko'tarib tashlash!

Qanday qilib? Endi shuning rejasini tuzdi. Bir-ikki kun boshi qotib yurdi. Haddi sig'adigan do'st-yoriga maslahat soldi, fikrini aytdi.

– A'zamning bu yerda kimi bor? – dedi bir o'rtog'i.

– Hech kimi bo'lmasa kerak. Shu yil paydo bo'lib qoldi o'zi.

– Yo'q, aniq bilish shart.

– Sabab? – hayron bo'ldi Qoplonbek.

– «Qo'shnisi baquvvatga tegib bo'lmaydi!» degan gapni eshitganmisan. Eshitgan bo'lsang, bo'pti! Qoplonbek darrov surishtirdi: birga ishlashadigan tanish-bilishidan boshqa hech kimi yo'q.

– Mana bu boshqa gap, – dedi o'sha o'rtog'i buni eshitib va Qoplonbekning ko'ngliga umid uchquni tashladi.

– Endi bermalol kirishsak bo'ladi. Qoplonbek shu sirdosh o'rtog'ining maslahati va bu ishdan manfaatdor polkovnik Klarkning roziligi bilan bir kuni ikki-uch o'rtog'iga yaxshigina eridi. Shu uch-to'rt kishi uning bag'riga kirib, A'zam masalasi shu kuni uzil-kesil hal bo'ldi. Bir haftadan keyin politsiya qop-qora qoniga belangan behush A'zamni shahar chetidagi jarlikdan topdi...

«La'nati, tagi past, bola-chaqasi bor ekan shekilli gumdon bo'ldi», deb nomusdan yonib yurgan Hoji, bu hodisani eshitib, yoqasini ushladi. G'irillab u yotgan kasalxonaga bordi. Doktorlarga uchrashdi. «Umid yo'q. Yana kim biladi... Yosh... A'zoyi badani dabdala bo'lib ketgan» degan javob oldi. Hech kim nima bo'lganini bilmaydi. Har kim o'zicha bichib-to'qiydi, faraz qiladi. Politsiya islash bilan ovora. «Yaxshiyam shoshib fotiha qilib qo'ymaganim. Ana unda sharmandalikni ko'rardim», deb o'z aqliga hasanot o'qigan Hoji, kuygani ham, kuy-magani ham noma'lum qiziga: «O'zini sayoqroq, betartib yurardi, deb eshitgandim. Qilmishidan topdi shekilli!» deya ko'nglini ko'tardi. Tamanno shundoq ham ortiqcha tashvishlanayotgani yo'q edi. Shunday qilib, yopiq qozon yopig'icha qoldi...

...Endi Hojining umidi kechagina ko'ziga o'tirsa o'poq, tursa so'poq ko'ringan Qoplonbekdan edi. Hojining xuddi shu niyatini bilganday Qoplonbek yasanib-tusanib, og'zi to'la kulgi bilan hech narsadan xabari yo'q kishidek kirib keldi.

– Yaxshi o'tiribsizlarmi, Hoji ota? – deb ikki buk-chaygancha qo'lini olib, oltin uzukli barmoqlarini siqdi. Tamannoga arzimas sovg'a olib kelganini aytib, bir zontik uzatdi.

– Yangi chiqqan: ham yomg'irdan asraydi, ham yomg'ir suvini o'ziga yig'adi.

– Ie, qanday qilib? – qiziqdi Tamanno.

Xuddi shunday savolni kutgan Qoplonbekda jon bormi! Darrov ochib ko'rsatdi, maqtovini qildi.

– Suv dastasida to'planadi.

– Voy, qanday yaxshi! Suvni nima qilinadi?

– Ana xolos! – dedi Qoplonbek Tamannoning juda muhim bir narsadan bexabar kishidek hisoblab. – Yomg'ir suvining foydasini bilmaysizmi?

Mo'jiza-ku. Hamma biladi, ayniqsa, yapon xotin-qizlari juda qadriga yetishadi. Bu kashfiyot ularniki. Qoplonbek hayrat bilan o'ziga termilib turgan, kechagina shunday suhbatidan mahrumdek tuyulgan qizning jamoliga to'yimoqchi bo'lganday so'zining yakunini atayin cho'zdi, qiziqtirib bordi. Oxiri:

– Yomg'ir suviga hech bosh yuvmaganmisiz? – dedi.

– Yo'q.

– Attang. Juda yaxshi bo'ladi.

– Siz erkak odam buni qayoqdan bilasiz? – noz qilgandek bo'ldi Tamanno. Xuddi shu yo'sinda u ham javob qildi:

– Buni bilish uchun xotin kishi bo'lish shart emas! Qoplonbek o'z antiqa sovg'asining fazilatini to'la-to'kis namoyish qilish uchun qizdan dushning qayerdaligini so'radi.

– Hammomning yonida.

– Yuring sinab ko'ramiz. Qani, qancha suv yig'arkin?

Zerikib o'tirgan Tamanno uning oldiga tushdi. Ular dushxonaga kirishi bilan Tamanno sho'xlik qilib, birdan kranni burab yubordi. Chirsillab otilgan suv hamma yoqqa sochildi. Qoplonbek hozir javoblik bilan zontikni ochib, ostida kulib turaverdi:

– Ana, o'zingiz iviydigan bo'ldingiz, – dedi qizga tegishib.

– Men uyimdaman. Ivisam boshqa kiyimni...

– Men ham uyimdaman! – dedi Qoplonbek alohida ma'no berib va suv zarralari orasidan qizni kuzatdi: qani

nima derkin? Tushunarmikin? Tamanno tushundi. Sal qizardi. Bo'sh kelmadi.

- Qachondan beri?
- Siz rozi bo'lgandan beri!
- Men rozi bo'libmanmi?

– Rozi bo'lasiz degan umiddaman. Nahotki mening nima ilinjida ostonangizni siyqa qilib yuborganimni bilmasangiz! – u darrov dushni to'xtatdi. Tamannoga yaqinlashdi. – Uvolimga qolasiz, Tamannoxon! Men sizni jonimdan ham ortiq yaxshi ko'raman. Og'zingizdagi bir qultum suvman, istasangiz, qult etib yutib yuborasiz, istasangiz tupurib tashlaysiz. Lekin menga jabr qilmang.

– Shuncha dardingiz bor ekan, shu vaqtgacha qayerda edingiz?

– Nima, kechikdimmi? – jo'rttaga gumonsiradi Qoplonbek.

– Kechikishingiz mumkin edi.

Ikkisi ham gap nima haqida borayotganinn tushundi. Lekin na Tamanno izoh berdi, na Qoplonbek surishtirdi.

– Yo'g'-e!

– Ha. A'zam bundoq bo'lib ketmaganda...

– Unga nima qildi? Sizga uylanayotganmidi? – endi eshitayotgan odamdek bezovtalandi.

– Eshitmadingizmi? Butun shahar biladi-ku.

– Yo'q.

– Jordan behush topib kelishibdi. Doktorlar umid yo'q deydi.

Hamma gapdan xabari bor Qoplonbek tirikligidan xavotir olmasdi. O'lmasdan qolganda ham, baribir A'zam o'zini kim jarga o'lasl qilib tashlaganini bilmaydi. Puxta ishlangan. Shunday bo'lsa ham, unga rahmi kelgandek achindi:

- Kim qilibdi, ushlandimi?
- Yo'q. Hushiga kelib o'zi aytib bermasa.

«Aytib berib bo'пти», deb ko'nglidan o'tkazgan Qoplonbek, – bechora, yaxshi yigit edi, – dedi o'kinib.

– Siz uni tanirmidingiz?

– Bir joyda bir ko'zim tushuvdi. O'zi bizning tomondan shekilli? – bamaylixotir dedi Qoplonbek. Lekin yuragida hayajon bor, uni ehtiyot bilan bosib turardi. Qoplonbek bundoq qarasa, oraga jimlik tushib, uning yuragidagi mudhish to'lqin yuziga tepishi, Tamanno ko'ngliga soya tashlab qo'yishi mumkin. Odatdagi epchilligini qilib, gapni uyg'ur lag'moniday eshib ketdi. Aylantirib yana zontikka olib keldi:

– Ha, aytganday buni ochib ko'raylik, qani qancha suv to'planganikin?

– Voy, bir talay bo'larkan-ku! – dedi Tamanno jomdagi suvni ko'rib.

– Axir bir bosh yuvishga yetishi kerak-da! – uni quvvatladi Qoplonbek.

– Vo, menikidan ortib ham qoladi! – Tamanno kalta kesilgan mo'mdek qop-qora sochini ko'rsatdi.

– Ortib qolsa, men bor-ku.

– Siz ham yuvasizmi?

– Yuvma desangiz, yuvmayman. Siz nima desangiz – shu. Sochimni emas, boshimning ham ixtiyori sizda.

Turgan-bitganim sizniki!

– Muncha saxiysiz!

– Bu saxiylik emas, Tamannoxon, muhabbat, butun vujudimni jahannam o'tiga solib yotgan muhabbat. Ishoning!

Bechora qiz ishondi. Buning ustiga bir hafta keyin sodir bo'lgan bir voqea Qoplonbekning mavqeini Hojining ko'zi oldida juda ko'kka ko'tarib yubordi. Hojining ancha yerga gap-so'zi o'tadigan, boobro', maslahatgo'y qadrdon do'sti to'satdan vafot etib qoldi. Ikkisining munosabatidan yaxshi xabardor Qoplonbek u odamnikiga Hojidan avval

kirib bordi. Ko'zida yosh bilan qo'l qovushtirib turdi. Hoji ko'rinishi bilan unga ikki bukchayib salom berib, ketidan ergashdi, o'lik yotgan uyga kirdi. Qadrdon do'sti bilan kuyib vidolashayotgan Hojining yonida: «Ajoyib odam edilar. Bunaqa pokdomon odam, bunaqa jannati odam dunyoga kam keladi», deb piq-piq yig'lab turib, birdan hushidan ketdi. Uni zo'rg'a suwab qolishdi. Eshikka olib chiqib, yapasqi olma tagidagi karavotga yotqizishdi. Yugur-yugur bo'lib qoldi. Doktorlarga: «Yaxshilab qarang. Bechora juda kuyib ketdi. Marhumni astoydil yaxshi ko'rar ekan», deb tepasida turgan Hoji, shu lahzadan boshlab unga juda mehri oshdi. O'zining shu vaqtgacha yaxshi odam tanimaganidan ichida o'kindi. Qoplonbek atrofida girgитton bo'layotgan bechora tibbiy xodimlar unda hushdan ketgudek bir belgi topolmay garang edi!

Chindan ham ular haq edi. U yo'lini qildi. Qoplonbek bildiki, o'lik ertaga, jumaga chiqariladi. Bugun tushdan keyin esa, u qo'shni shaharga zarur ish bilan uchib ketishi shart. Shuncha «jon kuydirib» turgan odamning janozada ko'rinmay qolishi yaxshimas. Ayniqsa, Hoji oldida. Ayni uning qo'yniga kirib, ko'nglini oladigan payt...

Bu uydan o'likdan oldin Qoplonbek chiqdi: Hoji boshliq ikki tibbiy xodim: «O'ziga kelsa ham, juda darmonsiz» Qoplonbekni qo'ltilqab chiqib, mashinaga o'tqazdi...

Bir soatlardan keyin u bir stakan konyakni bezakuska urib, samolyotga chiqdi. Shu kundan boshlab Hoji ikki til bilan gapirdi: A'zamni bilgan, unga to'y bo'lishidan xabardorlarga «Ne chora! Ko'rgilik ekan!» dedi, bexabarlarga o'sha to'y tayyorligi shu Qoplonbekka ekanini aytib, ba'zi bir sabab bilan tutilib qolganini izohladi. To'yning A'zanga bo'layotganidan fe'li o'ziga ma'lum otasining ra'yiga qarshi borolmay g'ijini yurgan Abulbaraka, Qoplonbekni eshitib jig'ibiyron bo'ldi. Endi bardosh berolmadi. To'g'ri otasining xonasiga kirib bordi.

– O‘zi nima gap? Yana to‘y hozirligimi?
– Xo‘sh, nima qilibdi? – pinagini buzmadı Hoji.
– Bittasining boshini yedinglar. Yana bittasini...
– Nega biz yeymiz? – uning so‘zini bo‘ldi ota.
– Shu fojiaga Tamanno sabab emas deb o‘ylaysizmi?
– Albatta. Unda nima ayb. O‘z qilmishiga yarasha topdi.

– Yo‘q. Ochiq aytolmayman-ku, lekin qandaydir bog‘lanish bo‘lishi kerak. Buning to‘y arafasida bo‘lishi bejiz emas. Hojining xayoli Abulbaraka yo‘llagan tomonga sal chayqaldi-yu, oqmadı. Uning ko‘ziga qizining taqdiri ko‘rindi.

– A‘zamga rahming kelyaptimi? – dedi o‘g‘liga qochinıq qilib.

– Nimasiga rahmim keladi! U vatanfurush bilan ham-tovoqmidim! Dunyoda bitta iflos kamaysa kamayipti-da! Mana bu keyingisidan jonim chiqyapti. Bir vatanfurush, tuzluq bulg‘arning ızı yo‘qolmasdan ikkinchisini uyning to‘riga chiqaryapsiz. Nahotki Tamannoga tuzuk bir odam topilmasa!

– Nima, o‘sha fransuz yaxshimidi? – jerkidi Hoji.

– Albatta. Bu muttaham yaloqilardan uning o‘lsa o‘ligi ortiq! Boshini silagan, yuvib-taragan elu yurtini bilmagan vatanfurush vafoli er, mehribon kuyov bo‘larmidi. Hech ham! Oshingizni yeb, tovog‘ingizni boshingizga urib sindirib ketmasa deyman.

– Shuncha aqling bilan o‘zingning qilib yurgan ishingini bilaman, o‘g‘lim. Balanddan kelaverma. Bir xotinni ep-lab, yo‘lga solib ololmading.

– Meniki boshqa gap. Sevmaganni zo‘rlab ushlab turolmayman.

– Ikkita bolalik bo‘lganda-ya!

– Ha.

Hojining nafasi ichiga tushib ketdi. Abulbaraka bir mahal otasi arab, onasi fransuz bir qizga uylangan

edi. Muhabbat bilan boshlangandek bo'lgan turmush bo'zchining ipiday tarang tortilib-tortilib oxiri uzilib ketdi. Ikkita bolalik bo'lganda xotin uni sevolmasligini aytdi, onasining oldiga, Parijga jo'nab ketdi. Abulbaraka zo'rlab uning yo'lini to'sib, qo'lini tutmadi. Aeroportga olib chiqib kuzatib qo'ydi. Mana shunga ham ancha yil bo'ldi. Na u bilan yarashadi, na boshqaga uylanadi. Uning dardi ichida edi: u, o'sha xotinni hamon sevardi!

– Xo'sh, endi nima demoqchisan menga? – Hoji bu gapni «o'zingga en bo'lmagan, birovga bo'y bo'lasanmi» degan bir tarzda aytdi. U kaftini kaftiga ishqalar ekan, so'l qo'li barmog'idagi oltin uzugi yiltillab ketdi. Bu uzukning ko'zi o'rniga chiroyli qilib «Rostin rustiy»⁴ deb yozib qo'yilgan edi. Hoji bu xatni endi ko'rayotgandek boqib qoldi. Abulbaraka pisand qilmasdi. Niyatini ochib soldi:

– Xoh xafa bo'ling, dada, xoh xafa bo'lmang, shu qilayotgan ishingiz yaxshimas. Qoplonbek Tamannoning tengi emas. Qon qaqshatib ketadi. Qo'ying, ixtiyorini o'ziga bering.

– Haliyam men zo'rlayotganim yo'q. O'zi rozi.

– O'zi bilan gaplashdim.

– Xo'sh nima deydi?

– Boshi qotib qolgan. Sizni ranjittishdan qo'rqadi.

– Senga shunaqa degan. Qiz bola narsa qanaqa qilib «falonchiga tegyapman» deydi.

– Dada, Tamannoni endi ko'rayotganim yo'q-ku!

– Ming qilsa ham o'gayligingga boryapsan, bolam. Unga joning menikiday achimaydi.

– Hali shundaymi! Men uning o'gay akasi ekanimni endi bildim, dada! Rahmat! Bilganingizni qiling! Men hammasini aytib, boshimdan soqit qildim.

Abulbaraka ko'zida yosh qalqiganicha chiqib ketdi. Bir oychalardan keyin Qoplonbek bilan Tamannoning

⁴ «Rostin rustiy» – «kuch haqiqatda» demak.

to'yi bo'ldi. Lekin «bir ish» bilan qo'shni shaharga zudlik bilan ketgan Abulbaraka to'yga «yetib kelolmadi».

Nikohning ertasigayoq «Qoplon! Qoplon!» deb itini chaqirayotgan Qurbonalini ko'rib, Hojining kapalagi uchib ketdi: kuyovi eshitib qolsa nima bo'ladi! «Mening qadrim shumi hali!» – demaydimi! «Endi, xudoga shukur, bundan ham qutuldim», deb turganda qizidan baloga qolmaydimi?

Chopqi qalamtarashi bilan nimanidir kesib turgan cholni keskin bir harakat bilan oldiga chaqirdi:

– Itga boshqa nom qo'ying! – dedi amirona. Hojining nimaga ishora qilayotganini darrov fahmlagan ziyrak Qurbonali:

– U kishi «bek»-ku, – dedi osoyishta.

– Gapni cho'zmang. Aytganimni qiling.

Qurbonali Hojining so'zini yerda qoldirmadi. Boshqa nom qo'ydi, lekin it chaqirsa qaramadi. «Qoplon!» desagina kesik dumini likillatib yugurib keladi. Kuyovning esa, chol atayin unga o'chakishib itiga «Qoplon» nomini berganday Qurbonalini ko'rgani ko'zi yo'q. Chol itini har chaqirganda bir ijrg'anib, tishini g'ijirlatadi. Yo'qotish yo'lini bilmaydi, kecha ichkuyov bo'lib kelib, bugun uyning kattasi Hojini mensimaganday farmoyish bergani botinmaydi. Itning tarixidan xabardor. Keyin Qurbonalining tili ham bir xanjarning damicha bor: biriga ikki qo'ndirishi mumkin. Shunday bo'lsa ham: «It juda xunuk bo'lib ketibdi!» – deb til tegizdi. Lekin bunga, nima uchundir, ortiqcha parvo qiluvchi bo'lmadi.

Yo'q, axir bir kuni u niyatiga yetdi. Nima bo'ldi-yu, Qoplon uni tanimay vovillab qoldi. Xazonday qovjirab, bir dona gugurtga muhtoj bo'lib yurgan Qoplonbekka juda-juda malol keldi. Uni go'yo bu uyda begona ko'rib «sen nima qilib yuribsan!» deganday tuyuldi. G'uchand, it keyin tanib, oyog'i ostiga kesik dumini likilla kelgan

bo'lsa ham Qoplonbek kechirmadi, jon-jahdi bilan tarsillatib tepib yubordi. Kutilmagan bu beshafqatlikdan ikki dumalab ketgan qari it angillaganicha egasining kulbasiga qarab qochdi. Eshikdan yugurib chiqqan Qurbonali ko'rindi. Voqeaga tushundi. So'kinib turgan Qoplonbekka bir xo'mrayib qo'ydi, oyog'i ostida panoh qidirib turgan itning boshini siladi.

– Sen tilsiz maxluqqa kim ozor berdi? Bo'ldi! Bo'ldi! – u boladek uni ovutardi.

Uzoqdan Qoplonbekning tovushi keldi:

– Yo'qoting itni dedim-ku! Necha marta aytish kerak!

– Kuyov bola, menga o'shqirmang. Men otangiz tengi odamman. Itni siz emas, men boqaman. Bu mening yurtimni ko'rgan dardkashim. Men bor, bu shu yerda yuradi.

– Hali shunaqami!

Qoplonbek yugurganicha uyga kirib ketdi. Ov miltiq bilan chiqib, itga tashlandi. Qurolni ko'rgan «Qoplon» kesik dumini qisib egasining orqasiga o'tdi.

– Qoching! – dedi u baqirib Qurbonaliga.

– Yo'q, qizishmang, kuyov! Bu uyga «Qoplon» sizdan oldin kelgan. Xizmati singan. Uyat bo'ladi.

– Itni to'sib turaverdi chol.

– Qoching deyaрман! – yana o'dag'ayladi Qoplonbek miltiqni o'qtalib.

– Otaver! Bir yo'lasi ikkimizdan qutulasan! – dedi jahli chiqqan chol sensirab. Joyidan qimirlamadi. Bu kuyovga juda alam qildi. Shiddat bilan chopib borib, Qurbonalini itarib tashladi, qochgan itning ketidan varanglatib o'q uzdi. Umbaloq oshib ketgan bechora it bir yerda bir necha lahza angillab chir aylanib, keyin gurs etib yiqildi.

– Ha, berahm, itni yeding! – deganicha Qurbonali unga yugurdi. U yetib borguncha «Qoplon» o'lib bo'lgan, faqat oyoqlarigina titrab turardi. Uning olamdan o'tganiga achingan chol, kuyovga zahrini sochdi:

– Mana endi keng qo'rada yolg'iz o'zing yashay-
verasan! Qutulding!

Qoplonbek o'zini eshitmaganga solib, uyga kirib ketdi.
Chol orqasidan qarg'ab qoldi:

– Ilohim shu itdan battar bo'lib o'! Niyatingga yetma!

Cholning ko'zidan tirqirab yosh oqardi. Itni kulba-
sining orqasiga yerni chuqur o'yib ko'ngandan keyin
Qurbonali uning azasini tutgandek hech kim bilan gap-
lashmay yurdi. Chiqarilgan ovqatga qayrilib qaramadi.
O'tdagi cho'pni bo'tga olib qo'ymadi. Uning fe'lini bilgan
Hoji kuyoviga bir narsa deymasa ham, u qo'rqadigan
mushuklarni qo'raga yo'latmay yurganini eslab, qiziga:

«Itni otib yaxshi qilmabdi!» dedi. Buni eshitgan Abul-
baraka sasidi:

– To'g'ri qilgan kuyovingiz: bir qo'raga ikki qoplonning
nima keragi bor?

Bu gap kuni bilan Hojining yeganini ichiga tushirmay
yurdi. Peshin namozida ikki marta adashib ketdi. Halit-
dan shunaqa bo'lsa, sal kunda o'g'li bilan kuyovi yuz
ko'rmasga aylanadi. O'ylab-o'ylab o'g'li bilan gaplashib,
unga nasihat qilmoqchi bo'ldi. Shomdan keyin qo'lga
qahrabo tasbehini oldi-da, «menga choyni Abulbaraka-
ning oldiga kiritinglar» deganicha o'g'lining xonasiga yo'l
tutdi. Abulbaraka muk tushib, kitob mutolaa qilardi. Stol
ustidagi qog'oz, gazeta-jurnallar ayqash-uyqash. Faqat
javondagi kitoblardagina tartib bor. Abulbaraka otasini
ko'rib, o'rnidan turdi. Salom berib, joy ko'rsatdi:

– Keling, dada!

– Keldim, o'g'lim. – Hoji yumshoq duxoba stulga
og'ir cho'kdi. Kahrabo tasbehni kaftida ushlab turib,
fotihaga qo'l ochdi: – Tinchlik-xotirjamlik bo'lsin, oqibat
ko'tarilmasin!

Hoji gapiradigan gaplarini qiroat qilib kirgan bo'lsa
ham yana bir ko'nglidan o'tkazib oldi. Uzoqdan gap
yetakladi:

– Ishlaring yaxshimi? Anchadan beri bundoq yozilib gaplasholmaymiz. Senga ham qiyin. Yolg'izsan.

– Rahmat, dada! Ko'p qatori kesak tepib, ko'cha changitib yuribmiz. – Abulbaraka otasining o'ta sipo harakatiga hazil tusi bermoqchi bo'ldi. Chol ham ma'qullab qo'ya qoldi:

– Yaxshi, bolam, yaxshi! Ko'pning nazaridan qolma! Mana, sening ham, mening ham yukim ancha yengil tortdi. Farzanding ulg'ayganda bilasan, o'g'lim, qiz masalasi juda og'ir. Shukur, singlingni omon-eson egasiga topshirib oldik. Qo'sha qarisin, uvali-juvali bo'lsin. «Shu olg'ir bilan singlim hech mahal uvali-juvali bo'lib ketmas. Ko'zim yetmaydi. Turqi buzuq», degan fikr Abulbarakaning xayolidan o'tdi. Lekin otasining kayfiyatini buzgisi kelmadi. Undan keyin hali otasining aytadigan gapi ko'pligini, bu hali muqaddimasi ekanini ko'zidan uqib turardi. Qo'yib berdi. Shu orada oqsoch xotin naqshli kumush barkashchada choy olib kirdi. Piyolaning bittasi chetlariga she'r yozilgan otasiniki edi. Otasining: «Tug'ilib o'sgan yurtimdan yodgor», deb e'zozlab yuradigan bu piyolani avaylab chayqagan Abulbaraka, hurmat bilan unga choy quyib, otasiga uzatdi. Choydan bir ho'plab, Hoji gap boshladi.

Endi uning yuzida ro'shnolik bor edi.

– Bir boobro'y odam ziyofatda o'tirsa, yupungina kiyingan bir kishi eshikdan kirib qolibdi. Haligi boobro'y mulla odam o'rnidan irg'ib turib, unga o'zidan yuqoridan joy ko'rsatibdi. To u o'tirmaguncha qo'lini qovushtirib turibdi. Hamma hayronmish. Ziyofat tugab, tarqalish oldida some'lardan biri qiziqib qolib:

«U kim edi, taqsir, juda izzat-hurmatini baland tutdingiz, avliyomi?» – desa:

«Avliyo qayoqda! Qizim tushgan mahallaning qorovuli!» – deb kulgan ekan. Abulbaraka otasining hikoyasi nimaga imo-ishora ekanini fahmlab, odob yuzasidan

boshini quyi tushirdi. Buni tushungan Hoji to'zib o'tir masdan, yakunini qildi:

– Shunaqa, o'g'lim, kuyovlarni payg'ambarlar siylagan.

Otasining gapiga umuman qarshi bo'lmasa ham, Abulbaraka yuragidagini hazil aralash aytishni lozim topdi:

– Yaxshi kuyovlar haqidadir-da afsona, dada!

– Oh, o'g'lim, yoshsan, tiling tez, o'ng-tersiga qaramay gapiraverasan. Besh barmoq bir kunda tug'ilgan bilan barobarmi? Kaltasan, deb chinchiloqni kesib tashlash kerakmi? – Hoji ochig'iga ko'cha boshladi: – Kuyov senga nima yomonlik qildiki, ko'rgani ko'zing yo'q. Ertalabki gapingni eshitsu nima bo'ladi? Og'irligi singlingning yelkasiga tushadi. Singling qon yig'lasa yaxshimi? Jilla bo'lmasa, unga rahming kelsin. Shu bitta itni deb...

– Gap itdamas, – gapni bo'lishga majbur bo'ldi o'g'il.

– Ha, bo'lmasa, nimada? Otamning davlatini egalab ketadi, deb qo'rquyapsanmi? Xotirjam bo'l, men hali esimni yeb, aljib qolganim yo'q. Davlat masalasi xayoliga kelmagan o'g'il kulib yubordi.

– Sen kulma, – dedi ota uni qayirib. – Bo'lmasa nima qasding bor? Ayt! Eshitay, bilay!

– Aytganman! – dedi Abulbaraka to'y oldidagi suhbatlariga ishora qilib.

– Bilasanmi, o'g'lim, bu taqdirning ishi. Taqdiri ilohga nima deb bo'ladi: birov vatanidan ketadi, birov qochadi, boshqa biri yomonlab yuradi, biri yig'lab o'tadi.

– Biri vatanfurushlik qiladi, shundaymi? – norozilik bildirdi o'g'il.

– Nega vatanfurush bo'ladi? Peshanasi ekan, tirikchiligini qilib shu yoqda yuribdi. Mana uy-joylik bo'ldi. Hali meni ham...

– Sizning yo'lingiz boshqa, – gapirtirmadi o'g'il.

– Qo'y, o'g'lim, bunaqa ters gaplaringni tashla.

Avval begona edi, endi qarindosh. Birov eshitsu, kuladi. Foydali ishni qil. O'zingni o'yla. Umring kuyib ketyapti. Hoji shunday gaplar bilan piyolani stolga qo'yayotib bu atroflikiga o'xshamagan konvertga ko'zi tushib qoldi:

– Qayerniki? Kimdan?

– Siz tanimasangiz kerak. Zilol degan odamdan. Yo'q, taniysiz, o'g'li bizning kasalxonada yotgan. Ikki ko'zi ko'r.

– Ha, ha, bir gapiruvding.

– O'shandan.

– U qayoqda?

– O'g'lining ko'zi bu yerda bo'lmaganidan Ittifoqqa yuborgan edik.

– Xo'sh-xo'sh! Shifo topibdimi?

– Hozircha xursand. Operatsiyadan chiqibdi.

– Yo tavba! Moskvadami?

– Yo'q. Toshkentda.

– Toshkentda shunaqa zo'r doktor bormi? – Hoji hayratdan yoqasini ushlab turardi. Uning ko'z oldiga tor-tor ko'chalar, lolaqizg'aldoq ochilgan tomlar, ro'dapo choponda yurgan kishilar keldi. Qo'qon aravaning chiyillab tepalikka ko'tarilishi, otning kishnashi eshitildi. Nima uchundir, shular orasida aldab tashlab kelgan xotini bilan qizlari ham ko'rinib ketdi. Lekin vaqt o'tib, mehri sovib ketganidanmi ularning taqdiri nima bo'lganini xayolida surishtirib ham o'tirmadi: lip etdi, o'tdi-ketdi.

– Bor ekanki, mana xursand bo'lib zozyapti, – dedi Abulbaraka. U otasiga uzoq izoh berib o'tirishni lozim topmadi, baribir ishonmaydi, ishonganida ham tan olmaydi. Eshikda oqsoch xotin ko'rindi.

– Choy yangilab beraymi? – dedi u va chiqib keta turib, Abulbarakaga uni Qurbonali yo'qatganini aytdi.

– Nima gap? Tinchlikmi? – Hoji oqsoch xotindan emas, o'g'lidan so'radi. U Qurbonalining kasal yotganini bilardi.

– Kasal-ku, – degan o'g'il: «Boshqa gapimiz bo'lmasa, men xabar olay, g'aribning ahvoli nima kechyapti?» degandek bir ma'noda o'rnidan qo'zg'aldi. Unga ergashib, o'rnidan turgan Hoji o'g'lining bu ishini ma'qullab qo'ydi.

– Savob bo'ladi. Tuzatib qara. Qurbonalining kasaliga sabab itining o'limi bo'lgandek Abulbaraka yelkasiga pidjagini tashlay turib, to'ng'illadi:

– Shu iti yuraverganda birovga zarari tegayotganmidi?

Hoji yeb turgan danak mag'zi orasidan taxiri chiqib qolgandek «Yana shu gapmi?» deb yuzini burushtirdi. Chindan ham Qurbonali o'sha itini ko'mgan kunidan beri o'ziga kelmaydi. Bir-ikki kun sillasi qurib yurdi. Keyin ko'rpa-yostiqliq qilib oldi. Mana, bir necha kunki, ostona bosib hovli yuzini ko'rgani yo'q. Boya ishdan qaytganda Abulbaraka bir kirib chiqqan edi. Yana bir narsa bo'ldi shekilli-da! Abulbaraka kirib borganda Qurbonali shiftga boqib yotardi. Oldida ko'zi yoshli arab xizmatkor. Uning kirganini payqab qimirlamoqchi bo'ldi, qurbi yetmadi. Abulbaraka:

– Yotavering! Yotavering! – deb peshanasiga qo'lini qo'ydi. U jizza kabob bo'lib yonardi, keyin tomirini o'lchadi. U o'zgarib qolgan edi. Bor dori-darmonni qilib kasalxonasiga olib ketmoqchi bo'ldi. Lekin chol unamadi:

– Foydasi yo'q, Abulbarakajon. Mening ishim bitdi. O'sha vasiyatimni yana esingga solib qo'yay deb chaqirtirdim.

– Esimda bor. Unaqa demang, hali uzoq yashaysiz.

– Ha, bolam, men endi yashadim nima-yu, yashadim nima: bola-chaqam bor edimki, orzu havasini ko'ramanmi? Dunyoning qancha jabri-sitami bo'lsa, tortdim. Qo'y endi meni, o'sha muzday makonimga borib tinchgina yotay. Aytgin-aytgin, uzoq yotib qolib, sizlarga og'irligim tushmasin.

U o'zi niyat qilganidek uzoq yotmadi. Ertasiga tushdan keyin aynab, xotinini, o'g'lini chaqirdi, ular bilan «gaplashdi», yig'ladi. Kimnidir qarg'adi, uzoq-uzoq xo'rsindi. Goh odam tanib, goh tanimay yotganning ustiga Hoji bilan Qoplonbek kirib keldi. Hoji rozi-rizolik so'rab, gap boshlashi bilan uni tanib, yuzini teskari o'girib oldi. Shu yuzini o'girganicha olamdan o'tdi.

* * *

Bir oy chadan keyin ko'zi ochilgan o'g'lini diringlatib oldiga solib, Qurbonalining ona yurtidan qaytgan Zilolga teng keladigan baxtli odam yer yuzida yo'q edi! U: «Yaxshi borib keldingmi?» degan odamga dostonini boshidan boshlardi. Toshkentni, doktor, doktorxonani ta'riflab ado qilolmasdi.

– Tug'ishganing bunaqa mehribon bo'lmaydi! Yo, tavba, shunaqayam ahil el-yurt bo'ladimi dunyoda! Ana hayotu mana hayot!

U jo'nashi oldida bir xonaga ijaraga o'tirgan A'zamdan ancha g'alati gaplar eshitgan, yuragi bir oz g'ash bo'lib ketgan edi. Endi bu gaplarning g'irt yolg'onligiga amin. U qaytibdiki, ikki ko'zi eshikda. A'zamni kutadi...

U hadeganda kelavermadi. Toqati toq bo'ldi. A'zam o'tirgan xonaning eshigini ochib kirib, butun lash-lushini hovlining o'rtasiga chiqarib qo'ydi. O'sha hodisadan keyin bir ko'zi ko'r, ikkinchisi xira, o'zi cho'loq bo'lib, has-saga suyanib qolgan A'zam eshikdan kirib kelishi bilan salomiga ham alik olmasdan:

– Qani, ko'tar do'kon-dastgohingni! Shunday yurtning qadriga yetmagan sendek ko'rnamakka uyimda ijara qo'yadigan joy yo'q. Yo'qol! – dedi.

O'sha «falokat»dan keyin A'zamning ishga yaroqsiz bo'lib qolganini bilgan xo'jayinlari allaqachon uning dumi-ni tukkan, uning «obro'yi» qamishning to'zg'og'idek to'zib ketgan, cho'ntagini is bosganiga ancha bo'lib qolgan edi.

U yolvorishga tushdi:

– To‘xtang, boshqa bir joy topay!

Zilol uning gapiga quloq solmadi, sabri chidamadi. Hovli o‘rtasidagi lash-lushini ko‘chaga chiqarib tashlab, o‘zini qo‘tir itdek xor qilib quvdi. Orqasidan ko‘cha eshikni tarsillatib yopdi. Jahliga chidolmay qo‘pol g‘udirladi.

A‘zam bir ko‘zini shig‘raytirganicha baqrayib ko‘chada qoldi. Bevatan, beish, boshpanasiz qolgan A‘zam uchto‘rt kun ko‘chada bosh urgani joy topolmay, egasini yo‘qotgan itday har o‘tganga bir ko‘z tutib, daydib yurgach, shahar chetidagi ko‘rimsizgina bir masjid qorovulining mol bog‘lasa turmas hujrasiga borib tiqildi...

U endi shu masjidni supurib-sidirib, qo‘ni-qo‘shnidan chiqqan bir kosa, yarim kosa obi-ravonni tamaddi qilib yuribdi.

25

OTASIDAN UZOQLASHGAN O‘G‘IL

Qoplonbek kuch bilan uddalolmasa, hiyla bilan yengadiganlardan edi. U Tamannoga uylanib niyat narvonining pochalariga oyoq qo‘ya boshlagan edi. Bundoq qarasa, oldida katta to‘siq ko‘ndalang yotibdi. Bu Abulbaraka edi.

Uning to‘yida bo‘lmasligiga oldin uncha ahamiyat bermay: «Otasi bilan undayroq. Shuning uchun kelmagandir», deb yurdi. Bundan, hatto, mamnun ham edi. Chunki Hoji qancha Abulbarakadan uzoqlashsa, bunga shuncha yaqinlashadi. Bu uning asl niyati. Lekin keyin bilib qoldiki, Abulbarakaning uni ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q. Kuchuk voqeasi va Qurbonalining vafotidan keyin to‘nini juda ham teskari kiyib oldi. Abulbarakaning: «Bir qo‘raga ikki qoplonning nima keragi bor», deganini u eshitgan, cholning o‘limini undan ko‘rib yurganini sezgan edi. Demak, Abulbaraka bor ekan, bu

uyda uning ko'chati ko'karib ildiz otmaydi. To'yga ham atayin kelmagan!

Qoplonbek avval Abulbarakaning otasi bilan chiqi-sholmasligidan foydalanib, Hojining bag'riga kirib, bora-bora bu xonadonning to'la huquqli xo'jayiniga aylanmoqchi bo'lgan bo'lsa, endi uni yo'qotib, yo'lini ochib olmoqchi.

Uzoq kuzatdi. Qo'lga ilingudek bir narsa ko'zga tushmadi. To'g'ri, Zeytuniyga o'xshagan, Amerika razvedkasi qiziqqan kishilar kelib-ketib turadi. Uning xonasida o'tirishadi. Lekin u yoqqa bu kirolmaydi. Bu hammasi, albatta Abulbaraka tufayli. Shunday bo'lsa ham Qoplonbekning qulog'i doim ding, ko'zi sakkizta. Abulbaraka haqida nimanı payqasa yoki eshitsa qog'ozga oladi, tahlil qiladi, o'z taxminlari bilan kengaytirib, xulosa chiqaradi va xo'jayiniga ikki qo'llab tutadi. Uning dastidan Abulbarakaning oldiga kelib-ketib turgan kishilar ham qolmaydi. Bitta soddarog'ini ko'z ostiga olib, u bilan inoqlashib, bular orasiga kirmoqchi bo'ldi. Gapga solgan edi: «Bir xonadondan bitta do'stning o'zi kifoya», deb Abulbarakaga ishora qilganicha, chap berib ketdi. Boshqa bir kuni yo'lini poylab qarshisiga chiqqan edi: «Mening yo'lim sizniki bilan teskari bo'lsa kerak», deb ikki ma'noli so'z qildi-da, yonidan o'tib ketdi. Shundan Qoplonbek bildiki, bu doiraga uning kirib borishi amrimahol. Demak, ular hid olgan. Hid olmaganda ham begona kishiga muhtojligi yo'q. Endi unga boshqa yo'l bilan ish ko'rish qoldi. «Bu boshqa yo'l» esa, Qoplonbekning xo'jayinlarini qanoatlantirmayapti. Kechagi bir uchrashuvda bu shaharda katta kommersant niqobida yuradigan bir boshlig'i (Qoplonbek go'yo uning savdo agenti): «Bek, o'zingizdan tinchib qoldingiz. Ko'zingizni yog' bosib, qulog'ingiz tom bitganmi?» deb achitib qo'ydi. Demak, ular Qoplonbekning ishidan norozi. Qoplonbek ularning ko'nglini ovlamasa iloji yo'q. Oyoq-qo'llidan kishi bilmas tizimcha bilan qattiq

bog'liq. Bu tizimchani u hech qachon uzib tashlolmaydi, uzib tashlashga qurbi ham yetmaydi. Lekin Qoplonbek ularning hech qachon minnatdor bo'lmasligini ham yaxshi biladi. Shunday bo'lsa ham hadeb dakki eshitaverish yaxshi emas, bu xonadondan uning oyog'ini uzib qo'yishlari mumkin. Ularning qo'lidan nimalar kelmaydi: istasa, toshni tolqon qilib yutqizib, xarsang qilib chiqarib olishadi. Bularning barchasini o'ylab, issiq joyini sovutgisi kelmagan va kelajakdan katta umidlari bo'lgan Qoplonbek ishga qattiq kirishdi. Bir kuni bundoq qarasa, uyda bitta oqsoch xotin ivirsib yuribdi. Uni avrab, ish bilan ko'chaga chiqarib yubordi. O'zini Abulbarakaning xonasiga urdi. Qog'oz titdi, suratga oldi. Qo'lga mo'may bir narsa tushmagan bo'lsa ham, xonadan mamnun chiqib kelar ekan, yo'lak boshida turgan Qurbonalini ko'rdi (u mahalda Qurbonali hayot edi). Garchand, Qurbonali bir nima demagan bo'lsa ham Qoplonbekning ichi zir ketdi. Qurbonalini esdan chiqarib, xatoga yo'l qo'yganidan o'zini rosa koyidi. Bir-ikki kun cho'g' bosib olgandek tipirchilab yurdi. Abulbaraka bir narsa dermikan, deb javobini tayyorlab, og'zini poyladi. Lekin Abulbarakadan sado chiqmadi. Ko'ngli joyiga tushdi, to'yib nafas oldi. Lekin Qurbonali o'sha kuniyoq Abulbarakani bir chetga imlab, voqeadan xabardor qilgan, «Kuyovning oyoq olishi chakki!» deb ta'kidlagan edi. Abulbaraka esa, bu voqea tufayli yana otasi bilan to'qnashib qolishdan cho'chib, ichiga yutdi. Ammo kuyovning biror yovuz niyat bilan yurganiga ishonqiramadi. Har ehtimolga qarshi ishini ehtiyot tutdi. Bu holdan Qoplonbekning o'z to'ni o'ziga tor kelib, diqqi-nafas bo'lib yurar ekan, shaharda bir-ikki zavod ishchilarining namoyishi bo'ldi. Namoyish ish haqini oshirish, ishsizlikni yo'qotish haqida boshlanib, milliy mustaqillik talab etish, fransuz ma'muriyatidan norozilikka aylanib ketdi. Oraga politsiya tushdi, rezina kaltak bir-ikki

odamning boshini g'urra qildi, yelkasini ko'kartirdi. Ishchilar ham qarab turmay qo'lga tushgan toshmi, kesakmi politsiyachilarga uloqtirib qoldi. Bir politsiyachining yuzi yorilib, birining ko'zi chiqdi. To'qnashuv jiddiylashib, politsiya mashinasi paydo bo'ldi, duch kelgan odamni ushlab unga bosdilar. Namoyish tarqalib, ushlanganlar tergov qilindi-yu, lekin uning tashkilotchilarini topish mumkin bo'lmadi. Yo mashinaga bosilganlarning ichida chindan ham tashkilotchi rahbarlari yo'q edi, yoki iqror bo'lmadi. Shunday bo'lsa ham ularni qo'yib yubormay, ushlab turdilar. Atrofni iskab, to'rt ko'z bo'lib kuzatdilar. Ana shu paytda Qoplonbek namoyishchilardan ikki kishi Abulbarakaning kasalxonasida yashirinib yotganini eshitib qoldi. Ana shular rahbari bo'lsa kerak, aks holda nega yashirinadi? Demak, Abulbarakaning ham qo'li bor. Oqsoq xo'rozga yo'liqqan tulkidek ko'zi yonib ketgan Qoplonbek darrov evini qildi: to'g'ri politsiyaga borib aytishga yuragi betlamay, yuragi betlaganda ham maslahat berib turadigan xo'jayinlarining rozi bo'lmasligiga ko'zi yetib bir imzosiz xat yozib politsiyaga tashladi. Xati tezda yetib bormadimi, yoki yo'lda yo'qoldimi, yo uncha ahamiyat berishmadimi tadbirini ko'rmadi. Qoplonbekning rejasicha, kasalxonada tintuv bo'lishi, Abulbaraka javobgarlikka tortilishi kerak edi. Yo'q, uch-to'rt kun o'tdi ham hech narsa bo'lmadi. Aksincha, Abulbaraka kecha kechasi ikkita o'rtog'i bilan kelib o'z xonasida allama-halgacha nimanidir maslahatini qildi. Lekin ilgariidan xomushroq. Qoplonbekka uning xomushligi emas, qon yig'lagani kerak. U yarasini nogoh urib olgan odamdek, o'tirgani joy topolmay qoldi. Shalvirlagan politsiyani do'ndirib so'kdi. Yana xat tashlasa, vaqt o'tadi. O'ylab yo'lini topdi: ko'chaga chiqib xoli bir avtomatdan telefon qildi. Xatdagidan ham oshirib tushuntirdi. Politsiya o'zining kimligini surishtirdi shekilli, u: «Yo'q, afsus, ko'rinish

berolmayman. Fakt aniq!» deganicha trubkani ildi. Bu telefoni beiz qolmadi. Shu kuniyoq kasalxonani politsiya bosdi. Lekin mo'ljaldagi odamlarning kasallik tarixi boru o'zi yo'q edi: kecha chiqib ketibdi. Politsiya, albatta, bu faktga befarq qarolmadi. Abulbarakani olib ketishdi. «Sizda jinday gapimiz bor», degan politsiya rasmiyat uchun birpas gaplashib, kameraga kiritib yubordi. Hammasiga fahmi yetib tursa ham, sirtidan sirini bermagan Abulbaraka:

– Xo'sh, nima gap o'zi? – degan edi:

– Sabr qiling, tushunib qolasiz, – deb kameraning eshigini yopib, ustidan qulfladilar. U yolg'iz qoldi. Abulbaraka o'z xatti-harakatining nozikligini bilgan, bu yo'lga vijdoni amri bilan kirgan, bu yo'lning shonli va qaltisligiga ko'zi yetgan, bir kuni qamalishi mumkinligini tushunib yurgan bo'lsa-da, bugun, xuddi shu daqiqada qo'lga tushishini kutmagan edi. Shuning uchun bir oz entikkan bo'ldi. Kameraning past havosi, mudhish, qora ko'rinishi, is bosgan panjarali tuynukdan tushib turgan, chang burqsaganga o'xshagan sarg'imgir shu'la yuragini siqdi. Zang bosgan temir karavot oldidagi taburetkani olib, yorug'lik tushib turgan tomonga qo'yib o'tirmoqchi bo'lgan edi, joyidan qo'zg'amadi. Egilib qarasa, u sement polga mixlab tashlangan ekan! «Nima uchun!» birdan boshida so'roq tug'ildi. Kunga teskari tomonga – taburetkaga o'tirgisi kelmay, tuynukning qarshisida tik turib, qo'lini orqasiga qilganicha devorga suyandi: bir necha soat ichidayoq nur tushib turgan tashqari ko'ziga juda yaxshi ko'rinib, o'sha yerlarda erkin yurish ishtiyoqida yuragi gurs-gurs urdi. Shu erkin yurish niyatida endi nimalar qilish kerakligini bir-bir o'yladi, beriladigan so'roqqa javoblarini hozirladi. Buning uchun do'stlari bilan birgalikda bosib o'tgan yo'lini xayolidan elab chiqdi. Yo'q uning o'kinadigan yeri yo'q. Halol yashabdi, halol

kurashibdi. Lekin kurash endi qizib kelayotgan paytda bu yerga tushib qolishi, albatta, yaxshi bo'lmadi. Orada ayg'oqchi bor ekan. Biroq, o'sha ayg'oqchi kimu qanchalik xabardor! Shu uni qiziqtirardi.

Politsiya qo'lida qanchalik hujjat borligidan qat'iy nazar, u qattiq turishga qaror qildi. Shu qaror unga kuch, g'olib chiqishiga ishonch tug'dirdi. Ikki kun o'tgach tergovga chaqirdilar. «Ular hozirligini ko'rib bo'libdi, men ham tayyorman!» degan Abulbaraka qo'lini orqasiga qilib, u yeb bu quruq qolganday xo'mrayib turgan politsiyachining oldiga tushdi.

* * *

O'g'lining qamalishini kutmagan Saidakbar hoji gangib qoldi. O'sha kuni kechasi mijja qoqmadi, hovlida yurib chiqdi. Tamanno ikki marta chiqib: «Uxlang, dada, hech narsa qilmaydi. Ertaga chiqib qoladi», deb olib kirib ketdi. Baribir Hoji uxlamadi, yostiqqa bosh qo'ydi, mudhish xayollar bosib kelardi. Tushmi, o'ngligini ajratolmay miyasi qotib, o'rnidan turib o'tirdi. Fransuz politsiyasining xulq-atvorini yaxshi bilganidan battar vahima bosardi. O'g'lini vaqtida bu nojo'ya yo'ldan qayirib olmaganidan o'kindi. Parijga o'qishga yuborib nima qilar ekan? O'sha yerdan buzilib keldi. Qachon ko'rsang, qo'lida «Yumanite». Kasbi bilan o'ralashib ketarmikin, deb kasalxona ham ochib berdi. Yo'q, bo'lmadi. Qaytanga mana shu kasalxona pand berib turibdi. Hoji ertalab boshi g'ovlab, kecha ichib kelib hamon yostiq bilan suhbatlashib yotgan kuyovini ko'rmoqchi bo'ldi. Qizidan surishtirdi. Tamanno uyalinqirab, hali yotganini aytdi.

– Uyg'otaymi?

– «Shu vaqtgacha yotadimi, g'aflat bosib. Qishning bir kuni o'tdi-ku», deb jerkib bermoqchi bo'lsa ham qornini

do'ppaytirib turgan qiziga rahmi keldi: bunda nima ayb? Otasining fe'lini bilgan Tamanno bir-ikki kundan beri ichkilikka hirs qo'ygan erini turtib uyg'otdi:

– Turing-e, uyat bo'lib ketdi. Anchadan beri o'g'rincha kirib yurgan «Tungi restoran»ga kecha yana birov tanib qolishidan xavotirlanib, qora ko'zoynakda rezina shimib borgan, unda salgina avratini bekitgan yalang'och xotinlarning chiroyli qomati va undan ham chiroyli raqslarini ko'zi o'ynab tomosha qilgan Qoplonbek, ko'p ichib qo'yganini bilmadi. U uchib qolib, nozanin bir juvonning erkalashidan ko'zini ochganda, derazadan ko'rinib turgan ulkan masjidning yuksak minorasiga so'fi azon aytgani chiqqan edi. Qaynatasi tahoratga turguncha arang uyga yetib olgan Qoplonbek, mana birov do'pposlab tashlagandek shol-shol bo'lib yotibdi. Qovog'iga botmon yuk bostirib qo'ygandek zo'rg'a ko'zini ochib, tepasida bolasini kalxatga oldirgan tovuqdek bezovta turgan xotinini ko'rdi, yolvorishga tushdi:

– Birpas qo'y, xotin, uyqum pishsin. Boshim yorilib ketay deyapti.

– Sizga birov shunaqa iching debdimi! Turing!

Dadam yo'qlayaptilar. Hojidan hayiqqan Qoplonbek darrov ko'zini ochdi, boshini ko'tardi. Miyasining lo'qilashiga chidolmay yana o'zini yostiqqa tashladi. Yana Hoji esiga tushib, o'rnidan turdi.

– Boshni remont qilishga jinday bir narsa bormi? – dedi hamon qoshida o'shshayib turgan xotiniga.

– Bizning uyda bunaqa narsa bo'lmasligini bilmaysizmi? Boring, muzday dushga tushsangiz tuzalib ketasiz. «Nima qilib men devonadan oyboshi so'rab yuribman», degandek o'zidan koyinib, yelkasiga sochiq tashlagan Qoplonbek dushga chiqib ketdi. To hushyor tortib, fikri tiniqlaguncha uning ostida turdi. Bu orada ikki stakan muzday suv ham ichdi. Ana shundagina Hojining nimaga

yo'qalayotganiga fahmi etdi. «Albatta o'g'li xaqidadir-da», deb o'yladi, xonasiga kirib yaxshilab kiyindi, ichkillik hidini bosgudek qilib o'ziga atir purkadi, kiyimiga sepdi. Hoji uni yemakxonada kutib o'tirardi. Odob bilan salom berib qarshisiga o'tirdi.

– Ollo taollo bandasining nasibasini barvaqt ulashadi. Erta turing. Erta turganda hikmat ko'p. – Hoji og'ir gapirdi. Uning uyqudan qolgan ko'zlari qisilib borardi.

– Kechirasiz, ota, kecha...

Hoji gapirtirmadi:

– Hammasidan xabarim bor. Shaytonning so'ziga kirib, mana qaynag'angiz nima ahvolga tushdi? Sayoq yurgan tayoq yeydi. Bu zamonda tili ni tiyib, ehtiyot bilan yashagan kishi o'z ajali bilan o'ladi. Qariganimda menga shu tashvish bormidi! – Hoji oppoq, yumshoq dastro'moli bilan pixillab dimog'ini artdi, barmog'idagi zumrad ko'z oltin uzugi yiltillab ketdi. Shundan keyin u asl maqsadga o'tdi: – Endi nima qildik, kuyov? Biror chorasi bormi, yoki xudo deb o'tiraveramizmi?

Qoplonbek, Hojining o'ziga ishi tushib, maslahatiga muhtojligidan faxrlansa ham, uncha-muncha yo'l-yo'riq qo'lidan kelsa ham, yordam bergisi kelmadi. Axir bu niyatda Abulbarakaning bo'yniga sirtmoq solgan emas-da! Unga qolsa, o'shanaqasi yo'q bo'lib ketgani ma'qu! Shunday bo'lsa ham qaynatasi oldida shumshayib, og'ziga so'k solib o'tirishni lozim ko'rmadi. Bahona topdi:

– Har o'rmonning o'z tozisi bor, deganday men bu yerlarning past-balandini bilmasam. Birorta boshidan kechirgan...

Kuyovining gapidan tutun hidi kelayotganini sezgan Hojining ensasi qotdi, yuzi burushdi. «Suyangan tog'im sen bo'lsang, ko'rgan kunim nima bo'lardi!» degandek gapirmay qo'ya qoldi. Birpas jim o'tirib turib ketdi. To'g'ri Zeytuniyning advokatxonasiga bordi. Uni, o'g'lini yo'ldan

urganlardan biri hisoblab, iqi sevmay yursa-da, hozir ochiq yuz bilan murojaat etishga majbur! Axir kishi shifo bo'lsin uchun laylakning qusig'ini yutadi-ku! Zeytuniy uni o'rnidan irg'ib turib qarshi oldi. Stul tutdi. Hol-ahvolini so'radi.

– Ahvolim mana shu ko'rib turganingiz! – dedi Hoji. U Zeytuniyning voqeadan xabardorligiga shubha qilmasdi.

– Eshitdim. Bu tuhmat! Quruq tuhmat! – ishonch bilan dedi Zeytuniy. Bu gapdan Hojining badaniga is-siq yugurdi. Shu vaqtgacha iqiga o'tirmay yurgan odam birdan ko'ziga yaxshi ko'rinib, mehrini tovladi. Ruhiga jon bag'ishladi.

– Tuhmat bo'lsa tuhmatdir-ku... – yana gap boshladi Hoji, – jim o'tirganimiz yaxshi emasdir.

– Albatta! – shart kesdi advokat, – ba'zan tuhmat ham ustiga oltin suvi yuritilgan jezdek kishini aldab, g'aflatda qoldiradi. Ayniqsa, bizning zamonda. «Sen ham o'shaning birisan-da, tilingdan zamon tushmaydi», deb Hoji o'ylagan bo'lsa-da, gapni chalg'itmadi. Hozir lo'lining eshagini sug'orib, pulini oladigan payt:

– Endi nima qil deysiz?

– Men bir advokat beray, ish bilan tanishsin. O'zim ham olardim-ku... bo'lmaydi. Baribir xabardor bo'lib tura-man.

«Bu juda epchil-ku! Ming qilsa ham advokat-da, uning ustiga o'rtog'!» deb ko'ngli ko'tarilgan Hoji o'g'lining ishi to'g'ri bo'lishiga ishonib qo'ydi. Zeytuniy qo'shni xonadan bir odamni chaqirib, Hoji bilan tanishtirdi.

– Haligi ish yuzasidan. Bu kishi otasi, – dedi u odamga Zeytuniy. Hojini Abulbarakaning dadası ekanini bilgan advokat chuqur hurmat bilan so'rashdi. Hoji Zeytuniyning undan oldinoq ish boshlab qo'yganiga sal hayron bo'ldi. «O'g'lim yolg'iz emas. Ular bir talay. Bir talay bo'lganda ham juda ahil, tug'ishgandan ahil. Biri uchun biri o'tga kiradi», bu fikr uni hayronlikdan olib chiqdi.

Advokat suhbatlashib bo'lgach, Hoji qo'zg'alar ekan, Zeytuniy uni kuzatib ko'chaga chiqdi. Uni tirsagidan ushlab o'ziga qaratdi:

– Bizga ishonib, judayam beparvo bo'lmang. Ba'zi bir haddingiz siqqan amaldorga uchrashib qo'ysangiz yomon bo'lmasdi. Besh-o'n tanga sarf qilishga to'g'ri keladimi...

Oldingi jumlasidan yana vahima bosgan Hoji pulning daragini eshitib, jonlandi:

– Qancha kerak bo'ladi? Men rozi. Pul bilan bitadigan bo'lsa yengil ekan-ku.

Zeytuniy yirik tishlarini ko'rsatib kuldi:

– Bu o'lkada pul nimalarga qodir emas: toshni eritib, dengizni quritadi. Hoji pulning kuchini juda yaxshi biladi: tillarni burro qiladigan ham, qarini yosh ko'rsatadigan ham, sakratib yurgizib, yotqizib turg'izadigan ham o'sha. Uning dami qilichdan o'tkir, yeldan tez... Hoji bugun tushlik ham qilmadi, peshin namoziga ham bormadi. Kuni bilan o'g'lining ketida yurdi. To'g'ri, do'konga «savdo qalay?» deb birrov kirib o'tdi. Mana hozir bir amaldor arab o'rtog'ining oldida o'tiribdi. Voqeani aytib chiqib, ezilib ketgan kishidek yumshoq egildi:

– Yoshlardan qusur, kattalardan uzr. Marhamatingiz oftobidan bizning kulbaga ham yorug' tushsin, janob. Amaldor kinoyali jilmayib, shiftni ko'rsatdi:

– Anavi nima?

– Qandil.

– Men oftob emas, xuddi o'sha qandil chiroqman.

– Shu qandil chiroqning yorug'i ham bizga yetadi, janob. – Hoji hazil tushunib hazilnamo javob qildi. Lekin amaldor jiddiy davom etdi:

– Uni birov huv anavi yerdan yoqadi, – dedi u vklyuchatelni ko'rsatib. – Tushunarlimi, Hoji? Hoji buni: «Ish bitta men bilan bitmaydi, mendan yuqoriga ham

muomala kerak. Men uning qo'lidaman», deb to'g'ri tushundi va ertasiga shunga yarasha muomala qildi, ichida: «O'zingniki o'zagingni uzadi», deb nolidi. Amaldor Hoji bilan xayrlashar ekan, chehrasi ochilib tegishdi:

– O'g'lim shunaqa sho'xlik qilib yuribdi deng, Hoji. Otasining bolasi-da. Mayli. Sut beradigan sigir suzsa malol kelmaydi kishiga. «Pul o'lsin-a, tilingni shirin qilib, chehrangni ochmay», deganCHA Hoji amaldorning dabdabali kabinetidan chiqdi.

Lekin bir hafta o'tsa ham pulning kuchi ko'rinmas edi. Bu orada qoqmagan eshigi, pul tiqmagan teshigi qolmadi. Ko'cha-ko'yda duv-duv gap, bu shum xabar ko'rshapalakdan ham tez uchib, shaharga yoyilib bo'lgan edi. Og'zi moylangan kishilar galga solsa, Zeytuniy bilan advokat «ish yaxshi ketyapti» deb ko'nglini tinchitmoqchi bo'lardi. Lekin Hoji bu dardga bardosh berolmadi. Bir kuni ko'chadan it olgan tulkiday g'ijinib:

– Isnodga o'ldim! O'z o'chog'imning kuli ko'zimga sochildi! – deganicha faryod urib kirib keldi va yotib qoldi. Shu yotganicha bir necha kun ko'zini ochmadi. O'z yuki o'ziga og'irlik qilib, qornini do'ppaytirib yurgan homilador Tamanno otasi tepasidan ketmadi, ko'zidan yosh arimadi. Chaqirmagan tanish doktori qolmadi. Buyurgan dorisini kanda qilmay ichirib, ukolini vaqtdan o'tkazmadi. Lekin Hoji orqasiga qaytmas edi. Bu esa, Qoplonbekning xayoliga mudhish bir fikr keltirdi: Abulbarakadan qutuldi hisob. Politsiyaning temir changalidan chiqib bo'pti! Hojidan ham qutulib, bir yo'lasini bu xonadonda o'zi xon, ko'lankasi maydon bo'la kolsa nima qiladi? Shu niyatda u kelib-ketib turgan doktorlardan bittasining bag'riga kirib, qo'yniga qo'l soldi: har kelishiga ortiq-ortiq haq to'ladi, bir-ikki mashinaga solib yubordi. Hatto bir kuni shaharning dabdabali restoranlaridan biriga taklif etib, eng

yaxshi vinolar bilan ziyofat qildi. Gap orasida Hojining «oshini oshab, yoshini yashab» bo'lganini aytib:

– Men shuncha shunaqa yashasam jon derdim. Yo noto'g'rimi? – dedi o'smoqchilab.

– Odam bolasi yuz yil yashasa ham o'lgisi kelmaydi. Hayot shunaqa shirin narsa.

– Juda qiynalib ketdi: na o'ziga tinchlik bor, na bizga.

– Kasalning dardini xastaning o'zi emas, butun oila tortadi – ajablanadigan yeri yo'q.

– Bu azobdan uni ozod qilish kerak. Qaytanga savob bo'ladi, doktor.

Papiros chekish bilan ovora bo'lgan vrach uning gapini eshitmadi. Qoplonbek buni vrachning roziligi belgisini tushunib, ochiq savdoga o'tdi.

– Necha pul desangiz oling! Jon doktor, bizni shu azobdan qutqaring. Xotinim bu ahvolda, oy-kuni yaqin...

– Nima deyapsiz? – doktor hushyor tortdi.

– Jon doktor, yo'q demang! Kim bilib o'tiribdi!

Og'ir yotgan kasal bo'lsa!

Endi faxmlagan doktor kayfi qochib, o'rnidan turdi. Qo'lidagi papirosni titraganicha kuldonga bosib ezdi:

– Iflos! Meni kim deb o'ylading?! – orqasiga qaramasdan chiqib ketdi. Qoplonbek o'tirgan yerida kaltakesakdek qotib qoldi. Saldan keyin esa o'ziga kelib ketidan yugurdi. – Jon doktor, kayfchilik, og'zimdan chiqib ketibdi, kechirasiz. Doktor indamay qadamini tezlatdi. Qoplonbekni battar vahima bosdi: «Hojiga aytsa-ya!» Yana uning ketidan chopib, yo'lini to'sdi.

– Jon doktor, o'tinib so'rayman! Birovga aytib yur-mang. Nima desangiz, beraman. Necha pul bo'lsa oling. Birovga aytmang! O'tinib so'rayman! Doktor uning basharasiga jirkangan kishidek xunuk qarab, qo'lini siltadi:

– Yo'qol, muttaham!!!

Qoplonbek yalinib-yalinib, keyin mushtini qisganча qolaverdi. U endi nima qildi?!

* * *

Xuddi shu paytda kiyim-boshi g'ijimlangan, rangi siriqqan Abulbaraka siyosiy politsiya tergovchisining huzurida: «Sinsam sinamanu egilmayman! Egib bo'libsan», degandek komil ishonch bilan o'tirardi. Bu uning birinchi tergovı emas, albatta. Uni kimlar tergamadi, qay vaqtlarda chaqirmadi. Ikki kun uyqudan ham mahrum etdilar. Bir kechasi «xızmat vazifasini o'tab turgan kishi»ga qo'pollik qilgani, savollarga muloyimlik bilan javob qaytarmaganı uchun karserga tashladilar. «Ba'zan» ayni shirin uyqu paytida kameradan kameraga ko'chirdilar.

Bu harakatlarning tubida nima maqsad yotganini yaxshi bilgan Abulbaraka ortiqcha asabiylashmadi ham, sababini so'rab hech kimni bezovta ham qilmadi. To'g'ri, bu ish bilan Zeytuniy tanlagan advokat shug'ullanib, uning huquqini himoya qilib turdi. Tergovida qatnashdi. Mana bugun uning o'zi yolg'iz. Advokati yo'q paytini poylab so'roq qilyapti.

– Shunday qilib, kasalxonangizda isyonchilar yashiringanini tan olmaysiz?

– Yo'q, yolg'on!

Tergovchi stoli tortmasidan surat olib ko'rsatdi: ikki kishi. Kasalxona kiyimida hovlida gaplashib turibdi.

– Bularni taniysizmi?

– Taniyman. Menda yotgan kasallar.

– Kasallar emas, isyonchilar.

– Yo'q, kasallar. Istasangiz tekshirishingiz mumkin: kasallik varaqasi bor.

– Bunaqalarni to'qish sizning qo'lingizdan keladi!

– Bu ham sizning qo'lingizda jonsiz surat. Tili bo'lsa o'zi gapirsın.

– Hozir bular qayerda?

– Bilmadim. Kasalxonadan tuzalib chiqib ketgan.

Tergovchi zahrini sochdi:

– Shunaqa tez davolaysizmi?

– Bilasizmi, msye, mening kasalxonam pullik. Puliga chidagan istaganicha yotadi. Ehtimol, imkoni bo'lmagandir.

– Axir siz fuqaroparvarsiz-ku!

– Yanglishmadingiz, msye! Lekin ular topish-tutishli odamlar edi. Oldidagi qog'ozlarni varaqlayotgan tergovchi birdan labi pichirlab nimanidir o'qib qoldi. Boshini vazmin ko'tarib so'zni burdi:

– Ehtimol, Zilolning o'g'lini Ittifoqqa yuborgan tashabbuskor ekaningizdan ham tonarsiz?

– Yo'q. Aksincha, xursandman. Dunyoda bitta baxtsiz kamaydi. O'zi davolashni uddasidan chiqolmagan bemorga yo'l-yo'riq ko'rsatib, maslahat berish har bir vijdonli vrachning muqaddas burchi. U buni qilishi shart.

Bolaning Ittifoqqa yuborishning tagida boshqa ma'no yotganini gumon qilgan tergovchi:

– Parijga yuboring edi! – dedi.

– Afsus, Parijda unday mutaxassis yo'q.

– Bo'lmasa nega Amerikaga yubormadingiz?

– To'g'ri, mumkin edi. Lekin siz bir narsani unutyapsizki, u yoqqa juda katta pul kerak. Ittifoqda esa bepul.

– Yo'l xarajatini nima qildi?

– O'zi topdi, oshna-og'aynisi qarashdi.

– «Men yordam berdim», shundaymi? – Abulbarakaning so'zini uning tilidan qilib to'ldirdi tergovchi.

– To'g'ri, topdingiz. Imkonim bor ekan, nega savobdan quruq qolishim kerak!

– Uning borib-kelishi tashviqot uchun ham bizga kerak edi, deb qo'ya qolmaysizmi? Nima qilasiz sirkchiga o'xshatib ot o'ynatib! – ochig'iga ko'chdi tergovchi.

– Gapingizga tushunmadim: nima uchun meni kimlar-gadir qo'shib, ko'pchilikka aylantiryapsiz?

– Axir siz yolg'iz emassiz-da!

– Agar kasalxonamdagi vrachlarimni hisobga qo'sh-masangiz, asosan uni men yuborganman. Men vrach-man, bu mening burchim edi. Siz qanday tushunsangiz tushunavering!

Tergovchi bu sohadagi gapni hozircha chuvatgisi kelmadı. Gapni yana aniqladi:

– Zilolning u yoqni maqtab, og'zini ko'pirtirib yurgani-ga nima deysiz?

– Men eshitganim yo'q. Keyin bu uning ishi.

Yolg'on gapiryaptimi? Ko'rgan-bilganini gapirsa nima qilibdi!

– Axir bu tashviqot!

– Unday bo'lsa, chetga chiqadigan odamlarning qulog'iga paxta tiqib, ko'zini bog'lab qo'yish kerak. Bu qochiriq tergovchiga malol keldi.

– Har bir esli odam nima gapirishini bilishi kerak.

– Demak ma'lum bo'ldiki, Zilol esi karn odam ekan. Shunday bo'lgach, nega uning gapiga bunchalik e'tibor berish lozim! – nozik yeridan ushladi Abulbaraka, – esi kamning so'ziga kim ishonadi!

Tergovchi tilidan bog'landi. Otgan o'qi nishonga tegmagan edi. Sir boy bermasdan, Abulbarakaning izzat-nafsiga tegmoqchi bo'ldi:

– Ming qilganda ham siz bu o'lkaning kishisi emassiz, tug'ilgan yeringiz boshqa. Bu o'lkaning manfaatları sizga yot.

– Kechirasiz, msbe! Men bu o'lkani jonimdan yaxshi ko'raman: chumchug'i ko'zimga g'oz, tovug'i burgut bo'lib ko'rinadi.

– Bu – shior!

– Yo'q, e'tiqodim!

Xo'sh ayting-chi, siz bu o'lkada nima qilib yuribsiz? Bu tuproqda nima haqqingiz bor? Bu o'lka uchun nega bunchalik joningiz achiydi? Men-ku, to'g'ri, bu yerda tug'ilmagan bo'lsam ham, uning non-tuzini totib esimni tanidim. Uni vatanim deb, yonimda pasportini ardoqlab yuribman. Siz-chi? Sizda bu yo'q-ku! Shunday bo'lgach, ayting-chi, msbe, qaysi birimiz: sizmi, menmi uning patrioti? Tergovchi kutilmagan bu hujumdan gangrab, baqirdi:

– Savolni men beraman, siz emas. Siz tergovdasiz.

Abulbaraka bildiki, pichoq suyakka taqaldi. Endigi har bitta gap ortiqcha. «Supurgi ham ikki xil bo'ladi: hojatxonaniki bilan uy supurilmaydi», deb ko'nglidan o'tkazdi. Bular misoli bu o'lkaga o'rmalab kelgan chumoli. Chumolining zo'r in'omi chigirtkaning ket oyog'i bo'ladi! Haqiqatni aytdim. Haqiqat – achchiq, yolg'on – shirin. Endi bas. Abulbaraka o'zini og'irlikka olib, uning navbatdagi savolini kutdi. Tergovchi: «Bu yopishqoq yong'oq chiqdi. Darrov chaqilib, mag'zi kaftimga tushadigan ko'rinmaydi», degandek o'ylanib turar ekan, telefon jiringlab qoldi. U ohistalik bilan trubkani olib, birdan tipirchilab qoldi. UZR so'radi, trubkaning og'zini kafti bilan bekitib turib, odam chaqirdi. Abulbarakani berib yubordi. Eshik tashqarisidan Abulbarakaning qulog'iga:

«Eshitaman, janob polkovnik... jonim bilan... Albatta yetqizaman...» degan uzuq-yuluq so'zlar eshitildi. U kecha ko'chirilgan uch-to'rt kishilik dim kamerasiga tushsa, yana ikki odam yangi kelibdi. Biri uni tanib, oldin salom berdi, yonidan joy ko'rsatdi. Uning tovushi gavdasiga nisbatan juda yo'g'on bo'lib, o'zini ko'rib turmagan kishi jikkakkina odamning shunaqa gapirishiga sira ishonmaydi. Abulbaraka mahbuslargagina xos bo'lgan kamera ziyrakligi bi-

lan tushundiki, bu odam uni yaxshi taniydi. Taniydi emas, hatto dardlashmoqchi ham. Chindan shunday bo'lib chiqdi. Tushki uxlashga hushtak chalinishi bilan uyqusizlik va tergov g'urbatlari charchatgan kishilar darrov o'rinlariga kirdilar. Haligi kishi esa, bir ko'zini qisib, Abulbarakaga: «Siz yotmay turing!» ishorasini qildi. Bir chetga olib o'tdi. Do'rillagan tovushini arang bosib, to'satdan:

– Bir sirdan sizni voqif qilib qo'ymoqchiman. Agar ko'nglingizga og'ir olmasangiz, aytaman. O'zi sizga juda yaqin odam.

– Bemalol. Ishonchingiz uchun rahmat!

– Men sizni juda yaxshi bilaman.

– Afsus, men sizni tanimay turibman.

– Buning hozir ahamiyati yo'q. Keyin tanishib olamiz. Nazarimda meni adashib bu kameraga kiritib qoldilar. Boshqaga ko'chirsalar kerak. – U: «Gapimni boshqa odam eshitayotgani yo'qmi?» degandek yotganlarga ohista ko'z qirini tashladi. – Kuyovingiz Qoplonbekni yaxshi bilasizmi?

– Sal-pal. Nima qildi?

Abulbarakaning yuragi kutilmagan xabarni kutgandek zirqirab ketgani to'g'ri chiqdi.

– U Amerika razvedkasining odami. Sizing xonadonga bejiz suqilib kirgani yo'q. Ehtiyot bo'ling, ehtiyot bo'linglar. Birdan kamera eshigining tuynugi tarsillab ochildi. Kuzatuvchi politsiya xodimining bit ko'zi bilan bo'g'irsoq burni ko'rindi.

Irillagan itdek tishini ko'rsatib, o'shqirdi:

– Yotmasdan nima qilib o'tiribsangiz! Yotlaring! Yotgilaring kelmayotgan bo'lsa, tippa-tik turadigan yerga chiqarib qo'yishim mumkin. «Keyin gaplashamiz» deb ko'z urishtirgan suhbatdoshlar o'z o'rinlariga o'tib yonboshlashdi.

Uyqu qayoqda! Abulbarakaning fikri-yodi Qoplonbek bo'lib qolgan edi. Qonlonbekni avval u yaxshi ko'rgan va hurmatini doim bajo keltirgan yurtning sotqini sifatida yoqtirmasa, endi josus sifatida, bu muqaddas o'lkani ham puldor oyog'i ostiga poyonoz qilib solib bermoqchi bo'lgan bir past odam sifatida jirkanch bilan tilga oldi. Bu iflos ish uning qo'lidan keladi, u bunga qodir. O'z yurtining qadriga yetmagan o'zganikini e'zozlaydimi! Muttaham! Demak, uning xonasiga ham bekorga kirmagan ekan. Tuzuk ahamiyat bermay yaxshi qilmabdi. Qani endi shu mahal oldida bo'lsa-yu, tars-tars tortib yuborsa: «Mana senlarga qora kun ko'zlaganlarning biri», deb o'rta tashlasa. Koptokdek oyoqlar ostida dumalashini ko'rsa! Iloji yo'q. U turgan qo'ra bilan bu kamera oralig'i uncha olis bo'lmasa ham, o'rtada qalin sement devor, temir panjara, tikanli sim, miltiqli kishilar bor, adolatsizlikni bayroq qilgan mudhish qonun va bu qonunning malaylari bor. Bu qonunlar ko'rinishdan qanchalik puxta ko'rinmasin, ichi sasigan olmadek bir kuni irib tushadi! Undan putur ketgan, u adolat merganlari tomonidan allaqachon nishonga olingan. Shunday o'ylar bilan bo'lib, mijja qoqmagan Abulbaraka tushlik uyqu soatini qanday o'tganini bilmadi. U tugashi bilan chaqirib qolishdi. Bu gal tergovchi emas, qamoq ma'muriyati chaqirgan ekan.

Uni ro'za tutmayotganida ayblab oppoq soqolli, malla sallali chol ta'na qildi:

– Hoji odamning farzandi uyalmaysizmi?

Abulbaraka hozir ro'za kirganini, kameradagilarning ba'zilarini tutayotganini esladi. Lekin u gapni boshqa yoqdan oldi:

– Hojining o'g'li qamoqda begunoh yotsa mayli-yu, ro'za tutmasa aybmi!

– Biz u yog'ini bilmaymiz! Ro'za tutishingiz kerak. Abulbaraka bu kekxa odamning ro'dapologidan miyig'ida kuldi:

– Bizni savobga daxldor qilib, Olloga yaxshi ko'rinmoqchi bo'lsangiz, mayli, biz rozi. Lekin ovqatni tuzating.

– Kishi qancha aziyat chekib tutsa, shuncha savobi baland. Chol bu ko'hna afsonani qanchalik samimiyat bilan jiddiy gapirmasin, Abulbaraka kulgidan o'zini tutib turolmadi.

– Keling, savobi kamroq bo'lsa ham, tuzatib ovqat bering. Ma'mur, albatta, bunga rozi bo'lolmaydi, to'g'risi, uning haqi yo'q. Uning vazifasi «shayton so'ziga uchgan gumroh bandani haq yo'liga solish».

– Gojlik qilmang, mana shu ulug' ayyomda buyurgan o'ttiz kun ro'zasini tuting, o'ziga sig'inib, ishingizga kushoyish so'rang. Shoyad...

– Qani edi! – uni bo'ldi Abulbaraka istehzo bilan, – fransuzning miltig'i kuchlikka o'xshaydi.

– Kufur gapirmang, bo'tam. Tavba qilmoq hech qachon kech emas. Bandasining izmi uning qo'lida. Chol ovqatni yaxshilashga rozi bo'lmaganidek, Abulbaraka ham ro'za tutishga va'da bermadi. Lekin u kameraga tushib, choldan juda ham xafa bo'ldi: u suhbatini tugatmagan boyagi kishi yo'q edi. Uni chaqirib olibdilar. Abulbaraka uni qancha ilhaq bo'lib poylamasin, u qaytmadi. Suhbat chala qolganiga juda achindi. Aftidan, ancha narsa biladigan ko'rinadi. O'zi kim ekan? Ismini ham so'ramabdi! Eh, at-tang! Advokat Abulbaraka bilan uchrashib «Ishning borishi yaxshi. Bo'shashmang!» deganiga bir hafta bo'lmasdan uni ozod qilishdi. Kechagina qovog'idan qor yog'ib, otgani o'q topolmay tajang yurgan politsiya xodimi, bugun «Hammasi shunchaki hazil edi degandek ishshayib,

yumshoq gapirib, uning ko'nglini olmoqchi bo'lardi, Abulbarakaning sal qiyshiq turgan galstugini uzr so'rab tuzatar ekan, hatto:

– Doktor, ba'zi bir iltimosim tushsa yo'q demaysiz!
– deb tilyog'lamalik qildi. Abulbaraka kulib, bigizini tiqib oldi:

– Kimning yuragi bilan menga endi o'zingizni boqtirasiz!

– Men sizni bunchalik kekchi deb o'ylamagan edim, doktor.

– Avvalam men siz o'ylagancha kekchi emasman. Sizda nima aybki, sizdan o'ch olsam. Siz bir xivich xolos. Ushlab turgan qo'l boshqa!

«Buning tili qilich!» deb ilojsiz ko'ngli ketgan politsiya xodimi, gapni cho'zishni ortiqcha bilib, yozib turgan qog'ozini tezda tugatdi. «Haqim bo'lganda senga ko'cha yuzini ko'rsatmas edim-ku, majburman» degandek, bir qarashda Abulbarakaga uzatdi.

– Qo'l qo'ysangiz.

– Hali shunaqasi ham bormi! – dedi Abulbaraka ko'zdan kechirib labida istehzo bilan.

– Rasmiyat uchun.

– Marhamat, siz xursand bo'ling! – xuddi o'sha ohangda u shart imzo chekdi. Bu «qamoqda ko'rgan-bilganlarimni sir saqlayman» degan tilxat edi. Shunda Abulbarakaning yodiga Zilol to'g'risida tergovchi bilan bo'lgan suhbat tushdi.

– Eh attang, Zilolni ham chaqirib shunday bir qog'ozga tavba qildirib olmagan ekansizlar-da. Bu achchiq pichingning ma'nosini fahmlagan xodim o'zini eshitmaganga soldi. Eshikni ko'rsatdi:

– Marhamat, ketaverishingiz mumkin.

Uni eshikda bir to'da odam kutib turardi. Bular ichida u bepul davolagan kishilar, «Mexanika» zavodining ishchilari, Zilol va Hoji bor edi. Kechagina kasaldan turgan Hoji kunda qolgan mirzoyi sabzidek so'lib tushgan, xomush edi.

– Ha, nodon bolam, – deganicha o'g'lining yelkasiga o'zini tashladi.

Abulbarakaning ko'ziga hammadan ham Zilol juda o'zgacha ko'rinib ketdi. U bilan quchoqlashib ko'rishar ekan, tergovda bir necha marta tilga olinganiga ishora qilib:

– Tushingizga kirganim yo'qmi? – dedi.

– Kirdingiz! Har kuni necha marta esladim! O'g'lim ham shu yerda edi-ya, qayoqqa ketdi, bolasi tushkur! – birdan uni ko'rib qolib, chaqirdi, – amaking bilan ko'rishmaysanmi, tentak, qayoqda yuribsan. Dumaloq boshidagi sochi ajiriqni eslatgan qorachagina bola tortinib kelib, Abulbarakaning bag'riga kirdi. Abulbaraka uni o'zidan uzoqroq qo'yib, yuz-ko'ziga boqdi:

– Juda chiroyli bola bo'lib ketibsanku! Ko'zing og'riyotgani yo'qmi?

– Yo'q – boshi bilan ham tasdiqladi bola.

– O'qiyotganingni aytmaysanmi amakingga, – uni to'ldirdi otasi. Boladan oldin Abulbaraka tanbeh berdi:

– Bekor qilibsiz. Ko'zi toliqib qolishi mumkin.

Bu gap, baribir sevinchidan terisiga sig'may turgan Zilolga ta'sir qilmadi, o'zinikini gapirdi:

– Tezroq savodini chiqarib, o'sha yurtga borib o'qimoqchi-da, amakisi! Hali sizning bu gapdan xabaringiz yo'q. Shundaymi, o'g'lim?

Bola uyalib, boshi bilan ma'qulladi. Qosh qorayganda hammadan ko'ra ko'proq quvonib, kirib kelgan Zeytuniy

uzoq o'tirib qoldi. Endi u Hojining ko'ziga avvalgidek sovuq ko'rinmaydi, uning ketishini avvalgidek betoqat kutmasdan, to'rga o'tqazib, «qilgan jonbozligi» uchun tashakkur ham bildirib qo'ydi.

– Asil do'sting ekan bu odam! – dedi o'g'liga alohida ta'kidlab. U ham kerilib qo'ydi:

– Bizning o'rtoqlar shunaqa!

Hoji charchaganini aytib, yotgani chiqib ketgach Zeytuniy do'stiga tegishdi:

– Xo'sh, bizning politsiya qalay? Eshigining tagiga odam to'play berib, o'zini ham enka-tenkasini chiqarib yubordik. Zilol-ku o'g'li bilan «Bugun chiqmaydi» desak ham, «yo'q, chiqadi. Yuragim sezib turibdi» deb tuni bilan qamoqning eshigida qolib ketdi. Sendan juda minnatdor. Yuborib juda yaxshi qilgan ekamiz, shu kunda ish beryapti. Xotirasini tilidan qilib, gazetaning bir betida bosdik. Redaksiyaga xat yozib, «o'zi kelib og'zi bilan gapirib bersin» degan joylar ham bor.

– Yuborish kerak, – dedi Abulbaraka va tergovda uning tilga olinganini aytib berdi. Ketidan qo'shdi. – Yarga tuz sepgandek politsiyaga alam qilyapti.

– Shundaymi? Yaxshi-da! Xo'sh, umuman, bizning politsiya qalay?

– Yaxshi. Bilag'on. Lekin befahmroq. Shunday bir latifa eshitdim: arxeologlar ko'hna bir vayronadan g'alati bir bosh suyagini topishibdi. Ne-ne mutaxassislar qo'ldan-qo'lga olib, qaysi davrga oidligini aniqlolmabdi. Shunda politsiya: «Bizning ixtiyorga yuboring, bilib beramiz!» debdi. «Xo'p!» deyishibdi. Bir haftadan keyin natijasini politsiya ma'lum qilibdi: «Bundan falon million yil avval o'tgan, falon kuni tug'ilgan odam ekan!»

– «Qayoqdan bildiringiz?» – qiziqib so'rashibdi arxeologlar.

– «O'zi iqror bo'ldi!» – debdi politsiya. Abulbaraka xandon solib kulib, so'ziga yakun qildi:

– Bizning politsiya shunaqa, suyakni gapirtiradi.

– Lekin sizni emas.

Abulbaraka do'stining maqtoviga javob qaytarmadi. O'g'lining g'amida yotib turgan Hoji ertalab nonushtadan keyin Abulbarakaning oldiga kahrabo tasbehini sanab kirib keldi. U o'g'li bilan bir gaplashib olmoqchi. Buni u yotgandayoq qasd qilib qo'ygan.

– Nimadan kamliging bor, o'g'lim? – deya gap boshladi Hoji.

– Hech narsadan. Nima qildi? – Abulbaraka otasining so'rog'i ostida ancha gap borligini avval payqamadi.

– Shunday ekan, bu tashvishlarning nima hojati bor. Tinchgina yursang bo'lmaydimi?

Ana endi o'g'il tushundi, o'zini o'ngladi. O'z ishida bir ayb ko'rmas edi:

– Nima qilibman?

– Yo'q, o'g'lim, sen meni chorig'ini sudrab yurgan go'l deb o'ylama. Hammasidan xabarim bor. Qo'y endi bu ishingni! Senga yarashmaydi!

Abulbaraka bildiki, otasi ochiq gaplashmoqchi. U ham ochig'iga ko'chdi:

– O'zingizning yaxshi bir gapingiz hali esimda, dada, yaralangan qush ko'rsang, bir qo'lingda suv, bir qo'lingda don olib bor. Shu qiynalib yotgan beva-bechoraning qadri bir qushcha yo'qmi? Axir ular xudoga nima yozibdi!

– Oh, bolam, nodon bolam! Besh barmoq og'a-ini bo'lgani bilan teng emas. Nahotki, shuni tushunmasang.

– Teng bo'lgan joylar bor-ku.

Ikkisi ham gap qaysi mamlakat to'g'risida ketayotganini tushunardi.

– Uzoqdan senga shunaqa ko'rinadi. – Uni qaytardi Hoji.

– Yo'q! Ehtimol, juda ham bir tekisda emasdir, lekin bizdagiga o'xshab, birov oltin jomda sharbat ichib, boshqalari ho'plashga zor emas.

– Ana shu-da, na qoshiqda turasan, na cho'michda. Katta bir narsa deganda ishon-da. Maza-bemaza nar-saga boshingni to'ldirib, g'ovlatib yurgandan, yoshsan, kuch-quvvating bor, o'yna-kul, maishatingni qil.

– Qora nonga qorni to'ymaganlar-chi!

Bu gap Hojiga juda kor qildi. U kesatdi:

– Bo'lmasa davlatingni bo'lib ber.

– Yetmaydi, – kulgandek bo'ldi Abulbaraka.

– Undan keyin ular sadaqamga zor emas.

– Inqilob bo'lishi kerak degin!

– Ehtimol. Lekin birinchi galda mustaqillik olish kerak. Men bir xalqning, u qanchalik katta va madaniyatli bo'lmasin, ikkinchi bir xalqqa najot baxsh etishiga, uni baxtini ochishiga ishonmayman. Har xalq kattadir, kichikdir o'zi alohida bo'lishi, o'z aravasini o'zi tortishi kerak. Biri ikkinchisining yelkasiga minib olib «jannatga ketyapmiz» deyishi bekor.

– Shu gaping to'g'rimas. Hech kim bir-birining yelka-siga minib yurgani yo'q.

– Ana xolos. Bo'lmasa fransuz janoblari bu yerda nima qilib yuribdi? Nega usuli idora ular tilida?

– Ko'rib turibsanki, xalq omi. Shu xalqqa hozir usul idorani berib bo'ladimi? Bir-birini g'ajib tashlaydi-ku. Sal esini tanisini oq-qorani ayirsin.

– Mana shu g'irt yolg'on. Parijlik korchalonlarning fikri. Vaholanki, ular nonini tuya qilib yeyayotgan bu o'lkada bir mahallar shunaqa madaniyatlar yaratilib, shunaqa

usuli idora bo'lganki, hozir havas qilsa arziydi. Hammasini tuproqqa qorishtirib bo'ldilar. Endi o'zlarinikini ro'kach qilib, «shu yo'ldan borsang ma'qul deb hiqildog'idan bo'g'ib turibdilar. Baribir bu uzoqqa bormaydi. O'z xalqining milliy manfaatini ko'zlaydigan, bu yo'lda hatto jonidan kechadigan kishilar doim bo'lgan, hozir ham bor, kundan-kun ko'payyapti. Zulm qattiq, nafasi ichida. Samovarga o'xshab, ichidan qaynab, bir toshishi bor.

– Demak, mustaqillik bermaguncha Parij sizlardan qutulmaydi, shundaymi? – Hoji o'g'lining «o'shalar» bilan birgaligiga shubha qilmay qo'ydi. Shuning uchun ko'pchilik qilib gapirdi. Abulbaraka ham xuddi shu ohangda javob qildi:

– Yo'q! Xalqning intilishi buloq, juda kuchli buloq, ming ustiga tuproq tortsin, ko'ziga kigiz tiqsin, baribir, bir kuni otilib chiqadi.

– O'zing-ku shu inqilobdan qochib kelgan bo'lsang... – Hojining gapi og'zida qoldi. Qizib turgan Abulbaraka gapirtirmadi:

– Men emas, siz qochgansiz. Men marhum «qoplon»dek ergashib kelganman, xolos.

– Kelib xato qilibsanni? – otaga malol keldi.

– Albatta! Qolganlar o'z yurtlarida o'ynab-kulib yuribdi.

– Bo'lmasa qaytib ket! – achitdi Hoji.

– Tayyoriga borgani uyalaman. Qoshiq ushlagani qo'lim titraydi...

Bu gap uni o'qitgan, hunar bergan, ay'tganidek qilib kasalxona ochib bergan, uzatsa qo'lga, ochsa og'ziga tutib turgan Hojiga juda-juda alam qildi. U o'g'lining bunchalik o'zidan uzoqlashib ketganini, u istamagan ko'chaga kirib olganini bilmagan ekan. «Y... j'ururi, erta-indin qaytib qoladi», deb xato qilganini...

Uni qayirib olishiga ko'zi yetmadi. «Nega bunchalik alamzada?» degan o'yga borib:

– Xo'sh, ayt-chi, o'g'lim, o'sha yurtindagilardan nima kamliging bor? – dedi.

– Dadajon, siz tushuning, gap faqat mening haqimda emas. Men bo'rsiqning bolasidayman: yonimda jiring-jiring pul, oyog'imda zulukdek yangi mashina, deganim degan, aytganim aytgan.

– Tag'in nima kerak senga? O'zingni bil, o'zga bilan...

– Menga, o'zingga hech narsa kerak emas. Axir men semirishga boqilayotgan so'qim emasmanki, o'z korimni bilsam. Mening yor-u do'stim, qo'ni-qo'shnim, qo'yingki, butun bir xalqim bor. Hoji o'g'lining niyati qat'iy ekanini angladi. Bu anglash uning yuragiga vahima soldi: yana qamalsa, qiynalsa...

– Shuni unutmaki, Abulbaraka, singan qo'lning og'irligi bo'yinga tushadi. Mening bo'ynim sening dardingni endi ko'tarolmaydi. Abulbaraka otasining tashvishini darrov tushundi:

– Siz xavotirlanmang. To'shagingizni qalin solib yotavering.

– Sen ham endi bola emassan...

– Kurash mardni yoshartiradi, qo'rqqoqni qaritadi, – maqtanib qo'ydi jo'rttaga Abulbaraka, – qarg'aning yuz yillik umridan burgutning o'n yili yaxshi. Kishining kuchi parovozning bug'i bo'lsa, uni qichqirishga emas, yurgizishga berish kerak.

– O'g'lim, qiyshiq arava yo'lni, yomon elni buzadi, degandek noming qoraga chiqib qolmasa edi.

– Yo'q, chiqmaydi. Yo'l bo'lsa, allaqachon buzilgan. Endi uni tuzatish kerak. Hoji o'ylab turib, o'g'lini insofga chaqirmoqchi bo'ldi:

– «Uyimda yo'q go'jalik, ko'nglim istar xo'jalik», deganlarning gapini sen qo'y, o'g'lim. Senga uyat! Tilinga erk berma. Til yaxshi bo'lsa, toshdan qattiq tishlardan devor qilib, ichiga qamab qo'yarmidi!

– To'g'ri, til suyaksizu, lekin suyakni sindiradi... men indamasam, u indamasa, siz indamasangiz, bu temir zanjir bo'yinni qiyib yuboradi-da, dada, – dedi Abulbaraka shoshmasdan dona-dona qilib.

– Bilasizmi, dada, hayot – velosiped. Oldinga yurgizish uchun uning g'ildiragini aylantirib turish kerak.

– Oldinga yurmay o'lsin, turgan-bitgani tashvish... Bit-ta farzandim bo'lsang...

Abulbaraka yana faylasuflik qilib, butun yuragini ochib soldi:

– Bola tug'ilganda u oila farzandi bo'ladi, el-yurtga fidoyilik bilan xizmat etsa, xalq farzandi, barcha xalqlarning manfaatini ko'zlasa, yo'l-yo'riq ko'rsatsa bashariyat farzandiga aylanadi. Men shu yo'ldagi kishilarning muxlisiman. Otaga hammasi ayon bo'ldi. O'g'lining o'zidan begona bo'lib qolganini bilgan Said-akbar hoji, yuragi egasi ko'chib ketgan hovliday huvillab: Oh, bolam, yo'ling qaltis, juda qaltis! deganicha, tasbeh o'girish ham yodidan ko'tarilib, mahzun chiqib ketdi. O'g'il esa: «Eng muqaddas narsa milliy ozodlik uchun to'kilgan qondir», dedi o'zicha uning orqasidan.

* * *

Qoplonbekning ko'ziga Hojini boqib turgan doktor laqqa qattiq ko'rinib, ichmoqchi bo'lganda qaynoq sut chiqib qolib, tili kuygandan buyon yuragi po'killab yurgan bo'lsa, Abulbarakaning qamoqdan chiqib kelishi uni xonadonda omonat qilib qo'ydi: Abulbaraka o'zining

qamalishida uning qo'li borligini bilib qolsa bormi! Hojichi? Hojiga doktor aytsa-ya! Ana unda Qoplonbekning holiga maymunlar yig'laydi! Do'l urgan daraxtday xunuk bo'lib, chiroq yoqsa ko'ngli yorishmay yurar ekan, nogoh u bir kechasi Abulbarakaning Hoji bilan gaplashayotganini eshitib qoldi. To'g'risi, uning qulog'i bu xonadonning har bir shiviridan ding edi.

«Josusligi rost», – dedi Abulbaraka.

«Yo'g'-e!» – ajablendi Hoji.

«Menga aniq odam aytdi. Ishonavering». Ishtonsizning hadigi cho'pdan degandek, Qoplonbek yurak o'ynoqilab gap kim to'g'risida borayotganini aniq bilmoqchi bo'lib, butun vujudi bilan quloq soldi. Birdan uning nomi tilga olinib qoldi. Shundoq ham tizzasi titrab yurgan Qoplonbek turgan yerida qotdi. Lekin necha bor tegirmonga tushib, butun chiqqanidan tezda o'zini o'nglab oldi: demak, bu xonadonda uning oyi o'ttiz bo'ldi. Vaqtida etagini yopib qolmasa sharmandasi chiqadi!

U shu kechasiyoq Tamannoning xizmatchi xotin bilan narigi uyda yotganidan foydalanib qochdi. Shunda ham Tamannoning qimmatbaho bezaklarini yoniga solib olishni unutmadi. Buning ichida homilador xotiniining doktorlar maslahati bilan taqmay yurgan, bir mahal otasi «xazon bo'lgan muhabbati evaziga» in'om qilgan gavhar ko'zli nodir uzuk ham bor edi.

Pixini yorgan tulki ketidan qidirib qolishlaridan cho'chib, stol ustida: «Zarur ish bilan bir haftaga ketdim. Tinchlik, xavotirlanmanglar. Sizlarni bezovta qilishga botinmadim. Xayr...» degan xat qoldirdi.

Ertalab kutilmagan bu xatga ko'zi tushgan Tamanno hayron bo'lib, ko'tarib chiqdi. Yuragi yomon bir narsani sezayotgandek bo'lgan Hoji Abulbarakaga qaradi.

– Bu nima bo'ldi?

Abulbaraka ham yelkasini hayron qisdi.

Ikki hafta o'tdi... Uch hafta o'tdi... Lekin Qoplonbekning bir haftasi hamon tamom bo'lmas edi.

26

IKKI XIL OTANING BIR XIL O'G'LI

Abulbaraka qamoqdan chiqqan kunining ertasigayoq o'z kasalxonasiga kelsa, ikkita yaxshi doktori: «Egasi yo'q. Kasalxona o'ldi», deb bo'shab ketibdi. Ko'p xodimlarning tarvuzi qo'ltig'idan tushgan. Hamma yoq betartib. Ketgan doktorning bittasini: «Men yo'g'imda tashlab ketishing uyat emasmi? Bemorlarga rahming kelmadimi?» deb qaytarib keldi. Xodimlarni yig'ib kasalxonani avvalgidan ham yaxshilanganini bildirdi. Boshi bilan ishga sho'ng'ib ketdi. O'g'lining barvaqt ketib, kech kelishini ko'rgan Hoji: «O'g'limning uydan ko'ngli qolgan, bosh olib ketib qolmasa go'rga edi», deb yuragi po'killab, o'zidan so'ragani botinmay yurdi. Ana shunday kunlarning birida Zeytuniy kasalxonaga qo'ng'iroq qilib qoldi:

– Ha, do'stim, nodir arab qo'lyozmasiday sizni ko'rish juda qiyin bo'lib qoldi, tinchlikmi?

– Tinchlik.

– Yo cho'chib qoldingizmi? – Zeytuniyning kulgisi eshitildi.

– Bilmadim. Quyon yilida tug'ilmaganman shekilli!

– Shunga hayronman. Bugun bizga kelasizmi?

– Nima gap?

– Ana xolos! Turmushdan orqa etakday ketda kelib ketibsiz. Bugun bizda matbuot konferensiyasi-ku.

Abulbaraka kasalxonasining ishi o'zi yo'g'ida o'lda-jo'lda bo'lib ketganini aytib, nima bilan bandligini do'stidan

uzr so'ragandek sanab chiqdi. Chunki do'stining hazil bilan qilgan ta'nasi ham uni ancha lohas torttirgan edi. O'zining bexabarligini yashirmagan Abulbaraka so'radi:

– Kimlar bo'ladi?

– Hali bu yog'ini ham bilmaysiz shekilli. Ittifoqdan kelgan...

– Undan xabarim bor: qishloq xo'jalik mutaxassislarimi?

– uning so'zini bo'ldi Abulbaraka.

– Xuddi o'zi! O'shalar bugun matbuot konferensiyasi beradi.

– Bo'пти, boraman.

Abulbaraka konferensiya o'tkaziladigan bu mo'jazgina zalga kirib kelganda anchagina odam to'plangan, Zeytuniy bir chetda qandaydir jurnal varaqlab o'tirardi. Uni ko'rishi bilan qarshisiga peshvoz yurdi.

– Kishini juda sog'intirib qo'ydingiz-ku!

Jilla bo'lmasa, qo'ng'iroq ham qilmaysiz! Men-ku, senzura bilan jiqqa-musht bo'lib yotibman. – Zeytuniy u bilan qo'l siqib ko'rishib, qo'ltiqlab oldi, bir chetga boshladi.

– Tag'in nima gap? – qiziqdi Abulbaraka.

– Bizning mutaxassislar latta. Mehmonlar toza boplayapti. Bekor yotgan yerlarga joni achiydi. Bir qishloqdagi suhbatlarini gazetada bergan edim, senzuraning me'dasiga botmadi. O'rni oppoq bo'lib chiqdi, ko'rgan-dirsiz?

– Ko'rdim. Qanaqa material ekan, devdim.

– O'sha! – Zeytuniy bir chetga o'tib to'xtadi. Do'stiga deraza yonida turgan kulrang kostyumlik, tepakal, sepkilli kishini ko'zining qiri bilan ko'rsatdi. – O'sha janobni tanis-sizmi?

– Yo'q.

– Siz yotib chiqqan idoradan. Undan uchta narigi do'ng peshana ham. Kiraverishda ham ikkitasi turibdi.

– Muncha ko'p! Bir narsaning hidini bilganmi?

– Bularning butun kuchi shunda-da! Uchtasi mutaxassislarga aralashib, mehmonlarni ham olib yuribdi.

– Bechoralar! – kesatdi Abulbaraka, – shunaqa qilishmasa, kuni o'tmaydi-da! Bularning uyalmagani!

– Bularning oldidan uyat oyog'ini osmonga qilib o'tadi. Bular, o'zlaricha, bizni hech kim payqamaydi, deb o'ylashadi. Vaholanki, tovuq ochgan o'rdak bolasidek ajralib turishadi.

Zeytuniy so'zini tugatmasdan zaldagilar duv etib eshikka qarashdi. Mehmonlar kelishgan edi.

– Ha, rostdanam anavi qorachasi sizning tomondan Abulbaraka, – dedi Zeytuniy mehmonlar ichida o'z chust do'ppisi bilan ajralib turgan yigitni ko'rsatib. Yigit kamoli ishonch bilan to'rga o'tib borardi. U Abulbarakaning ko'ziga issiq ko'rindi. Uni kuzatib turib: «Eli quvvatli-ning bel ham baquvvat bo'ladi», deb qo'ydi ko'nglida. Matbuot konferensiyasi juda ko'ngilli o'tdi. Mamlakatni aylanib tarixiy obidalar, qishloq xo'jaligi bilan yaqindan tanishgan mehmonlar o'z taassurotlarini bir-bir gapirib berdilar. Ularning har bir so'zi, har bir tabassumidan bu o'lkaga qiziqishlari, munosabatlari, mehru muhabbatlari yaqqol ko'rinib turardi. O'sha chust do'ppili yigitning:

– Apelsin, limon, xurmo o'stirishda biz sizlarga shogird tushmoqchimiz. Marhamat qilib ustozlik qiling, o'rgating, o'rganaylik. Bizdan nimaniki o'rganmoqchi bo'lsanglar bizga kelinglar, do'st uchun eshigimizgina emas, ko'nglimiz uyi ham ochiq. Uymizning to'ri, fikrimizning zo'ri sizlarniki. Sizlarda o'rikning navi kam ekan. bizda ajoyiblari bor. Bizdagi yemishbop uzumlardan ham o'stirib ko'ringlar.

Keling, agronomlarcha, bog'bonlarcha musobaqa qilaylik. Toki har bir odam tabiatning ajoyib nozu ne'matidan bahramand bo'lsin! – degani zalga ma'qul tushdi.

Shundan keyin savol-javoblar boshlanib ketdi. Hatto bir chet el muxbiri: «Sizda terakka uch xil meva payvand qilingan emish, shu to'g'rimi? To'g'ri bo'lsa nima maqsadda», deb savol bergan edi, delegatsiya boshlig'i, yo'g'on ko'zoynakli, sochi jayraniki singari orqasiga yotmagan hazilkash professor: «Balandda pishgan meva shirin bo'ladi», deb kuldi. Zalda kulgi ko'tarildi. Konferensiya tugab, mehmonlar o'zlari sha'niga beriladigan kichikkina konsertni kutib, zalda aylanib yurishar ekan, haligi chust do'ppili qoracha yigit tarjimon orqali bir kishidan so'rab qoldi: – Shaharda o'zbeklar bor, deb eshitdim. Saidakbar hoji deganni hech kim tanimaydimi?

Nariroqda turgan Abulbarakaning qulog'iga otasining ismi issiq eshitildi. U chust do'ppili yigitga yaqinlashdi, salomlashdi.

– Nima edi! – dedi keyin. Yuragi kutilmagan xabarni kutayotgandek g'alati bo'lib ketdi.

– Siz bilasizmi?

– Ha. Mening otam.

Mehmon birdan jonlanib, uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi. U ham kutilmagan bu uchrashuvdan shoshib qolgan edi. Shunday bo'lsa ham, o'zini tutib, aniqlashga o'tdi:

– Sizning ismingiz Abulbaraka emasmi?

– Abulbaraka. Siz meni qayoqdan taniysiz?

– Juda yaxshi taniyman. Toshkentda tug'ilgansiz. Onangizni uchta qizi bilan tashlab kelgansizlar. Qurbonali degan xizmatkoringlar bor. Ketma-ket qalashtirib tashlangan dalillardan Abulbaraka hang-mang bo'lib qoldi.

Tushimmi, o'ngimmi? Bu odam kim? Bizning oilani qayoqdan bunchalik batafsil biladi?

U so'rashga majbur bo'ldi:

– Siz o'zingiz kim bo'lasiz?

Chust do'ppili yuz-ko'zini yiltillatib mamnun kuldi:

– Menmi? Men... men xizmatkoringizning o'g'li.

– Qurbonali otaningmi?

– Xuddi shunday!

Bu chust do'ppili yigit muhtaram kitobxonga tanish Ummatali edi, albatta. U yo'lga chiqqandan buyon bu armonni beliga tukkan, imkon bo'lgan yerda surishtirib kelardi. Mana bu jumboqning endi uchini topib entikib qoldi: ertakda ham bunaqasi bo'lmaydi! Uning qarshisida savlat to'kib turgan boyvachcha yigit Saidakbar hojining bir xotin, uch qizga almashtirgan arzandasi. Go'dakligida ko'rib, mehriga to'ymagan otasi Qurbonali shu afandini ko'tarib katta qilgan, yiqilsa kiyimini qoqib, loy qilsa botinkasini yuvgan. Chaqirsa, «labbay!» deb xizmatida bo'lgan.

Abulbaraka uning ko'ziga juda xunuk ko'rinib ketdi. Shu ota-bola janobning qo'lida otasi vatangado bo'lgani yetmagandek, u o'zi ozmuncha jabrini tortdimi!

– Ayting-chi, janob, – dedi u Abulbarakaga qasoskor qarab, – otam hayotmi?

– Afsus yo'q. O'tgan yil vafot ettilar...

Afsus so'zi Ummatalining diqqatini tortdi: nega buning o'z xizmatkoriga rahmi kelyapti? Mening oldimda shunday qiyiyaptimi? Janoblarning nimasi ko'p – nayrangi!

– Istasangiz qabriga boshlab borishim mumkin, – dedi Abulbaraka xayol og'ushida turgan Ummataliga. Bir mamlakatning vakili sifatida viqor bilan haligina so'zlagan yigit, uning nazarida, cho'kib ketganga o'xshardi.

Abulbaraka undan ko'p narsani so'rab bilmog'chi, birinchi navbatda onasi taqdiri bilan qiziqar edi. Lekin yigitdagi o'zgarish uning tilini bog'lab qo'ydi. Ummatali unga otasining baxtini qaro qilganlardan biri sifatida nafratlanib qarab turganini sezmoqda edi. Bu bir tomondan Abulbarakaning vijdonini qiynasa, ikkinchi tomondan Qurbonaliga nisbatan bo'lgan hurmatiga tuhmat edi. Uni bu qiynoqdan Ummatalining:

- Qachon vaqtingiz bor? – degan savoli ozod qildi.
- Iltasangiz, hozir.
- Ketdik.

Abulbaraka yo'lda hamma gapni batafsil gapirib berdi. Ummatali unga nohaq sovuq munosabatda bo'lganidan xijolat tortdi:

– Men sizni o'sha boyning o'g'li deb...

– Sanamay sakkiz demang-da! – ko'ngliga olmaganini bildirdi kulgi bilan Abulbaraka. Ana shundan keyin suhbatdoshining yuragiga yo'l ochganiga ishonib, o'z dardiga ko'chdi. U, onasining uch qizi bilan: «Chet elga qochgan boyning xotini, deb allaqayoqqa sovet hukumati tomonidan surgun qilinganini, o'shoqda o'lib ketganini otasidan eshitgan. Otasi buni ularni olib kelish uchun yuborgan odamidan bilgan. Shunday ishonchda yurgan Abulbarakaning onasini astoydil surishtirish niyati yo'q. Ko'proq Ummatalining o'zi bilan qiziqar, uning, oddiy bir xizmatkorning tirik yetim o'g'lining shunday ko'zga ko'ringan agronom bo'lib etishgani maftun qilib qo'ygan edi. Mashinadan tushib, qabriston tomon burilishar ekan, Abulbaraka so'rab qoldi:

– Bizning xaqimizdagi gapni onangizdan eshitgan bo'lsangiz kerak, albatta.

- Yo'q. Sizning onangizdan bildim.
- Mening onamdan?!
- Ha, sizning onangizdan!

– Mening onam tirikmi?!

– Bo'lmasam-chi! Birov bir narsa deydimi?

Abulbaraka labini tishlab oldi. Ko'z oldiga otasi keldi, uning gaplari qulog'ı ostida jaranglab ketdi. Gapni chuvatmadi:

– Men bo'lsam... biz bo'lsak... – deganicha nafasi ichiga tushib, a'zoyi badani zirqiradi. Qo'ygan qadami oldiga bosmadi: nahotki dadasi aldogan bo'lsa!

– Rostdan aytyapsizmi, Ummatali, yo... – hayron so'radi u.

– Bunday narsada hazillashib bo'lmas, menimcha. Biz bir hovlida turamiz.

– Rostdanmi? Kishining ishongisi kelmaydi. Sog'liqlari yaxshimi, o'zları tetikmi?

– Yaxshilar, bardamlar.

– Biz bu yoqda... – Abulbaraka otasidan eshitganini aytib berdi.

– Bo'lmagan gap. Hech kim u kishining supurgisini u yerdan olib, bu yerga qo'ygani yo'q. Hech kim yo'qlab ham bormagan. Abulbaraka sovuq suvga birdan sho'ng'igan kishidek ko'zi charaqlab ketdi: tushimi, o'ngi? Eshitayotgan o'zining qulog'imi? Kim haq: otasimi, bu yigitmi? Bu yigitga yolg'ondan nima manfaat bor? Abulbaraka Qurbonalining qabrini o'g'li Ummataliga ko'rsatdi-yu, o'z tashvishi bilan o'zi ovora bo'lib qoldi. Keyin bilsa, o'rtanib-yonib yig'layotgan hamrohining ko'nglini ham so'ramabdi. Ummatali esa, otasining diydoriga to'ymagan bo'lsa-da, uzoq yillar mehrini yuragida ardoqlab yurgan musofir otasining o't bosgan g'arib qabri tepasida bir lahzagina titrab turdi-da, so'ngra ho'ngrab yig'lab yubordi. Cho'kkan qabrini joni-jahdi bilan quchoqlab yig'ladi. Tirik yetim o'tgan bolaligi uchun, o'g'lim degan birgina so'zga zor bo'lib o'tgan o'smirligi uchun yig'ladi. Yolg'iz o'g'lini aldanib sag'ir qoldirgani yetmaganidek o'zining

ham yetimdan besh battar qiynalib o'tgan musofir kunlari uchun, begona yurtida uning tortgan g'am-alam, hasrati uchun, vatangadoligi uchun yig'ladi. Tirikligida chekkan qayg'ulari yetmagandek qabrining cho'kib, o't bosib oyoq osti bo'lib yotgani uchun o'ksib yig'ladi, yurakbag'ri o'rtanib yig'ladi. Ona yurtida bo'lsa, qabrini yovvoyi giyoh shunday bosib yotarmidi?! Ustiga gullar ekib, atrofiga panjara tutmasmidi?! Boshiga marmartosh qo'ymasmidi? Kunda bo'lmasa ham haftada xabar olib, ziyorat qilib turmasmidi!

«Ey taqdir, otani bunda zor, farzandni unda intizor etmasang nima qilardi! Bizda nima qasding bor edi!»

Ummatali shu kuniyoq otasining boshiga tuvaklarda rang-barang gullar keltirib qo'ydi. Ertalab yana ziyoratga keldi. Bu gal uning yonida safardosh hamrohlari ham bor edi. Ertasiga bu voqeani butun gazetalar yozdi. Ayniqsa, Zeytuniyning gazetasi keng yoritdi. Bir haftadan keyin, bu o'lkada ishi bitgach, Ummatali otasining xokini uning kindik qoni to'kilgan, tirikligida yana bir bor ko'rishga ilhaq bo'lgan ona vataniga olib ketdi. Abulbaraka intizor onasiga ko'pdan-ko'p salom aytib «albatta boraman, Ummatali», deganicha ko'zida yosh bilan xayrlashdi.

Abulbaraka onasi va opalari xaqidagi achchiq haqiqatni Ummatalidan eshitgandan keyin o'tirgani joy topolmay qoldi. O'tirsa o'rni, yursa yo'li kuydi. Nahotki shirin gapirib, yumshoq erkalab yurgan otasining qalbi shunchalik metin tosh bo'lsa!

Tamannoning muhabbati va erga berishdagi «tadbir»-larni eslaganda otasining sirli g'ordek qora ko'nglini nur tushib yoritgandek bo'ldi. Yumshoq supurgidan chang, qattig'idan tovush chiqadi, dedi-yu, otasi bilan ochiq gaplashishga qaror qildi. Qabristondan qaytgach, Ummatali o'zlari tushgan mehmonxonaga shuncha taklif etsa ham, kirmadi. Uning birov bilan boshqa bir mavzuda gapla-

shadigan holi yo'q edi. Unga zarur ishi borligini bahona qilib uyiga chopdi. Eshikdan kirishi bilan otasini surishtirdi. O'z xonasida ekanini aytishdi. Hatto uning avzoyini ko'rgan Tamanno: «Tinchlikmi, aka?» deb ko'zi ola-kula bo'ldi. Homiladorlik «yoqmagan» Tamanno ancha so'lib tushgan, ma'yus ko'zlari bilan akasining orqasidan boqib qoldi.

Abulbaraka otasining xonasiga kirib borganda Hoji gilamjoynamoz ustida namozdan keyin qahrabo tasbeh o'g'irib o'tirardi. O'g'li kirganini ko'rgan bo'lsa ham tilovatini ma'lum yerga yetkazib qo'ymaguncha unga qaramadi. Keyin yuziga fотиha tortib, o'rnidan turdi. Avzoyi buzuq o'g'liga qarab yurayotib, yuragi orqasiga tortib ketdi. O'g'lini hech mahal bunaqa ko'rmagan edi: na salom bor, na alik. Bir ko'zi pирpirab uchadi, labida ham sezilar-sezilmas titroq bor.

– Nima gap, o'g'lim? O'zi tinchlikmi? Abulbaraka cho'zib o'tirmasdan birdan boshladi:

– Rostini ayting-chi, dada, oyimning o'lgani chinmi?

Hoji hech qachon berilishini kutmagan bu mushkul savol unga nima gapligini darrov anglatgan bo'lsa ham, turmush achchiq-chuchugini ko'raverib pishib ketgan odamdek zumda o'zini bosib, og'ir javob qildi:

– Biz yo'lga chiqqanda, esingda bo'lsa kerak, uyda qolgan edi. Sog'-salomat edi. To mendan odam borguncha GPU qamoqqa olib, allaqayoqqa surgun qilib yuboribdi. O'sha yerda qazosi yetibdi.

– O'sha yuborgan odamingiz shu gapni topib keldimi?

– U ham, keyin ishonchli bir odamdan ham eshitdim. To'g'ri, u qazosini aytgani yo'q.

– Hammasi yolg'on!

– Qanaqa qilib yolg'on bo'ladi. Kap-katta odamlar imonini yutadimi? – vazminlik bilan rad etdi Hoji.

– Yolg'on bo'lsa-chi?

– Unda o‘ziga jabr, imoni kuyadi. Muncha surishtirib qolding? Nima gap o‘zi? Bir narsa eshitdingmi?

– Ha. Aniq odamdan eshitdim. Kerak bo‘lsa yuzma-yuz qi Aman. Shuncha qildim bu yoqqa kelmadi.

To‘g‘risi, zo‘rlab olib kelgani uyaldim: dadasining yashagan – jon bergan kulbasini ko‘rsa, bizga rahmat aytmaydi.

– Qurbonalining o‘g‘lini ko‘rdingmi? – darrov topdi Hoji. Nima uchundir rangi quv o‘chib ketdi.

– Bu yoqda nima qilib adashib yuribdi?

– Adashib emas, siz basharasiga qora surtib kelgan mamlakatning vakili bo‘lib yuribdi. Hoji yaxshi tushunmasdan: «Chorig‘ini sudrab yurgan bu qashshoq bolasi qanaqa qilib arbob bo‘lib qoldi, degandek yelkasini qisgan edi, Abulbaraka ikki og‘iz so‘z bilan uni xotirjam qildi.

– Ha, ajablanishingiz mumkin! «Faqat men o‘g‘limni Parijga yuborib o‘qitdim» demay qo‘ya qoling. U yerdagilar ham kesak tepib, tuproq changitib yurgani yo‘q. Bitta tirik yetimchaning shunday ma‘lumot olgandan keyin u yog‘ini bilishingiz qiyin emas... Men endi hammasini bilaman: onam hayot, uni hech kim yo‘qlab bormagan. Uning ko‘zi hamon yo‘lda.

– Yo‘g‘-e, Abulbaraka, – o‘z yolg‘oni ochilganidan endi shoshinqiradi Hoji. Lekin darrov andavaladi. – Odam yuborganim rost. Tepamda xudo turibdi!!!

– Qasam ichmang, foydasi yo‘q! Qasam bilan-gina ish bitsa, yaxshi edi. Afsus... Ayting-chi, nima uchun bitta meni o‘zingiz bilan birga olib, onam va uchta opamni tashlab keldingiz, to‘g‘risi, aldab qochdingiz? Qiz odammasmi! Onam ortiqchamidi?

Hojining boshi xam bo‘ldi. Tili gapdan qoldi. Anchadan keyin sinq ovoz bilan shu g‘azalni o‘qidi:

Atodan xato kelsa, ko‘rma xato.

Savob bil xato qilsa dog‘i ato

*Atongning xatosini bilgil savob,
Seni yuz balodan kutarg'ay xudo!*

Bu Hojining o'kinchi va uzri edi.

Abulbaraka bunday nasihatlar bilan ovunadigan kayfiyatda emas edi. O'rnidan turib eshikka qarab yurdi. Hoji shu lahzadan boshlab o'zidan uzoqlashib borayotgan o'g'lidan butunlay ajralganiga ishondi, ko'ziga yosh chiqdi.

Uch kun o'tgach, bu xonadonda sodir bo'lgan qonli fojia uni yer tishlatdi. Tamannoni birdan dard tutdi. Butun xonadon oyoqqa turdi. Mo'ljaldagi doktor olib kelindi.

Vaqtdan avval tug'ilgan bola o'lik tushdi. Tamanning ahvoli og'ir edi. Bu kutilmagan holdan girdikapalak bo'lib qolgan Hoji hozirgina qo'lini yuvib, endi oppoq sochiqqa g'amgin artayotgan doktorga:

– Nima gap o'zi, doktor? – dedi.

Kechadan beri Tamanno boshida qiynalib ketgan doktor avvaliga nima deyishini bilmagan kishidek xijolat tortib turdi, keyin asta javob qildi:

– Aytishga majburman, Hoji. Bola tug'ilgani yo'q, bola irib tushdi.

– Nima?

– Ha, shunday, – doktor yana takrorladi. – Bola zahmdan irib tushdi. Ona organizmi ham shikastlangan.

– Yo, tavba! Bu ne balo! Qayoqdan?

Doktor javob berishdan iymanib turar ekan, Abulbaraka lo'nda qildi-qo'ydi:

– Qayoqdan bo'lardi, arzanda kuyovingizdan o'tadida!!

Avval Saidakbar hojining qo'lidagi chetiga g'azal yozilgan piyola yerga tushib chil-chil sindi, keyin o'zi behush yiqildi.

Doktorlar ko'rib infarkt, og'ir infarkt deyishdi.

SHUHRAT

JANNAT QIDIRGANLAR

Muharrir *SH. Odilov*

Musahhih *D. Boymirzayeva*

Texnik muharrir *Ye. Sibayeva*

Sahifalovchi *K. Xamidullayeva*

«ZUKKO KITOBXON» nashriyoti.

Tasdiqnoma № 7069. 22.10.2020 y.

Toshkent shahar, Olmazor tumani, Langar ko'chasi, 78-uy.

Bosishga 2021 yil 2-febralda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108^{1/32}. Ofset qog'ozı.

«Anal» garniturası. Nashr tabog'ı 18.83.

Shartli bosma tabog'ı 23.52. Adadi 3000 nıxa.

Buyurtma №63

Shuhrat

Jannat qidirganlar : roman / Shuhrat. – Toshkent:
«ZUKKO KITOBXON» nashriyoti, 2021. – 448 b.

UO'K 821.512.133-3
KBK 84(50)'6

21. 250c



Shuhrat

**JANNAT
QIDIRGANLAR**

ISBN 978-9943-52951



9 789943 52951